O‘ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH NAZARIYASI VA AMALIYOTI

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

O‘ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH NAZARIYASI VA AMALIYOTI

Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun
o‘quv qo‘llanma

Siyosiy fanlar doktori, professor
M.Qirg‘izboevning umumiy
tahriri ostida

Toshkent
«Navro‘z» nashriyoti
2014

KBK 80.12 (5O'zb)4
M40
UO'K:168.10.2

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. O'quv qo'llanma./ M.Qirg'izboev umumiy tahriri ostida. Andijon davlat universiteti. — Toshkent: «Navro'z» nashriyoti, 2014. — 400 b.

O'quv qo'llanmada mamlakat oliy o'quv yurtlarida o'qitilayotgan O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti faniga doir bilimlar va masalalar joy olgan. Shuningdek, unda O'zbekistonda mustaqillik davrida demokratik jamiyat qurish islohotlari, bu jarayonning rivojlangan mamlakatlar bilan qiyosi tahlil etiladi. Qo'llanmada davlatning bosh islohotchi sifatida bozor iqtisodiyotiga o'tish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirishga doir islohotlari, bu jarayonda shakllangan milliy tajriba, demokratik jamiyat qurishga doir nazariy qarashlar tahlili berilgan.

Umuman, qo'llanmada O'zbekistonning dunyodagi rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirishi uchun amalga oshirilayotgan islohotlarga doir bilimlar mujassamlashgan.

Qo'llanma oliy o'quv yurtlari bakalavr yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan.

Mualliflar jamoasi:

S.f.d., prof. **M.Qirg'izboev** – Kirish, 1,2,3,4,5-mavzular; t.f.n. **O. Ahmadjonov, F.Nurdinova** – 6-mavzu; yu.f.n. **T.Madumarov** – 7-mavzu; t.f.n., dots. **O'.Ubaydullayev, Q.Ahmadjonov** – 8-mavzu; **A.Egamberdiyev, X.Xodjamberdiyev** – 9-mavzu; **F.Isaqova, M.Radjapova** – 10-mavzu; **M.Qoriyeva** – 11-mavzu; **A.Badalov, Yu.Jahongirov** – 12-mavzu; s.f.d. **K.Yunusov** – 13-mavzu; t.f.n.,dots. **G.Umarova** – 14-mavzu; s.f.d., prof. **M.Qirg'izboev, Z.Hayitmatov** – 15-mavzu; s.f.n. **I.Masharipov** – 16-mavzu; t.f.n., dots. **O.Komilov, H.Husanov** – 17-mavzu; **M.Qorieva** – 18-mavzu; **O.Yuldashev** – Xulosa va Glossariy.

Taqrizchilar:

N.Q.Jo'raev – siyosiy fanlar doktori, professor
F.Ravshanov – siyosiy fanlar doktori

Mazkur o'quv qo'llanma Andijon davlat universiteti Ilmiy kengashining qaroriga (2014-yil 30-iyun, 12-yig'ilish bayonnomasi) binoan nashrga tavsiya etildi.

22418/1

ISBN 978-9943-381-55-1 © «Navro'z» nashriyoti, 2014-y.

MUNDARIJA

Kirish.....4

I bo'lim. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va uning rivojlanishi

1-mavzu: «O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» fanining predmeti, obyekti, maqsad va vazifalari.....7

2-mavzu: Demokratik jamiyat to'g'risidagi dastlabki qarashlar va uning rivojlanish bosqichlari.....23

3-mavzu: Fuqarolik jamiyatiga doir zamonaviy qarashlar va ularning rivojlanishi.....42

4-mavzu: Mustaqillik va demokratik jamiyat qurishning «O'zbek modeli».....61

5-mavzu: O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishda o'tish davri va taraqqiyot bosqichlari.....79

6-mavzu: O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning milliy va umuminsoniy demokratik tamoyillari.....101

II bo'lim. O'zbekistonda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi, demokratik asoslari va amaliyoti

7-mavzu: Qonun ustuvorligi — huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishning asosi.....116

8-mavzu: Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish..136

9-mavzu: Mahalliy davlat hokimiyati organlarining demokratiyalashuvi.155

10-mavzu: Fuqaro erkinligi, huquq va manfaatlari ustuvorligini ta'minlash.....169

11-mavzu: Demokratik bozor islohotlari va iqtisodiyotni liberallashtirish.....189

12-mavzu: Demokratik jamiyat qurishda kuchli ijtimoiy himoya va adolat tamoyillari.....211

13-mavzu: Fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish.....229

14-mavzu: Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish institutlarining demokratiyalashuvi.....247

15-mavzu: O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va rivojlanishi.....267

16-mavzu: Axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash.....287

17-mavzu: O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorligida demokratik tamoyillarga asoslanishi.....306

18-mavzu: O'zbekistonning jahon iqtisodiyoti integratsiyasiga kirish jarayoni.....327

Xulosa.....344

Glossariy.....347

Adabiyotlar.....361

Foydalanilgan manbalarga oid izohlar ko'rsatkichi.....377

KIRISH

«Faqatgina biz tanlagan bosqichma-bosqich, tadrijiy rivojlanish yo'li xalqimiz ko'zlagan ezgu niyatlarga erishishga, zamonaviy demokratik talablarga javob beradigan davlat, inson manfaatlari, huquq va erkinliklari eng oliy qadriyat bo'lgan, qonun ustuvorligini ta'minlaydigan jamiyat barpo etishga olib kelishi muqarrar».

Islom Karimov

1991-yil 31-avgustda o'z davlat mustaqilligini e'lon qilgan O'zbekiston oldingi totalitar jamiyat – sotsialistik jamiyatdan demokratik jamiyatga o'tish yo'lini tutdi. Shu bilan birga, Prezident I.A.Karimov mamlakatda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishni asosiy strategik pirovard maqsad sifatida e'lon qilishi bilan jamiyat butunlay yangi rivojlanish yo'liga kirdi. Davlat siyosati va jamiyat taraqqiyotining asosiy ustuvor yo'nalishlari insonga, uning farovonligi va erkinligiga qaratila boshlandi. O'zbekiston ilgari o'z tarixida sinab ko'rmagan, rivojlangan mamlakatlarga xos bo'lgan rivojlanish yo'liga kirdi.

Mamlakatda nafaqat davlatning siyosiy tizimi, jamiyatning mazmun-mohiyati o'zgara boshladi, balki xalqimiz ongi va turmush tarzida ham yangi bir davr boshlandi. Fuqarolar dunyoqarashida demokratik qadriyatlar, shu bilan birga, o'zaro uyg'un holda milliy va umuminsoniy qadriyatlar yuksala boshladi. Mustaqillik davrida eski mafkura va qarashlardan butunlay xoli bo'lgan yosh avlod shakllandi. Ular hayotida shiddat bilan olg'a intilish, o'z taqdirini Vatan taqdiri bilan bog'liq holda tasavvur etish kabi yangilanishlar boshlandi. Shiddat bilan o'zgarib borayotgan bu jarayon haqida Prezident I.A.Karimov quyidagi fikrlarni bildiradi: «Bugun insonning o'zi o'zgarmoqda, uning grajdanlik va siyosiy ongi, huquqiy madaniyati o'smoqda. Biz kommunistik mafkura asoratlaridan, boqimandalik kayfiyatidan, turli soxta qoliplardan to'la xalos bo'lib bormoqdamiz. Mustaqil

fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarga ega, hayotga yangicha qaraydigan, sobiq mustabid tuzumga xos tushunchalardan ozod bo'lib voyaga yetayotgan, o'z fikri va qarashlariga ega bo'lgan navqiron yoshlarimiz hayotga ishonch bilan kirib kelmoqda, jamiyatimizda mustahkam o'rin olmoqda va mamlakatimizning taraqqiyoti yo'lida hal qiluvchi kuchga aylanmoqda.

Hayotimizda amalga oshirilayotgan bunday o'zgarishlar avvalo nimani anglatadi? ... Bu amaliy ishlar avvalambor mamlakatimizda zamonaviy demokratik jamiyat qaror topayotgani va izchil rivojlanayotganidan, aholining hayot darajasi va sifatining yuksalib borishiga zamin bo'layotgan iqtisodiyotimizning barqaror sur'atlar bilan o'sayotganidan, O'zbekistonimizning xalqaro maydondagi obro'-e'tibori tobora ortib borayotganidan darak beradi»[1].

Ko'rinib turibdiki, hozirgi fuqarolik jamiyati qurish sharoitida yoshlarni islohotlarda faol ishtirok etishlari va o'z dunyoqarashlarini zamonaviy yangi jamiyat qurishga doir nazariyalar bilan boyitishlari eng dolzarb vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda.

Hozirgi davrning o'zi hayot kun tartibiga qo'yayotgan vazifalardan kelib chiqib mazkur fan talabalarga fuqarolik jamiyati qurishning «O'zbek modeli» milliy tajribasi va uning istiqbollari to'g'risida bilimlar beradi. Shuningdek, unda rivojlangan mamlakatlarda fuqarolik jamiyati qurish tajribasi ham o'rganilib, ular O'zbekistondagi voqeliklar bilan qiyoslanadi. Fanni o'qitish jarayonida mustaqillik davrida mamlakatda demokratik jamiyat qurish islohotlarining borishi, bu yo'ldagi muammolar, ularni bartaraf etish yo'l-yo'riqlari ham tahlil etiladi.

Fanni o'qitishda asosiy e'tibor talabalarning erkin fikrlashi, ularning jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlarga nisbatan mustaqil munosabatlarini shakllantirishga qaratiladi. Fanning yana bir asosiy maqsadlaridan biri — bu yoshlarda Vatanparvarlik tuyg'ularini yuksaltirish, ularning Vatanga sadoqati, yangi jamiyat qurishda ishtirok etishga moyilligini oshirish kabi jihatlarga ham muhim e'tibor berishdir.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fani fuqarolik jamiyati qurish nazariyasi va amaliyotini «Siyosatshunoslik», «Falsafa», «Huquqshunoslik», «O'zbekiston tarixi», «Sotsiologiya», «Iqtisodiyot», «Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar» kabi ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan uzviy o'zaro aloqadorlikda o'rganadi va bu jarayonda u fanlarning qonuniyatlariga ham tayangan holda o'qitiladi. Mazkur fanning

o‘ziga xos bo‘lgan o‘rganish obyekti, predmeti, tushunchalari va boshqa xususiyatlarining mavjudligi talabalarda mamlakatda yangi jamiyat qurishga doir yangi tasavvurlar hosil qilishga ko‘maklashadi, ularda muayyan yangi bilimlar va ko‘nikmalar hosil qilishni nazarda tutadi.

Albatta, qo‘llanma butunlay yangi nazariy ishlanmalardan iborat emas. Unda ijtimoiy-siyosiy fanlarni shakllantirishga hissa qo‘shgan klassik olimlarning asarlariga nisbatan yangi davr nuqtai nazaridan murojaat qilindi. Rivojlangan mamlakatlarning fuqarolik jamiyati qurish tajribasini yoshlarga yetkazishga muhim ahamiyat berildi. Xullas, o‘quv qo‘llanmalariga nisbatan davlat standartlari asosida qo‘yilgan talablar, hozirgi davr talabasi ehtiyojlari va uning fanni o‘zlashtirish qobiliyati darajasi e’tiborga olindi. Shuningdek, mamlakat olimlari tomonidan mustaqillik davrida nashr etilgan, ijtimoiy-gumanitar fanlarga oid qo‘llanmalar va darsliklar o‘rganilib, ulardan tegishli xulosalar chiqarildi.

Umuman, qo‘llanmani yozishda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan 2011-yil 17-sentabrdagi 392-sonli buyruq bilan tasdiqlangan «O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» fanidan namunaviy dastur (bakalavr yo‘nalishi uchun) asos qilib olindi.

Keyingi o‘n yillikda O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanini o‘qitish bo‘yicha muayyan milliy tajribalar to‘plandi. Shu bilan birga, mazkur fan hali yosh bo‘lganligi uchun ham kelajakda u yanada boyitib va to‘ldirilib boriladi.

Biz barcha mazkur qo‘llanma bilan tanishgan kitobxonlardan uning keyingi nashrida e’tiborga olish uchun o‘z fikr-mulohazalari, takliflari va tavsiyalarini Andijon davlat universitetining O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti kafedrasiga bildirishlarini iltimos qilamiz.

I BO'LIM.
O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH NAZARIYASI VA UNING RIVOJLANISHI

1-mavzu: O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH NAZARIYASI VA AMALIYOTI FANINING PREDMETI, OBYEKTI, MAQSADI VA VAZIFALARI

1. Fanning predmeti va obyekti.
2. Fanning asosiy tushunchalari va uning o'ziga xosligi.
3. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning muhim shartlari.
4. Huquqiy davlat.
5. Fanning vazifalari va uni o'rganishning ahamiyati.

1. Fanning predmeti va obyekti

Insoniyat tomonidan yaratilgan har bir fanning o'z predmeti, maqsad va vazifalari mavjuddir. Chunki, har bir fan tabiat, jamiyat, shuningdek, yer kurrasidagi ma'lum bir soha yoki yo'nalishlarni inson idroki salohiyati darajasida tadqiq etadi, olingan natijalarni jamiyat rivoji va barqarorligini ta'minlash uchun taqdim etadi. Shuning uchun ham har bir fan o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarga egadir. Jumladan, O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fani ham o'ziga xos bo'lgan predmet, maqsad va vazifalarga egadir.

Mazkur kursning predmeti O'zbekistonda davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi, mamlakatda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish islohotlarining boshlanganligi va ularni tobora chuqurlashib borayotganligi bilan uzviy ravishda bog'liqdir. Mamlakatda yangi demokratik milliy davlatni barpo etishga monand ravishda fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirishga doir islohotlarni bosqichma-bosqich ravishda amalga oshishi natijasida butunlay yangi siyosiy tizim shakllandi, demokratik xarakter kasb etadigan siyosiy institutlar rivojlanib bormoqda, fuqarolik jamiyati institutlari — o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlarning miqdori oshib bormoqda. Qolaversa, islohotlarning chuqurlashib borishi natijasida rivojlanishning yangi «O'zbek modeli» shakllanib, uni jahon hamjamiyati e'tirof etmoqda. Mamlakat iqtisodiyoti

oldingi ittifoq davrida mutlaqo uchramagan bozor iqtisodiyoti munosabatlari asosida rivojlanib bormoqda. Bu holat jamiyatning barcha institutlariga, fuqarolarning dunyoqarashiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, O'zbekistonda demokratik prinsiplar asosida rivojlanib borayotgan fuqarolik jamiyatining «O'zbek modeli»ga xos jihatlari ham shakllandiki, ular o'zining milliy shakllari bilan rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida shakllangan jamiyatlardan farqlanadigan jihatlarini ham namoyon etmoqda. Boshqacha aytganda, O'zbekistonda rivojlanayotgan fuqarolik jamiyati institutlari ham milliy tajriba, ham rivojlangan mamlakatlar tajribasi uyg'unligi asosida shakllanib bormoqda. Albatta, yuqorida ko'rsatilgan jarayonlarni o'rganish, ilmiy jihatdan tadqiq etish, yosh avlodni demokratik qadriyatlar asosida shakllantirish, fuqarolarni, xususan yoshlarni fuqarolik jamiyati qurishga doir islohotlarda faol ishtirokini ta'minlashga oid yangidan yangi muammolar va vazifalarning paydo bo'lishi oliy ta'lim tizimining bakalavr bosqichida O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanini o'qitish zaruratini hayot kun tartibiga qo'ydi.

Umuman olganda, O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanini oliy ta'lim tizimining bakalavr bosqichida o'qitilish zarurati quyidagi omillarning mavjudligi bilan bog'liqdir:

1. O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida jahon hamjamiyatidan o'ziga munosib o'rinni egallashi. Ilgari mayda davlatlarga bo'linib yashagan, deyarli 126 yil o'z boshidan mustamlakachilik zulmini kechirgan O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida jahon xaritasida paydo bo'lishi olamshumul tarixiy ahamiyat kasb etadigan voqelik edi.

Albatta, davlat mustaqilligi uchun kurash silliq kechgani yoki o'z-o'zidan ro'y bergani yo'q. XX asrning 80-yillari ikkinchi yarmida I.A.Karimovning davlat rahbari bo'lib kelishi, uning boshchiligida markaz bilan davomli kurashlar natijasi o'laroq, respublikada ro'y bergan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy inqirozlarning oldini olish uchun fidoyilarcha mashaqqatli mehnatlar evaziga, shuningdek xalqimizning xohish-irodasi asosida qo'lga kiritilgan mustaqillik O'zbekiston Respublikasining suveren davlat sifatida qad ko'tarishini ta'minladi.

O'zbekiston xalqining ko'p yillik orzusi – davlat mustaqilligini qo'lga kiritish, uning iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy rivojlanish

salohiyatini yaratish, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini ishlab chiqish jarayoniga Prezident I.A.Karimov boshchilik qildi. Ayniqsa, uning mustaqillik arafasidagi inqirozli holatlarni bartaraf etish, xalqni o'zaro nizolar va urushlardan asrash, yangi milliy davlat va demokratik jamiyat asoslarini yaratish sohasidagi xizmatlari beqiyosdir. Ana shu davr — O'zbekistonning mustaqillikka erishishi, Prezident I.A.Karimov tomonidan yangi jamiyat va davlatni shakllantirish konsepsiyasini amalga oshirish jarayonini yosh avlodga o'qitish O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanining predmetini tashkil etadi.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti asosida fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishni asosiy strategik pirovard maqsad sifatida e'lon qilinishi, unga doir ulug'vor konsepsiyalarni amalga oshirilishi natijasida mamlakat qiyofasining tubdan o'zgarishi, rivojlangan mamlakatlarga xos bo'lgan rivojlanish odimlarining ro'y berishi, fuqarolar dunyoqarashida demokratik qadriyatlarning joy ola boshlashi, yangidan yangi fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishi, milliy parlament va ijroiya hokimiyatining demokratik prinsiplar asosida faoliyat yurita boshlashi O'zbekistonda yangi ijtimoiy-siyosiy tuzum qaror topganligini ifodalay boshladi. Davlatimiz Prezidentlik Respublikasiga aylandi.

«Kuchli davlatdan — kuchli fuqarolik jamiyati sari» tamoyili asosida «O'zbek modeli»ga muvofiq ro'y bergan bu o'zgarishlarning nazariy va amaliy jihatlari haqida bilimlar berish, biz qurayotgan fuqarolik jamiyatining nazariy jihatlarini yoshlarga yetkazish O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanining yana bir predmetini tashkil etadi.

3. Mamlakat iqtisodiyotida ham tub o'zgarishlar amalga oshirildi. Ko'p ukladli iqtisodiyotga o'tildi. Tarixda birinchi marta xususiy mulkchilik qonunlashtirildi. Jamiyatning iqtisodiy asosi bo'lgan — kichik va o'rta biznesni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'rta mulkdorlar ijtimoiy qatlamining shakllanishi uchun barcha huquqiy va ijtimoiy asoslar yaratildi. Mamlakatda tezlik bilan bozor iqtisodiyoti munosabatlari, uning zamonaviy infratuzilmasi shakllana boshladi. O'tish davri qiyinchiliklarini bartaraf etish maqsadida davlatning kuchli ijtimoiy siyosat olib borishi belgilandi. Qisqa davr ichida fuqarolik jamiyatining iqtisodiy asosi — fermerlar va tadbirkorlar sinfi

shakllanib, ular mamlakatda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning deyarli uchdan ikki qismini ishlab chiqara boshladi.

Mamlakat iqtisodiyotining rivojlangan mamlakatlarga xos ravishda taraqqiy eta boshlashi, jahon moliyaviy va iqtisodiy inqirozi sharoitida ham yalpi ichki mahsulotning yiliga o'rtacha 8 – 8,3 foizdan o'sib borayotganligi rivojlanayotgan fuqarolik jamiyatining mustahkamlanishiga ham kuchli ta'sir ko'rsatdi. Nodavlat notijorat tashkilotlar, o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlarining iqtisodiy va yashash salohiyati o'sa boshladi. Yurtimizda zamonaviy obodonchilik avj oldi. Zamonaviy sanoat ishlab chiqarishning yangi sohalari yaratildi. Ozod va obod Vatan qurishga doir islohotlar tobora chuqurlasha boshladi. Qishloqning ijtimoiy qiyofasi butunlay o'zgardi. Fuqarolar yangi jamiyatga xos bo'lgan huquqiy va siyosiy madaniyatni o'zlashtira boshladi. Ana shu ro'y bergan o'zgarishlar va uning istiqbollariga doir nazariy jihatlarni o'qitish O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanining predmetlaridan birini tashkil etadi.

4. Xalqimizning milliy, madaniy-ma'naviy tiklanishi, millatimizning rivojlanishi bilan bog'liq jihatlar ham mislsiz darajada rivojlandi. Vatanimiz hududida yashab o'tgan barcha allomalarning nomlari tiklandi, ular qoldirgan ilmiy va madaniy meros qaytadan nashr etildi, jamiyatimiz nafaqat zamonaviy modernizatsiyalash tajribalari asosida, balki buyuk mutafakkirlarimiz qoldirgan milliy merosdan unumli foydalangan holda rivojlana boshladi. Milliy ma'naviy merosni tiklash, jamiyat ma'naviy hayotini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'ldi. Xalqimiz o'z taqdirini o'zi belgilay oladigan salohiyatga erishdi. Milliy qadriyatlarimizning tiklanishi jamiyatga sermazmun va maftunkor jihatlar bag'ishladi. Bu sohada qabul qilingan dasturlarni amalga oshirish jamiyatimizning yaratuvchanlik va ijodkorlik jihatlarini shakllantirdi. Prezident I.A.Karimovning ta'kidlashicha, «ushbu dasturlar, birinchi navbatda, qayta tiklanayotgan merosga farqlab yondashishga, eng muhimi, umuminsoniy qadriyatlarimizni boyitadigan hamda jamiyatimizni demokratiyalash va yangilash talablariga javob beradigan, axloq jihatdan ahamiyatli an'analarni, urf-odatlarini tanlab olish zaruriyatiga asoslangan edi».

Jamiyatimizning ma'naviy hayotidagi tub sifat o'zgarishlarni sinchiklab anglab olish O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish jarayonini ilmiy asoslab berishda katta ahamiyat kasb etadi. Albatta,

jamiyatimizda ro'y berayotgan madaniy, ma'naviy va boshqa milliy tiklanishga doir sohalarning rivojlanib borishini nazariy jihatlardan tahlil etish va ularni yoshlar dunyoqarashiga singdirish O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fani predmetlaridan biridir.

5. O'zbekistonning jahon integratsiyasiga kirib borishi, davlatimizning milliy manfaatlarga va teng huquqli munosabatlarga asoslangan tashqi siyosati demokratik tamoyillar asosida shakllandi va rivojlanib bormoqda. Prezident I.A.Karimov aytib o'tganidek, O'zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan ko'p tomonlama faol tashqi siyosatni amalga oshirish — davlatimizning mustaqilligini mustahkamlash, iqtisodiy qiyinchiliklarni bartaraf etish va xalq turmushini yaxshilashning zarur sharti va g'oyat muhim vositalaridan biridir. Shuning uchun ham davlatimiz o'zining tashqi siyosatida jahon hamjamiyatidan o'ziga munosib o'rin olishga, jahon integratsiyasining teng huquqli a'zosi bo'lishga intilmoqda va bu yo'lda milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda siyosat olib bormoqda.

Mamlakatimizning tashqi siyosatini nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish, uning fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi o'rniga doir bilimlar berish O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fani predmetlaridan biridir.

Mazkur fanning **obyekti** esa mustaqillik davrida O'zbekistonda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish jarayonida davlatning bosh islohotchi sifatidagi faoliyati va fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanish hamda rivojlanish bosqichlaridan iboratdir.

Fan amal qiladigan qonuniyatlar: Boshqa barcha fanlar kabi O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanining ham o'ziga xos qonuniyatlari mavjuddir. Ma'lumki, qonuniyatlar — bu ma'lum hodisalarning mohiyatini ifodalovchi barqaror aloqalarga amal qilish, demakdir. Insonlar rivojlanishga doir turli qonuniyatlar o'rnatib, ular asosida o'zaro munosabatlarni amalga oshiradi. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanining **qonuniyatlari** asosan demokratik tuzum va fuqarolik jamiyati qurish prinsiplari hamda unga doir nazariy ishlanmalar, Prezident I.A.Karimovning mamlakatda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishning besh tamoyilidan iboratdir. Shuningdek, hozirgi davrda rivojlangan mamlakatlarda sinovlardan o'tgan fuqarolik jamiyati qurish tajribasi natijasida shakllangan jamiyatni demokratlashtirish qoidalari ham qonuniyatlar

sifatida e'tirof etiladi. Umuman olganda, O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fani qonuniyatlari sifatida fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishning zamonaviy nazariyasi va prinsiplari, O'zbekistonda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishning «O'zbek modeli» va uning tamoyillaridan biri — «Kuchli davlatdan — kuchli fuqarolik jamiyati sari» tamoyillari e'tirof etiladi.

Umuman, O'zbekistonda "Demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fani amal qiladigan ijtimoiy-siyosiy rivojlanish qonuniyatlari Prezident I.A.Karimovning quyidagi fikrlarida mujassamlashgan: «Butun davlat hokimiyati organlari ishining samaradorligini saqlab qolgan holda hokimiyat vakolatlarini markaz ixtiyoridan soqit qilish, bu vakolatlarning bir qismini markazdan mintaqalarga, mahalliy hokimiyat organlariga olib berish yo'llarini izlab topish zaruratga aylanib bormoqda.

O'z navbatida, davlat hokimiyati mahalliy organlari yangi sharoitlarda o'z hokimiyat vakolatlari hamda vazifalarining bir qismini fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish mahalliy organlariga topshirish yo'li bilan ularning rolini kuchaytirish va obro'-e'tiborini mustahkamlash imkoniyatlarini belgilab olishlari lozim.

Islohotlarning dastlabki bosqichida davlatning faol roli asosiy vakolatlar davlatning va eng avvalo, ijro etuvchi hokimiyatning ixtiyorida bo'lishini taqozo etadi. Demokratik o'zgarishlarning hozirgi bosqichi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning uzoq vaqtga mo'ljallangan strategiyasini ishlab chiqishni talab qilmoqda. Bunda davlatning roli demokratik taraqqiyotimizning pirovard maqsadi — fuqarolik jamiyati barpo etish maqsadiga asoslangan holda tubdan o'zgarishi darkor. Biz bunda kuchli markaziy davlat hokimiyati o'zining kuch-g'ayratlarini asosiy, umummilliy vazifalarga, chunonchi, mudofaa, davlat xavfsizligi va fuqarolar xavfsizligi, tashqi siyosat, valuta-moliya hamda soliq tizimlarini shakllantirish, qonunlar qabul qilish va taraqqiyotning boshqa strategik vazifalariga qaratadigan davlat ijtimoiy qurilish tizimini barpo etishimiz lozim. Boshqa masalalarni hal qilish esa asta-sekin markazdan joylarga, davlat hokimiyati organlaridan jamoat tashkilotlariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga topshirilmog'i kerak.

Bu davlatchilikni shakllantirish va rivojlantirish sohasidagi strategik vazifamizdir. U biz tanlab olgan jamiyatning demokratik rivojlantirish yo'liga asoslanadi»[2].

2. Fanning asosiy tushunchalari va uning o'ziga xosligi

Demokratik qonuniyatlarni chuqur anglash uchun «demokratiya» tushunchasini bilishga zarurat tug'iladi. O'z davrida Aristotel demokratiyani quyidagicha ta'riflagan edi: «Demokratiyaning birinchi ko'rinishining xarakterli belgisi bo'lib tenglik xizmat qiladi. Bu demokratiyaning asosiy qonuniga muvofiq tenglik shundan iboratki, mulksizlar ham, mulkdorlar ham hech narsada biron-bir imtiyozlarga ega emaslar; oliy hokimiyat unisi yoki bunisining qo'lida to'planmagan. Shu bilan birga, har ikkalasi — ular ham va boshqalari ham o'zaro tengdirlar. Agar ba'zilar erkinlik va tenglik demokratiyaning muhim belgilari, deb bilsalar, bu holat albatta o'z amaliyotini asosan hammaning davlat boshqaruvida ishtirok etishida ifodalaydi. Xalq demokratiyada ko'pchilikni tashkil etishi sababli, ko'pchilikning qarori hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bu kabi davlat tuzilishi demokratiya deb ataladi».

Ma'lumki, demokratiya tom ma'nodagi mafkura emas, balki ma'lum siyosiy tizimni tasvirlab beruvchi hodisa hisoblanadi. Demokratiya turli mafkuralar tomonidan ham qabul qilinadi. «Demokratiya», ya'ni «xalq hokimiyati» atamasi muhim masalalarni yechishda barcha aholining bevosita ovoz berishi bilan hal qilingan qadimgi Afinaning o'zini o'zi boshqaruv tizimi nomidan kelib chiqdi. Hozirgi davrda liberalizm, konservatizm, sotsializm, millatchilik, fashizm, anarxizm kabi har bir mafkuraviy oqimlar o'z demokratik konsepsiyalarini «haqiqiy» demokratizm deb e'lon qilmoqdalar. Demokratiya maqsad sifatida individ mustaqilligi va uning umumiy manfaatlari ustunligini ta'minlaydi. U vosita sifatida esa nizolarni bartaraf etish, zo'ravonlikka chek qo'yish, turli ijtimoiy guruhlarga siyosiy ta'sir qilish yo'li bilan ularning murosaga kelishini, konsensusini ta'minlaydi.

Albatta, qadimgi antik davrdan boshlab mutafakkirlar o'zlari yashagan ijtimoiy-siyosiy muhit va davrdan kelib chiqib unga turlicha ta'riflar bergan. Ularning ilmiy merosiga asoslangan holda bu tushuncha yanada mukammallashib va samaradorlashib bordi. Hozirgi davrga kelib aksariyat jamiyatshunos olimlar hokimiyat funksiyalari va maqsadlari yoki uni amal qilish natijalariga muhim ahamiyat bergan holda funksional yondashuvlarni ko'proq e'tirof etmoqda. Bunday yondashuvga muvofiq demokratiya «ko'pchilikning irodasini ozchilik huquqlarini saqlagan holda bajarish», deb talqin etilmoqda. Shu asosda demokratik jamiyat

amal qilishi zarur bo'lgan qonuniyatlar sifatida demokratiyaning qator ustunlari qabul qilindi. Ular quyidagilardan iboratdir:

- Xalq hokimiyati;
- Fuqarolar roziligiga tayanuvchi hukumat;
- Ko'pchilikning ovozi qoidasi;
- Ozchilik huquqlarini himoya etish;
- Asosiy inson huquqlari kafolati;
- Erkin va adolatli saylovlar;
- Qonun oldida barchaning tengligi;
- Odil sud yuritish;
- Hukumat faoliyatining konstitutsiyaviy cheklanganligi;
- Ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy pluralizm;
- Tolerantlik, omilkorlik, hamkorlik, o'zaro kelishuv.

Shuningdek, faqat O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fani bilan bog'liq tushunchalar ham mavjuddir. Bu tushunchalar asosan mamlakatda mustaqillik davrida fuqarolik jamiyati qurish islohotlari natijasida paydo bo'ldi va shakllandi. Ular asosiy yo'nalishlar bo'yicha quyidagilardan iboratdir:

1. Nafaqat mazkur fanga, balki barcha ijtimoiy gumanitar fanlarga tegishli bo'lgan umumiy tushunchalar. Masalan: fuqarolik jamiyati, demokratiya, jamiyat, sivilizatsiya, erkinlik, huquq, qonun, madaniyat, taraqqiyot, nodavlat notijorat tashkilotlar, o'zini o'zi boshqarish organlari.

2. Mazkur fan qatorida barcha ijtimoiy-siyosiy fanlar bilan bog'liq tushunchalar: huquqiy davlat, xususiy mulk, fuqarolik jamiyati, siyosat, siyosiy hokimiyat, siyosiy tashkilotlar, siyosiy partiyalar, saylovlar, siyosiy tizim, siyosiy rejim, siyosiy pluralizm, siyosiy ong, siyosiy madaniyat.

3. Asosan O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fani bilan bog'liq bo'lgan tushunchalar: «O'zbekistonning o'ziga xos va mos taraqqiyot yo'li», «Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari», «O'zbek modeli», erkinlik, mustaqillik, demokratiya, qonun ustuvorligi, demokratik davlatchilik, demokratik jamiyat, demokratik jamiyat to'g'risidagi qarashlar, demokratik jamiyatning milliy-ma'naviy negizlari, milliy-ma'naviy qadriyatlar. O'zbekiston iqtisodiy hayotining erkin demokratiyalashuvi, ijtimoiy hayot va demokratiya, siyosiy hayotning demokratik tamoyillari, demokratik qadriyatlar, O'zbekistonda fuqarolik jamiyati qurilishi, Ozod va obod Vatan,

erkin va farovon hayot, O'zbekiston va jahon hamjamiyati, Milliy davlatchilik va demokratiya, kuchli ijtimoiy siyosat, mahalla, milliy o'zlikni anglash, jamiyat barqarorligi, xalqaro hamjamiyat, jamiyat xavfsizligi.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanini o'qitish jarayonida yana «vakillik demokratiyasi», «to'g'ridan to'g'ri demokratiya», «liberal demokratiya», «demokratiya va bozor iqtisodiyoti», «demokratiya sharoitida inson erkinligi va huquqlari», «boshqaruvni nomarkazlashtirish», «demokratiya va millatlararo munosabatlar», «saylovlar», «elektorat», «davlatni demokratik boshqarish», «demokratiyaning asosiy unsurlari» kabi tushunchalarning ishlatilishi tabiiy bir holdir. Chunki, bu kabi tushunchalar mazkur fanni jahonda fuqarolik jamiyati sharoitida yashayotgan yoki bu kabi jamiyat qurish islohotlarini olib borayotgan mamlakatlar bilan umumiylik xarakteri kasb etishini ta'minlaydi, qiyosiy tahlillar uchun qulayliklar yaratadi.

3. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning muhim shartlari

O'zbekistonda demokratik fuqarolik jamiyati qurishda ikki muhim tarixiy tajriba dasturilamal bo'lib xizmat qiladi. Ular quyidagilardan iborat:

Birinchisi, rivojlangan mamlakatlarda tarixiy sinovlardan o'tgan fuqarolik jamiyati qurish tajribasi va jahonda e'tirof etilgan demokratik tamoyillar;

Ikkinchisi, milliy tariximizda shakllangan, milliy-madaniy merosimizga mansub bo'lgan, o'zida milliy xususiyatlarni ifodalagan demokratik qadriyatlar.

Bu har ikkala tajriba bir-biri bilan o'zaro uyg'unlashishga moyil bo'lib, mamlakatda demokratik jamiyat qurishda mazkur har ikkala tajribaga amal qilinadi. Mazkur tajribalarni e'tirof etmaslik bir tomondan, islohotlarni umuminsoniy qadriyatlarga, ikkinchi tomondan, milliy qadriyatlarga zid kelishiga olib kelishi tabiiy bir holdir. Shuningdek, bu kabi holat nodemokratik rejimlarning kirib kelishiga, yoki milliy manfaatlarga yot bo'lgan tuzumning yana bosh ko'tarishiga sabab bo'lishi, mamlakatda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish strategiyasiga zid kelishi mumkin.

Mustaqillik davrida mamlakatda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatga xos bo'lgan yangi demokratik institutlar shakllandi.

Hozirgi davrda ular yanada demokratlashish va takomillashish jarayonini o'z boshidan kechirmoqda. Xususan, mustaqillik davrida quyidagi siyosiy va ijtimoiy institutlar shakllandi:

- ko'ppartiyaviylik asosida shakllanadigan ikki palatali parlament;
- xalq irodasi va parlamentdagi ko'pchilik irodasi asosida shakllanadigan hamda faoliyat yuritadigan ijroiya hokimiyat;
- jamiyatdagi turli ijtimoiy qatlamlar manfaatlari asosida faoliyat yuritishga qodir bo'lgan ko'ppartiyaviylik tizimi;
- qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatlarini demokratik prinsiplar asosida uchga bo'linishi va ularning bir-birlaridan o'zaro mas'uliyat asosida faoliyat yuritish tajribasi;
- jamiyat instituti sifatida nodavlat notijorat tashkilotlar;
- demokratik prinsiplar asosida faoliyat yuritadigan o'zini o'zi boshqarish organlari;
- o'zida pluralistik qarashlarni ifodalovchi mustaqil ommaviy axborot vositalari tizimi;
- hokimiyat organlari ustidan jamoatchilik nazorati olib borishning huquqiy asoslari va bu sohadagi dastlabki tajribalar;
- yangi fuqarolik jamiyatining iqtisodiy asoslari — xususiy mulkchilik va tadbirkorlik korxonalari, fermerlik xo'jaliklari.

Hozirgi davrga kelib mamlakatda fuqarolik jamiyatini rivojlangan mamlakatlar darajasida taraqqiy ettirish uchun har tomonlama shart-sharoitlar yaratildi. Mamlakatda 5300 dan ortiq nodavlat notijorat tashkilotlar, 4 ta siyosiy partiya, o'n mingga yaqin o'zini o'zi boshqarish organlari (ulardan 8200 ga yaqini mahallalar) faoliyat yuritayotganligi fikrimizning tasdig'idir.

Jamiyat siyosiy hayoti sohasini demokratlashtirish borasida davlatimiz tomonidan quyidagi muhim masalalarga alohida e'tibor berish belgilangan:

Birinchidan, mamlakatimiz siyosiy hayotining barcha sohalarini, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish. Bu jarayonda, avvalo, fuqarolarning siyosiy, iqtisodiy faolligini kuchaytirish va insonning o'z qobiliyatini to'la ro'yobga chiqarishi uchun tegishli shart-sharoit yaratish lozimligi.

Ikkinchidan, mamlakatimiz siyosiy hayotida haqiqiy ma'nodagi ko'ppartiyaviylik muhitining qaror topishi zarurligi, har bir partiya muayyan ijtimoiy qatlamga tayangan holda, ana shu toifa manfaatlarining himoyachisi sifatida o'zining aniq va ravshan harakat dasturiga ega bo'lishi kerakligi. Unda har qaysi

partiyaning maqsad va vazifalari, jamiyat taraqqiyoti borasidagi muqobil takliflari o'z ifodasini topishi lozimligi.

Uchinchidan, nodavlat tuzilmalar, hukumatga qarashli bo'lmagan va jamoat tashkilotlarining, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyatini yanada mustahkamlash va rivojlantirish.

To'rtinchidan, jamiyatda fikrlar xilma-xilligi va qarashlar rang-barangligi, ularni erkin ifoda etish sharoitini ta'minlash.

Beshinchidan, inson huquqlari va erkinliklarini, odamlarimiz ongida demokratik qadriyatlarni yanada mustahkamlash va rivojlantirish. O'z haq-huquqini taniydigan, o'z kuchi va qobiliyatiga tayanib yashaydigan, atrofida ro'y berayotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabatda bo'ladigan, shu bilan birga, o'z shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan erkin shaxsni shakllantirish uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish darkor[3].

Hozirgi davrga kelib Prezident I.A.Karimov tomonidan ilgari surilgan «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»da mamlakatda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning strategik vazifalari ko'rsatib berildi. Konsepsiya o'z mohiyat e'tiboriga ko'ra, uzoq muddatga mo'ljallangan Dastur bo'lib, u bugungi globallashuv zamonida, dunyo shiddat bilan o'zgarib borayotgan bir sharoitda o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan siyosiy va iqtisodiy islohotlar, davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimini demokratlashtirish va erkinlashtirish, sud hokimiyatining mustaqilligini, so'z va axborot erkinligini, saylov erkinligini ta'minlash, saylov tizimini takomillashtirish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalarni belgilab berdi.

4. Huquqiy davlat

O'zbekistonda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish asosiy strategik pirovard maqsad, deb e'lon qilingan. Albatta, huquqiy davlat asoslarini shakllantirmasdan turib fuqarolik jamiyatini qurib bo'lmaydi. Chunki, huquqiy davlat fuqarolik jamiyatisiz, aksincha, fuqarolik jamiyati huquqiy davlatsiz yashay olmaydi. Shuning uchun ham huquqiy davlat va uning mazmun-mohiyatini o'rganish demokratik jamiyat qurish vazifasi bilan uzviy ravishda bog'liqdir.

2241

Huquqiy davlat konstitutsion davlatchilikning real amalga oshishidir. Uning asosida insonni davlat terrori, uning e'tiqodi ustidan kuch ishlatishi, hokimiyat organlari tomonidan mayda homiylik qilishidan himoya qilishga intilish yotadi. Huquqiy davlat suveren xalq irodasiga bo'ysunuvchi, insonning erkinligi va boshqa huquqlarini himoya qiluvchi, o'z faoliyatini qonunlar bilan cheklovchi davlatdir. Bunday davlatda shaxs bilan hokimiyat o'rtasidagi munosabatlar konstitutsiyada belgilab qo'yiladi, shuningdek, xalq bilan hokimiyat o'rtasidagi munosabatlar «ijtimoiy bitimlar» asosida ro'y beradi.

Turli mamlakatlarda huquqiy davlatlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi tajribasi e'tiborga olinsa, bunday davlatning quyidagi belgilarga ega ekanligini kuzatish mumkin:

1. Rivojlangan fuqarolik jamiyatining mavjudligi.

2. Shaxsning erkinligi, huquqini va jamoatchilik tinchligini himoya qilish, xo'jalik faoliyati uchun huquqiy shart-sharoitlar yaratib bergan holda davlat faoliyati sohasini cheklash; har kimning o'z shaxsiy farovonligi uchun mas'ulligining yuksalishi.

3. Barcha fuqarolarning huquqiy tengligi, qonunlardan inson huquqlarining ustivorligi.

4. Huquqning umumiyligi, uning barcha fuqarolar, tashkilotlar, muassasalar, jumladan davlat hokimiyati uchun ham teng taalluqli bo'lishi.

5. Xalq suvereniteti, davlat suverenitetining konstitutsion — huquqiy jihatlardan muvofiqlashtirilishi. Xalqning amalda hokimiyat manbayi bo'lishi, davlat suverenitetining vakolatli xarakter kasb etishi.

6. Qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatlarining bo'linishi, ular faoliyatining hamkorlikdagi birligi.

7. Davlatning fuqarolik munosabatlarini muvofiqlashtirishda ta'qiqlash usulining chegaradan chiqish usuliga nisbatan ustuvorligi. Buning ma'nosi shuki, huquqiy davlatda «Qonun bilan ta'qiqlanmagan barcha narsalarga ruxsat etiladi» prinsipiga amal qilinadi. Bunda chegaradan chiqish usuli faqat davlatga nisbatan qo'llanilib, davlat faqat rasmiy qabul qilingan vakolatlar doirasidan chetga chiqmasligi lozim.

8. Individ erkinligini cheklash faqat barcha kishilar erkinligi va huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Huquqiy davlat shaxsning mutlaq erkinligini bildirmaydi. Har bir shaxsning erkinligi boshqa kishining erkinligiga zid kela boshlasa, xuddi shu yerda uning erkinligi chegarasi tugaydi.

Hozirgi davrda O'zbekistonda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etishning konstitutsion va qonuniy asoslari yaratildi. Demokratik tipdagi milliy davlatchilik shakllandi. Fuqarolik jamiyatining belgisi sifatida ko'p partiyaviylik, o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat tashkilotlar tizimi shakllandi.

Shu bilan birga, huquqiy davlat — bu dunyoviy davlat hamdir. Chunki, bu kabi davlatda turli dinlar bilan bir qatorda turli mafkuralar va g'oyalar ham jamiyatni rivojlantirish va uning barqarorligini ta'minlash omili sifatida erkin yashaydi. Jamiyatda biron bir din yoki mafkuraning ustun yoki ustuvor bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 12-moddasida quyidagi prinsip o'z ifodasini topgan: «O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas». Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 61-moddasida «Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi», degan qoidaning kiritilishi O'zbekiston Respublikasining dunyoviy davlat ekanligini anglatadi.

5. Fanning vazifalari va uni o'rganishning ahamiyati

Fanni o'qitishdan asosiy maqsad — talaba yoshlar dunyoqarashiga O'zbekistonda barpo etilayotgan fuqarolik jamiyatining nazariy asoslarini va demokratik qadriyatlarni singdirish, demokratik jamiyat sharoitida yoshlarda jamiyat hayoti va davlat boshqaruvida ishtirok etish ko'nikmalarini shakllanishiga ko'maklashishdan iborat.

Fan ta'lim jarayonida quyidagi vazifalarni bajaradi:

- O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanining predmeti, obyekti, maqsadi va vazifalarini tushuntirish;

- talabalarga fuqarolik jamiyati va demokratiyaga doir asosiy tushunchalar va qonuniyatlarni o'rgatish, ular ongiga mamlakatda demokratik jamiyat qurish islohotlariga oid nazariyalarni, «O'zbekistonning o'ziga xos va o'ziga mos taraqqiyot yo'li», «o'tish davri», «demokratiya», «fuqarolik jamiyati», «huquqiy davlat»,

«demokratik jamiyat», «demokratik ong», «nodavlat notijorat tashkilotlar», «o'zini o'zi boshqarish organlari», «jamiyat institutlari», «vakillik demokratiyasi», «xalq irodasi», «siyosiy madaniyat» kabi tushunchalar mazmun-mohiyatini singdirish;

- demokratik jamiyatga xos bo'lgan qadriyatlar va tamoyillarni ochib berish;

- O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini talabalarga tushuntirish;

- demokratiya va fuqarolik jamiyatiga doir qarashlarni va ularning rivojlanish bosqichlarini tahlil etish;

- O'zbekistonning "o'tish davri" islohotlariga doir bilimlar berish, mamlakatning istiqbollariga oid bilimlar berish;

- qonun ustuvorligining fuqarolik jamiyati qurishdagi ahamiyatini tahlil etish;

- fuqaro erkinligi va faolligini ta'minlashning yangi demokratik jamiyat qurishdagi rolini ochib berish;

- jamiyat iqtisodiy hayotini erkinlashtirish va demokratlashtirishning o'zaro aloqadorligiga doir bilimlar berish;

- fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining rolini ochib berish;

- fuqarolik jamiyatini barpo etishda nodavlat notijorat tashkilotlari va jamoat birlashmalarining o'rni va ahamiyatiga doir bilimlar berish;

- demokratik jamiyat qurishda kuchli ijtimoiy himoya tizimining zarurligini ilmiy va amaliy jihatlardan asoslash;

- O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorligi va uning demokratik tamoyillarga asoslanishini, xalqaro integratsiyaga birlashish jarayonini ochib berish;

- talabalarning mustaqil fikrlashlarini yuksalishiga va o'z nutq madaniyatini oshirishiga ko'maklashish.

«O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» fanini o'rganish ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur fan talabalarga mamlakatimizda davlat mustaqilligini e'lon qilishdan boshlab hozirgi davrgacha amalga oshirilgan islohotlar jarayonlari, ularning natijalari – fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat institutlarini shakllantirish va rivojlantirish davri to'g'risida bilimlar beradi.

Albatta, hozirgi davrdagi yosh avlodning biz qurmoqchi bo'lgan jamiyat to'g'risida ma'lum bilimlar va tasavvurlarga ega bo'lishi

islohotlarni yanada chuqurlashtirish kafolatlaridan biridir. Zero, Prezident I.A.Karimov mamlakatda tobora chuqurlashib borayotgan islohotlar maqsad va mazmunini anglash bu jarayonni qo'llab-quvvatlash bilan uyg'unligi to'g'risida quyidagi fikrlarni bildirgan edi: «...tobora chuqurlashib borayotgan islohotlar natijasida erishiladigan o'ta muhim o'zgarishlar hech qachon bir kunda, kimningdir buyrug'i yoki xohishi hisobidan bo'lmaydi. Buning uchun albatta vaqt kerak, eng asosiysi – bu islohotlarning mazmuni va maqsadlarini jamiyatimiz, xalqimiz chuqur anglab olishi va qo'llab-quvvatlashi hal qiluvchi ahamiyatga ega»[4]. Ko'rinib turibdiki, yoshlarimizning mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlardagi ishtiroki, faolligi, hozirgi avlod ishlarini kelajakda davom ettirishga intilishlarining shakllanishi – ularning mazkur jarayonni qanchalik chuqur anglab yetishiga bog'liqdir. «O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» fani ana shu jarayon, uning nazariy jihatlari to'g'risida bilimlar beradi.

Shu bilan birga, oliy ta'lim tizimida tahsil olayotgan talabalar ongiga milliy g'oyani singdirish va ularning Vatanga muhabbat tuyg'usini yuksaltirishda ham mazkur fanning ahamiyati beqiyosdir. Chunki, mazkur fanda Vatanimizda amalga oshirilayotgan fuqarolik jamiyati qurish islohotlari, unga doir nazariyalar, Prezident I.A.Karimovning O'zbekistonda fuqarolik jamiyati qurishga doir konseptual nazariy qarashlari, uning islohotlar jarayonidagi tashabbuslari va faoliyati o'rganiladi. Talabalarda biz qurayotgan fuqarolik jamiyatiga doir qarashlar shakllanadi.

Talabalarga mazkur fanni o'qitish ma'lum darajada ularda mafkuraviy immunitetni shakllantirishga ta'sir etadi. Chunki, hozirgi axborotlar urushi, mafkuralar to'qnashuvi, globallashuv ta'siri jarayonida talabalarning o'z Vatanlari to'g'risida qanchalik ma'lumotga ega bo'lishi, shunchalik darajada milliy qadriyatlarga sadoqatli bo'lishiga zamin yaratadi. Qolaversa, bo'lajak mutaxassis oliy dargohdan mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarda erkin va faol ishtirok eta oladigan darajadagi intellektual salohiyat bilan chiqib ketishi darkor.

Fanda asosan rivojlanishning «O'zbek modeli»ga xos bo'lgan nazariy qarashlar va amaliy faoliyatga e'tibor beriladi. Fanni o'rganish asnosida talabalar tasavvurida mustaqillik arafasi va uning ilk davridagi mashaqqatlar, qiyinchiliklar, paydo bo'lgan

muammolar shakllanadi, davlatimiz va xalqimizning mustaqillik davrida barcha to'siqlarni yengib o'tishi, bosqichma-bosqich muammolarni bartaraf etish, mamlakatni xuddi kul ichidan otilib chiqqan Humo qushi kabi rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'ziga munosib o'rin olish manzaralari joy oladi. Talabalarda bu ulkan jarayonlarga tegishli bo'lish tuyg'ulari uyg'onadi, bu jarayonlar ularni ohangrabodek o'ziga jalb eta boshlaydi.

Mazkur fanni o'qitish jarayonida talabalarga davlatimizni bosh islohotchi sifatida fuqarolik jamiyati qurishga doir faoliyati to'g'risida bilimlar beriladi. Talabalarga mustaqillik davrida jamiyatdagi va mamlakat iqtisodiyoti sohasidagi ulkan o'zgarishlarga doir bilimlar korxona, fermerlik xo'jaligi, mahalla, ta'lim maskanlaridagi taraqqiyot bilan uyg'un ravishda ma'ruza, amaliy mashg'ulot, mustaqil ta'lim, taqdimot (prezentatsiya) kabi o'quv shakllari vositasida yetkazilishi natijasida ulardagi fuqarolik huquqlari, burchlari va fuqarolik mas'uliyatlari shakllanib boradi. Shuningdek, O'zbekistondagi islohotlar va voqeliklarning rivojlangan mamlakatlar bilan qiyosiy taqqoslash asnosida ularda vatanparvarlik tuyg'ulari ham yuksalib borishiga e'tibor beriladi.

Xullas, mazkur fanni o'qitish mamlakatda fuqarolik jamiyati qurish, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohalardagi islohotlar, amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlar, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish uchun intilishlar jarayonini talabalar chin qalbdan his etishiga, ularning islohotlarni faol ishtirokchilari sifatida faoliyat yuritishlariga yordam beradi.

Takrorlash uchun savollar:

1. «O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» fanining predmeti va obyekti nimalardan iborat?
2. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning asosiy tushunchalari, uning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Demokratiyaning qanday prinsiplari mavjud va uning unsurlari nimalardan iborat?
4. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning asosiy shartlari, deganda nimani tushunasiz?
5. «O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» fanini o'rganishning ahamiyati nimada?

2-mavzu: DEMOKRATIK JAMIYAT TO'G'RISIDAGI DASTLABKI QARASHLAR VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

1. Uyg'onish davri Sharq allomalarining fozil jamiyatga doir ta'limotlari.
2. Temuriylar davri mutafakkirlarining jamiyatga doir qarashlari.
3. Jadidlarning jamiyatga doir qarashlari va ijtimoiy faoliyatlari.

1. Uyg'onish davri Sharq allomalarining fozil jamiyatga doir ta'limotlari

Fuqarolik jamiyati unsurlari, shuningdek fozil jamiyat qurishga doir nazariy izlanishlar dastlab Sharq uyg'onish davri mutafakkirlari tomonidan amalga oshirilgan. Hozirgi davrga kelib, O'zbekistonda kuchli fuqarolik jamiyati qurish islohotlarining chuqurlashib borishi milliy merosimizni o'rganishga bo'lgan ehtiyojlarni yanada kuchaytirdi. Buning sababi shundaki, biz qurmoqchi bo'lgan fuqarolik jamiyati boshqa mamlakatlar tajribasidan andoza sifatida ko'r-ko'rona ko'chirib olinmaydi, balki, bir necha ming yillik milliy meros va tarixiy tajribalarimizdan oziqlanadi.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyati qurishning «Kuchli davlatdan — kuchli fuqarolik jamiyati sari» tamoyilining ishlab chiqilishi va uni hayotga tatbiq etilishi buyuk ajdodlarimiz yaratgan fozil jamiyat barpo etishga doir milliy falsafiy merosni zamonaviy tajribalar bilan uyg'unlashtirishni, islohotlarni esa xalq farovonligini oshirishga qaratgan holda amalga oshirishni taqozo etadi. Shuning uchun ham Prezident I.A.Karimovning quyidagi fikrlari vatandoshlarimiz bo'lgan o'rta asr allomalarining merosini hozirgi davr uchun nechog'lik ahamiyat kasb etishini ochib beradi: «Barchamiz yaxshi tushunamizki, erishilgan bilimlarni, o'tmishda, jumladan, o'rta asrlar Sharqida amalga oshirilgan olamshumul kashfiyotlarni chuqur o'zlashtirmasdan turib, na ilm-fanda, na boshqa sohalarda yangi, yanada yuksak marralarni zabt etib bo'lmaydi. Biz kelgusi faoliyatimizda ham ayni shu tamoyilga qat'iy amal qilamiz»[5].

Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy kabi mutafakkirlarning fozil jamiyat qurishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarini batafsil o'rganish, ularning natijalari va xulosalarini hozirgi davrdagi kuchli

jamiyat qurish islohotlariga nisbatan tatbiq etilishiga muhim ahamiyat berish fuqarolik jamiyatining o'ziga xos milliylik asosida rivojlanishini belgilab beradi.

O'zbekistonda kuchli jamiyat qurishning milliy jihatlari va ilmiy manbalarini Prezident I.A.Karimov quyidagicha ifodalab berdi: «Bugun bizning oldimizda shunday tarixiy imkoniyat paydo bo'ldiki, biz bosib o'tgan yo'limizni tanqidiy baholab, milliy davlatchiligimiz negizlarini aniqlab, buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz ildizlariga qaytib, o'tmishimizdagi boy an'analarni yangi jamiyat qurilishiga tatbiq etmog'imiz kerak...»[6].

Adolatli jamiyat barpo etish, fuqarolik jamiyati unsurlarini shakllanishiga doir ulkan ilmiy meros qoldirgan buyuk mutafakkirlardan eng mashhuri Abu Nasr Forobiydir (873—950 yy.). Uning fikricha, mukammal jamiyatda har bir tabaqa, yaxlit ijtimoiy organizmning ajralmas qismi sifatida, o'zining muayyan funksiyalariga ega bo'lib, go'yoki shu vazifalarni bajarish uchun ixtisoslashganlar[7]. Fozillar jamiyatining adolatli bo'lishida va tabaqalar o'rtasidagi tafovutlarning saqlanishida *adolat* huquqiy kategoriya vazifasini bajaradi. Ana shu jihatdan yondashganda, Forobiyning adolat g'oyasiga nisbatan ishlatgan ta'riflari Platon talqinlariga yaqindir.

Forobiy orzu qilgan fozil va adolatli jamoaning johil jamoalardan farqi shundaki, unda odamlar eng go'zal va yaxshi maqsadlarga hamda umumiy manfaatlarga erishish yo'lida birbirlariga yaqindan yordam beradilar. Ko'rinib turibdiki, Forobiy fozil jamiyat qurish uchun insonlarni ma'naviy yuksalishi, fuqaroviy fazilatlarga ega bo'lishi talablarini ilgari suradi.

Forobiy jamiyatning («inson jamoasi»ning) kelib chiqishi haqida shunday deb yozgan: «Har bir inson o'z tabiatiga ko'ra shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtojlik sezadi, uning bir o'zi esa bunday narsalarni qo'lga kirita olmaydi. Shu bois ularga ega bo'lishda kishilik jamoasiga ehtiyoj tug'iladi... Shu sababli yashash uchun zarur bo'lgan, kishilarni bir-biriga yetkazib beruvchi va o'zaro yordamlashuvchi ko'p kishilarning birlashuvi orqaligina odam o'z tabiati bo'yicha intilgan yetuklikka erishuvi mumkin»[8].

Forobiy jamoani katta-kichikligiga ko'ra uch turga bo'ladi: buyuk jamoa — dunyodagi barcha xalqlarning birlashuvi; o'rta jamoa — bir xalq yoki millatni birlashtiruvchi jamoa; kichik jamoa — alohida bir shahar-davlatni (polisni) birlashtiruvchi

jamoa. Albatta, bundagi o'rta jamoa butun bir *mamlakat* miqyosidagi ilk fozil jamiyatni anglatadigan tushunchadir[9].

Forobiy insonning o'zini «siyosiy mavjudot» sifatidagi o'rniga quyidagi ta'rifni bergan edi: «Odamlarga nisbatan ularni birlashtiruvchi boshlang'ich asos «insoniylik»dir. Shuning uchun ham, odamlar insoniyat turkumiga kirganliklari tufayli o'zaro tinchlikda yashamoqlari lozim»[10].

Forobiy X asrning boshlaridayoq adolatli fuqarolik jamiyatining sodda va oddiy modeli loyihasini quyidagicha ta'riflagan: «Madaniy jamiyat va madaniy shahar (yoki mamlakat) shunday bo'ladiki, shu mamlakatning aholisidan bo'lgan har bir odam kasb-hunarda ozod, hamma bab-barobar bo'ladi, har kim o'zi istagan yoki tanlagan kasb-hunar bilan shug'ullanadi. Odamlar chin ma'nosi bilan ozod bo'ladilar. Biri ikkinchisiga xo'jayin bo'lmaydi. Odamlarning tinchlik va erkinliklariga xalaqit beruvchi sulton (ya'ni podshoh) bo'lmaydi. Ular orasida turli yaxshi odatlar, zavq-lazzatlar paydo bo'ladi»[11].

Ko'rinib turibdiki, mutafakkir ilgari surgan «madaniy jamiyat»-ning asosiy belgisi fuqarolik jamiyatining eng asosiy unsurlaridan biri — inson erkinligi bo'lganligi bilan ham ahamiyatlidir. Shu bilan birga, «madaniy jamiyat» va «madaniy shahar» xalqning erkin ravish-da o'zlari xohlagan kasb-hunar bilan shug'ullanishlari g'oyasi ham fuqarolik jamiyatining eng muhim belgilaridan biridir.

Ma'lumki, fuqarolik jamiyatining muhim institutlaridan biri — fuqarolarning erkinlik huquqi asosida o'tkaziladigan saylovlaridir. Saylovlar davrida fuqarolar o'z xohish-irodasini erkin ifodalash, o'z manfaatlarini ro'yobga chiqarish va muhofaza qilishda haqiqiy shart-sharoit, huquqiy zaminga ega bo'ladilar. Bu kabi jamiyatda inson huquqlari va erkinlari har tomonlama himoya qilinadi. Hozirgi davr vakillik demokratiyasining ana shu muhim unsuri ham Forobiy e'tiboridan chetda qolmagan. Mutafakkir shunday deb yozgan: «Ularning o'zlaridan («fuqarolardan» — Q.M.) saylangan rahbar yoki boshliqlar hokimi mutlaq bo'lmaydi. Ular odamlar ichidan ko'tarilgan, sinalgan, eng oliyjanob, rahbarlikka loyiq kishilar bo'ladilar. Shuning uchun bunday rahbarlar o'z saylovchilarini to'la ozodlikka chiqaradilar, ularni tashqi dushmandan muhofaza qiladilar. Bunday rahbarlar hammaga barobar munosabatda bo'ladilar, hatto hammaning manfaatini o'zlarining manfaatlaridan ortiq ko'radilar, umumning manfaati uchun o'zlarining shaxsiy manfaatlaridan voz kechadilar, xalq manfaati uchun o'zlaridagi kuch-g'ayrat va boyliklarni ayamaydilar»[12].

Forobiy ijtimoiy-siyosiy ta'limotining eng muhim qismi jamiyat, uning tarkibiy tuzilishi, paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishining asosiy sabablari hamda shart-sharoitlari, shuningdek, amal qilishining ijtimoiy-huquqiy me'yorlarini tadqiq qilishga bag'ishlangan. Forobiyning adolatli fozil jamiyat haqidagi ta'limoti uning falsafiy va siyosiy qarashlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu ta'limotning o'ziga xos jihatlari shundaki, u jamiyat, davlatchilik va huquqiy masalalarning yechimlarini topishda muhim o'rin tutadi, bu sohaga doir ilmiy tadqiqotlar uchun umumiy uslubiy tamoyillar vazifasini bajaradi.

Forobiy o'z davridagi turli mamlakatlar hayotiy faoliyatiga, ularning boshqaruv usullariga baho berar ekan, u o'z tasavvuridagi mukammal jamiyat va davlatning oliy maqsadi — insonlarni tom ma'noda baxt-saodatga erishuvi yo'lidagi maqsadlaridan kelib chiqadi. Albatta, hozirgi davrda davlat va jamiyatning bosh maqsadi — xalq farovonligi ekanligiga e'tibor bersak, bu masalani hal qilish yo'li bundan salkam ming yil ilgari mutafakkir tomonidan kashf etilganligiga guvoh bo'lamiz.

Fuqarolik jamiyati unsurlarini shakllanishiga muhim hissa qo'shgan mashhur Sharq mutafakkirlaridan biri Abu Rayhon Beruniydir (970 – 1048 yy.). Uning asosiy ideali fozil jamiyatda yashovchi — komil inson, o'z or-nomusini bilgan va qadr-qimmatini saqlagan, oliyjanob, muruvvat egasidir: «Oliyjanob odam o'zining joni va o'zining mulkidan boshqa hech narsaga egalik qilmaydi, qonunan o'ziga tegishli mulkni boshqaradi. Agar bunday odam boshqalarning og'ir ishini o'z yelkasiga olib, ular uchun o'zi mashaqqat tortib, Olloh unga in'om etgan narsalarini muhtoj odamlarga bersa, unday odam javonmard (fatiyot) deb ataladi. Javonmard o'zining oliyjanobligi va xayr-sahovati bilan mashhur bo'lgan odam. Ayni vaqtda javonmard o'zining xushmuomalaligi, mehr-shafqati, sabot-matonati, sabr-toqati, obro'-izzati bilan ham nom chiqargan odamdir»[13].

Beruniy adolatli jamiyatni barpo etish uchun komil insonni shakllantirishga muhim ahamiyat beradi. Fozil jamiyatni qurishga to'siq bo'lib turgan illatlarni yo'qotish uchun ularning ildizini quritish kerakligini quyidagicha uqtirgan: yovuzlikdan qutilish uchun inson ikki tabiiy kuch — ochko'zlikka hirs va g'azab ustidan hukmronlik qilishi kerak. Bular inson uchun eng kuchli va xavfli dushmanlardir. Mana shu ochko'zlik va g'azab ustidan aql va tafakkur kuchlari g'alaba qozonishi kerak. Shundagina

inson shaytoniy nafsdan qutilib, Xudoga yaqinlashadi; bu olam tashvishlaridan xalos bo'lib, ma'naviy yuksalishga intiladi. Ammo inson bu illatlardan qutilishi uchun ularni keltirib chiqargan sabablarni — boshqalardan ustunlikka, shon-shuhratga hirs qo'yish va intilish illatlarini tark etmog'i kerak.

Abu Rayhon Beruniyning e'tirof etishicha, fuqaroviy jamiyatning insoniylik darajasi kishilar kundalik ehtiyojlarining qanchalik qondirilishi bilan belgilanadi. Jamiyatda fuqarolarning farovonligini ta'minlovchi eng muhim omil ijtimoiy adolat qoidalariga amal qilishdir[14].

Fuqarolik jamiyati unsurlarini tadqiq etgan mutafakkirlardan yana biri Abu Ali ibn Sinodir (980—1037 yy.). Mutafakkir adolatli jamiyatni yashash sharti sifatida birinchi o'ringa insonlar o'rtasidagi axloqiy munosabatlarni qo'yadi. Yuksak axloq sohibi bo'lishga esa ma'rifat yordamida erishiladi. Olimning fikricha, axloqiy munosabatlarning yuksalishi jamiyatning ma'naviy-axloqiy sog'lomligi va sobitligini ta'minlaydi. Insonlarni ma'naviy-ma'rifiy komillikka erishuvi jamiyatning yanada takomillashuvini, unda adolat tamoyillarining barqarorligini ta'minlaydi.

Fuqarolarning o'zaro hamjihatligi va hamkorligi natijasida jamiyat ma'naviy-axloqiy jihatdan sog'lomlashadi, insonlar o'rtasida o'zaro mehr-muhabbat va ishonch tuyg'ulari shakllanadi, odamlar o'zaro jipslashadi, bu bilan yovuzlik va adolatsizlik yo'liga g'ov qo'yiladi. Ibn Sinoning fikricha, o'z aqliy faoliyatidan qoniqish hosil qilish — insonga eng oliy darajali lazzat bag'ishlaydi. Razil tabiatli odamning xatti-harakatlarini boshqarish uning hayvoniy nafsi ixtiyorida bo'ladi. Bunday inson butunlay ma'rifatsiz insondir.

Xulosa qilib aytganda, Abu Ali ibn Sinoning komil insonni shakllantirishga doir qarashlarida ilk Uyg'onish davri mutafakkirlari kabi ma'naviy qadriyatlarning moddiy hayot qadriyatlaridan ustun qo'yishga moyillik kuchliligi sezilib turadi[15]. Albatta, hozirgi davrga kelib, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar fuqarolik jamiyatini takomillashtirish omillaridan biri sifatida o'zini namoyon qilganligi mutafakkir ilgari surgan g'oyalarning nechog'lik ahamiyatga molik ekanligini anglatadi.

Fuqarolik jamiyati unsurlarini shakllanishiga katta hissa qo'shgan Sharq mutafakkirlaridan yana biri — Abu Ali Hasan ibn Ali Tusiy — Nizomulmulkdir (1018—1092 yy.). U o'zining «Siyosatnoma» asarida davlat hokimiyatini adolatli jamiyat qurishdagi o'rnini atroflicha ochib berdi. Albatta, Nizomulmulk yashagan

davrda davlat bilan jamiyat o'rtasida chegara o'tkazish mushkul ish bo'lsa ham, donishmand mutafakkir jamiyatni saltanatdan ayri holda tasavvurlay oldi. Lekin, u shunga qaramay, jamiyatning adolatli bo'lishini siyosiy elitaga — hukmdorga, saroy mansabdorlariga, hokimlarga bog'liqdir, deb bildi. Albatta, o'rta asrlardagi feodal munosabatlarga asoslangan monarxiya tuzumida jamiyat faoliyatini tashkil etish vazifasi asosan davlat hokimiyatining qo'lida edi.

Nizomulmulk adolatli jamiyat barpo etish masalasida o'z davridan bir necha asrlar ilgarilab ketgan edi. U insonlar farovon bo'lib yashashi va o'z manfaatlarini qondirishlari uchun jamiyat qurishga ehtiyoj sezishlarini chuqur va teran anglagan edi[16].

Nizomulmulkning jamiyat faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq davlat boshqaruvi to'g'risidagi fikrlaridan shunday xulosalar chiqarish mumkin: siyosat va davlat boshqaruvidagi, shuningdek, inson hayotidagi barcha ikir-chikirlarni bilish va ulardagi o'zaro munosabatlarni anglash faqat amaldor yoki hukmdorgagina tegishli emas. Ular barcha insoniyat zotiga (ya'ni, butun jamiyat a'zolariga) mansubdir. Shuning uchun ham tajribali, oqil, fozil kishilar bilan kengashlar va maslahatlar asosida siyosiy va boshqaruv qarorlari qabul qilish vositasidagina butun bir jamiyat barqarorligini ta'minlash va adolat o'rnatish, farovon hayot qurish mumkin.

Nizomulmulkning fikricha, «biror ishni maslahatsiz amalga oshirish fikrning zaifligidan dalolat beradi, bundaylarni o'zbilarmon deydilar. Mashvarat va kengashsiz amalga oshirilgan ishning natijasi yaxshi bo'lmaydi»[17]. U bu o'rinda hukmdorlarni Payg'ambar sallollohu alayhi vassallamdan ibrat olishga chaqiradi, u Yaratganning nabiysi bo'lsa-da, oddiy insonlardan maslahat olish, ular bilan kengash va mashvarat etish asosida boshqarishni afzal ko'rganligini ta'kidlaydi. Bu bilan Nizomulmulk har qanday aqlli va dono hukmdor mashvarat va kengashsiz mamlakat boshqarilishining oxiri yaxshi bo'lmasligiga ishora qiladi. Mutafakkirning ushbu maslahatlari va qoidalari ming yillardan buyon o'z ahamiyati va mavqeyini yo'qotmay kelmoqda. Ular fuqarolik jamiyatining asosiy unsurlari sifatida yashab kelmoqda.

2. Temuriylar davri mutafakkirlarining jamiyatga doir qarashlari

Sohibqiron Amir Temurning (1336–1405 yy.) «Temur tuzuklari»da siyosat, jamiyat va davlatni boshqarish ilmi yanada

rivojlantirildi, farovon jamiyat tuzishga oid nazariy qarashlar bayon qilindi. «Tuzuklar» davlat boshqaruvi va siyosiy munosabatlar me'yorlari, siyosiy institutlarni o'zaro muvofiqlashtirish masalalarini takomillashtirishga doir prinsiplar va qoidalar majmuasidan iboratdir. Amir Temur unda saltanatning markaziy organi, harbiy qo'shin va mahalliy hokimiyatni boshqarishda jamiyatdagi ijtimoiy qatlamlar manfaatlarini ularning jamiyatdagi o'rnini e'tiborga olib boshqarish masalalari mukammal tarzda ochib berilgan. Agar, «Tuzuklar»ni siyosiy va iqtisodiy fanlar nuqtayi nazaridan chuqur tahlil etadigan bo'lsak, unda davlatning (siyosiy tizimning) kuch-qudrati va uning yashovchanligi jamiyatdagi raiyatning turli manfaatlarini ijtimoiy qatlamlar va turli jamiyat institutlari vositasida qanchalik e'tiborga olinishi bilan uzviy ravishda bog'liq ekanligini kuzatamiz. Unda jamiyatdagi ijtimoiy qatlamlarning qanday manfaatlari mavjudligi, ularning xohish-irodalari bilan davlat hokimiyati o'rtasidagi iqtisodiy va siyosiy munosabatlar yaxlit birlikda qaraladi. Amir Temurning fikricha, davlat hokimiyati qanchalik keng ijtimoiy qatlamlar manfaatlariga tayansa, qanchalik jamiyat vakillari bilan kengashib, ular fikr-mulohazalari asosida davlat siyosati ishlab chiqilsa, davlat shu darajada kuchli va salohiyatli bo'lishi isbotlab berilgan. Jumladan, u jamiyatni 12 ta toifaga bo'lib, ularning har birini jamiyatdagi o'rni, siyosiy resurslarining hajmi, o'ziga xos tasnifi, davlat siyosatiga qay darajada ta'sir qila olishi har tomonlama xarakterlab berilgan. U toifalarni quyidagicha ta'riflagan: 1) sayyidlar, ulamo va shayxlar; 2) bilimdon kishilar; 3) duogo'y taqvodorlar; 4) amirlar, sarhanglar, sipohsolorlar; 5) sipoh bilan raiyat; 6) dono va ishonchli kishilar; 7) vazirlar, sarkotib va devon *bitikchilari*; 8) *hakimlar, tabiblar, munajjimlar* va *muhandislar*; 9) muhaddislar (hadis olimlari va roviylar); 10) so'fiylar va oriflar; 11) hunar va san'at ahli; 12) sayyoh va tijorat ahllari.

Amir Temur o'z tuzuklarida ilgari surgan qudratli davlat qurish, millatni birlashtirish va xalq farovonligini ta'minlab borish uchun o'zining davlat qurishga doir tamoyillarini ishlab chiqib, ularni hayotda amalga oshira olgan buyuk zot edi. Fikrimizning dalili sifatida «Temur tuzuklarida»gi bu tamoyillarning ba'zilarini keltiramiz:

- saltanatim ishlarini murosayu madora, muruvvat va sabr-toqat bilan yurgizdim. Ko'p narsani bilib tursam ham o'zimni bilmaslikka olardim. Do'stu dushman bilan murosayu madora qildim;

- davlat ishlarini saltanat qonun-qoidalariga asoslangan holda boshqardim. To'ra va tuzukka tayanib, saltanatda o'z martaba va

maqomimni mustahkam saqlab turdim. Amirlar, vazirlar, sipoh, raiyat har biri o'z lavozim va martabasidan mamnun holda xizmatimda bo'lib, undan ortig'iga da'vogarlik qila olmadi[18];

- adolat va insof bilan tangrining yaratgan bandalarini o'zimdan rozi qildim. Gunohkorga ham, begunohga ham rahm qilib, haqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim. Xayr-ehson ishlarim bilan odamlar ko'nglidan joy oldim. ...Zolimlardan mazlumlar haqqini oldim. Zolimlar yetkazgan ashyoviy va jismoniy zararlarni isbotlaganimdan keyin, ularni shariatga muvofiq odamlar o'rtasida muhokama qildim va bir gunohkorning o'rniga boshqasiga jabr-zulm o'tkazmadim. Menga yomonliklar qilib, boshim uzra shamshir ko'tarib, ishimga ko'p ziyon yetkazganlarni ham, iltijo bilan tavba-tazarru qilib kelgach, hurmatlab yomon qilmishlarini xotiramdan o'chirdim. Martabalarini oshirdim;

- raiyat ahvolidan ogoh bo'ldim, ulug'larini og'a qatorida, kichiklarini farzand o'rnida ko'rdim. Har yerning tabiati, har el va shaharning rasmu odatlari, mizojidan voqif bo'lib turdim. ...Har bir diyor aholisining ahvolidan ogoh bo'lib turdim. Har bir mamlakatning ahvolini, sipohu raiyat kayfiyatini, turish-turmushlarini, qilish-qilmishlarini, bular o'rtalaridagi aloqalarni yozib, menga bildirib turishi uchun diyonatli, to'g'ri qalamli kishilardan voqeanavislar (axbornavis-xabarchilar) belgiladim;[19]

- yana tajribamda ko'rib bildimki, davlat agar dinu oyin (qoida) asosida qurilmas ekan, to'ra-tuzukka bog'lanmas ekan, unday saltanatning shukuhi, qudrati va tartibi yo'qoladi. Bunday saltanat yalang'och odamga o'xsharkim, uni ko'rgan har kimsa nazarini olib qochadi»[20].

Ko'rinib turibdiki, Amir Temur o'z davridan ancha ilgarilab ketgan holda siyosiy boshqaruv, siyosiy tizim va davlatchilikka doir siyosiy qarashlarni rivojlantirishga katta hissa qo'shdi. Shuningdek, u o'zining siyosiy qarashlarini mustahkam va markazlashgan davlat qurish tajribasi bilan uyg'unlashtirgan holda o'rta asrlarda butun bir dunyo davlatlariga namuna bo'la oladigan o'z merosini qoldirdi.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy (1441—1501 yy.) o'z asarlarida fozil jamiyat qurishga doir o'zidan boy ilmiy meros qoldirdi. Alisher Navoiy ham fozil jamiyat tashkil etish uchun adolatli hukmdor, ya'ni, «ahli ma'ni»ga mansub bo'lgan hukmdorlarni ulug'laydi, ijtimoiy-siyosiy hayotda yuz berayotgan nohaqliklar, adolatsizliklarni esa qoralaydi. Haqiqiy insoniy

fazilatlar — adolat, mehru muruvvat, mehnatsevarlik, to'g'ri so'zlik, vatanparvarlik, halollik, insonparvarlik, qahramonlik kabi fazilatlarning ijobiy jihatlarini keng va chuqur ochib beradi.

Alisher Navoiyning qarashicha, adolatli jamiyatni yuksak fazilatli, ma'naviyatli insonlargina barpo etishlari mumkin. Shuning uchun ham mutafakkir inson ma'naviyatini yuksaltirish asosida fozil jamiyat qurish g'oyalarini ilgari suradi. U insoniyatni ikkiga — «ahli ma'ni» va «ahli suvrat»ga bo'lib, ularning har birini chuqur ta'riflab beradi[21].

«Ahli suvrat» — bu toifaga mansub kishilar insoniy munosabatlarning faqat shaklu shamoyiliga muhim e'tibor beradilar. Ularga viqorli bo'lish, kibrlanish, zeb-ziynatga berilish, o'zgalarga zulm o'tkazishdan huzurlanish mansubdir. «Suvrat ahli» uchun dunyoni qalban anglash, ezgulik his-tuyg'ulari butunlay yotdir. Ular insoniy munosabatlarning faqat tashqi ko'rinishlarini tan oladilar, mohiyat va mazmunga kirib bora olmaydilar. Ularning asosiy xususiyatlaridan biri taqlidchilikdir. Bu toifadagi kishilar kuchlilar oldida qul, ojizlar uchun zulmkor. Ular maslaksizliklari tufayli faqat bugungi kun huzur-halovati bilan yashaydilar, bu bilan u dunyolarini kuydiradilar. «Suvrat ahli» diniy amallarni ham faqat qo'rquv va u dunyodagi moddiy lazzatlanish ilinjida bajaradilar. Bunday insonlar faqat johil jamiyatni xush ko'radilar.

«Ahli ma'ni» — yuksak tafakkur sohiblaridir. Ularning ma'niligi shundaki, bu toifa insonlar uchun aql-idrokli bo'lish, turli munosabatlarning mohiyat va mazmunini anglash xosdir. Bu kabi insonlar o'z ehtiyoj va manfaatlarini o'zgalarniki bilan uyg'unlashgan holda idrok qiladilar. Jamiyat va xalq uchun xizmat qilish va yashashdan lazzatlanadilar. Ular har bir xatti-harakat va voqelikning oqibatini o'ylab ish tutadilar, bu dunyoning qisqa va o'tkinchi ekanligini chuqur his qiladilar. «Ahli ma'ni» Yaratganning ato etgan tafakkurlash fazilati vositasida dunyoni anglashga, bu yo'lda ilm-fanni egallashga va ma'rifatli bo'lishga intiladilar. Ularning bosh maqsadi Yaratganga yetishish. Bu toifaga mansub bo'lish uchun inson erkin, dovyurak, haqiqatparvar, burch va mas'uliyatni his etuvchi, kamtar, kuch va tazyiq ishlatishdan xoli, xalq va din uchun fidoyi, imonli, hayoli, o'zga insonlar uchun hamdard, har qanday zulmga qarshi bora oladigan, adolat oldida har qanday boylik, izzat-nafs va manfaatlardan voz kecha oladigan, o'z fikriga ega bo'lishi lozim[22].

Ko'rinib turibdiki, «ahli ma'ni»ga mansub bo'lish, ya'ni yuksak ma'naviyat sohibi bo'lish insonning eng oliy orzusidir. Alisher Navoiyning bu talqinini anglagan, chuqur his etgan har bir kishi uchun ma'naviyat — bu inson mazmuni va mohiyatidir. Dunyodagi barcha insoniyatni jamiyat sifatida yashab turishini ta'minlovchi qudratli tutqilar ham, insoniy rivojlanish yoki umuman sivilizatsiyaga erishuv, uni barqaror ushlab turuvchi va yanada takomillashtiruvchi beqiyos va hadsiz kuch ham ma'naviyatdir.

Alisher Navoiyning zamondoshi, Hirotda yashagan mashhur olim Husayn Voiz Koshifiy (1440–1505 yy.) o'zining «Axloqi Muhsiniy» nomli asarida florensiyalik Nikkolo Makiavellidan deyarli chorak asr oldin siyosat tushunchasining ta'rifini ishlab chiqqan edi. U mazkur asarining bir bobini siyosat ta'rifiga bag'ishlaydi. Shuningdek, u N.Makiavelli ta'rifi bo'lgan siyosatda «maqsad vositani oqlaydi», degan qoidaga butunlay qarama-qarshi bo'lgan — adolatli, axloq va ma'naviyatga tayangan siyosatni qo'llashni ilgari suradi.

Mutafakkir jamiyat va davlatning inqirozi sababini hokimiyat zulmini kuchayishidan izlaydi: «Zolim hokimkim, jabru sitam birla raiyatga ozor berur va o'z qo'li birla davlat ildizini kesmish bo'lg'oy va bu ish birla o'zini aftodahol va parishon ahvol qolmish bo'lg'oy». U «xalqqa zulm qilish davlat ildizini kesish», degan fikrni yozar ekan, bu bilan davlatning mustahkamligini jamiyatning barqarorligida, deb biladi. Koshifiy «Mamlakat zavoli necha nimarsadir?» degan savolni qo'yib, unga shunday javob beradi: «Uch nimarsadir. 1-podshohlarga xabar pushida (maxfiy) bo'lmoqda. 2-azozil (shayton) va siflat (tubanlik) tarbiyat topmoqda. 3-amaldorlar raiyatga zulm qilmoqda»[23].

Ko'rinib turibdiki, Husayn Voiz Koshifiy o'z davridagi jamiyat va davlat tizimini tahlil qilar ekan, jamiyat barqarorligini, uning a'zolari o'rtasida adolat va insoniylik qadriyatlari yuksalishini hukmdor va davlat mansabdorlarining ma'naviy boyligi bilan bog'laydi. Shu bilan birga, u jamiyatni kuchli bo'lishi davlatni kuchli bo'lishini ta'minlashini chuqur anglaydi. Bu qarashlar hozirgi davr uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Fozil jamiyat qurish va uni boshqarishda adolat tamoyillariga amal qilish masalalari Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530 yy.) asarlarida bot-bot talqin etilgan va u o'zining hukmdorlik amaliyotida ham saltanatni adolat tamoyillari asosida boshqarishga harakat qilgan. Boburning qarashicha, adolat bilan ish yuritish

har qanday ma'murlik asosini tashkil etadi. Faqat adolatli tuzum haqiqiy ma'murlikni yuzaga keltiradi. Bobur siyosatida olingan daromadni to'g'ri sarflash, taqsimlash mamlakat qudrati, iqtisodiy siyosatining, xullas, yurt farovonligining asosini tashkil etadi.

Boburning fikricha, davlatchilik va yurt idorasi uchun hamisha ham lashkar soni, uning boshlig'ining necha yil harb-muhorabada bo'lgani, mol-dunyosi emas, eng avvalo qo'l ostidagi kishilar orasidagi hurmati, ularning mushkulliklarini tushunishi, qattiq-qo'lligi va aniq maqsad — yurt birligini asrash niyati ustun bo'lishi lozim[24]. Uning fikricha, bek, vazir, shayxulislom va boshqa mansablarga ega bo'lgan shaxslarning hammasi ham saltanatni boshqarishga qodir emas. El nazariga tushish, askaru fuqarolar ko'ngliga yo'l topish uchun eng avvalo yuksak insoniy xislatlarga ega bo'lish, ilm o'rganish, davr yangliklarinigina emas, saltanatdagi o'zgarishlarni ham to'g'ri baholay bilish zarurdir. Shuning barobarida harbiy san'atni to'la o'zlashtirish, xulqida jasorat, mard kishiga xos xislatlar doimo namoyon bo'lishi, muhorabalarda mushkul paytda quroldoshiga yordam qo'lini cho'zishi, ochiq ko'ngilli, saxiy va xalqparvarlik umr shiori bo'lgan shaxsgina davlat boshqaruvida o'zini ko'rsata oladi, boshqalarni ham bu ezgu niyatlar sari yetaklab borishi mumkin[25].

Xulosa qilib aytganda, Vatanimizda yashagan buyuk mutafakkirlarning ilmiy merosi va amaliy faoliyatlari nafaqat milliy qarashlarimizning tarixiy-nazariy ildizlarini tashkil etadi, balki ularning ilmiy merosi *hozirgi davrda fuqarolik jamiyati qurish* sohasidagi islohotlarda paydo bo'layotgan ko'plab muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Shuningdek, Sharq mutafakkirlari qoldirgan boy meros mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni tashkil etishning ma'naviy-axloqiy manbalarini tashkil etadi. Qolaversa, Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosi jamiyatni o'rganish va uni takomillashtirishning uslubiyoti hamdir.

3. Jadidlarning jamiyatga doir qarashlari va ijtimoiy faoliyatlari

XIX asrning 60-yillari o'rtalarida boshlangan Rossiyaning mustamlakachilik yurishlari, Turkistonning Rossiya imperiyasi mustamlakasiga aylantirilishi bu yerdagi jamiyat va davlatchilik rivojini butunlay izdan chiqardi. Turkiston xalqlarini boshqarish, itoatda tutish, yangi mustamlakachilik jamiyatini yaratishga xos

mazkur mintaqa aholisiga butunlay yot bo'lgan aqidalar vahshiyona bir tarzda xalq ongiga singdirildi.

Mustamlakachilik siyosati Turkiston xalqlarini bir necha ming yillar davomida shakllangan madaniyati, milliy merosi, dunyoqarashi, o'ziga xos mentalitetining yo'qolishiga, yarim feodal, yarim harbiy usulda boshqarilayotgan dehqonlar mamlakati — qoloq Rossiya siyosiy tizimi va hayot tarzini ko'r-ko'rona tiqishtirishga olib keldi.

Ana shunday ayanchli ahvolga qaramay, Turkiston xalqlari tarix sahnasidan yo'qolib ketmadi, balki o'zligiga qaytish uchun qaytadan uyg'ona boshladi. XIX asr oxiri — XX asr boshlaridan o'z milliy ozodligi, mustaqilligi uchun kurashga astoydil bel bog'ladi. Turkistonda milliy ozodlik uchun kurashga intilgan dastlabki ijtimoiy-siyosiy oqim — jadidlar harakati edi.

Bu oqim o'z harakat shaklini madaniy-ma'rifiy tarzda ko'rsatishga intilgan bo'lsa-da, uning mohiyati va zamirida siyosiy kurash, o'z xalqini mustamlakachilar zulmidan ozod qilish, mustaqil davlat qurish niyati yotar edi. Shuning uchun ham XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi mustamlakalari bo'lgan Turkiston, Kavkaz va Sibir xalqlarining milliy ozodlik harakatlari jadidchilik ko'rinishida ro'y bera boshladi.

Jadidlar mafkurasi ham o'ziga xos edi. Ular o'sha paytlarda butun dunyoga keng tarqalishga ulgurgan Yevropa madaniyati va rivojlanish g'oyalarini rad qilar, shu bilan birga yangi paydo bo'lgan sotsializm va sotsial-demokratik qarashlarga qo'shilmas, bu har ikkala oqim ham Turkistonning kelajagi uchun xavfli ekanligini teran isbotlashga harakat qilar edilar. Jadidlar o'z mafkuralari asosiy mezonlarini ijtimoiy adolat, milliy meros, turkchilik va milliy mustaqillik kabi qadriyatlar asosida shakllantirdilar. Shu bilan birga ular ma'naviy-madaniy va ma'rifiy hayotni yangilashga, xalq turmush tarziga fan va texnika yutuqlarini olib kirishga, diniy jaholat, bid'at va mutaassiblikka, shuningdek qoloqlikka barham berishga intilar edilar.

XX asr boshlaridagi o'n besh yil ichida Turkistonda yangi «usuli jadid» yoki «usuli savtiya» maktablari ochildi, milliy matbuot va teatrlar tashkil etildi. Jamiyat institutlari sifatida turli uyushmalar, harakatlar va xayriya jamiyatlari shakllandi. Bu davrda yuzdan ortiq jadidlar maktablari ochildi.

1909-yilda Munavvarqori va uning safdoshlari Turkistondagi ilk jamiyat instituti sifatida «Jamiyati xayriya»ga asos soldilar. Bu jamiyat yo'qsillarga va o'quvchilarga moddiy va ma'naviy jihatlardan

ko'maklashar, yoshlarni Rossiya va xorijiy mamlakatlarga ta'lim olishga jo'natish faoliyati bilan shug'ullanar edi.

Shu kabi tashkilot 1910-yilda Buxoroda ham tuzildi. Xoji Rafiy, Mirza Abduvohid, Hamidxo'ja Mehriy, Ahmadjon Maxdum, Usmonxo'ja va Muhammaddin Maxdumlar «Tarbiyai atfol» («Bolalar tarbiyasi») jamiyatini tuzdilar. Jamiyat 1911—1912-yillarda 45 nafar yoshlarni Turkiyaga o'qishga jo'natdi.

Rossiyada huquq ilmini o'rganib, ilk o'zbek advokati nomini olgan Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev 1913-yildan boshlab ko'zga ko'ringan jadidlar yetakchisi bo'lib yetishdi. Uning rahbarligida ziyolilarning ilk firqasi — «Taraqqiyparvarlar» tuzildi. Bir yil o'tgach, 1914-yilda «Taraqqiyparvarlar» firqasining «Sadoi Turkiston» gazetasi nashr etila boshlandi. Gazeta tez orada mashhur jadidchilarning ijodiy va siyosiy markaziga aylandi. Unda muttasil ravishda tarix, madaniyat, milliy meros va siyosiy, ijtimoiy, adabiy, ma'naviy hayotga doir minglab maqolalar, badiiy asarlar chiqib turdi. 1913-yilda jadidlar «Turon» jamiyatini tashkil qildilar. Uning asoschilari Munavvarqori, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev, Abdulla Avloniy, Tavallo, Nizomiddin Xo'jayev, Ilhomjon Inog'omov, Qobilbek Norbekov, Muhammad Poshshaxo'jayev, Toshpo'lat Norbo'tabekovlar edilar. Jamiyatning asosiy maqsadi xalq o'rtasida sahna asarlarining qo'yilishini rivojlantirish, qashshoq musulmonlarga moddiy va ma'naviy jihatlardan ko'mak berish edi.

Toshkentdagi Kolizey teatrida birinchi marta o'zbek milliy teatri — Mahmudxo'ja Behbudiyning «Padarkush» pesasi tomoshabinlarga namoyish etildi. Bu hodisa butun Turkiston madaniy hayotiga kuchli ta'sir qildi. Shu davrda Qo'qonda «G'ayrat», Andijonda «Taraqqiyparvar» jamiyatlari tashkil topdi. Shu paytga kelib, Toshkent va Samarqandda doimiy, Andijon, Buxoro, Namangan, Qo'qon shaharlarida ham muvaqqat teatr guruhlari o'z faoliyatlarini boshladi. Albatta, bu davrda tuzilgan jamiyatlar va teatr guruhlari o'ziga xos jamiyat instituti vazifasini bajarar edi.

Ilgari Turkistonda ko'proq chor hukumati faoliyatini aks ettirishga qaratilgan «Turkestanskie vedomosti» va «Turkiston viloyatining gazeti» kabi nashr chiqib turgan bo'lsa, asr boshiga kelib jadidlarning o'nlab gazeta va jurnallari chop etila boshlandi. Yangi tashkil etilgan «Samarqand», «Oyina», «Turon», «Sadoi Turkiston», «Osiyo», «Taraqqiy», «Xurshid», «Tujjor», «Sadoi Farg'ona», «Al-isloh» kabi nodavlat nashrlar milliy ozodlik, ma'rifatparvarlik va jadidchilik g'oyalarini xalq o'rtasida keng

yoya boshladi. Shuningdek, jadidlar matuboti «qadimchilar» nomi bilan atalgan, feodal jaholat tarafdori bo'lgan ruhoniy va mullalarni ayovsiz fosh etar edi.

1917-yil voqealari va undan keyingi davrlarda ham jadidlar turli usullarda Turkiston milliy mustaqilligi g'oyasini hayotga tatbiq etish uchun keng kurash olib bordilar. Bu paytga kelib jadidlar partiyalari, turli uyushmalari va tashkilotlari ham tashkiliy, ham g'oyaviy jihatdan mustahkamlanib, faoliyat ko'lami ham keng ahamiyat kasb eta boshladi.

Oktabr to'ntarishi arafasida «Ittixodi taraqqiy» («Taraqqiyparvarlar uyushmasi»)ga asos solinadi. Mazkur tashkilotning harakat dasturini Usmonbek bilan Haydar Afandilar ishlab chiqqan edilar. «Ittixodi taraqqiy»ning avgust oyidagi yig'ilishida unga Usmonbek rais, Haydar Afandi esa rahbar etib saylanadilar. Shuningdek, rahbariyat a'zoligi tarkibiga Munavvarqori ham ma'qul ko'riladi. Tashkilotning rejalari quyidagilardan iborat edi: yoshlarni a'zolikka jalb qilish; ruhoniylar bilan kurash olib borish; maktab ishlarini tartibga solish va hokazo.

1918-yil yanvarda ulamolar firqasining bir necha soat hokimiyatni egallashi, ular tomonidan taraqqiyparvarlarning kaltaklanishi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan yangi tashkilot tuzishni taqozo etdi. Toshkentda bir qancha faollar ishtirokida «Birlik» jamiyatiga asos solinadi. O'lkadagi ijtimoiy-siyosiy muhit ta'siri tufayli bu jamiyat bor yo'g'i 2—3 yil faoliyat ko'rsatdi, xolos. Ko'p o'tmay Shayxontohurda o'tkazilgan katta mitingda «Sharq ozodligi» uyushmasi tashkil topdi[26]. Jadidchilik ta'sirida asr boshlarida Buxoroda «Yosh fikrlilar» oqimi vujudga keldi. Abdulvohid Munzim, Mirza Muhiddin, Sadriddin Ayniy, Mufti Domla Ikrom, qozi Abdusamad, Sharifjon Maxzum kabi ilg'or ziyolilar bu oqimning yetakchilari edi. «Yosh fikrlilar» o'z faoliyatlarini yangi usuldagi maktablar (usuli jadid) tashkil etishdan boshlagani uchun «jadidlar» deb ataldilar.

«Tarbiyai atfol» jamiyati tomonidan Istanbulga yuborilgan Abdurauf Fitrat 1909—1913-yillarda o'z bilimini oshirib kelib, o'zining Buxorodagi keng faoliyatini boshladi. Buxoroda «Yosh buxoroliklar» partiyasining faoliyati kuchaydi. Fayzulla Xo'jayev shu partiyaning rahbarlaridan biri edi. XX asr boshlarida ilg'or ziyolilar Xiva xonligida ham Rossiya imperiyasi istibdodidan qutilish maqsadida «Yosh xivaliklar» tashkilotini tuzdilar.

Albatta, Turkistondagi jarayonlar mustamlakachilarning keskin qarshiligiga sabab bo'ldi. Ular jadidlar harakatini yo'qotish uchun butun imkoniyatlari darajasidagi chora-tadbirlarni qo'llay boshladilar. 1907-yilda Turkistonda jandarm boshqarmasi tuzish, siyosiy ta'qibni kuchaytirishga doir takliflar majmuasini ishlab chiqish uchun podsho hukumati graf K.K. Palen rahbarligida maxsus komissiya yubordi. Shuningdek, o'lkadagi ahvolni o'rganish, milliy harakatlarga zarba berish takliflarini tuzish, agentura tizimini mustahkamlash maqsadlarida ig'vogarlik va josuslikda katta tajribaga ega bo'lgan agentlarni Toshkentga safarbar qila boshladi. Ular ilk faoliyatini jadidlar harakatini taftish qilishdan boshladi. 1907-yilda to'g'ridan to'g'ri Peterburgga bo'ysunuvchi maxfiy siyosiy politsiya tarmog'i bo'lgan Turkiston rayon muhofaza qilish bo'limi tashkil etildi. «Oxranka» deb atalgan bu tashkilotni mahalliy xalq «siyosiy idora» deb atardi.

1917-yil fevralda Rossiyada monarxik tuzum — chorizm ag'darilgandan keyin Turkiston xalqlarining milliy mustaqillikka erishishlari uchun najot tug'ilganday bo'ldi. Bu davrda jadidlar Turkistonga muxtoriyat maqomining berilishi uchun keng kurash olib bordilar. Shuningdek, ularning radikal qismi Turkistonni butunlay milliy mustaqillikka erishishi g'oyasini astoydil targ'ibot qila boshladilar.

Milliy mustaqillik uchun kurash jarayonida «Sho'roi Islomiya», «Sho'roi Ulamo», «Mirvaj ul-islom», «Miftah ul ma'orif», «Ravnaq ul-islom», «Ittifoq ul-muslimin», «Turon» kabi turli musulmonlar tashkilotlari tuzildi.

1917-yil 16-aprelda «Sho'roi Islomiya»ning I Umum Turkiston musulmonlari qurultoyi o'z ishini boshladi. Unda faollar Turkiston musulmonlarini ham teng huquqlar bilan ta'minlaydigan demokratik va federativ qoidalar ishlab chiqish, ularni Rossiya konstitutsiyasiga kiritish masalasini talab qilib chiqdilar. Viloyatlardan kelgan vakillar Rossiya Federativ Demokratik Respublikasi tarkibida Turkistonga keng muxtoriyat berish g'oyasini qo'llab-quvvatladilar. Shuningdek, qurultoyda markaziy rahbar organ sifatida Turkiston o'lka musulmon sho'rosini tuzishga qaror qilindi. Uning asosiy maqsadi milliy ozodlik uchun kurashayotgan yuzlab oqimlar, harakatlar va tashkilotlarni birlashtirib, parokandalikka barham berish edi. Chunki bunday birlashuvsiz muxtoriyat uchun kurashning befoyda ekanligi shunday ham ayon edi.

Turkiston o'lkasi sho'rosining 1917-yil 12-iyundagi majlisi maxsus nizom qabul qilib, unga binoan, barcha musulmon tashkilotlari, ularning shahar, uyezd, volostlardagi kengashlari deputatlari har qanday milliy va ijtimoiy tabaqaga mansub bo'lishidan qat'iy nazar, birlashishlari, shuningdek, ularning barchasi markaziy musulmon deputatlari sho'rosiga bo'ysunishlari lozim edi. Nizom o'sha davrdagi demokratik tamoyillarga amal qilib, o'lka musulmon sho'rosi biron bir sinf, partiya, millat yoki qabila organi emas, balki mavjud qonunchilik doirasida faoliyat ko'rsatuvchi, vakolatli umummusulmon boshqaruv organidir, deb bayon etilgan edi[27]. Bu tashkilotning tuzilishi, uning faoliyati xalqning milliy o'zligini anglashi, siyosiy harakatlarda ishtirok etish madaniyatining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Dastavval Xivada jadidchilik harakati XIX asr oxirida vujudga kelgan edi. Yangi asr boshlarida «Yosh xivaliklar» tashkiloti xalq ichida ommalashib ketdi. 1917-yilning 5-aprelida «Yosh xivaliklar» ishtirokida 50 kishidan iborat Oliy Majlis tuzildi. Jadid faollaridan ikkita hukumat a'zosi, majlis raisi saylanadi. Bir tomondan, Junaidxonning bu Oliy Majlisni tan olmaganligi, ikkinchi tomondan, Rossiya muvaqqat hukumatining «Yosh xivaliklar»ga qarshi turishi tufayli xon Oliy Majlisni tarqatishga majbur bo'ladi. 1919-yil oxirigacha Xivada hukumat tarkibi «Yosh xivaliklar»lardan iborat bo'lsa-da, haqiqiy hokimiyat Junaidxonning qo'lida edi.

1920-yil 20-yanvarda qizil armiya qo'shinlari Xivaga kirganidan keyin bu hokimiyatga barham beriladi. Shu yilning 1-fevralida Xorazm Xalq Jumhuriyati e'lon qilinib, «Yosh xivaliklar»dan iborat hukumat tuziladi. «Yosh xivaliklar» tashkiloti rahbarlari ikki marta qamoqqa olinadi. Shundan keyin Xivada Proletar Sho'ro hukumati tuzilib, uning a'zolarini bolsheviklar tashkil etadilar. Shu tariqa bolsheviklar tomonidan Xivadagi jadidlar hukumatiga barham beriladi. Bu harakatning rahbarlari, faollari ta'qib ostiga olinadi.

1921-yil 23-sentabrda Buxoro Xalq Jumhuriyati hukumat sho'rosi raisi etib saylangan jadidchi Usmon Xo'ja boshchiligidagi hukumat bilan bolsheviklar o'rtasidagi ziddiyat kuchli edi. Usmon Xo'ja sovetlarni Buxorodan chiqarib yuborish harakati tashkilotchilaridan biri bo'lgani uchun ham oradan bir yil o'tgach, u boshchiligidagi hukumat a'zolari qamoqqa olinadi. Natijada hokimiyat butunlay sho'ro qo'liga o'tadi[28].

Sovetlar tomonidan tarqatib yuborilgan Xiva milliy hukumatining ayrim vakillari, Buxoro hukumati arboblari hamda

Turkistonning boshqa mintaqalaridagi faollar say'i-harakati bilan tuzilgan jadidlar partiyasi va sotsialistik «Erk» partiyasi xalqning milliy uyg'onishi, mustaqillik uchun katta faoliyat ko'rsatdilar.

1921-yilda Buxoroda jadidlar, «Erk» sotsialistik va qozoqlarning «Alash O'rda» partiyalari tomonidan uzoq maslahatlashuvlar va muzokaralar natijasi o'laroq, «Umum platforma» qabul qilinadi. U quyidagi bandlardan iborat edi: 1) Milliy mustaqillik; 2) Demokratik jumhuriyat; 3) Milliy askar; 4) Iqtisodiy idora, temiryo'l qurish, kanallar qazish, Turkistonning asl mustaqillik asoslarini yuzaga keltirish; 5) Ma'orifni tamoman isloh qilish hamda Yevropa madaniyati bilan uyg'unlashtirish choralarini qidirish; 6) Milliy maktablar, mamlakatning tabiiy boyligidan unumli foydalanish masalalarini mamlakatda yashayotgan millatlarning ehtiyojidan kelib chiqqan holda hal etish; 7) Dinga to'la hurriyat berib, din bilan dunyo ishlarini bir-biriga aralashtirmaslik.

Shuningdek, ko'p o'tmasdan jadidlar va «Erk» partiyalarining dasturlari ham zamon va mavjud vaziyat talablariga muvofiq qaytadan ko'rib chiqildi. Jadidlar partiyasi a'zolari o'zlarini milliy liberal yo'nalishdagi partiya deb bilsalar, «Erk» partiyasi sotsialistik yo'nalish maqomini olgandi.

1922-yilning 30-iyulida Buxoro jumhuriyati raisi Mirza Abduqodir Muhiddinov hovlisida asosan ziyolilar ishtirokidagi majlisda «O'rta Osiyo musulmon Milliy Xalq Inqilob jamiyatlari ittifoqi» nomli yashirin tashkilot tuziladi. Majlis yetti moddadan iborat dastur qabul qiladi.

Ko'p o'tmay jamiyatning nomi «Turkiston Milliy Birligi» deb o'zgartirildi. 1922-yil 2–5-avgust kunlari uning birinchi Kongressi bo'lib o'tdi. Sentabr oyida esa Samarqandda tashkilotning navbatdagi kongressi o'tkazildi. Unda bosmachi guruhlar bilan aloqalar o'rnatish, shuningdek, ularga siyosiy maslahatchilar jo'natishga qaror qilindi.

Keyinchalik Buxoro Xalq Jumhuriyati raisi Fayzulla Xo'jayev bu tashkilotga rahbar etib saylanadi va u mazkur tashkilotni yanada rivojlantirib, uni «Milliy Ittifoq» firqasi nomi ostida siyosiy partiya darajasiga ko'taradi. F. Xo'jayev uzoq yillar unga rahbarlik qildi[29].

Jadidchilik harakati ham tashkiliy, ham siyosiy oqim sifatida o'z davrining taraqqiyot omili bo'lib xizmat qildi. Jadidlar harakati arboblari bu oqimning nafaqat siyosiy va ma'rifiy-mafkuraviy jihatlarini, balki uning tashkiliy-uslubiy, dasturiy sifatlarini ham

tahlil qilib berganlar. A. Fitrat, M. Behbudiy, F. Xo'jayev va boshqa jadidlar partiyasi arboblarining maqolalarida bu xususda ko'plab fikr-mulohazalar, tahlil va qarashlar o'z aksini topgan. Jadidlar yo'lboshchilari o'z davrining eng ilg'or mutafakkirlari bo'lib, ular demokratiya shart-sharoitlari, liberal tuzum mohiyatini qalban chuqur anglagan edi.

XX asrning 20-yillaridan boshlab ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha jabhalarini o'z nazoratiga olib, har qanday hurfikrlik va milliy ijtimoiy-siyosiy harakatlarga yovuz munosabatda bo'lgan bolsheviklar partiyasi asta-sekinlik bilan jadidlar harakatini tugatish yo'lini tutdi. Chunki, jadidlar o'z siyosiy dasturidagi maqsadlari, mafkurasi va ma'naviy kamoloti bilan bolshevizmga mutlaqo zid edi. Jadidchilik o'z Vatanlarini ozod va mustaqil ko'rish ishtiyoqida uyushgan siyosiy oqim edi. Bolsheviklar esa Turkistonning Rossiya tarkibida bo'lishini istar, shuningdek, bolshevistik aqidalar niqobi ostida rus shovinizmi va imperiyachilikni yangicha tuzum va shart-sharoitlarda yanada mukammalroq ravishda davom ettirar edi.

Turkistonda siyosiy hokimiyatning hamma jabhalarini egallab olgan bolsheviklar partiyasi 20-yillardan boshlab jadidlar harakatining yo'lboshchilariga qarshi ochiq hujumlarga o'tdi. Bu davrga kelib maxsus tashkilotlarda ular faoliyati to'g'risida barcha hujjatlar yig'ilgan bo'lib, jadidlar yetakchilari goh ochiq, goh doimiy yashirin ta'qibda edi. Jadidlar faollariga nisbatan «millatchi», «burjuaziya ayg'oqchisi», «kapitalistik mamlakatlar ayg'oqchisi» kabi turli xil tuhmatomuz ayblar qo'yila boshlandi. Ayniqsa, bolsheviklar bilan hamkorlik qilishni istamagan jadidlar qisqa muddat ichida barcha lavozimlardan ozod qilinib, quvg'in qilindi. Bolsheviklar bilan hamkorlik qilganlar esa 30-yillarga kelib uzil-kesil yo'q qilindi.

Jadidlar quyidagi sabablarga ko'ra ham bolsheviklar bilan kelisha olmas edi:

- avvalo ular kommunistik partiyaning diktaturasi, shuningdek, Turkistonning Moskvaga siyosiy-iqtisodiy qaramligidan norozi edilar;

- o'sha paytlardayoq Turkistonga tahdid solayotgan paxta yakkahokimligiga qarshi edilar;

- Turkistonga ko'plab rusiyzabon aholining ko'chirib keltirilishini xushlamas edilar;

- davlat idoralarini mahalliy millat vakillari idora etishi lozim, deb hisoblar edilar;

- Turkistonning maydalab tashlanishiga qarshi edilar;

- yer-suv islohotining tazyiq va kuch ishlatib borilishi tufayli ko'plab o'zbeklarning Vatandan bosh olib ketayotganligiga kuyinardilar;

- ular proletar diktaturasi siyosati va Sovet hokimiyati tizimi Turkiston uchun na milliy, na tarixiy taraqqiyot va milliy meros jihatlaridan to'g'ri kelmasligini chuqur anglab yetgan edilar.

Boshqacha aytganda, jadidlar Turkistonning mustaqil davlat bo'lishini xohlar, shu maqsad yo'lida kurash olib borar edilar.

Juda qisqa vaqt faoliyat ko'rsatgan, lekin Vatanimiz milliy mustaqilligi uchun astoydil kurash olib borgan jadidlar harakatining yaqin o'tmishdagi ahamiyati beqiyosdir. Jadidlar harakati tufayli o'zbek xalqining asl farzandlari mustaqillikka erishish uchun uyushish lozimligini anglab yetdilar, shuningdek, ular ilk bor mustabid tuzumga qarshi kurash va siyosiy hokimiyatda ishtirok etishning o'ziga xos siyosiy madaniyati va kamolotiga erishish tajribasining shakllanishiga ulkan hissa qo'shdilar.

Jadidlar harakati Turkistonning XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy taraqqiyotining tabiiy hosilasi edi. Lekin yakkahokim kommunistik mafkura, siyosiy hayotning hamma jabhalarini egallab olgan bolsheviklar partiyasi mustaqillik ishtiyoqida yongan jadidlar harakatini kuch va aldovlar yo'li bilan yo'q qildi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Sharq uyg'onish davrida qaysi allomalar fozil jamiyatga doir nazariy meros qoldirgan? Fozil jamiyat nima?

2. Forobiy fozil va johil jamiyatlarga qanday baho bergan?

3. Alisher Navoiy «ahli ma'ni»ni ta'riflaganda qanday jamiyat odamlarini nazarda tutgan?

4. «Temur tuzuklari»da jamiyatni adolatli boshqarishga doir qanday tuzuklarni keltirilgan?

5. Jadidlar qanday davlat va jamiyat qurishni orzu qilganlar?

3-mavzu: FUQAROLIK JAMIYATIGA DOIR ZAMONAVIY QARASHLAR VA ULARNING RIVOJLANISHI

1. Fuqarolik jamiyatini o'rganishning dastlabki bosqichidagi qarashlar tahlili.
2. Fuqarolik jamiyatining zamonaviy talqinlari.
3. Fuqarolik jamiyatining umumiy belgilari va tasnifi.

1. Fuqarolik jamiyatini o'rganishning dastlabki bosqichidagi qarashlar tahlili

Fuqarolik jamiyati nazariyasi insoniyat tomonidan yaratilgan siyosiy qarashlar tarixi — jamiyat va inson, siyosat va davlat to'g'risidagi nazariy qarashlarga, shuningdek ilk jamoalardan to hozirgi davrgacha bo'lgan jamiyatlar rivojlanishining tajribasi asosida takomillashib bordi. Shu bilan birga, fuqarolik jamiyati unsurlarining nazariy jihatlari bundan bir necha ming yil oldin kashf etilganligiga e'tibor berilsa, bu jamiyat insoniyat yaratgan sivilizatsiyalarning eng so'nggi hosilasi o'laroq shakllanganligiga ishonch hosil qilamiz[30].

Mustaqillikning dastlabki kunlaridayoq Prezident I.A.Karimov quyidagi dasturilamalni ilgari surgan edi: «Bizning bosh strategik maqsadimiz qat'iy va o'zgarmas bo'lib, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevorini shakllantirishdan iboratdir»[31]. Albatta, mazkur strategik maqsad nafaqat bu sohadagi islohotlarni chuqurlashtirishni, balki fuqarolik jamiyatiga doir zamonaviy nazariyalarni chuqur o'zlashtirishni ham taqozo etadi. Turli rivojlangan mamlakatlarda shakllangan fuqarolik jamiyatlari o'zining shaklan milliy jihatlari bilan o'zaro bir-birlaridan farqlansada, ularning hammasi uchun bir xil ahamiyat kasb etadigan umumiy jihatlari ham mavjuddir. Bu holat fuqarolik jamiyatiga doir nazariy qarashlarni o'rganishni nihoyatda dolzarb vazifa ekanligini anglatadi.

Fuqarolik jamiyati unsurlari to'g'risida ilk tasavvurlarning shakllanishida Aristotel (er. il. 384–322 yy.) asarlari muhim ahamiyatga egadir. U o'zining «Siyosat», «Afina politiyasi», «Etika», «Ritorika» kabi asarlarida jamiyatni takomillashtirish g'oyalarini ilgari surdi. U birinchi bo'lib «demokratiya» tushunchasini mufassal va aniq tarzda yaratib berdi[32].

Umuman olganda, «fuqarolik jamiyati»ga doir sodda va dastlabki tushuncha ildizlari asosan Aristotel izlanishlariga borib taqaladi. Bu jamiyatni Aristotel *«politike koinonia»*, ya'ni, «siyosiy birlik/hamjamiyat», deb atagan edi. Bu tushunchaning lotin tilidagi ifodasi *«societas civilis»* («fuqarolik jamiyati») qabilida qabul qilindi. Bu tushuncha polisni aniqlash uchun xizmat qilib, uning zamirida *«zoon politikon»* — «siyosiy mavjudot» sifatidagi inson «telo»si, ya'ni maqsadi (yunoncha) ma'nosi tushunilgan. Aristotel tomonidan *«Politike koinonia»* («fuqarolik jamiyati») tushunchasi «siyosiy jamiyat»ning muqobili (sinonimi) sifatida ham ishlatilgan. Zero, qadim yunon o'lkasida oila, e'tiqod, ma'rifat, madaniyat, san'at, umuman hayotning barcha-barcha qirralari siyosatlashtirilgan edi. Buning ustiga, alohida olingan shaxs o'zini jamiyatdan ayrim holda his qila olmas edi[33].

Fuqarolik jamiyatiga xos ilk qarashlar va ilmiy o'rganishga doir uslubiy yondashuvlar bir necha asrlar davomida vujudga keldi. Jon Lokk va Immanuil Kant kabi faylasuflar ham «fuqarolik jamiyati» deganda, avvalo, «davlat»ni tushunishga moyil bo'ldilar. Ammo, bora-bora fuqarolik jamiyati bilan mutlaq davlat institutlari o'rtasidagi tafovut ko'zga yaqqolroq tashlanaverdi. Tomas Gobbs, Jon Lokk, Sharl de Monteske kabi olimlar jon-jahdlari bilan himoya qilgan individualizm konsepsiyasi esa kun tartibiga jamiyatning erkin fuqarosi, shuningdek, shaxs erkinligi masalasini qo'ydi. Fuqarolik jamiyati to'g'risidagi mavjud konsepsiyalar o'ziga ko'plab murakkab muammolar tizimini qamrab oldi. Bu nazariyalarni, ularning metodologik manbalari va tarixiy yo'nalishini tadqiqot jarayonidagina anglash mumkin.

Yevropada fuqarolik jamiyati to'g'risidagi ilk g'oyalar XVII asr o'rtalarida Tomas Gobbsning «Tabiiy va siyosiy qonunlar unsurlari», «Fuqaro haqida», shuningdek boshqa davlat va hokimiyatga doir («Leviafan») asarlarida o'z ifodasini topganidan keyin shakllandi. Shu davrdan boshlab fuqarolik jamiyati dolzarb ijtimoiy-siyosiy tasavvur va tushuncha sifatida takomillashib bordi[34].

Fuqarolik jamiyati to'g'risidagi yangi qarashlarning dastlabki muammolaridan biri — uning kelib chiqishidagi tabiiylik bilan ijtimoiy-siyosiy jihatlarini asoslab berish edi. Bu davrda insonning o'zini ikki xil — tabiiy va ijtimoiy kelib chiqishi to'g'risidagi qarashlar paydo bo'lgan edi. Unga binoan, jamiyat, davlat va uning siyosati tabiiylik kasb etishi lozim. Jamiyatning ana shunday tabiiy boshlanishini sivilizatsiyaga erishganlik, deb baholash rasm

bo'ldi. Natijada civitas (sivitas) — shahar, tushunchasidan civilitas (sivilitas) — boshqaruv, fuqarolik, davlat, siyosat, fuqarolik jamiyati (qadimgi Rimdagidek) tushunchasiga o'tish boshlandi[35].

Demokratik jamiyat qurish masalalari sohasida boy ilmiy meros va tadqiqot uslublarini shakllanishiga katta hissa qo'shgan mutafakkirlardan biri Jan-Jak Russodir (1712–1778 yy.). Russo o'rta – «uchinchi tabaqa» mafkurasi asoschilari jumlasiga kiradi.

Russoning yozishicha, «tabiiy holatda ozgina bo'lgan notenglik bizning qobiliyatlarimiz rivojlanishi va inson tafakkuridagi muvaffaqiyatlar hisobiga o'sib boradi va nihoyat, mulkchilik va qonunlarni o'rnatilishi natijasida yanada mustahkamlanadi va qonunlashadi»[36]. Natijada shaxslar o'rtasidagi notenglik huquqi tabiiylik huquqi bilan ziddiyatga kirishadi. Shundan kelib chiqib, Russo ilgari surgan ijtimoiy shartnomaga muvofiq holda xalqning suverenlik huquqi asoslab berildi: shartnoma faqat xalq va hukumat o'rtasida emas, balki millatning barcha a'zolari o'rtasida tuziladi. Bu shartnoma ijtimoiy atomlar qorishmasi yoki individumlar yig'indisi emas, balki *hamyurtlar-vatanparvarlar hamjamiyatidir.* Hamyurtlar irodalari mexanik yoki arifmetik jihatlardan birlashmaydi, bu «barchaning irodasi» emas, balki haqiqiy hamyurtlar umumiy manfaatlarini ifodalaydigan umumiy irodadir. Bu umumiy iroda «har vaqt doimiy, o'zgarmas va shaffofdir»[37]. U o'zida bo'linmas va ajralmas *xalq suverenitetini* ifodalaydi, hukumat xalqning qo'lidan xalq irodasiga muvofiq bajaradigan ijroiya hokimiyatni topshiriq sifatida oladi va u bu irodani buzishga haqqi yo'q.

Umuman, Russoning nazariy qarashlari, ayniqsa, xalq suverenitetiga doir ilmiy merosi hozirgi davrdagi fuqarolik jamiyatiga oid nazariy qarashlarni rivojlanishiga muhim hissa qo'shdi. Uning axloq me'yorlari va ijtimoiy shartnoma asosida jamiyat barpo etishga doir ilmiy izlanishlari inson erkinligi va huquqini ta'minlash sohasidagi birlamchi manba sifatida yashab kelmoqda. Shuningdek, jamiyatni o'rganishning Russo asoslab bergan uslubiy yondashuvlari hozirga qadar o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Fuqarolik jamiyatiga doir nazariy va metodologik manbalarni rivojlanishida Immanuil Kantning (1724–1804 yy.) munosib hissasi bor. Kant fuqarolik jamiyati barpo etishni insoniyatning eng asosiy vazifasi, deb bildi: «Inson zotini o'z muammolarining yechimini topishga intilishi natijasi, bu — umumiy huquqiy

fuqarolik jamiyatiga erishishdir. O'z a'zolariga buyuk erkinliklar beradigan jamiyatgina o'zida to'la antagonizm mavjud bo'lishiga qaramasdan, boshqalarning erkinliklari bilan kelisha oladi, bu erkinliklarni aniq belgilab beradi. Faqat shunday jamiyatdagina tabiatning oliy maqsadi amalga oshishi mumkin: insoniyatga ato etilgan barcha qobiliyat nishonalari rivojlanadi; shu bilan birga, unga nisbatan belgilangan boshqa maqsadlar qatorida ana shu maqsad ham o'z-o'zdan amalga oshishi tabiatning xohishidir. Insonning fuqaro sifatidagi muhim huquqiy belgisi erkinlik, tenglik va mustaqillikdir»[38].

Shubhasiz, fuqarolik jamiyati va davlat munosabatlarini mukammal ishlab chiqqan mutafakkirlardan yana biri Georg Gegeldir (1770–1831 yy.). Fuqarolik jamiyati, deb ta'rif beradi Gegel, faoliyati qonun bilan boshqariladigan shaxslar, sinflar, guruhlar va boshqa institutlarning majmuasi bo'lib, bu majmua to'g'ridan to'g'ri siyosiy davlat boshqaruviga bog'liq emas. Shuningdek, Gegel bu haqda quyidagi fikrni bildirgan: «Fuqarolik jamiyatining tabiati shundayki, unda har bir alohida insonning huquqi davlatning shaxsiy huquqiga aylanishga ulgurgan bo'lib, unda davlat «o'zining zimmasiga» mening huquqlarimni xuddi o'zining huquqlaridek himoya qilish va qaror toptirish majburiyatini oladi»[39].

Gegel birinchilardan bo'lib «davlat» va «fuqarolik jamiyati» o'rtasida ham tafovutlar, ham o'zaro bog'liqliklar borligini ta'kidlab, fuqarolik jamiyatini inson mehnati rohatini topadigan joy, deb qaraydi. Shu bilan birga, mutafakkir davlat insonga bunday jamiyat qurish imkoniyatini ochib beradi, degan fikrni bildiradi[40].

G'arbiy Yevropa mamlakatlari jamiyatlaridagi o'rta mulkdorlar tabaqasining mustahkamlanib borishi, sanoat va savdoning rivojlanishi, bozor munosabatlarining kengayib borishi bilan erkinlashtirish (liberalizm) mafkurasi ham shakllanib bordi. XIX asrga kelib bu mafkura ta'siri siyosiy va intellektual oqimga aylandi. Bu mafkuraning tarafdorlari boshqa turlicha ijtimoiy tabaqalarda ham mavjud edi. Lekin, liberalizmning asosiy ijtimoiy tayanchi, avvalo, sanoat va savdo sohasidagi o'rta tadbirkorlar, shuningdek mayda mansabdorlarning ba'zi vakillari, erkin kasb egalari va universitetlar olimlaridan iborat edi.

O'rta ijtimoiy qatlam, ya'ni «uchinchi tabaqa»ning liberal mafkurasini yaratishga Ieremiya Bentam (1748–1832 yy.) katta hissa qo'shdi. Bentam XIX asrdagi liberalizmga asos solgan mutafakkirlardan biridir. Lekin, Bentam liberalizmining betakror

tomonlari ham bor. Ma'lumki, liberalizmning negizi, deb shaxs erkinligi to'g'risidagi qoida, individning xususiy mulk va siyosiy-huquqiy tizim tomonidan ta'minlanadigan faoliyatining avtonom kengligi va individning o'zini o'zi ifodalay olishi kabilar tushunilgan. Lekin Bentam alohida olingan inson haqidagina fikr yuritmaydi, balki u ko'proq shaxsning xavfsizligi va manfaatlari nuqtayi nazaridan fikr yuritadi. Inson o'zining g'amini o'zi yeyishi, o'z farovonligini o'zi ta'minlashi, tashqi yordamga kamroq muhtoj bo'lishi lozim. Faqat insonning o'zigina shaxsiy manfaat va foyda nima ekanligini belgilay oladi. Bentam individlarga erkinlik berish bilan jamiyatga ko'proq foyda keltirish mumkinligini aytgan edi[41]. Shu bilan birga, Bentam fuqarolik jamiyatining eng muhim belgisi bo'lgan inson erkinligi va uning mezonlarini tahlil etishning uslubiy asoslarini rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

Liberalizm asoschilari ichida Jon Styuart Mill (1806–1873 yy.) alohida ajralib turadi. Millning fikricha, axloqiylikning oliy darajada ifodalanishi, bu ideal insoniylik bo'lib, bu fazilat boshqalarning baxtu saodati uchun jamiyatga fidoyilik bilan xizmat qilish demakdir. Bularning hammasi faqat erkin inson uchun taalluqlidir. Individ erkinligi shunday «farmonbardor yuksaklikki», uni Mill siyosiy va huquqiy muammolarni hal etish kafolati, deb qabul qiladi. Erkinlik liberalizm uchun an'anaviy bo'lib, ular quyidagilardir: insoniy shaxs erkinligini saqlash va uning uchun shart-sharoit yaratish, erkinlik, tartib va taraqqiyot, optimal siyosiy tuzum, davlatning ta'sir qilish darajasining chegaralanganligi va hokazo[42].

Mutafakkir talqiniga binoan, individual erkinlik insonning faqat o'ziga tegishli bo'lgan xatti-harakatlaridagi mutlaq mustaqillikdir; bu shuni ifodalaydiki, insonning bu sohada o'ziga o'zi janob bo'lish imkoniyati va unda o'zining shaxsiy fikri asosida xatti-harakat qilishidir. Mill individual erkinlik doirasi sifatida xususan quyidagilarni ajratib ko'rsatadi: fikrlash va fikr bildirish erkinligi, boshqa individlar bilan o'zaro harakatdagi erkinlik, hayotiy maqsadlarni tanlash va ulardagi erkinlik, shaxsiy taqdirni mustaqil belgilash. Bularning hammasi individning rivojlanishi, faoliyatini o'zi amalga oshirishi, shu bilan birga, tashqaridan avtonom shaxsga o'tkaziladigan tazyiqlarga to'siqlar qo'yilishidir.

Mill fuqarolik jamiyatining asl mohiyatini quyidagicha ifodalaydi: «Qanday boshqarilishidan qat'iy nazar, individum fikrlash va so'z erkinligiga, shuningdek, uyushmalar tuzish

erkinligiga ega bo'lmagan jamiyatning o'zi erkin emas. Faqat shunday jamiyatni erkin deyish mumkin: unda individual erkinlikning barcha turlari kimligidan qat'iy nazar mazkur jamiyatning barcha a'zolarining hammasi uchun bir xilda mutlaq ravishda mavjud bo'ladi. ...Agar jamiyat har bir insonni qanday yashashini boshqalar tomonidan majburiy belgilab berishiga emas, balki, har bir insonga o'zi eng yaxshi deb tanlagan hayot tarzini kechirishiga imkon yaratib bersa, u faqat yutuqqa erishadi»[43].

Millning liberalizm mafkurasi g'oyalari nafaqat individual erkinlik, balki davlat va jamiyatni tashkil etish mexanizmini demokratik va huquqiy asoslarda tashkil etishga yo'g'rilganligi bilan e'tiborlidir. Xullas, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat konsepsiyasi liberal siyosiy fikrlarning bosh maqsadlaridan biridir. Hattoki, liberalizm asoschilari jamiyatni kuchli bo'lishi uchun davlat hokimiyati boshqaruvi faoliyati chegarasi va yo'nalishlarni aniq belgilash, ularning bajaradigan funksiyalari hajmini ko'payib ketmasligining tarafdori bo'lib chiqdilar. Masalaning ana shunday tarzda qo'yilishi esa tarixiy zaruriyat edi. Mill ilmiy merosi fuqarolik jamiyatining eng muhim jihatlarini o'rganish uslubiyati sifatida ham hozirga qadar o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

XIX asrning birinchi yarmida Fransiyada yangi shakllangan o'rta qatlamlar mafkurasi asoschilaridan biri Benjamen Konstanning (1767–1830 yy.) fuqarolik jamiyatini shakllantirish, jamiyat a'zolari erkinliklarini ta'minlash bilan bog'liq holda huquqiy davlat qurishga doir nazariy qarashlari hozirgi davr liberalizmi g'oyalarini shakllanishiga katta turtki bo'ldi. Aksariyat olimlar asosli ravishda Benjamen Konstan tomonidan umrining so'nggi yillarida yozgan asarlaridan kelib chiqqan holda, uni «Yevropa liberalizmining ruhiy otasi», deb ham ataydilar.

Konstan inson huquqlari va erkinligi ta'minlanmasa, u jamiyatda mustaqil shaxs sifatida va erkin tafakkurlash asosida o'zini o'zi namoyon qila olishiga ishonmaydi. Kishilar o'zlarining individual xatti-harakatlari evaziga o'zlaridan yuqori turadigan qandaydir shaxslarning hukmronligisiz ham munosib hayot kechira olishga qobildirlar. Ana shu qarashlarga amal qilgan Konstan Jan-Jak Russoning xalq suvereniteti ulug'vorligiga erishish to'g'risidagi tezislariga tuzatishlar kiritadi. Bu suverenitet chegarasi «xususiy shaxs va shaxsiy hayot mustaqilligi» boshlangan joyda tugashi lozim. Ana shunday doiraning mavjudligi hokimiyatning kuchayib ketmasligini tiyib turish va uning ustidan nazorat etishni

jamiyat siyosiy-institutsional tuzilishining muhim prinsipiga aylantiradi.

Jamiyat va jamoatchilik fikri tomonidan nazorat etiladigan davlat hokimiyati institutlari bilan bir qatorda matbuot erkinligi, shaxsiy erkinlik kafolati singari mezonlarga tayanadigan huquq ham yuqori darajaga ko'tarilishi lozim. Konstan huquqni jamiyatni tashkil etishdagi o'rniga yuksak baho berib, huquq har qanday ko'rinishlardagi o'zboshimchalikka qarshi turishini ochib beradi. Huquqiy shakllar «insoniy jamiyatning go'yoki farishta-saqlovchilari», tashkiliy mohiyati, «insonlar o'rtasidagi munosabatlar uchun shart-sharoitlar yaratuvchi birdan bir imkoniyatlar asosi»dir[44].

Fuqarolik jamiyati sharoitida shaxsiy erkinlikni barcha huquqiy asoslar vositalari bilan ta'minlash va uni qattiq himoya qilishga kirishgan mutafakkirlardan biri — Benjamen Konstanning vatandoshi — Aleksis de Tokvildir (1805–1859 yy.). Uni dunyoga mashhur qilgan asarlari — bu «Amerikada demokratiya» va «Eski rejim va inqilob» nomli kitoblaridir.

Tokvil asosan demokratiyaning nazariy va amaliy jihatlariga ko'proq qiziqdi. Bu sohani u o'z davrining eng ahamiyatli voqeligi, deb qaradi. Shuningdek, Tokvil demokratik institutlar qatoriga matbuot erkinligi, maslahatchilar sudi, sudning mustaqilligi kabilarni ham kiritadi[45]. Tokvil yetuk demokratiya nazariyotchisi, bir vaqtning o'zida izchil liberal sifatida ana shu haqiqatni chuqur anglab yetdi va ularni liberalizmning asosiy qadriyatlari sifatida ifoda etdi. Darhaqiqat, ana shu qadriyatlar xalqning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etgan davrida, ya'ni, tenglik oliy maqom darajasiga ko'tarilgandagina oliy qadriyat — erkinlikni to'liq, bekamu ko'st ta'minlash imkoniyatlari tug'iladi.

XIX asrning birinchi yarmida fuqarolik jamiyatiga doir nazariy qarashlarni rivojlantirishga katta hissa qo'shgan nemis olimlaridan liberalizm mafkurasining yirik namoyandalari qatoriga — Fridrix Dalman, Robert fon Mol, Kerl Rottek, Karl Velker, Yulius Fryobel kabilarni kiritish mumkin. Ularning qarashlari va faoliyati o'sha davrdagi Germaniya siyosiy va ruhiy iqlimiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Lekin, ularning ichida umum Yevropa ahamiyatiga ega bo'lgani, liberal g'oyalari va asarlari bilan tanilgani — Vilgelm fon Gumboldtdir.

Vilgelm fon Gumboldt (1767–1835 yy.) Immanuil Kant bilan ilk nemis liberalizmi davrining mashhur namoyandasi

sifatida shuhrat qozongan edi. Gumboldtning davlatga nisbatan umumiy nuqtayi nazari — insoniy individualizm g'oyasidir. Unga muvofiq, individualizmni davlat qanchalik egallashi emas, balki, insonlar davlat bilan bo'lgan nisbatda uni naqadar egallashi bosh demokratik mezon maqomida qabul qilinadi. Gumboldtga binoan, asosiy vazifa «davlatda inson uchun ko'proq qulay bo'lgan holatlarni topish»dir. Insonlar o'rtasidagi turlicha va mustahkam munosabatlarda har tomonlama rivojlangan individuallik va o'ziga xoslik inson «Men»ining yaqqol namoyon bo'lishiga imkoniyat yaratadi.

Gumboldt ijtimoiy fanlar tomonidan XVIII asrda boshlangan jamiyat va davlatni differensiyalash («fuqarolik jamiyati») tarafdori edi. Bu differensiyalash chegaralari esa quyidagicha o'zaro farqlanishlardan iborat bo'ldi: 1) milliy muassasalar tizimi (tashkilotlar, ittifoqlar, individlar tomonidan, quyidan shakllanadigan har qanday uyushmalar) bilan davlat institutlari va xizmati o'rtasidagi farqlanish; 2) «tabiiy va umumiy huquq» bilan bevosita davlat tomonidan tuziladigan pozitiv huquq o'rtasidagi farqlanishlar; 3) «inson» bilan «fuqaro» o'rtasidagi farqlanishlar.

Davlatning yashash maqsadi — jamiyatga xizmat qilishdir: «davlat hokimiyatining haqiqiy hajmi jamiyat farovonligi uchun barcha imkoniyat darajasida qilish kerak bo'lgan barcha ishlardir». Gumboldt mavhum «jamiyat» tushunchasida jamiyatni alohida-alohida tashkil etuvchi individni anglashga intiladi. Undan shunday tezis kelib chiqadi: «davlat tuzumi yagona maqsad emas, balki u insonning rivojlanishi uchun bir vositadir»[46], xolos.

Gumboldtga binoan davlat funksiyalarining faolligi doirasi keskin qisqargan edi. Uning sababini u quyidagicha izohlaydi: kishilarni yagona ijtimoiy uyushmaga birlashtirish cheksiz va turli-tuman insoniy kuch hamda faoliyatlarni yaratadi. Ana shunday sharoitlarda boy qiyofalar, to'laqonli xarakterlar rivojlanadi; unda o'z qadr-qimmatiga egaligidan faxrlanadigan ichki g'ururga va erkinlikka doxil insonlar shakllanadi. Davlat esa o'z tabiati va o'tmishidan kelib chiqib, betakrorlik, turli-tumanlik, har qanday ziddiyatlar va mojarolarga betoqatlik bilan munosabatdagi oliy hokimiyatni o'zida mujassamlashtiradi. Chunki, u ijtimoiy uyushishga xos, individualliklar, manfaatlar, irodalar, turlicha fikrlar, xatti-harakatlarning cheksiz turli tumanligini noxush qabul qiladi.

Davlat individ va millat uchun kishilarga otalarcha g'amxo'rlik va homiylik qilish, paternalistik vazifalarni o'z zimmasiga olgan paytidan boshlab jiddiy xavfga aylanadi. Gumboldt shunga

ishonadiki, hukmdorlarning (hukumat, mansabdorlar) g'amxo'rligi va homiyligi hisobiga tarbiyalanayotgan fuqarolarning individ sifatidagi irodasi va energiyasi bo'shashadi, ularning o'z hayotlarida paydo bo'lgan muammolarni mustaqil hal etish qobiliyatlari pasayadi, qiyinchiliklarni o'z kuchi bilan yengishini gumon ostiga qo'yadi.

Davlat tomonidan doimiy yordam kutib turish oqibatida insonning faoliyatsizlik darajasi oshib boradi, u esa o'z o'rnida qashshoqlikka olib keladi. Fuqarolik ruhi ham so'nib boradi. «Agar har bir odam o'ziga nisbatan davlatning g'amxo'rligi va yordamiga umid bilan yashasa, unda u, albatta, o'zining hamfuqarolari taqdiri to'g'risida kamroq o'ylaydigan bo'lib qolishi shubhasizdir. Bunday holat insonning o'z yaqinlariga bo'lgan hamdardligini yo'qotadi, kishilarni o'zaro bir-biriga yordamlashishga tayyor turish kayfiyatini ham yemiradi. Aqalli, shuni aytish mumkinki, insonda barcha narsa o'ziga bog'liq ekanligini seza oladigan ong yuksalgan jamiyatda o'zaro ijtimoiy ko'mak unumli darajaga ko'tariladi»[47].

Nemis mutafakkiri Gumboldtning g'oyalari hozirga qadar o'z dolzarbligini saqlab kelmoqda. Gumboldt tomonidan jamiyatni ilmiy tahlil qilish, fuqarolik jamiyatining mezonlarini belgilashga doir uslubiy yondashuvlar siyosiy fanlarning tadqiq etish vositasi sifatida yashab kelmoqda.

2. Fuqarolik jamiyatining zamonaviy talqinlari

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab «fuqarolik jamiyati» tushunchasi yer yuzi bo'ylab keng tarqaldi. Hozirgi davrda ham bu tushuncha ko'plab munozaralarga mavzu bo'lmoqda. Ba'zilar bu tushunchani «fuqarolik jamiyati» va «siyosiy jamiyat» o'rtasidagi farqni ko'rsatib berish uchun qo'llasalar, boshqalar keng ma'noda «fuqarolik jamiyati»ni davlatga nisbatan ziddiyatdagi hodisa sifatida talqin qiladilar. Huquqiy davlat nazariyotchilari esa gegelchilar an'analariga asoslangan holda davlatni «fuqarolik jamiyati»ni barpo etish uchun shart-sharoit yaratishi zarur ekanligini ta'kidlaydilar.

Agar liberal modeldagi fuqarolik jamiyatining bosh aktori — huquqlar bilan ta'minlangan iste'molchi bo'lsa, uning kommunitar modeliga binoan, kimda-kim o'zini guruhiy birlik bilan bir xildagi negiz va an'analarga mansub ravishda kelib chiqishga aloqador,

deb his etganligi uchun ham u — qandaydir guruh a'zosidir. Bu holatdagi fuqarolik o'z madaniyatini «boshqaga» va «begonaga» qarshi qo'yish vositasida ifodalaydi va o'zining «betakrorligini» namoyish qilishga intiladi. Shuningdek, liberalizm fuqarolik birlashmalarini iqtisodiy korporatsiyalarning o'zgaruvchan harakati majmuyi, deb qarasa, kommunitarizm (jamoachilik tarafdori) ularni tabiiy ijtimoiy biriiklar faoliyatlari uyg'unligi, deb biladi.

Xulosa qilib aytganda, «fuqarolik jamiyati» tushunchasi, avvalambor, o'z a'zolarining turli-tuman manfaatlari va huquqlarini himoya qilish maqsadlaridagi o'zini o'zi tashkillashtirishni anglatadi.

Nemis olimi Vanfred Dettling fikricha, fuqarolik jamiyati g'oyasi bozor va davlatga qo'shimcha bo'lgan tushunchadan o'zga narsa emas. Fuqarolik jamiyati va fuqaroviylik konsepsiyasi bozor va davlatga mansub nazariy qarashlarga nisbatan katta manbaga ega bo'lib, unga doir asosiy nazariyalar bozor va davlat taraqqiyoti g'oyalaridan ilgari paydo bo'lgan. Fuqarolik jamiyati g'oyasi yangi radikal siyosiy konsepsiyaning ifodalanishi sifatida mutlaqo davlat va bozor tomonidan o'rnatilgan kengliklarni inkor etmasa-da, lekin u bu kengliklar doirasidan tashqariga chiqadi.

Agar fuqarolik jamiyati g'oyasi ko'proq ma'naviy xarakter kasb etsa, u jamiyatni o'zgarishlarga moyil bo'lgan konsepsiyalardan biriga aylanadi. Bu g'oya asosan farovonlik davlatini o'zgarishlar qilishga undaydi. Uning quyidagi muhim uchta jihati mavjud:

- rasmiy hukumat o'zining muhimligini yo'qotmaydi — u har qachongidan ham yanada muhimroq bo'lishi mumkin — lekin, u o'zining jamiyatdagi rolini qaytadan belgilab olishi taqozo etiladi. Siyosatchilar fuqarolarning ijtimoiy faolliklarini inkor qilmasliklari, aksincha, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlashlari va rag'batlantirishlari lozim;

- ijtimoiy sohada musobaqadoshlik unsurlari ham zaruriyatdir (masalan, jamiyatning ijtimoiy samaradorligini oshirish va ijtimoiy xizmat ko'rsatish kabilar uchun). Bu ma'noda ijtimoiy almashuvlar ancha samarali ravishda amalga oshishi mumkin;

- sanoat va korporativ hayot ijtimoiylashuvi darkor.

Fuqarolik jamiyati hayot, jamiyat va mehnat tuzilmalarini qaytadan o'zgartirishni tezlashtirishga moyilligi bilan ajralib turadi. Zamonaviy mehnat madaniyatini iqtisodiy jihatlar bilan boyitish, shuningdek, mehnat sohasidagi muvaffaqiyatlar umuman butun jamiyat hayotidagi muvaffaqiyatlarga olib keladi[48].

Lekin, hozirgi davrda ham turli olimlar o'rtasida fuqarolik jamiyatini Sharqda yoki G'arbda, Shimolda yoki Janubda, shuningdek, uni turli mamlakatlarda har xil shart-sharoitlarda shakllanishiga doir bahslar davom etmoqda. Shu bilan birga, fuqarolik jamiyatining rivojlanishida demokratik qadriyatlar muhim o'rin tutadimi yoki liberal mafkura samaraliroqmi, qabilidagi savollarga berilayotgan javoblarning ham bir-biridan farqlanishi kuzatilmoqda. Keyingi o'n yillikda «ikki xil talqinlar» avj oldi: zamonaviy fuqarolik jamiyati va diskursiv (voqelikni o'zaro bog'liqlikda va ketma-ketlikda idrok etishga asoslangan) etika nuqtayi nazaridan baholashlar. Ulardan birinchisi klassik liberalizm mavzusi bilan bog'liq bo'lib, ular «fuqarolik jamiyati» tushunchasi hozirgi davrda shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi, ijtimoiy hayot erkinligi (so'z va uyushmalar erkinligi), qonun oldida tenglik, mulkka bo'lgan huquqlarni eslashga majbur etadi. Ikkinchisi esa bahs talab me'yorlarni ochiq muhokama qilishda barchaning teng ishtirok etishiga alohida urg'u beradi, shuningdek ularning yechimini demokratiya qoidalariga havola qiladi.

Hozirgi davr siyosiy nazariyalarida liberalizm va demokratiya asoslarini bir-biriga qarama-qarshi qo'yuvchi (qaytadan paydo bo'lgan) qarashlar ham mavjud[49]. Klassik liberalizm asoschilari himoyachilari «agar demokratiyaga xos bo'lgan ko'pchilikning boshqaruvi va umumiy ishtirok etish jarayonlarida yetarli darajadagi nazoratni amalga oshirish va hokimiyat faoliyatini cheklashlar yetishmay qolsa, u holda mavjud erkinliklarga xavf tug'iladi, shuning uchun ham, bu — yohud sarob, yoki undanda yomon bo'lgan holatdir», degan fikrga moyillik kuchaydi. To'g'ridan to'g'ri yoki radikal demokratiya tarafdorlari esa o'z o'rnida, «liberal an'analar ko'pchilikning ishtirokiga asoslangan demokratik jamiyatni barpo etish yo'lidagi bosh to'g'anoq», deb biladilar.

Fuqarolik jamiyati demokratiyalashtirishning zaruriy unsuri ekanligi borasida ham keng tadqiqotlar olib borildi. Taniqli olim Robert Patnem Italiyada XX asrning 70-yillarida amalga oshirilgan demokratik islohotlarning Italiya shimoliy mintaqalarida muvafaqqiyat bilan amalga oshganligi, uning janubiy hududlarida esa islohotlar mag'lubiyatga uchraganligi xususida tadqiqotlar olib borib, quyidagi xulosaga kelgan edi: «Demokratiyalashtirishning hal qiluvchi omillari «fuqaroviylik madaniyati», o'zaro ishonch va birdamlikning mavjudligi yoki yo'qligi bilan bog'liqdir. Bu omillar jamiyatni mustahkamlaydi. Qaysi yerda to'laqonli ijtimoiy

hayot bo'lsa, o'sha yerda ular qo'llab-quvvatlanadi. Shuningdek, demokratik islohotlar boy fuqaroviylik an'analar saqlanib qolgan hududlarda ko'proq muvaffaqiyat qozonadi»[50].

Fuqarolik jamiyati g'oyasida kapitalizm va demokratiyalashtirish jarayoni o'rtasidagi o'ziga xos aloqadorlikning mavjudligi seziladi. Bu aloqadorlik milliy boylikni yaratish va uni taqsimlashda o'z ifodasini topdi. Boshqacha aytganda, iqtisodning rivojlanishi demokratiyaning yashashi uchun ijtimoiy kengliklarni yaratadi.

Siyosatshunos Robert Dalning ilmiy tadqiqotlarida jamiyatni turli sohalarga bo'lish uchramaydi. U ko'pincha fuqarolik jamiyati bilan «yetuk pluralistik jamiyat», «pluralistik fuqarolik jamiyati» tushunchalarini bir xil ma'noga ega ekanligini ta'kidlash bilan birga[51], fuqarolik jamiyatini rivojlantirish istiqbollarini demokratik prinsiplarni keng qo'llash bilan bog'lashga intiladi.

R.Dalning quyidagi mulohazalari fuqarolik jamiyatini takomillashtirish va uning barqarorligini ta'minlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi: «Har qanday boshqaruv organi, u mamlakat hukumati, uning «joylardagi» quyi tashkiloti yoki mustaqil uyushma faoliyatlarida biron-bir nodemokratik faoliyat pluralistik fuqarolik jamiyatida diqqat-e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Demokratik prinsiplar har qanday hamjamiyatni boshqarishda quyidagi qator savollarga javob berishni talab etadi:

- uyushmalar rahbariyatlari qarorlar qabul qilishda mazkur qarorlarga tegishli bo'lgan har qanday shaxsning farovonligi va manfaatlarini hisobga oladilarmi?

- uyushmaning boshqaruvchi a'zolarining to'la va uzil-kesil hokimiyat yuritishlariga ishonish uchun ular mazkur uyushmaning boshqa a'zolarini boshqarishga qanchalik darajada tayyorgarlik ko'rganlar? Agar bunday tayyorgarlik yetishmasa, unda biz uning hamma a'zolarini siyosiy tenglikka ega, deb ayta olamizmi?

- agar uning barcha a'zolari siyosiy tenglikka ega bo'lsalar, unda bu uyushma boshqaruv tizimi demokratiya mezonlariga javob bera oladimi? Agar javob bera olsa, unda mazkur uyushma o'z a'zolariga boshqaruvda ishtirok etishlari, teng saylov huquqiga, bilimlar axborotiga ega bo'lishlari va rahbariyat faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirishlari uchun qay darajada imkoniyatlar yaratib bera oladi?»[52].

Taniqli faylasuf Z.Pelsinskining yozishicha, o'z navbatida, Gegel konsepsiyasidagi fuqarolik jamiyati — bu zamonaviy inson

o'z ehtiyojlarini o'zi qondirishiga qaratilgan me'yorlargina emas, balki, u (inson) o'z shaxsiy farovonligini boshqalarning farovonligiga bog'liq ekanligini anglashga majbur ekanligi uchun ham jamoaviy hamkorlik va hamharakatni e'tirof etadigan jamiyatdir. Fuqarolik jamiyatini bu tarzda tushunish o'ziga shunday barqaror tarkibiy qismlarini qamrab olganki, ular konstitutsiyaviy erkinlik, ixtiyoriy uyushmalarga birlashish va kommunikatsiya avtonomiyasi kabilardan iboratdir[53].

Nemis siyosatshunosi K.Xol ham hozirgi davrdagi fuqarolik jamiyati nazariyasini rivojlantirishga katta hissa qo'shdi. Uning yozishicha, «hozirgi davr va istiqboldagi rivojlanishni faqat fuqarolar yordamidagina ta'minlash mumkin. Fuqarolik jamiyati, aniqrog'i, Yevropa mintaqaviy fuqarolik jamiyatlari to'g'risidagi eng asosiy xulosa ana shundan iboratdir. Hozirgi davr xarakteri quyidagilardan iborat: globallashuv (yoki transnatsionalizatsiya), industrial mehnatdan mehnat faoliyatining yangi shakllariga o'tish, axborot jamiyatini shakllantirish. Kelajak jamiyati faqat milliy belgilar bo'yicha ifodalanmaydi. Yangi «global» davrda kishilarning ijtimoiy, ilmiy va iqtisodiy aloqalari milliy chegaralar tashqarisida ro'y bera boshlaydi. Kelajak transnatsionallik xarakteriga egadir. Ba'zi-bir tadqiqotchilar fikricha, globallashuv «glokalizatsiya»ga, ya'ni mintaqaviy, munitsipal va lokal siyosatni kuchayishiga olib keladi»[54].

AQShdagi Ford jamg'armasining davlat va fuqarolik jamiyatini o'rganish markazi direktori, siyosatshunos M.Edvards va Sasseks universiteti olimi Dj. Gaventa fikricha, fuqarolik jamiyati o'ta ziddiyatli xarakterga egadir. Hozirga qadar uning mohiyatini umumiy tarzda ifodalash shakllanmagan. Ular «fuqarolik jamiyati» tushunchasini keng jihatlarga egaligiga o'z e'tiborlarini qaratib, bu «jamiyat kengliklarida kishilar o'zlarining foyda olish yoki siyosiy hokimiyat bilan bog'liq bo'lmagan umumiy manfaatlarini himoya qilish uchun birlashadilar». Fuqarolik jamiyatining tashkilotlari — bular mazkur jamiyat kengliklarida harakat qiluvchi barcha guruhlardir: uyushmalar, siyosiy partiyalar, hamjamiyatlar, nohukumat tashkilotlar. Fuqarolik jamiyatining tashkilotlari ba'zan muammolarning yechimlarini izlash, shuningdek, o'zaro turli-tuman ixtiloflarga kirishish asosida faoliyat yuritadilar[55].

Shuningdek, Germaniya Bundestagi «Kelajak fuqarolik jamiyati» komissiyasi a'zosi, siyosatshunos olimi G. Yakob

«jamiyat farovonligi uchun ixtiyoriy mehnat qilish fuqarolik jamiyatining tarkibiy qismlaridan biri», deb qaraydi. U «fuqarolik jamiyati» deganda, demokratik jamiyat doirasida kafolatlangan, shuningdek, o'z huquqlari asosida o'zlarining tashkilotlarini tuzayotgan fuqarolar hamjamiyatini tushunadi. «Fuqarolar o'zlarining jamoatchilik ishlarida ishtirok etish imkoniyatlarini amalga oshirishiga qaratilgan ixtiyoriy birlashmalar faol fuqarolik jamiyatini mujassamlashtiradi. Ilmiy va siyosiy doiralar turli fuqarolik jamiyati konsepsiyalarini muhokama qiladilar. Ularning barchasini berilgan huquqlar va qo'yilgan burchlardan kelib chiqqan holda alohida fuqarolarning siyosiy hamjamiyati a'zosi nuqtayi nazaridan talqin etish asosida fuqarolik maqomini umumiy ifodalash birlashtirib turadi.

Faol fuqarolik jamiyati fuqarolarning o'z zimmalariga ijtimoiy mas'ullikni olishlari, jamiyat farovonligi uchun ixtiyoriy faoliyat yuritishlari bilan xarakterlanadi. Fuqarolar o'z zimmalariga mas'ullikni olishlari bilan hamjamiyat ishlarida ishtirok etish va siyosiy qarorlar qabul qilish huquqini qo'lga kiritadilar. Bu fuqarolar faolligi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar doirasini yaratadigan va fuqarolar manfaatlarini himoya qiladigan ijtimoiy institutlar va tashkilotlarning mavjudligini ta'minlaydi» [56].

Hozirgi davrda ko'pchilik siyosatshunos va sotsiologlar «fuqarolik jamiyati» deganda, davlat va iqtisoddan farq qiladigan va quyidagi o'zini o'zi tashkil etuvchilardan tarkib topgan sotsietal sohaning me'yoriy modelini tushunadilar: (1) *pluralizm*: oila, norasmiy guruhlar va ixtiyoriy uyushmalar, hayot shakllarining turli-tumanligini ta'minlab turuvchi institutlarning pluralizmga berilganligi va avtonomligi; (2) *ijtimoiy hayot erkinligi*: madaniyat va kommunikatsiyalar institutlari; (3) *shaxsiy hayot daxlsizligi*: individual o'zini o'zi rivojlantirish va axloqiy tanlash sohalari; (4) *qonuniylik*: pluralizmni chegaralab olish uchun umumiy qonun chiqarishga, shaxsiy hayot va ijtimoiy sohalarida iloji boricha davlatga, hayotiy intilishlarda esa iqtisodga nisbatan daxlsizlik. Ana shu tizilmalarning barchasi birgalikda zamonaviy fuqarolik jamiyatining institutsional mavjudligini ta'minlaydi[57].

Mashhur siyosatshunos olim Flipp Shmitterning fikricha, «fuqarolik jamiyati» quyidagi «o'zini o'zi tashkillashtiruvchi mediator (vositachilik qiluvchi) guruhlar»dan iboratdir:

- davlat hokimiyati organlariga nisbatan, shuningdek, ishlab chiqarish va qayta ishlab chiqarish nodavlat birliklari, ya'ni, firma, oila kabilardan mustaqil;

- o'z manfaatlari va intilishlarini himoyalash (ularga erishish maqsadlarida jamoaviy aksiyalarni rejalashtirish va amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lgan);

- davlat tuzilmalari, xususiy ishlab chiqarish sohasi o'rnini bosmaydigan, o'ziga umuman siyosatni boshqarish funksiyasini olmagan;

- lekin, shakllanib bo'lgan «fuqarolik» yoki huquqiy me'yorlar doirasida faoliyat yuritishga rozi bo'lgan[58].

Shu bilan birga, F.Shmitter fuqarolik jamiyatini alohida olingan shaxs bilan bog'laydi va fuqarolik institutlarini shaxs manfaatlari ifodachisi va himoyachisi ekanligini ta'kidlaydi. Binobarin, u zamonaviy fuqarolik jamiyatining G'arb tajribasi asosida shakllangan quyidagi muhim sifatlai i alohida ajratib ko'rsatgan edi:

- shaxs, uning aholining alohida guruhlari va davlatdan mustaqilligi;

- tashkiliy yaxlitlik, bir butunlik;

- davlat tomonidan himoya qilinadigan huquqlarga asoslangan «korporativlik»;

- liberallashish bilan bog'liq jarayon yoki hodisa;

- avtokratiyaning despotik kuch sifatida (demokratik natijalar asosida) zaiflashuvi[59].

Yuqoridagi tahlillardan xulosa chiqarilsa, fuqarolik jamiyati eng oliy insoniy birlik shakli hisoblanib, u o'z ichiga turli «uyushmalar»ning tarkibiy qismlarini (oila, korporatsiya kabilarni) qamrab oladi. Ular o'z mohiyatiga ko'ra jamiyatdagi adolatlilik tamoyiliga asoslangan hamjamiyat bo'lishini ifoda etadi. Bu jamiyatda har bir kishi o'zi uchun oliy farovonlik topishi mumkin.

3. Fuqarolik jamiyatining umumiy belgilari va tasnifi

Umuman, hozirgi zamon rivojlangan mamlakatlar siyosatshunos olimlarining fuqarolik jamiyati to'g'risidagi nazariy qarashlari bir tizimga keltirilsa, u holda fuqarolik jamiyati bu:

- birinchidan, jamiyat hayoti faoliyatining iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy sohalarida ixtiyoriy ravishda shakllangan, boshlang'ich nodavlat tizimlarini o'z ichiga qamrab olgan insoniy birlikdir;

- ikkinchidan, jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy, oilaviy, milliy, ma'naviy, axloqiy, diniy, ishlab chiqarish, shaxsiy va nodavlat munosabatlar majmuasidir;

- uchinchidan, erkin individlar, ixtiyoriy ravishda shakllangan tashkilotlar va fuqarolarning turli organlar tazyiqlari, aralashishlari yoki bir qolipga solishlaridan qonunlar vositasida himoyalangan jamiyati bo'lib, unda ular o'zligini namoyon qila olishlari uchun doimiy imkoniyatlarga ega bo'ladilar.

Shu bilan bir qatorda, rivojlangan mamlakatlarning XX asr ikkinchi yarmidagi tajribalari umumlashtirilganida, hozirgi zamonaviy fuqarolik jamiyatining asosiy belgilariga doir tasavvur namoyon bo'ladi. Ular asosan quyidagilardan iboratdir:

Iqtisodiy sohada: nodavlat tashkilotlar; kooperativ-shirkatlar; ijara jamoalari; aksiyadorlik jamiyatlari; uyushmalar; korporatsiyalarning mavjudligi.

Ijtimoiy sohada: oila; partiyalar, jamoat tashkilotlari va harakatlar; ish va yashash joylaridagi o'z-o'zini boshqarish organlari; nodavlat ommaviy axborot vositalari; jamoatchilik fikrini aniqlash, shakllantirish va ifoda etishning madaniylashgan tartibotlari; ijtimoiy ixtiloflarni kuch ishlatmasdan, tazyiqsiz, qonunlar doirasida hal qilish amaliyotining mavjudligidir.

Ma'naviy sohada: so'z, vijdon va fikrlar erkinligi; o'z fikrini ochiq bildira olishning real imkoniyatlari; ijodiy, ilmiy va boshqa uyushmalar mustaqilligining ham qonuniy, ham amaliy jihatlardan ta'minlanganligi.

Shuningdek, fuqarolik jamiyatining barqarorligini ta'minlovchi shart-sharoitlar ham borki, ularsiz jamiyatning institutlari rivojlanmaydi. Bular jumlasiga jamiyatdagi ijtimoiy qatlamlarning turlicha manfaatlarini ifoda etuvchi rivojlangan ijtimoiy tuzilmalarning mavjud bo'lishi zarurligi kiradi. Qolaversa, jamiyat a'zolarining to'la mustaqillik bilan faoliyat ko'rsata olish qobiliyati, ularning eng rivojlangan darajadagi ijtimoiy, intellektual, ruhiy jihatlardan yuksalishi sodir bo'lishi ham taqozo qilinadi.

So'nggi shart-sharoit esa har bir fuqaroning o'z shaxsiy mulkiga ega bo'lishi, bu mulkni o'zi istagan tarzda tasarruf qila olishi uchun uning bu mulkka nisbatan shaxsiy yoki jamoaviy huquqining ta'minlangan bo'lishidir.

Fuqarolik jamiyatining belgilari, mezonlari va institutlarini tasavvur qila olgan har bir kishiga ko'rinib turibdiki, bunday jamiyatning asosini fuqarolik jamiyatining institutlari — siyosiy

partiyalar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlarning o'zaro munosabatlari majmuasi tashkil etadi.

Fuqarolik jamiyatida davlat va hukumatning alohida o'z funksiyalari, fuqarolik jamiyati institutlarining esa alohida o'z funksiyalari bo'ladiki, ular bir-birlarini to'ldirib, yuksak rivojlangan jamiyatning yashovchanligini ta'minlaydi. Davlatning ham, nodavlat tashkilotlarning ham o'z harakat doirasi, yoxud belgilangan faoliyatilari u yoki bu tomonga ozgina o'zgarishi natijasida ijtimoiy-siyosiy muvozanatlar buzilib, demokratik me'yordan chekinishi, chetga chiqib ketish hollari ro'y berishi mumkinligini asrimizning so'nggi davrdagi taraqqiyot amaliyoti ko'rsatib berdi.

Fuqarolik jamiyatiga doir nazariy qarashlar umumlashtirilganida fuqarolik jamiyatining quyidagi belgilari namoyon bo'ladi:

- inson huquq va erkinliklarini nisbatan to'liqroq ta'minlovchi insoniy birlik;
- o'zini o'zi boshqarishning rivojlanganligi;
- uni tashkil etgan tuzilmalar va turli ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi raqobatdoshlik;
- erkin ravishda shakllanadigan jamoatchilik fikrini mavjudligi va pluralizm;
- yalpi axborotlashganlik, insonlarni axborot olishga doir huquqining amalda namoyon bo'lishi;
- jamiyat hayotini muvofiqlashtirish asosida kechishi;
- iqtisodiyotning ko'p ukladli bo'lishi;
- hokimiyatning legitim va demokratik tarzda amalga oshirilishi;
- huquqiy davlatning mavjud bo'lishi;
- davlatning kuchli ijtimoiy siyosat olib borishi.

Fuqarolik jamiyatida «fuqaro» tushunchasi eng muhim ahamiyat kasb etishi bilan ajralib turadi. Fuqaro jamiyat hayotining subyektiga aylanib, undagi o'zarishlarga kuchli ta'sir qila olish darajasiga ko'tariladi. «Fuqaro» tushunchasi «ishtirok etish» vositasida o'zini namoyon etadi, bu ishtirok turli nodavlat va jamoat tashkilotlarida kechadi.

Fuqarolik jamiyatining iqtisodiy tayanchi o'rta mulkdorlar sinfi hisoblanadi. Shaxs erkinligi asosi esa xususiy mulkdir. Xususiy mulk ko'plab iqtisodiy hokimiyat markazlarini bo'lishini taqozo etganligi uchun ham hokimiyatni bir shaxs, guruh yoki partiya qo'lida to'planishiga imkon bermaydi, davlat hokimiyatini bosiq bo'lishiga zamin yaratadi.

Yashash vositalarining muqobil manbalarini mavjudligi ijtimoiy hayotning turli sohalarida tanlash erkinligini mavjud bo'lishiga imkon yaratadi. Shuning uchun mulk, hokimiyat, iqtisodiy va siyosiy erkinlik chegaralarini belgilab qo'yish fuqarolik jamiyatini yashash mezoni hisoblanadi. Shu bilan birga, shaxsiy erkinlik va xususiy mulkka ega bo'lish demokratiyaning bo'lishini va rivojlanishini rag'batlantiradi.

Fuqarolik jamiyati insonlardagi o'zini o'zi anglash, ularning obyektiv ravishda mas'ullik hissini sezish qobiliyatining yuksalishiga hamohang ravishda shakllanib boradi. Bu kabi jamiyatda shakllangan fuqarolar siyosiy va huquqiy madaniyatlari darajasining yuqoriligi bilan ajralib turadi.

Fuqarolik jamiyati shakllangan mamlakatlarda nafaqat inson erkinligi, davlatning jamiyat uchun xizmat qilish mas'uli-yatining yuksakligi, o'zini o'zi boshqarishning avj olishi kabi qadriyatlarga amal qilinadi, balki bu jamiyatlarda inson farovonligini har tomonlama ta'minlash sohasida ham mislsiz natijalarga erishiladi. Jahondagi mamlakatlar o'rtasida yalpi milliy mah-sulotning o'rtacha kishi boshiga taqsimlanishida ham fuqarolik jamiyati rivojlangan mamlakatlar peshqadamlik qilmoqda. Buning asosiy sababi shundaki, inson siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy erkinliklar bag'ridagina o'zining yaratuvchanlik qobiliyatini to'liq namoyon qila oladi.

Fuqarolik jamiyati insonning o'zini o'zi hayotda namoyon qila olishi uchun nisbatan keng shart-sharoitlar yaratib berishi bilan alohida ajralib turishi o'z isbotini topdi. Shu bois ham jahondagi barcha xalqlar va davlatlarning fuqarolik jamiyatini qurishga bo'lgan qiziqishlari tobora kuchayib bormoqda.

O'zbekiston mamlakatida ham fuqarolik jamiyati qurish islohotlari nafaqat chuqurlashib bormoqda, balki ijtimoiy-siyosiy hayotda ham o'zini namoyon etmoqda. Prezident I.A.Karimov tomonidan ilgari surilgan «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»da mamlakat bosib o'tgan keyingi o'n yillik davr aholimizning keng qatlamlari qo'llab-quvvatlaydigan turli xil fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlarning jadal shakllanishi va rivojlanishi davri bo'lganligi ta'kidlab o'tilishi barobarida mustaqilligimizning dastlabki yillaridayoq Konstitutsiyamizda nodavlat notijorat tashkilotlari

faoliyatiga doir asosiy prinsiplarning mustahkamlab qo'yilgani barcha aholi qatlamlari manfaatlarini aks ettiradigan bunday tashkilotlar keng tarmoqlarining rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratganligini ko'rsatib berdi.[60]

O'zbekistonda mustaqillik yillarida fuqarolik jamiyati qurish islohotlari natijasida bu sohada milliy tajribalar to'plandi. Shuningdek, rivojlangan mamlakatlarda fuqarolik jamiyati qurish tajribasining milliy manfaatlarimizga muvofiq kelgan jihatlari islohotlar jarayoniga qo'llanmoqda. Jamiyatimizning barcha sohalarini isloh etishda asosiy konseptual dastur bo'lgan «O'zbek modeli» fuqarolik jamiyati qurishda ham o'zining umuminsoniy va milliy jihatlari bilan o'ziga xos tarzda namoyon bo'lmoqda. Muhimi, mamlakatda fuqarolik jamiyati qurish islohotlarining asosiy yutuqlarini nafaqat xalqimiz, balki barcha rivojlangan mamlakatlar jamoatchiligi e'tirof etmoqda. Albatta, bu bizga mustaqillik in'om etgan «Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari» tamoyili asosidagi rivojlanishning amalda namoyon bo'lishidir.

Takrorlash uchun savollar:

1. Fuqarolik jamiyatini paydo bo'lish sabablari nimalardan iborat?
2. Fuqarolik jamiyati va davlat o'rtasida qanday farqlanishlar mavjud?
3. Zamonaviy fuqarolik jamiyati deganda nimani tushunasiz?
4. Fuqarolik jamiyatining zamonaviy talqinlari qanday?
5. Fuqarolik jamiyatining umumiy belgilari va tasnifi qanday talqin etiladi?

4-mavzu: MUSTAQILLIK VA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISHNING «O'ZBEK MODELI»

1. «Model» tushunchasi va zamonaviy modellarning qisqacha tasnifi.
2. Mustaqillik arafasidagi ijtimoiy-iqtisodiy holat va «O'zbek modeli»ni ishlab chiqishning zarurati.
3. «O'zbek modeli»da fuqarolik jamiyati qurishning o'ziga xos xususiyatlari.
4. «O'zbek modeli»ga xos iqtisodiy rivojlanishning milliy jihatlari.

1. «Model» tushunchasi va zamonaviy modellarning qisqacha tasnifi

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan chuqur iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlar natijasida rivojlanishning zamonaviy modellari shakllana boshladi. «Model» tushunchasining talqinlari turlicha bo'lib, ular ba'zan umumiylik jihatlariga ega bo'lsa-da, ko'pincha bir-biriga unchalik mos kelmaydi. Ba'zi olimlar modelni «davlat tuzumi» desa, boshqalari «ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya» deb talqin etadi. Yana ba'zilari esa uni «ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'li shaklining chizgilari (ko'rinishi)», deb talqin etadi. Ba'zi o'zbek olimlarining fikricha, model — «iqtisodiy bazisning asosi bo'lgan huquqiy, ma'muriy, xo'jalik (bank, kredit, soliq va boshqa) mexanizmlar yordamida muvofiqlashadigan o'zaro iqtisodiy munosabatlarning keng ko'lamli tizimidir»[61]. Shuningdek, model ko'pincha «rivojlanish modeli» yoki «iqtisodiy rivojlanish modeli» tushunchasi sifatida ilmiy muomalaga kira boshladi. Aksariyat olimlarning fikricha, model «jamiyatda amal qilayotgan mulkiy munosabatlar va tashkiliy shakllar asosida ro'y berayotgan barcha iqtisodiy jarayonlar yig'indisi mazkur jamiyatning iqtisodiy modelini tashkil etadi»[62]. Model mohiyatini tushunish asnosida jamiyatning xo'jalik hayotining ko'plab qonuniyatlarini anglab yetish mumkin.

Keyingi o'n yilliklarda bozor, buyruqbozlik va aralash modellarni bir-biridan ajratib ko'rsatish rusumga kirdi. Aksariyat mamlakatlar intilayotgan model — bu bozor iqtisodiyoti modelidir.

Hozirgi davr bozor iqtisodiyoti tarmoqlanib ketgan biznes huquqiy me'yorlari muhitida bir-biriga o'zaro ta'sir etuvchi, turli-tuman ishlab chiqaruvchi, tijoriy, moliyaviy va axborot kabi ko'plab

tuzilmalaridan iborat — bozor deyiladigan yagona tushunchada o'z ifodasini topadi.

Bozor iqtisodiyotining asosiy prinsiplari quyidagilardan iboratdir: xo'jalik faoliyatining erkinligi; bozor subyektlarining teng huquqli bo'lishi; iqtisodiy mas'uliyat va tadbirkorlar tavakkal qilishga moyilligi; iqtisodiy raqobat; mollarga baho belgilash erkinligi; moliyaviy ko'rsatkichlarning yetakchilik roli; bozorning barchaga taalluqli bo'lishi; bozorning ochiqligi; davlat tomonidan muvofiqlashuvi; aholini ijtimoiy himoyalash.

Iqtisodiy jihatdan zaif mamlakatlarda *an'anaviy* iqtisodiy tizimga amal qilinadi. Iqtisodiy tizimning bu xili uchun qoloq texnologiya, qo'l mehnatining keng tarqalishi, ko'p ukladli iqtisodiyotning mavjudligi xosdir.

Ma'muriy-buyruqbozlik (markazlashgan-rejali) tizim ilgari SSSR, Sharqiy Yevropa mamlakatlari, XXR, Kuba, Vyetnam, KXDR kabi mamlakatlarda hukmronlik qilgan edi[63].

Xo'jalik yuritishning bozor tizimi iqtisodiy rivojlanishning turli modelining shakllanishini taqozo etdi. Ularning ichida rivojlanishning amerikacha, yapon, nemis, shved, fransuz va janubiy Koreya modellari o'zining samarali va rivojlanuvchanligi bilan ajralib turadi.

Amerikacha model aholining faol qismini boyishiga, tadbirkorlik faolligini har tomonlama rag'batlantirish tizimi asosiga qurilgan. Aholining kam ta'minlangan guruhlari uchun turli imtiyozlar va ko'mak berish hisobidan maqbul hayot darajasi yaratiladi. Bu modelda ijtimoiy tenglik masalasi qo'yilmaydi. Bu model yuqori mehnat unumdorligiga va shaxsiy muvafaqqiyat qozonishga asoslanadi. Umuman amerikacha modelga iqtisodiy muvozanat va barqaror vaziyatni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat ta'sirini qo'llash xarakterli jihatdir.

Yana rivojlanishning *amerikacha* modeli uchun quyidagilar xarakterlidir:

- davlat mulki ulushining kamligi va davlatning muvofiqlashtirish rolining kamligi;
- tadbirkorlikning har tomonlama rag'batlantirilishi (80 % yangi ish o'rinlari kichik biznes hisobiga ochiladi);
- aholining boy va kambag'allarga keskin tabaqalashuvi;
- aholining kam ta'minlangan guruhlari uchun maqbul hayot darajasining mavjudligi;
- fuqarolarning mulkiy va ijtimoiy jihatlardan o'zaro notengligini qisqartirishning oldindan ko'zlanmasligi.

Yapon modeli uchun mehnat unumdorligining o'sishiga nisbatan aholining hayot darajasini (jumladan, ish haqi darajasi ham) orqada qolishi xarakterli jihatdir. Ana shu hisobdan mahsulot tannarxini pasaytirishga erishiladi, bu mahsulotlarning jahon bozoridagi raqobatbardoshligi oshib boradi. Bu kabi model milliy o'zini o'zi anglashning yuqori darajasiga erishish, ayrim olingan inson manfaatlaridan millat manfaatlarini ustuvorligini ta'minlash, aholini mamlakatni gullab-yashnashi uchun fidoyilik qilish salohiyatini rivojlanishi natijasi asosidagina yashay oladi. Yapon modelining yana bir xususiyati iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida (ayniqsa, uning boshlang'ich davrida) davlatning faol roli bilan izohlanadi.

Rivojlanishning *yapon modeli* uchun xos jihatlar:

- iqtisodiyotning asosiy sohalariga davlat ta'sirining yuqori darajada ekanligi;
- iqtisodiyotning rivojlantirilishni oldindan belgilanishi;
- firma rahbarlari bilan xizmatchilarning ish haqlari darajalari farqlarining kamligi;
- modelning ijtimoiy yo'naltirilganligi.

GFR ijtimoiy bozor xo'jaligi. Bu model fashistlar davridagi konsernlarni tugatish, barcha turdagi xo'jalik yuritish shakllariga (yirik, o'rta, mayda) barqaror rivojlanish imkoniyatlarini yaratish asosida shakllandi. Shu bilan birga, mittelshtand deb ataluvchi, ya'ni mayda va o'rta korxonalar, fermerlik xo'jaliklari homiylikning alohida turidan keng foydalanadi. Davlat baholashlar, bojlar va texnikaviy me'yorlarni o'rnatishga faol ta'sir etadi. Bu tizim asosida yotadigan bozor iqtisodiyoti yuqori samarali xo'jalik faoliyatiga undaydigan rag'batlantirishlarga ega bo'ldi.

Nemis modelining xarakterli jihatlari:

- iqtisodiyotga davlat ta'sirining yuqori darajada ekanligi;
- asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning oldindan bashorat qilinishi;
- firma rahbarlari bilan xizmatchilarning ish haqlari darajalari farqlarining kamligi;
- modelning ijtimoiy yo'naltirilganligi.

Shved modeli aholining kam ta'minlangan qatlamlari foydasiga milliy daromadni qayta taqsimlash hisobiga mulkiy tengsizlikni qisqartirishga mo'ljallangan kuchli ijtimoiy siyosat yuritish bilan ajralib turadi. Bu davlat hammasi bo'lib 4 % asosiy fondlarga egalik qilsada, o'tgan asrning 90-yillaridan boshlab davlat xarajatlari

yalpi ichki mahsulotning 50 %idan ortiqrog'ini tashkil eta boshladi. Biroq, bu xarajatlarning yarmidan ko'prog'i ijtimoiy ehtiyojlar uchun yo'naltiriladi. Tabiiyki, bunga yuqori soliq yuki (ayniqsa, jismoniy shaxslar hisobiga) sharoitidagina erishish mumkin. Bu model ishlab chiqarish funksiyasi raqobatdosh bozor asosida faoliyat yuritayotgan xususiy tadbirkorlar yelkasiga tushadigan, yuqori hayot darajasini ta'minlash (bandlik, ta'lim, ijtimoiy sug'urtalarni ham) va infratuzilmalarning ko'plab unsurlari (transport, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalar) davlat funksiyasi hisoblanadigan «funksional sotsiallashtirish» ham deb ataladi.

Shved modelining xarakterli jihatlari:

- iqtisodiyotning ijtimoiy yo'naltirilganligi;
- mulkiy tengsizlik milliy daromadni taqsimlash vositasida qisqartirilishi;
- aholining kam ta'minlangan qatlamlariga g'amxo'rlik qilish;
- davlatning mollarga baho belgilash va uni o'rnatish jarayonlariga faol aralashuvi;
- mulkchilikdagi davlat sektorining nodavlat va shaxsiy sektorga nisbatan yuqori ulushga ega ekanligi.

Fransuz modeli:

- davlatning yuqori muvofiqlashtiruvchi roli (1947-yildan buyon rivojlanishning besh yilliklar bo'yicha istiqbolni belgilashga amal qilinadi);
- davlatning to'g'ridan to'g'ri ishbilarmonlik faoliyatining ancha keng miqyosli ekanligi;
- davlatning kapital jamg'arish jarayoniga aralashuvi.

Janubiy Koreya modelining yapon modeliga o'xshash umumiy jihatlari mavjud. Ularga mamlakat aholisining psixologik taxliti, yuqori darajada mehnatsevarligi va o'z burchiga mas'uliyat bilan yondashuvi, shuningdek konfutsiychilik axloqiy me'yorlarga asoslanishini misol tariqasida keltirish mumkin. Har ikkala model uchun xos jihat sifatida davlat organlarining iqtisodiyotni qayta qurishda faol ishtirok etishlarini keltirish mumkin.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalashni tezlashtirish maqsadlarida soliq, tarif va valuta siyosatidan keng foydalaniladi. Uzoq vaqtlar resurslar baholari, ishlab chiqarish va iste'mol uchun mo'ljallangan mollar ustidan nazorat qilish saqlanib qoldi. Janubiy Koreyada yuzaga kelgan iqtisodiyotni davlat tomonidan muvofiqlashtirish tizimi Janubiy Koreya mollarini jahon bozorida raqobatbardoshligining oshishiga imkoniyat yaratib berdi.

Shu tariqa, Yaponiyaga nisbatan ozroq bo'lsada Janubiy Koreya bozor munosabatlarining rivojlanishi chebol deb ataladigan yirik korporatsiyalar timsolida (keyinchalik moliyaviy-sanoat guruhlariga o'sib o'tgan) bozor iqtisodiyoti uchun kuchli poydevor yaratishga imkoniyatlar yaratdi.

Va nihoyat, Janubiy Koreya modelining yana bir unsuri — bu davlat tomonidan qisqa muddatlar ichida mayda va o'rta tadbirkorlikning qo'llab-quvvatlashi natijasida o'rta sinfning shakllanishini keltirish mumkin. O'tgan asrning 90-yillari oxirida Janubiy Koreya va yapon modellari bozor mexanizmlariga kuchli davlat aralashuvini o'z boshidan kechirdilar. Natijada yapon modelining jahon moliyaviy inqiroziga moslashish darajasi kuchsiz ekanligi sezildi.

Janubiy Koreya modelining ba'zi xarakterli jihatlari:

- istiqbolni belgilash rejalarining tuzilishi (1962-yildan buyon besh yillik istiqbolni belgilash rejalari ishlab chiqiladi);
- kredit-moliya sohasida davlat nazoratining mavjudligi;
- tashqi iqtisodiy sohada eksportni rag'batlantirish va importni cheklashga qaratilgan muvofiqlashtirishning mavjudligi.[64]

Tahlillardan ko'rinib turibdiki, barcha rivojlangan mamlakatlar o'z kuch-qudratlarini oshirib borishida bozor iqtisodiyoti mexanizmlari asosiy rol o'ynayotgan bo'lsa-da, har bir mamlakatning rivojlanish modellarida o'ziga xoslik va tarixiy milliy rivojlanish tajribasining ta'siri mavjud bo'lib, ular modellarning o'zaro bir-biridan farqlanishida sezilib turadi.

Shuning uchun ham O'zbekiston davlati mustaqillik davrida sobiq sho'rolar davridagiga butunlay o'xshamaydigan milliy iqtisodiyotni shakllantirish yo'lini tutdi. Bu rivojlanishning milliy va xalqaro tamoyillariga asoslangan «O'zbek modeli» edi. Uni keyingi o'n yillikda barcha xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar nafaqat e'tirof etdi, balki uni ba'zi o'tish davrini o'z boshidan kechirayotgan mamlakatlarda qo'llash zarurligini ham ta'kidlamoqda.

2. Mustaqillik arafasidagi ijtimoiy-iqtisodiy holat va «O'zbek modeli»ni ishlab chiqishning zarurati

O'zbekistonning uzoq davr sho'rolar mamlakati tarkibida rivojlanishi, kommunistik partiya siyosati tufayli milliy o'zlik, milliy qadriyatlar va madaniyatning inqirozga uchrashi, sobiq totalitar tuzumdan meros bo'lib qolgan rejali iqtisodiyot, mam-

lakatning inqirozlar arafasiga kelib qolganligi rivojlanishning faqat va faqat O'zbekistonga xos bo'lgan modelini ishlab chiqish va qo'llash zaruratini keltirib chiqargan edi.

O'zbekiston sobiq ittifoq davrida ham milliy, ham yakka hokim mafkura zulmi ostida yashadi. Kommunistik mafkura o'z tabiatiga binoan totalitar ruhdagi mafkura bo'lib, u asosan hayotning barcha jabhalarini egallashga, har bir insonning shaxsiy hayotini ham butunlay nazorat qilishga da'vogar edi. Totalitar mafkura o'z tabiati va xarakteridan kelib chiqib «buyuk kelajak» uchun o'tmishni ham, boshqa har qanday mafkuralarni ham inkor etgan edi.

Jamiyatning barcha sohasidagi hokimiyat butunlay partiyaga tegishli bo'lib, kommunistik partiya bilan davlat apparati bir-biri bilan chirmashib va qo'shilib ketgan edi. Shuningdek, jamiyatning davlatlashtirish darajasi ham o'zining eng yuksak cho'qqisiga chiqib, davlatdan mustaqil bo'lgan ijtimoiy hayot va jamiyatning demokratik institutlari butunlay yo'q qilindi: kommunistik partiyadan boshqa barcha partiyalar tor-mor qilindi, barcha jamoat tashkilotlari va nodavlat birliklar hukmron partiyaga bo'ysundirildi. Huquq va qonunlarning jamiyatdagi o'rni pasayib, kommunistik partiya qonun bilan cheklanmagan va qonunga bo'ysunmagan cheksiz vakolatlarga ega bo'ldi. Kommunistik partiya apparati iqtisodiyotning barcha sohalarini monopoliya qilib olgan holda ma'muriy-buyruqbozlik usulida rahbarlik qila boshladi.

Kommunistik partiya shaxs hayoti, oila, din, san'at, fan, madaniy an'analar kabi ijtimoiy hayot sohalarini ham o'z nazorati ostiga olib, bu sohalardagi qadriyat va me'yorlarni belgilab berishga ham da'vogarlik qila boshladi. Jamiyat a'zolarining erkin fikrlash, mehnat qilish va o'z shaxsini intellektual va ma'naviy jihatlardan yuksaltirish, yaratuvchilik ijodiy qobiliyatini takomillashtirish kabi sifatlarini rivojlantirish imkoniyatlari totalitar rejim tomonidan siqib qo'yilganligi uchun ham sobiq sho'ro jamiyati o'zini o'zi rivojlantirish va yangilash imkoniyatlaridan deyarli mahrum bo'lgan edi. Shuning uchun ham bu jamiyat tez o'zgarayotgan dunyoga nisbatan moslasha olmadi. Kommunistik partiya va davlatning ishlab chiqarish va moddiy-ma'naviy boyliklarni taqsimlashdagi o'rnining beqiyosligi, ularning xususiy mulkchilik va bozor raqobatchiligini ta'qiqlash siyosati, shuningdek, ortiqcha ijtimoiy differensiatsiyaga yo'l qo'ymasligi oqibatlarida jamiyat va davlat rivojlanishidagi barcha maqsadlar majburlash vositalarida amalga oshirila boshlandi. Boshqacha aytganda, boshqaruv

noiqtisodiy usullarda, ya'ni iqtisodiyotning rivojlanish qonuniyatlarini hech bir hisobga olmagan holda amalga oshirildi. Shuning uchun ham jamiyatda demokratiya unsurlarining shunchaki yashashi uchun biron-bir imkoniyat ham yo'q edi.

Davlat hokimiyatining barcha jabhasi faqat kommunistik partiyaga tegishli edi. Bu holatni taniqli siyosatshunos Xanna Arendt o'zining «Totalitarizm virusi» nomli asarida quyidagicha ifodalaydi: «Partiya doimo jamiyatning tizilmalashuvi bilan bog'liq bo'lib, uning ma'lum qatlamlari manfaatlarini ifoda etdi. Olomon uchun tuzilmaviylikning yetishmasligi yangi tipdagi partiyaga bo'lgan zaruriyatni shakllantirdi. Butin bir jamiyat manfaatlarini ifoda etishga da'vogarlik qilayotgan partiya fuqarolik jamiyatini olomon guruhlarga aylantirdi, partiyaning o'zi esa partiyaviy-byurokratik davlat tizimiga o'sib o'tdi»[65].

Mamlakatda yakkahokim partiya va mafkuraning tazyiqi oqibatlarida shaxsning erkin fikrlashi, o'z atrofidagi voqelikni erkin va halol tahlil etishi, o'z tashabbuskorligi va ijodiy qobiliyatini to'liq namoyon qilishi, shuningdek, o'zi xohlagan tarzda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlarda ishtirok etishi uchun hech bir shart-sharoitlar qolmagan edi. Shuning uchun ham jamiyat a'zolari o'rtasida ijtimoiy faolsizlik va boqimandalik kayfiyatlari misIsiz tarzda kuchaydi.

Rus olimi A.A.Kara-Murza sobiq sovet davridagi partiyaning hukmron mavqeyini quyidagicha ifodalaydi: «Partiyaga uning safidan chiqarish imkoniyati mavjud bo'lganligi uchun ham qabul qiladilar. Mamlakatdagi barcha lavozimlarga partiya a'zolari boshqalardan iste'dodli, a'lo, adolatli bo'lganliklari uchun emas, balki ularga nisbatan ko'proq itoatgo'y bo'lganliklari uchun qo'yiladilar — ularni salgina itoatsizliklari uchun hech bir sudsiz qatl etish yoki qamoqqa tiqish mumkin. Partiya va hokimiyatning kuchi partiyaviy «ta'sir»ning (shunday ataganlar) hamma yerda mavjud bo'lganligidadir. Partiyadan haydalgan odam bepoyon mamlakatning biron-bir burchagida ham tazyiqdan panoh topish uchun joy topa olmas edi»[66].

Partiya va sovet davlatining baravarlashtirish siyosati kishilardagi shaxsiy tashabbus, ijodiy fikrlash, siyosiy yoki ishlab chiqarishdagi muammolarni mustaqil tarzda yechish kabi qobiliyatlarini rivojlanishiga imkon bermadi.

Kommunistik partiya tomonidan O'zbekiston ulkan mamlakatning paxta xomashyosini yetkazib beruvchi bazasiga aylantirildi. Yetishtirilgan paxta hosiliga markaz egalik qila

boshladi. Respublikaning xomashyo o'lkasiga aylantirilishi uning agrar mintaqa bo'lishini taqozo etdi. Oqibatda respublika iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotning hamma sohalari boshqa ittifoqdosh respublikalardan bir necha marta orqada qolib ketdi. Markazning ko'zga ko'rinmas, niqoblangan mustamlakachilik siyosati partiya faoliyatining barcha sohalarida sezilar edi.

Deyarli barcha ekin maydonlarini paxtaga moslashtirish, muttasil bir xil ekin ekilishidan charchagan dalalarga tobora ko'proq kimyoviy va zaharli o'g'itlar solish misli ko'rilmagan darajada avj oldi. Buning natijasida havo, suv, oziq-ovqat, meva va poliz mahsulotlarining zararlanishi inson salomatligiga xavf solib, ko'plab yangidan yangi kasalliklarni keltirib chiqardi. Bolalar o'limi nihoyatda ko'paydi. Suvdan istiqbolsiz, o'rinsiz foydalanish Orol fojeasini keltirib chiqardi.

Turg'unlik davrida ham ana shu eski siyosat madaniyroq va puxta niqoblangan ravishda davom etdi. Ittifoqning Yevropa qismida to'xtovsiz ravishda kuchayib borayotgan xomashyoga bo'lgan talabni qondirish maqsadida O'zbekistonda paxta yetishtirishning eng oxirgi imkoniyatlari ham ishga solindi. Natijada ekologik holat yanada yomonlashdi, paxtakor mehnati juda og'irlashdi. Xalqning turmush kechirish darajasi qiyinlashib, iqtisodiy-ijtimoiy muammolar yanada keskinlashdi.

Qayta qurish davrida qisman berilgan demokratik erkinliklar, oshkoralik, xalqning o'zini o'zi boshqarish kafolatlari xalq ahvolini tubdan yaxshilay olmadi. Chunki, boshqarish, ishlab chiqarish va mulkchilikning eski usullari bekor qilinib, yangisi barpo qilinmaganligi, ittifoqdosh respublikalar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar buzilganligi, markazning yana yakkahokimlik qilish siyosatidan qaytmaganligi, o'zaro ichki siyosiy kurashlar, RSFSR bilan ittifoq va uning tuzilmalari o'rtasidagi hokimiyat uchun o'zaro kurashlar va uning iqtisodiy oqibatlari xalqning moddiy ahvolini keskin yomonlashtirdi. Xalq iste'mol mollari, oziq-ovqat mahsulotlari taqchilligi kuchayib bordi. Narx-navo ham to'xtovsiz oshib bordi.

1989-yilda Prezident Islom Karimov respublika rahbari bo'lgan davrda mamlakat siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi ana shunday og'ir siyosiy, iqtisodiy vaziyat va bo'xronlar mavjud edi. Bir tomondan, markazning ittifoqni saqlab qolish umididagi tazyiqlari, ikkinchi tomondan, o'zini muholifatchi deb atagan turli guruh va oqimlar boshliqlarining xurujlari respublika hukumatini barqaror siyosat olib borishini xavf ostiga qo'ydi.

Ana shunday qiyinchiliklar davrida markazdagi oliy hokimiyat — KPSS rahbarlaridan bir guruhning 1991-yil 19—21-avgust kunlari davlat to'ntarishi qilishga urinishlari va uning oqibatlari shuni ko'rsatdiki, endi O'zbekiston markazning vassali bo'lib qola olmaydi. Markazda g'alaba qilgan siyosiy kuchlarning ba'zi bir harakatlari, ittifoqning boshqarish tuzilmalarini boshqa respublikalar bilan hech bir kelishmay turib ishg'ol qilishga urinishlar, KPSS oliy rahbariyati bir qismining davlat to'ntarishida ishtirok etishi, KPSS faoliyatini rasman to'xtatib qo'yilishi kabi voqealar O'zbekistonning ittifoq tarkibida rivojlanishini shubha ostiga qo'ygan edi[67].

Ana shunday qiyin, taxlikali va murakkab sharoitlarda O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi e'lon qilindi. Umuman, milliy mustaqillikning dastlabki davrida sobiq totalitar jamiyat qoldirgan meros mamlakat ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotining barcha sohalarini o'ziga qamrab olgan edi. Mamlakatda hali fuqarolik jamiyatining unsurlari shakllanmaganligi, bu sohadagi tajribalarning kamligi, demokratik qadriyatlar xalq mentalitetiga singmaganligi, yangi jamiyatning iqtisodiy asoslari shakllanmaganligi kabi yuzlab dolzarb muammolar o'z yechimini kutmoqda edi.

3. «O'zbek modeli»da fuqarolik jamiyati qurishning o'ziga xos xususiyatlari

Sobiq ittifoqning inqirozga yuz tutishi natijasida agrar mintaqa bo'lgan O'zbekiston jar yoqasiga kelib qolgan edi. Xuddi shu davrda mamlakat rahbari bo'lib kelgan I.A.Karimov ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyatni chuqur tahlil etib, hali mamlakat tarixi uchun butunlay yangi bo'lgan rivojlanishning «O'zbek modeli»ni ishlab chiqishni boshlagan edi. Mazkur modelning mazmun-mohiyati mashhur besh tamoyilda mujassamlashdi:

1) iqtisodiyotni mafkuradan xoli qilish;

2) qonun ustuvorligini ta'minlash;

3) davlatning bosh islohotchi sifatidagi boshqaruvchilik rolini tan olish;

4) mamlakatimizning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish;

5) siyosiy va iqtisodiy islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishdan iborat edi.

Mazkur tamoyillarning asosiy strategik pirovard maqsadi bozor iqtisodiyotiga o'tish, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish, deb belgilandi.

«O'zbek modeli» asosida amalga oshirilgan islohotlar natijasida mustaqillikning o'tgan 23 yili ichida iqtisodiyotda tub demokratik va bozor islohotlari amalga oshirildi, xususiy mulkka keng yo'l ochib berildi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, qishloq xo'jaligi sohasida hal qiluvchi kuchga aylanib borayotgan fermerlikni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar, imtiyoz va preferensiyalar yaratildi, xususiy mulk va mulkdorlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha ko'plab qonun hujjatlari qabul qilindi. Shu borada jamiyatni erkinlashtirish, biznes yuritish uchun huquqiy va qonunchilik bazasi hamda zarur sharoitlarning muntazam ravishda takomillashtirib borilgani iqtisodiyotni izchil va barqaror rivojlantirishda, aholining hayot darajasi va sifatini yuksaltirishda katta o'rin tutdi. Mamlakatda kichik biznes va tadbirkorlikning taraqqiyoti, xususiy mulkning jadal rivoji uchun g'oyat qulay va ustuvor sharoitlarni yaratib berish natijasida iqtisodiyotning o'sish sur'atlari tezlashdi, aholining ish bilan band bo'lishi va daromad topishi bilan bir qatorda, mamlakatimiz uchun yangi bo'lgan, demokratik islohotlarning asosiy tayanchi va harakatlantiruvchi kuchi – o'rta sinf shakllantirildi.

Shu bilan birga, mamlakatda «O'zbek modeli» asosida fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat barpo etishga doir islohotlarni rivojlangan demokratik mamlakatlar va xalqaro hamjamiyatlar tajribasidagi demokratik qadriyatlar asosida amalga oshirishga muhim ahamiyat berildi. Chunki, demokratik qadriyatlar nafaqat xalqaro tajriba va sinovlardan o'tganligi, balki o'zbek xalqining milliy manfaatlariga mos kelganligi uchun ham islohotlar jarayonlariga tatbiq etila boshlandi. Mamlakatda fuqarolik jamiyati uchun muhim bo'lgan demokratik qadriyatlarni Prezident I.A.Karimov quyidagicha baholagan edi: «Ma'lumki, demokratik jamiyatning xalqaro miqyosda e'tirof etilgan tamoyillari bor. Insonning o'z xohish-irodasini erkin bildirishi hamda uni amalga oshirishi, ozchilikning ko'pchilikka bo'ysunishi, barcha fuqarolarning teng huquqliligi, davlat va jamiyat boshqaruvida qonun ustuvorligi, davlatning asosiy organlari saylanishi, ularning saylovchilar oldida hisob berishi, tayinlash yo'li bilan shakllanadigan davlat organlarining saylovchi tashkilotlar oldidagi javobgarligi va boshqalar shular jumlasiga kiradi»[68].

Shu bilan birga, Prezident I.A.Karimovning fikricha, fuqarolik jamiyati nazariyasi va amaliyoti har bir mamlakatning milliy qadriyatlari, xalqning milliy mentaliteti va milliy an'analarini

o'zida ifodalashi zarur. Bu shuning uchun ham zarurki, fuqarolik jamiyati barpo etishda har bir xalq o'z milliy manfaatlarini ifoda etilishini ham anglashi lozim. Bu kabi holatga ega bo'lish uchun milliylik yangi jamiyat mazmuni va shaklu shamoyili bilan uyg'unlashishi lozim. O'zbekiston esa boshqa mamlakatlarga nisbatan adolatli va xalqchil jamiyat barpo etishga doir milliy meros va qadriyatlarga boyligi bilan ajralib turadi.

Shuningdek, mamlakatda yangi jamiyat qurish islohotlari inqilobiy yo'lni ham qabul qilmaydi. Chunki, bu yo'l o'zining vayronagarchiligi, millionlab aholining ijtimoiy ahvolini pasayib ketishi, jamiyatning qutblashgan tomonlarga bo'linib ketishi kabi salbiy holatlarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham davlat tomonidan fuqarolik jamiyatining O'zbekiston mamlakati uchun o'ziga xos quyidagi jihatini ilgari surildi: «Sharqda demokratik jarayonlarning qadimdan shakllangan o'ziga xos va o'ziga mos xususiyatlari bor. Buni aslo nazardan qochirib bo'lmaydi. Ya'ni Sharqda demokratik jarayonlar uzviy ravishda va asta-sekin taraqqiy topadi. Bu sohada inqilobiy o'zgarishlar yasashga urinishlar g'oyat noxush, hatto fojiali natijalarga olib keladi. Inqilobni G'arb olimlari ham «ijtimoiy taraqqiyotning ibtidoiy va yovvoyi shakli» deb ataganlar. Tabiiyki, bunday yo'l bizga aslo to'g'ri kelmaydi...»[69].

Shu bilan birga, Prezident I.A.Karimovning O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirishga doir nazariy qarashlari rivojlangan mamlakatlarda amalga oshirilgan demokratik tamoyillar asosidagi tajribalarga hamohang tarzda rivojlandi. U fuqarolik jamiyatining asosini o'zini o'zi boshqarish organlarini o'ziga munosib vakolatlar bilan ta'minlashda, deb bildi.

Shuningdek, Prezident I.A.Karimov O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining yashashini ta'minlaydigan asosiy shart-sharoitlardan biri, bu — davlat hokimiyati vakolatlarini chegaralash, fuqarolik jamiyati institutlariga jamiyatda o'zini o'zi boshqarish uchun qanchalik zarur bo'lsa, shunchalik yetarli vakolatlar berish ekanligi masalasini ilgari surdi. Prezident fuqarolik jamiyatining yashash qobiliyati fuqarolarning siyosiy jarayonlarda nechog'lik ishtirok etishlari bilan uzviy bog'liq ekanligini ham chuqur anglab yetgan edi.

Prezident I.A.Karimov davlat vakolatlarini jamiyat institutlariga berish asosida huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish maqsadida quyidagi vazifani qo'ydi: «Ammo haqiqiy milliy ravnaqqa biz faqat davlat hokimiyati vazifalarini qat'iy va mukammal belgilab va shu bilan birga cheklanib qo'yilgan fuqarolik jamiyati

sharoitidagina erishmog'imiz mumkin. Bunday jamiyatda davlatning bosh vazifasi taraqqiyot strategiyasini aniq belgilash va uni hayotga joriy etish uchun qattiq nazorat olib borishdan iborat bo'ladi... Ana shunday davlat va jamiyatni qurish, haqiqiy demokratik qadriyatlarni vujudga keltirish — bizning bosh konsepsiyamiz va milliy ravnaqimiz asosidir»[70].

Mamlakat Prezidenti I.A.Karimovning O'zbekistonda fuqarolik jamiyati barpo etishga doir nazariy qarashlari uning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida o'z takomiliga yetganini kuzatish mumkin. Bu asarda fuqarolik jamiyatining eng asosiy institutlari O'zbekiston mamlakati shart-sharoitlari, milliy mentalitetini hisobga olgan holda talqin etiladi. Shuningdek, bu asarda yangi jamiyat qurish muammolari «shaxs-jamiyat-davlat» o'zaro uyg'unligi asosida tahlil etiladi. Muhimi, davlatning shaxs va jamiyat manfaatlari asosida faoliyat yuritadigan siyosiy institut ekanligi, bu institutning doimo jamiyatni rivojlanishi va uning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlardan farovon bo'lishi hamda barqarorligi uchun mas'ulligini oshirib borish zarurligi asoslanadi.

Shuningdek, asarda fuqarolik jamiyatini inson erkinligi va huquqlarining eng asosiy himoyachisi ekanligiga ham muhim e'tibor beriladi. Asardagi quyidagi fikrlar fuqarolik jamiyatining yangi qirralarini ochib beradi: «Biz uchun fuqarolik jamiyati — ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishga monelik qilmaydi, aksincha, yordam beradi. Shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to'la darajada ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi. Ayni vaqtda boshqa odamlarning huquq va erkinliklari kamsitilishiga yo'l qo'yilmaydi. Ya'ni erkinlik va qonunga bo'ysunish bir vaqtning o'zida amal qiladi, bir-birini to'ldiradi va bir-birini taqozo etadi. Boshqacha aytganda, davlatning qonunlari inson va fuqaro huquqlarini kamsitmasligi lozim. Shuning barobarida barcha odamlar qonunlarga so'zsiz rioya qilishlari shart»[71].

Prezident I.A.Karimov fuqarolik jamiyatining shakllanishini fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirokini amalga oshirish bilan uzviy ravishda bog'laydi. Ayniqsa, yangi jamiyat xalq tomonidan demokratik qadriyatlarni o'z siyosiy madaniyatiga singdirib borishiga hamohang tarzda rivojlanib borishini e'tirof etgani holda quyidagi fikrlarni bildiradi: «Jamiyatda demokratiya qay darajada ekanligini belgilovchi kamida uchta mezon bor.

Bular — xalq qarorlar qabul qilish jarayonlaridan qanchalik xabardorligidir. Hukumat qarorlari xalq tomonidan qanchalik nazorat qilinishi, oddiy fuqarolar davlatni boshqarishda qanchalik ishtirok etishidir»[72].

Umuman olganda, Prezident I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan «O'zbek modeli»ni amalga oshirishning asosiy yo'nalishi bo'lgan «Kuchli davlatdan — kuchli fuqarolik jamiyati sari» tamoyili ilg'or demokratik qadriyatlar bilan adolatli jamiyat qurishga doir milliy qadriyatlar va an'analarni uyg'unlashtirish asosida rivojlanib bordi.

Prezident O'zbekistonda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish islohotlarini yanada chuqurlashtirish, unga mutanosib ravishda huquqiy davlat qurish maqsadlaridan kelib chiqib jamiyatning siyosiy sohasini erkinlashtirish (liberallashtirish) konsepsiyasini ishlab chiqdi va uning quyidagi yo'nalishlarini belgilab berdi:

mamlakat siyosiy hayotining barcha sohalarini, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish;

mamlakat siyosiy hayotida haqiqiy ma'nodagi ko'ppartiyaviylik muhitini qaror toptirish;

nodavlat notijorat tuzilmalar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyatini yanada mustahkamlash va rivojlantirish;

jamiyatda fikrlar xilma-xilligi va qarashlar rang-barangligi, ularni erkin ifoda etish sharoitini ta'minlash;

inson huquqlari va erkinliklarini, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni yanada mustahkamlash va rivojlantirish.

Prezident I.A.Karimovning quyidagi fikri mamlakatda fuqarolik jamiyati barpo etishning eng asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi: «Hammamizga ayonki, bu yo'nalish ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan bog'liq ko'p masalalarni hal qilishda davlat tuzilmalarining rolini kamaytirish va bu vazifalarni bosqichma-bosqich jamoat tashkilotlariga o'tkaza borishni taqozo etadi. Buning uchun, avvalambor, davlatning iqtisodiy sohaga, xo'jalik yurituvchi tuzilmalar, birinchi galda, xususiy sektor faoliyatiga aralashuvini cheklash lozim... Hayotimizni erkinlashtirish yo'nalishlarining yana bir muhim yo'li — markaziy va yuqori davlat boshqaruv idoralari vazifalarini davlat hokimiyatining quyi tuzilmalariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkaza borishni ta'minlashdir»[73].

Mamlakatda «O'zbek modeli»dan kelib chiqib, fuqarolik jamiyati qurish maqsadlarida davlat hokimiyatining aksariyat

vakolatlarini mahalliy hokimiyat organlari va o'zini o'zi boshqarish organlariga berish jarayonlari boshlandi. Markaziy davlat hokimiyati tasarrufida esa asosan, faqat konstitutsion tuzumni, mamlakatning mustaqilligi va hududiy yaxlitligini himoya qilish, huquq-tartibot va mudofaa qobiliyatini ta'minlash, inson huquqlari va erkinliklarini; mulk egalarining huquqlarini, iqtisodiy faoliyat erkinligini himoya qilish, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, samarali tashqi siyosat olib borish kabi vakolatlarni qoldirish ko'zda tutilmoqda.

Shuningdek, strategik ahamiyatga molik masalalar, muhim iqtisodiy va xo'jalik masalalari, pul va valuta muomalasi bo'yicha qarorlar qabul qilish, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining huquqiy shart-sharoitlarini yaratish, ekologiya masalalari, umumrespublika transport va muhandislik kommunikatsiyalarini rivojlantirish, yangi tarmoqlarni vujudga keltiradigan ishlab chiqarishni barpo etish masalalari markaziy davlat miqyosida hal etilishi, davlatning boshqa barcha vazifalari esa mahalliy davlat hokimiyati, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat va jamoat tashkilotlariga berish uchun huquqiy asoslar va siyosiy shart-sharoitlar yaratishga doir islohotlar chuqurlashib bormoqda. Shu bilan birga, davlat organlari faoliyatini nazorat qilish vakolatlari ham asosan o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat va jamoat tashkilotlariga o'tkazish belgilandi.

Shu bilan birga, O'zbekiston jamiyati siyosiy tizimida ikki palatali parlament islohotlarining boshlanishi ham davlat hokimiyati tizimi va jamiyat institutlarini har tomonlama modernizatsiyalashtirish va isloh etish uchun shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yanada kengaytirdi. Avvalambor, parlament islohotlari natijasida jamiyatdagi ijtimoiy qatlamlar va guruhlarning manfaatlari va irodalarini ifodalovchi yangi institutlar — parlamentning Qonunchilik palatasi va Senatning shakllanishi natijasida bu turli-tuman manfaatlarni qonunlar va siyosiy qarorlarda ifodalana olish imkoniyatlari yaratildi. Albatta, bu o'zgarishlar fuqarolik jamiyatiga xos bo'lgan qadriyatlardan biri — fuqarolar istaklari va manfaatlarini fuqarolik institutlari vositasida davlat irodasi hamda davlat vazifasi darajasiga ko'tarish amaliyotiga erishildi. Shuningdek, fuqarolik jamiyatiga xos bo'lgan qonunlar qabul qilishning o'ziga xos imkoniyatlari yaratildi.

Prezident I.A.Karimovning quyidagi so'zlari xalqning, butun bir mamlakatning dasturilamaliga aylandi: «Bizning bosh strategik maqsadimiz qat'iy va o'zgarmas bo'lib, bozor iqtisodiyotiga

asoslangan erkin demokratik davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevorini shakllantirishdan iboratdir»[74].

Shunisi diqqatga sazovorki, Milliy mustaqillik yillarida O'zbekistonda yangi davlat va jamiyat qurish masalasida rivojlangan mamlakatlarning ilg'or tarixiy tajribasini chuqur o'rganish natijasida fuqarolik jamiyatini barpo etishdagi «O'zbek modeli»ning nazariy asoslari ishlab chiqildi. Uning nazariy qarashlari «Kuchli davlatdan — kuchli fuqarolik jamiyati sari» konseptual dasturda va O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirish amaliyotida o'z ifodasini topib bormoqda. Bu sohani rivojlantirish maqsadlarida qonunchilikni isloh etish, fuqarolik jamiyati institutlarini yanada rivojlantirishga imkoniyat yaratadigan huquqiy asoslar yaratishga muhim ahamiyat berila boshlandi.

Mamlakatda islohotlarni yanada chuqurlashtirishda Prezident I.A.Karimov tomonidan ilgari surilgan «Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmang», «Islohotlar — islohot uchun emas, avvalo inson uchun» degan shiorlar «O'zbek modeli»ni amalga oshirishning tamoyillariga aylanib ketishi barobarida ular mazkur modelning xarakteri va insoniy qiyofasini ham belgilab berdi.

4. «O'zbek modeli»ga xos iqtisodiy rivojlanishning milliy jihatlari

Rivojlanishning «O'zbek modeli» iqtisodiyotni rivojlantirish sohasida ham rivojlangan mamlakatlar, milliy an'analar va tajribalar, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy holati kabi omillarni e'tiborga olgan edi. Masalan, Germaniya, Shvetsiya va Janubiy Koreyada og'ir sinovlardan o'tgan mayda va o'rta korxonalar, fermerlik xo'jaliklarini davlat tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlash, davlatning bosh islohotchilik o'rniga muhim e'tibor berish, iqtisodiyotning ijtimoiy yo'naltirilganligi, mulkiy tengsizlik nisbatini o'sishiga yo'l qo'ymaydigan iqtisodiy siyosat olib borish, aholining kam ta'minlangan qatlamlarini kuchli ijtimoiy himoyalash, tashqi iqtisodiy sohada eksportni har tomonlama rag'batlantirish sohalardagi islohotlar rivojlangan mamlakatlardagi demokratik rejimlar uchun xos bo'lgan tub o'zgarishlar edi.

Shu bilan birga, «O'zbek modeli»ning milliy, bektakror jihatlari ham borki, ular faqat bizning mamlakatimizdagi milliy-tarixiy rivojlanish va mustaqillik davridagi tajribalar asosida yuzaga keldi. Jumladan, yerga xususiy mulkchilikni, yoqilg'i-energetika

majmuasini, transport vositalarini, aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoyalash tizimini, o'zini o'zi boshqarish tizimini, mahalliy hokimiyat organlarini demokratik tamoyillar asosida rivojlantirishda milliy tajriba, milliy an'analar, mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyatlar e'tiborga olindi. Shuningdek, sharqona vazminlik, bosqichma-bosqichlikka asoslangan izchillik, milliy manfaatlar asosida islohotlarni chuqurlashtirish kabi qadriyatlar «O'zbek modeli»ni muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirishga imkoniyatlar yaratdi. Rivojlangan mamlakatlarda bir necha o'n yilliklar oldin amalga oshirilgan – davlat hokimiyati organlarini nomarkazlashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish, davlat mulkini xususiylashtirish, mamlakatni modernizatsiyalash kabi islohotlar aynan g'arb mamlakatlari bosib o'tgan tarixiy yo'l tajribasi asosida emas, balki hozirgi globallashuv va fuqarolik jamiyati qurish jarayonlari bilan hamohang tarzda amalga oshirilmoqda. Bu holatlar ham «O'zbek modeli»ning o'ziga xos milliy jihatlarini aks ettiradi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik davrida «O'zbek modeli» asosida o'z iqtisodiyotini hali hech bir MDH davlatlarida ro'y bermagan yuksak taraqqiyotga erishishini ta'minlay oldi. Hattoki, Sharqiy Yevropa mamlakatlari ham O'zbekistondagi islohotlar darajasidan ancha ortda qoldi. Qisqa davr ichida oldingi davrdagi paxta xomashyosiga bog'liq bo'lib qolishga barham berildi, daromadlar taqsimoti yuksak darajadagi bab-baravarlikka erishdi, davlat budjeti hattoki inqirozlar davrida ham profitsitni saqlab qolish salohiyatiga erishdi[75]. 2012-yilga kelib yalpi ichki mahsulot (YaIM) o'tish davrigacha bo'lgan – 1989-yilga nisbatan 200 foizni tashkil etdi. Bu MDH va Sharqiy Yevropa davlatlari ichida eng yuksak ko'rsatkich sifatida o'zini namoyon qildi.

2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy va iqtisodiy inqirozi ham O'zbekistonga salbiy ta'sir eta olmadi. Bu paytdan boshlab Boltiq bo'yi mamlakatlarida ishlab chiqarish 15–20 %, Armaniston, Vengriya, Moldova, Rossiya, Sloveniya, Ukraina kabi mamlakatlarda esa 8–15 %ga kamaygani holda yiliga 8–8,3 % o'sish kuzatilmoqda.

Mustaqillik davrida O'zbekiston o'z iqtisodiyoti tuzilmalarini tubdan o'zgartirdi, paxta yakkahokimligiga barham berildi, oziq-ovqat va energetika mustaqilligiga erishdi, iqtisodiyotni divesifikatsiyalay oldi.

Hukumatning moliyaviy siyosati ham mustahkamligi bilan ajralib turadi. 2013-yil yakunlariga ko'ra tashqi davlat qarzi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 17 foizni, eksport hajmiga nisbatan

qariyb 60 foizni tashkil etdi[76]. 2000-yilda YaIM tarkibida sanoatning ulushi 14,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2013-yilga kelib 24,2 foizga yetdi. Kichik biznes korxonalarining soni 190 mingtaga yetdi. Bugungi kunda mamlakatimiz YaIMning 55,8 foizi ayni shu sohada ishlab chiqarildi. Vaholanki, 2000-yilda bu ko'rsatkich 31 foizdan iborat edi. Jami sanoat mahsulotlarining 23 foizi, ko'rsatilayotgan bozor xizmatlarining deyarli barchasi, mahsulot eksportining 18 foizi, iqtisodiyot tarmoqlarida ish bilan band bo'lgan aholining 75 foizi kichik biznes ulushiga to'g'ri kela boshladi. Jahon bozoridagi konyunkturaning beqarorligiga qaramasdan, 2013-yilda eksport hajmining o'sishi 10,9 foizdan iborat bo'ldi[77].

Rivojlanishning «O'zbek modeli»ning muhim jihatlaridan biri – uning eksportga yo'naltirilgan mollar ishlab chiqarishni ustuvor vazifa sifatida belgilaganligidir. Shuning uchun ham eksportni rag'batlantirish yo'lini tutish nafaqat mamlakatda xorijiy texnologiyalarni kirib kelishini ko'paytirishga, balki iqtisodiyotni rivojlanishiga ham sezilarli ta'sir eta boshladi.

Mamlakatda Janubiy Koreya va boshqa ba'zi rivojlangan mamlakatlarda bo'lganidek sanoat siyosatining kuchli vositalari – import boji, eksport qiluvchilar uchun soliq imtiyozlari, valuta qadrini tushirish kabi ta'sirchan vositalardan foydalanildi. Albatta, mustaqillikning dastlabki yillarida sobiq ittifoqdan meros bo'lib qolgan holat boshqacha yo'l tutishga yo'l qo'ymas edi.

Shu bilan birga, paxta xomashyosi ishlab chiqarishga nisbatan davlat buyurtmasi keskin kamaytirildi, g'alla, kartoshka va poliz ekinlari uchun yer maydonlari bir necha marta ko'paytirildi. Natijada oziq-ovqat mahsulotlarini eksport qilish bilan import qilish holati o'zaro muvozanatlashdi.

Mustaqillik davrida O'zbekiston energetika mustaqilligini qo'lga kiritish barobarida uni eksport qiluvchi mamlakatga aylandi. Shu bilan birga, mamlakat MDH davlatlari ichida sanoat sohasini tezlik bilan rivojlantirgan, YaIMda uning ulushini yuqori darajada oshirgan, sanoat tarkibida esa mashinasozlik va kimyoviy kabi yangi yo'nalishlarni yuksaltirgan birdan bir davlat sifatida ham tanildi. Avtomobil sanoatining raqobatbardoshligi butunlay bo'shliqdan boshlangan bo'lsa, endi u milliy o'sishning kuchli vositasiga aylandi. 2013-yilda 274 mingta avtomobil ishlab chiqarilib, undan 142 mingtasi tashqi bozorga chiqarildi. Toshkentda loyihaviy quvvati yiliga 2011-yildan boshlab 360

mingta avtomobil dvigateli ishlab chiqarishga mo'ljallangan zavod («Djeneral motors» bilan qo'shma korxona) faoliyat yurita boshladi.

Mamlakatda 1998-yildan boshlab korxonalar uchun eksport bojlari bekor qilindi, 2004-yildan boshlab esa eksport qiluvchi korxonalar uchun daromad va mulk solig'i, yagona soliq to'lovi kabilarni to'lash ular ishlab chiqargan mollarning eksport hajmi ko'payib borishiga qarab katta imtiyozlar belgilab qo'yildi. Agar korxona o'zi ishlab chiqargan mollarni 15–30 foizini eksport qila olsa, soliqlar 30 foizga kamaytirildi, 30 va undan ortiq foizini eksportga chiqarsa, soliqlar 50 foizga kamaytirildi. Albatta, bu kabi soliq siyosati «O'zbek modeli»ning muhim jihatlaridan biri edi. 2012-yilga kelib xomashyoviy bo'lmagan mollarni eksport qilish 1990-yildagi 30 foizdan 70 foizga ko'tarildi. Undagi uzoq xorijiy mamlakatlar ulushi 1992-yilda 40 foiz bo'lgan bo'lsa, 2012-yilda bu ko'rsatkich 60 foizni tashkil etdi[78].

«O'zbek modeli»ni yanada rivojlanib va takomillashib borayotganligini Prezident I.A.Karimov tomonidan ilgari surilgan «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»ning (2010-yil 12-noyabr) mazmun-mohiyatidan yanada teranroq anglash mumkin. Unga muvofiq, rivojlanishning «O'zbek modeli» mustaqillik davrida orttirilgan milliy tajribalar va rivojlangan mamlakatlarda sinovlardan o'tgan farovon jamiyat va huquqiy davlat qurishning nazariy va amaliy jihatlari yanada boyitildi. Mazkur konsepsiya fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishning ustuvor maqsad va vazifalarini belgilab berish asnosida bu jarayonning huquqiy asoslar bilan ta'minlashning istiqbolli dasturi sifatida namoyon bo'ldi.

Takrorlash uchun savollar:

1. «Rivojlanish modeli» deganda nimani tushunasiz?
2. Rivojlanishning qanday o'zini oqlagan modellarini bilasiz? Ular bir-biridan qaysi jihatlari bilan farqlanadi?
3. «O'zbek modeli»ni ishlab chiqishga qanday zaruratlar bor edi?
4. Fuqarolik jamiyati qurishning «O'zbek modeli» nimalardan iborat?
5. Iqtisodiy rivojlanishning «O'zbek modeli»ning mohiyati nimalardan iborat?

5-mavzu: O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISHDA O'TISH DAVRI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI

1. Bozor iqtisodiyotiga o'tish tushunchasi.
2. Bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'llari: umumiylik va o'ziga xoslik.
3. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'lini ishlab chiqilishi va uni amalga oshirish jarayoni.
4. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davri bosqichlari va olamshumul natijalar.

1. Bozor iqtisodiyotiga o'tish tushunchasi

Hozirgi davrga kelib turli mamlakatlarda iqtisodiy o'sishlar va o'zgarishlarning borishi va mazmuni o'zining turli-tuman ekanligi bilan keskin ajralib turishi bilan tavsiflanadi. O'tish davridagi iqtisodiy tizimlarni amal qilishini ifodalab beruvchi omillarni uch guruhga ajratib ko'rsatish mumkin: tabiiy-iqlimiy, ishlab chiqarish-iqtisodiy, sotsiomadaniy.

Tabiiy-iqlimiy omillar jamiyatning tabiiy asosi bilan bog'liqdir. Tarixiy tajriba ko'rsatadiki, ijtimoiy hayotni tashkil etish shakllari insonlarning sayyorada qanday joylashganligi, xususan, iqlimning sovushi va kosmik halokatlar, ekvator va hosildor yerlarga yaqin yoki uzoq bo'lishi, suv va foydali qazilmalar bilan ta'minlanganligi kabilarga uzviy ravishda bog'liqdir.

Ishlab chiqarish-iqtisodiy omillarga mehnat predmeti va vositalari, ilg'or texnologiyalar, inson-ishchining bosh ishlab chiqaruvchi kuch va iqtisodiy munosabatlar subyekti sifatidagi professionalligi, mehnat va ishlab chiqarishni tashkil etish shakllari, ishlab chiqarish natijalari va mablag'larni o'zlashtirish xarakteri va shakllari — xususiy, ijtimoiy, kooperativ, xususiy mulkiy, iqtisodiyotning samaralilik darajasi kabilar taalluqlidir. Ayni o'zgarishlar, avvalambor, ishlab chiqarish-iqtisodiy omillar iqtisodiy tizimni o'zgarishga olib keladi, yoki o'tish davrini, o'tish iqtisodiyotini va o'tish holatini boshlanishiga olib keladi.

Sotsiomadaniy omillar inson hayot faoliyatida ruhiy-onglilikni (ruhiy rivojlanish, ijtimoiy xulq, ijtimoiy mentalitet, madaniy an'analar, mafkura, din) paydo bo'lishini ifodalaydi. Sotsiomadaniy omillar nisbatan mustaqil va barqaror ekanligi

bilan ajralib turadi. Qachonki o'tish iqtisodiyoti haqida so'z ketganida, bu omillar o'ziga xos tarzdagi cheklash rolini o'ynab, uning doirasidan chiqish ma'qul kelmaydi yoki, hattoki, chiqish mumkin bo'lmay qoladi.

O'tish davri iqtisodiyoti o'z mohiyatiga binoan tadrijiy iqtisodiyotning alohida bir holati bo'lib, u jamiyatning bir tarixiy pog'onadan ikkinchisiga o'tayotganida amal qiladi. O'tish davri iqtisodiyoti burilish davrini — tub iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlarni xarakterlaydi.

O'tish davri iqtisodiyoti o'zining quyidagi asosiy xususiyatlari bilan tavsiflanadi:

1) o'tish davrida iqtisodiyotning o'zgarib turishi, uning beqarorligi. Turli nazariy oqimlar mazkur beqarorlik paytini, muvozanatga erishish muammolarini o'z tahlillari markazlari sifatida qarash rusumga kirdi. O'tish davri iqtisodiyotida butunlay boshqacha tartibdagi o'zgarishlar ro'y berib turadi, bunda tizim ma'lum vaqt oralig'ida o'zining dastlabki holatiga qaytishi kutilmaydi. Tadrijiy o'zgarishlarning qaytib kelmasligi — uning xarakterli belgilaridan biridir. Mazkur beqarorlik shunga olib keladiki, bunda mavjud iqtisoiy tizim bora-bora o'z joyini boshqasiga bo'shatib beradi;

2) o'tish davri iqtisodiyotining muqobillik xarakteri. Bunda muqobillik o'tish davri iqtisodiyotining rivojlanishi turli-tuman yo'llardan iborat bo'lishini anglatadi. Bu holat o'tish davri iqtisodiyotining xarakteridan kelib chiqib, unda o'tmish qoldiqlari, hozirgi payt asoslari, istiqboldagi tadrijiy holat kurtaklari mavjud bo'ladi. Bunda so'z ayni evolutsiyalar muqobillari to'g'risida, ya'ni oxir-oqibatda o'tish davri iqtisodiyoti qandaydir boshqa yangi holatga o'tishi to'g'risida ketmoqda. Bu jarayondagi o'tishga moyillik oldingi holatga qaytishni istisno qiladi: «tizim o'zining o'tmishini eslamaydi» qoidasi kuchga kiradi;

3) alohida o'tish davri iqtisodiyoti shakllari vujudga keladi va unga amal qilina boshlaydi. O'tish shakli o'zida eskiliklar va yangiliklar qorishmasi aralashmasidan iborat hayot tarzlarini ifodalagan holda oldingi tizimni barham topishiga zamin tayyorlaydi. O'tish shakllari evolutsiyaning yo'nalishini ko'rsatib beradi va uning ortga qaytmaslik belgisi sifatida namoyon bo'ladi;

4) o'tish davri iqtisodiyotidagi ziddiyatlar alohida xarakter kasb etadi. Bu ziddiyatlar iqtisodiy tizimga amal qilishni ifodalamaydi, balki uning tadrijiy xarakteriga ega ekanligini

bildiradi, ya'ni, bu eskilik va yangiliklar o'rtasidagi ziddiyatlar sifatida namoyon bo'ladi;

5) o'tish davri iqtisodiyotining tarixiyligi. Evolutsiya tarixiy xarakter kasb etadi. Jamiyatning iqtisodiy tuzumi va ijtimoiy tizilmalari o'ziga xos bo'lganligi, mintaqaviy iqtisodiyot bilan mamlakat iqtisodiyoti o'zaro farqlanganligi sababli ham hozirgi davr o'tish jarayonlari o'zining boshlang'ich holati hamda oxirgi natijalariga ko'ra o'zaro farqlanadi. Bularning hammasi shuni anglatadiki, hattoki, evolutsiya qonuniyatlari turlicha shart-sharoitlarda amal qilsa ham ular o'ziga xos bo'lgan shakllanishning tarixiy shakllariga ega bo'ladi.

Tarixda o'tish davri iqtisodiyotining har xil turlari bo'lganligini bilamiz. Ular o'tish jarayonlari xarakteri va miqyosi bo'yicha bir-birlaridan ancha farqlanadi:

1. O'tish davri iqtisodiyotining lokal turi. U qandaydir mintaqa yoki alohida mamlakatning o'tish holati miqyosini xarakterlaydi. Lokal tur asosida har bir iqtisodiyot rivojlanishining o'ziga xos jihatlari, turli mamlakatlar va mintaqalar rivojlanishining notekisligi yotadi. Lokal o'tish davri iqtisodiyotida o'tish jarayonlaridagi umumiylik va alohidalik birligi mujassamlashadi. Angliya, Fransiya va Germaniya mamlakatlarida bozor iqtisodiyoti turli shakllarda va o'ziga xos jihatlar asosida shakllandi. O'tish davri iqtisodiyoti turlarini miqyoslari bo'yicha tasniflashtirishda lokal o'tish davri iqtisodiyoti uning boshlang'ich turi sifatida tahlil etiladi.

2. O'tish davri iqtisodiyotining global turi. U o'zida o'zgarishlarning yagona jarayonini, yoki butun dunyo xo'jaligi miqyosini, yoki sivilizatsiya doirasidagi (Sharq, G'arb) o'zgarishlarni ifodalaydi. Lokal darajadagi o'zgarishlar megaiqtisodiy o'tish jarayonlarini rivojlanishiga ta'sir qiladi. Bu jarayonda paydo bo'lgan moyilliklar mintaqalardagi jarayonlarga teskari ta'sir ko'rsatadi. Makroiqtisodiy jarayonlar mustaqil omillar ta'sirida rivojlanadi: xalqaro mehnat taqsimotini chuqurlashuvi, transnatsional korporatsiyalarni paydo bo'lishi, millatlararo ishlab chiqarish va o'zaro almashuvlar.

3. O'tish davri iqtisodiyotining tabiiy-evolutsiyaviy turi. U o'tish davri jarayonlarining xarakteri bo'yicha (ayniqsa, global o'tish jarayonlari uchun) ajralib turadi. Lekin, lokal o'tish davri iqtisodiyoti ham evolutsiyaviy qonuniyatlar ta'siri ostida shakllanadi. Shuning uchun o'tish davri iqtisodiyotining bu turi asosiy tur hisoblanadi. Evolutsiyaning borishida — tarixiy

taraqqiyotning bir pog'onasidan ikkinchisiga o'tishida u asos bo'lib xizmat qiladi.

4. O'tish davri iqtisodiyotining islohotchilik-evolutsiyaviy turi. U ham o'tish jarayonlari xarakteri bo'yicha ajralib turadi va jamiyatni isloh etish uchun ishlab chiqilgan dastur asosida ongli ravishda muvofiqlashtirish asosida kechadi. Bu jarayonda evolutsiyaning borish qonuniyatlari saqlanib qoladi. Lekin, bunda evolutsiya zo'rlik bilan emas, balki islohotchilik o'zgartirishlar uchun ishlab chiqilgan qonunlarga muvofiq tezlashtiriladi. O'tish jarayonining bu turida evolutsiyaning sotsiomadaniy omillari muhim ahamiyat kasb etadi. Unga misol tariqasida qator industrial mamlakatlarda amalga oshirilgan texnotron turga mansub bo'lgan bozor iqtisodiyotiga o'tishning zamonaviy dasturlarini keltirish mumkin.

O'tish davri iqtisodiyotini amal qilish jarayoni ikkita qonuniyatga bog'liqdir: 1) takror ishlab chiqarish o'zgarishlarga moyilligining kamligi (inersiyaviyligi); 2) yangi shakllar va munosabatlarning ko'proq intensiv rivojlanishi.

Takror ishlab chiqarish o'zgarishlarga moyilligining kamligi o'tish davri iqtisodiyotini amal qilish muddatlarini cho'zilishini taqozo etadi, eski iqtisodiy munosabatlar va shakllarni saqlashga moyilligini namoyish etib turadi. Jamiyatning yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmalari, amaldagi ijtimoiy institutlari, tarmoqlararo va ichki tarmoqlar o'zaro aloqalari, xo'jalik mexanizmlari, kadrlar mentaliteti kabilarni tezlik bilan o'zgarishiga imkoniyatlar kam bo'ladi.

O'zgarishlarga moyillikning kamligi o'tish davri iqtisodiyotini jamiyatning dastlabki holatiga merosiyligini davom ettirishga olib keladi, bu bilan o'tish davrini cho'zilib ketishiga sabab bo'ladi. Shu bilan birga, bu jarayonlarni mensimaslik evolutsiyaning obyektiv xarakterini inkor etishni anglatadi, va nihoyat, voluntarizm hukmronligiga olib keladi.

O'tish davrining yangi shakllari va munosabatlarini tezlik bilan rivojlanib borishi tarixiy evolutsiyaning bir pog'onasidan boshqasiga o'tish mexanizmini xarakterlaydi. Bu bilan mazkur qonuniyatlar o'tish davri iqtisodiyotida evolutsion jarayonlarni orqaga qaytmasligini ta'minlaydigan tamoyilga aylanadi. Mazkur qonuniyatlar nuqtayi nazaridan qaraganda, shakllar mazmuni va munosabatlarning yangicha qirralari namoyon bo'ladi, o'tish davri shakllari va mo'ljallari nazariy jihatlardan aniqlashib boradi, yangi shakllar o'z umrini o'tab bo'lgan eskiliklarni siqib chiqaradi[79].

XX asrning o'rtalaridan boshlab jahonda ko'plab mamlakatlar mustamlakachilik iskanjasidan qutilib, mustaqil taraqqiyot yo'liga kirdi. Shuningdek, yana bir guruh mamlakatlar eski totalitar jamiyatlardan yangi demokratik tuzumga o'ta boshladi. Bu jarayonlar ma'lum bir tarixiy muddat ichida ro'y beradigan o'tish davrini boshladi. Bu davrda o'tish davri iqtisodiyoti nazariya va amaliyot, shuningdek, yangi tajriba va model sifatida gavdalana boshladi. Jahon bo'ylab yangi burilishlar davri boshlandi.

O'tish davri, deganda tarixiy uncha uzoq bo'lmagan davr (bir necha o'n yilliklar) tushunilib, bu davr ichida ma'muriy-buyruqbozlik tizimi tugatiladi yoki u tubdan o'zgartiriladi, bozor iqtisodiyoti tizimi asoslari shakllantiriladi. Bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan «iqtisodiy tizim asosi» tushunchasi iqtisodiy agentlarning o'zaro xo'jalik aloqalarining o'rnatilgan va nisbatan barqaror shaklini, shuningdek, ana shu tizimda ustunlik qiluvchi mulkchilik shaklini anglatadi. Modomiki, ma'muriy-buyruqbozlik tizimini o'zgartirish bu tizim asosini o'zgartirishni anglatar ekan, boshqacha aytganda, uni boshqa sifatlisiga (bozor iqtisodiyotiga) almashtirish jarayoni kechar ekan, u holda bu kabi transformatsiyani tizimni o'zgartirishga doir islohotlar deb atash mumkin.

O'tish davrida bozor iqtisodiyotini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iboratdir:

1. Iqtisodiyotni liberallashtirish (erkinlashtirish) – bu ta'qiqlar va cheklovlarni keskin, shuningdek, xo'jalik hayotining barcha sohalaridagi davlat nazoratini qisqartiradigan yoki bekor qilishga qaratilgan tadbirlar tizimidir. U hamma yo'nalishlarga tarqaladigan chora-tadbirlardan iborat bo'lib, o'z ichiga quyidagilarni oladi: xo'jalik faoliyatini olib borishdagi (jumladan, tashqi savdo sohasida ham) davlat monopoliyasiga barham berish, resurslarni markazlashgan taqsimotini to'xtatish, asosan talab va taklifga muvofiq tarzda baholarni shakllantirishga o'tish, ichki va tashqi bozorlardagi transaksiyaviy munosabatlar va muomalalar ustidan davlat nazoratini kamaytirish.

2. Iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarish, barcha iqtisodiy agentlarning ish faolligini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar va teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan raqobatli muhitni shakllantirish, bozorga xorijiy raqobatchilarning kirishiga sharoitlar yaratish, kichik biznesni rag'batlantirish va tadbirkorlik uchun to'siqlarni kamaytirish (ma'muriy to'sqinliklarga barham berish, imtiyozli kreditlar berish vositalari bilan), tabiiy monopoliyalarni

baho va savdo siyosati bilan muvofiqlashtirish, ayrim hollarda yirik korxonalarni maydalash.

3. Institutsional o'zgarishlar. Ular o'z ichiga mulkchilik munosabatlaridagi o'zgarishlar (xususiy sektorni shakllanishi), bozor infratuzilmalarini (tijorat banklari, mol va fond birjalari, investitsiyaviy fondlar va boshq.), davlat tomonidan iqtisodiyotni muvofiqlashtirishning yangi tizimini yaratish, bozor sharoitlariga aynan mos keladigan xo'jalik yuritish qonunchiligini qabul qilish.

4. Tuzilmaviy o'zgarishlar. Ular birinchi navbatda xalq xo'jaligi va uning alohida sohalari tarmoqlar tuzilmalarida oldingi tizimdan meros bo'lib qolgan nomutanosibliklarni yo'qotish yoki yumshatishga qaratiladi. Bu iqtisodiyot tuzilmalarini qayta qurishning asosiy maqsadi — ichki va tashqi bozorlarda amal qilayotgan to'lov qobiliyatiga talablar asosida mahsulot ishlab chiqarishni rivojlantirishdan iboratdir.

5. Makroiqtisodiy barqarorlik (asosan moliya sohasida). Albatta, bu tizimni o'zgartirish islohotlariga unchalik taalluqli bo'lmasada, kamdan kam hollarda bozor iqtisodiyoti kirib kelgan mamlakatlarda amalga oshiriladi. Uning muhim ahamiyati shundan kelib chiqadiki, ma'muriy-buyruqbozlik tizimining inqirozi asosan moliyaviy sohada, ayniqsa, ko'proq yuqori inflatsiya shaklida yuz beradi. Uni uzoq vaqt saqlanib qolishi oqibatlari bozor munosabatlarini vujudga kelishiga to'siq bo'ladi. Shuning uchun inflatsiyani to'xtatish o'tish davri iqtisodiyoti uchun hayotiy muhim hodisadir. Makroiqtisodiy barqarorlik chora-tadbirlari tizimiga yana pul emissiyasini cheklash, davlat budjeti defitsitini kamaytirish, foydali protsentli ish haqi bilan ta'minlash kabilar kiradi.

6. Bozor xo'jaligi uchun mos bo'lgan aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini shakllantirish. Bu tizim aholining ijtimoiy yordamga muhtoj qatlamlarini manzilli ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratiladi.

Bu bozor tizimining unsurlarini shakllantirish va o'tish davrining tugaganligini anglatadi.

O'tish davri iqtisodiyotini o'z boshidan kechirayotgan mamlakatlardagi islohotlarning borishi va ularning natijalarini qanday bo'lishi dastlabki boshlang'ich shart-sharoitlarning qanday bo'lishiga bog'liqdir. O'zgarishlarning muvafaqqiyatli kechishida quyidagi boshlang'ich shart-sharoitlar muhim o'rin tutadi:

- ma'muriy-buyruqbozlik tizimi mavjudligining davomliligi;

- xususiy sektorning iqtisodiyotdagi ulushi;
- tuzilmaviy nomutanosibliklarning hajmi, xalq xo'jaligini militarlashish darajasi;
- ichki va tashqi makroiqtisodiy muvozanat darajasi (xususan, inflatsiya va tashqi qarzlar hajmi va boshq.);
- aholining mehnat etikasi va ustunlik qiladigan xo'jalik yuritish mentaliteti;
- jamiyat va iqtisodiyotning bozor tizimidagi mamlakatlarga nisbatan ochiqligi.

2. Bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'llari: umumiylik va o'ziga xoslik

O'tish davri iqtisodiyotiga mansub mamlakatlar guruhi. Ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyotidan bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida bir-birlaridan farqlanadigan uchta mamlakatlar guruhlari shakllandi.

Birinchi guruhga bozor tizimiga o'tishi ko'proq sezilayotgan mamlakatlar kiradi. Ular Polsha, Vengriya, Chexiya, Slovakiya, Sloveniya, Boltiq bo'yi mamlakatlaridan iboratdir. Ularning bozor iqtisodiyotiga o'tishi nisbatan ko'proq sezilayotganligiga qator omillar sabab bo'lmoqda: ma'muriy-buyruqbozlik tizimi davrida bozor iqtisodiyoti asoslari shakllanganligi, G'arbiy Yevropa bilan yaqin aloqalari, tarixan yaqin turishi, xalq xo'jaligini nisbatan muvozanatlashganligi yoki nomutanosibliklarning nisbatan kamligi, bozor tizimiga o'tish zaruriyati masalasida aholining barcha qatlamlari o'rtasida o'zaro konsensusning mavjudligi.

Ikkinchi guruhga bozor iqtisodiyotiga o'tish qator mashaqqatli qiyinchiliklar bilan kechayotgan, bu jarayon birinchi guruh mamlakatlarga nisbatan sekinroq amalga oshayotgan mamlakatlar — Rossiya, aksariyat MDH mamlakatlari, Bolgariya, Ruminiya, Albaniya, Mo'g'iliston kabilar kiradi. Bu mamlakatlar bozor iqtisodiyotining barqaror an'analariga ega bo'lmaganligi, ma'muriy-buyruqbozlik tizimini shakllanishi an'anaviy tizimlar asosida kechganligi bilan ajralib turadi. Bu mamlakatlarda iqtisodiyot tuzilmalaridagi nomutanosibliklar, kuchli baravarlashtirishga moyilliklar, bozor iqtisodiyotiga o'tish masalasida jamiyatda konsensusning kamligi, rivojlangan mamlakatlardan nisbatan ajralib turishi, harbiy mojarolar xavfining ko'pligi kabi omillar ularni bozor iqtisodiyotiga o'tishini qiyinlashtirmoqda.

Uchinchi guruhga Sharqiy Osiyo (Xitoy va Vyetnam) mamlakatlari kirib, ularga ma'muriy-buyruqbozlik tizimi hukmronligi qisqa davrda kechganligi, bozor iqtisodiyotiga o'tish an'anaviy patriarxal tizim asosida boshlanganligi, o'tish boshida sanoatining kam rivojlanganligi, jiddiy nomutanosibliklarni yo'qligi, shuningdek avtoritar siyosiy hokimiyatni saqlab qolganligi, aholi mentaliteti bozor munosabatlarini rivojlanishiga moyilligi kabilar xos edi.

Bu mamlakatlarda bozor islohotlarini yengillashtiruvchi qator omillar mavjud edi. Qishloq xo'jaligi asosini qo'l mehnati tashkil etganligi uchun jamoaviy xo'jaliklardan mayda xo'jalikka o'tish yengil kechdi. Og'ir sanoat va harbiy-sanoat majmuasi bu mamlakatlar iqtisodiyotida kam ulushlarni tashkil etganligi bu mamlakatlar sanoatini iste'mol bozori ehtiyojlariga moslashishini yengillashtirdi. Bu mintaqada rejali iqtisodiyot 25—30 yil (Sharqiy Yevropada 40 yil, sobiq ittifoqda 70 yil) davom etgan edi. Aholining tadbirkorlikka moyil bo'lgan an'anaviy tarzdagi yuqori mehnat etikasi ham bozor iqtisodiyotiga o'tishni ancha osonlashtirdi. Va nihoyat, boy mamlakatlardagi Xitoy va Vyetnam diasporasi o'z kapitali, kadrlari va tadbirkorlik tajribasi bilan bu mamlakatlardagi o'tish islohotlariga ancha yordam berdi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'llari. O'tgan zamonda «jahon sotsialistik tizimiga» kirgan mamlakatlar tajribasi ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor iqtisodiyotiga o'tishning uchta asosiy yo'lini namoyon etdi: birinchi (tarixan xiyla erta) — bozor institutlarini asta-sekin shakllantiradigan evolutsiyaviy (tadrijiy) yo'l (Xitoy, O'zbekiston, qandaydir jihatdan Vengriya); ikkinchi — «shok terapiyasi» bo'lib, u yoki bu darajada Rossiyada, markaziy va Sharqiy Yevropaning ko'pchilik mamlakatlarida (klassik shaklda — Polshada) qo'llandi; uchinchi — inqilobiy yo'l. Bu yo'l XX asrdan boshlab bir necha mamlakatlarda o'z ifodasini topdi. Lekin, bu yo'lning oxir-oqibati totalitar jamiyat qurish bo'lganligi uchun o'tish yo'li sifatida o'z ahamiyatini yo'qotib bormoqda.

Bu har ikki yo'lning o'zaro farqlanishi tizimga oid o'zgarishlarni va barqarorlik chora-tadbirlarini amalga oshirish muddatlarida, xalq xo'jaligini bozor mexanizmlari bilan qamrab olish darajasi, davlatning muvofiqlashtirish funksiyasi hajmi kabilardagi turli xilliklarda ifodalanadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishda evolutsiyaviy yoki «shok terapiyasi» nafaqat siyosiy rahbariyat irodasiga, balki jamiyatdagi muhitda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, tarixiy va boshqa omillarning

darajasiga bog'liqligi bilan o'zini namoyon qildi. Evolutsiyaviy yo'l bir necha avlodlar almashinuvi kechgan qishloq xo'jaligi nisbatan rivojlangan, xususiy tadbirkorlikka moyil aholisi bo'lgan, og'ir sanoat va harbiy-sanoat majmuasi ulushi unchalik katta bo'lmagan, siyosiy va xo'jalik yurituvchi elita orasida islohotlar o'tkazishdan manfaatdor bo'lgan mamlakatlar uchun xos bo'ldi.

«Shok terapiyasi» yo'li noilojlik natijasida ko'riladigan chora-tadbirlar oqibatida tanlandi. Ko'pchilik holatlarda bu yo'l ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan meros bo'lib qolgan og'ir moliyaviy ahvolga barham berish, tuzilmaviy nomutanosibliklar tufayli keskin tovar defitsitini paydo bo'lganligi bilan ham bog'liq bo'ldi.

Evolutsiyaviy yo'l («gradualizm»). Bozor iqtisodiyotiga o'tishning evolutsiyaviy yo'lini quyidagi umumiy qirralarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Davlat o'zining uzoq muddatga mo'ljallangan islohotlar strategiyasi asosida bosqichma-bosqich, qadamba-qadam ma'muriy-buyruqbozlik tizimini bozor munosabatlariga almashtira boradi. Jumladan, bu kabi jarayon Vengriyada 1968-yildan 1990-yilgacha davom etdi, O'zbekistonda 1991-yildan, Xitoyda esa 1979-yildan buyon davom etmoqda.

2. Islohotlarning boshlanishi iste'mol bozorida o'sishga moyil bo'lgan muvozanatni o'rnatish bilan bog'liq bo'lib, bunda nafaqat tez moslashuvchan baholar tizimi yordamida, balki xususiy sektorda iste'mol mollarini ishlab chiqarishni tezlik bilan rivojlantirish, ular bilan bozorni to'ldirish, xizmat ko'rsatishni kengaytirish vositasida o'zgarishlar chuqurlashtirilib boriladi.

3. Bozor munosabatlari dastlab ishlab chiqarish va iste'mol mollari savdo-sotiq sohalarini qamrab oladi, so'ngra investitsiya sohalariga tarqaladi.

4. Baholarni erkinlashtirish (liberallashtirish) islohotlarning keyingi bosqichlarida amalga oshiriladi, lekin bu jarayonda ko'pincha yirik monopolistik moyilliklar mavjud bo'lgan sohalarda aholi hayot darajasining tushib ketmasligi uchun baholar davlat tomonidan nazorat qilib borish taqozo etiladi.

5. Yuqori inflatsiyaga yo'l qo'ymaslik maqsadida qattiq moliyaviy siyosat olib boriladi.

6. Bozor infratuzilmalari faol ravishda shakllantiriladi, xususiy tadbirkorlik, xususan mayda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari rag'batlantiriladi.

Qishloq xo'jaligi va u bilan bog'liq iste'mol mollarini ishlab chiqaruvchi sohalarni rivojlantirishga doir chora-tadbirlarni amalga

oshirish bozor mexanizmlarini yanada rivojlantirishning o'ziga xos energiya manbayi bo'lib, uning natijasida iste'mol bozori to'ldiriladi, islohotlarni chuqurlashtirishning ijtimoiy jihatlari mustahkamlanadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishning radikal yo'li («shok terapiyasi»). «Shok terapiyasi» strategiyasi neoliberal g'oyalarga asoslanadi. Unga muvofiq, bozor iqtisodiyoti o'zini o'zi muvofiqlashtiruvchi tizim hisoblanadi. Shuning uchun o'zgarishlarning bosh vazifasi — bu davlatning iqtisodiy rolini juda ham pasaytirish, demakdir. Lekin, davlatda muhim funksiya — moliyaviy tizimning baraqarorligini qo'llab-quvvatlab turish saqlanib qoladi. Lekin, buning uchun bozorning o'zini o'zi muvofiqlashtirish roliga xalaqit beruvchi faoliyat — inflatsiyani keskin ravishda pasaytirib borishi talab etiladi.

Radikal tarzda o'tish strategiyasi muhim institutsional o'zgarishlarni amalga oshirishni taqozo etadi:

- bir vaqtning o'zida asosiy mollar va xizmat ko'rsatish baholarini erkinlashtirish, davlat tomonidan ko'rsatiladigan moddiy-texnika ta'minotidan ishlab chiqarish vositalari va iste'mol mollarining erkin savdosini erkinlashtirishga o'tish. Bu chora-tadbirlar mol taqchilligini tugatishga olib keladi va bozorning o'zini o'zi muvofiqlashtirish mexanizmlarini ishga tushiradi;

- tezlik bilan oldingi markaziy rejalashtirish tizimini yo'qotish va davlat muvofiqlashtiruvi ma'muriy usullarini, ayniqsa, kreditlar berish shart-sharoitlarini yumshatish, pul emissiyasini chegaralash kabilarni iqtisodiy usullarga almashtirish;

- davlat mulkini tezlik bilan xususiylashtirish, yerga xususiy mulkchilikni o'rnatish;

- ichki bozor va iqtisodiyotni xorijiy mollar va kapital uchun keng ochish maqsadida tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish.

Inqilobiy yo'l. Bu yo'lning xarakterli xususiyati — unga muvofiq mamlakat iqtisodiy-siyosiy hayotida tub o'zgarishlar amalga oshiriladi: mavjud amal qiliniyotgan davlat hokimiyati butunlay yo'q qilinadi, demokratik islohotlarga moyil bo'lgan hokimiyat shakli paydo bo'ladi. Qisqa davr ichida xalq xayrixohligiga erishish uchun demokratiyaning ko'rinishini namoyon qiladigan o'zgarishlar ham amalga oshiriladi. Lekin, ko'p o'tmasdan davlat hokimiyati avtoritar va totalitar boshqaruv usullarini tezlik bilan o'zlashtiradi. Jamiyatda inson erkinligi va fikrlar pluralizmi yo'q qilinadi. Bu yo'l o'z tabiati, rivojlanish qonuniyatlarini mensimaganligi, iqtisodiy rivojlanishni o'ta

sun'iylashtirishga urinishi, jamiyatdagi ijtimoiy qatlamlar va guruhlarni bir-biriga qarama-qarshi qo'yishi, siyosiy qatag'onlar avj oldirishga moyil bo'lganligi uchun ham tarix sahnasidan tushib ketdi. Shuning uchun ham bu yo'l o'zining o'ta xavfli ekanligi bilan ajralib turadi.

O'tish davrini o'z boshidan kechirayotgan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatdiki, bozor iqtisodiyotiga o'tishning radikal yo'li quyidagi nuqsonlarga ega: birinchidan, oldingi tuzumdan meros bo'lib qolgan ulkan tuzilmaviy nomutanosibliklar sharoitida baholarni erkin belgilashga o'tish natijasida real sektordan resurslarning oqib ketishi sharoitida moliyaviy sektorda kapital qo'yishning eng ko'p daromad beradigan sohasi qayta taqsimlash faoliyati bo'lib qoladi; ikkinchidan, hali tag-tomiri bilan yulib tashlanmagan rejali iqtisodiyot ta'sirida paydo bo'lgan mollar taqchilligi va ishlab chiqaruvchilarning monopol holatida baholarni talab va taklif asosida belgilashga tez sur'atlar bilan o'tish dastlabki davrda inflatsiyani juda ham kuchayishiga olib keladi; uchinchidan, yuqori inflatsiya aholining aksariyat qismi turmush darajasini pasaytirishga olib keladi va ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradi[80].

3. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'lini ishlab chiqilishi va uni amalga oshirish jarayoni

O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish strategiyasi o'ziga xos tarixiy rivojlanish sharoitlari va mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muhitni e'tiborga olgan holda ishlab chiqildi. Mustaqillikning dastlabki davridan boshlab sobiq totalitar tuzumdan meros bo'lib qolgan o'tkir muammolarni bartaraf etishga kirishildi. O'tmishdan quyidagi muammolar qolgan edi: bir tomonlama iqtisodiyot; ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirish, baholarni belgilash, boy tabiiy va mineral-xomashyoviy resurslardan foydalanish tuzilmalarining mustamlakachilik siyosati ostida qolganligi. Ana shunday sharoitlarda ma'muriy-buyruqbozlik tizimiga barham berish va bozor iqtisodiyotiga o'tish, jahon iqtisodiy integratsiyasiga kirish konsepsiyalarini ishlab chiqishga kirishilgan edi.

Mamlakat xalqining mentaliteti, ijtimoiy ahvoli, demografik shart-sharoitlar ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tishni taqozo etmoqda edi. Bu zaruratni nafaqat jahon tajribasi, balki xalqning turmush sharoiti, milliy an'analar, milliy ruhiy xususiyatlar ham talab qilmoqda edi.

Prezident I.A.Karimov tarixiy shart-sharoitlar va bozor iqtisodiyotiga o'tish zaruratidan kelib chiqib 1992-yilning 2-iyulida quyidagi vazifani qo'ygan edi: «O'zbekistonning yo'li shuki, biz tinchlik va osoyishtalikni saqlab, bozor iqtisodiyotini shoshmasdan, aholining nochor qismini asrab-avaylab, ularga yetarli shart-sharoitlarni yaratib berib, ana undan keyin amalga oshirishga bel bog'ladik»[81].

Prezident I.A.Karimov 1992-yilda o'zining «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» asarida bozor iqtisodiyotiga o'tishning iqtisodiy sohadagi dolzarb vazifalari sifatida quyidagilarni ilgari surdi:

- milliy boylikning ko'payishini, respublikaning mustaqilligini, odamlarning munosib turmush va ish sharoitlarini ta'minlaydigan qudratli, barqaror va jo'shqin rivojlanib boruvchi iqtisodiyotni barpo etish;

- ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini bosqichma-bosqich shakllantirish, tashabbuskorlik va ishbilarmonlikni butun choralar bilan rivojlantirish, tadbirkorlikka erkinlik berish, tajribalar va iqtisodiy yangiliklarni rag'batlantirish, iqtisodiy omillar vositasini ishga solish, tayyorga ayyorlikni batamom tugatish;

- mulk egalari huquqlarining davlat yo'li bilan himoya qilinishini ta'minlash va barcha mulkchilik shakli — shirkat, davlat, xususiy hamda boshqa mulkchilik shakllarining huquqiy tengligini qaror toptirish. Shu asosda insonning mulkdan begonalashtirilganiga barham berish;

- iqtisodiyotni o'ta markazlashtirmaslik hamda yakkahokimlikka barham berish, korxonalar va tashkilotlarning mustaqilligini kengaytirish. Davlatning xo'jalik faoliyatiga bevosita aralashuvidan voz kechish. Buyruqbozlik bilan o'z hukmini o'tkazib, tazyiq qilish, hamma narsani to'ralarcha belgilab, cheklab qo'yish kabi o'zini oqlamagan eski usullarni qat'iyan tugatish. Iqtisodiy vositalar ustun mavqeni egallaydi[82].

O'zbekistonda markazlashgan-rejali iqtisodiyotdan ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiga o'tish konsepsiyasi va prinsiplari Prezident I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqildi. Ayniqsa, u ishlab chiqqan «O'zbek modeli»ning besh tamoyili bozor iqtisodiyotiga o'tishning zamonaviy va milliy qirralarini o'zida ifoda etdi. Bu beshta asosiy qoidalarning mohiyati quyidagicha ifodalandi:

«birinchidan, iqtisodiy islohotlar hech qachon siyosat ortida qolmasligi kerak, u biror mafkuraga bo'ysundirilishi mumkin emas. Buning ma'nosi shuki, iqtisodiyot siyosatdan ustun turishi kerak. Ham ichki, ham tashqi iqtisodiy munosabatlarni mafkuradan holi qilish zarur;

ikkinchidan, davlat bosh islohotchi bo'lishi lozim. U islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishi, o'zgartirishlar siyosatini ishlab chiqishi va uni izchillik bilan o'tkazishi, jaholatparastlar (retrogradlar) va konservatorlar qarshiligini bartaraf etishi shart;

uchinchidan, qonun, qonunlarga rioya etish ustuvor bo'lishi lozim. Buning ma'nosi shuki, demokratik yo'l bilan qabul qilingan yangi Konstitutsiya va qonunlarni hech istisnosiz hamma hurmat qilishi va ularga og'ishmay rioya etishi lozim;

to'rtinchidan, aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat o'tkazish. Bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtda aholini ijtimoiy himoyalash yuzasidan oldindan ta'sirchan choralar ko'rilishi lozim. Bu bozor iqtisodiyoti yo'lidagi eng dolzarb vazifa bo'lib keldi va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi;

beshinchidan, bozor iqtisodiyotiga o'tish obyektiv iqtisodiy qonunlarning talablarini hisobga olgan holda, o'tmishdagi «inqilobiy sakrashlar»siz, ya'ni evolutsion yo'l bilan, puxta o'ylab, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak.

Bu qoidalar o'z istiqlol, rivojlanish va taraqqiyot yo'limizga asos qilib olingan bo'lib, o'tish davri dasturining negizini tashkil etadi»[83].

O'tish davri zarurati va o'ziga xos xususiyatlari. O'zbekiston o'tish davrining avval boshidanoq ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish yo'lini tutdi, shuningdek, uning huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarda mujassamlashdi. Mamlakatni ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish zarurati qator obyektiv shart-sharoitlar natijasida paydo bo'ldi:

1. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning «O'zbek modeli»ning o'ziga xos jihatlari shundaki, o'tish davri bosqichma-bosqich, bozor munosabatlarining huquqiy asoslarini va bozor infratuzilmalarini shakllantirish, yangicha sharoitlarda ishlash qobiliyatiga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash kabi vazifalarni bajarishga muvofiq tarzda amalga oshiriladi. O'tishning «sakrash» yoki «inqilobiy» yo'llari O'zbekiston mamlakati uchun mutlaqo to'g'ri kelmaydi. Bozor munosabatlariga o'tish uchun shart-sharoitlar yaratish va islohotlarni ijtimoiy jihatdan nochor ijtimoiy qatlamlarni himoyalab borish bu jarayonni tadrijiy tarzda kechishini taqozo etadi. O'tish davri «shok terapiyasi» yo'liga nisbatan uzoqroq kechsa-da, u milliy iqtisodiyotni rivojlanishiga, milliy manfaatlarga, ittifoq davrida paydo bo'lgan muammolarni bartaraf etishni tugallash islohotlariga mos tushadi.

Zarur tayyorgarliksiz davrini bosib o'tmasdan, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy shart-sharoitlarni hisobga olmasdan bozor iqtisodiyotiga o'tishni jadallashtirish inqirozga olib kelishi, iqtisodiyotni xonavayron qilishi, bozor iqtisodiyoti g'oyalari obro'sini to'kishi aniq va ravshan edi. Jahonda amal qilayotgan erkin baholarga tezlik bilan o'tish aholining asosiy qismini qashshoqlashuviga, darmodlarining keskin kamayishiga olib kelib, kuchli ijtimoiy larzalarni keltirib chiqarishi turgan gap edi.

2. Bozor munosabatlariga o'tish davrida davlatning faol muvofiqlashtirish roli namoyon bo'lmasa, bir necha o'n yillar totalitar jamiyatni o'z boshidan kechirgan mamlakatda o'z-o'zidan islohotlarni amalga oshirish mutlaqo mumkin emas edi. Ayniqsa, o'tishning dastlabki davrida hali iqtisodiyotni o'zini o'zi muvofiqlashtirishining bozor mexnanizmlari shakllanmagan, to'liq bozor iqtisodiyotiga o'tilmagan, bozor infratuzilmasi yaratilmagan, raqobatdoshlik uchun shart-sharoitlar shakllantirilmagan bir paytda davlatning islohotchilik rolini oshirmasdan hech narsaga erishib bo'lmas edi. Ayniqsa, iqtisodiyotdagi inqirozli vaziyatlarda turli buzg'unchilik g'oyalariga berilgan guruhlar jamiyatning yashashi uchun xavf tug'dirmoqda edi. Mamlakat hali tashqi iqtisodiy aloqalarni o'rnatish va rivojlantirishning moddiy hamda moliyaviy resurslariga ega emas edi.

3. O'tish davrining boshida aholi keskin o'zgarishlarga tayyor emas edi. O'tish davri bozor iqtisodiyotiga doir yangicha fikrlashlarning shakllanishiga, kishilarni bozor iqtisodiyoti jarayonida o'z o'rni va rolini anglashiga, o'z mulkiga va o'z mehnatining natijalariga yangicha munosabatlarni shakllantirishiga, o'z majburiyatlari uchun o'z burchini anglab yetishiga bog'liq edi. Bu jarayonlarning kechishi uchun qandaydir fursat ichida ulkan tayyorgarlik ishlarini olib borishga zarurat bor edi. Buning uchun islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilishi taqozo etilmoqda edi.

4. Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish boshqaruv kadrlarining yangi avlodini tayyorlash va tarbiyalash uchun ham zarur edi. Bozor iqtisodiyoti sharoitidagi boshqaruv kadrlari bozor qonunlarini chuqur o'zlashtirganligi, raqobatli bozorning murakkab vaziyatlarida tezlik bilan to'g'ri qarorlar qabul qilish qobiliyatiga ega ekanligi, tashabbuskorligi, yetakchilik sifatlari bilan ajralib turishi lozim edi. Ayniqsa, bozor sharoitida yangicha fikrlaydigan kadrlardan davlat organlari va bozordagi hamkorlar bilan o'zaro munosabatlarda o'z majburiyatlarini bajarish burchini sezish mas'ulligini egallagan bo'lishi talab etilar edi. Bu kabi sifatlarni

shakllantirish uchun vaqt kerak edi. Buning uchun davlat dasturlari miqyosida ta'lim tizimini chuqur isloh qilish zarurati mavjud edi. Ilg'or texnika va texnologiyani, zamonaviy axborot tizimini, bir necha xorijiy tillarni biladigan, o'z Vataniga sadoqatli kadrlargina o'tish davrining muhim strategik vazifalarini chuqur anglashlari mumkin edi.

O'zbekiston davlati mustaqillikni mustahkamlash va bozor iqtisodiyotiga o'tish islohotlarini amalga oshirish maqsadida quyidagi strategik maqsadlarni belgiladi:

1. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini bosqichma-bosqich shakllantirish, qudratli va tinimsiz rivojlanib boradigan, milliy boylikning ortishini, kishilar hayoti va faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydigan iqtisodiy tizimni barpo etish.

2. Ko'p ukladli iqtisodiyotni yaratish, insonning mulkdan mahrum bo'lishiga barham berish, tashabbuskorlik va uddaburonlikni butun choralar bilan rivojlantirish negizi bo'lgan xususiy mulkning davlat tomonidan himoya qilinishini ta'minlash.

3. Korxonalar va fuqarolarga keng iqtisodiy erkinliklar berish, ularning xo'jalik faoliyatiga davlatning bevosita aralashuvidan voz kechish, iqtisodiyotni boshqarishning ma'muriy-buyruqbozlik usullarini bartaraf etish, iqtisodiy omillar va rag'batlantirish vositalaridan keng foydalanish.

4. Iqtisodiyotda moddiy, tabiiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlaydigan chuqur strukturaviy o'zgarishlar qilish, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish, jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilib borish.

5. Kishilarda yangicha iqtisodiy fikrlashni shakllantirish, ularning dunyoqarashini o'zgartirish, har bir kishiga o'z mehnatini sarflash sohasi va shakllarini mustaqil belgilash imkonini berish[84].

Albatta, bu islohotlarning asosiy maqsadi bozor iqtisodiyotiga o'tish natijasida xalq farovonligini oshirish, mamlakat iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishdan iborat edi. Islohotlar mazmun-mohiyatini «Islohot — islohot uchun emas, avvalo inson uchun», «Yangi uyni qurmasdan turib eskisini buzmang» kabi xalq ichida mashhur bo'lib ketgan shiorlar ifodalab bergan edi. Bu jarayon islohotlar inson manfaatlariga mos kelgan, uning talab va ehtiyojlarini qondirishga yordam bergan, turmush darajasini oshirishga qaratilganligi, o'zida milliy manfaatlarni aks ettirgani uchun ham misli ko'rilmagan darajada rivojlandi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish konsepsiyasi va dasturi eng muhim va dolzarb vazifalarni bosqichma-bosqich hal qilishga qaratilganligi

uchun ham o'zining yuksak natijalarini berdi. O'tish davrining birinchi bosqichi — totalitar o'tmishdan hozirgi, zamonaviy bozor munosabatlariga o'tishga qaratilgan chora-tadbirlar zanjiridagi boshlang'ich bo'g'in vazifasini bajardi. Bu bosqichda ikkita o'ta muhim vazifa birdaniga hal qilindi. Bu vazifalar quyidagilardan iborat edi:

- ma'muriy-buyruqbozlik tizimining og'ir oqibatlarini yengish, tanglikka barham berish, iqtisodiyotni barqarorlashtirish;
- respublikaning o'ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda bozor munosabatlarining negizlarini shakllantirishdan iborat.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish vazifalarini amalga oshirishning birinchi bosqichida iqtisodiyotni dastlabki isloh qilishning ustuvor yo'nalishlariga muhim ahamiyat berish, ularni bajarishga barcha iqtisodiy va insoniy resurslarni safarbar etish natijasida mamlakat o'zida rivojlangan davlatlarga xos bo'lgan sifat belgilarini mujassamlashtira boshladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishning birinchi bosqichida g'oyat muhim va birinchi darajali chora-tadbirlar hamda ustuvor yo'nalishlar sifatida quyidagilar amalga oshirildi:

Moliya va soliq siyosati sohasida:

- qattiq moliyaviy siyosat amalga oshirildi, davlat budjeti defitsitini iloji boricha kamaytirishga erishildi, budjetdan beriladigan dotatsiyalar va subsidiyalarning barcha turlari bosqichma-bosqich qisqartirib borildi;
- budjet mablag'lari daromad tushganidan keyingina taqsimlashtiradigan yo'ldan og'ishmay borish, birinchi darajali, eng zarur umumdavlat ehtiyojlari uchungina budjetdan mablag' ajratish qoidalari o'rnatildi va ularga amal qilindi;
- xalq xo'jaligi tarmoqlarini, ayrim korxonalarni rivojlantirish uchun budjetdan pul bilan qaytarmaydigan qilib ta'minlash amaliyotidan voz kechildi. Ana shu maqsadlar uchun investitsiya kreditlaridan keng foydalanishga muhim e'tibor qaratildi;
- soliq tizimini takomillashtirish, budjet daromadlari barqaror sur'atda to'ldirib turilishini ta'minlaydigan, kichik va xususiy korxonalarning, chet el kapitali ishtirokidagi, qishloq xo'jalik mahsulotini qayta ishlaydigan va xalq iste'moli mollari ishlab chiqaradigan qo'shma korxonalarning rivojlanishini rag'batlantiradigan pishiq-puxta soliq siyosati olib borildi.

Kredit-pul siyosati sohasida:

- Markaziy bank boshchiligida hamda keng tarmoqli mustaqil tijorat va xususiy banklar ikki bosqichli bank tizimini vujudga

keltirish maqsadida respublika hududida yirik chet el banklarining bo'limlari va vakolatxonalarini ochish uchun qulay sharoit yaratildi;

- barqaror pul muomalasini ta'minlash, kredit va naqd pul emissiyasini, jami pul massasining asossiz o'sishini keskin cheklash chora-tadbirlari ko'rildi;

- O'zbekiston Respublikasining milliy pulini muomalaga kiritish uchun zarur iqtisodiy va tashkiliy shart-sharoitlar hamda imkoniyatlar yaratildi.

Narx-navo va pulning qadrsizlanishiga qarshi siyosat sohasida:

- narx belgilash tizimini yanada tartibga solish, bozorni tartibga solib turuvchi vosita sifatida narxning rolini mustahkamlashga muhim e'tibor berildi;

- narx-navoni erkin qo'yib yuborishning «esankiratadigan» mexanizmi O'zbekiston uchun nomaqbul ekanligini qat'iyan e'tirof etgan holda, ulgurji va chakana narxlarni bosqichma-bosqich erkinlashtirish, erkin (kelishilgan) narxlarda sotiladigan tovarlar doirasini kengaytirish yo'li izchil amalga oshirildi;

- juda tor doiradagi hayotiy muhim oziq-ovqat mahsulotlari, eng avvalo, un va nonning narxini davlat tomonidan boshqarib turish tartibini vaqtincha saqlab qolishga erishildi;

- qishloq xo'jalik mahsulotlarining xarid narxlarini izchil sur'atda oshira borib, ularni jahon narxlari darajasiga yetkazish chora-tadbirlari ko'rildi;

- monopoliyalarga qarshi chora-tadbirlarni amalga oshirish, yuksak darajada monopollashgan tuzilmalarni ajratish hisobiga narx-navoning sun'iy ravishda oshirib yuborilishiga yo'l qo'ymaslik choralari ko'rildi, raqobatchilikni vujudga keltirish uchun shart-sharoitlar yaratildi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishning birinchi bosqichida amalga oshirilgan g'oyat muhim strategik ustuvor yo'nalish strukturaviy o'zgarishlarni amalga oshirishdan iborat bo'ldi. Strategik ma'noda o'sishga erishish uchun ishlab chiqarish strukturasini o'zgartirish zarur edi. Shu sababli har bir bosqichda resurslar mavjudligiga qarab, eng avvalo, iqtisodiyotning ustun yo'nalishlarida strukturaviy o'zgarishlarni amalga oshirish yuzasidan aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilishi doimo hukumatning diqqat markazida turdi.

Birinchi bosqichda asosiy e'tibor quyidagilarga qaratildi:

- yoqilg'i-energetika kompleksining ildam sur'atlar bilan rivojlanishini ta'minlash, neft va tabiiy gaz qazib chiqarish hamda

ularni qayta ishlash hajmlarini oshirib borish, shuning hisobiga respublikaning energetika mustaqilligiga erishish;

- tovarlarni chetdan keltirish o'rniga ularni o'zimizda ishlab chiqaruvchi korxonalarni rivojlantirish asosida, boshqa mintaqalardan keltiriladigan xalq xo'jaligini va aholi turmushini ta'minlaydigan g'oyat muhim mahsulot turlariga respublikaning qaramligini kamaytirish choralarini ko'rish;

- qishloq xo'jalik xomashyosining eng muhim turlarini (paxta, ipak, meva-sabzavot va boshqa mahsulotlarni) yanada to'la qayta ishlash, yengil va mahalliy sanoatning tutash ishlab chiqarishlarini — to'qimachilik, ip yigirish, tikuvchilik va boshqa korxonalarni rivojlantirish;

- eng muhim iste'mol mollarini ishlab chiqaradigan tarmoqlarni jadal rivojlantirish, tayyorlanayotgan mahsulot xilini ko'paytirish, osh tuzi, spirt, gugurt va boshqa o'ta kamyob tovarlarni ishlab chiqaruvchi yangi korxonalarni bunyod etish.

Mamlakat aholisini oziq-ovqat bilan uzluksiz ta'minlash iqtisodiyotni barqarorlashtirishning muhim bo'g'iniga aylanib bordi. Bu respublika qishloq xo'jaligida olib borilayotgan siyosatning umumiy ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Chinakam iqtisodiy mustaqillikka erishish respublikada oziq-ovqat muammosini tubdan hal qilishni talab etmoqda edi. O'sha davrlarda bir necha o'n yilliklar mobaynida respublikaga tashqaridan olib kelinayotgan don, kartoshka, chorvachilik mahsuloti, shuningdek, shakar va boshqa mahsulotlar o'rniga ularni mamlakatimizda ishlab chiqib, o'zimizni o'zimiz ta'minlash vazifasi ham muvafaqqiyatli tarzda bajarildi[85].

O'zbekistonning eksport quvvatini butun choralar bilan rivojlantirish va undan samarali foydalanish iqtisodiyotni mustahkamlashning g'oyat muhim shartiga aylanib bordi. Uzoq yillar mobaynida respublika amalda tashqi dunyodan ajratib qo'yilgan edi. Birinchi bosqichning asosiy vazifasi jahon hamjamiyatida qat'iy o'ringa ega bo'lishdan, ishonchli sherik ekanligimizni ko'rsatishdan, g'oyat keng tashqi iqtisodiy aloqalarni o'rnatishdan iborat bo'ldi.

4. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davri bosqichlari va olamshumul natijalar

Mamlakat Prezidenti I.A.Karimov o'tish davri bosqichlarini tavsiflar ekan, quyidagi fikrlarni bildiradi: «O'tgan davrda amalga

oshirgan barcha ishlarimizni baholar ekanmiz, bugungi O'zbekistonning shakllanishidagi ikki bosqichni alohida ajratib ko'rsatish uchun barcha asoslarimiz bor: 1991-yildan 2000-yilgacha bo'lgan muddatni o'z ichiga oladigan birinchi bosqich — o'tish davri va milliy davlatchilik asoslarini shakllantirish bilan bog'liq birinchi galdagi islohot va o'zgarishlar davri.

Iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish, siyosiy hayotimizni, qonunchilik, sud-huquq tizimi va ijtimoiy-gumanitar sohalarni izchil isloh qilish, aholi turmush darajasini muntazam oshirib borishni ta'minlashda 2001-yildan 2010-yilgacha bo'lgan muddatni o'z ichiga olgan ikkinchi bosqich — mamlakatimizni faol demokratik yangilash, isloh etish va modernizatsiya qilish davri g'oyat muhim ahamiyat kasb etdi.

O'zbekiston iqtisodiyotini isloh etish, liberallashtirish va modernizatsiya etish, uning tarkibiy tuzilishini diversifikatsiya qilish bo'yicha har tomonlama chuqur o'ylangan, uzoq istiqbolga mo'ljallangan siyosatning amalga oshirilishi ana shu yillarning barchasini o'zaro bog'laydigan hal qiluvchi asos, o'zak bo'g'in bo'lib xizmat qildi»[86].

O'tish davri va milliy davlatchilik asoslarini shakllantirish bilan bog'liq birinchi galdagi islohot va o'zgarishlarni o'z ichiga olgan birinchi bosqich — 1991—2000-yillarni o'z ichiga olib, bu bosqich mamlakatimiz va xalqimiz hayotida ulkan iz qoldirdi, tom ma'noda tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan davr bo'ldi.

Bu bosqichni bozor munosabatlariga o'tish dasturini amalga oshira borib milliy iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish jarayonini 1991-yildan buyon xo'jalik yuritish tizimini isloh etishning rivojlanish ko'lami, bu jarayon natijalarining inson taraqqiyoti uchun ahamiyatidan kelib chiqib quyidagi o'zgarishlar davrlariga ajratish mumkin:

Birinchi davrda (1991—1993 yy.) bir tomondan, fiskal va pul-kredit siyosati qattiqqo'llik bilan qo'llangan bo'lsa, ikkinchi tomondan — tomorqa xo'jaligi, davlatga qarashli turar joy, kichik savdo va ovqatlanish, maishiy xizmat va boshqa ishlab chiqarishga oid korxonalar imtiyozli tarzda cheklangan xususiylashtirish jarayoni amalga oshirildi. Bu uyg'unlikda amalga oshirilgan islohotlar o'zini oqladi. Qattiqqo'llik bilan amalga oshirilgan fiskal va pul-kredit siyosati ijtimoiy ehtiyojlar, xususan, aholi hayot darajasini keskin pasayib ketmasligi uchun yetarli darajada bo'lgan, ta'lim, sog'liqni

saqlash, aholining nochor qismini ijtimoiy jihatdan ta'minlash, mustaqillikni mustahkamlash, mamlakat xavfsizligi va jamoatchilik tartibini saqlash uchun zarur bo'lgan soliqlarni yig'ishga qaratilgan edi[87]. Amalga oshirilgan xususiylashtirish esa kichik biznes, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish barobarida fuqarolarga o'z xohishlaridan kelib chiqib tasarruf etishlari uchun xususiy mulk ulashish masalasini yo'lga qo'yildi. Mazkur islohotlar ishlab chiqarish hajmini pasaytirmasdan ushlab turish, tashqaridan moliyaviy tushumlarni kamayishidan keladigan noxush hodisalarning oldini olish, aholi turmush darajasi tushib ketmasligi kabi muammolar paydo bo'lmasligining oldini oldi. Odamlarda barqarorlikka, o'zlarini himoyalanganligiga, ertangi kunga ishonch shakllandi.

Ikkinchi davrda (1994–1996 yy.) hukumat xususiylashtirish ko'lamini kengaytirish, xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlariga nisbatan davlat byurtmasi tizimini va tashqi savdo rejimini erkinlashtirish, shuningdek bank tizimini isloh etish siyosatini kuchaytirdi. Bu chora-tadbirlarning samarasi mazkur davr oxiriga kelib yaqqol sezildi. 1996-yilda O'zbekiston MDH davlatlari ichida birinchi bo'lib o'z iqtisodiyotining o'sganligini, tanlagan yo'li to'g'riligini, islohotlarning bosqichma-bosqichligi o'zini oqlaganligini namoyish etdi.

Uchinchi davrda (1997–1999 yy.) iqtisodiy o'sishning mo'tadilligiga erishildi. Bu o'sishga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faolligini rag'batlantirish, import o'rnini bosuvchi sanoat tuzilmalarining tarmoqlarini, yuksak texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishni rivojlantirish va hukumat tomonidan amalga oshirilgan boshqa chora-tadbirlar kuchli ta'sir etdi.

2001-yildan boshlangan muddatni o'z ichiga olgan ikkinchi bosqich — faol demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizatsiya qilish davri sifatida tarixga kirdi. Bu bosqich mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, siyosiy hayotni, qonunchilik, sud-huquq tizimi va ijtimoiy-gumanitar sohalarni izchil isloh qilishni ta'minlashda muhim rol o'ynadi[88].

Mamlakatni bozor iqtisodiyotiga o'tishga doir dasturiy vazifalarni bajarishda asosan milliy qadriyatlar, urf-odat va an'analarni saqlashga, xalqning asrlar davomida shakllangan mentalitetiga hurmat bilan munosabatda bo'lishga katta e'tibor qaratildi. Shu bilan birga, davlat bosh islohotchi sifatida muvaffaqiyatli va barqaror rivojlanadigan zamonaviy demokratik

davlat qurishning o'zini oqlagan jahon tajribasini chuqur o'rganish va uni qo'llashda ham o'z sobitqadamligini ko'rsatdi.

1991—2000-yillar davomidagi islohotlarning chuqurlashtirishi natijasida milliy davlatchilik shakllantirildi va respublika barqaror rivojlanadigan mamlakatga aylandi.Tarixan qisqa vaqt ichida sovet davridagi eski ma'muriy-buyruqbozlik tizimiga barham berildi, milliy davlatchilikni shakllantirishning puxta huquqiy asoslari yaratildi, davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati tarmoqlari tashkil etildi, ijtimoiy va fuqarolik institutlari faoliyati yo'lga qo'yildi, iqtisodiyotni erkin bozor munosabatlariga o'tkazish jarayoni amalga oshirildi. Eng muhimi, aholining ongu tafakkurida tub o'zgarishlar ro'y berdi, ularning uzoq yillar mobaynida kommunistik va sovet mafkurasi tamoyillari asosida shakllantirilgan fikrlash tarzi va dunyoqarashi, bir so'z bilan aytganda, odamlarning o'zi o'zgardi[89].

Bu bosqichning muhim natijalari siyosiy va iqtisodiy hayot, davlat va jamiyat qurilishining barcha jabhalarini yanada demokratlashtirish va erkinlashtirish, mustaqil sud tizimini mustahkamlash, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, fuqarolarning siyosiy, iqtisodiy faolligini oshirish, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishdan iborat bo'ldi[90].

Bu bosqichda hukumat tomonidan ichki va tashqi iqtisodiyotni keng miqyosli erkinlashtirish islohotlari boshlandi. Makroiqtisodiy barqarorlikni qo'llab-quvvatlash, davlat mulkini xususiylashtirishni yanada chuqurlashtirish, kichik va xususiy biznesni har tomonlama rag'batlantirish, har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda milliy iqtisodiyotni yuksaltirish uchun ko'rilgan boshqa choralar uning barqaror ravishda o'sishini ta'minladi. Inflatsiya va jahon bozorida paxta xomashyosi narxining tushib ketishi kabi salbiy omillar ham mamlakat iqtisodiyoti yuksalishiga salbiy ta'sir eta olmadi. Bu davrga kelib YaIMning o'sishi 7 foizdan ham oshib ketdi. Davlat budjeti xarajatlari profitsit bilan yakunlana boshladi.

Ikkinchi bosqichdagi iqtisodiy yuksalishlarning asosiy sababi xo'jalik yuritishning barcha sohalari va boshqaruvni chuqur isloh etish, iqtisodiyot tarmoqlari tuzilmalarini, ayniqsa, sanoatni rivojlantirishni oqilona tarzda tashkil etish, hukumatning biznes uchun eng qulay ishbilarmonlik va investitsiyaviy muhitni shakllantirishga doir siyosatini amalga oshirishdan iborat ichki omillarni ishga solishda bo'ldi. Shuningdek, iqtisodiy yuksalishga tashqi omillar ham ijobiy ta'sir etdi. Bu quyidagilar edi: qator an'anaviy milliy

xomashyo eksport mollariga nisbatan baholarning foydali konyunkturasi, mazkur va boshqa yuksak texnologiyalar asosida ishlab chiqarilgan mollarga (avtomobillar, polimerlar, sement, to'qimachilik mahsulotlari va boshq.) tashqi savdoda talablarning ortganligi[91].

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston tarixiy rivojlanishning eng og'ir va mashaqqatli pallasida o'z davlat mustaqilligini e'lon qildi. Turli iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy bo'xronlar muhitida mamlakatning hududiy birligini saqlab qoldi, jamiyatni turli siyosiy kuchlar tomonidan bo'lib yuborilishining oldini oldi. Hukumat tomonidan olib borilgan yaratuvchilik siyosati natijasi o'laroq bosqichma-bosqich, qadamba-qadam ijtimoiy ziddiyatlar bartaraf etib borildi, iqtisodiy o'sishlar uchun shart-sharoitlar yaratildi.

Tarixning ana shunday qaltis davrida bozor iqtisodiyoti va demokratik fuqarolik jamiyatiga o'tishning «O'zbek modeli» ishlab chiqildi. Mustaqillikning o'tgan 23 yili ichida bu model nafaqat o'zini oqladi, balki ko'plab o'tish davrini o'z boshidan kechirayotgan mamlakatlar uchun namuna sifatida ham keng tanila boshladi. O'zbekiston davlati bozor iqtisodiyotiga o'tishida boshqa mamlakatlarda ro'y bergani kabi turli siyosiy kurashlar, o'zaro ichki urushlar va nizolar, millatlararo to'qnashuvlar, diniy ekstremizm xurujlari kabi oqibati salbiy tahdidlardan saqlab qoldi. Mamlakat iqtisodiy larzalarsiz, aholini nochor qatlamlarini ijtimoiy himoyalagan holda bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tdi. Bu, albatta, davlatning bosh islohotchilik roli va uning ozod va farovon Vatan, erkin hayot qurish islohotlarini astoydil va fidoyilarcha olib borganligining natijasi bo'ldi.

Takrorlash uchun savollar:

1. «Bozor iqtisodiyotiga o'tish davri» deganda nimani tushunasiz?
2. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning qanday yo'llari mavjud? Ularni tavsiflab bering.
3. O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki davrida oldingi tuzumdan qanday meros qolgan edi?
4. Prezident I.A.Karimov tomonidan rivojlanishning «O'zbek modeli»ni qanday tamoyillari ishlab chiqildi? Ularni tavsiflab bering.
5. O'zbekistonni bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonini tavsiflab bering.

6-mavzu: **O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISHNING MILLIY VA UMUMINSONIY DEMOKRATIK TAMOYILLARI**

1. Demokratik tamoyillar va qadriyatlar.
2. Qadriyatlar va ularning jamiyat hayotidagi o'rni. Milliy qadriyatlar tushunchasi.
3. O'zbekistonda milliy qadriyatlarning tiklanishi va ularning demokratik jarayonlar bilan uyg'unlashuvi.
4. Milliy, umumbashariy va demokratik qadriyatlar sintezi — demokratik jamiyat qurish sharti sifatida.

1. Demokratik tamoyillar va qadriyatlar

Hozirgi davrdagi zamonaviy nazariy qarashlarga muvofiq demokratiya — bu ma'lum davlat institutlari to'plami mavjud bo'lishining o'zi emas. Demokratiya butun dunyo bo'ylab turli madaniy birliklar o'rtasida turli shakllarda gavdalansa-da, u aniq va mavjud qadriyatlar, qarashlar va jarayonlar guruhiga tayangan holda yashay oladi. Lekin, shu bilan birga, demokratiya amaliy hal qilishning bir xilligiga emas, balki bir necha asosiy negiz bo'ladigan prinsiplarga tayanadi. Demokratiya o'ziga xos qadriyatlar tizimi sifatida milliy qadriyatlar bilan uyg'unlasha oladi.

Demokratiyaning asosiy xususiyatlari:

- demokratiya — bu hokimiyat va fuqarolik mas'uliyati barcha fuqarolarning to'g'ridan to'g'ri yoki o'zlarining erkin saylagan vakillari vositasida amalga oshiradigan boshqarish tizimidir;
- demokratiya ko'pchilik hokimiyati va shaxsiy huquq prinsiplariga tayanadi. Demokratik davlat markaziy hokimiyat organlari kuch-qudratining oshib ketishiga yo'l qo'ymaydi, barcha darajadagi hokimiyatlarni fuqarolar uchun ochiqligini ta'minlash, barcha kishilar ehtiyojlariga aks sado bera olishi uchun mintaqaviy va mahalliy darajalardagi hokimiyatlarni nomarkazlashtiradi;
- demokratik davlat quyidagi mas'uliyat hissini doimo sezib turadi: fuqarolarning so'z erkinligi, vijdon erkinligi, qonun asosida teng himoyalanish huquqi, tashkilotlar tuzish imkoniyatiga ega ekanligi, jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida to'la qonli ishtirok etishi kabi huquqlarini himoya qilish;

- demokratik davlat fuqarolar uchun ochiq bo'lgan, saylov huquqi beriladigan yoshga yetgan fuqarolarning ovoz berishiga shart-sharoitlar yaratadi, shu maqsadda muntazam ravishda erkin va adolatli saylovlarni o'tkazib boradi;

- demokratiya sharoitida fuqarolar nafaqat huquqlarga ega bo'ladi, balki siyosiy tizimda ishtirok etish burchini ham o'zida his etadi. Bu jarayonda ular o'z erkinliklari va huquqlarini himoya qiladi.

- demokratik jamiyat bag'rikenglik, hamkorlik va o'zaro murosasozlik qadriyatlariga berilgan bo'ladi. Maxatma Gandi iborasi bilan aytganda, «murosasizlik o'zini o'zi jabrlashdan tashqari chinakam demokratik ruhning shakllanishi uchun g'ovdir»[92].

Shuningdek, *barcha rivojlangan mamlakatlarda e'tirof etilgan* demokratiyaning ustunlari mavjud bo'lib, ularning birortasi ishlamay qolsa, demokratiya mexanizmlarining barchasiga putur yetadi. Bu ustunlar quyidagilardan iboratdir:

1. Xalq hokimiyati;
2. Fuqarolar irodasiga tayanuvchi hukumat;
3. Ko'pchilik ovoz qoidasi;
4. Ozchilik huquqlarini himoya etish;
5. Asosiy inson huquqlari kafolati;
6. Erkin va adolatli saylovlar;
7. Qonun oldida barchaning tengligi;
8. Odil sud yuritish;
9. Hukumat faoliyatini konstitutsiyaviy cheklanganligi;
10. Ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy pluralizm;
11. Tolerantlik, omilkorlik, hamkorlik, o'zaro kelishuv.

Ko'rinib turibdiki, zamonaviy fuqarolik jamiyatini ishlab turishini ta'minlovchi demokratiyaning tamoyillari, qadriyatlari va ustunlari mavjud bo'lib, ular davrlar o'tishi bilan umuminsoniy qadriyatlar sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, turli mamlakatlarning rivojlanish tarixi, milliy mentaliteti, dini, mafkuraviy qarashlari, iqtisodiyotining shakllanish yo'li, ijtimoiy munosabatlari aynan bir-biriga o'xshash bo'lmaganidek, har bir mamlakatda demokratik tamoyillarni qo'llash va ularga amal qilishda farqlanishlar mavjud bo'lishi tabiiy bir holdir. Boshqacha aytganda, demokratik jamiyat qurish jarayonida har bir mamlakat o'zining milliy o'zligidan kelib chiqqan holda islohotlarni amalga oshiradi. Yoki, demokratik jarayonlar shaklan milliy xarakter kasb etishini tarixiy taraqqiyot jarayoni ko'rsatib berdi.

2. Qadriyatlar va ularning jamiyat hayotidagi o'rni. Milliy qadriyatlar tushunchasi

Qadriyatlar muammosi Platon davridan boshlab tadqiqotlar obyekti sifatida yashab kelmoqda. Unga nemis klassik falsafasi tomonidan ancha aniqliklar kiritildi. Nemis olimi Kant birinchi marta insonni qadriyatlarni aniqlash asosida talqin etdi:

Inson ikkita olamga mansub mavjudot sifatida tushunildi:

a) erkin bo'lmagan, hali o'z yo'lini anglab yetmagan, o'z instinktiga ergashib yuradigan tabiat olami. Bu olamda qadriyatlar mavjud bo'lmaydi;

b) erkinlik va idroklash olami. U o'zining taqdirini belgilaydi, va uni o'zi belgilagan o'z ideallari, maqsadlari asosida quradi. Bu olamda qadriyatlar mavjud, lekin ular ochiq mujassam bo'lmaydi, balki maqsad sifatida namoyon bo'ladi. Qadriyatlarni Kant talqinicha idrok etishda uning sof subyektiv hosila ekanligi, ya'ni ularni har bir shaxs o'z hayoti qadriyatlarini o'zi aniqlashi ilgari suriladi.

Ko'plab insonlar uchun obyektiv mazmunga ega umumiylik mavjud emas. Ular uchun qadriyatlar aniq obyektlar hayoti vaziyatlarga bog'liq holda chorlaydigan his-tuyg'ular va ichki kechinmalardir.

Shunga muvofiq holda qadriyatlarni uchta tushunchasi shakllandi:

1. Qadriyat – har qanday foydali va ma'qul bo'lgan narsa. Bu utilitar nuqtayi nazar sifatida paydo bo'ldi.

2. Qadriyat ideal, muqaddas hodisa, his-tuyg'ular intilishi sifatida tushiniladi. Bu san'atga mansub tushuncha sifatida amalga oshiriladi.

3. Qadriyat inson uchun obyektlarni muhim ahamiyat kasb etishi sifatida anglanadi. Qadriyat o'z mazmuniga muvofiq obyektiv mazmunga egadir. Obyektiv qadriyatlar odamlar tomonidan aynan bir xil munosabatlarni paydo bo'lishini bildirmaydi. Shuning uchun ham qadriyatlarni baholash subyektiv bo'lishi mumkin. Qadriyatlarning obyektiv ekanligini aniqlash uchun mezonlar ishlab chiqiladi. Bu kabi mezonlar sifatida hodisalar yoki voqealarning ijtimoiy jihatdan foydali ekanligini ko'rsatish mumkin. Undan qadriyatlar iyerarxiyasi va umuminsoniy qadriyatlar to'g'risidagi masala paydo bo'ladi. Umuminsoniy qadriyatlar deganda, barcha davrlarda mavjud bo'lgan va barcha

insonlar qadriyatlari tushuniladi. Barcha qadriyatlar ichida umuminsoniy qadriyatlar unchalik ko'p emas:

1. Hayot. 2. Salomatlik. 3. Bilim. 4. Mehnat.

Aksiologik nuqtayi nazardan qaraganda oddiy askar va qo'mondonning hayoti garchi amalda namoyon bo'lmasa ham bir xil qimmatga egadir. Umuminsoniy qadriyatlar bizning hayotimizda ideallar sifatida ishtirok etib turishiga bog'liq ravishda ulardagi umuminsoniy mazmunning mavjudligi darajasiga muvofiq ravishda qadriyatlar iyerarxiyasini tuzish mumkin. Qadriyatlar iyerarxiyasini qadriyatlarni tasniflash bilan adashtirib bo'lmaydi. Qadriyatlarni sinflarga bo'lish mumkin:

1. Turmush darajasi bo'yicha: a) oliy qadriyatlar; b) moddiy hayot qadriyatlari; d) ijtimoiy; g)ma'naviy.

2. Subyektlar bo'yicha: a) shaxsiy qadriyatlar; b) guruhiy qadriyatlar; d) sinfiy qadriyatlar; e) ijtimoiy.

3. Ijtimoiy ong shakllari bo'yicha: a) fanlar qadriyatlari; b) ahloqiy qadriyatlar; d) estetik qadriyatlar; e) siyosiy qadriyatlar; f) huquqiy qadriyatlar; g) diniy qadriyatlar.

Umuman olganda, qadriyatlar deganda, ma'lum bir jamiyat odamlari, alohida olingan shaxsning manfaatlari va ehtiyojlarini qondirish vositasi, shuningdek me'yorlar, maqsadlar va ideal sifatidagi undovchi hamda qo'zg'atuvchi g'oyalari, predmetining mohiyati, hodisasi shuningdek, ularning xususiyatlari tushuniladi. Ko'pincha yuqorida ko'rib o'tgan qadriyatlar bilan uyg'unlashadigan, lekin o'zining alohida xususiyatlariga ega bo'lgan milliy qadriyatlar ham bir necha minglab yillardan buyon rivojlanib va takomillashib kelmoqda.

Milliy qadriyatlar ildizlarini anglab yetishda, tasniflashda va aniqlashda uni soddalashtirishdan ehtiyot bo'lish zarur. Bu ijtimoiy va oliy qadriyatlarning bir-birlari bilan o'zaro bog'liq bo'lgan hamda o'zaro bir-birini taqozo qiladigan, lekin, shu bilan birga, nisbatan o'zini barqarorligi va mustaqilligini saqlay oladigan hodisasi sifatida namoyon bo'ladi.

Fanda «milliy qadriyatlar», «milliy qadriyatli-yo'naltirilgan ong» va «milliy ruhning universal umuminsoniy qadriyatlari» ma'lum etnosni ijtimoiy, psixologik o'ziga xosligini, boshqa shu kabi birliklardan farqlanishini, mazkur etnosning barcha a'zolarini umumiy g'oyalar va yo'l-yo'riq ko'rsatmalar asosida birlashuvini ifodalaydi. Rivojlanish va shakllanishining turli bosqichlarini o'z boshidan kechirayotgan ko'plab etnoslar tarixini o'rganish shuni

ko'rsatadiki, etnos a'zolarining birligi boshqa narsalardan ko'ra ko'proq ma'lum psixik xislatlarning mavjudligi, voqealar va munosabatlarni o'zlashtirish va baholash kabi qadriyatlardagi umumiylik bilan ta'minlanadi. Milliy qadriyatlarni anglashda shu kabi his-tuyg'ular va munosabatlarning ayni shu birikuvlari nuqtayi nazari bilan yondashish talab etiladi.

Milliy ruhning universal umuminsoniy qadriyatlari, milliy qadriyatlar va milliy qadriyatli yo'naltirilgan ong nafaqat psixologik — his-hayojonli xarakter kasb etadi, balki etnik birlik tomonidan e'tirof etiladigan hayotiy muhim moddiy obyektlar, timsollar, nishon-belgilarni ham o'zida ifodalaydi. Bu qadriyatlarning e'tirof etilgan muhimligi asosida aniq bir etnos vakili bo'lgan insonning tub manfaatlari yotadi: yashamoqlik, rivojlanish, ideal maqsadlarga erishish. Har bir millat faqat uning o'zigagina mansub bo'lgan temperament birikuvi, tafakkurlash va dunyoni idrok etish turi bilan yaqqol ajralib turadi. Ma'lum bir o'ziga xos shaklda axborot olayotgan millatning ichki dunyosining noyobligi, ichki tuzilishining barqarorligida har qanday millat vakillarining bioijtimoiy hamjamiyati va madaniy birligi sifatidagi qadriyati turadi.

Shu tariqa, milliy qadriyatlar va milliy ruhning universal umuminsoniy qadriyatlari — bu u yoki bu etnos vakillarining muayyan-tarixiy shart-sharoitlardagi ijtimoiy va shaxsiy ma'naviyati rivojlanishining rag'batlantiruvchi omilidir.

Shuningdek, O'zbekiston olimlari ham mustaqillik yillarida «qadriyat» va «milliy qadriyatlar» tushunchalariga ancha aniqliklar kiritdi. «Falsafiy ensiklopediya»da «qadriyat» tushunchasi shunday ta'riflanadi: «Qadriyat falsafiy va sotsiologik tushuncha. U birinchidan, bir obyektning ijobiy yoki salbiy qimmatini, ikkinchidan, ijtimoiy ongning normativ belgilovchi-baholovchi jihati (subyektiv qadriyatlar yoki ong qadriyatlari)ni ifoda etadi»[93]. Yana boshqa falsafiy va sotsiologiyaga doir asarlarda esa bu tushuncha quyidagicha berilgan: «Qadriyat — voqelikdagi muayyan hodisalarning iqtisodiy, ijtimoiy va ma'rifiy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan tushuncha. Qadriyatlar o'z mazmuni va xarakteriga ko'ra, progressiv va reaksion turlarga ajraladi». Albatta, ko'rinib turibdiki, turli talqinlar bir-biridan farqlansa-da, ular mohiyatan bir-birini to'ldiruvchi unsurlar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Umuminsoniy qadriyatlar, eng avvalo jamiyat va inson uchun eng qadrli va uning ma'naviy kamoloti uchun xizmat qiluvchi

umumijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi narsalar, hodisalar, faoliyatlar kabilar, ularni ijtimoiy ifodalash uchun ishlatiladigan tushunchalardir. Demak, umuminsoniy qadriyat deganda, jamiyat a'zolarining hammasi uchun umumiy ahamiyatga ega bo'lgan va har bir kishining hayotiga ijobiy ta'sir etadigan, kishilarning xatti-harakati, amaliy faoliyati, yashash tarzi, boshqalarga munosabati ham umuminsoniy qadriyatlarning mezoni sifatida baholanadi. Masalan, erkinlik, tinchlik, tenglik, mustaqillik, birodarlik, demokratiya va h. k.

Demak, qadriyatlar quyidagi vazifalarni bajaradi:

Birinchidan, jamiyatning boyligi, poydevoridir. Uni avaylab-asrash va rivojlantirish har bir insonning muqaddas burchi hisoblanadi;

Ikkinchidan, qadriyatlar o'tmishni bugun va kelajak bilan bog'lash vositadir;

Uchinchidan, qadriyatlar ma'naviy yetuk - barkamol insonni tarbiyalovchi, ularni kamolotga yetaklovchi kuchdir;

To'rtinchidan, qadriyatlar jamiyatni jahon hamjamiyatiga integratsiya qiluvchi ishonchli vositadir[94].

Prezident I.A.Karimov ma'naviyat va milliy qadriyatlarning noyob va bebaho boylik ekanligini ta'kidlab, quyidagi fikrlarni bildirgan edi: «Biz bugun ayrim davlatlardan, moddiy nuqtayi nazardan orqaroqda bo'lsakda (bunga ko'pgina tarixiy obyektiv sabablar bor), ma'naviyat nuqtayi nazaridan qaraganda ulkan g'urur bilan aytishimiz mumkin: buyuk ajdodlarimizdan qolgan qadriyatlar va urf-odatlarga, nasl-nasabimiz va qonimizga singib ketgan buyuk hayotbaxsh kuchga egamiz. Bu borada ustunligimiz butun ma'rifiy dunyoda e'tirof etilgan. Ana shu qutlug' merosga munosib bo'lib yashash, bu beqiyos boylikni yanada boyitib rivojlantirish, milliy o'zligimiz va umuminsoniy qadriyatlar asosida kelajak binosini barpo etish muqaddas burchimizdir».[95]

3. O'zbekistonda milliy qadriyatlarning tiklanishi va ularni demokratik jarayonlar bilan uyg'unlashuvi

O'zbekistonda davlat mustaqilligi e'lon qilinganidan keyin islohotlar orqali kun tartibiga demokratik jamiyat qurish masalasi qo'yildi. Mustaqillikning ilk davridan boshlab amalga oshirilgan demokratik o'zgarishlar tabiiy ravishda milliy xarakter kasb eta boshladi.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab mamlakat demokratik taraqqiyot yo'lini tanladi. Bunda asosan, demokratik

rivojlanish yo'lining faqat zamonaviyligi yoki boshqa jozibador jihatlari uchun emas, balki bu yo'lning milliy manfaatlarga mosligi, ularning ifodalaganligi, demokratiyaga erishish xalqimizning bir necha asrlardan buyon orzu-umidlari sifatida yashab kelayotganligiga muhim e'tibor berilgan edi. Lekin, rivojlangan mamlakatlardan demokratik turmush tarzini ko'chirib olib, uni mamlakatdagi islohotlarda qo'llash kutilgan natijani bermasligi aniq edi. Chunki, demokratik qadriyatlar va tamoyillar ma'lum bir mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy salohiyati, davlatchilik tarixi, bozor iqtisodiyotiga o'tish darajasi, millatning mentaliteti, fuqarolarning siyosiy madaniyati darajasi kabi qator omillarga bog'liq edi. Ayniqsa, g'arbdan o'zining dini, ma'naviyati va axloqiy me'yorlari bilan ancha farq qiladigan Sharq olami uchun demokratik tamoyillar milliy xususiyatlar bilan uyg'unlashgan tarzdagina muhim ahamiyat kasb etishi mumkin edi. Demokratik qadriyatlarni o'zlashtirish g'arb uchun individualizm, ko'proq xususiy manfaatlarni qondirish, alohida olingan shaxs dunyoqarashi ustuvorligini ifodalash, shaxs erkinligini hayotda namoyon qilish uchun zarurat sifatida ro'y bergan bo'lsa, Sharq uchun demokratiya ko'proq ma'naviy qadriyatlarni hayotda amal qilishini ta'minlash, milliy an'analar va milliy meros asosida yashab kelayotgan jamiyatni milliy qadriyatlar asosida modernizatsiyalash uchun zarur edi.

Shuning uchun ham mamlakatda demokratik jamiyat qurish islohotlari milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tiklash bilan uyg'un holda chuqurlashib bordi. Prezident I.A.Karimov 1992-yilda o'zining «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» asarida quyidagi vazifani qo'ygan edi:

«O'zbekistonni yangilash va rivojlantirishning o'z yo'li to'rtta asosiy negizga asoslanadi. Bu negizlar:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- vatanparvarlik».

Shu bilan birga, mustaqil O'zbekistonning kuch-qudrati manbayi – xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligi ekanligini yana bir karra ta'kidlab ko'rsatib o'tadi[96].

Prezident I.A.Karimov milliy-ma'naviy qadriyatlarning yangi jamiyat qurishdagi o'rnini yuksak baholab quyidagi fikrlarni

bildirgan edi: «Ma'naviy qadriyatlarning tiklanishi ularning hozirgi dunyo va axborot sivilizatsiyasi qadriyatlariga moslashishini ham anglatadi. Biz hozirgi sivilizatsiya o'zida ifoda etadigan ijobiy qadriyatlar jumlasiga huquqiy demokratik jamiyat qurish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlarni kiritamiz. Bu — inson huquqlariga rioya etish, tadbirkorlik erkinligi, so'z erkinligi, matbuot erkinligi va hokazolardir. Ushbu demokratik qadriyatlar jamiyatimiz uchun muhim ahamiyatga egaligi haqida gapirar ekanmiz, bu qadriyatlar tarixiy jihatdan ham, etnik-madaniy jihatdan ham xalqimizning o'ziga xos xususiyatlariga zid emasligini qayta-qayta ta'kidlashni istardik. Qolaversa, tadbirkorlik, erkin savdo, ijtimoiy adolat, o'zaro murosayu madora va boshqalarning fikrini hurmat qilish degan tushunchalar bizning zaminimizda tarixiy ildizlarga ega. Shu bilan birga, biz o'ylamay-netmay nusxa ko'chirishga ham qarshimiz. Amaliyot bunday qadamning tayyorgarlik ko'rmagan omma ongi uchun xavfli ekanligini ko'rsatmoqda»[97].

Sobiq ittifoq davrida «demokratiya» tamoyillarini hayotda joriy etish niqobi ostida mafkuralar pluralizmi, turli xil dunyoqarashga ega bo'lish, siyosiy partiyalarning o'zaro muholifiy faoliyat yuritishi, o'zaro raqobatdoshlik, milliy qadriyatlar va madaniyatga amal qilish uzoq davrlar ta'qiqlab kelinganligi uchun ham mustaqillikning dastlabki davrida milliy qadriyatlarni nafaqat demokratiya bilan uyg'unlashtirish, balki milliy qadriyatlarni tiklashning o'zi katta bir muammoga aylangan edi. Shuning uchun ham mamlakatda bu muammolarni bartaraf etish haqida Prezident I.A.Karimov quyidagi fikrlarni bildirgan edi: «Siyosiy erkinlikni ancha tez va nizolarsiz qo'lga kiritish mumkin. Bunga sobiq sovet respublikalarining siyosiy suverenitetni qo'lga kiritishi misol bo'la oladi. Nisbatan tez iqtisodiy erkinlikka erishish mumkin. Buni ham biz Sharqiy Osiyoning sanoati rivojlangan mamlakatlari misolida ko'rib turibmiz. Lekin davlatning ichida siyosiy erkinliklarni ta'minlash — puxta o'ylab, har tomonni hisobga olib yondashishni, odamlar ongida uzoq muddat moslashishni talab qiladigan jarayondir. Hozirgi demokratik jamiyatning eng muhim voqeliklaridan biri ijtimoiy raqobatdir. Xalqimizning an'anaviy qadriyatlari u bilan uyg'unlashtirilmog'i kerak. Bozor tuzilmalari rivojlanib borgan sari bu raqobat ancha bema'ni tus olishi, ijtimoiy ziddiyatga aylanib ketishi mumkin. Bunday raqobatga ma'rifiy, ijodiy tus berishga, uni musobaqaga,

bunyodkorlikka aylantirishga birinchi navbatda iqtisodiyot bilan bog'liq bo'lmagan, eng avvalo, madaniy-axloqiy mexanizmlar yordamida erishish mumkin. Bu mexanizmlar qayta tiklanayotgan milliy qadriyatlar bilan hozirgi zamon sivilizatsiyasi singdirayotgan yashash me'yorlarining umumlashmasidan iborat bo'lmog'i darkor»[98].

Albatta, mustaqillik e'lon qilingan paytda jahon hamjamiyatining mustaqil O'zbekistonni tan olishi, davlatimizning keng tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyati o'zbek xalqining ma'naviy qadriyatlari va imkoniyatlari tiklanishiga, o'zini boshqa xalqlar oilasidagi to'la huquqli millat sifatida anglab yetishiga yanada katta kuch baxsh etdi. Keng miqyosdagi xalqaro aloqalar jahon madaniyatini yanada chuqurroq bilish, umuminsoniy qadriyatlardan bahramand bo'lish uchun qulay shart-sharoitlar yaratdi.

O'zbekistonning jahonga ochilishi natijasida rivojlangan mamlakatlardan zamonaviy madaniyat va zamonaviy bilimlar kirib kelishi barobarida demokratik g'oyalar ham tezlik bilan yoyila boshladi. Dunyoning demokratik qadriyatlaridan bahramand bo'lishda aholining bilimdonligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu davrda faqat bilimli, ma'rifatli jamiyatgina demokratik taraqqiyotning barcha afzalliklarini qadrlay olishini va, aksincha, bilimi kam, omi odamlar avtoritarizmni va totalitar tuzumni ma'qul ko'rishiga doir tasavvurlar shakllandi.

Mustaqillik sharofati bilan mamlakat aholisining bilim doirasi yanada kengayib bordi. Dunyoning keng ochilishi natijasida tarixiy va hozirgi zamon voqeliklaridan bahramandlikning o'sishi xalqimizning ijtimoiy tafakkurida ilgari o'rnashib qolgan hayotni idrok etishning mavhum va aqidaparastlik qoliplarini yengib o'ta boshladi, uning mustaqil fikr yuritish va ro'y berayotgan hodisalarni mustaqil baholay olish qobiliyati shakllana boshladi.

Ana shunday bir paytda, Prezident I.A.Karimov Ma'naviy Tiklanish tushunchasining mohiyatini quyidagicha talqin etgan edi: «Ma'naviy Tiklanish — fikrlash tarzini mustaqillik ruhi belgilaydigan yangi avlodga mansub ijodiy ziyolilarning paydo bo'lishi demakdir. Bizning tushunishimizcha, qotib qolgan eski aqidalardan voz kechish — o'z tarixiy o'tmishimizdan voz kechish degani emas. Bu biryoqlama va tor fikrlashdan voz kechish demakdir. Milliy tafakkur o'z taraqqiyotida madaniy qurilish vazifalariga dunyo miqyosida yondashishi, boshqa xalqlarning taqdiri, ularning o'zaro munosabatlari bilan yaqindan qiziqishi,

ular hayotining eng teran nuqtalarigacha kirib borishi, milliy manfaatlarni hisobga olishi kerak. Xalqimizning kelajagi, eng avvalo, uning o'ziga, ma'naviy qudratiga va milliy ongining ijodiy kuchiga bog'liqdir. Moddiy farovonlikka tabiiy intilish millatning ma'naviy va aqliy o'sish ehtiyojiga g'ov bo'lmasligi lozim. Ma'naviylik va ma'rifiylik xalqimizning ko'p asrlik tarixi davomida doimo uning eng kuchli o'ziga xos xususiyati bo'lib keldi. Bizning an'anaviy qadriyatlarimizni hozirgi demokratik jamiyatning qadriyatlari bilan uyg'unlashtirish kelajakda yanada ravnaq topishimizning, jamiyatimiz jahon hamjamiyatiga qo'shilishining garovidir»[99].

Mustaqillikning dastlabki davridan boshlab O'zbekiston davlati bosh islohotchi sifatida fuqarolik jamiyatini shakllantirishda umuminsoniy tamoyillarga amal qildi. Ma'lumki, demokratik jamiyatning xalqaro miqyosda e'tirof etilgan tamoyillari mavjud. Insonning o'z xohish-irodasini erkin bildirishi hamda uni amalga oshirishi, ozchilikning ko'pchilikka bo'ysunishi, barcha fuqarolarning teng huquqliligi, davlat va jamiyat boshqaruvida qonun ustuvorligi, davlatning asosiy organlari saylanishi, ularning saylovchilar oldida hisob berishi, tayinlash yo'li bilan shakllanadigan davlat organlarining saylovchi tashkilotlar oldidagi javobgarligi va boshqalar shular jumlasiga kiradi[100].

Lekin, O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning o'ziga xos xususiyati shunda ediki, bu jarayon xalqaro tajribalarni qo'llash doimo milliy qadriyatlar va tamoyillarni e'tiborga olgan holda bordi. Ayniqsa, Sharq olamiga mansub bo'lgan milliy an'analar islohotlarning muhim jihatlari sifatida namoyon bo'ldi. Ayniqsa, Prezident I.A.Karimovning quyidagi fikri bu jarayonda dasturilamal bo'ldi: «Sharqda demokratik jarayonlarning qadimdan shakllangan o'ziga xos va o'ziga mos xususiyatlari bor. Buni aslo nazardan qochirib bo'lmaydi. Ya'ni Sharqda demokratik jarayonlar uzviy ravishda va asta-sekin taraqqiy topadi. Bu sohada inqilobiy o'zgarishlar yasashga urinishlar g'oyat noxush, hatto fojiali natijalarga olib keladi. Inqilobni G'arb olimlari ham «ijtimoiy taraqqiyotning ibtidoiy va yovvoyi shakli» deb ataganlar. Tabiiyki, bunday yo'l bizga aslo to'g'ri kelmaydi[101].

O'zbekistonda fuqarolik jamiyati qurish va bozor iqtisodiyotiga o'tish islohotlarini tinchlik, barqarorlik va hamjihatlikda amalga oshirilganligining asosiy manbayi ham milliy qadriyatlar, milliy an'analar va milliy madaniyatni tiklash jarayonlari yangi jamiyat

qurishning tarkibiy sifatida qaralganligi, ularni demokratik jamiyat qurish prinsiplari va shartlari sifatida belgilanganida bo'ldi. Prezident I.A.Karimov bu haqda so'z yuritar ekan, quyidagi fikrni bildiradi: «...demokratik jarayonlar xalqimiz milliy madaniyatining o'ziga xos jihatlarini, uning tabiatini o'zida mujassam etmog'i kerak. Ma'lumki, g'arb namunasi ko'p hollarda individualizm falsafasiga tayanadi va ommani haddan tashqari siyosiylashtirishga olib keladi. Osiyo mintaqasi va musulmon Sharqidagi demokratik qadriyatlar va o'zgarishlarning rivojlanish tajribasi o'ziga xos xususiyatlar, o'ziga xos an'analarga ega. Sharqda demokratiya tushunchasi hamjihatlik g'oyasi, jamoatchilik fikrining ustuvorligi zaminida shakllanadi. Bizning mamlakatimizda demokratik jarayonlar xalqimizning qonunni hurmat qilish, qonunga itoat etish kabi fazilatlariga mos ravishda rivojlanishi zarur. Axloqiy, ma'naviy qadriyatlar siyosiy munosabatlarda ham ustunlik kasb etishi darkor[102].

Mamlakatda demokratik jamiyat qurishda Sharq uyg'onish davrida yashagan Vatandoshlarimiz — Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino kabilar tomonidan ilgari surilgan fozil jamiyat va uning asosiy mezoni-qadriyati bo'lgan ijtimoiy adolat prinsipi yana qaytadan tiklandi. Adolat prinsipi milliy prinsip sifatida namoyon bo'ldi. Bu haqda Prezident I.A.Karimov quyidagi g'oyani ilgari surdi: «Biz shunchaki demokratik jamiyat emas, demokratik odil jamiyat qurmoqchimiz. Adolat va haqiqatga intilish esa xalqimiz tabiatining eng muhim fazilatlaridan biridir. O'tmishda oliy adolat g'oyasi mansabdor shaxslarga qo'yiladigan talab va bahoning asosi bo'lgan. U davlatchilik negizlarini belgilash, islomiy qoidalar va shariat mezonlarining poydevorini tashkil etgan. Biz tariximizdagi ana shu jihatlarni hisobga olmasak, qudratli, erkin, demokratik davlat qura olmaymiz. Adolat va haqiqat g'oyasi ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarini qamrab olmog'i darkor. Adolat va haqiqat g'oyasi qonunchilik faoliyatimizning zamini, bosh yo'nalishi bo'lmog'i shart. Davlatchilik va fuqarolik munosabatlari, mehnat va uy-joy, nafaqa va soliq, tabiatni muhofaza qilish va jinoyatchilikka qarshi kurashish masalalari, qo'yingki, hayotimizning hamma jabhalari ana shu zaminga tayanishi zarur. Bugun jamiyatda ijtimoiy mulkiy jarayonlarning obyektiv o'zgarishi yuz berayotgan bir paytda adolat g'oyasini ixcham bir xulosa bilan ifodalash mumkin. Ya'ni davlat jamiyatning keskin tabaqalanishiga — oshib-toshib ketgan boylaru kambag'al-qashshoqlarga bo'linib ketishiga yo'l qo'ymasligi kerak»[103].

4. Milliy, umumbashariy va demokratik qadriyatlar sintezi — demokratik jamiyat qurish sharti sifatida

O'zbekiston mamlakati hududida bir necha ming yillar davomida davlatchilik, milliy va etnoijtimoiy an'analari yashab kelmoqda. Ularning hammasi millatning shakllanishida muhim rol o'ynab, hozirgi milliy qadriyatlarning shakllanishiga olib keldi. Mazkur milliy qadriyatlarning umummilliy xarakter kasb etadiganlari millatning yashash tarzi yoki millatning rivojlanish omili sifatida ham namoyon bo'la boshladi. Mustaqillikning dastlabki davrida esa mazkur milliy qadriyatlarning aksariyati ilgari, ya'ni ittifoq davrida toptalgani, ijtimoiy-siyosatdan ajratib qo'yilganligi uchun qaytadan tiklanish jarayoniga zarurat sezmoqda edi. Endi demokratik jamiyat qurish vazifalari va qaytadan tiklanish zarurati paydo bo'lganligi sababli mazkur milliy qadriyatlar yangi jamiyat qurishning tamoyillari sifatida namoyon bo'la boshladi.

Shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki davrida yuqorida keltirilgan *milliy qadriyatlardan tashqari* yana quyidagi qadriyatlarni tiklash yangi jamiyat qurish vazifalari sifatida namoyon bo'la boshladi:

- xalqimiz hayotida kuchli jamoachilik ruhiyatining saqlanib qolganligi;
- oila, mahalla, el-yurtning har bir inson uchun muqaddasligi;
- ota-ona va boshqaruv rahbarlariga nisbatan hurmat-ehtiromning saqlanib qolganligi;
- millatning ovozi bo'lgan ona tiliga bo'lgan izzat-hurmatning kuchliligi;
- kattalarni hurmat qilish, kichiklarni izzat qilish odatlarining mavjudligi;
- jamiyatda ayol zotiga nisbatan alohida hurmat-ehtirom ko'rsatilishi;
- xalqimizning sabr-bardoshli, mehnatsevar ekanligi;
- xalqimiz o'rtasida halollik va mehr-oqibatlilikning keng tarqalganligi;
- xalqimiz mentalitetida o'zgarishlarga doir islohotlarni shoshilmay, asta-sekin olib borishga moyilligi;
- xalqimizning tafakkur tarzi va ijtimoiy qarashlarining rivojlanganligi;
- xalqimiz milliy ma'naviyati va madaniyatining o'ziga xos Sharqonaligi.

Mustaqillik davrida milliy qadriyatlarning fuqarolik jamiyati qurish, demokratik tamoyillarni jamiyatda qo'llashdagi o'rni masalasi nafaqat davlat siyosati darajasiga ko'tarildi, balki, demokratik jamiyat qurishning «O'zbek modeli»ni tarkibiy qismi sifatida e'tirof etildi. Chunki, bir necha ming yillar davomida shakllangan milliy qadriyatlardan birdaniga voz kechib bo'lmaganidek, millatning bir necha ming yillarda odatlanib qolgan qadriyatlarisiz hech qanday islohotlarni amalga oshirolmasligi tabiiy bir holdir. Ayniqsa, Sharq olamida turli xalqlarning bir necha ming yilliklar ichida shakllantirgan va rivojlantirgan milliy qadriyatlari yashash tarzining qirralari sifatida mahkam o'rnashganligi, uni hech qanday kuch yo'qota olmasligi uchun yangi jamiyat qurishni ham ularsiz amalga oshirib bo'lmaydi.

Ittifoq davrida milliy qadriyatlar tazyiqlar va ta'qiqlashlarga uchragan bo'lsa ham ular xalqimiz ruhiyatida, tarixiy xotirasida saqlanib qoldi. Prezident I.A.Karimov bu haqda quyidagi fikrni bildiradi. «Uzoq vaqt davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'analarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi».[104] Mustaqillikning dastlabki davridan boshlab milliy qadriyatlarni tiklash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi darajasiga ko'tarildi. Bu sohadagi dolzarb vazifalarni Prezident I.A.Karimov quyidagicha ifodalagan edi: «Biz ma'naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o'zlikni anglashning o'sishidan, xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz»[105].

Shu bilan birga, Prezident I.A.Karimov milliy qadriyatlarni milliy rivojlanish, demokratik jamiyat qurish bilan bog'liq jihatlaridan keng foydalanishni, hozirgi davr sivilizatsiyasi talablariga javob bermaydigan qadriyatlarga zaruratning yo'qligini quyidagicha ifodalab bergan edi: «... o'tmish qadriyatlarga, an'analarga va turmush tarziga betartib ravishda, orqa-ketini o'ylamay qaytish boshqa bir keskinlikka — hozirgi davrni qabul qilmaslikka, jamiyatni yangilash zaruriyatini inkor etishga olib kelishi mumkin» edi[106]. Shuningdek, «milliy qadriyatlar millat uchun muhim va jiddiy ahmiyatga ega bo'lgan jihat va xususiyatlar. O'z milliy qadriyati bo'lmagan millat yoki elat yo'q. Millatning tanazzuli — milliy qadriyatlarning tanazzulidir. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, kelajagi, uni tashkil etgan avlodlar, ijtimoiy qatlamlar, milliy ong, til, ma'naviyat hamda madaniyat

bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi»[107]. Negaki, milliy qadriyatlar nafaqat mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlaydigan ma'naviy asoslardan biri, balki demokratik, adolatli, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishning asosiy manbayi hamdir. Markaziy Osiyo xalqlari tomonidan yaratilgan milliy qadriyatlar uzoq tarixiy jarayonlarda mashaqqatli va og'ir sinovlarni o'z boshidan kechirdi. Darhaqiqat, mintaqa xalqlari uch-to'rt ming yillik davr ichida jahon e'tirof etgan Markaziy Osiyo sivilizatsiyasini yaratdi.

Markaziy Osiyo xalqlari o'z tarixiy taraqqiyoti jarayonida mintaqada yashagan barcha xalqlarga mansub bo'lgan ularni birlashtirib turishga qobil bo'lgan milliy qadriyatlarni yaratdi:

- tug'ilgan ota makon va ona yurtga ehtirom his-tuyg'ularining kuchli bo'lishi;
- ajdodlarni xotirlash, ular qoldirgan qadriyatlarga sadoqat tuyg'ularining mavjudligi;
- yoshi ulug', mo'ysafidlarning obro'-e'tiborini joyiga qo'yish, yoshlarga g'amxo'rlik qilish va ularga izzat ko'rsatish;
- insoniy muomala va munosabatlarda ma'naviy qadriyatlarga qat'iy amal qilish;
- ajdodlardan meros bo'lib qolgan hayo, andisha, og'ir vazminlik, sabr-toqat kabi qadriyatlarni saqlash, rivojlantirish va ularga amal qilish.

Demokratik qadriyatlarning rivojlanishi faqat zamonga emas, balki makon va kengliklar, ulardagi taraqqiyot bosqichlariga ham bog'liqdir. Ular shakliy jihatdan muayyan kengliklarda rivojlanadi. Masalan, ularning rivojlanishi uchun muayyan kengliklarga zarurat tug'iladi:

- mahalliy;
- milliy;
- mintaqaviy.

Ularda shakllangan mahalliy, milliy va mintaqaviy qadriyatlar rivojlanib borgani sari umuminsoniy ahamiyat kasb etib boradi.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishda milliy qadriyatlardan keng foydalanishdan tashqari diniy qadriyatlarni tiklanishiga ham muhim ahamiyat berilmoqda. Chunki, aksariyat diniy qadriyatlar milliy qadriyatlar sifatida namoyon bo'lishi tabiiy bir holdir. Milliy qadriyatlar ham, diniy qadriyatlar ham fozil jamiyat qurishni, farovonlikni, komil insonni shakllantirishni, ijtimoiy adolat o'rnatishni, tinchlikni, millatlararo ahillikni oliy qadriyatlar sifatida e'tirof etadi.

Demokratik qadriyatlarning shakllanishi bir necha pog'onalar va ularning o'zaro aloqadorligi, o'zaro uyg'unlashuvi natijasida sodir bo'ladi. Tarixiy jarayonlar bu qadriyatlarning mahalliy, milliy, mintaqaviy va umuminsoniy shakllarda namoyon bo'lishini ko'rsatdi.

Tarixiy rivojlanish tajribasi shuni ko'rsatadiki, demokratik jamiyatni umuminsoniy va milliy qadriyatlar uyg'unligisiz barpo etib bo'lmaydi. Umuminsoniy qadriyatlarning asosiy vazifasi olamni bilish va uni amaliy o'zgartirishning muhim omili sifatida rivojlandi. Umuminsoniy va milliy qadriyatlar uyg'unligi inson ma'naviy kamolatining eng muhim omili sifatida e'tirof etildi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Demokratik tamoyillar va qadriyatlar deganda nimani tushunasiz?
2. Qadriyatlar nima? Milliy qadriyat deganda nimani tushunasiz?
3. Milliy qadriyatlar demokratik jamiyat qurishda qanday rol o'ynaydi?
4. O'zbekistonda milliy qadriyatlarning tiklanishi va ularni demokratik jarayonlar bilan uyg'unlashuvi qanday kechdi?
5. Nima uchun milliy, umumbashariy va demokratik qadriyatlar uyg'unlashuviga zarurat paydo bo'ldi?

II BO'LIM.
O'ZBEKISTONDA HUQUQIY DAVLAT VA FUQAROLIK JAMIYATINI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI, DEMOKRATIK ASOSLARI VA AMALIYOTI

7-mavzu: QONUN USTUVORLIGI — HUQUQIY DAVLAT VA FUQAROLIK JAMIYATI QURISHNING ASOSI

1. Qonun ustuvorligi tushunchasi.
2. Hokimiyatning uchga bo'linish prinsipining qonun ustuvorligini amalga oshirishdagi o'rni.
3. Sud-huquq tizimini demokratlashtirish — qonun ustuvorligini ta'minlash omili.
4. Sud-huquq tizimini isloh qilish va qonun ustuvorligini ta'minlash istiqbollari.

1. Qonun ustuvorligi tushunchasi

O'zbekistonda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishning eng asosiy prinsiplaridan biri — qonun ustunligi jamiyatda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash kafolatlaridan biridir. Prezident I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan mamlakatda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishning «O'zbek modeli»ni besh prinsipidan biri — qonun ustuvorligini ta'minlashdir. Prezident I.A.Karimov qonun ustuvorligining mazmun-mohiyati va ahamiyatini tahlil qilar ekan, quyidagi fikrni bildiradi: «Qonun ustuvorligi — huquqiy davlatning asosiy prinsipidir. U hayotning barcha sohalarida qonunning qat'iyan hukmronligini nazarda tutadi. Hech bir davlat organi, hech bir xo'jalik yurituvchi va ijtimoiy siyosiy tashkilot, hech bir mansabdor shaxs, hech bir kishi qonunga bo'ysunish majburiyatidan xalos bo'lishi mumkin emas. Qonun oldida hamma barobardir. Qonunning ustuvorligi shuni bildiradiki, asosiy ijtimoiy, eng avvalo, iqtisodiy munosabatlar faqat qonun bilan tartibga solinadi, uning barcha qatnashchilari esa hech bir istisnosiz huquq va normalarni buzganligi uchun javobgar bo'ladi»[108].

Qonun — davlatning oliy irodasi. Har bir sivilizatsiyaga erishgan mamlakatlarda me'yoriy huquqiy aktlar huquqning

yetakchi manbasi (asosi) hisoblanib, asosiy ijtimoiy munosabatlar ana shu manba asosida muvofiqlantiriladi. Me'yoriy huquqiy aktlarning asosiy turlaridan biri – bu qonundir.

Qonun huquq manbasi sifatida hattoki qadimgi davlatlarda ham amal qilgan. Tarixdan ma'lumki, Xammurapi qonunlari (er.il. XVIII asr), Manu qonunlari (er.il. I asr) va boshqa qator huquqiy yodgorliklar hayotda keng qo'llanilgan. Qadimgi davlatlarda asosiy huquqiy me'yorlar odatga ko'ra monarxlarning shaxsiy irodasini ifodalar, qonun yoki boshqa shakllarda amalga oshirilar edi.

Ma'lumki, huquqiy davlat – mamlakatdan yaqin davrdan buyon muomalaga kirgan tushuncha hisoblanadi. Albatta, bu tushuncha nihoyatda qisqacha ifodalaganda davlat huquqqa bo'ysunishi zarur. Bu amalda umuminsoniy qadriyatlarni sinfiy qadriyatlardan ustunlik qilishini anglatar edi. Chunki, huquqiy davlatda davlat ustidan huquqning hukmronligiga amal qilinadi.

Shuningdek, jamiyat hayotining barcha sohalarida qonun ustunligi, hokimiyatlarning bo'linishi, fikrlar pluralizmi, oshkoralik, sudning yuqori roli, fuqarolar va davlatning o'zaro mas'ulligi taqozo etiladi[109]. Faqat ko'rsatilgan belgilarning mavjudligi va keng rivojlanganligi sharoitidagina huquqiy davlatni shakllantirish to'g'risida so'z ketishi mumkin.

Mohiyatan, qonun ustunligi konsepsiyasi «shaffof» ko'rinishda (uning an'anaviy tushunchasida) faqat klassik musulmon huquqida amalga oshirildi. Ko'pincha qonun ustunligi prinsipi e'lon qilingan huquqiy tizimlarda uning amal qilishi uzoq davom etmasligini ham ko'rish mumkin. Bu kabi holatlar parlament vakolatlarini ijroiya hokimiyati foydasiga cheklashga moyillik bilan bog'liqdir. Shuning uchun qonunning huquq manbalari tizimidagi o'rni ko'p jihatlardan parlament va hukumat o'zaro nisbatiga qarab belgilanadi. Shuningdek, qonun ustunligi prinsipini amal qilishini cheklanishi uning xalqaro huquq me'yorlari bilan o'zaro aloqalari oqibatida ham ro'y berishi kuzatilgan.

Qonun ustunligi huquqiy davlatning belgisi sifatida shuni anglatadiki, iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiy, madaniy sohalarda asosiy ijtimoiy munosabatlar umuman har doim ham nafaqat qonun bilan, balki oliy organlar qabul qilgan oliy huquqiy hujjatlar bilan ham huquqiy tartibga solinadigan holatlar ko'p uchraydi. So'ngra, qonun ustunligi uning barchaga baravar taalluqli ekanligini (ya'ni, qonun talablarining barcha huquqiy munosabatlar subyektlariga teng darajada tarqalishini), butun bir davr ichida va

shaxslar doirasida, mamlakatning barcha hududlarida to'la ko'lamli tarzda amal qilishini anglatadi. Huquqiy davlatda qonunlar huquqiy tartibga solishga zarurat sezayotgan eng muhim munosabatlarni muvofiqlashtiradi. Me'yoriy-huquqiy aktlar o'zlarining huquqiy kuchiga bog'liq holda qonunchilik tizimini tashkil etadi.

Huquqiy (yuridik) kuch — bu mazkur me'yoriy-huquqiy aktning bo'ysunish darajasi, uning huquqiy aktlar iyerarxiyasidagi o'rnidir. Konstitutsiya oliy yuridik kuchga egadir. Hokimiyatning hech bir tarmog'i konstitutsiyani inkor etish huquqiga ega emas.

Yuridik kuch darajasi bo'yicha Konstitutsiyadan keyin qonunlar turadi. Qonunlar jamiyatning asosiy masalalari bo'yicha qabul qilinadi. Ular bevosita davlatning irodasini ifodalaydi. Barcha qolgan me'yoriy-huquqiy aktlar qonunlarni bajarish asosida qabul qilinadi. Qonunlarni faqat oliy vakillik organi qabul qilishi mumkin. Qonunlar faqat boshqa qonunlar bilan o'zgarishlarga uchrashi yoki bekor qilinishi mumkin. Qonunchilik tizimiga qonunlardan tashqari hukumat, vazirliklar va muassasalarning qonun osti hujjatlari kiradi. Ular o'z kompetensiyalari doirasidagi, iqtisodiyotning tegishli sohalari ichidagi va hokimiyatning mahalliy organlari qonun osti aktlariga doir munosabatlarni tartibga soladi.

Huquqiy davlat sharoitida qonunlarni individual yoki guruhiy irodalarining emas, balki umumxalq irodasi sifatida namoyon bo'lishini nazorat qilish tizimi bo'lishi taqozo etiladi. Umuminsoniy qadriyatlar talablariga javob bermaydigan qonunlar ustunligi diktaturani o'rnatishga olib kelmasligi uchun nazorat tizimi qonunchilikni saqlanishiga kafolat berishi, o'zboshimchalikka yo'l qo'ymasligi lozim. Huquqiy davlatda bu funksiyalar sud tizimiga topshirilgan. Sudlar Konstitutsiyaning amal qilishini ta'minlash vositasidir. Ular qonun chiqaruvchi va ijroiya hokimiyatlari xatti-harakatini qonuniyligini tekshirish huquqiga ega bo'lmog'i lozim. Amaliyotda sud tizimi kiradigan konstitutsiyaviy nazoratning bo'lishi muhim ahamiyatga egadir. Qonun adolat g'oyalariga, umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligiga, o'zining huquqiy tabiatiga muvofiq bo'lishi uning huquqiy davlat shart-sharoitlari talablariga javob berishini anglatadi. Qonunni xalqning ko'pchilik qismi irodasini ifodalashini aniqlashning o'ziga xos mexanizmlari mavjud: jamoatchilik fikrini to'liq ifodalash, oshkoralik, so'z erkinligi. Davlat amaliyotida saylovlar va referendumlar vositasida o'z qonunlarini xalq irodasi asosida qabul qilinganligini, ularning huquqiy ekanligini mustahkamlash tajribasidan keng foydalaniladi[110].

Qonun ustunligi nafaqat qonunlarning mazmunini aks ettiradi, balki davlat, uning organlari va mansabdor shaxslarining ham barcha fuqarolar bajarishi shart bo'lgan qonunlarga so'zsiz bo'ysunishini ifodalaydi. Qonun ustunligi me'yoriy aktlarning o'zaro ziddiyatlarga kirishishiga yo'l bermaydigan ma'lum iyerarxiyasini anglatadi. Qonunlar xalqaro huquq me'yorlariga muvofiq kelishi lozim. Asosiy qonun (Konstitutsiya) iyerarxiya pog'onasida bosh bo'lishi, boshqa barcha me'yoriy aktlarning unga muvofiq bo'lishi, unga qarshi ziddiyatlarda bo'lmasligi talab etiladi.

Qonun ustunligi mamlakat aholisining umumiy irodasini ifodalashdan tashqari qonunlarni qabul qilish va ularga amal qilish jarayoni uni boshqa me'yoriy aktlardan yuqori turishini, huquqning har qanday tizimida alohida o'ringa ega ekanligini ta'minlashi lozim. Qonunlarni hurmat qilish, ularga so'zsiz amal qilish huquqiy davlatning ajralmas belgisi, barcha fuqarolar ongi va xulqining ajralmas qismidir.

O'zbekistonda qonun ustuvorligi, inson huquq va erkinliklarini ta'minlay oladigan sud tizimi mustaqillik davrida shakllandi. O'zbekiston Respublikasida sud tizimi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha oliy sudlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudidan, shu muddatga tayinlanadigan fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlari, harbiy va xo'jalik sudlaridan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasida sud O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarida, inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjatlarda e'lon qilingan fuqarolarning huquq va erkinliklarini, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini sud yo'li bilan himoya qilishga da'vat etilgan. Sudning faoliyati qonun ustuvorligini, ijtimoiy adolatni, fuqarolar tinchligi va totuvligini ta'minlashga qaratilgandir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi fuqarolik, jinoiy va ma'muriy sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organidir. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Qoraqalpog'iston Respublikasi oliy sudlari, viloyat, shahar, tumanlararo, tuman sudlari va harbiy sudlarning sudlov faoliyati ustidan nazorat olib borish huquqiga egadir. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi ishlarni

birinchi instansiya sudi sifatida va nazorat tartibida ko'radi. U o'zi birinchi instansiya sifatida ko'rgan ishlarni apellatsiya yoki kassatsiya tartibida shikoyat berish huquqiga ega bo'lgan shaxslarning xohishiga ko'ra apellatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'rishi mumkin.

2. Hokimiyatning uchga bo'linish prinsipining qonun ustuvorligini amalga oshirishdagi o'rni

O'zbekistonda faqat mustaqillik davriga kelib qonun ustuvorligining konstitutsiyaviy asosi yaratildi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi natijasida jamiyatda qonun ustuvorligini amal qilishi uchun huquqiy shart-sharoitlar tug'ildi. Qonun ustuvorligi prinsipi uning III bobida ikkita — 15—16-moddalarda mustahkamlab qo'yilgan. Konstitutsiyaning 15-moddasiga muvofiq «O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar»[111]. Shuningdek, Konstitutsiyaning 16-moddasida «Birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas»[112] degan prinsip joy olgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasida mamlakatda davlat hokimiyati tashkil etilishining quyidagi asosiy konstitutsiyaviy prinsipi mustahkamlangan: «O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanadi»[113]. Davlat hokimiyatining bo'linishi prinsipini shakllanishi ilk bor sanoati rivojlangan mamlakatlar fuqarolarining demokratik qadriyatlar asosida yashashga doir hayot tarzini jamiyatda qo'llashga intilishi, uning natijasida ustuvorligi prinsipi, inson huquq va erkinliklarini ta'minlashga nisbatan tarixiy zaruratning paydo bo'lishi bilan bog'liqdir.

Bu prinsipga muvofiq, davlatning qonunlar qabul qilish, ularni ijro etish va odil sudlov borasidagi faoliyati hokimiyatning uch tarmog'i — qonun chiqaruvchi, hukumat va sud hokimiyatlari o'rtasida taqsimlanishi zarur. Bunda hokimiyatning biror tarmog'i boshqa birining faoliyati sohasiga aralashmasligi zarur. Uch hokimiyatning o'zaro bir-birini tiyib turishi hokimiyatning barcha

tarmoqlarini o'zaro mutanosiblashtiradi, ularning o'zaro munosabatlarida muvozanat paydo bo'ladi. O'zbekiston Respublikasida qonun chiqaruvchi hokimiyatni O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi, ijro etuvchi hokimiyatni esa Vazirlar Mahkamasi amalga oshiradi. Sud hokimiyati Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud va Oliy xo'jalik sudi tomonidan amalga oshirilib, ular birgalikda O'zbekistonning yagona sud tizimini tashkil etadi.

Hokimiyatning uchga bo'linish prinsipi — huquqiy davlatning eng muhim belgilaridan biridir. Konstitutsiyaning «Davlat hokimiyatining tashkil etilishi» deb nomlangan beshinchi bo'limida uchala hokimiyatning o'zaro uyg'unlikdagi faoliyati mexanizmlari, shuningdek, ularning o'zaro bir-birini tiyib turish tizimini vujudga keltiruvchi qoidalar mustahkamlab qo'yilgan. Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati idoralari davlat hokimiyatining yagona tizimini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasida hokimiyat o'z mohiyatiga ko'ra yagonadir. Chunki, Konstitutsiyaning 7-moddasiga binoan, hokimiyatning yagona manbai xalqdir. Alohida olingan boshqa biror hokimiyat organi butun davlat hokimiyatini amalga oshirishga da'vogarlik qilishi mumkin emas. Davlat hokimiyatining davlat organlari o'rtasida bo'linishini davlat hokimiyatining amalga oshirish vakolatlarini qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari o'rtasida bo'linishi, deb tushunish kerak. Zero, ular Konstitutsiyada belgilab berilgan o'z vakolatlarini amalga oshirishda bir-birlaridan mustaqildirlar.

Hokimiyatni uchga bo'linish qoidasi keyinchalik «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida»gi konstitutsiyaviy qonunlarda, «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi, «Sudlar to'g'risida»gi kabi boshqa qonunlarda yanada rivojlantirildi.

Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati tizimi faqatgina hokimiyatning uchta tarmog'i o'rtasida emas, balki hokimiyatning tarmoqlari bilan davlat boshlig'i — Prezident o'rtasida ham amal qiladi. Masalan, parlament tomonidan qabul qilingan qonunlar Prezident tomonidan imzolangandan keyingina kuchga kiradi, Prezident veto huquqiga ega, ya'ni u qabul qilingan qonunlarni imzolamasdan qayta ishlash uchun parlamentga qaytarishi mumkin, Konsti-

tutsiyada nazarda tutilgan hollarda parlamentni tarqatib yuborishi mumkin, ijro etuvchi hokimiyat rahbari — Bosh vazirning nomzodini tasdiqlash uchun, shuningdek, Konstitutsiyaviy, Oliy va Oliy xo'jalik sudi sudyalarining nomzodlarini saylash uchun parlamentga taqdim etadi, qonun chiqaruvchi organ bo'lgan Oliy Majlis esa Bosh vazirni lavozimga tasdiqlaydi, parlament yuqori palatasi ko'rsatilgan sudlar sudyalarini saylaydi, parlament Konstitutsiyada nazarda tutilgan hollarda Prezident farmonlarini tasdiqlaydi[114].

Konstitutsiya, konstitutsiyaviy qonunlar va qonunlarning tahlili bugungi kunda mamlakatimizda o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati tizimini ta'minlashning samarali mexanizmi yaratilganligini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, bu tizimni kelajakda yanada rivojlantirilishini hayotning o'zi taqozo qilmoqda. 2005-yilda mamlakatimiz parlamenti palatalarining qo'shma majlisida yurtboshimiz «Davlat qurilishi va boshqaruvi sohasidagi eng muhim vazifa bu qonunchilik hokimiyati bo'lmish mamlakat Parlamentining roli va ta'sirini kuchaytirish, hokimiyatning qonunchilik, ijro va sud tarmoqlari o'rtasida yanada mutanosib va barqaror muvozanatga erishishdan iborat»[115], deb ko'rsatib bergan edilar.

Ko'rinib turibdiki, mamlakatda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatga xos bo'lgan hokimiyatning uchga bo'linishi prinsipini hayotga qo'llash, unga amal qilish jarayonining rivojlanishi yangi bosqichga kirdi. Bu prinsipni jamiyatning yashash qoidasiga aylantirish qonun ustuvorligi prinsipini hayotda namoyon bo'lishining asosiy qirralaridan biridir.

2. Sud-huquq tizimini demokratlashtirish — qonun ustuvorligini ta'minlash omili

Rivojlangan mamlakatlar tarixiy tajribasidan ma'lumki, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan mustaqil ravishda amal qiluvchi sud hokimiyati huquqiy davlat belgilaridan biridir. Sud tizimi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari bilan mustahkamlangan. Sud hokimiyati organlarining faoliyati quyidagi prinsiplarga asoslanadi:

- odil sudlovni amalga oshirish;
- qonuniylik;
- sudlarning mustaqilligi va faqat qonunga bo'ysunishi;

- bamaslahat ish ko'rish;
- fuqarolarning sud oldida tengligi;
- tomonlarning tortishuvchanligi va teng huquqli ekanligi;
- sud ishlarini yuritishning oshkoraligi;
- aybsizlik prezumpsiyasi;
- malakali yuridik himoyaga ega bo'lish huquqi;
- sud jarayonini milliy tilda borishi prinsipi;
- sud hokimiyati hujjatlarining barcha huquq subyektlari uchun majburiyligi;
- sudya lavozimining deputatlik mandati va partiyaga mansublikdan xoli ekanligi.

O'zbekiston Respublikasi sud va huquqni muhofaza qilish organlarining tizimi quyidagi asosiy bo'g'inlarni o'zida mujassamlashtiradi: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi; O'zbekiston Respublikasining Oliy sudi; O'zbekiston Respublikasining Oliy xo'jalik sudi; Qoraqalpog'iston Respublikasining Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi; viloyat, tuman, shahar sudlari va harbiy sudlar; O'zbekiston Respublikasining Bosh prokuraturasi; advokatura; Ichki ishlar vazirligi; Adliya vazirligi; Bojxona qo'mitasi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXII bobi «O'zbekiston Respublikasining sud hokimiyati» deb nomlanadi. Unda sud hokimiyatining mustaqilligi, sud tizimi, sudlarni tashkil etish va ular faoliyatining konstitutsiyaviy prinsiplari hamda sud hokimiyati faoliyati bilan bog'liq asosiy qoidalar belgilab qo'yildi. Sud hokimiyati to'g'risidagi konstitutsiyaviy normalar bir qator tarmoq qonunlarida rivojlantirilgan bo'lib, jumladan, O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonunining 2-moddasida sudning vazifalari belgilab qo'yilgan. Mazkur normaga ko'ra, «O'zbekiston Respublikasida sud O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarida, inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjatlarda e'lon qilingan fuqarolarning huquq va erkinliklari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari sud yo'li bilan himoya qilinadi. Sudning faoliyati qonun ustuvorligini, ijtimoiy adolatni, fuqarolar tinchligi va totuvligini ta'minlashga qaratilgandir».

Barcha rivojlangan mamlakatlarda bo'lganidek, mamlakatda Konstitutsiyaviy nazorat qilish vazifasini **Konstitutsiyaviy sud** amalga oshiradi. Ushbu sud qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning hujjatlari Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga

doir ishlarni ko'rganida va xulosalar berganida faqat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining normalariga rioya qilganligi uchun umumiy va xo'jalik yurisdiksiya sudlaridan farq qiladi.

Huquqiy davlatning asosiy belgisi, shuningdek rivojlanishni «O'zbek modeli»ning beshta asosiy prinsiplaridan biri — bu qonun ustuvorligidir. Konstitutsiya har bir davlatning Asosiy qonuni bo'lgani uchun birinchi navbatda unga amal qilishni ta'minlash lozim. Bu jarayonda asosiy vosita konstitutsiyaviy nazorat bo'lib, uni Konstitutsiyaviy sud amalga oshiradi. Bu organning faoliyatini Konstitutsiya va «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi qonun muvofiqlashtiradi. Konstitutsiyaviy sud Prezidentning Konstitutsiyaviy sud raisi, rais o'rinbosari, beshta mazkur sud a'zosidan (ulardan bittasi Qoraqalpog'istondan) iborat taqdim etgan tarkibda Oliy Majlis Senati tomonidan saylanadi.

Konstitutsiyaviy sud o'zining tashkil topgan — 1995-yilning dekabridan boshlab qonun chiqaruvchi va ijroiya hokimiyatlar aktlarini konstitutsiyaviyligi, ya'ni qonunlar, Oliy Majlis palatlari qarorlari, Prezident farmonlari, hukumat va mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlarini, mamlakatimizning davlatlararo shartnomalardagi boshqa majburiyatlarini Konstitutsiyaga muvofiq kelishini aniqlaydi. Bu ishlarni ko'rib chiqish natijasi sifatida Konstitutsiyaviy sud o'zining tegishli qarorini qabul qiladi.

Konstitutsiyaviy sudda qonunchilikda bir-biriga muvofiq kelmaydigan huquqiy me'yorlar mavjud bo'lsa, ularni aniqlashga doir faoliyat olib boradi. Bu kabi holatlarda u o'zining qonunchilik tashabbusi huquqidan foydalanib Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga qonun loyihalarini kiritadi. Undan tashqari, Konstitutsiyaviy sud Konstitutsiya va qonunlar me'yorlarini rasmiy sharhlarini, Qoraqalpog'iston Konstitutsiyasini O'zbekiston Asosiy qonuniga va Qoraqalpog'iston qonunlarini O'zbekiston qonunlariga muvofiq kelishi yoki kelmasligiga doir xulosalar beradi.

Konstitutsiyaviy sudning qarorlari barcha davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, shuningdek korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir.

Sud tizimining bo'g'ini — O'zbekiston Respublikasining milliy davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishiga muvofiq tashkil etilgan, bir xil vakolatlarga ega bo'lgan bir turdagi sudlarning majmuasidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 110-moddasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi fuqarolik, jinoiy va

ma'muriy sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organi hisoblanadi. Ta'kidlash lozimki, Oliy sud faqat umumiy yurisdiksiya sudlarining kichik tizimida oliy sudlov organi deb e'tirof etiladi. U tomonidan qabul qilingan hujjatlar qat'iy va O'zbekiston Respublikasining barcha hududida bajarilishi majburiydir.

O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni 13-moddasiga muvofiq Oliy sud uchta alohida protsessual xususiyatlarga egadir.

O'zbekistonda fuqarolik va ma'muriy sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyati ikkita mustaqil sud tizimlaridan iboratdir:

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi rahbarlik qiladigan umumiy yurisdiksiya sudlari;

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi rahbarlik qiladigan xo'jalik sudlari tomonidan amalga oshiriladi.

1991-yilgacha O'zbekistonda davlat organlarining maxsus tizimi — Hukumat va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga bo'ysunadigan davlat arbitrajlari tizimi o'z faoliyatini amalga oshirgan edi. Ular yuridik shaxslarning xo'jalik faoliyatiga doir nizolarni ko'rib chiqishardi. Aksariyat hollarda davlat arbitrajlari nizolarni hal qilish jarayonida qonuniylik prinsipiga emas, balki totalitar davlatga xos bo'lgan maqsadga muvofiqlik prinsipiga rioya qilishar, bu esa, xo'jalik yurituvchi subyektlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga imkon bermagan edi.

O'zbekiston davlati mustaqillikka erishganidan so'ng mulkchilikning turli shakllariga asoslangan xo'jalik yurituvchi subyektlarning va tadbirkorlarning huquq va manfaatlarini haqiqiy ta'minlash zarurligi oldin hakamlik sudlarini, keyinroq xo'jalik sudlarini tashkil etishni talab qildi. Xo'jalik sudlarining tashkil etilishi aslida sudlarning ixtisoslashuvi yo'lidagi birinchi qadam bo'ldi.

Hozirgi kunda Konstitutsiyaning 111-moddasiga muvofiq, mulkchilikning turli shakllariga asoslangan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar o'rtasidagi, shuningdek, tadbirkorlar o'rtasidagi, iqtisodiyot sohasida va uni boshqarish jarayonida vujudga keladigan xo'jalik nizolarini hal etish O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi va xo'jalik sudlari tomonidan ularning vakolatlari doirasida amalga oshiriladi[116].

Prezident I.A.Karimov mustaqillikning dastlabki davridayoq quriladigan yangi demokratik jamiyatning asosiy prinsiplaridan kelib chiqib quyidagi vazifani amalga oshirishga alohida urg'u

bergan edi: «Biz shunchaki demokratik jamiyat emas, demokratik odil jamiyat qurmoqchimiz... Adolat va haqiqat g'oyasi ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarini qamrab olmog'i darkor. Adolat va haqiqat g'oyasi qonunchilik faoliyatimizning zamini, bosh yo'nalishi bo'lmog'i shart»[117]. Yurtboshi jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlashni keng va chuqur ahamiyatini ochib beradi. U bu haqda quyidagi fikrni bildiradi: «Qonun ustuvorligini ta'minlash, shaxs, oila, jamiyat va davlatning huquq va manfaatlari muhofazasini kuchaytirish, aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini oshirish, fuqarolarni qonunga bo'ysunish va hurmat ruhida tarbiyalash — bu rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan chinakam demokratik, huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyati qurishning nafaqat maqsadi, balki uning vositasi, eng muhim sharti hisoblanadi»[118].

Mamlakatda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining asosiy prinsiplaridan biri bo'lgan — qonun ustuvorligini ta'minlashga shart-sharoitlar yaratish uchun dastlab sud-huquq tizimini demokratik prinsiplar talablari asosida chuqur isloh etish zarur edi. Shuning uchun ham davlatning bosh islohotchiligida mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab sud-huquq tizimini isloh etishga kirishildi. Bunda asosan sud hokimiyatini mustaqilligini shakllantirish, sud-huquq tizimini erkinlashtirish (liberallashtirish) va odil sudlovni samarasi va sifatini oshirishga asosiy e'tibor berildi. Albatta, bu islohotlar asosida jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, tinchlik va barqarorlikni saqlash, fuqarolarning qonuniy manfaatlari, erkinligi va huquqlarini saqlash kabi fuqarolik jamiyatiga xos bo'lgan shart-sharoitlarni shakllantirish yotgan edi.

Mustaqillik davrida O'zbekiston davlati sud-huquq tizimida BMT va boshqa xalqaro tashkilotlarning inson huquqlarini ta'minlashga qaratilgan hujjatlaridan kelib chiqib, bu sohadagi milliy tajriba asosida sudlov jarayonlarini erkinlashtirish choralarini ko'rdi. Sudda qandaydir jinoiy xatti-harakatlar uchun jazo berish va hukm chiqarishni qonunga binoan yuqori instansiya ko'rib chiqishi tartiboti o'rnatildi. Sud hukmidan norozi bo'lgan fuqarolar o'z manfaatlari va huquqlarini himoya qilish uchun apellatsiyaviy yoki kassatsiya instansiyalariga murojaat qilish, sud jarayonida o'z advokati bilan ishtirok etish, yuqori instansiyada sudning noto'g'ri hukmlarini rad etish kabi qator huquqlarga ega bo'ldi.

Mustaqillik davrida sud-huquq tizimini isloh etishning mazmun-mohiyati asosan quyidagilardan iborat bo'ldi: sud hokimiyatini bosqichma-bosqich mustahkamlab borish; sudning mustaqilligini ta'minlash; sudni sobiq tuzumda bo'lgani kabi qatag'on quroli va jazolash idorasi sifatidagi organ emas, balki inson va fuqaro huquq va erkinliklarini ishonchli himoya va muhofaza etishga xizmat qiladigan tom ma'nodagi mustaqil davlat institutiga aylantirish.

Qonun ustuvorligini ta'minlashning muhim qoidalaridan biri – bu sud jarayonida advokat bilan davlat qoralovchisining teng imkoniyatlarga ega bo'lishi, ularning sud natijalariga ta'sir o'tkazishi uchun teng huquqlarga ega bo'lishi hisoblanadi. Shuning uchun hozirgi davrga kelib mamlakatimizda prokuror va advokatning tengligini, jinoyat va fuqarolik ishlari bo'yicha sud faoliyatining barcha bosqichlarida o'zaro tortishuv bo'lishini ta'minlashga, odil sudlovning sifati va tezkorligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2008-yilda «Advokatura instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonunning qabul qilinishi bu borada g'oyat muhim ahamiyat kasb etdi. Shu asosda amaldagi qonunchiligimizga sud-huquq tizimini liberallashtirish, inson huquqlari himoyasini ta'minlash jarayonining eng muhim tarkibiy qismi bo'lgan advokatura mustaqilligini yanada mustahkamlashga qaratilgan bir qator o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

Mazkur qonunga muvofiq himoyachiga jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslardan mutlaqo mustaqil ravishda jinoyat ishi protsessining har qanday bosqichida malakali yuridik yordam ko'rsatish huquqi berildi.

Shu bilan birga, himoyachining ko'rilayotgan ishda ishtirok etish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlardan o'ziga ijozat berilgani to'g'risida yozma ravishdagi tasdiqlovchi hujjat va shuningdek, o'z himoyasidagi shaxs bilan uchrashish uchun ruxsat olish majburiyatini belgilaydigan normalar jinoyat-protsessual qonunchiligidan chiqarildi. Qonunda advokatning professional faoliyatiga to'sqinlik qilish, uning o'z himoyasi ostidagi shaxsga nisbatan pozitsiyasini o'zgartirish maqsadida har qanday shaklda ta'sir o'tkazishga qaratilgan harakatlar uchun javobgarlik belgilangani e'tirof etila boshlandi. Shu tariqa, jinoiy-huquqiy sohadagi siyosatni

takomillashtirishda jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini yanada liberallashtirish va insonparvarlik tamoyillariga muvofiqlashtirish eng muhim yo'nalishga aylandi.

Jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlashda 2001-yilda «Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida»gi Qonunning qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etib, u jamiyatda sud-huquq tizimida ulkan sotsial va ijtimoiy-siyosiy ahamiyat kasb etadigan o'zgarishlar bo'lishiga huquqiy asoslar yaratdi. Mazkur qonunga ko'ra, jinoyatlarning tasnifi o'zgartirildi. Buning natijasida og'ir va o'ta og'ir toifadagi jinoyatlarning qariyb 75 foizi ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar toifasiga o'tkazildi.

Iqtisodiyot sohasidagi jinoyat ishlari bo'yicha qamoq va ozodlikdan mahrum etish jazolari o'rniga jarima shaklidagi iqtisodiy sanksiyani qo'llash imkoniyati ancha kengaytirildi. Jinoiy jazo tizimidan insonparvarlik tamoyillariga mutlaqo zid bo'lgan mol-mulkni musodara qilish tarzidagi jazo turi chiqarib tashlandi. Jinoyat kodeksining 11 ta moddasiga yetkazilgan moddiy zararning o'rni qoplangan taqdirda ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanmasligi haqidagi qoidalar kiritildi[119].

Jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash maqsadida jinoiy jazolarni liberallashtirishga doir islohotlar natijasida O'zbekistonda 2010-yilga kelib qamoqdagilar soni jahon miqyosida eng past ko'rsatkichni, ya'ni har 100 ming nafar aholiga 166 kishini tashkil qildi. Qiyoslash uchun aytish mumkinki, Rossiyada bu ko'rsatkich 611 kishini, AQShda 738 kishini tashkil etadi. Mamlakatda 2000–2010-yillarda ozodlikdan mahrum qilish joylarida saqlanayotgan mahbuslar soni ikki barobardan ko'proq kamaydi.

Mamlakatda sud-huquq tizimini erkinlashtirishda jahon bo'ylab aks sado bergan muhim voqea – 2008-yil 1-yanvardan boshlab O'zbekistonda o'lim jazosini bekor qilinishi bo'ldi. Albatta, davlatning bu qarori Konstitutsiya tomonidan insonning yashash huquqini himoyalanganligini ifodalar edi. Shuningdek, «Xabeas korpus» institutining kiritilishi ham mamlakatda qonun ustuvorligini ta'minlash sohasida muhim voqea edi. Undan kelib chiqib, 2008-yildan boshlab oldini olish chorasi sifatida hibsga olishga sanksiya berish huquqi prokurordan sudlarga olib berildi.

O'tgan vaqt ko'rsatdiki, bu islohotlar qonun ustuvorligi prinsipini amalga oshirishda muhim o'rin tutdi, u insonning daxlsizligi, erkinligi va boshqa konstitutsiyaviy huquqlarini himoyalashda muhim omil bo'lib xizmat qildi.

Amaliyotga tomonlarning yarashishi, bir sulhga kelishiga bog'liq holda javobgarlikdan ozod qilishga imkoniyat yaratuvchi yarashtirish instituti kiritildi. Dastlab u shaxsning daxlsizligi, jamoat xavfsizligi va jamoat tartibini saqlashga tajovuz qiladigan jinoyatlarga nisbatan qo'llandi. Keyinchalik bu institut iqtisodiyot asoslariga qarshi qaratilgan ba'zi jinoyatlarga nisbatan ham qo'llana boshladi. Hozirgi davrga kelib u ellikdan ortiq jinoyat tarkiblariga qo'llanmoqda. U joriy etilgan paytdan boshlab 147 ming fuqaroga nisbatan qo'zg'atilgan jinoiy ishlar to'xtatildi.

Mamlakatda jinoiy-huquqiy sohani liberallashtirishga doir islohotlar tobora chuqurlashib borishi jarayonida jinoyat-protsessual qonunchiligiga tergov va shaxsni qamoqda saqlash muddatlari qisqartirishga doir o'zgartishlar kiritildi. Shuningdek, huquqni qo'llash va sud amaliyotiga 2001-yildan boshlab yarashuv instituti kiritildi va u o'zining samarasini bera boshladi. Yarashuv institutining talabiga ko'ra, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoiy qilmishni sodir etgan shaxs jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni to'liq qoplab bergan taqdirda jinoiy javobgarlikka tortilmaydi. Mazkur institutning samaradorligi hamda o'zbek xalqining rahmdillik va kechirimlilik kabi ko'p asrlik an'analariga mosligi uning izchillik bilan kengayib borishiga asos bo'ldi. Hozirgi davrda 53 ta jinoyat tarkibi bo'yicha yarashuv institutini qo'llash imkoniyati nazarda tutilgan. Yarashuv institutining joriy etilishi natijasida 2001—2010-yillarda 100 ming nafarga yaqin fuqaro jinoiy javobgarlikdan ozod etildi.

So'nggi o'n yilliklarda yurtimizda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida qonuniylikni ta'minlash borasida jiddiy ishlar amalga oshirildi. Birinchi navbatda, prokuratura faoliyatini isloh qilish, uni sobiq tuzum davrida bo'lganidek partiyaviy elita qo'lidagi jazolash quroli emas, balki qonunlarning qat'iy ijro etilishini, mamlakatimizda demokratik islohotlarning izchil rivojlanishini, inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoya qilinishini ta'minlaydigan organga aylantirishga doir chora-tadbirlar ko'rildi. Jumladan, 2001-yilda yangi tahrirda qabul qilingan «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunga muvofiq fuqarolar prokuror nazorati obyektlari qatoridan chiqarildi. Ayni paytda prokuraturaning inson

huquq va erkinliklari, uning qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlash uchun mas'uliyati oshirildi. Shuningdek, sud qarorlari ijrosini to'xtatib turish huquqi prokuratura vakolatlari doirasidan chiqarildi. Tuman va shahar prokurorlarining esa tergov va ayblanuvchini qamoqda saqlash muddatlarini uzaytirish huquqlari bekor qilindi[120].

Albatta, davlat tomonidan amalga oshirilgan sud-huquq tizimini isloh etish natijasida mamlakatda inson huquq va erkinliklarini ta'minlashning fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatga xos bo'lgan shart-sharoitlari yaratildi. Muhimi, mamlakatda qonun ustuvorligini ta'minlash umuminsoniy va milliy qadriyat sifatida fuqarolar dunyoqarashiga singib, jamiyat qadriyati sifatida namoyon bo'la boshladi.

4. Sud-huquq tizimini isloh etish va qonun ustuvorligini ta'minlash istiqbollari

Mamlakatda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda qonun ustuvorligining muhim o'rin tutishini e'tiborga olib, jamiyatda adolat o'rnatish, inson huquq va erkinliklarini himoyalashni yanada takomillashtirish, jamiyat barqarorligi va xavfsizligini ta'minlashni yanada mustahkamlash maqsadida Prezident I.A.Karimov ilgari surgan «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»da sud-huquq tizimini yanada takomillashtirishga doir qator tashkiliy-huquqiy choralar taklif etildi. Bu haqda Prezident I.A.Karimov quyidagi vazifalarni qo'ydi:

Birinchi. Bundan o'n yil oldin qabul qilingan amaldagi «Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi Qonunning yangi tahririni qabul qilishni bugun hayotning o'zi talab qilmoqda. Ya'ni, o'tgan davrda qonun ijodkorligi jarayoni kengaygani va murakkablashgani, normativ-huquqiy hujjatlarning asoslanganiga va sifatiga nisbatan talablar sezilarli darajada oshgani bu sohada qonuniylikni ta'minlashning yangi va yanada samarali mexanizmlarini yaratishni, qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning qonunlarga, sotsial-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy islohotlar ehtiyojlariga mos bo'lishini taqozo etmoqda.

Ikkinchi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 29- va 31-boblariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish taklif etiladi. Bu o'rinda sudga qadar ish yurituv bosqichida

qo'llanadigan choralar, ya'ni lavozimdan chetlashtirish va shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish tarzidagi protsessual majburlov choralarini faqat sudyaning sanksiyasi asosida qo'llash tartibi nazarda tutilmoqda.

Ushbu vakolatlarning prokurordan sud organlariga o'tkazilishi surishtiruv va dastlabki tergov jarayonida sud nazoratini kuchaytirish, jinoyat protsessida «Xabeas korpus» institutini qo'llash sohasini yanada kengaytirish imkonini beradi. Eng muhimi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida umume'tirof etilgan prinsiplar va xalqaro huquq normalarining amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Uchinchi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 439-moddasiga o'zgartish kiritish va unga muvofiq birinchi instansiya sudida ish bo'yicha ayblov xulosasini o'qib eshittirish majburiyatini faqat prokuror zimmasiga yuklashni nazarda tutadigan norma o'rnatish taklif etiladi. Chunki amaldagi qonunchilikda davlat ayblovchisi, ya'ni prokurorning sud majlisida ayblov xulosasini o'qib eshittirish bo'yicha majburiyati aniq belgilanmagan. Shuning uchun ayblov xulosasi ko'pincha sudyalar tomonidan o'qib eshittiriladi. Bu esa sudning vazifa va maqsadlariga mos kelmaydi. Jinoyat-protsessual qonunchiligiga yuqorida ko'rsatib o'tilgan normaning kiritilishi sudning mustaqilligi, xolisligi va beg'arazligini ta'minlashga, jinoyat protsessida tortishuv prinsipini kuchaytirishga xizmat qiladi.

To'rtinchi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 321-moddasidan sudning jinoyat ishi qo'zg'atishga doir vakolatini chiqarish maqsadga muvofiq bo'lur edi. Ma'lumki, jinoyat ishini qo'zg'atish avvalo surishtiruv va dastlabki tergov organlari, jinoiy ta'qibni amalga oshiradigan boshqa huquq-tartibot organlarining vazifasi hisoblanadi. Suddan esa shaxsga qo'yilgan ayblovning qonuniy va asosli ekanini xolis baholash talab etiladi.

Vaholanki, hozirgi paytda sud tomonidan jinoyat ishini qo'zg'atish tarzidagi protsessual harakatning amalga oshirilishi mohiyatan jinoiy ta'qibning va undan kelib chiqadigan barcha oqibatlarning boshlanishi hisoblanadi. Bu esa sudni jinoiy ta'qib ishtirokchilari toifasiga kiritib qo'yadi. Aytish kerakki, bunday amaliyot sudning oliy maqsadi bo'lgan odil sudlovni amalga oshirish tamoyiliga mutlaqo mos kelmaydi.

Beshinchi, Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish prinsiplari, asoslari, shakl va uslublari, uni olib boradigan organlar

tizimini belgilab beradigan «Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida»gi Qonunni qabul qilish taklif etiladi. Ushbu qonunning maqsadi tezkor-qidiruv xususiyatidagi tadbirlarni o'tkazishda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, qonuniylikka rioya qilishning real huquqiy kafolatlarini yaratishga yo'naltirilgan. Bu qonunning qabul qilinishi demokratik davlatlarning umume'tirof etilgan amaliyotiga mos keladi. Ta'kidlash kerakki, bu qonun jinoyatlar sodir etilishining dastlabki bosqichlaridayoq ularning oldini olish va o'z vaqtida to'xtatish bo'yicha choralarning samaradorligini, shuningdek, surishtiruv va dastlabki tergovning sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ayni paytda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning, avvalambor, ichki ishlar idoralarining bu sohadagi faoliyatining yanada liberallashuvini ta'minlashga olib keladi.

Oltinchi. Faol rivojlanib borayotgan demokratlashtirish jarayonlarini inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksini har tomonlama qayta ishlash va yangi tahrirda qabul qilish zarur.

Bunda avvalambor jinoyat qonunchiligini tobora liberallashtirish, ya'ni, ayrim qonunbuzarlik holatlarini jinoiy yurisdiksiyadan ma'muriy yurisdiksiyaga o'tkazishni ko'zda tutish zarur. Kodeksning yangi tahrirda qabul qilinishi bugungi kunda o'nlab normativ-huquqiy hujjatlarda o'z aksini topgan ma'muriy javobgarlikka oid qonunchilikning unifikatsiyalashuvini, ya'ni bir xillashuvini ta'minlaydi.

Shuningdek, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rishning protsessual mexanizmlarini takomillashtirish, demokratlashtirish, bu sohada qonuniylikni ta'minlash va fuqarolarning huquqlarini ishonchli himoyalash bo'yicha choralarni ham mazkur kodeksda ko'zda tutish lozim.

Yettinchi. Rivojlangan demokratik davlatlar tajribasini inobatga olgan holda, davlat hokimiyati idoralari, huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalar, shu jumladan, prokuratura faoliyatida qonunchilik talablariga rioya qilish va qonun ustuvorligini ta'minlash bo'yicha adliya organlarining rolini yanada kuchaytirishga qaratilgan yangi huquqiy mexanizmlarni o'rnatadigan hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilish talab etilmoqda.

Adliya organlarining huquq ijodkorligi sohasi va huquqni qo'llash amaliyotida yagona davlat siyosatini o'tkazishdagi rolini kuchaytirish uchun ularga zarur bo'lgan tegishli vakolatlarning berilishi mamlakatimizda huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat

organlari tizimida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali mexanizmini yaratish imkonini beradi hamda ushbu organlar faoliyatida qonuniylik va qonun ustuvorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Sakkizinchi. Jamiyatning demokratiya yo'lidan jadal rivojlanishi va bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan odamlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyat darajasiga bog'liqdir. Yuksak huquqiy madaniyat — demokratik jamiyat poydevori va huquqiy tizimning yetuklik ko'rsatkichidir.

Shu munosabat bilan, bugungi siyosiy-huquqiy voqelikni hisobga olgan holda, mamlakatimizda huquqiy ta'lim va ma'rifatni, jamiyatda huquqiy bilimlar targ'ibotini tubdan yaxshilashga yo'naltirilgan maqsadli keng ko'lamli chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish zarur. Ushbu dasturning amalga oshirilishi aholining inson huquq va erkinliklariga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishini, fuqarolarda qonunga itoatkorlik tuyg'usining yanada ortishini ta'minlaydi, deb o'ylayman[121].

2010—2014-yillarda mazkur Konsepsiyaga muvofiq, sud-huquq tizimini yanada isloh etish, jamiyatni rivojlantirish va demokratlashtirishning muhim tarkibiy qismi sifatida sudlarning mustaqilligi va erkinligini mustahkamlash, qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini ta'minlashga doir ulkan ishlar amalga oshirildi. Avvalo, prokuratura organlarining sud hokimiyati ustidan nazorat funksiyalari to'liq bekor qilindi, prokuratura vakolatlaridan sud qarorlari ijrosini to'xtatib turish huquqi chiqarildi. Jinoyat ishini yuritishda sud nazoratini mustahkamlash, himoya va ayblov tortishuvini ta'minlash tizimi va mexanizmlarini takomillashtirishda «Xabeas korpus» instituti qo'llanishini kengaytirish bo'yicha qonun hujjatlari amalga oshirildi.

«Mamlakatda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish» konsepsiyasidagi qonunchilik tashabbuskorligiga binoan fuqarolarni mansabdan ozod etish, tibbiyot muassasasiga joylashtirish kabi protsessual majburlashlar faqat sud roziligi bilan amalga oshirish amaliyotini o'rnatish mo'ljallanmoqda.

Birinchi instansiya sudida sudlarning jinoiy ish qo'zg'ashini istisno etadigan va ayblov xulosasini e'lon qilishni faqat davlat

qoralovchisiga yuklagan majburiyatni ifodalagan O'zbekiston Jinoyat-protsessual kodeksining 321- va 439-moddalariga ham tegishli to'ldirishlar va o'zgartishlar kiritildi. Bu o'zgartishlar milliy qonunchilikni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasi va xalqaro huquq me'yorlariga muvofiqlashtirish maqsadida amalga oshirildi. Ma'lumki, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 10-moddasiga muvofiq, har bir inson o'z huquq va majburiyatlarini aniqlash va o'ziga nisbatan qo'yilgan jinoiy ayblovni asoslanganligini aniqlash uchun o'z ishini to'liq tenglik asosida oshkora tarzda, mustaqil va xolis sud tomonidan adolatning barcha talablari asosida ko'rishini talab etish huquqiga egadir. Albatta, bu inson huquqi qonun ustuvorligini ta'minlash prinsipini amalga oshirishning asosiy mezoni – adolat prinsiplarini hayotda amalga oshishini ta'minlab beradi.

Hozirgi davrga kelib O'zbekiston qonun ustuvorligini ta'minlash, huquq-tartibot va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha yetakchi besh mamlakat qatoridan o'rin olganligi xayratlanarli bir holdir. Bu haqda 2014-yil 24-aprelda matbuot tarqatgan xabarlarga ko'ra jahon miqyosida qonun ustuvorligining navbatdagi Indeksini e'lon qilgan The World Justice Project mustaqil xalqaro tashkilotining yillik hisobotida e'lon qilingan. Unga binoan, bu sohada davlatlarga baho berishda «Tartib va xavfsizlik» yo'nalishiga bosh mezonlardan biri sifatida yondashilib, uning doirasida xalqaro ekspertlar dunyoning 99 mamlakatidagi tartib va xavfsizlik bilan bog'liq vaziyatni ko'rib chiqishadi, ushbu mamlakatlardagi huquqiy muhitni, jamiyat va davlatning o'zaro hamkorligini, mustaqil va xolis sudlarning mavjudligini, huquq-tartibot organlari nechog'li samarali faoliyat yuritishini va boshqa omillarni tadqiq qiladi.

Unda davlatlarning yutuqlari, avvalo, jinoyatchilikka qarshi kurashish, siyosiy zo'ravonlik, shu jumladan, terrorizm, qurolli to'qnashuvlar va siyosiy tartibsizliklar, shuningdek, huquq-tartibot organlari va jinoiy odil sudlov tizimiga nisbatan ishonchning yo'qotilishi oqibatida yuzaga keladigan zo'ravonlikning oldini olish borasida huquq ustuvorligini ta'minlash bo'yicha asosiy tamoyilga rioya qilinishining samaradorligiga ko'ra baholangan.

Mazkur Indeksda ushbu omil bo'yicha Yaponiya birinchi o'rinni egallagan. Ikkinchi o'rin Singapurga berilgan. Uchinchi o'rinni O'zbekiston, Daniya va Gonkong egallagan. O'zbekistondan keyingi o'rinlarda AQSh, Belgiya, Norvegiya, Esto-

niya, Qozog'iston, Rossiya va boshqa mamlakatlar qayd etilgan. Ekspertlarning fikricha, «mazkur mustaqil xalqaro tashkilotning yuqori bahosiga sazovor bo'lgan O'zbekistondagi huquq-tartibot va xavfsizlik mustaqillik yillarida izchil va bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan va ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy sohalardagi eng dolzarb masalalarni samarali hal etishga yo'naltirilgan tizimli, keng ko'lamli islohotlar natijasidir. Bunda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlar asosini demokratik huquqiy davlatning muhim tamoyillaridan biri — qonun ustuvorligi tashkil etadi» [122].

Hisobotda ta'kidlanishicha, qonun ustuvorligi jamiyatning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlaydi, dunyoning barcha mamlakatlari hukumatlarining mas'uliyatini kuchaytirishga ko'maklashadi va insonning asosiy huquqlariga nisbatan hurmatni oshiradi. Mazkur Indeks ilk marotaba 2010-yilda e'lon qilingan bo'lib, matbuotning xabar berishicha, u jahonning turli mamlakatlarida o'tkazilgan ijtimoiy so'rovlar natijalariga va ekspert manbalarini o'rganishga asoslangan noyob tadqiqotdir.

Albatta, bu holat O'zbekiston mamlakatini inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, qonun ustuvorligini ta'minlash, huquqiy davlatga xos bo'lgan sud-huquq tizimini shakllantirish sohasida qisqa davr — mustaqillik davri ichida asrlarga teng bo'lgan yo'lni bosib o'tganligini anglatadi.

Takrorlash uchun savollar:

1. «Qonun ustuvorligi» deganda nimani tushunasiz?
2. Hokimiyatning uchga bo'linish prinsipi qonun ustuvorligini ta'minlashda qanday rol o'ynaydi? U O'zbekistonda qanday namoyon bo'lmoqda?
3. Qonun ustuvorligi fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishda qanday ahamiyat kasb etadi?
4. O'zbekistonda sud-huquq tizimini demokratlashtirish sohasida qanday tub o'zgarishlar amalga oshirildi?
5. O'zbekistonda sud-huquq tizimini isloh qilish va qonun ustuvorligini ta'minlash istiqbollari qanday?

8-mavzu: DAVLAT HOKIMIYATI VA BOSHQARUVINI DEMOKRATLASHTIRISH

1. O'zbekiston Respublikasi markaziy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari.
2. O'zbekistonda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish jarayoni.
3. Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish islohotlarining yanada chuqurlashuvi.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish asosiy strategik pirovard maqsad sifatida e'lon qilinishi natijasida mamlakat ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotida tub o'zgarishlarni amalga oshirishga doir islohotlar yanada chuqurlashdi. Ayniqsa, islohotlarning o'zagini tashkil etgan davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish jarayonlarini amalga oshirishga ustuvor yo'nalish sifatida muhim e'tibor bera boshlandi. Zero, rivojlangan mamlakatlar tajribasi davlatni o'zini demokratlashtirmasdan turib fuqarolik jamiyati qurishning asla mumkin emasligini isbotlab berdi.

Mamlakatda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirishning yangi bosqichi Prezident I.A.Karimov tomonidan ilgari surilgan «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi» g'oyalarida mujassamlashgandir. Prezident I.A.Karimov mamlakatning rivojlanish istiqbolini quyidagicha ta'riflaydi: «Faqatgina biz tanlagan bosqichma-bosqich, tadrijiy rivojlanish yo'li xalqimiz ko'zlagan ezgu niyatlarga erishishga, zamonaviy demokratik talablarga javob beradigan davlat, inson manfaatlari, huquq va erkinliklari eng oliy qadriyat bo'lgan, qonun ustuvorligini ta'minlaydigan jamiyat barpo etishga olib kelishi muqarrar»[123].

Konsepsiya o'z mohiyat e'tiboriga ko'ra, uzoq muddatga mo'ljallangan Dastur bo'lib, unda O'zbekistonning dunyodagi rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirishi uchun huquqiy asoslar va shart-sharoitlar yaratishning, shu bilan birga, mamlakatda zamonaviy fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishning konseptual strategiyasidir. Unda dastlab, mamlakatda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish istiqbollari belgilab berildi.

1. O'zbekiston Respublikasi markaziy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti. O'zbekistonda davlat boshqaruvining shakli Prezidentlik Respublikasidir. O'zbekiston davlati tarixida Prezidentlik Respublikasi shaklidagi davlat boshqaruvi dastlab 1990-yil 24-martda ta'sis etildi va birinchi bo'lib I.A.Karimov Prezident bo'lib saylandi. 1991-yil 18-noyabrda «O'zbekiston Prezidenti saylovi to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi. Mustaqillik davrida Prezidentlik instituti to'la shakllandi. O'zbekiston Konstitutsiyasi 19-bobining 89-moddasiga ko'ra, «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat boshlig'idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlaydi»[124]. Prezidentlik lavozimiga 35 yoshdan kichik bo'lmagan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovgacha kamida 10 yil O'zbekiston hududida muqim yashagan O'zbekiston fuqarosi saylanishi mumkin. Ayni bir shaxs surunkasiga ikki martadan ortiq prezident bo'lishi mumkin emas. Prezident fuqarolar tomonidan umumiy, teng va to'g'ridan to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan 5 yil muddatga saylanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti quyidagi vakolatlarga egadir:

1) fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining kafilidir;

2) O'zbekiston Respublikasining suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini muhofaza etish, milliy davlat tuzilishi masalalariga doir qarorlarni amalga oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'radi;

3) mamlakat ichkarisida va xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi nomidan ish ko'radi;

4) muzokaralar olib boradi hamda O'zbekiston Respublikasining shartnoma va bitimlarini imzolaydi, respublika tomonidan tuzilgan shartnomalarga, bitimlarga va uning qabul qilingan majburiyatlariga rioya etilishini ta'minlaydi;

5) o'z huzurida akkreditatsiyadan o'tgan diplomatik hamda boshqa vakillarning ishonch va chaqiruv yorliqlarini qabul qiladi;

6) O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini tayinlash uchun nomzodlarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdim etadi;

7) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga har yili mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining, ichki va tashqi siyosatining eng muhim masalalari yuzasidan ma'ruzalar taqdim etadi;

8) respublika oliy hokimiyat va boshqaruv organlarining bahamjihat ishlashini ta'minlaydi; vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzadi va tugatadi, shu masalalarga doir farmonlarni keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tasdig'iga kiritadi;

9) Senat Raisi lavozimiga saylash uchun nomzodni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdim etadi;

10) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari ko'rib chiqishi va tasdiqlashi uchun O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini taqdim etadi;

11) O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a'zolarini tasdiqlaydi;

12) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va Hisob palatasi raisini tayinlaydi va ularni lavozimidan ozod qiladi, keyinchalik bu masalalarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tasdig'iga kiritadi;

13) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga Konstitutsiyaviy sud raisi va sudyalari, Oliy sud raisi va sudyalari, Oliy xo'jalik sudi raisi va sudyalari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining raisi, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining raisi lavozimlariga nomzodlarni taqdim etadi;

14) viloyat, tumanlararo, tuman, shahar, harbiy va xo'jalik sudlarining sudyalarini tayinlaydi va lavozimlaridan ozod etadi;

15) O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimiga binoan viloyatlar hokimlarini hamda Toshkent shahar hokimini qonunga muvofiq tayinlaydi hamda lavozimidan ozod etadi. Konstitutsiyani, qonunlarni buzgan yoki o'z sha'ni va qadr-qimmatiga dog' tushiradigan xatti-harakat sodir etgan tuman va shahar hokimlarini Prezident o'z qarori bilan lavozimidan ozod etishga haqli;

16) respublika davlat boshqaruv organlarining, shuningdek hokimlarning qabul qilgan hujjatlarini to'xtatadi, bekor qiladi,

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlislarida raislik qilishga haqli;

17) O‘zbekiston Respublikasining qonunlarini imzolaydi va e’lon qiladi; qonunga o‘z e’tirozlarini ilova etib, uni takroran muhokama qilish va ovozga qo‘yish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qaytarishga haqli;

18) O‘zbekiston Respublikasiga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug‘ilganda urush holati e’lon qiladi va qabul qilgan qarorini uch kun ichida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining tasdig‘iga kiritadi;

19) favqulodda vaziyatlar (real tashqi xavf, ommaviy tartibsizliklar, yirik halokat, tabiiy ofat, epidemiyalar) yuz bergan taqdirda fuqarolarning xavfsizligini ta’minlashni ko‘zlab, O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning ayrim joylarida favqulodda holat joriy etadi va qabul qilgan qarorini uch kun ichida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tasdig‘iga kiritadi. Favqulodda holat joriy etish shartlari va tartibi qonun bilan belgilanadi;

20) O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh qo‘mondoni hisoblanadi, Qurolli Kuchlarning oliy qo‘mondonlarini tayinlaydi va vazifasidan ozod qiladi, oliy harbiy unvonlar beradi;

21) O‘zbekiston Respublikasining ordenlari, medallari va yorlig‘i bilan mukofotlaydi, O‘zbekiston Respublikasining malakaviy va faxriy unvonlarini beradi;

22) O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga va siyosiy boshpana berishga oid masalalarni hal etadi;

23) amnistiya to‘g‘risidagi hujjatlarni qabul qilish haqida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdimnoma kiritadi va O‘zbekiston Respublikasining sudlari tomonidan hukm qilingan shaxslarni avf etadi;

24) O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatini tuzadi. Milliy xavfsizlik xizmati raisini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi, keyinchalik shu masalalarga doir farmonlarni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tasdig‘iga kiritadi;

25) Konstitutsiya va O‘zbekiston Respublikasining qonunlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Prezident o‘z vakolatlarini bajarishni davlat idoralariga yoki mansabdor shaxslarga topshirishga haqli emas.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 94, 95 va 97-moddalariga binoan quyidagi vakolatlarga egadir:

94-modda. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Konstitutsiyaga va qonunlarga asoslanib hamda ularni ijro etish yuzasidan respublikaning butun hududida majburiy kuchga ega bo'lgan farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

95-modda. Qonunchilik palatasi yoki Senat tarkibida ularning normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib bo'lmaydigan ixtiloflar yuz berganda yoxud ular bir necha marta O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga zid qarorlar qabul qilgan taqdirda, shuningdek Qonunchilik palatasi bilan Senat o'rtasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib bo'lmaydigan ixtiloflar yuz berganda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi bilan bamaslahat qabul qilgan qarori asosida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi, Senati tarqatib yuborilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi, Senati tarqatib yuborilgan taqdirda yangi saylov uch oy mobaynida o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati favqulodda holat joriy etilgan davrda tarqatib yuborilishi mumkin emas.

97-modda. Vakolati tugashi munosabati bilan iste'foga chiqqan Prezident umrbod Senat a'zosi lavozimini egallaydi[125].

O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi (Parlament). O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan — Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati vakolat muddati — besh yil. Unga 25 yoshga yetgan O'zbekiston fuqarolari saylanish huquqiga egadir.

Prezident I.A. Karimov tomonidan ikki palatali milliy parlamentni tashkil qilish g'oyasi 2000-yil 25-mayda Oliy Majlisning 2-sessiyasida ilgari surildi: «Shuni yaxshi anglab olishimiz zarurki, hayot o'zgarishi bilan, odamlarimizning avvalgi siyosiy va ma'naviy ongi ulg'ayishi bilan, bizning parlamentimizning tashkil etilishida ham, uning faoliyatida ham tegishli o'zgarishlar bo'lishi tabiiydir. Shu holatlarni nazarda tutib,

men doimiy asosda ishlaydigan ikki palatali parlament tizimiga o'tish taklifini kiritmoqchiman, ya'ni biz 2004-yilda bo'ladigan saylovlarda parlamentni ikki palatali qilib tashkil etishimiz lozim»[126].

2004-yildan buyon O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi qonunga muvofiq saylanadigan bir yuz yigirma deputatdan iborat bo'lishi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati hududiy vakillik palatasi bo'lib, Senat a'zolaridan (senatorlardan) iborat. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda — olti kishidan saylanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o'n olti nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan hamda alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78-moddasiga muvofiq Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatlari quyidagilardan iboratdir:

1) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish, unga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish;

2) O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy va boshqa qonunlarini qabul qilish, ularga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish;

3) O'zbekiston Respublikasining referendumini o'tkazish to'g'risida va uni o'tkazish sanasini tayinlash haqida qaror qabul qilish;

4) O'zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilash hamda davlat strategik dasturlarini qabul qilish;

5) O'zbekiston Respublikasi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hamda sud hokimiyati organlarining tizimini va vakolatlarini belgilash;

6) O'zbekiston Respublikasi tarkibiga yangi davlat tuzilmalarini qabul qilish va ularning O'zbekiston Respublikasi tarkibidan chiqishi haqidagi qarorlarni tasdiqlash;

7) boj, valuta va kredit ishlarini qonun yo'li bilan tartibga solish;

8) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetini qabul qilish va uning ijrosini nazorat etish;

9) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni joriy qilish;

10) O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalarini qonun yo'li bilan tartibga solish, chegaralarini o'zgartirish;

11) tumanlar, shaharlar, viloyatlarni tashkil etish, tugatish, ularning nomini hamda chegaralarini o'zgartirish;

12) davlat mukofotlari va unvonlarini ta'sis etish;

13) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vazirliklar, davlat qo'mitalari va davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzish hamda tugatish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash;

14) O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasini tuzish;

15) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini ko'rib chiqish va tasdiqlash, shuningdek mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining dolzarb masalalari yuzasidan Bosh vazirning hisobotlarini eshitish va muhokama qilish;

16) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili va uning o'rinbosarini saylash;

17) O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining hisobotini ko'rib chiqish;

18) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasiga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug'ilganda urush holati e'lon qilish to'g'risidagi farmonini tasdiqlash;

19) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining umumiy yoki qisman safarbarlik e'lon qilish, favqulodda holat joriy etish, uning amal qilishini uzaytirish yoki tugatish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash;

20) xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya va denonsatsiya qilish;

21) ushbu Konstitutsiyada nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senatining mutlaq vakolatlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 79–80-moddalarida belgilab qo'yilgan[127].

O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi (ijro etuvchi hokimiyat). O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolatlari va huquqiy maqomi quyidagilardan iboratdir:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, uning o'rinbosarlari, vazirlar, davlat qo'mitalarining raislaridan iborat. Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatining boshlig'i Vazirlar Mahkamasi tarkibiga o'z lavozimi bo'yicha kiradi.

Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlaydi.

Vazirlar Mahkamasi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining butun hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi, uning samarali ishlashi uchun shaxsan javobgar bo'ladi, Vazirlar Mahkamasining majlislariga raislik qiladi, uning qarorlarini imzolaydi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining topshirig'iga binoan xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi nomidan ish ko'radi, O'zbekiston Respublikasi qonunlarida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlarida nazarda tutilgan boshqa vazifalarni bajaradi.

Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oldida javobgardir[128].

Mustaqillik yillarida Vazirlar Mahkamasi, ya'ni ijroiya hokimiyat — hukumat tarkibi 4 marta yangidan tasdiqlandi. Oxirgi, ya'ni to'rtinchi marta 2010-yil 12-martda Vazirlar Mahkamasi tarkibi quyidagi tartibda belgilandi: Vazirlar Mahkamasi a'zolari — 8 ta, vazirliklar — 14 ta, davlat qo'mitalari — 9 ta[129], jami 31 ta.

2. O'zbekistonda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish jarayoni

Ba'zi olimlar fikricha, siyosiy rahbarlik ijtimoiy boshqaruvning alohida namoyon bo'lishidir. Siyosatni boshqaruvdan, boshqaruvni esa siyosatdan ajratib bo'lmaydi. Shuningdek, boshqaruv tashkilotning yoki jamiyatning yaxlitligi va barqarorligiga erishish vositasidir. Shuningdek, hokimiyat ijtimoiy boshqaruvning zaruriy shartidir. Boshqaruv o'zini o'zi boshqaruvdan farq qilib, qonunlar, rahbarlar, boyliklar ko'rinishidagi maxsus tashkil etilgan tartibga soluvchi mexanizmlar yordamida insonlarga ongli ravishdagi legitim ta'sir sifatida paydo bo'ldi. Keyinchalik boshqaruvga insoniylik, maqsadga muvofiqlik va oqilona g'oyalar ta'sirida jamiyat maqsadlariga erishish vositasi sifatida qarala boshlandi[130]. Yana ba'zi talqinlarda esa boshqaruv — subyektlar va organlar tomonidan odamlarga nisbatan ongli maqsadga muvofiq holdagi ta'siri va iqtisodiy subyektlarning esa ular xatti-harakatini yo'naltirish va kutilgan natijalarni olishga qaratilgan maqsadlardagi ta'siridir[131].

O'zbekistonda davlat boshqaruvi — ijrochilik faoliyati yuritish xususiyatiga ega bo'lgan davlat hokimiyati faoliyatini amalga oshirishning yagona ko'rinishidir. Bunday boshqaruv birinchi galda, qonunlar, Prezident farmonlari, qaror va farmoyishlarini hayotga joriy etishga qaratilgan. Davlat boshqaruvi xo'jalik, ijtimoiy-madaniy va ma'muriy-siyosiy sohalarga rahbarlik qilish jarayonida amalga oshiriladi. Davlat boshqaruvi ma'lum bir maqsad va vazifalarga qaratilgan bo'lib, bir qator funksiyalarga tayanadi. Davlat boshqaruvi organlarining o'ziga xos funksiyalari quyidagilar:

Istiqbolni belgilash funksiyalari — ilmiy ma'lumotlar va qo'lga kiritilgan yutuqlarga asoslangan holda, qandaydir hodisa yoki jarayonlarning rivojlanishidagi o'zgarishlarni oldindan ko'ra bilish.

Rejalashtirish — u yoki bu faoliyatning yo'nalishlari, maqsad, vazifasi, reja va ko'rsatkichlarini aniqlash, u yoki bu jarayonlarni (iqtisodiy, madaniy va boshq.) rivojlantirish.

Tashkil etish — boshqaruv va boshqariluvchi tizimni tashkil etishni ta'minlash. Tashkil etish funksiyasi — biror tizim, uning bo'laklari, joylashuvi, ularning o'zaro aloqasi va har bir bo'lakning funksiyasi nimadan iborat ekanligini aniqlab beradi.

Tartibga solish — qandaydir faoliyat, u yoki bu harakatlarni amalga oshirish tartibini o'rnatish.

Muvofiqlashtirish — ma'lum bir maqsadga erishish uchun turli organlar, korxona, muassasa va tashkilotlarning o'z harakatlarini o'zaro kelishuv asosida amalga oshirishlari.

Nazorat — davlat boshqaruvining nazorat qilish funksiyasi bilan hisobga olish funksiyasi bir-biri bilan o'zaro chambarchas bog'liqdir. Hisobga olish orqali resurslar soni, xarajatlar, hujjatlarning harakati, qarorlar ijrosi natijalari aniqlanadi.

Mustaqillik davrida davlat hokimiyati organlari va boshqaruvini demokratlashtirishga mamlakatning strategik pirovard maqsadi — fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishning tarkibiy qismi sifatida qaraldi. Ayniqsa, davlat hokimiyati organlari va boshqaruvini demokratlashtirishning asosiy omili bo'lgan nomarkazlashtirish islohotlarini amalga oshirish natijasida bu sohada tub o'zgarishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, 2004-yillarda yanada chuqurlasha boshlagan nomarkazlashtirish islohotlari doirasida qator davlat organlari funksiyalari va vakolatlari qayta ko'rib chiqildi, ular vakolatlarining bir qismi quyi davlat hokimiyat organlari va fuqarolik jamiyati institutlariga berila boshlandi.

Markaziy davlat va xo'jalik boshqaruv organlarining ko'plab vakolatlari va funksiyalari mahalliy davlat hokimiyati organlariga uzatildi. Ular, asosan nazorat va tekshiruvni amalga oshirish, litsenziya berish, standartlar belgilash, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, ularning sifatini kuzatib borish bilan bog'liq vakolatlardan iborat bo'ldi. Mustaqillikning dastlabki o'n yilligida oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi sohasi vazirlik va viloyat hokimligi boshqaruvi darajasida belgilanib, ulardan moliyalashtirish va inson resurslarini joylashtirish kabilar viloyat hokimliklari vakolati sifatida belgilangan edi. O'rta ta'lim tizimini boshqarishda tuman va shahar hokimliklari joriy boshqaruv jarayonini muvofiqlashtirish, resurslarni joylashtirish, monitoring olib borish kabi vakolatlarga ega edi. Shuningdek, markaziy davlat organlarining atrof-muhitni himoya qilish, avtomobil va yo'lovchi tashuvchi transportni tartibga solish, aholiga kommunal va boshqa xizmatlar ko'rsatish (chunonchi, ko'p bolali, kam ta'minlangan oilalar, nogironlarni qo'llab-quvvatlash) kabi boshqaruv vakolatlari va funksiyalari mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga berildi. Bularning bari mahalliy o'ziga xosliklarni yanada to'liqroq hisobga olish, funksiyalarni bajarishda operativlikni oshirish va oxir-oqibatda, mahalliy aholi hayotini yaxshilash imkonini beradi.

Albatta, mamlakatda boshqaruv va hokimiyat organlarini nomarkazlashtirishning samarasi jamiyatning barcha sohalarida

sezilishi uchun markaziy hokimiyat organlarini nomarkazlashtirishni, inson taraqqiyoti parametrlarini o'zgartirishni, bu sohada qonunchilikni rivojlantirish, iqtisodiy va tashkiliy yo'nalishlar bo'yicha shart-sharoitlar yaratib berishini taqazo etdi. Shuning uchun ham bu davrda o'zini o'zi boshqarish, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga doir qonunchilik asoslari yanada rivojlantirildi. Ayniqsa, o'zini o'zi boshqarish organlarida faoliyat yuritadigan xodimlar soni ko'paytirildi. Mahalla posboni, ma'naviy-ma'rifiy ishlar olib borish bilan shug'ullanuvchi oqsoqolning maslahatchisi kabi oylik maoshi olib ishlaydigan lavozimlar joriy etildi. Mahalla fuqarolar yig'ini oqsoqoli va kotibining ijtimoiy ahvolini yaxshilashga doir imtiyozlar berildi. Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari idoralari va mahalla guzarlari qurildi, shu kabi obyektlarga ega mahallalar guzarlari qaytadan zamonaviy talablar asosida ta'mirlandi. Mahalla guzarlarida aholiga dastlabki maishiy xizmat ko'rsatishga doir xizmat ko'rsatish majmualari shakllandi.

Davlat hokimiyati organlari va boshqaruvini nomarkazlashtirish islohotlari sohasidagi tub o'zgarishlar 2004-yildan boshlandi. Bunda asosan «markaz — hududlar», «davlat — xususiy tarmoq», «davlat — fuqarolik jamiyati» munosabatlarida ko'proq gorizontal o'zaro munosabatlar ahamiyatini oshirish, quyi organlarga nisbatan mustaqillik berishga doir vakolatlar berila boshlandi.

Shuningdek, O'zbekistonda nomarkazlashtirish islohotlarini olib borishda quyidagi milliy an'analar va tajribalar e'tiborga olindi:

- individualizmdan jamoachilikni ustuvor qo'ygan milliy qadriyatlar va an'analar;
- qadimdan shakllangan davlat organlari va mansabdorlariga hurmat bilan qarash va ularga ishonch bildirish;
- davlat olib borayotgan islohotlar natijalarini chuqur anglash, bu jarayonga xayrixohlik bilan munosabatda bo'lish;
- jamiyatda keksalar va ayollarga hurmat bilan qarash, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga nisbatan g amxo'rlik qilish tuyg'ularining mavjudligi;
- jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga nisbatan o'ta xayrixohlik.

Mamlakatda davlat hokimiyati organlari va boshqaruvini nomarkazlashtirish jarayonida bu sohaga mutasaddi bo'lgan hukumat komissiyasiga davlat boshqaruvi organlari vakolatlarini

qaytadan taqsimlab chiqish vazifasi topshirilgan edi. Bunda asosan bir xil vakolatlarni bajarayotgan organlarni aniqlash, ular vakolatlarini bir-biridan ajratish, hokimiyat va boshqaruv organlarining tadbirkorlik faoliyatiga aralashuvini cheklash, davlat hokimiyati organlari faoliyatini qonunlarda belgilangan doiralardan chiqmasligini ta'minlash kabilarga jiddiy e'tibor qaratildi. Islohotlar natijasida 2004-yildan boshlab bu sohada quyidagilarga erishildi:

- davlat boshqaruvi tizimida turli vakolatlarni amalga oshirib kelayotgan 27 ta davlat boshqaruv organi va xo'jalik idoralari qisqartirildi;
- xo'jalik idoralarining davlat boshqaruviga doir vakolatlari olib tashlandi;
- davlat boshqaruv devonlarining oliy qatlamiga tegishli rahbariyat tarkibi ham qisqartirildi (vazir maqomiga teng bo'lgan 20 ta lavozim va vazir o'rinbosari maqomiga teng bo'lgan 80 ta lavozim);
- ma'muriy-boshqaruv vakolatlarini amalga oshirayotgan 40 ming nafarga yaqin davlat xizmatchisi qisqartirildi.

Noyob va bozori chaqqon bo'lgan tovarlarning ba'zilarini markazlashgan holda taqsimlashga barham berish maqsadida ularning davlat tomonidan tasdiqlanadigan balanslari miqdori deyarli ikki barobar qisqartirildi. Natijada, bu holat resurslarning cheklangan holda taqsimlanishini bartaraf etishga shart-sharoitlar yaratdi. Endilikda bu kabi tovarlarni tarqatish va oldi-sotdi qilish birja va auksionlar vositasida — xaridorlarga to'g'ridan to'g'ri shartnomalar asosida sotila boshlandi.

Mamlakatda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish islohotlari «Kuchli davlatdan — kuchli fuqarolik jamiyati sari» tamoyili asosida olib borildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qonunchilik tashabbusi asosida 2007-yil 11-aprelda qabul qilingan «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy qonun davlat boshqaruvini mazmunan yangilash, mavjud demokratik prinsiplarni kengroq joriy etish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirishda g'oyat muhim ahamiyat kasb etdi[132]. Bu islohotlar natijasida parlamentning o'z vakolatlarini samarali amalga oshirishi, palatalar o'rtasida xalq irodasiga tayangan holda har tomonlama asosli va puxta qarorlar qabul qilish uchun zarur

bo'lgan o'zaro muvozanat va cheklovlar tizimi hamda mexanizmini vujudga keltirish, deputatlarning demokratik tartib-taomillar va siyosiy raqobat sharoitida doimiy asosda professional tarzda ish olib borishlari, qonun chiqaruvchi hokimiyat faoliyatida umumdavlat va hududiy manfaatlarning mutanosibligiga erishish, fuqarolarning mamlakat ijtimoiy va siyosiy hayotidagi ishtirokini yanada kengaytirish uchun yetarli shart-sharoitlar yaratildi.

3. Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish islohotlarining yanada chuqurlashuvi

O'zbekistonda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirishga doir amalga oshirilgan islohotlarning ulkan natijalari Prezident I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010-yil 12-noyabrda bo'lib o'tgan qo'shma majlisidagi «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi» nomli ma'ruzasida chuqur tahlil etib berildi.

2001–2010-yillar ichida mamlakatda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish sohasida amalga oshirilgan islohotlar o'ta muhim bir maqsad — hokimiyatlar bo'linishi konstitutsiyaviy prinsipini hayotga izchil tatbiq etish, hokimiyatlar o'rtasida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali tizimini shakllantirish, markazda va joylarda qonun chiqaruvchi va vakillik hokimiyatining vakolatlari hamda nazorat vazifalarining rolini kuchaytirish, sud tizimini liberallashtirish va uning mustaqilligini ta'minlash bo'yicha g'oyat dolzarb chora-tadbirlar ko'rishga qaratildi.

Bu davrda markaziy ijro etuvchi hokimiyatning boshqaruv tuzilmalari va ma'muriy organlarning vazifalarini o'zgartirishga, ularning boshqarish, tartibga solish va taqsimlash borasidagi vakolatlarini, xo'jalik tuzilmalari faoliyatiga bevosita aralashuvini keskin qisqartirishga katta e'tibor berildi. Boshqacha aytganda, ularning vakolatlarini bozor tamoyillariga muvofiqlashtirish va pirovard natijada davlatning iqtisodiyotni boshqarishdagi rolini jiddiy kamaytirish ko'zda tutildi. Shuningdek, boshqaruv sohasini markazlashtirishni cheklash, bu boradagi vazifalarning bir qismini respublika darajasidan viloyat, tuman va shahar miqyosiga o'tkazish, O'zbekistonda mahalliy o'zini o'zi boshqarishning noyob shakli

bo'lgan mahalla tizimini shakllantirish masalalariga katta ahamiyat qaratildi.

Ikki palatali milliy parlamentni tashkil etish masalasi bo'yicha 2002-yil 27-yanvarda o'tkazilgan referendum yakunlari va shu asosda «Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida»gi konstitutsiyaviy qonunning qabul qilinishi qonun chiqaruvchi hokimiyatni tubdan isloh qilishning asoslarini belgilab berdi.

2007-yilda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan mamlakat Prezidenti bir vaqtning o'zida ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i ekanini belgilaydigan normaning chiqarilishi ushbu davrdagi muhim siyosiy-huquqiy voqealardan biri bo'ldi. Konstitutsiyaning 89-moddasida «O'zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig'idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlaydi» degan qoida belgilab qo'yildi[133].

Ilgari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti egallab turgan Vazirlar Mahkamasi raisi lavozimining tugatilishi ham liberallashtirish va demokratlashtirish yo'lida muhim qadam bo'ldi. Qabul qilingan qonunlarga muvofiq endilikda Bosh vazir nafaqat Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etadi, balki unga rahbarlik qiladi va uning ishi samaradorligi uchun shaxsan javob beradi, Vazirlar Mahkamasi majlislariga raislik qiladi, hukumat hujjatlarini imzolaydi, davlat va xo'jalik boshqaruvi masalalari yuzasidan qarorlar qabul qiladi.

Konsepsiyada bu davrga kelib mamlakat aholisining siyosiy-huquqiy madaniyati va ijtimoiy ong darajasining o'sib borishi, jamiyatni demokratlashtirish va liberallashtirish jarayonlarining jadal rivojlanishi, ko'ppartiyaviylik tizimining tobora mustahkamlanishi davlat hokimiyatining uchta subyekti, ya'ni davlat boshlig'i bo'lgan Prezident, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar o'rtasidagi vakolatlarning yanada mutanosib taqsimlanishini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yuzaga keltirayotganligidan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasini quyidagi tahrirda bayon etish taklif qilindi:

«O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, uning o'rinbosarlari, vazirlar, davlat qo'mitalarining raislaridan iborat.

Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatining boshlig'i Vazirlar Mahkamasi tarkibiga o'z lavozimi bo'yicha kiradi.

Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlaydi.

Vazirlar Mahkamasi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining butun hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi, uning samarali ishlashi uchun shaxsan javobgar bo'ladi, Vazirlar Mahkamasining majlislariga raislik qiladi, uning qarorlarini imzolaydi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining topshirig'iga binoan xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi nomidan ish ko'radi, O'zbekiston Respublikasi qonunlarida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlarida nazarda tutilgan boshqa vazifalarni bajaradi.

Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oldida javobgardir.

Vazirlar Mahkamasi yangi saylangan Oliy Majlis oldida o'z vakolatlarini zimmasidan soqit qiladi[134].

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylovlarda eng ko'p deputatlik o'rnini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi deputatlik o'rinlarini qo'lga kiritgan bir necha siyosiy partiyalar tomonidan taklif etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdim etilgan Bosh vazir lavozimiga nomzodni ko'rib chiqqanidan keyin o'n kun muddat ichida uni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining ko'rib chiqishi va tasdiqlashi uchun taklif etadi.

Bosh vazir nomzodi uning uchun tegishlicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining yarmidan ko'pi tomonidan ovoz berilgan taqdirda tasdiqlangan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining a'zolari Bosh vazir taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi o'rtasida ziddiyatlar doimiy tus olgan holda Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan bir qismi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga rasman kiritilgan taklif bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo'shma majlisi muhokamasiga Bosh vazirga nisbatan *ishonchsizlik votumi bildirish* haqidagi masala kiritiladi.

Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi tegishlicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ovoz bergan taqdirda qabul qilingan hisoblanadi. Bunday holatda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirini lavozimidan ozod etish bo'yicha qaror qabul qiladi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining butun tarkibi Bosh vazir bilan birga iste'foga chiqadi.

Yangi Bosh vazir nomzodi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidagi barcha siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan tegishli maslahatlashuvlar o'tkazilganidan so'ng O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga ko'rib chiqish va tasdiqlashga taqdim qilish uchun taklif etiladi. Oliy Majlis tomonidan Bosh vazir lavozimiga nomzod ikki marta rad etilgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazir vazifasini bajaruvchini tayinlaydi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini tarqatib yuboradi»[135].

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasiga kiritilayotgan ushbu o'zgartishlarning mazmun-mohiyati shundan iborat bo'ldiki, ularga ko'ra, Bosh vazir lavozimiga nomzod ko'rsatish va uni tasdiqlashning yanada demokratik prinsiplarini ifodalaydigan yangi tartibi o'rnatilishi ko'zda tutildi. Shuningdek, Konstitutsiyaga kiritilayotgan bu o'zgartishlarga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumini bildirish huquqi berish, ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolatiga taalluqli masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish huquqi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari doirasidan chiqarish taklif etildi.

Konsepsiyada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasiga zikr etilgan tuzatishlarni kiritish taklif etilayotgani munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78- va 93-moddalariga ham tegishli o'zgartishlar kiritish zarurati tug'ilishi ta'kidlanib, jumladan, Konstitutsiyaning 78-moddasi 15-bandini «... shuningdek, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining dolzarb masalalari yuzasidan Bosh vazirning hisobotlarini eshitish va muhokama qilish» degan so'zlar bilan to'ldirish kerakligi taklif etildi. Keyinchalik bu taklif asosida o'zgartishlar kiritilgan bu band Konstitutsiyada quyidagicha ifodalandi: «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini ko'rib chiqish va tasdiqlash shuningdek mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining dolzarb masalalari yuzasidan Bosh vazirning hisobotlarini eshitish va muhokama qilish».

93-moddaning 15-bandiga «viloyatlar hokimlarini hamda Toshkent shahar hokimini qonunga muvofiq tayinlaydi hamda lavozimidan ozod etadi» degan so'zlardan oldin «O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimiga binoan ...» degan so'zlarni kiritish maqsadga muvofiq ekanligi ta'kidlandi. Keyinchalik mazkur kiritilgan o'zgartish Konstitutsiyada quyidagicha ifodalandi: «O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimiga binoan viloyatlar hokimlarini hamda Toshkent shahar hokimini qonunga muvofiq tayinlaydi hamda lavozimidan ozod etadi. Konstitutsiyani, qonunlarni buzgan yoki o'z sha'ni va qadr-qimmatiga dog' tushiradigan xatti-harakat sodir etgan tuman va shahar hokimlarini Prezident o'z qarori bilan lavozimidan ozod etishga haqli».

Shuningdek, 93-moddaning 8-bandidan «ijro etuvchi hokimiyat devonini tuzadi va unga rahbarlik qiladi» degan so'zlarni chiqarish, 93-moddaning 16-bandini «...O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlislarida raislik qilishga haqli» degan so'zlar bilan to'ldirish tavsiya etildi. Keyinchalik mazkur kiritilgan o'zgartishlar asosida Konstitutsiyaning 93-moddasi 8- va 16-bandlari quyidagicha ifodalandi:

«8) respublika oliy hokimiyat va boshqaruv organlarining bahamjihat ishlashini ta'minlaydi; vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzadi va tugatadi, shu masalalarga doir farmonlarni keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tasdig'iga kiritadi;

16) respublika davlat boshqaruv organlarining, shuningdek hokimlarning qabul qilgan hujjatlarini to'xtatadi, bekor qiladi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlislarida raislik qilishga haqli».

Shuningdek, 93-moddaning 12-bandidan «O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori» degan so'zlardan keyin «uning o'rinbosarlari» degan so'zlarni chiqarish va ularning o'rniga «Hisob palatasi raisini» degan so'zlarni kiritish va undan so'ng matn bo'yicha «tayinlaydi va ularni lavozimidan ozod qiladi, keyinchalik bu masalalarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tasdig'iga kiritadi» degan tarzda bayon etish kerakligi taklif etildi[136].

Keyinchalik mazkur kiritilgan o'zgartish Konstitutsiyada quyidagicha ifodalandi: «O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va Hisob palatasi raisini tayinlaydi va ularni lavozimidan ozod qiladi, keyinchalik bu masalalarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tasdig'iga kiritadi».

Shu bilan birga, Prezident I.A.Karimov Konsepsiyada «saylovlarda yutib chiqqan siyosiy partiya taqdim etgan Bosh vazir nomzodining Parlament tomonidan ko'rib chiqilishi va tasdiqlanishi haqidagi konstitutsiyaviy tartibning belgilanishi, hukumatga nisbatan ishonchsizlik votumi institutining joriy etilishi va siyosiy tizimni modernizatsiya qilish jarayonida amalga oshirilishi lozim bo'ladigan boshqa qator chora-tadbirlar o'z mazmun-mohiyati bilan mamlakatimizni isloh etish va demokratlashtirishning yangi bosqichini boshlab berishini» alohida ta'kidlab ko'rsatish barobarida «mazkur islohotlarning muvaffaqiyati, avvalambor, mamlakatimizni yanada demokratlashtirish va liberallashtirish yo'lidagi sa'y-harakatlarimiz sur'atiga, fuqarolarimizning ijtimoiy-siyosiy faolligiga, ularning siyosiy va huquqiy madaniyatining yuksakligiga va o'z-o'zidan ayonki, birinchi navbatda siyosiy partiyalarning yetuklik darajasiga, ularning O'zbekistonimiz taqdiri va kelajagiga daxldor bunday ulkan mas'uliyatli vakolatlarni o'z zimmasiga olishga qay darajada tayyor ekaniga bevosita bog'liq» ekanligiga barchaning diqqat-e'tiborini qaratdi.

Konsepsiyada ilgari surilgan takliflar va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida 2011-yil 4-martda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga kiritilgan

«O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida (78, 80, 93, 96 va 98-moddalariga)»gi Qonun qabul qilinib, Oliy Majlis Senatining 25-mart kuni bo'lib o'tgan yalpi majlisida ma'qullandi va 2011-yil 19-aprel kuni matbuotda e'lon qilindi.

Mazkur qonun davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirishda amalga oshirib kelingan islohotlarning mantiqiy davomi bo'lib, uning yangi bosqichini boshlab berdi va davlat hokimiyatining uchta subyekti, ya'ni davlat boshlig'i bo'lgan Prezident, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat o'rtasidagi vakolatlarning yanada mutanosib taqsimlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu hujjat Bosh vazirni lavozimga tayinlash hamda lavozimidan ozod etishning, parlament va hukumat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning yangi demokratik tartibini belgilashi bilan birga, jamiyat hayotini demokratlashtirish va liberallashtirish jarayonlarining jadal rivojlanishini ta'minlashga hamda yurtimizda ko'ppartiyaviylik tizimining tobora mustahkamlanishiga ham keng sharoitlar yaratadi.

Takrorlash uchun savollar:

1. O'zbekiston Respublikasida markaziy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, deganda nimani tushunasiz?
2. Davlat hokimiyati va davlat boshqaruvi tushunchalarini ta'riflab bering.
3. O'zbekistonda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish qachon boshlandi, bu sohada nimalarga erishildi?
4. «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»da davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirishga doir qanday strategik vazifalar qo'yildi?
5. O'zbekistonda qanday jamiyat va davlat qurish asosiy strategik pirovard maqsad sifatida e'lon qilingan?

9-mavzu. MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARINING DEMOKRATIYALASHUVI

1. Mahalliy davlat hokimiyatining shakllanishi va rivojlanishi.
2. Mahalliy davlat hokimiyati organlari tashkiliy-huquqiy asoslarining demokratlashuvi.
3. Mahalliy davlat hokimiyati organlarini demokratiyalash istiqbollari.

1. Mahalliy davlat hokimiyatining shakllanishi va rivojlanishi

Mamlakatda mustaqillikning dastlabki davridan boshlab mamlakatda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish asosiy strategik pirovard maqsad ekanligi e'lon qilindi. Bu davrda boshlangan demokratik islohotlar jarayonida milliy merosimiz va milliy davlatchilik an'analari bilan demokratik qadriyatlarni uyg'unlashtirish yo'lidan borildi. Davlat va jamiyat qurilishida milliy xarakter kasb etgan, shu bilan birga, demokratik qadriyatlarni ham o'zida namoyon etgan milliy davlat hokimiyati organlarini shakllantirish islohotlari boshlandi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, mahalliy hokimiyatga doir qabul qilingan qonunlarga binoan mahalliy ijroiya hokimiyat organlari fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, mahalliy boshqaruv va boshqa masalalarni aholining manfaatlarini e'tiborga olgan holda qonunlar, shuningdek, tegishli moddiy va moliyaviy resurslar asosida bevosita yoki vakillik organlari vositasida hal qilish maqsadlari hayotda o'z ifodasini topa boshladi.

Mustaqillikning dastlabki davridayoq Prezident I.A.Karimov quyidagi vazifani qo'ydi: «Barqaror bozor iqtisodiyoti ochiq tashqi siyosatga asoslangan kuchli demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish pirovard maqsad bo'lib qolishi kerak. Shunday jamiyatgina O'zbekiston xalqining munosib turmushini, uning huquqlari va erkinligini kafolatlashi, milliy an'analar va madaniyat qayta tiklanishini, shaxs sifatida insonning ma'naviy-axloqiy kamol topishini ta'minlashi mumkin»[137].

Mamlakatda «Kuchli davlatdan — kuchli fuqarolik jamiyati sari» tamoyili asosida huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish, o'zini o'zi boshqarish, inson erkinliklari va huquqlarini himoya qilishning zamonaviy davlatga xos prinsiplarini joriy etish

g'oyatda murakkab o'tish davrini, boshqaruv va o'zini o'zi boshqaruvning doimiy va muttasil ravishda ishlab turadigan mexanizmlarini ishlab chiqishni taqozo etdi. Albatta, bu mexanizmlar jamiyatdagi turli ijtimoiy tabaqalar manfaatlari va ehtiyojlarini, hayotiy intilishlarini e'tiborga olib siyosat yuritilgan taqdirdagina barqaror ishlashi mumkin.

Jamiyat siyosiy tizimini demokratlashtirish tamoyillari va huquqiy asoslari ikkita tamoyilning o'zaro hamjihatligiga bog'liqdir: boshqaruvning barcha darajalarida qonunlarga amal qilishning samarasini oshirish; fuqarolarning boshqaruv jarayonlaridagi ishtirokini, shuningdek ularning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ishtirokining faolligini oshirish. Birinchi tamoyil boshqaruv jarayonlarining ilmiy-amaliy asoslanganligini, fuqarolar siyosiy va huquqiy madaniyatining yuksalishiga, boshqaruv xodimlari va xizmatchilari ish faoliyatini takomillashtirish, siyosiy institutlar va jamiyat hayotining huquqiy asoslarini takomillashtirishga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tamoyil davlat hokimiyati barcha darajalarida ularning vakolatlarini huquqiy va amaliy jihatdan kengaytirish va ularning jamiyat hayotidagi o'rnini oshirish, ularga nisbatan nodavlat va jamoat tashkilotlari hamda o'zini o'zi boshqarish organlari nazoratini yo'lga qo'yish, oshkoralikni, o'zaro tanqidni kengaytirish, jamoatchilik fikrini e'tiborga olish kabi sohalarining takomillashtirilishiga bog'liqdir.

O'zbekistonda huquqiy davlat, milliy davlatchilik an'analari va milliy manfaatlar talablari asosidagi haqiqiy mahalliy davlat organlari mustaqillik davriga kelib shakllandi. Mamalakat Prezidenti I.A.Karimov tomonidan dastlabki yillardayoq fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatga o'tishning konseptual dasturi ishlab chiqildi.

Mustaqillikning dastlabki davrida shakllantirilgan davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining o'ziga xos milliy jihatlari, demokratik xarakteri va tub mohiyati to'g'risida Prezident I.A.Karimov quyidagi fikrni bildirgan edi: «Eski ma'muriy-buyruqbozlik tizimi va unga mos bo'lgan hokimiyat va boshqaruv organlari barham toptirildi. Siyosiy va iqtisodiy boshqarish hamda tartibga solishning ko'pgina tuzilmalari va organlari tugatildi. Ular ma'muriy-buyruqbozlik tizimining, markazlashtirilgan rejalash-taqsimlash iqtisodiyotining ustunlari edi. Ular demokratik qadriyatlar va tamoyillarga yo'naltirilgan yangi davlatchilikning qaror topishi va erkin bozor iqtisodiyotining poydevorlarini yaratish

yo'lidagi asosiy to'siq bo'lib keldi. Konstitutsiyaga muvofiq, davlat hokimiyati organlarining avvalgi totalitar tuzumdan mutlaqo farq qiladigan, hokimiyatlarning, ya'ni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlarining bo'linishi prinsipiga asoslangan tizimi yaratildi. Ularning har biri faoliyatida huquqiy asosda avtoritarizm va totalitarizmning xurujlarini istisno etadigan chinakam demokratik me'yorlar va yo'l-yo'riqlar qaror toptirildi. Tashkil etilgan ijro etuvchi hokimiyat organlari tizimi oldingilaridan tubdan farq qiladi. Ular rejalash-taqsimlash vazifalaridan xoli bo'lib, iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish va tartibga solish rolini bajarmoqda. Ko'plab vazirliklar o'rniga bozor sharoitlariga mos bo'lgan xo'jalik birlashmalari, uyushmalari, konsernlar, korporatsiyalar, xolding kompaniyalar tashkil etildi. Davlat hokimiyati mahalliy organlarining yangi tizimi vujudga keltirildi. Uning asosini hokimlar instituti tashkil etadi. Unda joylardagi ijro etuvchi hokimiyat bilan vakillik hokimiyati rahbarining vazifalari birlashtirilgan»[138].

Hokimlarning ijro hokimiyati organi sifatida vujudga kelishi, vakillik organi bilan ijroqo'm o'rtasidagi munosabatlardan tubdan farq qiluvchi munosabatlarning paydo bo'lishida, vakillik organlari (sovetlar) hamma masalalarni hal qiladi, degan deklarativ qoidaning bekor qilinganligi muhim voqelik bo'ldi. Har ikki organ vakolatlari, vazifalari va ular ixtiyoridagi masalalar doirasi aniq belgilanishi vakillik organlari bilan ijroiya hokimiyati o'rtasidagi munosabatlar xususiyatini o'zgartirdi va ijroiya organlarining kundalik faoliyatiga deputatlar, vakillik organlari ortiqcha aralashuvlariga chek qo'ydi. Deputatlar va vakillik organlarining ijro hokimiyati faoliyatiga bo'lar-bo'lmas aralashuvi ijro tashabbuskorligini chegaralar edi. Yangi munosabatlar esa ijro hokimiyati tashabbuskorligi uchun keng imkoniyatlar ochib berdi. Vazifa va vakolatlarning aniq belgilanishi ijroqo'mlar sovetlarga taalluqli hamma masalalarni hal qila oladi degan qoidani barham topishiga olib keldi, natijada ijro hokimiyatining vakillik organlaridan ustunligini ta'minlovchi sabab barham topdi.

Vujudga kelgan yangi munosabatlar vakillik organlarining mutlaq vakolatlari doirasining kengayishi va ijro hokimiyati organlarining mustaqil vakolatlarining kengayganligida o'z aksini topdi. Ya'ni vakillik organlari «hamma masalalarni hal qila oladi» degan huquqni yo'qotishi, ularning mutlaq vakolatlarining ko'payishi bilan qoplandi. Endi vakillik organlari muhim tashkiliy masalalar bilan birga, mahalliy ijro hokimiyati tarkibiy bo'linmalari va ularning rahbarlarini tayinlash; mahalliy mulk fondlarini

tasdiqlash; mahalliy mulkni xususiylashtirish tartibini belgilash; mahalliy soliq va yig'imlar turini belgilash va hokazolar kabi mutlaq vakolatlarga, o'z navbatida hokimlar ham ko'plab mulk, yer munosabatlarida mustaqil vakolatlarga ega bo'ldi. Ya'ni vakillik organlari bilan hokimlar o'rtasidagi munosabat bir tomondan vakillik organlarining mutlaq vakolatlari ko'payishi bilan, ikkinchi tomondan ijro hokimiyati organlarining mustaqil huquqlari ko'payishi bilan tavsiflanadi[139].

Hokimlar bilan vakillik organlari munosabati hokimiyatning bo'linish prinsipini o'zida aks ettira oldi. Buni yuqorida aytilganidek, vakillik va ijro hokimiyati vakolatlarining aniq ajratilganida ko'rib chiqdik. Ijroqo'mlar sovetlarning vakolatini (qonunga asosan) amalga oshirgan bo'lsa, hokimning vakolati uning shaxsan vakolati sifatida mustahkamlangan va o'z navbatida shu vakolatni amalga oshirishda, tegishli qarorlar qabul qilishda ularning javobgarligi ham belgilangan. Hozirgi vakillik organlari hokim vakolatiga kiruvshi masalalarni hal qilish huquqini o'ziga olmaydi.

2. Mahalliy davlat hokimiyati organlari tashkiliy-huquqiy asoslarining demokratlashuvi

O'zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqiy asoslarining poydevori O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yilgan. Unda davlat hokimiyati organlarining fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat talablari asosida faoliyat yuritishini ta'minlay oladigan huquqiy asoslar mujassamlashtirildi. Konstitutsiyaning XXI bobida (Mahalliy davlat hokimiyati asoslari) mahalliy davlat hokimiyatining faoliyat yuritish prinsiplari hamda tegishli hududning barcha sohalarini rivojlantirishda bu organlarning jamiyat va davlat boshqaruvidagi o'rni aniq belgilab berildi. Bu bobda viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan, shuningdek shahar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo'lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab o'z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etishlari mustahkamlab qo'yildi.

Shuningdek, Konstitutsiyaning 100-moddasiga asosan mahalliy hokimiyat organlariga quyidagi vakolatlar berildi:

- qonuniylikni, huquqiy-tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash;

- hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish;
- mahalliy budjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'imlarni belgilash, budjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish;
- mahalliy kommunal xo'jalikka rahbarlik qilish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish;
- fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta'minlash;
- normativ hujjatlarni qabul qilish hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirish[140].

Mahalliy kengashlar Konstitutsiya va qonunlarda o'zlariga berilgan vakolatlarga asosan quyidagi funksiyalarni bajaradilar: mahalliy ahamiyatga molik barcha masalalarni o'zlari mustaqil hal etadilar; umumdavlat ahamiyatiga molik masalalarni hal etishda ishtirok qiladilar; o'z vakolatlari doirasidagi barcha masalani hal etish jarayonida milliy manfaatlarni o'z hududida yashayotgan fuqarolarning manfaatlari bilan uyg'unlashtirishga harakat qiladilar; yagona davlat hokimiyati organlarining tarkibiy bo'g'ini sifatida o'zlaridan yuqori turuvchi davlat organlari qarorlarining amalga oshirilishini ta'minlaydilar va quyi bosqich kengashlari faoliyatiga rahbarlik qiladilar.

Shuningdek, Konstitutsiyada mahalliy hokimiyat organlari tushunchasiga ta'riflar berish va uning huquqiy maqomlarini yaratish rivojlangan va demokratik davlatlar siyosiy tizimini chuqur o'rganish, milliy meros va an'analarni e'tiborga olgan holda mamlakatimiz tarixiy an'analari asosida ro'y berdi. Agar Konstitutsiyaning 101-moddasi chuqur talqin etilsa, biz bu holatni aniq va ravshan anglashimiz mumkin: «Mahalliy hokimiyat organlari O'zbekiston Respublikasining qonunlarini, Prezident farmonlarini, davlat hokimiyati yuqori organlarining qarorlarini amalga oshiradilar, xalq deputatlari quyi Kengashlari faoliyatiga rahbarlik qiladilar, respublika va mahalliy ahamiyatga molik masalalarni muhokama qilishda qatnashadilar. Yuqori organlarning o'zlariga berilgan vakolat doirasida qabul qilgan qarorlarni quyi organlar ijro etishi majburiydir. Xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarning vakolatlari muddati — 5 yil»[141].

Mustaqillikning dastlabki davrida — 1992-yil 4-yanvarda «O'zbekiston Respublikasining mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi. Unga asosan mamlakatda mahalliy hokimiyatning ikki mustaqil organi —

vakillik va ijro organlari tizimi shakllandi, shuningdek yakkaboshchilik asosida faoliyat olib boruvchi hokim lavozimi joriy qilindi[142].

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganidan keyin mahalliy davlat hokimiyatiga doir huquqiy davlatga xos bo'lgan yangi qonun qabul qilishga zarurat sezildi. 1993-yil 2-sentabrda O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi. Mazkur qonunga binoan joylarda mahalliy vakillik va ijroiya organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat tashkilotlari hamda jamoat birlashmalari orasida butunlay yangi shart-sharoitlardagi o'zaro hamkorlikka asoslangan faoliyat yuritish shakllari o'rnatildi, shuningdek uning tashkiliy-huquqiy asoslari belgilandi. Unda mahalliy davlat hokimiyatining iqtisodiy va moliyaviy manbalari aniq ko'rsatildi, mahalliy ijroiya hokimiyati organlari, xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarning vakolatlari, xalq deputatlari Kengashi va hokimning faoliyatidagi qonuniylikning kafolatlariga doir normalar aniq va ravshan ifodalandi.

Mazkur qonunga binoan viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan, shuningdek shahar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) xalq deputatlari Kengashlari davlat hokimiyatining mahalliy vakillik organlari, deb belgilandi. Ya'ni, O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilishining eng quyi bo'linishlari – qishloq, posyolka (shaharcha) larda vakillik organlari tashkil etilmaydigan bo'ldi, ularning o'rniga fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan yangi organlar — fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tashkil etish huquqiy asoslari shakllandi. Mamlakatda huquqiy maqomi bo'yicha tumanlarning ikki turi – viloyatlar tarkibiga kiruvchi va shaharlar tarkibiga kiruvchi tumanlar, shaharlarning esa uch turi – tumanga bo'ysunuvchi, viloyatga bo'ysunuvchi va respublikaga bo'ysunuvchi shaharlar bo'lishi belgilandi[143].

Natijada mahalliy vakillik organlarining ikki bo'g'inli tizimi – quyi bo'g'in sifatida — tuman, shahar xalq deputatlari kengashlari, yuqori bo'g'in sifatida — viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari kengashlari shakllandi. Mahalliy vakillik organlari o'z faoliyatini jamoaviy asosida olib borishi, ijroiya organlari yakkaboshchilik asosida faoliyat yuritishi belgilandi.

Mamlakatda mahalliy vakillik va ijroiya organlarining o'zaro munosabatlari amalga oshirishlari Konstitutsiyaning 11-

moddasidagi hokimiyatning bo'linish prinsipiga amal qilishi, ularning o'zaro bir-birini «tiyib turish», nazorat qilish, hokimiyatni biror organ qo'lida to'planib qolishiga to'sqinlik qilish mexanizmlari asosiga qurildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 99-moddasiga binoan, viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan, shuningdek shahar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo'lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab o'z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etadilar[144].

Qonunchilikda xalq deputatlari kengashlari tarkibida doimiy komissiyalar tuzilishi belgilab qo'yilgan. Bu komissiyalar sessiya muhokamasiga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda qarab chiqadi va tayyorlaydi, tegishli kengash qarorlarini va qonun hujjatlarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashadi, o'z vakolatlari doirasida nazorat o'rnatadi. Shuningdek, mazkur komissiyalar kengashning tashkiliy faoliyati shakllaridan biri hisoblanadi. Doimiy komissiyalar deputatlarni kengash ishiga doimiy ravishda va faol jalb etish vositasi bo'lib, uning vositasida kengash ishining faoliyati doimiylik xarakterini kasb etadi. Har bir kengash o'z ish ko'lamidan kelib chiqib qanday doimiy komissiya faoliyat yuritishini belgilaydi. Ular faoliyatida deputatlarning aksariyat qismi o'z faoliyatini olib boradi.

Mahalliy davlat hokimiyatining organi bo'lgan xalq deputatlari kengashlari vakillik organi sifatida xalq (saylovchilar) tomonidan umumiy, teng, to'g'ridan to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi. Xalq deputatlari kengashlarining saylov orqali shakllanishi ularning vakillik organi ekanligini anglatadi. Fuqarolar saylov vositasida bu organlarga o'zlarining vakillarini saylaydi. Xalq deputatlari saylovchilar bergan vakolatlar va ular nomidan faoliyat olib boradi. Boshqacha qilib aytganda, xalq deputatlari ma'lum saylov okrugidagi saylovchilarning davlat hokimiyati organlaridagi muxtor vakilidir.

O'zbekiston Respublikasining «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida»gi qonuniga asosan mahalliy vakillik organlarining barcha darajalari saylov vositasida shakllanadi. Qonunga binoan xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylovlar demokratik qadriyatlar asosida amalga oshiriladi. Ular quyidagilardan iborat:

- saylovlar jamiyat ijtimoiy qatlamlarini o'zida ifodalagan ko'ppartiyaviylik asosida o'tkaziladi;

- mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlariga 21 yoshdan saylanish mumkin;

- mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlariga saylanadigan deputatlar soni respublikaning barcha subyektlari uchun teng bo'lishi (viloyatlar va Toshkent shahar kengashlariga 60 tagacha, tuman va shahar kengashlariga 30 tagacha deputat saylanishi mumkin);

- xalq deputatlari viloyat Kengashlari deputatligiga nomzodlar ko'rsatish huquqiga faqat siyosiy partiyalar, xalq deputatlari tuman, shahar kengashlari deputatligiga nomzodlar ko'rsatish huquqiga esa siyosiy partiyalar bilan bir qatorda, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ega bo'lishi[145].

Mustaqillik davrida mahalliy davlat hokimiyati organlar faoliyatini muvofiqlashtirishga taalluqli yana O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (1995–1996 yy.), «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi (1996 y.) qonunlar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining davlat va ijtimoiy qurilishida xotin-qizlarning rolini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi (1995 y.), «Tumanga bo'ysunuvchi shaharlar hokimliklari boshqaruv organlarining tuzilmasini takomillashtirish to'g'risida»gi (1996 y.) Farmonlari qabul qilindi.

Mamlakat 2001-yildan boshlab demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizatsiya qilish davriga kirdi. Bu davr jamiyat siyosiy tizimini va davlat boshqaruvini demokratlashtirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Bu davrda hokimiyat organlarini nomarkazlashtirish — davlat boshqaruvi vakolatlarini bir qismini asta-sekin markazdan quyidagi boshqarish bo'g'inlariga berish, shu asosda ularning faolligini oshirish, xalq deputatlari mahalliy Kengashlari va hokimliklar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, avvalo, mahalla tuzilmalari, shuningdek jamoat tuzilmalari vakolatlarini yuqoridan quyiga bosqichma-bosqich o'tkazib borish jarayoni yanada chuqurlashib bormoqda.

Bu davrda hokimiyat bo'linishining konstitutsiyaviy prinsipiga amal qilinishini ta'minlash, qonun chiqaruvchi hokimiyat — Oliy Majlis va joylardagi vakillik organlari — viloyat, shahar va tuman kengashlarining Konstitutsiya hamda qonunlarda ularga berilgan vakolat va nazorat vazifalarini qat'iy amalga oshirilishiga erishish, ijroiya hokimiyati ustidan jamoatchilik, avvalo xalq deputatlari amalga oshiradigan nazoratni kuchaytirish, boshqaruv

tizimining samaradorligini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ular qabul qiladigan qarorlarni qabul qilish sifatini oshirish, ular ijrosi ustidan nazoratning ta'sirchan mexanizmini joriy etish kabi bir qator vazifalar amalga oshirila boshlandi.

Xalq deputatlari timsolida jamiyatdagi turli ijtimoiy tabaqalar o'z manfaatlari va ehtiyojlarini ifoda etadi, ularning qondirilishini talab qiladi. Shu tariqa turli xil manfaatlarni umumlashtirish, qondirish jarayonlari amalga oshadi.

Xalq deputatlari kengashlari vositasida aholi o'zining manfaatlarini ifoda qilar ekan, ular bu kengashlar faoliyatida davlat manfaatlari bilan muloqotga kirishadi, o'zaro manfaatdorlik asosida davlat va turli ijtimoiy tabaqalar manfaatlari uyg'unlashadi. Ma'lumki, O'zbekistonda islohotlarning borishida qonunlarning ustuvorlik prinsipi amal qiladi. Shuning uchun ham vakillik organlari faqat qonunlar doirasida, berilgan vakolatlar vositasidagina faoliyat yuritadilar. Shu bois ham xalq deputatlari kengashlarining barcha vakolatlari va vazifalari Konstitutsiya va qonunlarda aniq va ravshan belgilab qo'yilgan.

Shu bilan birga, qonuniylikni ta'minlash va fuqarolar xavfsizligini saqlash sohasidagi barcha chora-tadbirlar va muvofiqlashtirish ishlarini mahalliy hokimiyat bajaradi. Buning asosiy sababi shundaki, mahalliy davlat hokimiyati organlari bir tomondan xalqning saylashi natijasida shakllangan bo'lsa, ikkinchi tomondan ijro hokimiyatlar boshliqlarining markaziy davlat organlari va viloyatlar hokimlari tomonidan tayinlanishi, shuningdek, ular bir vaqtning o'zida vakillik organlari tasdig'idan o'tishlari natijasida legitimlikka ega bo'ladi. Demokratik mamlakatlar uchun davlat hokimiyatining legitimligi uning huquqiy davlatga aloqadorligini bildiradi.

Shu bilan birga mahalliy hokimiyat organlari o'z hududlari doirasidagi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanish masalalariga ham mas'uldirlar. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik qadriyatlardan kelib chiqib mahalliy hokimiyat organlari davlatga tegishli bo'lmagan tashkilotlar, korxonalar va jamoat tashkilotlarining ichki ishlariga aralashmagan holda ularning rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratib beradi, vakillik organlarining tasdiqlashlari vositasida hududni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishning dasturlarini, tuman, shaharlar rivojlanishining rejalarini tuzadi.

Mahalliy ijro organlarining vakolatlaridan yana biri – ular mahalliy budjetni shakllantirish va uning ijrosini amalga oshirish, mahalliy soliqlar, to'lovlar va yig'imlarni belgilash, budjetga

kirmaydigan jamg'armalarni shakllantirish kabi ishlarni bajaradi va o'z aholisi joylashgan hududni barcha jabhalar bo'yicha rivojlantirishga o'zining katta hissasini qo'shadi. Lekin, hududda hokimiyat organlari — vakillik organlari va ijro hokimiyatlarining olib boradigan ishlari vakolatlari bir-biridan alohida ajratilgan. «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi qonunda vakillik organlari bilan ijro organlarining bu masaladagi vakolatlari aniq ajratib qo'yilgan: hokimlar har yillik budjet loyihalarni tayyorlash, ularni xalq deputatlari kengashiga tasdiqlash uchun taklif kiritish, budjet ijrosini amalga oshirish kabi vakolatlarga ega bo'lsa, vakillik organlari budjetni tasdiqlash, uning ijrosi bajarilishini nazorati haqidagi hisobotlarni eshitish va muhokama qilish kabi vakolatlar kiradi[146].

Shu bilan birga ba'zi vakolatlar har ikkala organga ham tegishli bo'lishi mumkin: masalan, bunga budjetning bajarilishi ijrosini nazorat qilish faoliyatini ko'rsatish mumkin. «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi qonunda mahalliy soliqlar, to'lovlar, yig'imlar, boj miqdorini belgilash, ularni to'laydiganlar uchun turli imtiyozlar berish vakillik organlarining vakolatiga kiritilib, ular mazkur vakolatlarning ayrimlarini (soliq va yig'imlar bo'yicha imtiyozlar belgilash kabilarni) hokimlar vakolatiga o'tkazish huquqiga egadirlar. Bu kabi vakolatlarni O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy soliqlar va yig'imlar to'g'risidagi», «Yer to'g'risida»gi va boshqa qonunlar doirasida aniqlashtiriladi.

Tuman, shahar va boshqa aholi yashaydigan birliklardagi kommunal xizmatni amalga oshirish, bu sohaga boshchilik qilish vakolatlari ham mahalliy hokimiyat organlariga berilgan. «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi qonunga binoan hokimlar aholiga kommunal xizmat ko'rsatish sohasida ko'plab vakolatlarga egadir[147].

Tabiatni va atrof-muhitni muhofaza qilish ham mahalliy davlat hokimiyatlari vakolatlariga kiradi. «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi qonunda vakillik organlari va hokimlarning atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilishdagi rahbarlik va muvofiqlashtirib turuvchilik funksiyalari aniq ko'rsatilgan. Bunday funksiyalarga yer (tuproq), yer osti boyliklari, suv, havo, o'rmon, o'simlik va hayvonot dunyosini avaylab-asrash, ulardan unumli foydalanish kabilar kiradi. Shuningdek, bu sohaga doir vakolatlar «Yer to'g'risidagi», «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi va boshqa qonunlarda ko'rsatilgan.

Mahalliy hokimiyat organlari o'z hududlari doirasida favqulodda fuqarolik holati aktlarini qayd etadi, uni amalga

oshiruvchi idoralar faoliyatiga rahbarlik qiladi. Mahalliy hokimiyat organlari kichik shaharlar, ovul, qishloq, posyolkalarda fuqarolik holati aktlarini bevosita o'zlari amalga oshirsa, viloyatlar va ular maqomiga ega hududiy birliklarda bu funksiyalarni adliya organlari bajaradilar. Shuningdek, mahalliy hokimiyat organlari qaror, farmoyish va boshqa me'yoriy hujjatlar qabul qilish huquqlariga ham egadir. Bunday hujjatlar vakillik organlari tomonidan jamoaviy tarzda, ijro hokimiyati — hokimlikda esa yakkaboshchilik asosda qabul qilinadi. Bu kabi hujjatlarni hududdagi barcha fuqarolar bajarishga majburdirlar.

Hozirgi davrga kelib davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish islohotlari mamlakatni modernizatsiyalash jarayonining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida yanada chuqurlashib bormoqda. Bu sohada mahalliy hokimiyat organlari boshqaruvini demokratlashtirishga ham muhim ahmiyat berilmoqda. Ayniqsa, ularning nazorat qilish vakolatlarini oshirish bu sohadagi islohotlarning negizini tashkil etmoqda.

Bu sohada istiqboldagi rivojlanish yo'nalishi sifatida Prezident I.A.Karimov quyidagi vazifalarni ilgari surdi: «Rivojlangan demokratiyaga ega bo'lgan davlatlarning tajribasi, shu bilan birga, O'zbekistonning siyosiy va konstitutsion rivojlanishining mantiqiy yo'li xalqimiz, jamoatchiligimizning namoyandalari bo'lmish vakillik, deputatlik organlarining jamiyatimiz hayotidagi roli va ahamiyatini yanada oshirishni, sodda qilib aytganda, bu yo'lda boshlagan ishlarimizni izchil davom ettirishni talab etmoqda. Ayni shu borada O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining yuqori palatasi — Senat hamda quyi — Qonunchilik palatasining rolini yanada kengaytirish, faqatgina qabul qilingan qonunlarning ijrosini tekshirish bilan chegaralanmasdan, Vazirlar Mahkamasi hamda ijro organlari faoliyati ustidan nazoratini kuchaytirish, ichki va tashqi siyosatni amalga oshirishda, eng muhim strategik masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilishda huquq va vakolatlarini oshirish uchun Konstitutsiyamizga tegishli qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shular qatorida Vazirlar Mahkamasi va joylardagi ijro hokimiyatlarining mas'uliyatini oshirish, Oliy Majlis va mahalliy kengashlarda ularning hisobotini muntazam ravishda eshitish va tegishli xulosalar chiqarishni hayotning o'zi taqozo etmoqda»[148].

Umuman, mustaqillik yillarida mamlakatimizda rivojlangan mamlakatlar, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat uchun xos bo'lgan, o'zida milliy qadriyatlarni saqlagan mahalliy davlat hokimiyati

faoliyatining tashkiliy va huquqiy asoslari shakllantirildi. Hozirgi davrda ularni nomarkazlashtirish prinsiplari asosida yanada rivojlantirishga doir islohotlar chuqurlashib bormoqda.

3. Mahalliy davlat hokimiyati organlarini demokratiyalash istiqbollari

O'zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati tizimini shakllantirishda rivojlangan mamlakatlar tajribasi va milliy davlatchilik an'analari uyg'unligiga alohida e'tibor berildi. Shuningdek, davlat boshqaruvini demokratlashtirishda xalqchillik, adolat prinsiplari va milliy manfaatlar asosida faoliyat yuritish, masalalarni jamoachilik asosida hal etish kabi umuminsoniy va milliy qadriyatlarga asoslanildi. Mahalliy davlat hokimiyatining o'ziga xos xususiyatlari ham «O'zbek modeli»da belgilangan o'ziga xoslik tamoyiliga amal qilindi.

Prezident I.A.Karimov tomonidan «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»da qo'yilgan vazifalar rivojlangan mamlakatlarda fuqarolik jamiyatiga xos bo'lgan nazariy va amaliy tajribalar sifatida aksariyat o'tish davrini o'z boshidan kechirayotgan mamlakatlar tomonidan qiziqishlar bilan kutib olinmoqda. Shuningdek, bu sohada katta milliy tajribalar ham to'plandi. Jahon hamjamiyatida o'zini oqlagan yangi jamiyat qurish va mamlakatni modernizatsiyalash jarayonlari milliy o'zlik va an'analar bilan uyg'unlashgan holda milliy manfaatlarga mos bo'lgan yangi sifat o'zgarishlariga o'tib bormoqda.

Shu bilan birga, davlat vakillik organlarini davlat va mahalliy hokimiyat sifatidagi maqomi va nufuzini oshirishda siyosiy partiyalarning davlat hokimiyatini shakllantirish va hokimiyat organlariga nisbatan ta'sirini oshirish sohasidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirishga fuqarolik jamiyati qurish kafolatlaridan biri sifatida e'tibor bermoqda.

Mamlakatni modernizatsiya qilishga doir islohotlarni yanada chuqurlashtirish maqsadlarida uzoqni ko'zlaydigan «Kuchli davlatdan — kuchli fuqarolik jamiyati sari» tamoyili o'zgarishlarning hozirgi bosqichida «avvalambor, hokimiyat vakolatlarining ma'lum bir qismini markazdan mahalliy hokimiyat organlariga o'tkazishga qaratilgan mavjud qonun va huquqiy hujjatlarni bir tizimga keltirish va ularga qo'shimcha tarzda yangilarini ishlab chiqish»[149]ni nazarda tutmoqda.

Hozirgi davrda davlat hokimiyati boshqaruvini demokratlashtirishning asosiy omili nomarkazlashtirish jarayonlarining kechishiga e'tibor beradigan bo'lsak, mustaqillikning dastlabki yillarida siyosiy tizimni isloh qilishning kuchli davlat organlarini shakllantirishdek ustuvor yo'nalishlari bo'yicha vazifalar qo'yilgan edi. Bu vazifalarga doir islohotlar ijtimoiy-siyosiy hayotda o'z ifodasini topib bormoqda. Shuningdek, davlat va jamiyatning barqarorligini doimiy ta'minlab turuvchi mustahkam konstitutsiyaviy zamin yaratildi, siyosiy tizimning huquqiy asoslari barpo etildi.

Hozirgi davrga kelib davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish vazifalaridan kelib chiqib markaziy davlat hokimiyatining ba'zi vakolatlarini mahalliy boshqaruv organlariga berishga doir islohotlar amalga oshirilmoqda. Boshqacha aytganda, mintaqaviy hokimiyat organlari mamlakatning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy sohalarini boshqarishda mustaqil va faol subyektlar bo'lishiga muhim ahamiyat berilmoqda.

Shu bilan birga, mahalliy boshqaruv tizimida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga (mahalla, ovul, qishloq va shaharcha fuqarolar yig'inlari) ham nomarkazlashtirish tamoyillari asosida hokimliklarning ba'zi vakolatlarini berib borishga doir huquqiy asoslarni shakllantirish mo'ljallanmoqda. Ayniqsa, tarixan milliy o'zini o'zi boshqarish shakli sifatida shakllangan mahalla fuqarolar yig'inlarini fuqarolik jamiyati instituti sifatida rivojlanishi uchun huquqiy va ijtimoiy shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Prezident I.A.Karimov tomonidan 2010-yil 27-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasida yaqin besh yillikdagi ustuvor vazifalardan biri sifatida quyidagi fikr bildirildi: «Parlamentimiz va mahalliy vakillik organlari — Kengashlar oldida turgan ikkinchi g'oyat muhim vazifa — bu qabul qilingan qonunlarning ijro etuvchi hokimiyat, hukumat tomonidan markazda, hokimliklar tomonidan esa joylarda qanday bajarilayotgani ustidan qat'iy parlament nazoratini, deputatlik nazoratini o'rnatishdan iboratdir»[150]. Ko'rinib turibdiki, hozirgi paytda davlat siyosatining strategik rivojlanishga doir muhim yo'nalishlaridan biri — mamlakatda davlat hokimiyatini uchga bo'linish tamoyilini hayotda amalga oshirishga qaratilgan bo'lsa, bu jarayonga uyg'un ravishda oliy va mahalliy vakillik organlarini davlat va jamiyat qurishdagi rolini kuchaytirishga muhim e'tibor berilmoqda. Umuman olganda, parlament va sud hokimiyatlarini

siyosiy tizimda bir-birlaridan o'zaro teng muvozanatda turishi — har uch hokimiyatni nomarkazlashgan holatda turganligini anglatadi.

Tahlillardan ko'rinib turibdiki, mamlakatda davlat boshqaruvini erkinlashtirish va nomarkazlashtirish islohotlari asosida huquqiy davlatga xos bo'lgan jihatlar shakllanmoqda. «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»ning asosiy g'oyalari davlat hokimiyatini nomarkazlashtirish asosida fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qaratilgandir. Davlat hokimiyati, ayniqsa, ijroiya hokimiyatini nomarkazlashtirish natijasida fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish imkoniyatlari paydo bo'ladi. Albatta, fuqarolik jamiyatini shakllanishi uchun davlat hokimiyati jamiyat institutlariga nisbatan o'zaro muloqotlar va hamkorliklarga moyil bo'lishi talab etiladi. Fuqarolik jamiyati faqat nomarkazlashgan, ya'ni huquqiy davlat hokimiyati sharoitidagina yashay oladi[151].

Umuman, mamlakatda mahalliy davlat hokimiyatini shakllantirish va uni takomillashtirish islohotlari yanada chuqurlashib bormoqda. Bu sohadagi o'zgarishlarda davlatning bosh islohotchilik tamoyiliga amal qilinib, mustaqillikning ilk davrida joylarda kuchli ijroiya hokimiyatini shakllantirishga ustuvorlik berildi. Muhimi, mahalliy davlat hokimiyatining milliy jihatlariga, milliy manfaatlarni o'zida ifoda etishiga e'tibor berildi. Mustaqillikning qisqa davri ichida mamlakatda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat talablariga javob bera oladigan mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruv organlari shakllandi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Mustaqillikning dastlabki davrida mahalliy davlat hokimiyati organlari qanday prinsiplar va qadriyatlar asosida rivojlandi?
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mahalliy davlat hokimiyati organlarini tashkil etish va faoliyat yuritishiga doir qanday huquqiy asoslar ifodalangan?
3. Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatiga doir qanday qonun hujjatlari qabul qilingan? Ularning mazmun-mohiyati nimalardan iborat?
4. Hokimning ijroiya hokimiyat rahbari va mahalliy xalq deputatlari kengashlarining raisi sifatidagi faoliyatining o'zaro bog'liqligi va farqi nimalardan iborat?
5. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining istiqbollari to'g'risida nimalar deyish mumkin?

10-mavzu: FUQARO ERKINLIGI, HUQUQ VA MANFAATLARI USTUVORLIGINI TA'MINLASH

1. Fuqaro erkinligi va faolligi tushunchalari.
2. O'zbekistonda inson huquqlariga doir huquqiy asoslar.
3. Fuqarolar ijtimoiy faollashuvi – demokratik jamiyat qurish omili.
4. Inson huquq va erkinligini himoyalashning demokratik institutlari.

1. Fuqaro erkinligi va faolligi tushunchalari

Mustaqillikning dastlabki davridayoq Prezident I.A.Karimov mamlakatda inson erkinligini himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanganligini ta'kidlab, quyidagi fikrni bildirgan edi: «Yangi Konstitutsiyamizning eng muhim mohiyati shundan iboratki, unda «Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat hamda fuqarolar oldida mas'uldirlar» deyilgan, ya'ni, fuqarolar manfaatining ustunligi qonuniy ravishda mustahkamlangan va kafolatlangan. Sobiq totalitar tuzum sharoitida bunday fikrni hech kim xayoliga ham keltira olmas edi. Bugun esa inson, uning hayoti, erki, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa huquq hamda erkinliklari muqaddas bo'lib, davlat himoyasidadir... Fuqarolarning huquq va erkinliklari borasida Konstitutsiyamiz Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining barcha asosiy g'oya va qoidalarini o'ziga singdirgan»[152]. Ko'rinib turibdiki, mustaqillikning dastlabki davridan boshlab fuqaro erkinligi va uning faolligi masalasi demokratik jamiyat barpo etishning muhim shartlaridan biri sifatida qabul qilingan asosiy qoidalardan birini anglata boshladi.

Umuman, fuqaro erkinligi va faolligiga doir nazariy qarashlarni chuqur anglash uchun ularga doir tushunchalarni tahlil etishga zarurat tug'iladi.

Hozirgi davrda «fuqaro», «fuqarolik», «fuqarolik jamiyati», «fuqarolik mas'uliyati», «fuqaro huquqlari va erkinliklari» tushunchalari demokratik rivojlanishning zaruriy shartlaridan biriga aylanmoqda. Binobarin, demokratiya va fuqaro erkinligi va faolligini ta'minlash masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda.

Fuqarolik tushunchasi jamiyatning hozirgi davr demokratik, huquqiy davlat tomon rivojlanishida katta yo'lni bosib o'tdi. U

jamiyatning demokratik rivojlanishida qo'lga kiritilgan ulkan yutuqlardan biri.

Fuqarolik tushunchasi qadimiy Yunonistonda va Rimda mavjud bo'lsa-da, asosan feodalizm inqirozga uchrab, jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayot demokratiya va bozor munosabatlari zaminiga o'ta boshlaganda o'zining hozirgi shaklida paydo bo'la boshladi va ilk bor «shaharlik» (lotincha «civis», inglizcha «citizen» tushunchasi ham «fuqaro», ham «shaharlik», «city» esa katta yoki qadimiy shahar ma'nolarini beradi. Shuningdek, ruscha «grajdanin» tushunchasi «gorojanin» degan so'zdan kelib chiqqan. Mustaqillik e'lon qilingandan so'ng, o'zbek tilida o'tmishdagi «grajdan» so'zi o'rniga «fuqaro» degan atama qabul qilindi[153]. Hozirgi davrga kelib «fuqaro» tushunchasi qandaydir davlatning doimiy yashovchi aholisiga tegishli bo'lgan, mazkur davlatning himoyasidan, o'ziga ajratilgan huquq va burchlar majmuyidan foydalanuvchi shaxs ma'nosini beradi[154].

Erkinlik tushunchasi inson hayotining asosiy negizini tashkil etadi. Chunki, inson erkinligini qanday darajada ekanligi jamiyat va davlat taraqqiyotini rivojlanish darajasini belgilab beradi. Negaki, fuqaro erkin bo'lgan taqdirdagina, jamiyat taraqqiyotga erishadi. Ijtimoiy-siyosiy falsafada individlar erkinligi va ular irodasining erkinligi bir-biriga o'xshash tushunchalar deb qabul qilinadi. Buning asosiy sabablaridan biri, huquqning o'zi odamlar erkinligi shakli, ya'ni ular irodasining erkinligi ekanligi bilan belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan «fuqaro erkinligi» tushunchasi ham siyosatshunoslik, ham huquqshunoslik fanlarining umumiy kategoriyalari sifatida o'rganiladi. Demokratiya asosiy inson erkinliklarini qonunlar vositasida kafolatlaydi.

Demak, demokratiyaning o'zi ochiq muhokama, ijtimoiy ziddiyatlarni ifoda etish va bartaraf qilish usuli sifatida fuqarolik va siyosiy huquqlar deklaratsiyalarida qayd qilingan erkinliklarsiz mavjud bo'la olmaydi. Bu yerda so'z erkinligi va o'z fikrini erkin ifodalash huquqi, erkin uyushmalar tuzish huquqi, hayot tarzini o'zgartirish erkinligi va shaxsning xavfsizlikka bo'lgan huquqi to'g'risida gap ketmoqda. Ushbu huquqlar demokratiyaning asl mohiyatini tashkil qilgani bois, ular himoya qilinishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, insoniyat borliqni va ijtimoiy hayotda erkinlikni ifodalashning huquqdan tashqari boshqa biron-bir shaklini hozirgacha kashf etmagan. Bu mantiqan ham, shuningdek

amalda ham mumkin emas. Odamlar o'z tengligi darajasida erkindirlar va erkinligi darajasida tengdirlar.

Insonning muhim xususiyatlaridan yana biri — uning ijtimoiy mavjudot ekanligidir. Inson o'zining ehtiyojlarini qondirish maqsadlarida o'zi kabi insonlar bilan birlashishga intiladi. Insonning ijtimoiylashuvi sun'iy xarakter kasb etib, u shaxs sifatida boshqa insonlar o'rtasidagi muhitdagina shakllana oladi. Agar u insoniy munosabatlardan xoli bo'lsa, o'zidagi yovuzlik yoki hayvoniy tabiatidan xalos bo'la olmaydi [155].

Insondagi jamiyatga uyushishga intilishning tabiiy tarzda kechishini Abu Nasr Forobiy quyidagicha ifodalaydi: «Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi. U bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kirita olmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi... Shu sababli yashash uchun zarur bo'lgan, kishilarni bir-birlariga yetkazib beruvchi va o'zaro yordamlashuvi orqaligina odam o'z tabiati bo'yicha intilgan yetuklikka erishuvi mumkin. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni yetkazib beradi. Shuning uchun inson shaxslari ko'paydilar va yerning aholi yashaydigan qismiga o'rnashdilar, natijada inson jamoasi vujudga keldi» [156].

An'anaviy jamiyatlarda insonning yaratuvchilik ijodiy qobiliyati ancha chegaralandi. Chunki an'anaviy jamiyatlarda mehnatning tabiiy taqsimoti va ixtisoslashuvi adolat prinsiplariga asoslanmadi. Shuningdek, bu jamiyatlarda shaxslararo munosabatlarning o'ta tabaqalashuvi, o'zaro harakatlar va munosabatlarni norasmiy muvofiqlashtirilishi, jamiyat a'zolarining bir-biriga tobelik, urug'chilik va qon-qarindoshlik munosabatlari bilan bog'liqligi natijasida shaxs erkinligi ham ta'minlanmadi. Boshqaruvdagi primitiv tizimlar imtiyozsiz jamiyat a'zolarining faolligini pasaytirib, bu holat shaxsning ijodiy faoliyat ko'rsatish va fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga imkon bermas, natijada o'zaro munosabatlar biqiq tarzda ro'y berar edi.

Zamonaviy jamiyatning paydo bo'lishi bilan insonning ijtimoiy va siyosiy munosabatlardagi o'rni yuksalib bordi. Bu jamiyatlarda o'zaro munosabatlarning bir-biriga ta'sir etish darajasi va mehnat taqsimotining chuqurlashuvi ro'y berdi. Bu jarayonlarning sekinlik bilan yuksak ta'lim va tajribaga, shuningdek,

yuqori kasbiy malakaga asoslanishi, ijtimoiy munosabatlarning qonunlar, me'yorlar, shartnomalar asosida muvofiqlashtirishning rasmiy tizimini yaratilishi zamonaviy jamiyatlarni xalqchil bo'lishiga zamin yaratdi. Dinni davlat va boshqaruvdan ajratilishi, ijtimoiy institutlarning ko'payishi va rivojlanishi kabi omillar natijasida insonlararo munosabatlar yuksalib, siyosiy institutlarni nazorat etish, inson huquq va erkinliklarini himoya etish, jamiyatda tenglik o'rnatish imkoniyatlari paydo bo'ldi. XX asrga kelib eng takomillashgan va zamonaviy kishilik birliklarini fuqarolik jamiyati, deb atash rusumga kirdi.

Ma'lumki, inson o'zining ijtimoiy mavjudot ekanligi va o'z mohiyatidan kelib chiqib tabiiy ravishda siyosiy munosabatlarda ishtirok etishga intiladi. Ijtimoiy-siyosiy munosabatlarda faol ishtirok etish ehtiyojlari va zaruriyati esa har bir fuqaroda o'z manfaatlarining faqat guruhiy shakldagina ifodalash va qondirish mumkin ekanligini anglab yetishiga zamin yaratadi. Turli xil ijtimoiy guruhlar va tabaqalarning turlicha manfaatlarini o'zaro to'qnashuvlar va ziddiyatlarga kirishishi, ularni o'zaro kelishtirish va muvozanatlashtirishsiz hal qilib bo'lmasligini anglash jarayonlari tabiiy ravishda xalqchil jamiyat va siyosiy hokimiyatga bo'lgan ehtiyojlarni shakllantirdi. Chunki, turli manfaatlar muvozanatini ta'minlashni faqat demokratik jamiyat bilan davlat hokimiyati hamkorligida amalga oshirish mumkin ekanligini tarixiy tajribalar isbotlab berdi. Shu sababli ham siyosiy ong turli xil ijtimoiy guruhlarning siyosiy institutlar va siyosiy subyektlar bilan o'zaro muloqot va munosabatlarga kirishishi uchun zaruriy ehtiyojlarni shakllantirdi hamda rasmiylashtirdi.

Fuqaro huquqlarini ta'minlashda insonning tabiiy huquqlarini e'tiborga olish muhim ahamiyatga egadir. Qadimgi antik faylasuflar talqinicha, tabiiy huquq tabiatiga bog'liq holda insonlar tug'ilishlaridanoq bir xildirlar. Ijtimoiy shartnomalar asosida qonun va davlat paydo bo'ldi. Aristotelning fikricha, insonni tug'ilishidayoq paydo bo'lgan xususiy mulkka bo'lgan tabiiy huquqi insonning tabiati va uning dastlabki o'zini o'zi sevishiga asoslanadi. Qolaversa, ana shu tabiiy huquqni ta'minlashga intilish, xususiy mulk jozibasi, uni saqlash va ko'paytirish manfaatlari insonni jamiyatda tezlik bilan ijtimoiylashuviga va faollashuviga olib keladi[157].

Inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yilgan. Ular asosan uchta guruhga bo'linadi:

1. Shaxsiy huquq va erkinliklar (VII bob); 2. Siyosiy huquqlari (VIII bob); 3. Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar (IX bob).

Fuqarolarning jamiyatga uyushib yashashi, o'z manfaatlari va huquqlarini amalga oshirishlari, davlat hokimiyati organlarining o'z vakolatlari va funksiyalarini amalga oshirishi uchun fuqarolar nafaqat huquq va erkinliklarga, balki ma'lum burchlarga ham ega bo'lishi lozim. Chunki, hech bir jamiyatda mutlaq erkinlik bo'lmaydi. Bir fuqaroning erkinligi o'z doirasidan chiqib boshqa fuqaroning erkinligiga to'siq bo'lmasligi lozim. Har qanday erkinlik qonunlar doirasida bo'lishi lozim. Shuning uchun ham fuqarolarning va davlat hokimiyati organlarining faoliyat yuritish doiralari Konstitutsiya va qonunlarda chegaralab qo'yiladi.

Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XI bobida (47–52-moddalar) fuqarolarning burchlari belgilab qo'yilgan. Fuqarolarning qonunchilik doirasidagi intizomga amal qilishi, davlat va jamiyat o'rnatgan tartib va qoidalarga rioya qilish jamiyatning yashashi va uni rivojlanishini ta'minlashning asosiy shartlaridan biridir. Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishi, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishlari shart. Shuning uchun ham Konstitutsiyaning 48-moddasida quyidagi qoida mustahkamlab qo'yilgan: «Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar»[158].

2. O'zbekistonda inson huquqlariga doir huquqiy asoslar

Konstitutsiya va inson huquqlari. O'zbekistonda Inson huquqlari va erkinliklariga doir qonun hujjatlarining asosi va poydevori O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidir. Konstitutsiya muqaddimasining eng birinchi qoidasi «inson huquqlariga va suvereniteti g'oyalariga sodiqligini tantanali ravishda e'lon qilib», degan so'zlardan iborat ekanligi uning eng asosiy vazifasi inson huquqlarini himoya qilish ekanligini anglatadi.

Asosiy Qonunimiz ko'plab demokratik davlatlarda konstitutsiyaviy qurilish sohasidagi ilg'or tajribalarning eng yaxshi jihatlarini, BMT tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining umume'tirof etilgan normalari hamda mazkur sohadagi boshqa xalqaro

hujjatlarga asoslangan inson huquq va manfaatlari, erkinligini ta'minlash va himoya qilish mexanizmini o'zida mujassam etgan.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridayoq O'zbekiston parlamenti Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga alohida ahamiyat berib, uni birinchi xalqaro shartnoma sifatida ratifikatsiya qildi. Bu bilan inson huquqlari hamda erkinliklari xalqaro prinsiplarini o'zining tashqi va ichki siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida qabul qildi.

Mustaqil O'zbekistonning 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyasi mamlakatimizda inson va fuqaro huquqlari hamda erkinliklarini himoya qilishning yuridik kafolati hisoblanadi. Inson huquqlari hamda erkinliklariga doir xalqaro prinsiplar va normalarga sodiq bo'lgan O'zbekiston suveren, demokratik huquqiy va dunyoviy davlat sifatida, eng avvalo, Konstitutsiyadagi prinsip va qoidalarning uchdan bir qismidan ko'prog'i inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan bo'lib, ularning ustuvorligi konstitutsiyaviy tarzda mustahkamlab qo'yildi. Sobiq ittifoq davridagi inson huquqlariga nisbatan davlat manfaatlarining ustuvorligi prinsipi barham topdi.

Mustaqillik davrida O'zbekiston jamiyatida inson huquqlarini himoya qilish va ularni ta'minlashning huquqiy asoslari rivojlangan mamlakatlar tajribasi va milliy qadriyatlar talablari darajasida shakllandi. Shuningdek, Konstitutsiya va qonunlar inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashning fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat talablari darajasidagi mezonlari va me'yorlarini yarata oldi. Konstitutsiyaning 24-moddasidagi «Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir», 25-moddasidagi «Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas», 27-moddasidagi «Har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalanish va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega. Hech kim qonun nazarda tutgan hollardan va tartibdan tashqari birovning turar joyiga kirishi, tintuv o'tkazishi yoki uni ko'zdan kechirishi, yozishmalar va telefonda so'zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emas», 29-moddasidagi «Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega...», 32-moddasidagi «O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o'z-o'zini boshqarish, referendumlar o'tkazish

va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish yo'li bilan amalga oshiriladi», 36-moddasidagi «Har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli. Bankka qo'yilgan omonatlar sir tutilishi va meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi», 43-moddasidagi «Davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi»[159] kabi fuqarolik jamiyati qurishning demokratik qadriyatlari va tamoyillari shakllanishini ta'minlaydigan qonun va qoidalarning kiritilishi O'zbekistonda demokratik jamiyat barpo etishning kelajak istiqbollarini belgilab berdi.

Mustaqillik davrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga doir 7 ta konstitutsiyaviy qonun, 16 ta kodeks va inson huquqlariga oid 600 dan ziyod qonunlar qabul qilindi. Ular orasida quyidagilarni alohida ko'rsatib o'tish mumkin:

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) to'g'risida»gi, «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi, «Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida»gi, «Jurnalistlarning kasbiy faoliyatini himoya qilish to'g'risida»gi, «Nodavlat notijorat tashkilotlar to'g'risida»gi, «Ayollar uchun qo'shimcha imtiyozlar to'g'risida»gi, «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi, «Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzuvchi xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida»gi, «Fuqarolar murojaatlari to'g'risida»gi, «Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi, «Advokatura to'g'risida»gi, «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi, «Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida»gi qonunlar.

O'zbekiston xalqi 130 dan ziyod etnik guruh vakillaridan tashkil topgan. Muhimi shundaki, Konstitutsiya inson va fuqaroning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar, barchaning qonun va sud oldida tengligini hamda huquq va erkinliklarining tengligini kafolatlab beradi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi jamiyat hayotida fuqarolarning turlicha fikrlashlarini, g'oyaviy qarashlarini erkin ifodalash va bildirish huquqini, ijod qilish, matbuot, axborot uzatish va uni tarqatish erkinliklarini kafolatlab beradi.

Konstitutsiyada bozor iqtisodiyoti munosabatlariga xos xususiy mulkka ega bo'lish va uning turli shakllarini mustahkamlab

qo'yilishi inson huquq va erkinliklarini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Sobiq ittifoq davrida taqiqlab qo'yilgan bu huquqlar hozirgi O'zbekistonda insonning ajralmas huquqi, farovonligining tabiiy manbayi, iqtisodiy va shaxsiy mustaqilligining kafolati sifatida e'tirof etilmoqda. Mulk daxlsiz bo'lib, hech kim o'z mulkidan o'zboshimchalik bilan mahrum etilishi mumkin emas, mulk faqat sud qaroriga asosan egasining irodasiga qarshi qo'yilishi mumkin, xolos. Konstitutsiyada xususiy mulk davlat mulki bilan bir qatorda himoya qilinishi to'g'risidagi butunlay yangi huquqiy norma amal qilmoqda. Shuningdek, har bir shaxsga mulkka ega bo'lish, unga egalik qilish, undan foydalanish va uni o'z ixtiyori bilan tasarruf qilish huquqi ham mustahkamlab qo'yilgan.

Mustaqillikning ilk davridan boshlab O'zbekiston xalqaro tashkilotlar faoliyatida ishtirok eta boshladi. Davlatimiz inson huquqlariga oid asosiy xalqaro hujjatlarga qo'shilish siyosatini olib bordi. Hozirgi davrda O'zbekiston deyarli barcha asosiy xalqaro hujjatlarni e'tirof etib, ularga qo'shilgan. Ular — Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya, Jeneva konvensiyasi va ularga qo'shimcha protokollar, Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Irqiy kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya, Qiynoq hamda muomala va jazolashning shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konvensiya, Yangi Yevropa uchun Parij Xartiyasi va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi inson huquqlarini himoya qilishga doir barcha xalqaro majburiyatlarni o'z zimmasiga olib, ularning bajarilishi yuzasidan muntazam ravishda milliy hisobotlar berib bormoqda. 2008-yilda parlament tomonidan Xalqaro mehnat tashkilotining bir necha konvensiyalari, jumladan «Ishga qabul qilish uchun minimal yosh to'g'risida»gi 138-konvensiya, «Bolalar mehnatining eng og'ir shakllarini taqiqlash va zudlik bilan barham berish to'g'risida»gi 182-konvensiya kabi xalqaro hujjatlar ratifikatsiya qilindi.

Fuqaro erkinligini ta'minlash uning burchlari bilan mustahkam bog'langandagina, real voqelikka aylanishi mumkin. Rivojlangan mamlakatlarda fuqaro burchlariga qonunlarga amal

qilish, boshqa shaxslar huquq va erkinliklarini hurmat qilish, soliqlarni to'lash, harbiy majburiyat, tabiat, atrof-muhit, tarixiy yodgorliklarni asrash kabilar kiradi. Shuning uchun ham O'zbekiston Konstitutsiyasining IX bobidagi 6 ta modda maxsus ravishda fuqarolarning burchlarini mustahkamlab qo'ygan. Xususan, Konstitutsiyaning 48-moddasi quyidagicha ifodalanadi: «Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar»[160].

Ba'zi mamlakatlarda esa davlat hokimiyati organlariga saylovlarda ovoz berish ham muhim fuqarolik burchlaridan biri hisoblanadi. Demokratik jamiyat qurish tajribalari ko'rsatdiki, qaysi bir jamiyatda mansabi, irqi, jinsi va boshqa ijtimoiy darajasi qanday bo'lishidan qat'iy nazar, fuqarolar konstitutsiya va qonunlar bilan mustahkamlab qo'yilgan o'z burchlarini amalda bajarganlaridagina, o'zlari uchun tegishli bo'lgan erkinliklari va huquqlaridan foydalana olishlari mumkin. Aks holda, bu demokratik qadriyatlar qo'pol ravishda buzilib ketishi mumkin.

3. Fuqarolarning ijtimoiy faollashuvi – demokratik jamiyat qurish omili

Fuqarolik jamiyatini barpo etishda fuqarolarning ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etishi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Bu haqda mamlakat Prezidenti I.A.Karimov quyidagi fikrni bildiradi: «Hokimiyat tuzilmalarining demokratik mazmuni ko'p jihatdan davlatni boshqarishda fuqarolarning ishtirok etish masalasi qanchalik hal qilinganligi bilan belgilanishi ma'lum. O'zbekistonda ushbu huquqning amal qilishi uchun qonun asoslari yaratilgan. Biroq hali jamiyat va fuqarolar davlatni boshqarishda ishtirok etish, o'zlari qanday boshqarilayotganligi haqida ma'lumot olish huquqini anglay boshlashiga va bu huquqdan foydalana oladigan bo'lishlariga erishish kerak. Shunday sharoitdagina davlat va uning institutlari, mansabdor shaxslar jamiyat va fuqaro oldidagi o'z mas'uliyatlarini his qiladilar. Buning uchun fuqarolarning siyosiy faolligini oshirish zarur. Barqaror, mustahkam tizimlarda, agar fuqarolarning siyosiy manfaatlarini ro'yobga chiqarish uchun hamma huquqiy, demokratik shart-sharoitlar yaratilgan bo'lsa, aholining o'zi ixtiyoriy ravishda, professional asosda mamlakatning siyosiy hayotida tobora keng ishtirok etadi»[161].

Fuqarolar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarining o'rni beqiyosdir. Hozirgi davrda O'zbekiston jamiyatida millionlab fuqarolar kasaba uyushmalari faoliyatida va siyosiy partiyalar a'zolari sifatida jamoatchilik ishlarida ishtirok etadilar. Shuningdek, jamiyat a'zolarining aksariyati yoshlar, xotin-qizlar, turli jamg'armalar, nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatida ishtirok etadilar. Mamlakatda viloyatlarda 661 ta, tumanlarda 4564 ta, shaharlarda 831 ta Qoraqalpog'iston Jo'qorg'i Kengashi, viloyat, shahar va tuman kengashlari deputatlari, 10000 ga yaqin o'zini o'zi boshqarish organlari ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etmoqda.

Mustaqillik davrida yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishga ham muhim e'tibor berildi. Mamlakatda O'zbekiston yoshlarining «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati jamiyatning barcha yo'nalishlarida keng faoliyat olib bormoqda. Harakat faoliyatining asosiy maqsadi — yoshlarni birlashtirish, sog'lom turmush talablari asosida tarbiyalash, ularning manfaatlarini himoya qilish, yosh yigit-qizlarning o'z aql-zakovati, kuch-g'ayratini to'la namoyon etishi, jamiyatda munosib o'rin egallashlari uchun shart-sharoit yaratib berishdan iborat, deb belgilangan.

Ijtimoiy-siyosiy faollikni oshirishda saylovlar muhim o'rin tutadi. Unda avvalo, saylovchilarning ixtiyoriy bergan ovozlariga binoan siyosiy institutlar legitimligi oshadi. Qolaversa, saylovlarda jamiyatdagi turli xil guruhlarning tinch raqobatdoshligi kutilganligi sababli ham saylash jarayonlari siyosiy ziddiyatlarni hal etishga olib keladi. Shuningdek, saylovlar aholi siyosiy manfaatlarini ifoda etuvchi siyosiy partiyalar, boshqa siyosiy tashkilotlarning faol harakatlari tufayli turli ekstremistik harakatlarni cheklab turadi. Shu bilan birga saylovlar fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy ijtimoiylashuviga ko'maklashadi. Saylovlardagi turli kampaniyalar, ularni ommaviy axborot vositalarida yoritish kabi tadbirlar saylovchilar siyosiy va huquqiy madaniyatlarini yuksaltiradi. Shuningdek, saylovlar fuqarolarning siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishiga qulay imkoniyatlar yaratadi.

XX asr 90-yillarining oxiri — yangi asr boshlaridagi siyosiy islohotlarning muhim ahamiyati shunda bo'ldiki, bu paytga kelib xalq ommasini ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ular siyosiy madaniyatini yuksaltirish, demokratiyaning eng muhim tamoyillarini hayotga tatbiq etish uchun shart-sharoitlar yaratildi.

O'zbekistonda siyosiy jarayonlarni demokratlashtirishning o'ziga xos qadriyatlari shakllandi. Mamlakat Prezidenti I.A.Karimov mustaqillik davridagi tajribalarni va yetakchi xorijiy mamlakatlar ijtimoiy-siyosiy hayotini chuqur tahlil etib, fuqarolarning siyosiy jarayonlarda ishtirok etishining demokratik tamoyillarini ilgari surdi: «Jamiyatda demokratiya qay darajada ekanligini belgilovchi kamida uchta mezon bor. Bular — xalqning qarorlar qabul qilish jarayonlaridan qanchalik xabardorligidir. Hukumat qarorlari xalq tomonidan qanchalik nazorat qilinishi, oddiy fuqarolar davlatni boshqarishda qanchalik ishtirok etishidir. O'z-o'zidan ravshanki, siyosiy tuzum to'la-to'kis amal qilishini va uning yanada erkinlashuvini ta'minlash uchun uni tashkil etuvchi hamma tuzilmalar, ya'ni mavjud subyektlar — shaxs, siyosiy institutlar, aholining ijtimoiy guruhlari hamda qatlamlari va hokazolar to'laqonli faoliyat ko'rsatishiga erishish zarur» [162].

Ko'rinib turibdiki, siyosiy ong va siyosiy madaniyat yuksalishida fuqarolarning siyosiy qarorlar qabul qilishdagi ishtirokining ahamiyati beqiyosdir. Fuqarolar jamoat tashkilotlari faoliyati vositasida yoki bevosita siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirok etar ekan, ularda quyidagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar sodir bo'lishi kutiladi:

- fuqarolarning siyosiy qarorlar qabul qilishdagi ishtiroki ularning tabiiy siyosiy-ijtimoiy his-tuyg'ularini uyg'otadi, harakatga keltiradi, bu yo'nalishga doir intilishlar shakllanadi. Yoki qisqacha aytganda, har bir fuqaroning ijtimoiylashuv jarayoni amalga oshadi;

- qarorlar qabul qilishdagi faol siyosiy harakatlar; bu jarayonda oddiy fuqarolar manfaatlari, ehtiyojlari va intilishlarining hisobga olinishi ularga erkin insoniy qadr-qimmat bag'ishlaydi. Eng asosiysi, bu qarorlarning xalq taqdiridagi ahamiyati fuqarolarda siyosiy mas'uliyat ruhini shakllantiradi;

- fuqarolarning siyosiy qarorlar qabul qilishda turli ijtimoiy guruhlarning manfaatlarini turli jamoat tashkilotlari va siyosiy partiyalar vositasida ifodalanishidan qoniqishlari ularni yanada faollashtiradi; natijada o'zaro manfaatlar kelishuvi oqibatida jamiyatning barqaror bo'lishiga katta hissa qo'shiladi;

- bu ishtirok har bir fuqaroning o'zligini anglashga, uning jamiyatdan o'ziga munosib o'rin egallashiga shart-sharoitlar yaratadi, o'z mamlakatiga egalik hissini shakllantirib, milliy iftixor tuyg'ulari yuksalishini ta'minlaydi;

- davlat hokimiyati jamiyatdagi barcha ijtimoiy tabaqalar va guruhlar manfaatlarini o'z siyosiy qarorlarida ifodalanishiga erishiladi; mazkur qarorlarni hayotda amalga oshishi natijasida siyosiy hokimiyat yanada legitimlashadi; davlat organlarini, fuqarolarni boshqarish, siyosiy qarorlarni bajarishni ta'minlashga doir jarayonlar va ma'muriy tadbirlarni amalga oshirishni jamiyat hech bir zo'riqishsiz va ixtiyoriy ravishda qabul qiladi; shuningdek, bu faoliyat fuqarolar tomonidan keng qo'llab-quvvatlanadi;

- bu jarayonlar jamiyatdagi ko'pchilik fuqarolarning irodasini ifodalanishiga shart-sharoitlar yaratib, jamiyat va davlat hokimiyatining demokratik tamoyillar asosida faoliyat ko'rsatish salohiyatini oshiradi[163].

Xulosa qilib aytganda, fuqarolar o'z siyosiy faolliklarini yuksaltirishi, yuqoridan qabul qilinadigan qarorlar qabul qilishda bevosita yoki o'z manfaatlari guruhlari vositasida keng ishtirok etishi mamlakatda fuqarolik jamiyati qurish kafolatlaridan biridir. Ayniqsa, fuqarolarning bu sohada sobiq totalitar jamiyat meros qilib qoldirgan yakka hokim mafkura asoratlaridan xalos bo'lishi, ularning dunyoqarashiga, siyosiy ongi va amaliy xatti-harakatiga demokratik qadriyatlarni singdirib borishga muhim ahamiyat berish dolzarb vazifalardan biridir.

Fuqarolar faolligini oshirishda ularning siyosat va hokimiyat hodisalariga nisbatan shaxsiy munosabatlarini ifodalovchi baholash hukmlari ahamiyatga molik ma'naviy hodisadir. Bunday shaxsiy-mazmuniy munosabatlarning mavjudligi insonning o'z fuqarolik burchini anglab yetgan siyosiy subyekt sifatida faoliyat ko'rsata olishini ifoda etadi. Shuning uchun insonning qadriyatlarga doir munosabatlarining turlicha shaklda ro'y berishi (masalan, hokimiyatga, davlatga, partiyalarga va institutlashmagan subyektlarga nisbatan) siyosiy madaniyatning muhim tuzilishini tavsiflab beradi.

Umuman, siyosiy madaniyat insonning siyosiy hodisalar haqidagi qadriyatlarga doir tasavvurlari va uning amaliyotda namoyon bo'ladigan xulqining kodeksi yoki uning siyosiy hokimiyat subyekti sifatidagi faoliyatining uslubidir. Shu ma'noda, siyosiy madaniyat fuqaroning umuminsoniy ahamiyatga molik bo'lgan siyosiy faoliyat namunalarini qay darajada egallaganligini namoyish qiladi. Shuningdek, u insonning tafakkurlash va amaliy faoliyat me'yorlarining jamiyat madaniy, deb tan oladigan subyektivligini qanchalik darajada oshira olganligi hamdir.

Jamiyatning har bir a'zosi ijtimoiylashuv va kamolotga erishish jarayonida ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatida shakllanadi. Shuningdek, inson jamiyatda hukmron bo'lgan ijtimoiy-madaniy tizimning asosiy xususiyatlarini o'zida uyg'unlashtiradi va umumlashtiradi. Ayni paytda har bir individ siyosiy madaniyat tashuvchi hisoblanadi va shu sababli ham siyosiy madaniyat siyosiy-madaniy tizimning umumlashtiruvchi, birlashtiruvchi qismi deb qaraladi. Siyosiy madaniyat — bu munosabatlar tizimi va ayni paytda avlodlar almashinuvi natijasi, uni tashkil etuvchi unsurlarni ishlab chiqish va qayta ishlab chiqish jarayonidir. Siyosiy madaniyat rivojlanib boruvchi dinamik hodisadir.

Insonda dunyoqarash shakllanganidan so'ng uni himoya qilishga qodir huquqiy madaniyat shakllanishiga shart-sharoitlar yaratish zaruriyati tug'iladi. Demak, huquqiy madaniyat va huquqiy himoyaning mavjudligi jamiyatni demokratiyalashning asosiy kafolatlaridan biridir. Qolaversa, demokratiyani tabiiy ravishda rivojlantirish uchun fuqarolarning umumiy madaniyatlilik darajasi ham yuqori bo'lishi lozim. Aniqrog'i, demokratik jarayon bilan insonning madaniyatliligi o'rtasidagi muvozanat doimiy xarakteriga ega bo'lishi kerak. Faqat yuksak madaniyatgina jamiyatni haqiqiy demokratik rivojlanishga olib keladi. Shuningdek, bu jarayonlar inqilobiy emas, balki tadrijiy yo'l bilan bo'lishi zarurligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni tabiiy rivojlanish yo'li boshqa usullarga qaraganda eng ma'qulidir. Jahon tarixiy tajribasi bunday yo'lni oxirgi yutuq sifatida tanlagani bejiz emas.

Siyosiy madaniyat uzoq yillar va avlodlar almashinuvi natijasida tarkib topgan siyosiy an'analar, siyosiy amaliyot me'yorlari, g'oyalar, turli ijtimoiy institutlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga doir konsepsiyalar va e'tiqodlarni o'z ichiga oladi. U kishilarning o'zlari yashayotgan mavjud tizimga, undagi institutlarga va xatti-harakat qoidalariga, alohida shaxs, jamiyat va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tamoyillariga nisbatan shakllangan intilishlari va ko'rsatmalarni ham o'z ichiga qamrab oladi[164].

Siyosiy madaniyatni tashkil etuvchi qadriyatlar, yo'nalishlar, ko'rsatmalar, streotiplar siyosiy tizimning shakllanishi va saqlanib qolishida asosiy o'rinni egallaydi. Jamiyat a'zolari o'zaro baham ko'radigan «ijobiy» qadriyatlar tizimi miqdori uning alohida komponentlari o'rtasidagi o'zaro murosa va kelishuvni belgilaydi

va uning barqarorligi hamda yashab qolish qobiliyatining nechog'lik mustaqil ekanligini aniqlab beradi.

Kishilar o'zlarini ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy manfaatlari yoki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun amaliyotda ishtirok eta boshlagandagina, siyosiy madaniyat shakllanib boradi. Bunday madaniyatni egallash faqat siyosiy partiyalar, manfaatlar guruhlari faoliyatida ishtirok etish orqaligina ro'y beradi. Hech bir inson yakka o'zi harakat qilib, o'zining moddiy, siyosiy, huquqiy manfaatini yoki erkin fikrlash huquqini qo'lga kiritolmaydi.

Siyosiy madaniyatning totalitar turi jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotining prinsipial bir xillik bo'lishiga asoslanadi hamda har qanday turli-tumanlik, rang-baranglikni yo'qotishga moyil g'oyalarga tayanadi. Sobiq SSSRdagi madaniyatning bu turi turli ijtimoiy guruhlarning o'ziga xos maqsad va manfaatlarini ochiq namoyon qilishga yo'l qo'ymaydi. Shu bilan birga totalitar rejim fuqarolarning siyosiy hayotdagi tanlash imkoniyatlarini chegaralar, har qanday muqobillikni inkor qilar, bitta mulkchilik turi, bitta partiya, bir o'ringa bitta nomzod kabi cheklashlarni oldindan belgilab berar edi. Bu holat o'z navbatida total turg'unlikni, qolaversa yemirilishni ham keltirib chiqardi[165].

Hozirgi davrga kelib mamlakatda fuqarolik jamiyatining rivojlanib borishiga mutanosib ravishda fuqarolarning siyosiy madaniyati ham yuksalib bormoqda. Ayniqsa, zamonaviy ta'lim tizimiga xos bo'lgan bilimlarni berish, ularning axborot-kommunikatsiya vositalariga asoslangan ijtimoiy hayotda ishtirok etishlarining faollashuvi natijasida yoshlar dunyoqarashiga fuqarolik jamiyatiga xos bo'lgan demokratik qadriyatlar singib bormoqda. Hozirgi yosh avlod mustaqillik arafasidagi yoshlardan o'zining intellektual salohiyati, ijtimoiy jarayonlardagi faoliyati, milliy qadriyatlarni yuqori darajada o'zida namoyon qilishi bilan tubdan farq qiladi. Hech shubhasiz aytish mumkinki, mamlakatda fuqarolik jamiyatini qurishda yoshlarning o'rni katta bo'ladi.

4. Inson huquq va erkinligini himoyalashning demokratik institutlari

O'zbekiston Respublikasida qonun hujjatlari bazasini yaratish bilan barobar inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish mexanizmlarini institutsional rasmiylashtirishga qaratilgan ulkan

ishlar olib borildi. Ushbu jarayonda davlat asosiy tashabbuskor bo'lib ishtirok etganini ta'kidlash joiz. BMTning Inson huquqlari bo'yicha Ikkinchi jahon konferensiyasining (1993-yil, Vena) har bir mamlakatda inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar tuzish to'g'risidagi da'vatiga binoan O'zbekistonda quyidagi demokratik institutlar tashkil etildi:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi;
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman);
3. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy markazi;
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonunchilikni monitoring qilish instituti;
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bo'yicha qo'mitasi.

Mazkur demokratik institutlar mamlakatda inson huquq va erkinliklarini himoyalashda, shuningdek bu sohadagi faoliyatni ta'minlashning asosiy omili – jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlashda o'zining samarali natijalarini bermoqda. Hozirgi davrga kelib O'zbekiston inson huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan 70 dan ortiq asosiy xalqaro hujjatlarga qo'shilgan. Ularni ichida Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi, Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya, Jeneva Konvensiyasi va unga Qo'shimcha Protokollar, Ayollarga nisbatan har qanday shakllardagi kamsitishlarni tugatishga doir Konvensiya, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida xalqaro pakt, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida xalqaro pakt, Barcha shakllardagi irqiy kamsitishlarni tugatishga doir xalqaro Konvensiya, qiynoqlar va boshqa noinsoniy shavqatsiz yoki qadr-qimmatni tahqirlovchi munosabatlar va jazolashlar holatlariga qarshi Konvensiya, Yangi Yevropa uchun Parij Xartiyasi kabilarni ko'rsatish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman). Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatiga xos bo'lgan qonun ustuvorligini, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) institutining ahamiyati kattadir.

Jahonda dastlab Ombudsman instituti 1709-yil Shvetsiya qiroli huzurida tashkil topdi. Hozirgi davrda deyarli barcha demok-

ratik mamlakatlarda Ombudsman instituti tashkil etilgan. Ombudsmanning muhim xususiyatlaridan biri uning mustaqilligidir. Ombudsman ba'zi mamlakatlarda parlament tomonidan maxsus saylangan (tayinlangan), davlat organlari harakatlarining qonuniyligi hamda fuqarolar huquq va erkinliklariga rioya etilishini kuzatuvchi mansabdor shaxsdir.

O'zbekistonda Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) 1995-yilda Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib Prezident I.A.Karimovning tashabbusi bilan tashkil etilgan. Hozirgi davrga kelib jahonda Ombudsman instituti ko'payib, 130 ta davlatda faoliyat yuritmoqda.

O'zbekiston Respublikasining «Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) to'g'risida»gi qonunning 1-moddasiga muvofiq Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili — mansabdor shaxs bo'lib, unga O'zbekiston Respublikasida davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslar tomonidan inson huquqlari to'g'risidagi amaldagi qonun hujjatlariga rioya etilishining samaradorligi ustidan parlament nazoratini ta'minlash vakolatlari berilgan.

O'zbekiston Respublikasining Inson huquqlari bo'yicha vakili instituti inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning mavjud shakllari va vositalarini to'ldiradi. Vakil O'zbekiston Respublikasining inson huquqlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish va ularni xalqaro huquq normalariga muvofiqlashtirishga, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi, fuqarolarning inson huquqlari sohasidagi ijtimoiy ongini oshirishga ko'maklashadi[166].

Inson huquqlari bo'yicha vakil quyidagi huquqlarga egadir:

- fuqarolar shikoyatlarini ko'rib chiqish;
- arizachi o'z huquqlari, erkinliklari o'z qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun foydalanishi mumkin bo'lgan vositalar va shakllarni ko'rsatish;
- shikoyatni uning mohiyatiga ko'ra hal qilishga vakolatli bo'lgan tashkilot yoki mansabdor shaxsga yuborish;
- arizachini uning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishtirish[167].

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi. O'zbekistonda qonun ustuvorligini ta'minlash, inson

huquq va erkinliklarini himoya qilishda Prezident I.A.Karimovning tashabbusi bilan 1996-yil 31-oktabrda tashkil etilgan Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi ulkan ishlarni amalga oshirdi. Hozirgi davrda Milliy markaz nafaqat mamlakatimizda, balki jahondagi inson huquqlari, erkinliklarini jahon xalqaro huquq normalari asosida himoya etish instituti sifatida e'tirof etildi.

O'zbekiston Respublikasi BMT va uning tegishli qo'mitalariga inson huquq va erkinliklarini ta'minlash va himoyalashga doir xalqaro va milliy huquq normalari, boshqa xalqaro majburiyatlar ijrosiga doir Milliy ma'ruzalarni muntazam ravishda taqdim etib turadi. Bu Milliy ma'ruzarlarni tayyorlashni muvofiqlashtirish Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi tomonidan amalga oshiriladi.

Uning asosiy vazifalari sirasiga inson huquq va erkinliklari sohasiga oid Konstitutsiya prinsiplari va qoidalari, qonunlar, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalarini amalga oshirish faoliyati va strategiyasining, shuningdek O'zbekiston Respublikasining inson huquq va erkinliklarini himoya qilish sohasida xalqaro va milliy tashkilotlar bilan hamkorligini rivojlantirish milliy rejasini ishlab chiqish, Milliy ma'ruzani tayyorlash kabilar kiradi. Undan tashqari, Milliy markaz inson huquq va erkinliklari bo'yicha davlat hokimiyati va boshqaruvi, jamoat birlashmalariga maslahatlar berish vazifasini ham bajaradi.

Shuningdek, u respublikada inson huquqlarini amalga oshirish va rivojlantirishga doir axborot ma'lumotlari bazasini tuzish, bu sohaga doir o'quv-uslubiy adabiyotlarini nashr etish yo'nalishlarini ham muvofiqlashtiradi. Mustaqillik davrida Milliy markaz tomonidan 30 ta milliy ma'ruzalar, BMT organlari va BMT Kengashining inson huquqlari va Universal davriy obzori (umumlashtiruvchi qisqacha ma'lumotlari) bo'yicha 10 ta milliy faoliyat rejasini tayyorladi. Shu bilan birga, Milliy markaz inson huquqlari va erkinliklariga tegishli bo'lgan masalalar yuzasidan qonunlar loyihalarini tayyorlash, ularni ekspertizalardan o'tkazish vositalarida qonunchilik faoliyatiga ham jalb etilgan. U muntazam ravishda fuqarolarning qonuniy murojaatlarini o'rganish vositasida ularning qonuniy manfaatlari, huquq va erkinliklarini ta'minlash monitoringini ham amalga oshirib boradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti. Mazkur institut dastlab

Oliy Majlis Kengashining 1996-yil 3-dekabrdagi qarori asosida Oliy Majlis huzuridagi Amaldagi qonunchilik monitoringi instituti ilmiy-tadqiqot muassasasi sifatida tashkil etilgan edi. Mamlakatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini himoyalashni ta'minlashni yanada demokratiyalashtirish maqsadida mazkur institutning huquqiy maqomi yanada yuqoriga ko'tarildi: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 2-aprelda «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi institutini tashkil etish to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi. Mazkur institut o'z maqomiga ko'ra ilmiy-tadqiqot ekspertlik muassasasi hisoblana boshladi.

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasining qoidalarini izchillik bilan tatbiq etish, jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolik jamiyati qurish sharoitida inson huquq va erkinliklarini ta'minlashdagi rolini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 4-mayda «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» Farmoni qabul qilindi. Farmonda institut faoliyatining quyidagi asosiy yo'nalishlari belgilab berildi:

- davlat va jamiyat qurilishi sohasidagi demokratik islohotlar jarayonini, hokimiyatlar bo'linishi konstitutsiyaviy prinsipining hayotga izchil tatbiq etilishini tizimli tahlil qilish, ijro etuvchi, qonun chiqaruvchi va sud hokimiyati tarmoqlarining mustaqilligi va erkinligini kuchaytirish, ularning kelishilgan holda faoliyat yuritishi hamda hamkorligini, ular o'rtasida muvozanatni ta'minlash, davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali tizimini shakllantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

- hokimiyatning ijro etuvchi tarmog'ini isloh qilish va demokratlashtirish masalalarini kompleks o'rganish, ayrim hokimiyat vakolatlari va funksiyalarini markaziy davlat hokimiyati organlaridan, hukumatdan boshlab mahalliy davlat hokimiyati organlariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkazish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari, siyosiy partiyalarning parlamentdagi fraksiyalari, joylardagi deputatlik

guruhlarining qonun ijodkorligi, nazorat-tahlil faoliyati samaradorligini oshirish masalalarini chuqur o'rganish; siyosiy partiyalarning davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini shakllantirishdagi, ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan samarali parlament, deputatlik nazoratini amalga oshirishdagi rolini kuchaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

- jamiyatda demokratiya va adolatni ta'minlashning eng muhim omili sifatida sud hokimiyati mustaqilligi va erkinligini mustahkamlash jarayonlarini kompleks tahlil qilish, sudni inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini muhofaza va himoya etishga xizmat qiladigan davlatning tom ma'nodagi mustaqil institutiga aylantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

- hokimiyatlar bo'linishi prinsipini hayotga tatbiq etish, ularning samarali tarzda kelishilgan holda faoliyat yuritishi hamda hamkorligini ta'minlash bo'yicha rivojlangan demokratik mamlakatlar tajribasini tizimli o'rganish, ushbu tajribadan globallashuv sharoitida jahonda ro'y berayotgan demokratik jarayonlarni chuqurlashtirishning zamonaviy tendensiyalarini hisobga olgan holda davlat qurilishi tizimida foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqish[168].

O'zbekistonda inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning xalqaro normalari talablariga javob bera oladigan qonunchilik asoslari va demokratik institutlari shakllantirildi. Shu bilan birga, bu sohada yana fuqarolik jamiyatiga xos bo'lgan inson huquq va erkinliklarini himoya qilish tizimini rivojlantirish islohotlari yanada chuqurlashib bormoqda. Ayniqsa, Prezident I.A.Karimov tomonidan ilgari surilgan «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»da bu sohadagi islohotlar yanada chuqurlashtirilishi e'tiborga molikdir. Konsepsiyada quyidagi vazifa belgilandi: «Inson huquqlari sohasida milliy harakat dasturini ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega. Ushbu dastur eng avvalo huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari tomonidan inson huquq va erkinliklarining himoya qilinishini ta'minlash, jamiyatda inson huquqlari bo'yicha madaniyatni shakllantirish va shu kabi boshqa sohalarga oid qonunlarga rioya etilishi ustidan jamoatchilik monitoringini olib borishga qaratilgan chora-tadbirlarni o'zida mujassam etishi kerak[169]».

Ko'rinib turibdiki, mamlakatda inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning rivojlangan mamlakatlarga xos bo'lgan qonunchilik asoslari va demokratik institutlari shakllantirildi. Bu sohada mamlakat mustaqillik davrida asrlarga teng bo'lgan taraqqiyotga erishdi. Mamlakatda inson huquq va erkinliklarini e'tirof etish, ta'minlash, bu qadriyatlarga hurmat bilan qarash milliy qadriyatlarga aylanib bormoqda. Hozirgi O'zbekiston inson huquqlarini ta'minlash va himoya qilishning ko'p sohalarida jahondagi mamlakatlarga o'rnak bo'lmoqda. Albatta, bu sohadagi yutuqlar mustaqillik, tinchlik va barqarorlik samarasidir.

Takrorlash uchun savollar:

1. Fuqaro erkinligi va huquqi deganda nimani tushunasiz?
2. O'zbekistonda xalqaro me'yorlardagi fuqaro erkinliklari va huquqlarini ta'minlash qanday amalga oshirildi?
3. O'zbekistonda inson huquqlariga doir huquqiy asoslarni sharhlab bering.
4. Nima uchun fuqarolar ijtimoiy faollashuvi demokratik jamiyat qurish omili bo'lishi mumkin?
5. O'zbekistonda qanday inson huquq va erkinligini himoyalashning demokratik institutlari mavjud? Ular faoliyati to'g'risida nimalarni bilasiz?

11-mavzu: DEMOKRATIK BOZOR ISLOHOTLARI VA IQTISODIYOTNI LIBERALLASHTIRISH

1. Sobiq ittifoq davri iqtisodiyoti va uning inqirozi.
2. Bozor munosabatlariga o'tish va milliy iqtisodiyotning rivojlanishi.
3. Tadbirkorlik va xususiy mulkchilikning rivojlanishi.
4. Bozor islohotlari va iqtisodiyotni liberallashtirish istiqbollari.

1. Sobiq ittifoq davri iqtisodiyoti va uning inqirozi

Hozirgi davrda O'zbekiston qisqa davr ichida asrlar davomida rivojlanishga teng bo'lgan yo'lni bosib o'tdi. Mamlakatning hozirgi iqtisodiy salohiyatini tasavvur etish uchun mustaqillik davridagi yutuqlarimizni sobiq totalitar tuzum davriga qiyoslashga zarurat tug'iladi. Sobiq ittifoq davrida partiyaga sig'inish, shuningdek, shaxsga sig'inishga zo'r berildi. Hatto bu davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Ko'p o'tmay mamlakatda totalitarizmga xos bo'lgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimi asosidagi «kazarma sotsializmi» g'alaba qildi. Leninizm niqobiga puxta o'ralgan stalinizm jamiyatning hamma sohalariga kuch, aldov, qo'rqitish, proletariat diktaturasi kabi vositalar bilan singdirildi. Qisqa davr ichida mamlakatda totalitar rejim g'alaba qildi. Bir necha o'n yillar ichida bunday siyosat natijasida xalq ommasi ijtimoiy va erkin fikrlashdan butunlay mahrum etildi. Axloqiy nopoklik har tomonlama rag'batlantirildi. Mamlakat tashqi dunyodan butunlay uzib qo'yildi. Demokratiyaning elementar ko'rinishlari ham tormor qilindi.

O'sha mash'um davrlarni Prezident Islom Karimov quyidagicha ifodalagan edi: «Ayni vaqtda sotsialistik qurilishning ko'pgina bosqichlarida qo'pol xatolar va buzilishlarga yo'l qo'yilganini ham hech kim, hech narsa shubha ostiga qo'ya olmaydi. Bu xato va jinoyatlarning ildizlari o'tmishga borib taqaladi. Shaxsga sig'inish yillarida, turg'unlik yillarida noto'g'ri yo'l-yo'riqlar, maqsadlar va ularga erishish yo'llari butunlay buzib, soxtalashtirib yuborildi. Asossiz ravishda qilingan ommaviy qatag'onlarni, kollektivlashtirish va sanoatlashtirish davrida turmushning asosiy negizlari shafqatsizlik bilan barbod qilingani, xalqlarning ma'naviy qadriyat va an'analari qalbakilashtirilgani,

ayrim kishilar pulga sotilib, aynib ketganligi, ijtimoiy-iqtisodiy inqirozga uchragan odamlar xalqning eng zarur ehtiyojlari va hayotiy talablarini pisand qilmay qo'yganliklarini ko'rsatuvchi tobora yangi-yangi dahshatli misollar hozir ma'lum bo'lib qolmoqda»[170].

Sobiq ittifoq iqtisodiyoti XX asrning 60-yillaridan o'z inqirozini boshlagan edi. Bu davrga kelib iqtisodiyotda ziddiyatlar kuchayib, mavjud ma'muriy-qo'mondonlik boshqaruv usulini qo'llash oqibatida inqirozning oldini olish imkoniyatlari boy berildi. Inqirozning aniq ko'rinishlaridan biri sohaga ajratilayotgan sarf-xarajatlarning o'sishiga qaramay rivojlanish sur'atlarining pasayishida namoyon bo'ldi. Inqirozdan chiqish uchun iqtisodiy omillar ishga solinmadi, iqtisodiyotning rivojlanish qonuniyatlari e'tiborga olinmadi.

O'tgan asrning 80-yillariga kelib iqtisodiy inqirozdan chiqishga qaratilgan barcha urinishlar ham zoe ketdi. «Qayta qurish» siyosati bozor munosabatlari qonuniyatlariga zid boshqaruv usullariga asoslanganligi, moddiy rag'batlantirish vositalari hisobga olinmaganligi, barcha resurslar yakkahokim partiya tomonidan tasarruf etilganligi uchun ham kutilgan samarasini bermadi.

Bu paytga kelib O'zbekiston iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha ham ittifoqda oxirgi o'rinlardan birini egallagandi. Jumladan, yalpi milliy daromad hajmi ittifoqdagi o'rtacha darajadan ikki marta kam edi. Shuningdek, aholining oziq-ovqat mahsulotlari va ijtimoiy ta'minlanish darajasi ham eng past ko'rsatkichlardan birini tashkil etardi.

O'zbekistonda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish borasida bir tomonlama, ya'ni uni faqat xomashyo tayyorlashga moslashtirilganligi oqibatida sanoat sohasida ham yurtimiz qoloq mintaqalardan biriga aylangan edi. Faqat xomashyoga dastlabki ishlov berish sanoat tarmoqlarigina shakllandi, xolos. O'sha davda respublikada ishlab chiqarilgan sanoat tayyor mahsulotlari salmog'i umumiy mahsulotlarning faqat 25 foizini, xalq iste'moli mollari esa ittifoqdagi o'rtacha ko'rsatkichning faqat 40 foizini tashkil etdi.

Markaz asosan bizdan xomashyo mahsulotlarini olib ketardi. Markaz va boshqa respublikalardan esa asbob-uskunalar va tayyor mahsulotlar keltirilardi. Bunday ahvol shimoldagi respublikalar sanoatini o'sishini ta'minlar, O'zbekiston sanoatini esa turg'unlik holatida bo'lishga majbur etar edi. Iqtisodiy rivojlanishga doir dasturlar, partiya va hukumat qarorlarida ittifoqdosh respublikalar

manfaatlari hisobga olinmas, asosiy maqsad ittifoqning umumiy ko'rsatkichlariga qaratilar edi. Qayta qurish davrida ham markaz inqirozlar sabablarini ittifoqdosh respublikalarga to'nkab, xalq iste'moli mollari bilan aholini ta'minlash vazifasini ham butunlay ular zimmasiga yuklab qo'ydi. 70 yil markazning keng iste'mol mollarini taqsimlashiga o'rgangan respublikalarda aholini birlamchi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda uzilishlar boshlandi. Odamlar o'rtasida ertangi kunga ishonch yo'qolib, turli mintaqalarda ommaviy mitingbozliklar, namoyishlar avj oldi.

O'zbekiston ulkan mamlakatning paxta xomashyosi yetkazib beruvchi bazasiga aylantirildi. Yetishtirilgan paxta hosiliga markaz egalik qila boshladi. Bunday ahvol respublikamizning agrar mintaqa bo'lishini taqozo etdi. Oqibatda iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotning hamma sohalarida qo'shni davlatlar va ittifoqdosh respublikalardan bir necha marta orqada qolib ketildi. Markazning ko'zga ko'rinmas, niqoblangan mustamlakachilik siyosati partiyaning hamma sohalarini o'ziga qamrab olgan edi.

Turg'unlik davrida ham ana shu siyosat madaniyroq va puxta niqoblangan ravishda davom etdi. Ittifoqning Yevropa qismida to'xtovsiz ravishda kuchayib borayotgan xomashyoga bo'lgan talabni qondirish maqsadida O'zbekistonda paxta yetishtirishning eng oxirgi imkoniyatlari ham ishga solindi. Oqibatda ekologik holat yanada yomonlashdi, mehnat yanada og'irlashdi. Xalqning turmush kechirish darajasi qiyinlashib, iqtisodiy-ijtimoiy muammolar yanada keskinlashdi.

Kommunistik partiya rahbarlaridan bir guruhining 1991-yil 19—21-avgust kunlari davlat to'ntarishi qilishga urinishlari va uning oqibatida O'zbekistonning boshqa ittifoqdosh respublikalar bilan iqtisodiy aloqalari ham uzilib, yarim asrdan ko'proq davr ichida shakllangan xo'jalik aloqalari izdan chiqdi. Markaz chiqargan rublning qadri butunlay tushib ketib, iqtisodiy aloqalarni natural mol ayirboshlash, barter asosida amalga oshirish odatga aylandi. Barcha respublikalar umumiy moddiy va iqtisodiy resurslarni olishga intilar, o'zlaridagi boyliklarni tashqariga chiqishiga tish-tirnog'i bilan qarshilik qilar edilar. Natijada barcha respublikalar, jumladan, O'zbekiston ham 1991-yildan boshlab markazga bo'ysunmaslik, o'z milliy manfaatlariga e'tibor bergan holda siyosat yuritishga o'tdi.

Prezident Islom Karimov «Xalqimizning fikri — biz uchun oliy mezon» nomli asarida o'sha suronli davrda davlat to'ntarishi

qilishga urinishlarga barham berilganidan keyin markaz bilan har qanday munosabatlarni to'xtatish va respublikada davlat mustaqilligi uchun kurashlarni avj oldirish yo'lini tutgani holda quyidagi fikrlarni bildirgan edi:

«Buning ajablanadigan joyi yo'q. Markaz o'tkazayotgan siyosat chor Rossiyasi o'tkazgan siyosatdan kam farq qilardi, respublikamiz xomashyo bazasi bo'lib qolgan edi va bunday holga barcha tashkilotlar, eng avvalo, KPSS Markaziy Komiteti bilan Ittifoq rahbar organlari asosiy masala, deb qarar edi. Ular faqat bir narsani bilishardi — mazkur mintaqa paxta, xomashyo bilan ta'minlashi kerak, qolgani esa suvga cho'kayotganlarning o'z ixtiyoridadir, deb o'ylashardi. Bizga ko'p narsalar va'da qilindi. Respublikamiz mamlakat paxta mustaqilligi yo'lida ancha qurbonlar berdi. Biz, eng avvalo, aholini go'sht, sut, boshqa oziq-ovqat mahsulotlari bilan, xalq iste'moli mollari bilan ta'minlash masalalarida qaram bo'lib qoldik. Ekologiya to'la buzilgani to'g'risida gapirmay qo'-yaqolaylik. Bu o'rinda kishilarning zaharlangani va ular umrining qisqarganini aytib o'tish kifoya. Bularning barchasi KPSS Markaziy Komitetining partiya shiori ostida olib borgan siyosati oqibati edi. Bularni to'g'ridan to'g'ri va oshkora aytish kerak, bu siyosat O'zbekistonni jar yoqasiga olib keldi, uni qashshoqlashtirib yubordi. Bizni, o'zingizni o'zingiz boqa olmaysiz va sizga berilayotgan har bir sadaqa uchun Markazga minnatdorlik bildirishingiz kerak, deb ishontirishardi»[171].

Bu davrda respublikada sobiq ittifoqdan meros bo'lib qolgan mafkuraviy yakkahokimlik, iqtisodiy inqirozlar, kishilarda davlatga va tuzumga bo'lgan ishonchsizlik, xalq o'rtasida paydo bo'lgan parokandalik siyosiy bo'xronlar uchun yetilib qolgan edi. Ana shunday og'ir va tahlikali bir sharoitda mavjud muammolarni hal qilish, xalqni milliy mustaqillik sari safarbar etish kabi maqsadlar rivojlanish kun tartibini belgilab bermoqda edi. Ayniqsa, bir necha yuz yilliklar o'zbek xalqining orzu-armoni bo'lgan milliy davlatni shakllantirish tarixiy zaruriyatga aylangandi. Tarixning ana shunday qaltis davrida Islom Karimovning respublika rahbari etib saylanishi, uning dastlabki faoliyati, ijtimoiy va iqtisodiy hayotni o'zgartirishga doir dastlabki islohotlari respublikamiz aholisida kelajakka bo'lgan umid his-tuyg'ularini uyg'otdi. O'zbekiston boshqa MDH davlatlaridan farqli o'laroq barqarorlik va tinchlik mamlakatiga aylanish jarayonlarini boshladi.

2. Bozor munosabatlariga o'tish va milliy iqtisodiyotni rivojlanishi

Mustaqillikning ilk davridayoq O'zbekiston iqtisodiy jihatdan rivojlangan yirik industrial-agrar davlat sifatida tanila boshlandi. Prezident I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti va bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasi hayotga tatbiq etila boshlandi. Bu rivojlanish yo'li jahondagi mamlakatlar tomonidan «O'zbek modeli» sifatida e'tirof etildi. Mamlakat xalqaro iqtisodiy integratsiyadan o'ziga munosib o'rinni olishga erishdi.

Mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar bosqichma-bosqich va izchillik asosida amalga oshirilib, bu holat jamiyatni tinch va barqaror tarzda o'tish davriga kirishini ta'minlab berdi. Mamlakatda amalga oshirilgan islohotlarning birinchi bosqichida (1991–1994 yy.) bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoitlar tayyorlandi. Bu jarayonda quyidagi keskin o'zgarishlar amalga oshirilgan edi:

- islohotlar strategiyasi va taktikasi mamlakat tarixiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlarini, aholining mentalitetini hisobga olgan holda shakllantirildi;
- iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning bozor iqtisodiyoti munosabatlariga xos bo'lgan me'yoriy-huquqiy asoslari yaratildi;
- mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish asosida ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish asoslari shakllantirildi;
- milliy iqtisodiyotning eng murakkab sohasi – qishloq xo'jaligini tubdan o'zgartirish asosida mutlaqo yangi – bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan agrar munosabatlar shakllantirildi va qishloqda mulkdorlar sinfini yaratishga kirishildi;
- ma'muriy-buyruqbozlik tizimiga barham berildi va yangi demokratik institutsional o'zgarishlar uchun keng yo'l ochildi;
- narxlarni erkinlashtirish va bozor infratuzilmalarini shakllantirishga ustuvor ahamiyat berildi;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish asosida mamlakatning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuviga erishildi;
- davlatning bosh islohotchilik faoliyati natijasi o'laroq millat ma'naviy-ruhiy jihatdan uyg'ondi;

- aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj keng qatlamiga nisbatan davlat tomonidan kuchli ijtimoiy himoyalash siyosati amalga oshirila boshlandi.

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning ikkinchi bosqichida (1995–1999 yy.) – makroiqtisodiy barqarorlikka erishildi, xususiylashtirish jarayonlari yanada chuqurlashtirildi va yangi raqobat muhiti shakllantirildi. Bu davrda milliy sanoatni mustahkamlash chora-tadbirlari, iqtisodiyotda tarkibiy qayta qurish dasturlarini amalga oshirish, ijtimoiy ishlab chiqarishda nodavlat sektori ulushining ortishi va ijtimoiy yo'naltirilgan ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish, aholini manzilli himoya qilishni yanada kuchaytirishdan iborat dasturlar amalga oshirildi. Amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasida O'zbekiston 2000-yilga kelib MDH davlatlari o'rtasida yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha 1991-yil darajasiga yaqinlashgan yagona davlat sifatida e'tirof etildi (yalpi ichki mahsulot indeksi 1991-yilga nisbatan 98,7% ni tashkil qildi). Ayni vaqtda, yalpi ichki mahsulotning mutlaq hajmi jihatidan MDH doirasida uchinchi iqtisodiy baquvvat (Rossiya va Ukrainadan so'ng) davlat darajasini egalladi.

Mamlakatda iqtisodiy islohotlarning uchinchi bosqichida (2000–2005 yy.) bozor iqtisodiyoti munosabatlari mexanizmlarining samarali ishlashi negizida iqtisodiy o'sishning barqaror sur'atlariga erishish Dasturi asosida davlat qurilishining siyosiy va iqtisodiy sohalari yanada rivojlandi, ma'naviy jihatdan yangilanishlar ro'y berdi, aholi turmush darajasi o'sa boshladi, iqtisodiyotda tarkibiy qayta qurishlar amalga oshirildi.

«O'zbek modeli» asosida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida yirik muvaffaqiyatlar qo'lga kiritildi. Jumladan, 1997–2003-yillarda YaIMning o'rtacha yillik o'sishi 4,4 %, 2007-yilda 2006-yilga nisbatan 9,5 % o'sdi. 2003-yilda real YaIM 1995-yilga nisbatan 36,9 % oshdi. 2007-yilgacha aholi jon boshiga YaIM ishlab chiqarish sur'atlari sezilarli ravishda o'sib bordi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda davlatning iqtisodiyotga aralashuvini cheklash asosida ko'p ukladli iqtisodiyot shakllandi, xo'jalik faoliyatiga aralashuvlar chegaralandi, xo'jalik sub-yektlarining iqtisodiy va moliyaviy mas'uliyati ortib bordi, bozor infratuzilmalari rivojlandi, tashqi iqtisodiy faoliyat tizimi qayta shakllandi va valuta tizimi erkinligi kengayib borishi natijasida real raqobat muhiti shakllandi, erkin tadbirkorlik faoliyati uchun

iqtisodiy va huquqiy shart-sharoitlar yaratildi. Shuningdek, mulkdorlar roli va huquqi mustahkamlandi, jumladan xorij investitsiyalari uchun kafolat va yengilliklar beradigan qulay va sog'lom investitsion iqlim va rag'batlantirish tizimi yaratildi.

Mustaqillikning dastlabki o'n yilligidagi iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar samarasi o'laroq tarmoqlarda texnik qayta qurishlar va modernizatsiyalash, tabiiy va xomashyo salohiyatidan to'la va samarali foydalanish, eksportga yo'nalgan va import o'mini bosuvchi ishlab chiqarish tizimlari shakllandi.

Ko'rinib turibdiki, mamlakat iqtisodiyotidagi chuqur tarkibiy va institutsional o'zgarishlar, barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlari, mavjud tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy, texnik-texnologik salohiyat O'zbekistonning istiqbolda iqtisodiy rivojlangan davlatlar qatoridan joy olishi uchun mustahkam zamin bo'lib xizmat qila boshladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki 2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy va iqtisodiy inqirozi mamlakat iqtisodiyotiga deyarli ta'sir ko'rsatmadi.

O'zbekiston mustaqillik davrida Prezident Islom Karimov tomonidan ilgari surilgan tadrijiy taraqqiyot konsepsiyasini amalga oshirish, iqtisodiyotni mafkuradan xoli bo'lishi, demokratik islohotlarni bosqichma-bosqich joriy qilish, qonun ustuvorligini ta'minlash, davlatning bosh islohotchi sifatidagi rolini tan olish va o'tish davrida uning ta'sirini oshirish, mamlakatimizning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish kabi prinsiplar asosida fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish islohotlarini chuqurlashtirib borish asnosida bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni shakllantirdi.

Qishloq iqtisodiyotining yuksalishi. Mustaqillik arafasida iqtisodiyotning muhim tarmog'i bo'lgan qishloq xo'jaligini kam samaradorligining eng asosiy sababi bu sohaga ma'muriy-buyruqbozlik usulida rahbarlik qilish natijasi edi. Xo'jaliklar rahbarlari mayda-chuyda masalalarni ham o'zlari mustaqil hal qilolmas, faqat yuqoridan buyruq kutib turishardi. Hatto, ekish, hosilni yig'ishtirib olish, chorvani oziqlantirish me'yorlari, chorvaning turi va soni, qancha maydonga ekin ekish, paxta yetishtirish hajmi va hosildorligi faqat yuqoridan belgilanardi.

Respublikada ishlab chiqarilayotgan paxta adolatsiz narx siyosati tufayli arzon bahoda olib chiqib ketilishi (O'zbekistonda yetishtirilgan paxta hosilining faqat 7 foizi qoldirilar edi) natijasida ijtimoiy-iqtisodiy ahvol yildan yilga og'irlashib bordi.

Rahbariyatning xarid narxlarini qayta ko'rib chiqish, xomashyo yetishtirish sermehnat ekin ekanligini so'rab qilgan takliflari inobatga olinmadi. Narxlar pastligicha qolaverdi. Aslini olganda, o'tgan asrning 80-yillarida o'zbek paxtasining xarid narxi jahon narxlaridan 5 baravar kamroq edi. XX asrning 90-yillari oxiriga kelib ham O'zbekiston 450—500 ming tonna kartoshkani chetdan sotib olar edi. Kartoshkaning deyarli yarmi yo'lda chirib ketar, qolgan qismi esa o'zining foydali xususiyatlari va ta'mini yo'qotar edi.

O'zbekiston mustaqillik davrida qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar va institutsional o'zgarishlar natijasida zamonaviy fermer xo'jaligi mamlakatiga aylandi. Ularning soni 2008-yilda 217,1 mingtaga yetdi va bu xo'jaliklarning 5787,7 ming gektar yerida 1621,4 ming ishchi faoliyat ko'rsata boshladi. Fermer xo'jaliklari 86 % paxta, 79,8 % g'alla, 3,7 % chorvachilik mahsulotlari va 39,6 % meva va sabzavot mahsulotlarini yetkazib berdi. 2007-yilda fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti ishlab chiqarishdagi ulushi — 34,7 %ni (2000-y. — 10,0 %) tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 6-oktabrdagi «Fermer xo'jaliklari tasarrufidagi yer uchastkalari maydonini maqbullashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoyishi asosida respublikadagi fermer xo'jaliklarini yiriklashtirish, ularni faoliyati samarasini va iqtisodiy salohiyatini oshirish maqsadida ularning soni 215 ming 776 tadan 107 ming 381 taga yoki 51 foizga kamaytirildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 22-oktabrdagi «Fermer xo'jaliklari tasarrufidagi yer uchastkalari maydonlarini yanada maqbullashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoyishi ijrosini amalga oshirish maqsadida yer maydonlari to'liq inventarizatsiyadan o'tkazilib, fermer xo'jaliklarining faoliyatini tanqidiy baholash asosida ularning yer maydonlarini maqbullashtirish bo'yicha keng ko'lamli va puxta o'ylangan ishlar amalga oshirildi. Natijada, 26 ming 753 ta (24,9 foiz) fermer xo'jaliklari tugatilib, fermer xo'jaliklarining umumiy soni 80 ming 628 tani tashkil etdi. O'rtacha bir fermer xo'jaligiga to'g'ri kelgan yer maydoni 62,4 gektardan iborat bo'ldi. 2012-yilga kelib mamlakatdagi jami haydaladigan yerlarning 85 foizdan ortig'i, yetishtiriladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining asosiy qismi aynan fermerlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Hozirgi davrga kelib bozor iqtisodiyotiga o'tish qishloqda ham o'zining ijobiy natijalarini bera boshladi. 2013-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2000-yilga nisbatan 2,3 barobar ko'paydi. Faqat 2013-yilning o'zida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish 6,8 foizga, jumladan, dehqonchilik — 6,4 foizga, chorvachilik — 7,4 foizga o'sdi.

Qishloq xo'jaligini bozor iqtisodiyoti asosida chuqur isloh etish aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'liq ta'minlashga zamin tug'dirish barobarida ularni chet mamlakatlarga eksport qilishga ham keng imkonlar tug'ildi. Xususan, g'alla yetishtirish 2000-yilga nisbatan 2 barobar, kartoshka — 3,1 barobar, sabzavot — 3,2 barobar, uzum — 2 barobar, go'sht va sut — 2,1 karra, tuxum 3,4 barobar oshdi. 2013-yilda 7 mln. 800 ming tonna g'alla, 8 mln. 400 ming tonna sabzavot yetishtirildi. 3 mln. 360 ming tonnadan ortiq paxta xomashyosi tayyorlandi[172].

Mustaqillik davrida qishloq aholisining uy-joyga nisbatan o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida yakka tartibda uy-joy qurish bo'yicha kompleks ishlarni amalga oshirishning yaxlit institutsional tuzilmasi tashkil etildi. Hozirgi O'zbekiston qishlog'i — eski tuzumning barcha asoratlaridan xoli bo'lgan, erkin va obod maskandir. Qishloqda mulkdorlar qatlamini o'sib borishi, uning qiyofasini zamonaviylashish jarayoni, madaniy yuksalishi, qishloq aholisining dunyoqarashidagi tub o'zgarishlar — mustaqillik sharofati tufayli yuz bermoqda. Bu «O'zbek modeli» yo'lining to'g'riligini va muqarrarligini anglatadi.

Neft va gaz sanoatining rivojlanishi. Mamlakat mustaqillik davriga kirishi bilan iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida chuqur o'zgarishlar davri boshlandi. Respublika iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan chuqur islohotlar neft va gaz sanoatini ham o'ziga qamrab oldi. Chunki, neft sanoati respublika iqtisodiyotining ajralmas tarmog'i bo'lganligi uchun ham iqtisodiy islohotlarning umumiy jarayonidan ajralib qololmas edi. Shuning uchun ham Prezident Islom Karimov bu sohadagi eng asosiy maqsadni quyidagicha ifodalagan edi: «Yurtimizda yoqilg'i-energetika va g'alla mustaqilligiga erishish muhim strategik vazifa sifatida kun tartibiga qo'yildi».

Bu sohada asosiy e'tibor har biri alohida tarqoq bo'lgan neft, gaz, neftni qayta ishlash va u bilan bog'liq boshqa sohalarning faoliyatini uyg'un ravishda muvofiqlashtirish maqsadlarida quduqlarni qazishdan tortib tayyor mahsulotni sotishgacha bo'lgan

har bir jarayonning faoliyatini bog'lab turuvchi uzluksiz halqalardan iborat bo'lgan yagona ishlab chiqarish majmuyiga birlashtirishni talab qilayotgan edi. Mazkur masala O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, hukumat qarorlari va tegishli qonunlar bilan muvaffaqiyatli hal qilindi.

Bu sohadagi institutsional o'zgarishlarning asosiy maqsadi — mamlakat neft va gaz sanoatini bozor iqtisodiyoti munosabatlariga moslashtirishdan iborat bo'lib, mazkur tarmoqqa xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha olib borilayotgan ishlarni faollashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratishga qaratildi.

Mamlakat Prezidenti Islom Karimov — tashabbusi va sa'y-harakati bilan 1997-yilda ilg'or jahon andozalari talablariga javob bera oladigan zamonaviy Buxoro neftni qayta ishlash zavodi ishga tushirilishi nafaqat yoqilg'i, balki mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim voqea bo'ldi. Mamlakat mustaqilligining dastlabki yillarida neft va gaz sanoati tarmoqlarini davlat tasarrufidan chiqarish va ularni o'ziga xos usulda xususiylashtirish ishlari amalga oshirilishiga hamohang tarzda davlat hissadorlik jamiyatlari, hissadorlik kompaniyalari tashkil qilindi, bu sohada yangi mulkchilik shakllari — xususiy, jamoa va davlat mulklari shakllandi. Bu sohani rivojlanishiga keng shart-sharoitlar yaratish maqsadida demokratik tamoyillar asosidagi huquqiy asoslar ham takomillashtirib borildi. Hozirgi davrga kelib «O'zbekneftegaz» Milliy xolding kompaniyasi eng yirik ko'p tarmoqli sanoat majmuasiga aylandi. Kompaniya keyingi yillarda yirik hajmdagi qidiruv ishlari, qazib olish, neft va gaz realizatsiyasi hamda ularni qayta ishlash mahsulotlari, ishlab chiqarish infratuzilmasi barpo etadigan va boshqa shu kabi qator ijtimoiy rivojlanish obyektlarini qurishga erishdi[173].

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga doir islohotlar davrida «O'zbekneftegaz» Milliy xolding kompaniyasining tashqi va xalqaro aloqalari kengaydi. Ayniqsa, uning rivojlangan mamlakatlardagi kompaniyalar bilan o'zaro hamkorligi yildan yilga oshib bormoqda. Rossiya, Ukraina, Tojikiston, Qirg'iziston va boshqa mamlakatlar bilan neft mahsulotlari va suyultirilgan gaz eksporti bo'yicha savdo aloqalari o'sib bormoqda. Shuningdek, 2003-yildan boshlab, Rossiya, Xitoy, Eron va Turkiyaga polietilen va oltingugurt eksport qilish aloqalari boshlandi. Shuningdek, kompaniyaning moliyaviy maslahatchi — «BNP-Pariba» (Fransiya) banki bilan hamkorligi ham o'sib bormoqda. ISO-9001 mah-

sulotlarining xalqaro andozalariga mos keladigan «O'zneftegazmash» hissadorlik kompaniyasining eksport qilish quvvati oshib bormoqda.

Uning xorijiy kompaniyalar – «Xarrikeyn oyl prodakt» (Kanada), «Axema» (Latviya), «Teknip» (Fransiya), «Bentek» (Germaniya) bilan o'zaro aloqalari rivojlanib bormoqda. 1997-yildan boshlab «Dresser-Rend» agregat kompaniyasi, «Kellog» (AQSh) va «Nisho-Ivai» (Yaponiya) kompaniyalari bilan hamkorlik hamda investitsiyalarini jalb etishga doir faoliyatlari boshlandi. Mamlakat aholisini qish mavsumida gaz bilan ta'minlashni yaxshilash maqsadida 1999-yildan boshlab «VSI Indastriez» (AQSh) kompaniyasi bilan hamkorlikda «Dresser-Rend» kompressorlarini qo'llash asosida Xo'jaobod yerosti gaz zaxirasi ishga tushirildi. Shuningdek, «Teknip» (Fransiya), «Marubeni», «Djey Dji-Si» (Yaponiya) kompaniyalari bilan qator hamkorlik faoliyatlari amalga oshirildi.

Mamlakatda neft mahsulotlari ishlab chiqarish sifatini yaxshilash borasida 2001-yilda Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi qayta qurilishining birinchi bosqichi «Mitsui» va «Toyo injiniring» (Yaponiya) kompaniyalari bilan hamkorlikda o'z yakuniga yetdi. Bu loyihani moliyalashtirishda Yevropa Tiklanish va Rivojlanish Banki ham o'z investitsiyalari bilan ishtirok etdi.

Markaziy Osiyo hududidagi eng yirik hisoblangan Sho'rtan gaz-kimyo majmuasining qurilishi esa «ABB Lummuus Glabal» (AQSh) kompaniyasi tomonidan boshqarilayotgan konsorsium bilan hamkorlikda amalga oshdi. Konsorsium tarkibida «Mitsui», «Toyo injinering», «Nisho-Ivai» (Yaponiya) va «ABB Soimi» (Italiya) kabi kompaniya va boshqa tashkilotlar ishtirok etib, 2001. yil dekabrida mazkur majmuaning xalqaro taqdimoti bo'lib o'tdi.

2004-yil 16-iyunda O'zbekiston Respublikasi hukumati bilan «Lukoyl» OAJ o'rtasida Kandim guruhi, Xauzak va Shodi konlarini o'zlashtirish bo'yicha MTK (mahsulot taqsimoti bo'yicha kelishuv) hamda Ustyurt mintaqasida geologiya-razvedka ishlarini olib borish to'g'risida kelishuv imzolandi. Loyiha bo'yicha gaz qazib chiqarishning yillik hajmi 8,8 mlrd. kub. metrgacha yetkazish mo'ljallangan. Loyihani amalga oshirish natijasida qo'shimcha 7000 ta ishchi o'rinlari barpo etilishi, ajratiladigan investitsiyalar miqdori taxminan 1 mlrd. AQSh dollarini tashkil etishi kelishildi. MTKning amal qilish muddati esa 35 yilga belgilandi. U 2004-yil 24-noyabridan boshlab kuchga kirdi.

O'zbekiston energetikasining xomashyo bazasi 190 dan ortiq tabiiy gaz, neft, gaz kondensati, ko'mir konlaridan iborat bo'lib, ularning umumiy zaxirasi 2,1 — 5,7 mlrd. tonna (neft ekvivalenti bo'yicha) hajmda baholanmoqda. Tabiiy gaz zaxirasi esa 1,8 — 2 trln. kubometr hajmda ekanligi hisoblangan. Mamlakat MDH davlatlari ichida tabiiy gaz ishlab chiqarish bo'yicha ikkinchi o'rinni egallagan.

Hozirgi davrga kelib O'zbekistonda yoqilg'i-energetika kompleksi (YoEK) sohasida innovatsiyaviy texnologiyalarni rivojlantirishda va boshqa sohalardagi hamkorlik faoliyatida 12 ta xorijiy kompaniyalar ishtirok etgan. Ularning ichida eng yiriklari sifatida «Lukoyl» va «Gazprom» (Rossiya), Neft va gazni qidirish va qazish bo'yicha Xitoy milliy korporatsiyasi (CNODC), Malayziya «Petronas Carigali Overseas Sdn. Bhd.» kompaniyasi, CNPC Silk Road Group LLC (XXR) va Janubiy Koreyaning neftgaz kompaniyasi (KNOC) kabilarni ko'rsatish mumkin. Bu kompaniyalarning faoliyati natijasida 43 ta izlash va qidirish quduqlari burg'ilandi, 12 ta yirik uglevodorod koni ochildi. Natijada zaxiralarni o'sish hissasi 30 foizni tashkil eta boshladi. Albatta, bunday katta rivojlanishlarga asosan zamonaviy innovatsiyalarni joriy etish natijasida erishildi.

Shuningdek, mamlakatda uglevodorodlar zaxiralari o'sish sur'atlarini oshirish maqsadida «O'zbekneftgaz» Milliy xolding kompaniyasi tomonidan «O'zbekiston Respublikasi neft va gaz sohasini 2020-yilgacha rivojlantirish» Konsepsiyasi ishlab chiqildi. Kompaniya ma'lumotlariga binoan hozirgi davrda mamlakatimiz hududida 232 ta gaz va neft koni aniqlangan. Ulardan 103 tasida qazish ishlari ketmoqda, qolganlari esa kelgusi avlodlar uchun konservatsiya qilingan yoki o'z qidiruv bosqichini davom ettirmoqda. Hozirgi davrgacha qidiruv natijasida o'rganilgan uglevodorod zaxiralari respublikada tabiiy gaz qazib olishni 32 yil, neft va kondensatni esa 33 yil davom etishini ta'minlay oladi[174].

Hozirgi davrda Surgil konlarida Ustyurt GXK qurish loyihasini amalga oshirish ishlari davom etmoqda. U ishga tushgach, Markaziy Osiyoda birinchi marta yiliga 100 ming tonna polipropilen mahsuloti, yana 400 ming tonna polietilen ishlab chiqara boshlaydi. Bu «O'zbekneftgaz» MXK va Janubiy Koreya kompaniyalari Konsorsiumi bilan hamkorlikdagi loyiha asosida qurilmoqda.

Neft va gaz sanoati sohasida innovatsiyalarni keng qo'llash natijasida O'zbekiston MDH va Yevropa hududida tabiiy gazdan sintetik suyuq yoqilg'i ishlab chiqarishni o'zlashtirgan birinchi mamlakat sifatida tanildi. «O'zbekneftgaz» MXK Malayziyaning «PETRONAS» kompaniyasi va Janubiy Afrikaning «SASOL» kompaniyasi hamkorlikdagi loyiha asosida GTL (gazni suyultirish) texnologiyasi litsenziyasini olishga erishdi. Bu loyiha asosida quriladigan zavod yiliga umumiy hajmda 1,4 mln tonna tabiiy gazni dizel yoqilg'isiga, aviakerosinga va suyultirilgan gazga aylantirib, qaytadan ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'ladi.

Hozirgi davrga kelib O'zbekiston hududida beshta neft va gaz ishlab chiqaruvchi (Ustyurt, Buxoro-Xiva, Surxondaryo, Hisor va Farg'ona) hamda uchta istiqbolli (Xorazm, O'rta Sirdaryo va Zarafshon) mintaqalar mavjuddir. Rasmiy ma'lumotlarga binoan 2013-yil holati bo'yicha O'zbekistonda 243 ta neft va gaz konlari ochilgan. Jumladan, 1991—2012-yillarda 110 ta kon ochilgan. 243 ta uglevodorod xomashyosi konidan 194 tasi erkin gaz qatlamlari, 121 tasi neft va 157 tasi kondensat olinadigan konlar hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda mustaqillikning o'tgan 23 yili ichida zamonaviy yoqilg'i-energetika kompleksi shakllanib, u rivojlangan va yuz yillab neft hamda gaz ishlab chiqarayotgan mamlakatlar darajasidan ham oldinga o'tib ketdi. Qisqa davr ichida mamlakatdagi boy energetika resurslari zamonaviy texnologiyalar asosida o'zlashtirilib, ular mamlakat milliy boyligini asosiy qismi sifatida o'zini namoyon qildi.

Mustaqillik bizga o'z milliy davlatimizga ega bo'lish, milliy erkinlik, millatni rivojlanish va yuksalish, milliy qadriyatlarimizga ega bo'lish huquqlarimizni tiklab olishimizdan tashqari bizga yana o'z milliy resurslarimiz va boyliklarimizga egalik qilish huquqini ham berdi. Mustaqillik davrida mamlakatning nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy salohiyati ham mislsiz darajada yuksaldi, balki mamlakat rivojlanish strategiyasining ustuvor yo'nalishi sifatida qo'yilgan muhim vazifa — mamlakatda gaz va neft sanoatini rivojlangan mamlakatlar darajasida yuksaltirishga doir islohotlar o'z natija va samaralarini bera boshladi. Albatta, bu ulkan muvaffaqiyatlar va yutuqlar davlatimiz va jamiyatimiz rivojiga doir siyosatni to'g'ri va adolat tamoyillari asosida amalga oshirganligimiz sharofatidir. Mashaqqatlarni bartaraf etib o'tgan

har bir yilimiz yuz yilliklarga teng ekanligini ana shu bir sohadagi yuksalishlarning o'zi isbotlab turibdi.

3. Tadbirkorlik va xususiy mulkchilikning rivojlanishi

Mustaqillik davrida bozor iqtisodiyotining asosiy tarmog'i bo'lgan xususiy biznes va tadbirkorlikning rivojlanishi ham beqiyos darajada rivojlandi. Ayniqsa, uning huquqiy asoslari fuqarolik jamiyati qurish talablari asosida shakllantirildi. O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti sharoitlarida iqtisodiyotning asosi bo'lgan xususiy tadbirkorlik mustaqillik davriga kelib shakllandi. Mamlakat tarixida dastlab O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasida xususiy mulkchilik va tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy sifati qoida mustahkamlab qo'yildi: Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi. Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin»[175].

Shuningdek, mamlakatda tadbirkorlik va xususiy mulkchilikni rivojlantirish maqsadida uning huquqiy asoslari Fuqarolik kodeksiga 1991-yilda qabul qilingan «Tadbirkorlik to'g'risida»gi, 2002-yilda qabul qilingan «Tadbirkorlik faoliyati erkinligini kafolatlash to'g'risida»gi qonunlarda shakllantirildi.

Mazkur huquqiy asoslarning asosiy vazifasi fuqarolarning tadbirkorlik faoliyatida erkin ishtirok etishi va manfaatdorligi uchun kafolatlar hamda sharoitlar yaratishdan, ularning ishchanlik faolligini oshirishdan, shuningdek tadbirkorlik faoliyati subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat edi.

«Tadbirkorlik faoliyati erkinligini kafolatlash to'g'risida»gi qonunning 18-moddasida tadbirkorlik faoliyati erkinligining konstitutsiyaviy kafolatlari sifatida quyidagi qoida mustahkamlab qo'yildi: «Davlat iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi. Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor

mulkiga o'z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Tadbirkorlarga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy qarorlari, ularning mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi»[176].

Qonunlarda tadbirkorlik faoliyati subyektlarining o'zlari ishlab chiqargan mahsulot yoki ko'rsatilgan xizmatlarning hamda ulardan olgan daromadlar yoki foydaning mulkdori ekanligi belgilab qo'yildi. Shuningdek, fuqarolarga fermer xo'jaligi yuritish uchun yer uchastkalari ellik yilgacha bo'lgan muddatga ijaraga berish qoidasi o'rnatildi. Undan tashqari mulkdorlarga yana qator imtiyozlar, huquqlar va erkinliklar berildi.

Mamlakatda kichik biznes sohasida yakka tadbirkorlik eng ko'p tarqalgan xo'jalik sifatida rivojlandi. 2003-yilga kelib mamlakatda yakka tadbirkorlarning soni 3,5 mln. dan ortib ketdi. Ular asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, savdo-sotiq, umumiy ovqatlanish, xizmat ko'rsatish va hunarmandchilik sohalarida band bo'ldi.

2004-yilga kelib esa respublikada qariyb 283,9 kichik biznes korxonalari faoliyat ko'rsatdi, ularda mikrofirmalar hissasi — 79,8 foiz, kichik korxonalar esa — 10,3 foiz to'g'ri keldi. 2004-yilda respublikaning har 1000 aholisiga 11 ta kichik biznes korxonasi to'g'ri keladi. O'zbekistonda qayd etilgan korxonalar umumiy sonida kichik va o'rta biznes korxonalari hissasi 90 foizni tashkil etdi.

O'zbekistonda kichik biznes qishloq xo'jaligi sohasida ko'proq rivojlandi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning asosiy qismini dehqon, fermer xo'jaliklari tashkil etdi. 2003-yilga kelib yalpi ichki mahsulot tarkibida kichik biznesning salmog'i 35 foizni tashkil etdi. Kichik biznesda mahsulot hajmi, jumladan, yakka tadbirkorlikda ularning hissasi: sanoatda — 14,1 foiz, qurilishda — 41,3 foiz, qishloq xo'jaligida — 76,4 foiz, savdo-sotiqda — 43,8 foiz, xizmat ko'rsatish sohasida — 41,3 foizni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning aholi bandligi darajasini oshirishdagi roli ham ahamiyatli hisoblanadi. Haqiqatan ham, tadbirkor o'z mablag'larini ishlab chiqarish sohasiga kiritar ekan, ayni paytda o'z daromadlarini oshirish bilan birga jamiyat

boshqa a'zolarining ham ish hamda daromad bilan ta'minlanishiga moddiy negiz yaratadi. Mamlakatimizda bu boradagi faoliyat ham kengayib bormoqda: 2000—2008-yillar davomida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida band bo'lganlar soni 3,3 marta oshdi. 2010-yilning 1-yanvar holatiga kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda band bo'lganlar soni 8402,3 ming kishini, shu jumladan, yakka tadbirkorlar 6446,2 ming kishini, kichik korxona va mikrofirmadagi bandlar soni 1956,1 ming kishini tashkil etdi.

Tajribalar ko'rsatdiki, kichik biznesning ixchamligi, harakatchanligi, iqtisodiy manfaatlarni nisbatan to'laroq namoyon eta olishi, bozor konyunkturasi o'zgarishlariga tez moslasha olishi kabi xususiyatlari uning iqtisodiyotni tubdan o'zgartirishda eng samarali va qulay vositalardan biriga aylantirdi. Mazkur soha taraqqiyoti uchun alohida shart-sharoitlarning yaratilishi, soliq, bojxona va boshqa to'lov imtiyozlarining belgilanishi, nisbatan arzon kredit resurslarining taqdim etilishi natijasida qisqa davr ichida kichik biznes korxonalarining soni ahamiyatli darajada oshib bordi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1992-yilda ro'yxatga olingan kichik biznes korxonalarining soni atigi 16,5 mingtani tashkil etgan bo'lsa, 2010-yilda bu ko'rsatkich (fermer xo'jaliklaridan tashqari) 224,2 mingtaga yetdi, ya'ni deyarli 14 baravar o'sdi. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida kichik biznes subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini keskin oshirishga erishildi.

Bozor iqtisodiyotining eng asosiy o'zaklaridan biri bo'lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat iqtisodiyoti salohiyatini oshirishdagi roli va o'rni tobora mustahkamlanib bormoqda va bu jarayon iqtisodiyotning tarkibida bo'layotgan ijobiy o'zgarishlarga kuchli ta'sir etmoqda. 2013-yilning o'zida mamlakatda 26 mingdan ziyod kichik biznes subyekti ish boshladi[177].

Ko'rinib turibdiki, O'zbekiston iqtisodiyoti faqat mustaqillik davriga kelib rivojlandi. Bu davrda xalqning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy erkinliklarga erishishi, O'zbekistonning milliy qadriyatlar va rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosidagi va mustaqil davlat sifatidagi rivojlanish strategiyasini tanlaganligi, davlatning bosh islohotchi sifatidagi chora-tadbirlari tufayli mamlakatning salohiyati mislsiz darajada o'sib bordi. Mamlakat jahon hamjamiyati tomonidan iqtisodiyoti rivojlangan davlat sifatida e'tirof etildi.

4. Bozor islohotlari va iqtisodiyotni liberallashtirish istiqbollari

O'zbekiston iqtisodiyoti «O'zbek modeli»ni tatbiq etish natijasida jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining noxush oqibatlariga bardoshli ekanligi bilan ham xalqaro hamjamiyatga tanildi. Inqirozga qarshi kurash va uning oqibatlarini bartaraf qilishga doir strategiyani qabul qilinishi jahonda juda ham ozchilikni tashkil etgan mamlakatlar qatorida iqtisodiy rivojlanish sur'atini ta'minlab berdi. Mamlakat yalpi ichki mahsulotining yillik o'sishi 2008–2013-yillarda 8 foizdan oshdi. Jahon moliyaviy institutlarining baholashicha dunyodagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biri sifatida e'tirof etildi. O'zbekiston iqtisodiyotining o'sish sur'atlari rivojlangan mamlakatlarga xos tarzda namoyon bo'la boshladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010-yil 12-noyabrdagi qo'shma majlisida Prezident I.A. Karimovning «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi» to'g'risidagi ma'ruzasida demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirishga doir ilgari surilgan dastur va uni amalga oshirish jarayoni bu sohada yangi bosqichni boshlab berdi.

Prezident I.A. Karimov o'z ma'ruzasida iqtisodiyotni liberallashtirishni mamlakatni modernizatsiyalashning omili sifatidagi ahamiyatiga yuksak baho berib, istiqboldagi vazifalar to'g'risida quyidagi fikrni bildiradi: «...mustaqil taraqqiyotimizning o'tgan davrida amalga oshirgan ishlarimizni sarhisob qilar ekanmiz, ularni haqqoniy baholash va islohotlar dasturiga ma'lum o'zgartishlar kiritish bilan birga, birinchi navbatda ertangi kun talablaridan kelib chiqqan holda, mamlakatimizni isloh etish va modernizatsiya qilish yo'lidagi izchil harakatlarimizni kuchaytirishimiz, ularni yangi, yanada yuqori bosqichga ko'tarishimiz darkor»[178].

Mustaqillik davrida Fuqarolik, Yer, Soliq va Bojxona kodekslari, «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida», «Banklar va bank faoliyati to'g'risida», «Chet el investitsiyalari to'g'risida», «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida»gi,

islohotlarning keyingi bosqichida esa «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida», «Xususiy korxona to'g'risida», «Valutani tartibga solish to'g'risida», «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida», «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi qonunlar, yangi tahrirdagi Soliq kodeksi va iqtisodiyotni isloh qilish bo'yicha umumiy hisobda 400 dan ziyod qonun hujjatlari qabul qilindi. Ularning barchasi mamlakat iqtisodiyotini yanada liberallashtirish va modernizatsiya qilishda mustahkam huquqiy asos bo'lib xizmat qildi.

Konsepsiyada mustaqillikning o'tgan davri ichida bozor islohotlarini liberallashtirish natijalari chuqur tahlil etilib, keyingi islohotlarni chuqurlashtirish davri uchun strategik dasturiy maqsadlar ilgari surildi. Unda har bir tadbirkor davlat xususiy mulkdor huquqlarining himoyachisi ekanligini o'zida chuqur his qilgan holda o'z biznesiga bexavotir investitsiya kiritishi, ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirishi, mahsulot hajmi va olayotgan daromadini ko'paytirishi, o'z mulkiga o'zi egalik qilishi, foydalanishi, tasarruf etishiga shart-sharoitlar yaratish maqsadida xususiy mulkka nisbatan davlat tomonidan berilayotgan asosiy kafolatlarni mustahkamlashga qaratilgan «Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonunni ishlab chiqish va qabul qilish taklifi ilgari surildi.

Shu bilan birga, boshqaruv tizimini takomillashtirish, ortiqcha byurokratik to'siqlarni bartaraf etish maqsadida «Tadbirkorlik faoliyati sohasida ruxsat berish tartib-qoidalari to'g'risida»gi Qonunni ishlab chiqish va qabul qilish muhim ahamiyat kasb etishi, unda tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun zarur bo'lgan ruxsat berish tartib-qoidalarining qat'iy cheklangan ro'yxati va turlarini aniq belgilab qo'yish, qonunda nazarda tutilmagan ortiqcha ruxsatnoma va ruxsat berish tartib-qoidalarining yangi turlari kiritilishini qonun bilan keskin taqiqlashga doir huquqiy asoslarni shakllantirish vazifasi qo'yildi.

Konsepsiyada mamlakatda o'tgan davrda bozor iqtisodiyoti sohasidagi o'zgarishlarning ishonchli qonunchilik bazasini istiqbolda qo'llash amaliyoti va mamlakatimizda bozor munosabatlari rivojlanishining hozirgi davrdagi yangi real holatidan kelib chiqib, jiddiy qayta ko'rib chiqish zarurligi, jumladan, aksiyadorlik kompaniyalari o'zlarining bozor munosabatlariga mos maqomiga muvofiq faoliyat yuritishi uchun «Aksiyadorlik

jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonunni tanqidiy qayta ko'rib, yangi tahrirda ishlab chiqish va qabul qilish hamda unda korporativ boshqaruv va nazorat organlarining vakolatlari, huquqlari va javobgarligini yanada aniq belgilash lozimligi ko'rsatib o'tildi. Mazkur qonundagi aksiyadorlik jamiyatlarining Kuzatuvchilar kengashlari, umumiy yig'ilishlari, taftish komissiyalarining roli va ahamiyatini oshirish, minoritar, ya'ni qo'lida aksiyasi kam bo'lgan aksiyadorlarning kafolatlarini ko'proq ta'minlash, barcha aksiyadorlarni va bo'lajak investorlarning aksiyadorlik kompaniyalari faoliyati to'g'risida axborot olish imkoniyatlarini kengaytirishni ko'zda tutish maqsadga muvofiqligiga e'tibor qaratildi.

Shu bilan birga, Prezident I.A.Karimov o'z ma'ruzasida amaldagi «Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risida»gi Qonun bugungi kunda eskirganligi va zamon talablariga javob bermay qolganligi, shuni e'tiborga olgan holda, «Raqobat to'g'risida»gi yangi Qonunni ishlab chiqish va qabul qilish zarurligini ta'kidlab o'tdi. Ushbu qonunda monopolistik faoliyatni nafaqat tovarlar bozorida, balki moliya bozorlarida ham tartibga solishni nazarda tutish lozimligi, shuningdek, birja savdolarida ham monopoliyaga qarshi mexanizmlarni, aksiyalarni sotib olish, qo'shish va birlashtirish bitimlarini tartibga solish va nazorat qilish tartib-qoidalarini soddalashtirish bo'yicha normalarni ushbu qonunga kiritishni taklif qildi.

Konsepsiyada mamlakatimizda nodavlat sektorning faoliyati va mavqeyini ta'minlashda asosiy o'rin tutuvchi 1991-yilda qabul qilingan «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida»gi Qonun, o'tgan davr mobaynida 80 tadan ortiq qonunosti hujjati unga uyg'unlashtirilganiga qaramasdan, bugun qayta ko'rib chiqishni va yangi tahrirda qabul qilishni talab etayotganligi ta'kidlab o'tildi. Shuningdek, mamlakatda amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining sur'ati va mantiqiy talablaridan kelib chiqqan holda, erkin bozor iqtisodiyoti munosabatlarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladigan bir qator — «Kredit byurolari faoliyati va kredit axboroti almashuvi to'g'risida», «Garov reestri to'g'risida», «Rieltorlik faoliyati to'g'risida», «Investitsiya va pay fondlari to'g'risida», «Innovatsiyalar va iqtisodiyotni modernizatsiya qilish to'g'risida»gi va boshqa yangi qonunlarni qabul qilishni hayotning o'zi taqozo etayotganligiga e'tibor qaratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2010-yilning 12-noyabrida “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish” konsepsiyasini qabul qilgandan keyin unda taklif etilgan yangi huquqiy asoslarni shakllantirish davri boshlandi. Unda taklif etilgan qonunlarning loyihalari ishlab chiqildi, ularning bir qismi parlament tomonidan qabul qilindi. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 7-aprelda qabul qilgan «O‘zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmoni Konsepsiyada ilgari surilgan vazifalarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Farmonga muvofiq, 2014—2015-yillarda investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni rag‘batlantirish samaradorligini oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar Dasturi tasdiqlandi. Unda ko‘rsatilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish iqtisodiyotni liberallashtirishning yangi bosqichini boshlab berdi.

Hozirgi davrga kelib mamlakatda iqtisodiyotni liberallashtirish islohotlari o‘zining ulkan natijalarini bera boshladi. 2013-yil yakunlariga binoan YaIM tarkibida sanoatning ulushi 24,2 foizdan ziyodni tashkil etdi. Holbuki, bu ko‘rsatkich 2000-yilda 14,2 foizdan iborat edi, xolos. 2011—2013-yillarning o‘zida mamlakatda mahalliylashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi qariyb ikki barobar oshdi. Faqat 2013-yilning o‘zida 455 ta korxonada mahalliylashtirish dasturi asosida 1 ming 140 ta loyiha amalga oshirildi. Buning natijasida ishlab chiqarish hajmi 1,2 barobar ko‘paydi va import o‘mini bosish bo‘yicha yakuniy samara 5 mlrd. 300 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Bozor iqtisodiyotining eng asosiy o‘zaklaridan biri bo‘lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat iqtisodiyoti salohiyatini oshirishdagi roli va o‘rni tobora mustahkamlanib bormoqda va bu jarayon iqtisodiyotning tarkibida bo‘layotgan ijobiy o‘zgarishlarga kuchli ta’sir eta boshladi. 2013-yilning o‘zida mamlakatda 26 mingdan ziyod kichik biznes subyekti ish boshladi, bu sektorda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning umumiy soni yil oxiriga kelib 190 mingtaga yetdi. Hozirgi davrda mamlakat YaIMning qariyb 55,8 foizi ayni shu sohada ishlab chiqarilmoqda. Vaholanki, 2000-yilda bu ko‘rsatkich 31 foizdan iborat edi. Ayni

paytda ishlab chiqarilayotgan jami sanoat mahsulotlarining 23 foizi, ko'rsatilayotgan bozor xizmatlarining deyarli barchasi, mahsulot eksportining 18 foizi, iqtisodiyot tarmoqlarida ish bilan band bo'lgan aholining 75 foizi kichik biznes ulushiga to'g'ri kelmoqda[179].

Hozirgi davrda jahon bozoridagi konyunkturaning beqarorligiga qaramasdan, mamlakatda 2013-yilda eksport hajmining o'sishi 10,9 foizni tashkil etdi. Tashqi savdo faoliyatidagi ijobiy saldo 1 mlrd. 300 mln. dollarni tashkil etdi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish qishloqda ham o'zining ijobiy natijalarini bera boshladi. 2013-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2000-yilga nisbatan 2,3 barobar ko'paydi. Faqat 2013-yilning o'zida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish 6,8 foizga, jumladan, dehqonchilik – 6,4 foizga, chorvachilik – 7,4 foizga o'sdi.

Yalpi ichki mahsulotning umumiy hajmida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ulushining kamayish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bu holat iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan chuqur tarkibiy o'zgarishlar natijasida industrial mamlakatga xos bo'lgan holat – yalpi ichki mahsulotning hajmida sanoatning ulushini keskin ko'payib borayotganligi natijasida ro'y bermoqda.

2013-yilda Investitsiya dasturini amalga oshirish doirasida mamlakatda 13 mlrd. dollar qiymatidagi kapital qo'yilmalar o'zlashtirildi. O'zlashtirilgan kapital qo'yilmalar umumiy hajmining deyarli yarmini, ya'ni 47 foizini xususiy investitsiyalar — korxonalar va aholining shaxsiy mablag'lari tashkil etdi. Jalb etilayotgan investitsiyalarning asosiy qismi – 70 foizdan ortig'i, birinchi navbatda, ishlab chiqarish obyektlarini qurishga yo'naltirildi, eng yangi zamonaviy uskunalar xarid qilishga sarflangan investitsiyalar ulushi esa qariyb 40 foizni tashkil etdi. Umuman olganda, mamlakatimiz iqtisodiyotiga investitsiya kiritish hajmi YaIMga nisbatan 23 foizdan iborat bo'ldi[180].

Ko'rinib turibdiki, mustaqillikning o'tgan davri ichida «O'zbek modeli» asosida bozor iqtisodiyotiga o'tish, bu sohani liberallashtirish o'zini oqladi. Mamlakatda rivojlangan mamlakatlarga xos iqtisodiy munosabatlar va rivojlanish sur'atlari ro'y bera boshladi. Jahon moliyaviy va iqtisodiy inqirozi sharoitida ham mamlakat yalpi ichki mahsulotining bir necha yillar davomida yiliga 8 foizdan o'sib borganligi fikrimizga dalildir. Shu bilan birga, iqtisodiy salohiyatni o'sishi nafaqat ijtimoiy sohani rivojlanishiga ta'sir qildi, balki jamiyatda yangi ijtimoiy qatlamlarni

shakllanishiga shart-sharoitlar yaratdi. Mamlakatda mulkdorlar sinfi shakllandi. Xalqimizda xususiy mulkchilikka nisbatan yangi qarashlar shakllandi. Iqtisodiy rivojlanish natijalari aholi farovonligining manbayi sifatida namoyon bo'la boshladi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Sobiq ittifoq davri iqtisodiyoti va uning inqirozi nimalarda namoyon bo'ldi?
2. Prezident I.A.Karimov tomonidan ilgari surilgan «O'zbek modeli»da bozor iqtisodiyotiga o'tishga doir qanday o'ziga xos xususiyatlar mavjud?
3. O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tish qanday kechdi?
4. O'zbekistonda tadbirkorlik va xususiy mulkchilikning rivojlantirish islohotlari qanday kechdi?
5. O'zbekistonda bozor islohotlari va iqtisodiyotni liberallashtirish istiqbollari to'g'risida nima deya olasiz?

12-mavzu: DEMOKRATIK JAMIYAT QURISHDA KUCHLI IJTIMOIY HIMOYA VA ADOLAT TAMOYILLARI

1. Antik davr va Sharq mutafakkirlari adolat prinsiplari to'g'risida.
2. O'zbekiston davlatining ijtimoiy siyosati va uning insonparvarlik mohiyati.
3. Ijtimoiy siyosat va aholini ijtimoiy himoya qilish yo'nalishlari.
4. Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi huquqiy asoslarini rivojlanishi.

1. Antik davr va Sharq mutafakkirlari adolat prinsiplari to'g'risida

Insoniyat kishilik jamiyatiga uyushib yashashi bilan adolat va uning prinsiplarini yaratilishiga zarurat tug'ilgan. Zero, adolat qadriyatlariga amal qilish – insoniyatni rivojlanish sari intilishi demakdir. Bir necha ming yillik tarixiy rivojlanishlar davrida adolat tushunchasi rivojlanib va takomillashib bordi. Lekin, qadimgi davrlarda yashagan olimlar bu tushunchani mazmun-mohiyatini chuqur anglab yetib bo'lgan edi. Platonni keltirishicha, Suqrot o'z do'sti bilan muloqotda quyidagi fikrlarni bildirgan edi: «Qonunni hurmat qiluvchi odamlar adolatlimi? Uni hurmat qilmaydiganlar adolatsizmi?». Demak, adolat va qonun – eng chiroyli narsadir. Eng isnod keltiruvchi – adolatsizlik va qonunsizlikmi? Birinchilari (adolat va qonun demoqchi) davlatni saqlaydi, ikkinchilari (adolatsizlik va qonunsizlik demoqchi) uni halok etadi va yo'q qiladi»[181].

Platon esa adolat tushunchasini quyidagicha ta'riflaydi: «Ruhiyatni o'z-o'zidan xotirjamligi va ruh bo'laklarini bir-birlarini, demak bir butunlikda tartibga solish; har kimni o'z qadr-qimmatiga yarasha beriladigan taqsimot qobiliyati; uni egallagan kimsaning o'zi afzal deb bilgan hamda o'ziga adolatli tuyulgan narsani tanlash qobiliyati; hayotda qonunga bo'ysunish qobiliyati; turmushdagi tenglik; to'g'ri qonunlarga itoat etish qobiliyati»[182].

Adolat tushunchasini boyitishga Aristotel ulkan hissa qo'shdi. U adolatni quyidagicha ta'rifladi: «Adolat ikki xil bo'ladi. Ulardan biri – qonunga muvofiqlik: qonun buyurgan narsalar adolatlidir.

...Boshqaga nisbatan adolatlilik esa, aslini olganda, tenglikdir». U davom etib, yana quyidagilarni keltiradi: «Adolatlilik tushunchasi davlat to'g'risidagi tasavvurlar bilan bog'liqdir, chunki, adolatning mezoni bo'lgan huquq siyosiy munosabatlarni muvofiqlashtirish normasi hisoblanadi»[183].

Fozil jamiyat qurishda va ijtimoiy hayotda adolatning o'rniga doir boy nazariy meros qoldirgan mutafakkirlardan biri — bu Abu Nasr Forobiydir. U adolat prinsipiga kishilar va turli tabaqalar o'rtasida o'zaro iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarda to'g'ri taqsimlashning belgisi vazifasini bajaruvchi kategoriya sifatida qaraydi. «Adolatsizlikning sodir bo'lishi, — deb yozadi Forobiy, — shunda ifodalanadiki, ne'matlarning tegishli hissasi berilmay qoladi». Shuningdek, mutafakkir jamiyatda ro'y berib turadigan adolatsizliklarning turlarini tahlil etadi. Forobiy adolat tushunchasini axloqiy kategoriya sifatida, ya'ni kishilarning o'zaro munosabatlarida bir-biriga bergan baholari (yaxshi yoki yomon), kishilar xatti-harakatlarining mezoni, tasniflashi sifatida ham talqin qiladi: «Adolat (so'zi) ba'zan boshqa, keng ma'noda ham qo'llaniladi. Bu holda bir odamning boshqa odamlarga bo'lgan munosabati muayyan bir (axloqiy) fazilatga asoslansa, adolatli ish hisoblanadi». Fazilat muayyan bir mantiqiy mazmunda ifodalangan mavhum tushunchagina emas, balki odamning go'zallikka, yaxshilikka erishish uchun qilinadigan faoliyati va xatti-harakatlarining aniq ifodasidir. Forobiy fazilatni quyidagicha ta'riflaydi: «Odamni yaxshi ishlarni qilishga va go'zal xulqlar sohibi bo'lishga da'vat etuvchi ichki (axloqiy) sifatlar fazilatlar deb ataladi. Odamni xunuk xatti-harakatlar va illatli ishlarga da'vat etuvchi ishtiyoqlar razolat deyiladi, bular insondagi kamchiliklar yoki nokaslikning ifodasidir»[184].

Mamlakatimiz tarixida dastlab adolat tamoyilini davlat va jamiyat miqyosida qo'llagan mutafakkir — bu Sohibqiron Amir Temurdir. Shuningdek, u o'zi qurgan davlat kuch-qudratini adolat tamoyillari asosida rivojlantirgan buyuk inson edi. Shuning uchun ham u jahon tarixida chuqur iz qoldirgan inson sifatida tanildi, tashqi siyosati Osiyo va Yevropa davlatlariga kuchli ta'sir qilish qudratiga ega bo'lgan davlatga asos soldi.

Amir Temur o'zining davlat boshqaruvidagi asosiy tuzugi sifatida quyidagilarga amal qildi: «Adolat va insof bilan tangrining yaratgan bandalarini o'zimdan rozi qildim. Gunohkorga ham, begunohga ham rahm qilib, haqqoniyat yuzasidan hukm

chiqardim. Xayr-ehson ishlarim bilan odamlar ko'nglidan joy oldim. ...Zolimlardan mazlumlar haqqini oldim»[185].

Sohibqiron Amir Temurdan keyin adolat tamoyillarining to'laqonli mazmun-mohiyati Alisher Navoiy tomonidan yanada yuksaklikka ko'tarildi. U o'z asarlarida bot-bot hadisi sharifdagi «Bir soat adolat qilish — oltmish soat ibodatdan savobi baland», degan so'zni turli ranglarda talqin etadi (masalan, «shu bois Nushiravon garchi musulmon emas edi, ammo odil podsho bo'lganidan do'zaxga tushmadi»).

Ko'rinib turibdiki, adolat tushunchasi va uning prinsiplarini shakllanishi va takomillashuvi bir necha ming yillik tarixga egadir. Lekin, tushuncha, adolat prinsiplarini jamiyatga, davlat boshqaruviga, insonlar o'rtasidagi munosabatlar mezoniga aylanishida bizning vatandoshlarimiz bo'lgan mutafakkirlar ulkan hissa qo'shgan.

Mustaqillikning dastlabki davridan boshlab mamlakatda adolat tushunchasining mazmuni jahonda shakllangan demokratik va milliy qadriyatlar asosida boyitish jarayonlari boshlandi. Prezident I.A.Karimov tomonidan ilgari surilgan rivojlanishning «O'zbek modeli»ni beshta tamoyilidan biri — mamlakatimizning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat yuritish ekanligi davlatning ijtimoiy adolatni qaror toptirish sari rivojlanishini anglatadi.

O'zbekiston davlati o'z yangilanish va taraqqiyot yo'liga asos bo'lgan eng muhim qoidalardan biri bozor iqtisodiyotiga o'tishning barcha bosqichlarida kuchli ijtimoiy siyosat o'tkazish ekanligini e'lon qilish barobarida qolgan barcha qoidalar ijtimoiy vazifalarni hal etishga, aholini ijtimoiy himoyalash sohasida qat'iy kafolatni vujudga keltirishga bo'ysundirdi[186].

O'zbekistonda hozirgi davrda mamlakatni modernizatsiyalash islohotlari o'zining yuksak natijalarini berayotgan ekan, buning asosiy sabablaridan biri — mustaqillikning boshidayoq hozirgi davrning poydevori yaratilganidadir. O'sha davrdayoq Prezident I.A.Karimov tomonidan quyidagi g'oyalar ilgari surilgan edi: «Islohotlar muqarrarligining g'oyat muhim sharti bo'lmish aholini ijtimoiy himoya qilish haqiqatan ham asosiy uzluksiz ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Bozor islohotlarining hamma bosqichlarida oldindan o'tkaziladigan kuchli ijtimoiy siyosat O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lining prinsiplaridan biridir. Bozor iqtisodiyotini barpo etish — shunchaki bir maqsad emas. Barcha

iqtisodiy, demokratik, siyosiy islohotlarning pirovard maqsadlarining o'zi bu eng avvalo inson uchun munosib turmush va faoliyat sharoitlarini yaratishdir»[187].

Albatta, mamlakatda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish islohotlari bosqichma-bosqich ravishda ijtimoiy adolat prinsiplaridan biri – aholini kuchli ijtimoiy himoyalash islohotlari va amaliyoti bilan uzviy uyg'unlikda amalga oshirildi. Mamlakat hozirgi o'zining taraqqiyot darajasiga har qanday demokratik davlat va jamiyat uchun xos bo'lgan qoida – barcha jabha va darajalardagi boshqaruvning adolat prinsiplari asosida amalga oshirilishi o'laroq erishdi.

2. O'zbekiston davlatining ijtimoiy siyosati va uning insonparvarlik mohiyati

Hozirgi davrda insoniyat olamshumul tarixiy voqea-hodisalar sodir bo'layotgan, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi kechayotgan va butun dunyo hamjamiyati o'zining bor kuch va salohiyatini uning salbiy oqibatlarini bartaraf etishga qaratayotgan bir tarixiy davrda yashamoqda. Holbuki, 2008-yilda boshlangan va bugungi kunda ko'lami tobora kengayib va chuqurlashib borayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida ham mamlakat Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining puxta ishlab chiqilganligi, iqtisodiy islohotlar maqsadi va vazifalari, amalga oshirish yo'llarining aniq va to'g'ri ko'rsatib berilganligi bosh maqsad yo'lidagi yutuq va marralarning salmoqli bo'lishiga imkon yaratmoqda.

«O'zbekiston iqtisodiyotini barqaror va mutanosib rivojlantirish, jahon bozorlarida mustahkam o'rin egallash, shular asosida izchil iqtisodiy o'sishni ta'minlash, xalqimizning hayot darajasi va farovonligini yanada oshirish borasidagi vazifalarni to'liq va samarali amalga oshirish»[188] natijasida jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi mamlakatimiz iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotiga larzali ta'sir etmaganini nafaqat biz, balki xorijiy ekspertlar ham e'tirof etmoqdalar.

Mamlakat Prezidenti I.A.Karimovning ta'kidlashicha, jahon moliyaviy inqirozining O'zbekistonga ta'siri jiddiy bo'lmaganligini belgilovchi omillar qatorida «aholining ish haqi va daromadlarini

izchil va oldindan oshirib borish hamda iste'mol bozorida narxlar indeksining asossiz tarzda o'sishining oldini olishga doir chora-tadbirlarning izchillik bilan amalga oshirilganligidadir»[189].

Mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy islohotlar — shunchaki maqsad emas, u inson uchun, uning hayoti farovon bo'lishi, manfaatlari va ehtiyojlari ro'yobga chiqishiga sharoit yaratish uchun amalga oshiriladi. Bozor har qancha o'z-o'zini boshqarish imkoniyatiga ega bo'lmasin, ana shu g'oyat murakkab muammolarni hal qilishga qodir emas, buning uchun kuchli ijtimoiy siyosat zarur bo'ladi.[190]

Keng ma'noda qaraganda «ijtimoiy siyosat» deganda, jamiyatdagi har bir shaxs hayoti va faoliyati uchun uning rivojlanishiga yordam beradigan va ijodiy imkoniyatlarining to'liq namoyon qilishini rag'batlantiradigan zarur shart-sharoitlarni yaratish va saqlab turishga qaratilgan barcha chora-tadbirlar majmuyi tushuniladi.

Bugungi kunda ijtimoiy siyosatning quyidagi *asosiy yo'nalishlarini* ajratib ko'rsatish mumkin:

- aholini ijtimoiy himoya qilish;
- ijtimoiy ta'minot;
- davlat ijtimoiy kafolatlarini ta'minlash.

Mamlakatda ijtimoiy himoya o'ziga bog'liq bo'lmagan ravishda ijtimoiy muhofazaga muhtoj fuqarolarga nisbatan ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam shakli bo'lib, kam ta'minlangan aholi qatlamlariga ko'rsatiladigan xizmatlar, nafaqalar va imtiyozlarni ko'zda tutadi. Ijtimoiy himoya tadbirlari yordamida aholining umumjamiyat ishlab chiqarish jarayonida qanday qatnashishidan qat'iy nazar, aholining ma'lum tabaqalari turmush darajasini birmuncha (vaqtinchalik yoki doimiy) yaxshilashga erishiladi. Bu maqsadlardagi xarajatlarning aksariyati davlat budjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi, shuningdek, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, korxona, muassasa va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan ham amalga oshiriladi.

Hozirgi davrga kelib quyidagilar ijtimoiy yordam tizimini moliyaviy va moddiy jihatdan qo'shimcha tarzda qo'llab-quvvatlamoqda:

- o'z mablag'lari va jamg'armalari hisobidan o'z xodimlariga ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadlarida moliyaviy yordam to'layotgan va turli imtiyozlar berayotgan korxonalar;

- jamoat tashkilotlari;
- kasaba uyushmalari, nuroniylar, nogironlar jamiyatlari va boshqalar.

Ijtimoiy ta'minot — fuqarolarning qarilikda, kasallik ro'y berganda, mehnat qobiliyatini vaqtinchalik yoki butunlay yo'qotganda, boquvchisini yo'qotganda, shuningdek, uyda ijtimoiy yordam ko'rsatish davlat tizimidir. Ijtimoiy ta'minotning markazida pensiya ta'minoti yotadi (Butun dunyoda ijtimoiy ta'minot deganda pensiya ta'minoti tushuniladi). Bizning respublikamizda ijtimoiy ta'minotni amalga oshirishning quyidagi tashkiliy-huquqiy shakllari mavjud:

- davlat ijtimoiy sug'urtasi;
- davlat budjeti.

Davlat ijtimoiy sug'urtasi fuqarolarning zarur turmush darajasini kafolatlaydi. U majburiy bo'lib, ish beruvchilar va mehnatkashlarning sug'urta badallari hisobidan Pensiya fondi, Bandlik fondi va Siyosiy partiyalar mablag'larining shakllanishiga asos bo'ladi.

Demak, davlat ijtimoiy ta'minoti quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar;
- davlat pensiya ta'minoti;
- uy-internatlarda keksa va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga qarash va xizmat ko'rsatish;
- nogironlarni ortopediya-protez buyumlar va harakatlanish vositalari bilan ta'minlash;
- bolalar uylari, internatlar va boshqa muassasalarda bolalarga qarash va ularni tarbiyalash;
- nogironlarni ishlab chiqarish va kasbiy reabilitatsiya qilish;
- aholiga sanatoriya-kurort xizmatlari ko'rsatish va imtiyozli aholi qatlamlarini dori-darmonlar bilan ta'minlash;
- uylarda ijtimoiy xizmat ko'rsatish va boshqalar.

Bu xizmatlarning ayrimlari Pensiya fondi hisobidan moliyalashtirilsa (masalan: yoshga doir, boquvchisini yo'qotganlik va nogironlik pensiyalari, bola tug'ilganda beriladigan bir martalik nafaqa, dafn marosimlari uchun nafaqa kabi), ayrimlari (masalan: qariyalar va nogironlar uylarini saqlash, bepul ortopediya-protezlash vositalari bilan ta'minlash, uyda ijtimoiy yordam ko'rsatish kabi) davlat budjeti (respublika budjeti va mahalliy budjetlar) hisobidan mablag' bilan ta'minlanadi.

Davlat ijtimoiy kafolatlarini ta'minlash deganda fuqarolarning Konstitutsiya bilan kafolatlangan turli ijtimoiy xizmatlardan to'laqonli foydalanish huquqlarini ta'minlash tushuniladi. Bu huquqlar ta'lim olish, tibbiyot xizmatlaridan, fan, madaniyat yutuqlaridan foydalanish, shuningdek, turar joyga ega bo'lish bilan bog'liq fuqarolik huquqlari bo'lib, ularni moddiy va moliyaviy jihatdan ta'minlash esa mamlakatda yaratilgan milliy daromadni qayta taqsimlash asosida ijtimoiy yo'naltirilgan jamg'armalarni shakllantirish, tegishli qo'shimcha moliyaviy manbalarni qidirib topish, bu maqsadlarga korxona va tashkilotlarning ortiqcha pul resurslarini safarbar etish mexanizmlarini ishlab chiqish, ijtimoiy sohalar va ularning moddiy-moliyaviy ta'minotiga xorijiy hamkorlar, xalqaro tashkilotlar va boshqa moliya-kredit institutlarining e'tiborini qaratish orqali amalga oshiriladi.

Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, «Inson hayoti va uning manfaatlarini himoyalash bilan bog'liq yo'nalish va tarmoqlarni o'zida mujassam etgan ijtimoiy soha rivojini ta'minlash, uni yangi bosqichga ko'tarish, bu sohadagi muammolarni yechish, olib borilayotgan kuchli ijtimoiy siyosat va bu boradagi islohotlar birinchi navbatda o'zining qonuniy-huquqiy asoslarini mustahkamlashni talab qiladi»[191].

Xulosa qilib aytganda, davlatning ijtimoiy siyosatining asosiy vazifalarini bajarishda yashash joyidan qat'iy nazar, barcha aholi qatlamlari uchun ijtimoiy xizmatlardan foydalanishda teng shart-sharoitlarni yaratish; ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport muassasalari xizmatlarining sifati va samaradorligini oshirish, ijtimoiy sohalar xodimlari mehnatini har tomonlama rag'batlantirish; aholini ijtimoiy muhofaza qilishning manzilli bo'lishini ta'minlash; ijtimoiy himoyaning qonuniy-huquqiy asoslarini mustahkamlash; ijtimoiy siyosat tadbirlarini amalga oshirishda turli nodavlat notijorat tashkilotlarining faolligi, ishtirokini mustahkamlash; aholiga munosib yashash va ishlash sharoitlarini yaratishni ta'minlash uchun iqtisodiyotning barqaror o'sishini rag'batlantirish zarurdir.

Mamlakatimizda mehnatni rag'batlantirish, ish haqini ko'paytirish va aholi daromadlari o'sishini ta'minlashga qaratilgan siyosatni amalga oshirish bo'yicha qo'lga kiritilgan natijalar davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirishda naqadar to'g'ri va ilmiy-amaliy asoslangan strategiya tanlanganligidan va uning bajarilishi uchun egiluvchan va moslashuvchan taktik usullar qo'llanilayotganidan dalolat beradi.

3. Ijtimoiy siyosat va aholini ijtimoiy himoya qilish yo'nalishlari

Ijtimoiy siyosatni anglash uchun «ijtimoiy» tushunchasini bilishga zarurat tug'iladi. Bu tushuncha G'arb mamlakatlarida «sotsial» tushunchasi bilan ifodalanadi. Ijtimoiy siyosat deganda siyosat subyektlari tomonidan aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan aniq chora va tadbirlar majmuyini (tizimini) qabul qilish va amalga oshirish tushuniladi. Ijtimoiy siyosat davlat, mintaqaviy, munitsipal, korporotiv kabi subyektlar tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Lekin, keng ma'noda ijtimoiy siyosat – bu nafaqat chora va tadbirlar tizimi, balki markazida bosh maqsadi – inson bo'lgan, uning farovonligi, ijtimoiy himoyalash, ijtimoiy taraqqiyoti, hayotini ta'minlash, shuningdek, umuman aholini ijtimoiy xavfsizligi tizimi hamdir. Shuning uchun ham u ko'p qirrali va tuzilishi murakkab bo'lgan hodisadir[192].

Rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Qashshoqlikni qisqartirish.
2. Uy-kommunal xo'jaligini isloh etish.
3. Pensiya islohotlari.
4. Ta'lim tizimini modernizatsiyalash.
5. Aholi turmush darajasini oshirish.
6. Ish bilan bandlikni muvofiqlashtirish.
7. O'limni kamaytirish.
8. Samarali migratsiyaviy siyosat yuritish va hokazo.[193]

Aholini ijtimoiy himoyalash – bu butun aholini himoyalashga yo'naltirilgan choralar (sog'liqni saqlash, ta'lim olish, turar joyga ega bo'lish, madaniyat, pul daromadlarini inflatsiyadan himoyalash, asosiy tovarlar va xizmatlar iste'moli pasayishining oldini olish, ish haqi va nafaqalar o'z vaqtida berilishini ta'minlash) demakdir. Bunda maxsus mehnatga layoqatli va layoqatsiz aholini himoyalash bo'yicha maxsus tadbirlar amalga oshiriladi: ish o'rnini saqlash, xodimlarni ommaviy ishdan bo'shatishning oldini olish, hududiy shartnomalar va jamoa bitimlarini ishlab chiqish, ko'p bolali oilalarni, yetim bolalar, yolg'iz nafaqaxo'rlar, nogironlar, murakkab turmush vaziyatiga tushib qolgan fuqarolarni qo'llab-quvvatlash. Bu kabi tadbirlarni moliyalash, ularni axborot va resurslar bilan ta'minlash manbayi ko'rsatiladi.

Aholini ijtimoiy himoya qilish davlat tomonidan aholining yaxshi hayot kechirishi zarur bo'lgan shart-sharoitlarini ta'minlashga qaratilgan bevosita maqsadli kafolatlar tizimidir. Bunda ijtimoiy himoya tizimi bozor tizimiga xos samaradorlikning tor tasavvurlaridan emas, balki hayotdagi haqiqiy ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash masalalarini hal qilish maqsadidan kelib chiqib tashkil etilishi talab etiladi.

Ijtimoiy himoyani «iqtisodiyot — inson uchun» tarzida amalga oshirish uchun zarur bo'lgan zamonaviy iqtisodiyotga o'tishda *shunday samarali tizim zarurki, u har bir kishining mehnat* salohiyati, uning ijtimoiy-iqtisodiy maqomi, qaysi ijtimoiy-iqtisodiy guruhga mansubligidan qat'iy nazar, bu tizimdan foydalana olish imkonini berishi lozim. Masala shu tarzda qo'yilgandagina inson salohiyatidan samarali foydalanishga erishish, ertangi kunga ishonch tuyg'ularini shakllantirish mumkin bo'ladi.

Ijtimoiy himoya qilish deganda jamiyatning har bir a'zosiga ma'lum turmush darajasini, o'z qobiliyatini (mehnat, tadbirkorlik, shaxsiy faoliyatlarda) rivojlantirish va ulardan foydalanish, u yoki bu qobiliyatlar yo'qotilgan taqdirda (keksalik, nogironlik, kasallik, bolalik va boshq.) yashash kafolatlari bilan ta'minlaydigan iqtisodiy munosabatlar tizimi tushuniladi.

Ijtimoiy himoya mazmunini aniqlashga bu kabi yondashuvda quyidagi kafolatlar ijtimoiy himoyaning tarkibiy qismlariga aylanadi:

- mehnatga layoqatlilar uchun ish (ishsizlikdan himoya qilish);
- mehnatga layoqatsiz bo'lib qolganlar, nogironlar va aholining *boshqa ijtimoiy zaif guruhlarini nafaqalar* bilan ta'minlash;
- mehnat faoliyatidan olingan daromad yoki nafaqa asosida normal turmush darajasini ta'minlash (bunga asosiy moddiy boyliklar, eng avvalo oziq-ovqat mahsuloti iste'moli ham kiritiladi);
- turar joy, madaniy xizmatlar va sog'liqni saqlash xizmatlarini minimal teng me'yorda ta'minlash;
- zamonaviy malakali ishchi kuchini shakllantirish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni olish[194].

Bu jarayonda davlat va uning organlari quyidagi masalalarning hal etilishini ta'minlaydi: birinchidan, jamiyat inson mehnat qilish huquqini kafolatlaydi, bunga yana muayyan ish joyiga

yoki zarur resurslarga ega bo'lish va mehnatga yarasha haq to'lash kafolatlarini bo'lishi ham kiritiladi.

Shu bilan birga, ish bilan ta'minlashning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy shartlari hamda mehnat qilish huquqini amalga oshirishning kafolatlari mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar bilan belgilab qo'yiladi. Ikkinchidan, jamiyat davlat organlari tizimi va boshqa ijtimoiy tuzilmalar orqali ish kuni, ish haftasi, ish yili tartibini, yuqori mehnat samaradorligi bilan uzoq muddatli mehnat qobiliyatini saqlash uchun qulay shart-sharoitlarni qonunchilik yo'li bilan hamda boshqacha shakllardagi ijtimoiy himoya qilish bilan kafolatlaydi.

Ish vaqtining qisqartirilgan muddati quyidagilar uchun belgilanadi:

- o'n sakkiz yoshga to'lmagan xodimlar;
- I va II guruh nogironi bo'lgan xodimlar;
- noqulay mehnat sharoitlaridagi ishlarda band bo'lgan xodimlar;
- alohida tusga ega bo'lgan ishlardagi xodimlar;
- uch yoshga to'lmagan bolalari bor, budjet hisobidan moliyaviy jihatdan ta'minlanadigan muassasalar va tashkilotlarda ishlayotgan ayollar.

Uchinchidan, jamiyat ijtimoiy-madaniy sohani aholining ijtimoiy himoyalash talablari ustuvorligini hisobga olgan holda rivojlantirishni kafolatlaydi. Jumladan, bu vazifa dam olish muassasalarining zarur tizimi, infratuzilmasini rivojlantirish yo'li bilan har kungi, har haftadagi va har yili dam olish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish orqali amalga oshiriladi.

Barcha xodimlarga, shu jumladan o'rindoshlik asosida ishlayotgan xodimlarga, dam olish va ish qobiliyatini tiklash uchun ish joyi (lavozimi) va o'rtacha ish haqi saqlangan holda yillik mehnat ta'tillari beriladi.

Ma'lumki, xodimlarga o'n besh ish kundan kam bo'lmagan muddat bilan yillik asosiy ta'til beriladi. Yillik asosiy ta'til birinchi ish yili uchun olti oy ishlagandan keyin beriladi. Ish yili mehnat shartnomasiga binoan ish boshlangan kundan e'tiboran hisoblanadi.

Aholini ijtimoiy himoya qilish ijtimoiy yordamning quyidagi turlari bilan ta'minlanadi: *nafaqalar; imtiyozlar, kafolatlar,* afzalliklar; ijtimoiy xizmatlar; bir yo'la (nomuntazam) beriladigan moddiy yordam.

Quyidagilar ijtimoiy himoya obyektlari hisoblanadi: nafaqa yoshiga yetganlar; nogironlar; boquvchisini yo'qotgan bolalar; kam ta'minlangan oilalar bolalari; ishsizlar; homilador ayollar va yosh bolalarga qarash bilan band bo'lgan ishlamayotgan ayollar; kasallik tufayli vaqtincha ishlamayotganlar; o'quvchi yoshlar; mehnatga layoqatsizlarga qarash bilan band bo'lgan ishlamayotgan mehnatga layoqatli fuqarolar.

Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda ikkita asosiy yo'nalishni bir-biridan ajratib ko'rsatish mumkin: aholini ijtimoiy ta'minlash va davlat ijtimoiy kafolatlari. Ijtimoiy ta'minot pensiya ta'minoti, nafaqalar bilan ta'minlash, aholining ayrim tabaqalari uchun belgilangan imtiyozlar va kompensatsiyalar tizimi va ijtimoiy xizmat ko'rsatishni o'z ichiga oladi. Ikkinchi yo'nalish esa jamiyatning bir me'yorda rivojlanishini, ya'ni sog'likni saqlash, ta'lim, madaniyat va sog'lomlashtirish, shuningdek, turar joyga ega bo'lish huquqini ta'minlash bilan bog'liqdir.

Davlat ijtimoiy ta'minoti — aholining ijtimoiy nochor qatlamlariga pulli nafaqalar vositasida ko'rsatiladigan yordamdir. Soliqlar va boshqa budjet tushumlari hisobiga moliyalanadigan bu yordam ularga belgilangan minimal turmush darajasini kafolatlaydi.

Davlat ijtimoiy sug'urtasi zarur turmush darajasini kafolatlaydi. U majburiy bo'lib, ish beruvchilar va mehnatkashlarning sug'urta badallari, davlat tomonidan ajratiladigan dotatsiyalar hisobiga moliyalanadi.

Jamoa sug'urtasi yetarli turmush darajasini kafolatlaydi. U majburiy yoki ixtiyoriy ravishda amalga oshirilishi mumkin. Bunda ish beruvchilar va yollanganning sug'urta badallari to'lov manbalari bo'lib xizmat qiladi.

Shaxsiy sug'urta farovonlikning yuqori darajasini kafolatlaydi. U ixtiyoriy ravishda, fuqarolarning sug'urta badallari hisobiga amalga oshiriladi.

Birinchi ikki quyi tizimning asosiy tamoyili — birdamlik, uchinchisiniki subsidiyalash, to'rtinchi, ya'ni shaxsiy sug'urtaniki esa, mutanosiblik tamoyili deyiladi. Birdamlik tamoyili yordamning muhtojlik darajasiga qarab, fuqaro to'lagan soliqlar va sug'urta badallari miqdorini hisobga olmasdan taqsimlanishini ko'zda tutadi. Subsidiyalash tamoyilida esa, muhtojlik darajasiga qarab, ammo badallar miqdori va mos ravishda to'lovlar miqdorini

hisobga olgan holda yordam ko'rsatiladi. Mutanosiblik tamoyili to'langan sug'urta badallariga mutanosib miqdorda yordam ko'rsatishni ko'zda tutadi.

Ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilish amaliyoti xalqaro huquq normalari va rivojlangan mamlakatlar tajribasiga mos keladi. Shu bilan birga, bu sohaga milliy an'analarimiz va ma'naviy qadriyatlarimiz ham kirib keldi. Mustaqillik davrida davlatning bosh islohotchi sifatida amalga oshirib kelayotgan ijtimoiy siyosati asosan xalq farovonligini oshirishga, ozod va erkin Vatan barpo etishga qaratilganligi o'z isbotini topdi. Hozirgi fuqarolik jamiyati qurish jarayonlarida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan siyosat davom etmoqda.

4. Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi huquqiy asoslarini rivojlanishi

O'zbekiston davlati mustaqillikning ilk davridan boshlab o'z siyosatining ustuvor yo'nalishlarini inson farovonligini oshirishga qaratish yo'lini tutdi. Shundan kelib chiqib «fuqaro jamiyat — davlat» o'zaro munosabatlarini uyg'unlashtirish, ularni milliy manfaatlar bilan mushtarak bo'lishi asosiy vazifalar sirasiga kiritildi. Bozor iqtisodiyotiga o'tishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish, bu jarayonni ijtimoiy larzalarsiz amalga oshirishga muhim ahamiyat berildi. Shuning uchun ham mamlakatda o'tish davrini amalga oshirishga mustahkam zamin bo'la oladigan ijtimoiy himoya tizimini shakllantirish ustuvor maqsad sifatida qabul qilindi.

Mamlakatda fuqarolarni ijtimoiy himoyalashga doir huquqiy asoslarning poydevori O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida shakllantirildi. Uning 37-moddasida «Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanish huquqiga egadir», 38-moddasida «Yollanib ishlayotgan barcha fuqarolar dam olish huquqiga egadirlar. Ish vaqti va haq to'lanadigan mehnat ta'tilining muddati qonun bilan belgilanadi», 39-moddasida «Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega. Pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordamning boshqa turlarining miqdori rasman

belgilab qo'yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo'lishi mumkin emas», 40-moddasida «Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega», 41-moddasida «Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir» kabi qoidalar[195] mamlakatda har bir insonni ijtimoiy himoyalashning kafolati sifatida namoyon bo'ldi.

Mazkur Konstitutsiyadagi moddalar asosida aholini ijtimoiy himoyalashga doir qator huquqiy asoslar – kodekslar, qonunlar, Prezident farmonlari, hukumat qarorlari qabul qilindi.

1995-yil 21-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi mamlakatda aholini ijtimoiy himoya qilishda muhim o'rin tutdi. Xususan, uning 2-moddasi quyidagicha ifodalandi: «Mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari xodimlar, ish beruvchilar, davlat manfaatlarini e'tiborga olgan holda, mehnat bozorining samarali amal qilishini, haqqoniy va xavfsiz mehnat shart-sharoitlarini, xodimlarning mehnat huquqlari va sog'lig'i himoya qilinishini ta'minlaydi, mehnat unumdorligining o'sishiga, ish sifati yaxshilanishiga, shu asosda barcha aholining moddiy va madaniy turmush darajasi yuksalishiga ko'maklashadi»[196].

1998-yil 1-mayda «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi qonunning yangi tahriri qabul qilinib, uning 5-moddasida bu sohada davlat siyosatining asosiy prinsiplari sifatida quyidagicha ifodalandi:.

«Aholini ish bilan ta'minlash sohasidagi davlat siyosati quyidagi prinsiplarga asoslanadi:

- mehnat qilish va ishni erkin tanlash huquqini amalga oshirishda barcha fuqarolarga jinsi, yoshi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy ahvoli va mansab mavqeyidan, dinga munosabati, e'tiqodidan, jamoat birlashmalariga mansubligidan, shuningdek xodimlarning ishchanlik jihatlariga hamda ular mehnatining natijalariga bog'liq bo'lmagan boshqa holatlardan qat'iy nazar teng imkoniyatlarni ta'minlash;

- kishilarning mehnat va tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ularda mehnat qilish va hayot kechirishda munosib sharoitlarni ta'minlaydigan unumli va ijodiy mehnat qobiliyatini rivojlantirishga ko'maklashish;

- mehnat qilishning ixtiyoriyligi;

- ish bilan ta'minlanish sohasida ijtimoiy kafolatlar berish va aholini ishsizlikdan himoya qilishni ta'minlash;

- ijtimoiy himoyaga o'ta muhtoj va ish topishda qiynalayotgan fuqarolar uchun mavjud ish joylarini saqlab qolayotgan va yangi ish joylarini yaratayotgan ish beruvchilarni rag'batlantirish;

- ish bilan ta'minlash sohasidagi tadbirlarni iqtisodiy va ijtimoiy siyosatning boshqa yo'nalishlari bilan muvofiqlashtirish;

aholini ish bilan ta'minlash chora-tadbirlarini ishlab chiqish, amalga oshirish va ularning bajarilishini nazorat qilishda davlat organlari, kasaba uyushmalari, xodimlarning vakillik organlari va ish beruvchilarning o'zaro hamkorligi;

aholini ish bilan ta'minlash muammolarini hal qilishda davlatlararo hamkorlik»[197].

Umuman, mustaqillikning dastlabki davridayoq aholini ijtimoiy muhofaza qilishning huquqiy asoslarini shakllanishi barobarida uning o'ziga xos milliy tizimi ham shakllandi.

Aholini muayyan ijtimoiy himoyalashga oid tadbirlarni ro'yobga chiqarishda kam ta'minlangan oilalarga davlat madadini, fuqarolar o'z-o'zini boshqaruv organlarining keng va faol ishtirokini kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalashni kuchaytirishga oid tadbirlar to'g'risida»gi 1994-yil 23-avgustidagi PF-938-sonli farmoni qabul qilindi. Mazkur farmonga muvofiq qo'rg'onlar, qishloqlar, ovullar va mahallalarning fuqarolar o'z-o'zini boshqaruv baroha organlarida kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam berish maxsus jamg'armalari tashkil etildi va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam mahalla fuqarolari vakillari yig'ilishining qaroriga ko'ra tayinlanishi belgilab qo'yildi.

Mazkur dastur Oliy Majlis tomonidan ko'rib chiqilib, u O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining "Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniq yo'naltirilgan tarzda qo'llab-quvvatlashning 2002—2003-yillarga mo'ljallangan dasturi to'g'risida"gi Qarori 2001-yil 6-dekabrda ma'qullandi. Shuningdek, Oliy Majlisning mazkur qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari aholining ijtimoiy himoya qilinishini ta'minlashga yo'llanayotgan budjet mablag'laridan ular aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga yo'naltirilganligini kuchaytirishni nazarda tutgan

holda foydalanish samaradorligini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlarni ko'rish vazifasi topshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniq yo'naltirilgan tarzda qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish to'g'risida" 2002-yil 25-yanvardagi PF-3017-son Farmonida va Oliy Majlisning 2001-yil 6-dekabrdagi 306-P-son qarorida nazarda tutilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniq yo'naltirilgan tarzda qo'llab-quvvatlashning 2002—2003-yillarga mo'ljallangan dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2005-yil 25-yanvardagi 33-sonli qarori qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan 1997-yildan boshlab har bir yilni muayyan bir yo'nalishga bag'ishlash xayrli an'anaga aylandi. Shu asosda mamlakatning barcha kuch va imkoniyatlari muayyan ijtimoiy masalalarni hal qilishga safarbar etila boshladi. Jumladan, 1997-yildan boshlab har bir yil quyidagi nomlar bilan ataldi: 1997-yil — «Inson manfaatlari yili», 1998-yil — «Oila yili», 1999-yil — «Ayollar yili», 2000-yil — «Sog'lom avlod yili», 2001-yil — «Onalar va bolalar yili», 2002-yil — «Qariyalarni qadrlash yili», 2003-yil — «Obod mahalla yili», 2004-yil — «Mehr-muruvvat yili», 2005-yil — «Sihat-salomatlik yili», 2006-yil — «Homiylar va shifokorlar yili», 2007-yil — «Ijtimoiy himoya yili», 2008-yil — «Yoshlar yili», 2009-yil — «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili», 2010-yil — «Barkamol avlod yili», 2011-yil — «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili», 2012-yil — «Mustahkam oila yili», 2013-yil — «Obod turmush yili», 2014-yil — «Sog'lom bola yili» deb e'lon qilindi. Har bir yil e'lon qilinganda, unga bag'ishlangan Davlat dasturi qabul qilish an'anaga aylandi. Mazkur dasturlar nafaqat mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning, balki aholini ijtimoiy himoyalashni yanada yuksak darajaga ko'tarishning o'ziga xos islohotlari sifatida namoyon bo'la boshladi.

Jumladan, Prezident I.A. Karimov tomonidan 2007-yilni «Ijtimoiy himoya yili» deb e'lon qilinishi va bu borada ko'rsatib berilgan maqsad va vazifalar asosida ishlab chiqilgan chora-tadbirlar mamlakatda bag'rikenglik, o'zaro mehr-oqibatlilik, fuqarolararo totuvlik, turli millat vakillari o'rtasida do'stlik va hamjihatlik

muhitini qaror toptirish, yoshlarimizni yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan tashqari aholini ijtimoiy himoyalash siyosatining zamonaviy namunasi sifatida namoyon bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 19-martdagi «Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish va mustahkamlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-3864-sonli Farmoni qabul qilindi. Farmonga ko'ra, bolali ehtiyojmand oilalarga, ikki yoshgacha bo'lgan farzandi tarbiyasi bilan band ishlamayotgan onalarga nafaqa hamda kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam tayinlash va to'lash fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga yangi vazifalarni yukladi.

Mustaqillik davrida mamlakat aholisini ijtimoiy himoyalash maqsadida muntazam ravishda budjet muassasalari va tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar va stipendiyalari oshirib borilmoqda. Bundan tashqari, «Bolalar huquqlarining kafolatlari to'g'risida», «Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan va kasbiy kasalliklardan davlat tomonidan ijtimoiy sug'urtalash to'g'risida», «Tibbiy sug'urtalash to'g'risida» va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga «Homiylik to'g'risida», «Yod tanqisligi kasalliklarining oldini olish to'g'risida» qonunlarni qabul qilish natijasida aholini ijtimoiy himoyalash tizimini barcha yo'nalishlari hozirgi davr talablari darajasiga ko'tarildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-maydagi «2011—2015-yillarda yolg'iz keksalar, pensioner va nogironlarni ijtimoiy himoya qilishni yanada kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qaroriga asosan o'zgalar parvarishiga muhtoj yolg'iz fuqarolarga uyida ijtimoiy yordam ko'rsatish uchun yolg'iz fuqarolarning shaxsiy ro'yxatlari tuman (shahar) Bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari tomonidan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ishtirokida aniqlanishi, ro'yxatga olinishi va tuman (shahar) hokimlari tomonidan tasdiqlanishi, Qarorda belgilangan chora-tadbirlar dasturi doirasida tibbiy-ijtimoiy yordam va ijtimoiy xizmat ko'rsatilishi belgilandi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 23-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining tibbiy-ijtimoiy muassasalari to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida»gi

qarori bilan Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tasarrufidagi «Saxovat» va «Muruvvat» internat-uylarining nizomlari tasdiqlanib, bu maskanlarda yashayotgan yolg'iz hamda nogiron fuqarolarga (shu jumladan, nogiron bolalarga ham) tibbiy-ijtimoiy xizmat ko'rsatish va uning turlari aniq belgilab berildi[198].

Mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy himoya siyosatining natijasi o'laroq mustaqillik yillarida mamlakatimizda aholining real yalpi daromadlari jon boshiga 8,2 barobar oshdi. Faqat 2013-yilning o'zida davlat budjet mablag'larining 60 foizi ijtimoiy sohaga ajratildi.

Hozirgi davrga kelib mamlakatimizda yashayotgan har uchta oilaning bittasi shaxsiy yengil avtomobilga ega. Yurtimizdagi har 100 ta oilaga o'rtacha 80 ta muzlatgich, 146 ta televizor to'g'ri kelmoqda. Bu esa ba'zi oilalarda ikki-uchtadan televizor borligini ko'rsatadi. Shuningdek, aholining kir yuvish mashinasi, pilesos, mikroto'lqinli pechlar, shaxsiy kompyuter va boshqa zarur vositalar bilan ta'minlanish darajasi ortib bormoqda.

Aholi bandligini ta'minlash uchun 2013-yilda 970 mingdan ortiq ish o'rni yaratilib, ularning 60 foizi qishloq hududlarida tashkil etildi. Jumladan kasb-hunar kollejlarini bitirgan 500 mingdan ziyod yigit-qizlar ishga joylashtirildi.

Ta'lim-tarbiya tizimini yangi bosqichga ko'tarish maqsadida ancha tadbirlar amalga oshirildi. 2013-yilda mamlakatimizda 756 ta ta'lim maskani, musiqa va san'at maktablari, bolalar sporti obyektlari yangidan qurildi, rekonstruksiya qilindi va kapital ta'mirlandi. Zamonaviy kompyuter sinflari, o'quv laboratoriyalari, ustaxonalar tashkil etilib, zarur asbob-uskunalar bilan jihozlandi.

Aholini markazlashgan tarmoqlar orqali toza ichimlik suvi bilan ta'minlashni yaxshilash uchun 2013-yilning o'zida 213 mlrd. so'm mablag' hisobidan 1 ming 850 kilometrga yaqin suv tarmog'i tortildi, 1 mln. 370 ming nafar aholining suv ta'minoti yaxshilandi. 2013-yil — «Obod turmush yili» davlat dasturi doirasida barcha manbalar hisobidan 6 trln. 930 mlrd. so'm hamda 471 mln. dollardan ortiq mablag' sarflandi[199]. Bu holatning o'zi bu sohada amalga oshirilgan ishlarning hajmi va ko'lami qanchalar keng va ulkan ekanidan dalolat berib turibdi.

Mamlakatda 2014-yil — «Sog'lom bola yili» davlat dasturini ishlab chiqishda birinchi navbatda onalik va bolalikni himoya qilish, oilalarda sog'lom muhitni kuchaytirish, ularning iqtisodiy

va ma'naviy asoslarini mustahkamlash kabi masalalarga asosiy e'tibor markaziga qo'yilishi mamlakatda aholini ijtimoiy himoya qilish jarayonlari rivojlangan mamlakatlar darajasiga yaqinlashayotganligini anglatadi.

Mamlakatda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi o'zida umuminsoniy va milliy qadriyatlarni uyg'unlashtirgan bo'lib, bozor iqtisodiyotiga asoslangan fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatga o'tish davrida aholini barcha ijtimoiy qatlamlarini himoyalash qobiliyatiga ega ekanligini namoyon qildi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Antik davr va Sharq mutafakkirlari adolat prinsiplari to'g'risida qanday ta'riflar keltirgan?
2. O'zbekiston davlatining ijtimoiy siyosatining insonparvarlik mohiyati nimalarda namoyon bo'lmoqda?
3. Aholini ijtimoiy himoya qilishning qanday yo'nalishlari mavjud?
4. Aholini ijtimoiy himoya qilishning qanday tamoyillari mavjud?
5. O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining huquqiy asoslari qanday rivojlantirildi?

13-mavzu: FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH

1. Fuqarolik jamiyati institutlari tushunchasi hamda uning ma'no va mazmuni.
2. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining demokratlashuv jarayoniga ta'siri.
3. Fuqarolik jamiyati institutlari tashkiliy-huquqiy asoslarining rivojlanishi va istiqbollari.

1. Fuqarolik jamiyati institutlari tushunchasi

Rivojlangan Yevropadagi, Shimoliy Amerikadagi, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi davlatlarda minglab fuqarolik jamiyati institutlari faoliyat ko'rsatadi. Ular jamiyat hayotining aniq bir muammosi bilan shug'ullanishi bilan bir-birlaridan farq qiladi. Aksariyat nodavlat notijorat tashkilotlari insonparvarlik maqsadlarida tuziladi va faoliyat ko'rsatadi. Hattoki, ularning ba'zilari umummilliy, mamlakat, halqaro miqyosda faoliyat ko'rsatish darajasiga ham erishgan.

Nodavlat notijorat tashkilotlarning (NNT) funksiyalari turlitumandir. Lekin, ularning asosiy funksiyalaridan biri turli ijtimoiy guruhlar va qatlamlar manfaatlarini himoya qilishdir. Manfaatlar guruhlari individlardagi turli yo'nalishdagi qarashlar va fikrlarni bir tizimga keltiradi, biron-bir tashkilotning bir qolipga solingan manfaatlar tizimi asosida tashkilotning harakat dasturini shakllanishiga yordam beradi. Shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlar ko'plab ayrim manfaatlarni agregatsiya qilish (munozaralar va muhokamalar yordamida turli manfaatlarni uyg'unlashtirish va ular o'rtasida ma'lum bir munosabatlar tizimini o'rnatish) faoliyatini ham olib boradi. Bu jarayonda eng asosiy va muhim ahamiyat kasb etadigan, guruh a'zolarining keng qatlamlari qarashlarini ifoda eta oladigan manfaatlar tanlab olinadi va ularni amalda bajarish uchun zaruriy chora-tadbirlar ko'riladi.

Nodavlat notijorat tashkilotlar tomonidan ma'lum bir ijtimoiy guruhning turli manfaatlarini bir tizimga solinishi, ularni keng jamoatchilikning xohish-irodasi sifatida davlat va hukumat organlariga yetkazilishi — siyosiy qarorlar qabul qilish uchun muhim ahamiyatga egadir. Qolaversa, bunda ko'plab manfaatlar

guruhlari va ijtimoiy qatlamlar o'rtasida o'zaro kelishuv va muvofiqlashuv holatlari yuzaga keladi.

Manfaatlar guruhlarining yana bir funksiyasi — integratsiya qilishdir (bir butunlikka birlashtirishdir). Bu — ayrim ijtimoiy guruhlar tashqarisida o'z a'zolari manfaatlari asosida faoliyat ko'rsatayotgan turli ijtimoiy guruhlar bilan boshqa bir guruh manfaatlarini yaqinlashtirish demakdir. Ana shu jarayonda turli guruhlar o'rtasida bitimlar tuzilib, ijtimoiy kelishuvlar va murosasozliklar mustahkamlanib boradi[200].

Rivojlangan mamlakatlarda manfaatlar guruhlari jamiyatning asosiy qismini tashkil etadi. AQShda 1 milliondan ko'proq nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Ularda Amerika aholisining 7,8 foizi xizmat qiladi. AQShda aynan jamoat tashkilotlari sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat, san'at va fuqarolarni ijtimoiy ta'minlash, ularni muhofazalash sohalarda davlatning asosiy hamkori hisoblanadi. Dunyoning boshqa rivojlangan mamlakatlari hukumatlari ham muhim iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va boshqa muammolarni hal etishda jamoat tuzilmalariga, birinchi navbatda nodavlat notijorat tashkilotlarga tayanadilar.

O'zbekistonda ham mustaqillikning dastlabki davridan boshlab rivojlangan mamlakatlar va milliy an'analar uyg'unligi asosida fuqarolik jamiyatining institutlari yildan yilga ko'payib bormoqda. Mamlakatda olib borilayotgan islohotlarning bosh maqsadi — erkin bozor munosabatlariga asoslangan ochiq, huquqiy demokratik davlat qurish, adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish, odamlar turmush darajasini taraqqiy etgan davlatlar darajasiga ko'tarish, mamlakatimizni jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashiga erishishdan iboratdir.

O'zbekistonda jamiyat hayotini demokratlashtirishda fuqarolik jamiyati institutlarining roli beqiyosdir. Bu institutlar — ixtiyoriy ravishda tuzilgan, jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olgan nodavlat tuzilmalar (birlashmalar, tashkilotlar, assotsiatsiyalar, uyushmalar, markazlar, klublar, jamg'armalar va boshq.) faoliyatini o'zida ifoda etadi. Ular faoliyatining rivojlanishiga mutanosib ravishda fuqarolik jamiyatiga xos belgilar shakllanib boradi.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari sifatida faoliyat olib boruvchi nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat birlashmalari,

turli ijtimoiy qatlam va guruhlar manfaatlarini o'zida ifodalagan markazlar, jamg'armalar, assotsiatsiyalar, siyosiy partiyalar, harakatlar, diniy tashkilotlar faoliyat yuritadi. Ular mamlakatda fuqarolik jamiyati shakllanishi va rivojlanishining muhim shartidir. Bu institutlar fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda, ularning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga bosqichma-bosqich o'tib borish jarayonida, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy manfaatlarini, qiziqishlarini qondirib borishda nodavlat notijorat tashkilotlari va jamoat birlashmalari davlat tashkilotlari bilan fuqarolar o'rtasida go'yoki vostachilik rolini o'ynaydi.

Fuqarolik jamiyatini qurish tugallanib borgani sayin davlat boshqaruvining ko'plab funksiyalari fuqarolik jamiyati institutlariga o'tib boradi. Aholining turli ijtimoiy qatlamlari, ayrim olingan shaxs muayyan nodavlat va jamoat tashkiloti orqali o'z manfaatlariga erishadi, shuningdek jamiyat boshqaruvida faol qatnashishga imkon topadi. Shu asnoda jamiyat o'zini o'zi boshqarish asosida yashaydi va rivojlanib boradi. Bu jarayonda qandaydir shaxs yoki mansabdor xohish-irodasi bilan emas, balki demokratiyaga asoslangan, fuqarolarning yuksak huquqiy madaniyati, dunyoqarashi ustuvor bo'lgan ijtimoiy muhit o'z qonuniyatlari asosida jamiyatni tashkil etadi va xalq farovonligini ta'minlaydi.

Fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining asl mohiyati shundaki, ularning a'zolari bo'lgan kishilar, shaxs, ijtimoiy guruhlar, kasb-kor egalarining tub manfaatlari, hayotiy ehtiyojlari bu institutlar faoliyati natijasi o'laroq qondirib boriladi. Nodavlat notijorat tashkilotlarning (NNT) ko'p qirrali faoliyatlari asosan inson manfaatlari va haq-huquqlarini ta'minlashga shart-sharoitlar yaratishdir.

Faqat mustaqillik davriga kelib O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishi va rivojlanishi uchun qulay ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, iqtisodiy-moliyaviy shart-sharoitlar yaratildi.

Shu bilan birga, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishdan asosiy maqsad jamiyat a'zolarining manfaatlari o'rtasidagi o'zaro muvozanatni ta'minlash va bu jarayonda adolatni o'rnatishdan iboratdir. Fuqarolik jamiyati institutlari o'z mohiyatiga

ko'ra fuqarolarning o'zligini anglashga, ijtimoiy munosabatlarda o'zini o'zi boshqarishga qaratilgan, ixtiyoriy tarzda birlashgan, muayyan bir maqsadga erishishni nazarda tutgan nodavlat tashkilotlaridir.

Fuqarolik jamiyati institutlari sifatida faoliyat ko'rsatadigan nodavlat notijorat tashkilotlari va jamoat birlashmalari o'z mohiyatiga ko'ra davlat muassasalaridan tubdan farq qiladi. O'zbekiston Respublikasining «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi Qonunida «nodavlat notijorat tashkiloti» tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: «Nodavlat notijorat tashkiloti — jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan o'zini o'zi boshqarish tashkilotidir»[201].

«Nodavlat notijorat tashkiloti jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy maqsadlarga erishish, ma'naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, xayriya faoliyatini amalga oshirish uchun hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladi»[202].

Mamlakatda fuqarolik jamiyati institutlari sifatida faoliyat ko'rsatayotgan NNT 3-sektor deb ham yuritiladi. 1-sektor davlatga qarashli bo'lgan muassasalar (davlat mulklari va unga qarashli korxonalar, muassasalar). 2-sektor shaxs va ularning mulklarini tashkil etadi. Nodavlat va jamoat birlashmalari mustaqil o'zini boshqarish organlari sifatida fuqarolar manfaatlarini himoya qiladi. Kishilar o'z qiziqish va manfaatlarini individual holda qondirishlari qiyin kechadi. Shuning uchun ular o'z manfaatlari va qiziqishlarini fuqarolik institutlari orqali amalga oshirishga intiladi. Hozirgi davrda O'zbekistonda ijtimoiy adolat tamoyillarining hayotimizning barcha sohalarida to'liq amal qilib borishida nodavlat va jamoat birlashmalarining roli beqiyosdir. Aynan mana shu nodavlat va jamiyat tashkilotlari fuqarolik jamiyati shakllanishining asosi bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, Prezident I.A.Karimov quyidagi fikrni bejiz aytmagan edi: «Ochiq va kuchli fuqarolik jamiyatini bugungi kunda aholining turli ijtimoiy guruhlari va keng qatlamlari manfaatlarini ifoda etadigan mustaqil va barqaror nodavlat notijorat tashkilotlar, erkin ommaviy axborot vositalari va boshqa fuqarolik

jamiyati institutlarining rivojlangan tizimisiz tasavvur etib bo'lmaydi» [203].

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, nodavlat va jamoat tashkilotlarining faoliyati jamiyatda qanchalik sermazmun va faol darajada bo'lsa, fuqarolarning ijtimoiy jarayonlardagi ishtiroki qanchalik faollashsa, shunga muvofiq ravishda ijtimoiy adolat tamoyillari jamiyat hayoti va boshqaruvining asosiy mezoniga aylanib boradi.

Fuqarolik jamiyati institutlari davlatga qarashli bo'lmagan, ammo qonunlarga qat'iy rioya qilgan holda faoliyat ko'rsatadigan tuzilmalar — nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat birlashmalari, siyosiy partiyalar, jamoat fondlari kabilardan iboratdir. Ular quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1) aholining ayrim yoki muayyan yirik ijtimoiy toifalarining ijtimoiy manfaatlarini ko'zlab ishlashga ixtisoslashgan, hukumatga qarashli bo'lmagan umummilliy tashkilotlar. Ular jumlasiga «Mahalla», «Nuroniy» jamg'armalari, kasaba uyushmalari, Xotin-qizlar qo'mitasi, «Nogironlar» uyushmasi, «O'zbekiston ekologik harakati», «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati kabi qator tashkilotlar kiradi;

2) ixtisoslashgan milliy va xalqaro jamg'armalar: «Ekosan», «Sog'lom avlod uchun», «Amur Temur», «Matbuotni demokratlashtirish va qo'llab-quvvatlash», «Orolni qutqarish» jamg'armalari, «Markaziy Osiyo mamlakatlari madaniyat va fan arboblari assambleyasi» kabi tashkilotlar kiradi;

3) hukumatga qarashli bo'lmagan huquqni himoya qiluvchi tashkilotlar: Shaxs huquqlarini himoya qilish qo'mitasi, Inson huquqlari va gumanitar huquqni o'rganish markazi, Inson huquqlarini himoya qilish milliy markazi, Huquqiy yordam ko'rsatish jamiyati va boshqalar kiradi;

4) ziyolilarning milliy ijodiy jamoat tashkilotlari: yozuvchilar, rassomlar, bastakorlar, arxitektorlar, kinematograflar, shuningdek, sudyalar va advokatlarning jamoat uyushmalari;

5) milliy madaniyat markazlari. Ular O'zbekistonda yashovchi milliy (ozchilikni tashkil etuvchi) jamoalar vakillarining madaniyati, ma'naviyati, urf-odatlarini saqlab qolish va avloddan-avlodga yetkazib berish maqsadida tuzilgan tashkilotlar sanaladi. Hozirgi davrda Respublikamizda 27 millat vakillari tomonidan tuzilgan 150 ga yaqin milliy-madaniy markaz (MMM)lar faoliyat olib bormoqda;

6) umummilliy jamiyatlar va jamg'armalar: Bolalar jamg'armalari, mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy himoya qilish tashkilotlari, Talabalar jamg'armalari, «Mehr nuri» jamg'armasi kabilar;

7) ijtimoiy ahamiyat va ijodiy qiziqishlar bilan bog'liq bo'lgan, asosan, ekologiya masalalari bo'yicha milliy va mahalliy birlashmalar: sayyohlik va badiiy havaskorlik klublari, nogiron bolalar ota-onalarining birlashmalari;

8) jamoatchilik muassasalari: «Ijtimoiy fikr» jamoatchilik markazi, Jurnalistlarni tayyorlash xalqaro jamoatchilik markazi singari hukumatga qarashli bo'lmagan ijtimoiy muassasalar shular jumlasiga kiradi.

Fuqarolik jamiyatining asosiy tamoyillari nodavlat va jamoat tashkilotlari vositasida shakllanadi. Bu tashkilotlarning faollashuvi jamiyat hayotida avtoritar va totalitar boshqaruvga xos xususiyatlarni ustuvor bo'lishiga yo'l qo'ymaydi. Shu o'rinda fuqarolik jamiyati institutlarining davlat muassasalaridan farqlanuvchi jihatlariga e'tibor qaratishga ehtiyoj seziladi.

Davlat muassasalarida xodimlar muayyan tartib-qoidalarga bo'ysungan holda, qat'iy ma'muriy yo'riqnomalar, buyruq va talablar asosida faoliyat yuritadi. Har bir mansabdor o'zi uchun belgilangan funksional vazifalar doirasida faoliyat yuritadi. Chunki, davlat tashkilotlari mamlakaktning milliy xavfsizligini ta'minlash, boshqa davlatlar bilan tashqi siyosat olib borish, huquqbuzarlikning oldini olish, davlat harbiy va iqtisodiy qudratini oshirish vazifalaridan kelib chiqib boshqaruvning iyerarxik munosabatlariga asoslanadi.

Fuqarolik jamiyati institutlari esa o'zlarining mohiyatiga ko'ra, davlat tashkilotlaridan farq qiladi va ularga ijtimoiy konstruktivlik, ya'ni jamiyat oldida turgan vazifalarni hal etishga yo'nalganlik, fuqarolarning hayotiy manfaatlari va ehtiyojlarini himoya qilish xosdir. Bunday NNT ma'lum bir ijtimoiy makon — jamiyatda tashkil topadi. Bu esa ularning ushbu hududning tarkibiy qismi, instituti ekanligini anglatadi. Modomiki, jamiyat tub o'zgarishlarga yuz tutgan ekan, fuqarolik jamiyati institutlari ushbu jarayonlardan chekkada tura olmaydi. Shu ma'noda, ular jamiyat muammolarini bartaraf etish uchun faoliyat yuritadi.

Ularning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- milliy qadriyatlarimizni dunyo hamjamiyatiga targ'ib qilish;

- yurtimizga qarshi qaratilgan, jamiyatimiz hayotiga tahdid soluvchi buzg'unchi, yot g'oyalar, g'oyaviy va axborot xurujlari, ularning ortida turgan kuchlarning g'arazli maqsadlarini fosh qilish, odamlarni hushyorlik va ogohlikka da'vat etish, diniy ekstremizmga qarshi kurashish yuzasidan olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlarda davlat organlari bilan mustahkam hamkorlik qiladi;

- yangidan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan, chetdan g'arazli maqsadlar bilan hayotimizga suqilib kirishga yo'naltirilgan mafkuraviy tahdidlarga qarshi aholining turli qatlamlari o'rtasida tarbiyaviy va targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish;

- yoshlar ijodini rag'batlantirishga, rivojlantirishga qaratilgan faoliyat ko'rsatadi;

- kadrlar tayyorlash milliy dasturida ko'zda tutilgan asosiy maqsadlar, yoshlar orasida komil axloq, o'zaro insoniy munosabatlar, mehr-muruvvat, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglikni keng targ'ib etish, ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarini olib borishda faol ishtirok etadi;

- aholi, ayniqsa yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish hamda jismonan baquvvat avlodni tarbiyalashga yo'naltirilgan tadbirlarni amalga oshirishda faol ishtirok etadi.

Fuqarolik jamiyatini o'rganish instituti ma'lumotlariga binoan hozirgi davrda O'zbekistonda o'z yo'nalishi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan NNTlarning 40 foizi — ijtimoiy-iqtisodiy qonunlarni himoya qilishga, 14,2 foizi — ayollar va yoshlar muammolarini hal etishga, 13,6 foizi — sog'liqni saqlash, ta'lim, ekologiya sohasiga, 12 foizi esa boshqa ijtimoiy ahamiyatga molik vazifalarni bajarish bilan bog'liq sohalarda faoliyat yuritmoqda[204].

Mamlakatda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, ularning o'zaro hamkorligini mustahkamlash maqsadida 2005-yilning may oyida O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan 150 ga yaqin NNT vakillari tashabbusi bilan O'zbekiston Nodavlat notijorat tashkilotlar milliy assotsiatsiyasi tashkil etildi. Hozirgi davrda bu tashkilot 450 dan ortiq NNTlarni o'zida birlashtirib turibdi.

Fuqarolik jamiyati institutlari ijtimoiy munosabatlarning iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma'naviy, diniy, ta'lim-tarbiya va turmush tarzi kabi sohalarida faoliyat ko'rsatadi. Mazkur institutlarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ular davlat

tomonidan emas, balki fuqarolarning o'zlari tomonidan tashkil qilinadi va mavjud qonunlar doirasida davlat tashkilotlaridan mustaqil ravishda faoliyat yuritadi.

2. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining demokratlashuv jarayoni

Agar fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishning rivojlangan mamlakatlar tajribasiga murojaat qilsak, quyidagi manzara hosil bo'ladi: AQShda 1 mln.dan ko'proq nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyat yuritadi. Bu mamlakat umumiy aholisining har 300 tasiga bittadan NNT to'g'ri keladi. Ularda Amerika aholisining 7,8 foizi xizmat qiladi. Rivojlangan 22 ta mamlakatda ish bilan band aholining 4,9 foizi bevosita nodavlat sohada mehnat qiladi. Bu ko'rsatkich Niderlandiyada 12,4, Irlandiyada 11,5, Belgiyada 10,5, Isroilda 9,2, Avstraliyada 7,2 va Buyuk Britaniyada 6,2 foizga tengdir[205]. Rossiyada hozirda 600 mingdan ziyod NNTlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib (hozirda Rossiya aholisi 142 mln.ga yaqin), har 236 kishiga bittadan NNT to'g'ri keladi. Rossiya Federatsiyasining birgina Yaroslavl viloyatida 4000 ga yaqin NNT rasman ro'yxatga olingan. Ammo hozirda ularning 30 foizigina faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekistonda esa jami 7 mingga yaqin fuqarolik jamiyati institutlari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, aholining har 4300 kishiga bittadan nodavlat tashkilotlari va jamoat birlashmalari to'g'ri keladi. Ularning salmog'i yildan yil ortib bormoqda.

«Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari» – degan ijtimoiy-siyosiy tamoyilning mohiyati fuqarolarning o'z hayoti va jamiyatning muhim sohalarini tashkil etishda va boshqarishda keng ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratib berishni taqozo etadi. Bu borada jamoat birlashmasi sifatida faoliyat ko'rsatayotgan Kasaba uyushmalarining roli beqiyos darajada kattadir. Kasaba uyushmasi faoliyatining muhim jihatlaridan biri, mehnatkashlar huquq va manfaatlarini himoya qilishdan iborat bo'lib, bu tamoyil O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ikkinchi bo'lim IX bobida, «O'zbekiston Respublikasining kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi Qonunining 10-moddasida belgilab qo'yilgan. Unda ko'rsatiladiki: «Kasaba uyushmalarining faoliyati mehnat sharoiti va mehnatga

haq to'lash, mehnatni muhofaza qilish va ishlab chiqarish havfsizligini ta'minlashga, mehnatkashlarning uy-joy sharoitiga, ularning ijtimoiy sug'urtaga, sog'liqni saqlash va madaniyatiga taalluqli manfaatlarini himoya qilish, pensiya ta'minoti sohasidagi huquqlari bilan tartibga solinadi»[206].

Mazkur jamoat birlashmasi faoliyati «Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi qonun bilan muvofiqlashtiriladi. Respublika axolisining qariyb olti mln.ini o'zida birlashtirgan ushbu jamoat tashkilotining asosiy vazifasi, unga a'zo bo'lgan turli kasb-kor egalarining huquq va manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir. Kasaba uyushmalari fuqarolik jamiyati instituti sifatida, mehnatkashlarning farovon turmushini yaratish, ayniqsa xotin-qizlar va yosh mutaxassislar mehnati va haq-huquqlarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi.

Jamiyat hayotida, xususan, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatining shakllanib va rivojlanib borishida xotin-qizlarning roli beqiyos darajada kattadir. Ularning haq-huquqlarining himoya qilinishi, jamiyat hayotida egallab turgan mavqeyi, davlat va jamiyat boshqaruvida xotin-qizlarning ishtiroki, faolligi o'z navbatida, fuqarolik jamiyati tamoyillarining qay darajada amal qilayotganligining muhim ko'rsatkichi sifatida belgilanadi. Prezident I.A.Karimov ta'kidlab o'tganidek, «jamiyatning demokratik o'zgarish yo'lidan nechog'li ilgarilab ketgani shu jamiyatning ayollarga bo'lgan munosabati uning madaniy-ma'naviy saviyasini belgilaydi»[207]. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, jamiyatimiz hayotida «Xotin-qizlar qo'mitasi»ning faoliyati muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-yil 25-maydagi PF 3434-sonli «O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni, O'zbekiston Xotin-qizlar jamoat tashkilotlarining xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish, ularning mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy hayotida to'laqonli ishtirok etishini ta'minlash, xotin-qizlarning ma'naviy va intellektual salohiyatini yuksaltirish borasida olib borilayotgan ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim hujjat bo'lib xizmat qilmoqda.

2004-yil 29-iyulda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-yil 25-maydagi «Xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlari dasturi to'g'risida»gi 299-

sonli qarorining qabul qilinishi, xotin-qizlar faolligini oshirib borish davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligini bildiradi.

Hozirda respublikamizda eng yirik jamoat tashkilotlaridan bo'lgan «O'zbekiston Respublikasi xotin-qizlar qo'mitasi», «Tadbirkor ayol» assotsiatsiyasi, «Olima ayollar» assotsiatsiyasi kabi xotin-qizlar ijtimoiy manfaatlarini o'zida mujassamlashtirgan jamoat tashkilotlari faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning salmog'i va tarkibi yildan yilga ortib borayotganligi quvonarlidir.

Hozirda, O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan yana bir umummilliy ahamiyatga ega bo'lgan jamoat tashkilotlaridan biri «Nuroniy» jamg'armasi bo'lib, mazkur birlashma O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 4-dekabr PQ-1655 Qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 31-dekabrdagi «O'zbekiston veteranlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash «Nuroniy» jamg'armasini tashkil etish to'g'risida»gi farmoyishi asosida tashkil etilgan.

Ushbu jamg'armaning asosiy maqsadi, O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan davlat siyosatida veteranlarni ijtimoiy himoya qilish, davlat mustaqilligini yanada mustahkamlab borishda ularning faol ishtirokini ta'minlash, jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida ularning ishtirokini yanada ko'proq ta'minlab borish kabilardan iboratdir. Hozirda O'zbekistonda 3 milliondan ziyod nafaqadorlar bo'lib, ularning ko'plari jamiyatimiz ijtimoiy hayotida faol ishtirok etmoqdalar[208].

O'zbekiston «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati mamlakatimiz yoshlarini ixtiyoriylik, oshkoralik, huquq va majburiyatlar tengligi tamoyili asosida birlashtirgan nodavlat notijorat tashkilotidir. Hozirda, mazkur tashkilot o'z safiga 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan 5,5 million O'zbekiston yoshlarini birlashtirgan.

O'zbekiston «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining asosiy maqsadi — mamlakatimiz yoshlarini ozod va obod Vatan barpo etishdek ulug' maqsad yo'lida birlashtiradi. Mazkur tashkilot farzandlarimizni barkamol avlod qilib voyaga yetkazish, ularni o'z Vataniga fidoiy shaxs qilib tarbiyalash, mustaqil fikrlay oladigan, hozirgi zamon ilg'or fan va texnologiyalarini chuqur egallagan bilimli, jamiyat hayotida o'z o'rniga ega bo'lgan, dunyoda hech kimdan kam bo'lmagan va kam bo'lmaydigan barkamol shaxs bo'lib yetishishlariga ko'mak beruvchi fuqarolik instituti sifatida faoliyat yuritmoqda.

Harakat homiyligida «Kamalak» bolalar tashkiloti faoliyat yuritadi. «Kamalak» bolalar tashkiloti o'z safiga 10 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan bolalar va o'smirlarni milliy istiqlol g'oyasi asosida jonajon Vatanimizning sodiq farzandlari etib tarbiyalash, huquq va manfaatlarini ifodalash va himoya qilish, qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida ixtiyoriylik asosida birlashtirgan[209].

Ma'lumki, O'zbekistonda atrof-muhitni himoya qilish, uni yaxshilash, aholi salomatligini yaxshilab borish maqsadida mamlakatdagi ko'plab ekologik tashkilotlari tashabbusi bilan 2008-yil 2-avgustda O'zbekiston Ekologik harakati tashkil etildi. Fuqarolik instituti sifatida faoliyat yuritayotgan mazkur tashkilot, hozirda «Atrof-muhit ozodaligi — salomatlik garovi» shiori ostida mamlakatimiz aholisining turli qatlamlarini o'zida birlashtirgan.

O'zbekiston ekologik harakati fuqarolarning hozirgi va kelgusi avlodi qulay atrof-muhit sharoitida yashash, aholi salomatligini yaxshilash, barcha tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish huquqlarini hamda ularga so'zsiz rioya etilishini ta'minlashga qaratilgan yangilanish jarayonlarini yanada chuqurlashtirishda jamiyatning bor kuch va salohiyatini safarbar qilishga intiladi. Ekoharakat «Sog'lom muhit — inson salomatligi» g'oyasini o'zining asosiy shiori hisoblaydi va uni amaliy bajarilishini ta'minlash maqsadida o'z oldiga quyidagi dasturiy vazifalarni qo'yadi.

Ekoharakatning asosiy e'tibori atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish mamlakatimiz har bir fuqarosining umumiy vazifasi bo'lib qolishiga yo'naltiriladi.

Ushbu maqsadlarda Ekoharakat o'z sa'y-harakatlarini:

- o'z ishtirokchilari va tashkilotlarida, hamkorlarida mintaqaviy, milliy va mahalliy ekologik hamda aholi salomatligi muhofazasi yaxlit dasturlarini ishlab chiqish va bajarishdagi amaliy ishtiroklarini faollashtirishga qaratilgan sa'y-harakatlarni shakllantirish;

- Ekoharakat ishtirokchilari va hamkorlarining davlat organlari va jamoat tuzilmalari tomonidan mavjud ekologik muammolarini hal etish va ularning salbiy oqibatlarini bartaraf qilish sohasidagi qonun hujjatlari ijrosi borasidagi mas'uliyatini kuchaytirishga qaratilgan faoliyatini muvofiqlashtirish;

- jamoat birlashmalari, jamoat fondlari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlarining muayyan ekologik muammolarni hal etishdagi hamkorliklari samaradorligini oshirish va rivojlantirishga yo'naltiradi.

Xususan Ekoharakat:

- fuqarolarning qulay atrof tabiiy muhitga bo'lgan huquqini himoyalashga hamda tabiatdan foydalanish sohasida iqtisodiy mexanizmlarni joriy etishga qaratilgan ekologik xavfsizlikni kompleks tarzda ta'minlash bo'yicha qonun hujjatlarini qabul qilish va ularni amalga oshirishga;

- mamlakatda ekologik huquqbuzarliklar va tabiatga boshqacha tarzda zarar yetkazganlik uchun korxona va tashkilotlarning, mansabdor shaxslar va alohida fuqarolarning javobgarligini kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga;

- ekologik huquqbuzarliklar va tabiatga zararli bo'lgan boshqa ta'sirlar oqibatlarini bartaraf etish, shu jumladan transchegaraviy ahamiyatga ega bo'lgan holatlarda ham, ular tomonidan atrof-muhitga va inson salomatligiga yetkazilgan zararni qoplashni huquqiy jihatdan tartibga solish hamda huquqni qo'llash amaliyoti samaradorligini oshirishga intiladi[210].

Ekoharakatning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida 15 deputatdan iborat fraksiyasi faoliyat yuritadi. 2009-yil dekabrda ekoharakat respublika qurultoyida saylangan mazkur deputatlar guruhi atrof-muhit muhofazasiga oid ko'plab qonunlar loyihalarini ishlab chiqishda va ularni qabul qilishda faol ishtirok etib kelmoqda.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyati instituti sifatida faoliyat ko'rsatayotgan milliy-madaniy markazlarning o'rni alohida ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, ular mamlakatda istiqomat qilayotgan 130dan ziyod turli millat va elat vakillarining maqsad hamda manfaatlarini ta'minlashga, milliy qadriyatlari, udumlarini saqlashga ko'mak berib kelmoqda. Prezident I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda, «Hech bir mubolag'asiz aytish mumkinki, Respublika baynalmilal madaniyat markazi o'z faoliyati davomida mamlakatimizda millatlararo va fuqarolararo totuvlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan yangi g'oya va tashabbuslar paydo bo'layotgan haqiqiy do'stlik uyiga aylandi»[211].

Respublikada hozirgi paytda 27 millat vakillari tomonidan tuzilgan 150 ga yaqin milliy-madaniy markaz (MMM) faoliyat olib bormoqda. Ulardan 14 tasi respublika maqomiga ega. MMMlarning 31 tasi koreyslar, 23 tasi ruslar, 10 tasi tojiklar, 9 tasi qozoqlar, 9 tasi tatarlar tomonidan (3 tasi tatar-boshqird MMM) tuzilgan. Shuningdek, 8 ta ozarbayjonlar, 7 ta turkmanlar,

6 ta ukrainlar va qirg'izlar, 5 ta turklar va Yevropa yahudiylari milliy-madaniy markazlari faoliyat yuritmoqda. Nemislar, polyaklar va armanlar tomonidan 4 tadan, uyg'urlar va Buxoro yahudiylari tomonidan 3 ta, beloruslar va qrim tatarlari tomonidan 2 ta, arablar, bolgarlar, boshqirdlar, greklar, gruzinlar, litvaliklar, qoraqalpoqlar, xitoylar va dunganlar tomonidan esa 1 tadan MMM tashkil etilgan.

Mamlakatdagi televideniya va radioda 10 tilda (o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg'iz, tojik, turkman, tatar, uyg'ur, ozarbayjon) ko'rsatuv va eshittirishlar olib boriladi. Gazetalar 10 tilda (o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg'iz, koreys, tojik, turkman, ukrain, ingliz), jurnallar esa 8 tilda (o'zbek, qoraqalpoq, rus, ingliz, qozoq, qirg'iz, tojik, turkman) bosiladi. O'rta va oliy ta'lim 7 tilda: o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg'iz, tojik, turkman tillarida amalga oshiriladi.

Milliy madaniy markazlar faoliyati mamlakatimizda turli millat vakillarining emin-erkin umrguzaronlik qilayotganligini, ularning O'zbekiston fuqarosi sifatida konstitutsiyaviy huquqlari davlat tomonidan kafolatlanganligini bildiradi. Millatlararo totuvlik esa fuqarolik jamiyati shakllanishining muhim belgilaridan biridir. Bu tamoyil O'zbekistonda to'la amal qilyapti, desak xato qilmagan bo'lamiz. -

Ma'lumki, fuqarolik jamiyati institutlari jamiyat hayotining barcha sohalarini o'ziga qamrab olgan. Jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ta'lim, madaniy sohalarini rivojlantirish fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatisiz amalga oshmaydi. Bu esa keng aholi ommasining ijtimoiy faolligi orqali kechadi. Shuning uchun aholi ijtimoiy faolligini oshirish maqsadida davlatimiz tomonidan ilgari surilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy mazmundagi turli dasturlarni hayotga tatbiq qilib borishda davlat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlarining o'zaro hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirishda Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti va uning viloyatlarda faoliyat ko'rsatayotgan hududiy bo'limlari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Chunki viloyatlarda faoliyat ko'rsatayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari, turli sohalar bo'yicha faoliyat yuritayotgan markazlar va jamg'armalar faoliyatini o'rganib borish, ularning o'zaro aloqasini, ijtimoiy sheriklik asosida faoliyat olib borishini ta'minlash kabi

muhim vazifalarni hozirda ana shu mintaqaviy axborot-tahlil markazlari bajarmoqda. Ushbu institutning asosiy maqsadi – fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish jarayonlarini tizimli monitoring qilish, mamlakatni demokratik yangilash va modernizatsiyalashda, fuqarolarning siyosiy madaniyati, huquqiy ongi, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda fuqarolik institutlarining rolini kuchaytirishdan iborat.

Hozirgi davrga kelib mazkur nodavlat tashkiloti va uning hududiy bo'limlarida fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonlarini tizimli tadqiq qilish, fuqarolik jamiyati institutlarining davlat va jamiyatni boshqarishdagi rolini kuchaytirishga yo'naltirilgan tadbirlarni amalga oshirishga jiddiy e'tibor berilmoqda. Bu sohada O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi faollik ko'rsatmoqda. Assotsiatsiya hozirgi davrda quyidagi 5ta yo'nalishda faoliyat olib boradi: Ayollar va yoshlar yo'nalishi; Huquqiy yo'nalish; Ekologiya, iqtisod va ta'lim yo'nalishi; OIV/OITS masalalari bo'yicha yo'nalish; Ijtimoiy-gumanitar yo'nalish.

Barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishda nodavlat notijorat tashkilotlari va jamoat birlashmalari faoliyati alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ularning faoliyati tufayli aholi turli qatlam va guruhlarining ijtimoiy-siyosiy manfaatlari, ehtiyojlari va qiziqishlarini qondirib borilmoqda. Hozirgi davrda O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishi va rivojlanishi uchun qulay ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, iqtisodiy-moliyaviy shart-sharoitlar yaratilgan. Ularning soni va faoliyat ko'lami tobora yanada ortib va kengayib bormoqda. Masalan, 2010-yilda ularning umumiy soni 5100 ta bo'lgan bo'lsa, hozirga kelib 7 mingga yaqinlashdi.

Tahlillardan ko'rinib turibdiki, jamiyat hayotining turli soha va yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan fuqarolik jamiyati institutlari huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati shakllanishining muhim sharti sifatida namoyon bo'lmoqda. Mamlakatda olib borilayotgan islohotlarning bosh maqsadi erkin bozor munosabatlariga asoslangan ochiq, huquqiy demokratik davlat qurish, adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish, odamlar turmushini taraqqiy etgan davlatlar darajasiga ko'tarish, mamlakatimizni jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashidan iboratdir. Hozirgi davrga kelib O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari jahonning rivojlangan davlatlari va fuqarolik jamiyatining umume'tirof etilgan tamoyillari hamda milliy o'ziga xos jihatlar asosida faoliyat yuritmoqda.

3. Fuqarolik jamiyati institutlari tashkiliy-huquqiy asoslarining rivojlanishi va istiqbollari

Hozirgi davrda O'zbekistonda, jamiyat hayotini demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyati, ularning ijtimoiy munosabatlardagi ishtiroki, roli va ahamiyati tobora ortib bormoqda. «Bugungi kunda nodavlat notijorat tashkilotlari demokratik qadriyatlar, odamlarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning ijtimoiy, sotsial-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirishning muhim omiliga aylanmoqda»[212].

Hozirgi davrga kelib davlat boshqaruvining ayrim funksiyalari bosqichma-bosqich ravishda NNT va o'zini o'zi boshqarish organlariga o'tkazib borilmoqda. Aholining turli qatlamlari nodavlat va jamoat tashkiloti orqali jamiyat boshqaruvida faol qatnashish imkoniyatlariga ega bo'ldi.

Mustaqillikning so'nggi yillarida «Jamoat fondlari to'g'risida»gi, «Homiylik to'g'risida»gi qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanishiga ko'maklashish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori va boshqa qator hujjatlar qabul qilindi. Ular fuqarolik jamiyati institutlarining huquqiy asoslari sifatida fuqarolik jamiyati institutlari ijtimoiy faolligini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

2008-yil 3-iyulda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati Kengashining «Nodavlat notijorat tashkilotlarini, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish to'g'risida»gi qo'shma qarori qabul qilindi. Unda nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash jamoat fondi, uning mablag'larini boshqarish bo'yicha Parlament komissiyasini tashkil qilish yuzasidan qaror qabul qilindi.

Qo'shma qaror jamoat fondlari va nodavlat notijorat tashkilotlariga moliyaviy ko'mak berish orqali ularning jamiyat hayotidagi faolligini yanada oshirish va shu orqali fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish qobiliyatini amalda kuchaytirishni nazarda tutadi. Ushbu Fond va Parlament komissiyasi «Jamoat fondlari to'g'risida»gi, «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi, «Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari

to'g'risida»gi Qonunlarga muvofiq, NNT va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash uchun O'zbekiston Respublikasi davlat budjetidan ajratilgan mablag'lar taqsimlanishini tashkil etish, NNTlarni moddiy, moliyaviy qo'llab-quvvatlash dasturini shakllantirish hamda amalga oshirish maqsadida tuzildi.

Hozirda «Nodavlat notijorat tashkilotlarini, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qo'shma qarorga binoan, NNTlar faoliyatini moliyalashtirish manbalarini shakllantirishning demokratik tamoyillarga asoslangan tizimi yaratildi. Bugungi kungacha ushbu fond tomonidan respublikada nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida 30 mlrd. so'mdan ortiq mablag' ajratildi.

Har qanday NNT va jamoat birlashmasining jamiyat ijtimoiy hayotida samarali faoliyat ko'rsatishini asosiy va muhim sharti — ularning moliyaviy-iqtisodiy jihatdan ta'minlanganligi hisoblanadi. Zero, moddiy-moliyaviy jihatdan baquvvat bo'lgan nodavlat notijorat tashkiloti aholi turli qatlamlari, ijtimoiy guruhlarining turli maqsad-manfaatlari, ehtiyojlarini to'laroq qondirib borish imkoniyatiga ega bo'ladi. NNT mablag'larining salmoqli qismini aholi o'rtasida ma'naviy-mafkuraviy ishlarni amalga oshirishga sarflanmog'i lozim. Chunki aholini yuksak ma'naviyatga, siyosiy va huquqiy madaniyatga erishuvi orqaligina huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati asoslari barpo qilinadi. Bu borada ham mamlakatimizda muhim ishlar amalga oshirib borilmoqda.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlarini shakllantirish va rivojlantirish istiqbollari Prezident I.A.Karimovning yuzdan ortiq ma'ruzalarida, nutqlarida va asarlarida nazariy jihatdan asoslab berildi, bu nazariy g'oyalar bosqichma-bosqich ravshida hayotga tatbiq etilmoqda.

Prezident I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010-yil 12-noyabrda bo'lib o'tgan qo'shma majlisidagi «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»ga bag'ishlangan ma'ruzasida O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishi va rivojlanishi hamda fuqarolik jamiyatini barpo etishda tutgan roli to'g'risida muhim nazariy va amaliy tavsiyalarni ilgari surdi.

Konsepsiyada hokimiyat tuzilmalari faoliyati ustidan ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish maqsadida «O'zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati to'g'risida» Qonun qabul qilinishi lozimligi to'g'risidagi taklif ilgari surildi. Ushbu qonunni qabul qilishdan asosiy maqsad, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyati ustidan fuqarolik jamiyati institutlarining nazoratini amalga oshirishdan iboratdir. Mazkur qonunning qabul qilinishi va amal qilishi o'z navbatida, jamiyatimiz hayotida fuqarolik jamiyati tamoyillarining amal qilishini ta'minlaydi.

Konsepsiyada ilgari surilgan yana bir muhim qonunchilik takliflaridan biri – fuqarolik jamiyati institutlarining atrof-muhitni muhofaza qilishda faol ishtirok etishini ta'minlashga qaratilgan «Ekologik nazorat to'g'risida»gi Qonunning qabul qilinishi to'g'risidadir. Keng aholi ommasining turli nodavlat notijorat tashkilotlari, o'zini o'zi boshqarish organlari orqali ijtimoiy faoliyati, faolligi jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olishi kerak. Shundagina mamlakatimizda fuqarolik jamiyatining tamoyillari amal qilib boradi.

Mazkur qonun, fuqarolarning atrof-muhit tozaligiga e'tibori, yashab turgan hududidagi ekologik muhitning qay ahvolda ekanligiga befarq emasligi, ekologik qonunchilik normalari va talablari ijrosini nazorat qilib borish, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilayotgan yoki amalga oshirilishi mumkin bo'lgan ekologik zararli faoliyatlarga chek qo'yish va ularning oldini olish, bunday faoliyat aniqlanganda ularga nisbatan ma'muriy-huquqiy javobgarlik choralarini qo'llash kabi muhim tamoyillarni o'z ichiga olgan ijtimoiy-huquqiy mexanizmni yaratishni va uni jamiyat hayotida amalga oshirishni ko'zda tutadi[213].

Bir so'z bilan aytganda, Konsepsiyada mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish sohasida ilgari surilgan qonunchilik takliflari muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi davrda O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini to'liq faoliyat yuritishlari uchun rivojlangan mamlakatlarga xos bo'lgan barcha huquqiy asoslar yaratildi. Konsepsiyada ta'kidlab o'tilganidek, «O'tgan davr mobaynida mamlakatimizni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik institutlarining roli va ahamiyatini kuchaytirishga, fuqarolarning eng muhim sotsial-iqtisodiy muammolarini hal etishga qaratilgan 200 dan ortiq qonun hujjatlari

qabul qilingani ham bu soha rivojiga bo'lgan katta e'tiborni ko'rsatadi»[214].

Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «Fuqarolik institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hozirgi kunda demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanmoqda, fuqarolarning o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarishi, ularning ijtimoiy, sotsial-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta'minlashga ko'maklashmoqda»[215].

Ko'rinib turibdiki, hozir mamlakatda «Kuchli davlatdan — kuchli fuqarolik jamiyati sari» tamoyili asosida islohotlarni yanada chuqurlashtirish jarayoni asosan fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga qaratilgan. Zero, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, fuqarolarning farovonligini oshirish, mamlakatni iqtisodiy yuklashiga erishish kabi maqsadlarga erishish fuqarolik jamiyati sharoitida ro'y beradi. Shuning uchun ham mamlakat fuqarolik jamiyati sari intilmoqda.

Takrorlash uchun savollar:

1. Fuqarolik jamiyati institutlari deganda nimani tushunasiz?
2. Fuqarolik jamiyati institutlari qanday tuzilishga ega?
3. O'zbekistonda demokratik qadriyatlarni rivojlantirishda nodavlat notijorat tashkilotlari qanday rol o'ynaydi?
4. Fuqarolik jamiyati institutlarining davlat hokimiyati tuzilmalari faoliyati ustidan ta'sirchan jamoatchilik nazorati deganda nimani tushunasiz?
5. Mamlakatda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish istiqbollari qanday?

14-mavzu. FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH INSTITUTLARINING DEMOKRATIYALASHUVI

1. O'zini o'zi boshqarishning demokratik tamoyillari.
2. O'zini o'zi boshqarish organlari — fuqarolik jamiyatining asosi.
3. O'zini o'zi boshqarish huquqiy asoslarini demokratlashtirish jarayoni.
4. Adolatli saylovlar — demokratik jamiyat taraqqiyotining mezoni.

1. O'zini o'zi boshqarishning demokratik tamoyillari

Rivojlangan demokratik mamlakatlarda XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab davlat boshqaruvining nomarkazlashuvi natijasida o'zini o'zi boshqarish organlari jamiyatning asosiy institutlaridan biriga aylandi. Mahalliy o'zini o'zi boshqarish (g'arbda «munitsipal» deyiladi) deganda, u yoki b ma'muriy-hududiy birliklardagi aholi vakolatlarini ifodalovchi, shuningdek, saylangan organlar va ularning ma'muriyatlari tomonidan amalga oshiriladigan mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan ishlarni boshqarish tushuniladi.

Mahalliy o'zini o'zi boshqarish demokratik tamoyillar asosidagi boshqaruvdir. Uning asosiy belgilari quyidagilardan iborat: mazkur organlarning fuqarolar tomonidan to'g'ridan to'g'ri saylanishi hamda mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan o'zini o'zi boshqaruvning nisbatan mustaqilligidir. Mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari davlat boshqaruvining unsurlarini tashkil etadi. Shu bilan birga, ular joylardagi mahalliy davlat organlari tizimiga taalluqli bo'lmaydi.

G'arb jamiyatshunos olimlari mahalliy o'zini o'zi boshqarishga doir tushunchalarning nazariy jihatlarini ham ishlab chiqqanlar. Unga binoan, «mahalliy boshqaruv» deganda davlat boshqaruvidan quyidagi barcha darajalarni, «mahalliy hokimiyat» deganda esa «saylangan kengash va uning ijroiya organlari vositasida o'z saylovchilari manfaatlarini ifoda etuvchi va harakat qiluvchi tashkilotlar» tushuniladi. Shuningdek, «mahalliy o'zini o'zi boshqarish» esa «milliy boshqaruvdan quyi darajadagi demokratik avtonom birliklarning mahalliy aholi manfaatlari asosida

jamoatchilik muammolarini aksariyat qismini muvofiqlashtirishi va boshqarishi»dir[216].

G'arbiy Yevropa mamlakatlarida yashash joylaridagi boshqaruv bir tomondan o'zini o'zi boshqarish organlari, shu bilan birga, markaziy hokimiyat tomonidan amalga oshiriladi. Mahalliy o'zini o'zi boshqarish (yoki Yevropada munitsipal boshqarish deyiladi) deb, u yoki bu ma'muriy-hududiy birliklardagi aholining vakolatlarini ifodalovchi saylangan organlar va ularning ma'muriy apparati tomonidan amalga oshiriladigan mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan ishlarni boshqarishga aytiladi.

Mahalliy boshqaruv — bu siyosiy boshqaruvning nisbatan nomarkazlashgan shaklidir. Bunday boshqaruv organlarining asosiy belgilari, bu — ularning saylanishi va mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan ishlarga rahbarlik qilishda nisbatan mustaqilligidir (xususiy ijroiya apparati, mahalliy soliqlarni o'rnatish, olish va me'yoriy aktlar qabul qilish huquqlari mavjud bo'lgan). Mahalliy boshqaruv organlari va ularning apparatlari rivojlangan mamlakatlardagi davlat tashkilotlarining yirik bo'g'inlaridan biriga aylandi. Mahalliy boshqaruv organlari o'zlarining saylanishlari va mahalliy aholining vakillari sifatidagi rasmiy o'rinlariga binoan vakillik tizimining tarkibiy qismlaridan biridir. Ularning iqtisodiy va ijtimoiy sohadagi faoliyatlari aholi uchun katta ahamiyat kasb etadi. Munitsipal organlarda davlat apparatining boshqa bo'g'inlariga nisbatan byurokratizmga berilish kamroq bo'ladi. Ana shu barcha fazilatlar saylanuvchi mahalliy boshqaruvni demokratiya qadriyatlaridan biriga aylantirdi. Bu mamlakatlarda munitsipal siyosatga doir barcha yo'nalishlar jamoatchilik fikrini shakllanishi, fuqarolarning ijodiy munosabatlari natijasida xalqchillashib bordi.

2. O'zini o'zi boshqarish organlari — fuqarolik jamiyatining asosi

«Mahalla» arabcha so'zdan kelib chiqib, «shahar ichidagi shahar» ma'nosini anglatadi.Tarixchi olim Narshaxiy «Buxoro tarixi» asarida bundan 1100-yil ilgari mahalla xalqning boshqaruvi ekanligini yozgan edi. Qadimda mahalla nafaqat ijtimoiy, balki, ma'muriy-hududiy tuzilma tarzida ham e'tirof etilgan. Alisher Navoiyning «Hayratul-abror» («Yaxshi kishilarning hayratlanishi») asarida quyidagi band uchraydi: «Shaharlar otini mahalot etib, Bo'ldi chu yuz shahar Hiri ot etib». Mahallaning «shahar ichidagi

shaharcha» degan mazmuni yuqoridagi tashbehdan ko'rinib turibdiki, o'rta asrlarda Hiri deb atalgan Hirot shahri yuzta kichik «shaharcha»lar — mahallalardan tashkil topgan ekan.

Demak, qadim zamonlardayoq o'zini o'zi boshqarish organlarining ilk kurtaklari namoyon bo'la boshlagan. Sharqda bu jarayon bir necha ming yillik tarixga ega bo'lgan mahallalar ko'rinishida rivojlangan bo'lsa, g'arb mamlakatlarida kishilarning o'z manfaat va qiziqishlarini jamiyatdagi munosabatlarda ifodalash va himoya qilish maqsadida har xil uyushmalar, partiyalar, jamiyatlar, harakatlar va boshqa tuzilmalar sifatida paydo bo'lishiga asos solindi.

O'zbekistonda milliy mustaqillik davri shuni ko'rsatdiki, totalitar jamiyatdan demokratik jamiyatga o'tish davrida o'zini o'zi boshqarish tizimidagi eski qoliplar, qarashlar, faoliyat ko'rsatish uslublaridan birdaniga poklanish qiyin kechadi. Ayniqsa, eski shakllangan xalq mentaliteti va dunyoqarashida yangi jamiyatga xos o'zgarishlarni amalga oshirish, fuqarolik jamiyatiga xos mezonlar va qadriyatlarni fuqarolar ongiga singdirish bu sohadagi muhim vazifalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasida ham fuqarolik jamiyatining asosi bo'lgan o'zini o'zi boshqarish organlarini erkinlashtirish asosida rivojlantirishning konstitutsiyaviy asoslari demokratik tamoyillar asosida yaratildi. «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi (yangi tahriri) O'zbekiston Respublikasi Qonunida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi tushunchasi quyidagicha ta'riflanadi: «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi fuqarolarning mahalliy ahamiyatga molik masalalarni o'z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek milliy va ma'naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda hal qilish borasidagi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadigan mustaqil faoliyatidir».

Uzoq yillar mahalla tarixi va sotsiologiyasini tadqiq etgan amerikalik olim D.Karlayl quyidagilarni yozadi: «Oila va do'st-yoronlar mahalla turmushining bosh asosi bo'lib kelgan va shundayligicha qoladi. U shaxsiy munosabatlar tamal toshi sanaladi. Ular «sulola» deb ataluvchi, kishilarni birlashtiruvchi va ajratuvchi o'ta muhim tarmoq tuzilmasini yaratdi. Yaqinlik munosabatlariga asoslangan va nasl-nasab prinsiplari bilan metinlashgan mahalla o'zbeklar dunyoga keladigan, tarbiyalanadigan

va odatda o'zining butun hayotini o'tkazadigan joy hisoblanadi. Do'stlik barqaror tushuncha bo'lgan mahallada moyillik singdirilgan bo'ladi. Hamma mahalla tevaragida parvona bo'lar, shaxsiy sadoqat butun shahar bo'ylab tarqalar, ba'zan esa butun boshli mintaqani qamrab olar edi. Bunday an'anaparastlik sharoitida kimningdir tajribasi shaxsiy muloqotlar doirasi tasarrufidan tashqariga ham zudlik bilan tarqalib ketadi. Shaxs har qanday masofadan turib sulola a'zolarining nikoh tantanalari, marosimlarida qatnashishi mumkin. Rang-barang oilaviy-qarindoshchilik aloqalarining mahalladan tashqarida ham kundalik turmushda toshi bor, lekin ular mahallaniki singari tosh bosa olmaydi»[217].

Mustaqillikning ilk davridan boshlab Prezident I.A.Karimov mahallalarni fuqarolik jamiyatining asosi deb bildi va ularni har tomonlama rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirib kelmoqda. Prezident I.A.Karimov islohotlar jarayonlarida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining vazifalari ko'lamini kengaytirish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan o'zaro yaqin munosabatlarini ta'minlash barqarorlik shartlari hamda taraqqiyot kafolatlaridan biri deb hisoblash barobarida mahallaning ahamiyati va istiqboli to'g'risida quyidagi fikrni bildirgan edi: «Ular xalqning tarixiy an'analari va ruhiyatini hisobga olish asosida tuzilgan. O'zini o'zi boshqarishning muhim ijtimoiy organi bo'lmish mahallaning ahamiyati hamisha juda yuqori bo'lgan. Mahalla odamlar o'rtasidagi munosabatlarda yaxshi qo'shnichilikni, hurmat va insonparvarlikni tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. U fuqarolarning ijtimoiy manfaatlarini himoya qiladi, aholining muhtoj qatlamlariga aniq yordam ko'rsatadi. Ayni chog'da, hozirgi sharoitda mahallaning vazifalari yangi mazmun bilan boyitilishi lozim. Gap shundaki, mahalla iqtisodiy va demokratik o'zgarishlarni ro'yobga chiqarishda amaliy madad bo'lmog'i zarur»[218].

Ma'lumki, demokratiyaning asl mohiyati o'zini o'zi boshqarishdir, o'z hayotini o'z qobiliyatiga, o'z tafakkuriga va vijdoniga muvofiq qurishdir va buning oqibati uchun mas'uliyatni ham o'z bo'yniga olish demakdir. Qaysi jamiyatda fuqarolarining siyosiy ong va huquqiy madaniyatlari yetuk bo'lsa, bunday jamiyatda demokratiya ravnaq topadi. Shaxsni o'ziga ko'proq huquq berilishi va mas'uliyat yuklagani sari tuzum demokratiyalashaveradi, davlatning yuki yengillashaveradi. Shuning uchun ham shaxsni madaniy yetukligi va ijtimoiylashuv darajalari uni mahalliy o'zini

o'zi boshqarish organlaridagi ishtirokining darajasiga qarab aniqlanishi bejiz emas.

Milliy mustaqillik davrida fuqarolarning mahalliy o'zini o'zi boshqarishning qonuniy maqomini mustahkamlash yuzasidan jiddiy islohotlar amalga oshirildi. O'zbekiston Konstitutsiyasi mahalla maqomini fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organi sifatida mustahkamladi. Mahallalardagi fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini huquqiy asosi faqat Konstitutsiya va tegishli huquqiy-me'yoriy aktlar bilan chegaralanmasdan, bu sohada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining turli Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilindi.

O'zbekistonda ham mustaqillik davriga kelib o'zini o'zi boshqarish organlari fuqarolik jamiyatining asosiy instituti sifatida takomillashib bormoqda. Shuningdek, mazkur organlarning boshqaruv tizimidagi ko'lamining kengayib borishi bilan huquqiy davlatning o'z vakolatlarini demokratik tamoyillar asosida amalga oshirishi uchun qulay va keng imkoniyatlar paydo bo'lmoqda.

Mustaqillik davriga kelib fuqarolarning mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining qonuniy maqomini mustahkamlashga, ularni fuqarolik jamiyatining asosiy institutiga aylantirishga doir jiddiy islohotlar amalga oshirildi. O'zbekistonda mahallalar milliy mustaqillik davriga kelibgina, o'zini o'zi boshqarish organiga aylandi. O'zbekiston Konstitutsiyasi mahalla maqomini fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organi sifatida mustahkamladi. Mamlakatda shaharcha, posyolka, qishloq, ovul va mahalla fuqarolar yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari huquqiy maqomini oldilar. Jumladan, mustaqillik davrida mamlakatda 9971 ta o'zini o'zi boshqarish organlari shakllangan bo'lsa, ulardan 8142 tasini mahalla fuqarolar yig'inlari tashkil etadi. Mahalla mustaqil tashkilot sifatida qaytadan mustahkamlandi va ularning aksariyati o'zining qadimgi nomlarini va xalq o'rtasidagi obro'-e'tiborlarini qaytadan tiklab oldilar.

O'zbekiston jamiyatining ijtimoiy-siyosiy hayotida mahalla fuqarolar yig'inlarining nufuzini ko'tarish, ularning o'zini o'zi boshqarish faoliyatlariga ko'maklashish, shuningdek fuqarolarning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirish maqsadlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 12-sentabrdagi Farmoni bilan Respublika «Mahalla» xayriya jamg'armasi tashkil etildi.

Jamg'arma nizomida uning quyidagi yo'nalishlar bo'yicha faoliyat yuritishi belgilab qo'yildi:

- tarixan tarkib topgan milliy va ma'naviy qadriyatlarni keng targ'ib qilish, xalqimizning eng yaxshi udum va an'analarini ommalashtirish, respublika aholisi o'rtasida madaniy va ma'rifiy ishlarni keng yo'lga qo'yish;

- insonparvarlik va mehr-shavqat, kishilar o'rtasida o'zaro bir-birini tushunish va yaxshi qo'shnichilik g'oyalarini tushuntirish bo'yicha faol tashviqot va targ'ibot ishlarini olib borish;

- har bir aniq hududda yashovchi kamxarj oilalar, nogironlar, keksalar va bolalar huquqlarini har tomonlama ijtimoiy himoya qilish;

- har xil an'anaviy marosimlar o'tkazish;

- juda muhtoj oilalarga va alohida shaxslarga tekin moddiy yordam ko'rsatish;

- mahallalar hududini obodonlashtirish.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri, viloyatlarda, shuningdek mamlakatdagi barcha shahar va tumanlarda jamg'armaning bo'limlari faoliyat ko'rsatadilar. Jumladan, jamg'armaning Qoraqalpog'iston Respublikasida 16 ta, viloyatlarda 172 ta, Toshkent shahrida 11 ta tuman va shahar bo'linmalari faoliyat yuritadilar. Shuningdek, jamg'armaning asosiy maqsadi mahalla fuqarolar yig'inlari faoliyatini muvofiqlashtirish va qo'llab-quvvatlashdan iboratdir. Jamg'arma 1996-yildan buyon o'zining «Mahalla» gazetasini nashr etib keladi.

Jamg'armaning nizomiga binoan uning asosiy maqsadi — mahalla va mahalla aholisining ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy darajasini tobora yuksaltirish, milliy an'ana va udumlarni yanada boyitish, shuningdek mahalla fuqarolar yig'inlari faoliyatini takomillashtirishga ko'maklashishdir.

Hozirgi davrda mahalla yo'nalishida olib borilayotgan ishlar ikkita yo'nalishni nazarda tutadi. Birinchisi ma'naviy vazifa bo'lib, u xalqimizning ming yillik tarixidagi noyob, eng aziz an'analarni, qadriyatlarni qaytadan tiklash va rivojlantirishdan iborat. Ikkinchisi siyosiy vazifa bo'lib, u Prezident I.A.Karimovning mahalla institutini bugungi zamon talablariga muvofiq tarzda tiklash, shuningdek, viloyat, shahar, tuman hokimliklari zimmasiga yuklangan ko'pchilik vazifa va huquqlarni fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlariga, ya'ni mahallalarga berib, ular maqomini joy-joyiga qo'yib, shu tariqa jamiyatimiz hayotini demokratiyalashda yangi va juda muhim imkoniyatlarga erishishdan iboratdir.

Mamlakat Prezidenti I.A.Karimov ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning IX sessiyasidagi (2002-yil 29-avgust) ma'ruzasida o'zini o'zi boshqarish organlarining jamiyat va davlat boshqaruvidagi o'rnini ko'tarishning muhim bosqichini boshlashning asosiy yo'nalishi bo'lgan quyidagi fikrni bildirdi: «Hayotimizni erkinlashtirish yo'nalishlarining yana bir muhim yo'li — markaziy va yuqori davlat boshqaruv idoralari vazifalarini davlat hokimiyatining quyi tuzilmalariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkaza borishni ta'minlashdir»[219]. Albatta, davlat tomonidan mahallalarga katta boshqaruv vakolatlarini berishda avvalo, ularning aholi faolligini oshirishdagi o'rnini yuksaltirish ko'zda tutildi. Chunki, mahalla fuqarolar yig'inlarida yetarlicha huquq bo'lmasa, ular o'zini o'zi boshqarish funksiyalarini bajarish qobiliyatiga ega bo'la olmas edilar. Shuningdek, mahallalarning aholi va davlat oldida mas'uliyat sezishlari uchun ham avvalo keng huquqlarga ega bo'lishlari lozim edi.

Hozirgi davrda jamiyatning siyosiy sohasini erkinlashtirish maqsadlaridan kelib chiqib, mahalla fuqarolar yig'inlariga boshqaruvning turli yo'nalishlariga yetakchilik qilish vakolatlari berildi. Mahallalar o'z hududida yashayotgan fuqarolarning turli ijtimoiy muammolarini hal qilib berishda bevosita ishtirok etadilar: qariyalar, faxriylar, yetimlar, baynalmilal-harbiylar, kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalar manfaatlari himoya qilinadi; mahalla faollarining mazkur faoliyatda ishtirok etishiga boshchilik qiladi; insonni ma'naviy yuksalishi va amaliy tashabbuslarini namoyon bo'lishi uchun shart-sharoit yaratadi; fuqarolar moddiy va ma'naviy jihatlardan qo'llab-quvvatlanadi.

Prezident I.A.Karimov mamlakatning istiqboli yosh avlodning ma'naviy fazilatlarini yuksaltirish va bu sohada mahallaning ta'sirini oshirish masalasini hal etish omili to'g'risida quyidagi fikrni bildirgan edi: «Yoshlar dastlabki jamiyat tarbiyasini ko'p jihatdan aynan mahallada oladi. Mahallalar azaldan milliy urf-odatlar, an'analar, xalq udumlari to'la aks etgan joy bo'lib kelgan. U kishilarni imon-e'tiqodli, mehr-shafqatli, Vatanga sadoqatli ruhda tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etgan, yuksak ma'naviy fazilatlar yoshlarga mahallada singdirilgan. Ularning tafakkuri ko'pchilik orasida, qo'ni-qo'shnilarning yaxshi-yomon kunlarida birga bo'lish orqali shakllanadi. Mahalla, ta'bir joiz bo'lsa, kishilik jamiyatida alohida tarbiyaviy ahamiyatga molik bo'lgan o'ziga xos maskandir.

Bu noyob tajriba — aholining mahalla bo'lib yashash tarzi jahonning boshqa mamlakatlarida kam uchraydi. Shuning uchun ham insonni jamiyat bilan birga yashashga o'rgatadigan, shu ruhda tarbiyalaydigan birlamchi va beqiyos makon bu mahalladir»[220].

Haqiqatan ham mahalla nafaqat yoshlarning, balki sog'lom ijtimoiy muhit sifatida oilaning ham hayotiy faoliyatida, uning osoyishtaligi va totuvligini ta'minlashda, oiladagi jipslikni mustahkamlashda kuchli omil hisoblanadi. Mahallada kuchli ta'sirga ega bo'lgan jamoatchilik fikri mahalla ahlining xulq-atvori, o'zaro munosabatlarini adolat va ma'naviy mezonlar asosida tartibga solib turadi.

3. O'zini o'zi boshqarish huquqiy asoslarini demokratlashtirish jarayoni

Mustaqillik davrida mahallaning tashkiliy, ijtimoiy va huquqiy maqomini mustahkamlash borasida chuqur islohotlar amalga oshirildi. Eng avvalo, mahalla atamasi tarixda birinchi marta Konstitutsiyaga kiritildi. Unga aholining o'zini o'zi boshqaruvining noyob shakli sifatidagi konstitutsiyaviy huquqiy maqom berildi. 1992-yilda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinishi O'zbekistonda demokratik tamoyillar asosida o'zini o'zi boshqarish tizimini shakllantirishni boshlab berdi. Konstitutsiyaning 105-moddasida o'zini o'zi boshqarish organlariga quyidagi huquqiy maqom ta'rifi berildi: «Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek ular tarkibidagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi. O'zini o'zi boshqarish organlarini saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish hamda vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi»[221]. Konstitutsiyaviy asosdan kelib chiqib, 1993-yil 2-sentabrda «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi qonuni[222] qabul qilindi. 1999-yil 14-aprelda Qonunning yangi tahriri qabul qilindi. Uning 1-moddasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish tushunchasi quyidagicha ta'riflandi: «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi — fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadigan, ularning o'z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek milliy va ma'naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish borasidagi

mustaqil faoliyatidir»[223]. Qonunning 2013-yil aprelda qabul qilingan yangi tahririga muvofiq «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi fuqarolarning mahalliy ahamiyatga molik masalalarni o'z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek milliy va ma'naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda hal qilish borasidagi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadigan mustaqil faoliyatidir». Ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda o'zini o'zi boshqarish organlari tizimi tushunchasi va uning huquqiy maqomlari rivojlantirildi va ular ilg'or demokratik mamlakatlardagi huquqiy mezonlar darajasida ifodalana boshlandi.

O'zbekiston davlati qonunchiligiga asosan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari deganda quyidagilar nazarda tutildi: shaharchalar, qishloqlar va ovullar, shuningdek shaharlardagi, shaharchalardagi, qishloqlardagi hamda ovullardagi mahallalar fuqarolar yig'inlari (bundan buyon matnda fuqarolar yig'ini deb yuritiladi) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridir. Shuningdek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi va qonun hujjatlari bilan berilgan o'z vakolatlarini tegishli hudud doirasida amalga oshiradi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yuridik shaxs huquqlaridan foydalanadi, belgilangan namunadagi muhrga ega bo'ladi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda mahalliy davlat hokimiyati organlarida hisobga olinishi lozim bo'ladi.

1992-yilda O'zbekiston Prezidentining «Respublika «Mahalla» xayriya jamg'armasining faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 1998-yildagi «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini qo'llab-quvvatlash haqida»gi, 1999-yildagi «Aholini aniq yo'naltirilgan ijtimoiy madad bilan ta'minlashda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari rolini oshirish to'g'risida»gi Farmonlari, shuningdek, kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalarni ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan qator farmon, qarorlar, qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlar qabul qilindi.

Mahalla fuqarolar yig'ini kengashi mavjud qonunchilikka binoan ijtimoiy ta'minot organlari va boshqa homiy tashkilotlar bilan birgalikda ijtimoiy yordam, kam ta'minlangan oilalar va yolg'iz kishilarga davlat va mahalla fuqarolar yig'ini nomidan

moddiy yordam ajratish ishining barcha tashkiliy jihatlarini amalga oshirishi belgilab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 25-yanvardagi «Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniq yo'naltirilgan tarzda qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish to'g'risida»gi Farmoniga asosan, bolasi ikki yoshga to'lgunga qadar uni parvarish qilish bilan mashg'ul bo'lib ishlamaydigan onalarga mahallalar orqali beriladigan oylik nafaqalar miqdori 2002-yil 1-fevralidan boshlab eng kam ish haqining 170 foizi, 2003-yilning 1-yanvaridan boshlab esa 200 foizi miqdorida belgilandi. Shuningdek, 16 yoshgacha bolalari bo'lgan nafaqa oluvchi oilalar toifasi kengaytirilib, umumta'lim maktablarida, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida o'qiydigan 18 yoshgacha bolalari bo'lgan muhtoj oilalar ham shu toifaga kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 23-martdagi «Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarni ko'paytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorini amalga oshirish asosida respublika «Mahalla» xayriya jamg'armasi, uning joylardagi bo'linmalari, mahalla fuqarolar yig'inlari tashabbusi bilan 2006-yil mobaynida kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalarga 569,6 million so'm miqdoridagi mablag'larga 1424 bosh qoramol olib berildi. Shuningdek, mamlakatdagi homiylarning yana qo'shimcha ravishda turli ijtimoiy yordam tadbirlarini o'tkazish uchun «Mahalla» jamg'armasi, uning quyi bo'linmalari va mahallalarga ko'rsatgan homiylik yordamlari 5 mlrd. 388 mln. so'mni tashkil etdi.

O'zini o'zi boshqarish organlari, xususan mahallalarning aholini ijtimoiy himoya qilishdagi o'rni yildan yilga o'sib bordi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 19-martdagi «Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish va mustahkamlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni mahallalarning ijtimoiy himoya qilish sohasidagi faoliyatini yanada jonlantirdi. Mazkur Farmonda belgilanishicha, bolali ehtiyojmand oilalarga, ikki yoshgacha bo'lgan farzandi tarbiyasi bilan band ishlamaydigan onalarga nafaqa hamda kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam tayinlash va to'lash fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari — mahalla fuqarolar yig'inlari tomonidan ijtimoiy adolat tamoyillariga qat'iy amal qilish, oilalar daromadi va mol-mulkini har tomonlama hisobga olish ajratilgan

mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanish asosida amalga oshirilishi ko'zda tutildi. Shuningdek, 2007-yilning 1-sentabridan boshlab davlat budjetidan kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam to'lash uchun ajratilgan budjet mablag'lari hajmini, ayni vaqtda uni tayinlash va to'lash muddatini 6 oygacha uzaytirgan holda 1,5 baravarga oshirish belgilandi. Aholini ijtimoiy himoya qilishni yanada avj oldirish maqsadlarida «Ijtimoiy himoya yili» deb e'lon qilingan 2007-yilda xo'jalik yurituvchi subyektlar va tadbirkorlik tuzilmalari tomonidan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga yuqorida qayd etilgan maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar daromad solig'idan ozod etildi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari samaradorligini oshirishda 2004-yilda «Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qabul qilinganligi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. 2003—2008-yillarda «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga kiritilgan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari huzurida yarashtiruv komissiyalari, «Mahalla posboni» jamoatchilik tuzilmalari tashkil etilishini, diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchilar lavozimining joriy etilishini, aholi tomonidan uy-joy-kommunal xizmatlar haqi batamom to'lanishini ta'minlaganlik uchun fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga mablag' ajratish tartibini va boshqa choralarni nazarda tutuvchi o'zgartish hamda qo'shimchalar va boshqa chora-tadbirlar joylarda dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal qilishda mahallaning roli va ahamiyati yanada o'sishini ta'minladi.

Manzilli ijtimoiy himoyani hamda yolg'iz qolgan keksa fuqarolarga, pensionerlarga va imkoniyati cheklangan shaxslarga xizmat ko'rsatishni yanada kuchaytirish bo'yicha dasturlarni amalga oshirishda, atrof-muhitni muhofaza qilish, huquq-tartibotni saqlashda mahallaning davlat boshqaruvi organlari, o'z hududida joylashgan korxona, muassasa va tashkilotlar bilan hamkorligi mustahkamlanib bordi.

Hozirgi davrda mahalla ilgari mahalliy davlat hokimiyati organlari vakolatiga kirgan ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatdagi 30 dan ortiq vazifani bajara boshladi. Muntazam o'tkazilib kelinayotgan fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) va ularning maslahatchilari saylovi chinakam demokratiya, fuqarolarning huquqiy ongini va

siyosiy-huquqiy madaniyatini oshirish, joylardagi mavjud kamchiliklarga nisbatan talabchanlik va murosasizlik maktabiga aylandi.

Prezident I.A.Karimov tomonidan ilgari surilgan «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»da quyidagi vazifa qo'yilgan edi: «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish instituti — mahalla faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirish, uning vazifalari ko'lamini kengaytirish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan o'zaro yaqin munosabatlarini ta'minlash alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu vazifani hal qilishda «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritish maqsadga muvofiqdir. Bunda mahallani aniq yo'naltirilgan asosda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish markaziga aylantirish, shuningdek, uning davlat boshqaruv organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati olib borish tizimidagi vazifalarini yanada kengaytirishga jiddiy e'tibor qaratish lozim»[224].

Konsepsiyadagi taklif asosida 2013-yil aprelda O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi (yangi tahriri) qonuniga yangi o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi. Uning 5-moddasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining asosiy prinsiplari sifatida quyidagilar ifodalandi: «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining asosiy prinsiplari qonuniylik, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, demokratizm, oshkoralik, ijtimoiy adolat, mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal etishda mustaqillik, jamoatchilik asosidagi o'zaro yordam, ijtimoiy sheriklik, mahalliy urf-odatlar va an'analarni hisobga olishdan iboratdir».

Qonunning 11-moddasiga muvofiq shaharcha, qishloq, ovul va shahardagi mahalla fuqarolar yig'inining vakolatlari quyidagicha belgilandi: fuqarolar yig'ini raisini (oqsoqolini) va uning maslahatchilarini, fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalarning hamda taftish komissiyasining raislarini va a'zolarini saylaydi; fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) maslahatchilarining va fuqarolar yig'ini kengashi devonining miqdor tarkibini belgilaydi, fuqarolar yig'ini raisining (oqsoqolining)

taqdimiga ko'ra fuqarolar yig'inining mas'ul kotibini tasdiqlaydi; fuqarolar yig'ini kengashi va fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalar faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi; fuqarolar yig'inining faoliyat dasturini va xarajatlar smetasini, hududni kompleks rivojlantirishni ta'minlashga, tegishli hudud doirasida obodonlashtirishga, ko'kalamzorlashtirishga va sanitariya holatini yaxshilashga qaratilgan tadbirlar rejalarini tasdiqlaydi; aholining ijtimoiy nochor qatlamlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi, ushbu maqsadda markazlashtirilgan tarzda ajratiladigan davlat mablag'laridan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda maqsadli va samarali foydalanilishini ta'minlaydi; har chorakda fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari, fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalari hamda taftish komissiyasi raislari, «Mahalla posboni» jamoatchilik tuzilmasi rahbari, fuqarolar yig'inining diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchisining hisobotlarini eshitadi; tegishli hududda qonunlar va boshqa qonun hujjatlarining ijro etilishi, shu jumladan tadbirkorlik faoliyati subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi, kommunal xizmat ko'rsatish tashkilotlari tomonidan kommunal xizmatlar ko'rsatish sifati, imoratlar qurish hamda hovlilar va uylar atrofidagi hududlarni saqlash qoidalariga rioya etilishi, yerlardan foydalanish va ularni muhofaza etish ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi; O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo'yicha, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov bo'yicha uchastka saylov komissiyalarining a'zoligiga nomzodlarni tegishli okrug saylov komissiyalariga, shuningdek referendum o'tkazish bo'yicha uchastka komissiyalarining a'zoligiga nomzodlarni referendum o'tkazish bo'yicha tegishli okrug komissiyalariga taqdim etadi; xalq deputatlari tuman, shahar Kengashi deputatligiga nomzod ko'rsatish to'g'risida qaror qabul qiladi; to'ylar va boshqa marosimlarni o'tkazish yuzasidan tavsiyalar beradi; har chorakda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining fuqarolar yig'inlari faoliyati sohasiga kiruvchi masalalar yuzasidan hisobotlarini eshitadi.

Fuqarolar yig'inlarining hisobotlar to'g'risidagi bayonnomalari tegishli Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, vilo-

yatlar va Toshkent shahar hokimliklariga yuboriladi, ular bu bayonnomalarning hisobini yuritadi, fuqarolar yig'inlarining murojaatlari ko'rib chiqilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi; atrof-muhitni muhofaza qilish, hududning sanitariya holati, uni obodonlashtirish hamda ko'kalamzorlashtirish masalalari yuzasidan o'z vakolati doirasida tegishli hududda joylashgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlar rahbarlarining hisobotlarini eshitadi hamda ularning natijalari bo'yicha qarorlar qabul qiladi; o'z mablag'larini shakllantiradi, fuqarolar yig'ini mol-mulkiga egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi, moliyaviy mablag'larning sarflanishi ustidan nazoratni tashkil etadi; qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tegishli hududda tadbirkorlik faoliyati subyektlarini, shu jumladan sartaroshxonalar, poyabzal ta'mirlash va tikish bo'yicha ustaxonalar, xalq hunarmandchiligi sexlarini va aholiga maishiy xizmat ko'rsatuvchi boshqa tashkilotlarni tashkil etadi, qayta tashkil etadi va tugatadi (ularning faoliyatini tugatadi); ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, tegishli hududni obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish va sanitariya jihatdan tozalash, kam ta'minlangan oilalarga ularning uylari va kvartiralarini ta'mirlashda, shuningdek kommunal xizmatlari haqini to'lashda yordam ko'rsatish uchun ixtiyoriylik asosida jismoniy shaxslardan mablag' yig'ish, yuridik shaxslarning mablag'laridan shartnoma asosida foydalanish to'g'risida qarorlar qabul qiladi; atrof-muhitni muhofaza qilishga ko'maklashadi; guzarlar barpo etish masalalarini ko'rib chiqadi; ma'muriy-hududiy birliklar, mahallalarning chegaralarini o'zgartirish, mahallalar, ko'chalar, maydonlar va boshqa obyektlarga nom berish va ularning nomini o'zgartirish haqida tegishli tumanlar, shaharlar davlat organlariga iltimosnomalar kiritadi; yer uchastkalarini berish (realizatsiya qilish) masalalarini ko'rib chiqish uchun tuman, shahar komissiyasiga o'z vakilini yuboradi; har bir dehqon xo'jaligini xo'jalik kitobiga kiritib, unda dehqon xo'jaligining tarkibi to'g'risidagi, xo'jalik boshlig'i yoki uning vazifasini bajaruvchi shaxs haqidagi, shuningdek dehqon xo'jaligining tashkiliy-huquqiy shakli (yuridik shaxs tashkil etgan yoki tashkil etmagan holda) to'g'risidagi ma'lumotlarni qayd etib qo'yadi; kommunal to'lovlar undirilishini ta'minlash, issiqlik va elektr energiyasidan, issiq va sovuq suvdan tejamli foydalanish bo'yicha tadbirlar o'tkazishda, tegishli hududni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish, uylar va hovlilarni namunali saqlashga doir ishlarni ixtiyoriylik asosida

tashkil etishda shartnoma asosida ko'maklashadi; davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, banklar, nodavlat notijorat tashkilotlar va boshqa tashkilotlar bilan birgalikda kam ta'minlangan oilalardan bo'lgan yoshlarga, shu jumladan ularga nikoh tuzishda va to'y tadbirlarini o'tkazishda qo'shimcha moddiy yordam ko'rsatadi; tegishli hudud doirasida joylashgan (yashayotgan) tadbirkorlik faoliyati subyektlari, shu jumladan oilaviy tadbirkorlik subyektlari tomonidan kreditlar olinishida belgilangan tartibda kafil bo'ladi.

Shahardagi mahalla, shuningdek tarkibida mahallalar tuzilmagan shaharcha, qishloq va ovul fuqarolar yig'ini ushbu moddada nazarda tutilgan vakolatlardan tashqari, fuqarolar yig'ini hududi bo'yicha nazarda tutilgan xarajatlardan kelib chiqqan holda kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam ko'rsatish va voyaga yetmagan bolalari bo'lgan muhtoj oilalarga, ikki yoshga to'lmagan bolalari bor ishlamaydigan onalarga, shuningdek budjet tashkilotlarida ishlaydigan onalarga hamda ularning o'rnini bosuvchi shaxslarga nafaqalar tayinlash to'g'risidagi masalalarni hal etadi, oilalarni davlat tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadlariga markazlashtirilgan tarzda ajratiladigan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanilishini ta'minlaydi. Tarkibida mahallalar tuzilgan shaharcha, qishloq, ovul fuqarolar yig'ini shaharchadagi, qishloqdagi va ovuldagi mahalla fuqarolar yig'inlariga ko'maklashadi, ularning markazlashtirilgan tarzda ajratiladigan davlat mablag'laridan foydalanish to'g'risidagi hisobotlarini eshitadi.

Shuningdek, qonunning 12-moddasiga muvofiq shaharchadagi, qishloqdagi va ovuldagi mahalla fuqarolar yig'inining vakolatlari quyidagicha belgilab qo'yilgan. Qonunning 13-moddasida fuqarolar yig'ini kengashining vakolatlari, 14-moddasida esa fuqarolar yig'ini raisining (oqsoqolining) vakolatlari mustahkamlab qo'yilgan[225].

O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi (yangi tahriri) qonunidagi yangiliklardan biri — asosiy demokratik prinsiplarni o'zida ifodalagan — fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan jamoatchilik nazoratining amalga oshirilishiga doir maxsus 16-moddani kiritilishidan iborat bo'ldi. Bu modda quyidagicha ifodalandi: jamoatchilik nazorati fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- tegishli hududda qonunlar va boshqa qonun hujjatlarining ijro etilishi holatini o'rganish; tegishli choralar ko'rilishi uchun davlat organlariga murojaat etish;

- davlat organlari vakolatiga kiruvchi va ijtimoiy ahamiyatga molik masalalar bo'yicha so'rovlar yuborish. Jamoatchilik nazorati qonun hujjatlariga muvofiq boshqa shakllarda ham amalga oshirilishi mumkin. Jamoatchilik nazorati ommaviy axborot vositalari, nodavlat notijorat tashkilotlar va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi mumkin. Davlat organlari fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ko'maklashishi va qonun hujjatlariga muvofiq ularning murojaatlari yuzasidan o'z vaqtida chora-tadbirlar ko'rishi shart[226].

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida»gi qonunga fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari raislari saylovi tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha oqsoqollar va ularning maslahatchilari eng munosib fuqarolar ichidan saylanishini, fuqarolar ijtimoiy faolligini kuchaytirishda mahallaning ahamiyati va roli oshirilishini ta'minlaydigan chora-tadbirlarni nazarda tutadigan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish taklif qilinishi munosabati bilan yangi tahrirda qabul qilindi.

Umuman, 2013-yilda yangi tahrirda qabul qilingan «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonunning demokratik prinsiplar asosida boyitish natijasida unga quyidagi yangiliklar kiritildi:

- unda aholini manzilli ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni amalga oshirishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari rolini oshirishga doir yangi normalar o'z ifodasini topdi;

- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining jamoatchilik nazorati sohasidagi funksiyalarini yanada kengaytirish bilan bog'liq yangi moddalar kiritildi. Shuningdek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga tegishli hududdagi tadbirkorlik faoliyati subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi ustidan, kommunal xizmat ko'rsatish korxonalari tomonidan kommunal xizmatlar ko'rsatish sifati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish bo'yicha yangi vakolatlarga ega bo'ldi.

- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini xususiy tadbirkorlik, shu jumladan, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirish markaziga aylantirishni ta'minlaydigan yangi huquqiy asoslar kiritildi.

Shu bilan birga, yangi tahrirdagi «Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida»gi Qonun esa quyidagi demokratik qadriyatlar bilan boyitildi:

- fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) va ularning maslahatchilari saylovini tashkil etish va o'tkazish masalalarida hokimiyatning vakillik organlari va Oliy Majlis Senatining roli va mas'uliyatini yanada oshirish bilan bog'liq yangi me'yorlar, shuningdek, saylovlarni o'tkazish muddatlarini belgilashda Oliy Majlis Senatining Kengashi mas'ulligiga doir qo'shimcha me'yor kiritildi. Shu bilan birga, fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovini tashkil etish hamda o'tkazish bo'yicha ishchi guruhi tarkibiga tegishli tuman (shahar) xalq deputatlari Kengashlarining deputatlari kiritilishi mumkinligiga doir huquqiy asos ham belgilandi.

Ko'rinib turibdiki, mamlakatda o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini isloh etish, uni demokratlashtirish, rivojlangan mamlakatlar va xalqaro huquq normalariga muvofiq holda ularning huquqiy asoslarini rivojlantirilishi bu organlarni fuqarolik jamiyati instituti sifatida rivojlanishini to'liq ravishda ta'minlay oladi. Bu jarayonlar mamlakatda «O'zbek modeli» asosida fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishning tarkibiy qismlaridan biri sifatida o'zini namoyon qila boshladi. Bu sohadagi islohotlar «Kuchli davlatdan — kuchli fuqarolik jamiyati sari» tamoyilini hayotda o'z aksini topayotganligini anglatadi.

4. Adolatli saylovlar — demokratik jamiyat taraqqiyotining mezoni

Huquqiy demokratik davlatda saylov qonunlari va uni o'tkazish muhim o'rinni egallaydi. Buning yorqin isbotini fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga saylov o'tkazishda ko'rish mumkin. 2001-yil may — iyun oylarida mamlakatimizda o'zini o'zi boshqarish organlari — mahalla, ovul, qishloq, shaharcha fuqarolar yig'inlariga o'tkazilgan saylov bu soha rahbarlarini yetuk kadrlar hisobiga sifat jihatdan o'zgarishiga olib keldi.

Saylov jarayonlari davridagi tashkiliy ishlar va amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida mamlakatimiz bo'yicha fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga saylovlar ijtimoiy-siyosiy va tashkiliy jihatdan yuksak saviyada va fuqarolarning ijtimoiy faolligi

o'sgan holda amalga oshdi. Saylovlarda 12 millionga yaqin fuqarolar ishtirok etdilar. Bu ko'rsatkich mamlakat katta yoshli aholisining qariyb 90 foizini tashkil etdi.

2003-yil noyabr oyida fuqarolarning 9627 yig'inida, shu jumladan 1556 shaharcha, qishloq va ovul yig'inlarida, qishloqlardagi 4151 mahallalar va shaharlardagi 2138 mahallalar yig'inlarida, shuningdek jamoatchilik asosida faoliyat ko'rsatayotgan 1782 mahalla fuqarolar yig'inlarida saylovlar bo'lib o'tdi. Mazkur saylovlar fuqarolarning siyosiy madaniyati va huquqiy ongi yuksalganligini ko'rsatdi. Chunonchi, 35 ta yig'in raisligi va oqsoqolligiga ko'rsatilgan nomzodlar saylanmay qoldilar. 74 ta yig'inda rais va oqsoqollarning 2,5 yillik faoliyati qoniqarsiz, deb topildi. Barcha saylovlar davomida ko'rsatilgan 21306 ta nomzodlardan 8360 tasi saylanganligi, ularning muqobillik asosida o'tganligini, fuqarolarga tanlash imkoniyati berilganligini ifodaladi.

Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) va ularning maslahatchilarining vakolatlari muddati tugaganligi munosabati bilan 2006-yilning may-iyun oylarida mamlakatning barcha hududlarida navbatdagi saylovlar o'tkazildi. Ular ilgari o'tkazilgan saylovlardan farqli ravishda, birinchi marta O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida»gi qonuni asosida o'tkazildi. Saylovlarda 12 milliondan ortiqroq saylovchilar ishtirok etdilar. Saylovlar kampaniyasidagi yig'ilishlar, uchrashuvlar va boshqa tadbirlarda o'tgan 2,5 yil ichida o'zini o'zi boshqarishga doir amalga oshirilgan ishlar yuzasidan berilgan hisobotlar muhokama qilindi. Saylovlarda mamlakat bo'yicha hammasi bo'lib 8843 ta fuqarolar yig'inlari raislari va oqsoqollari (2003-yildagi saylovga nisbatan 483 ta ko'p), 84 ming maslahatchi saylandi. Ko'pchilik fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) lavozimiga saylovlar nomzodlarning muqobilligi asosida o'tkazildi[227].

Mamlakatda 2008-yilning noyabr — dekabr oylarida fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) va ularning maslahatchilariga saylov bo'lib o'tdi. Saylovda 18 milliondan ortiq saylovchining 576509 ta vakillari ishtirok etib, bu jarayon o'ziga 10124 ta fuqarolar yig'inida, jumladan, 101 shaharcha, 1333 ta qishloq, 154 ta ovul va 8536 ta mahalla fuqarolar yig'inini qamrab oldi. Mazkur saylov fuqarolarning siyosiy madaniyati va huquqiy ongini oshib borayotganligini ko'rsatdi. 64 ta fuqarolar yig'inida raislikka

(oqsoqollikka) ko'rsatilgan nomzodlarning barcha talab etilgan ovozlarni olishga erisha olmadi[228].

2013-yilning noyabr — dekabr oylarida o'zini o'zi boshqarish organlariga saylovlar jarayoni yanada demokratlashgan holda amalga oshirildi. Saylovoldi vakillar yig'ilishlarida 9756 nafar rais (oqsoqol) o'rinlariga 32292 nafar nomzod ko'rsatilib, (bir o'ringa o'rtacha 3,3 nafar nomzod) muhokamalar va saylovlar natijasiga muvofiq ulardan eng munosiblari saylandi. Saylovlarning 18 foiz holatida fuqarolar yopiq ovoz berish huquqidan foydalandi. 2013-yilda 22 ta takroriy saylov o'tkazildi (2011-yilda — 25, 2008-yilda — 64).

Saylangan raislar ichida oliy ma'lumotlilari 56,1 foizni tashkil etdi. 1310 nafar (13,4 foizi) ayol raislikka saylandi. 2006-yilda bu ko'rsatkich 9,9 foizni, 2008-yilda 11,5 foizni, 2011-yilda esa 12,7 foizni tashkil etgan edi. Saylovlar natijasida raislar tarkibi 46,6 foizga yangilandi. Shuningdek, saylovlarda 99618 nafar fuqarolar yig'inlari raislari maslahatchilari saylandi. Ularning 44,6 foizi oliy ma'lumotli fuqarolardan, 30,8 foizi esa ayollardan iborat bo'ldi.

Saylovlar kampaniyasida fuqarolarning faol ishtirok etishlari natijasida saylovlar oshkoralik va muqobillik asosida o'tkazildi, unda fuqarolarning teng saylov huquqi ta'minlandi. Shuningdek, 2013-yilning noyabr — dekabr oylarida bo'lib o'tgan saylovlar yangi shart-sharoitlarda — saylovlarga doir qonunchilik asoslari yanada demokratlashtirilgan va fuqarolar ijtimoiy faolligi oshgan bir paytda o'tkazildi. Saylovlar natijalari mamlakatning fuqarolik jamiyati sari intilayotganligini yana bir karra isbotlab berdi[229].

Mamlakatda o'zini o'zi boshqarish organlariga bo'lgan saylovlar fuqarolik jamiyatining rivojlanib borganligini, joylarda fuqarolarning dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etishda fuqarolar yig'inlarining o'rni oshib borayotganligini, aholining bu sohadagi faolligining kuchayganligini ko'rsatdi. Shuningdek, saylovlar jarayonlari va ularning natijalari islohotlarni chuqurlashtirishning «Kuchli davlatdan — kuchli fuqarolik jamiyati sari» tamoyilining ijtimoiy-siyosiy hayotning hamma jabhalariga kirib borayotganligining yana bir ifodasi bo'ldi.

Mahallalardagi tinch va osoyishta hayotni ta'minlash, oilalarni mustahkamlash chora-tadbirlarini ko'rish, yetimlar va yolg'iz qolgan fuqarolarga mehr-muruvvat ko'rsatish, fuqarolarning o'zini

o'zi boshqarishga doir intilishlarini qondirish kabi serqirra jamoaviy boshqaruv ham mahalla fuqarolar yig'inlari faoliyatining asosiy yo'nalishini tashkil etmoqda. Lekin, shu bilan birga o'zini o'zi boshqarish organlarini demokratlashtirish jarayonlari hali davom etadi. Ayniqsa, aholi huquqiy va siyosiy madaniyatini oshirish, siyosiy qarorlar qabul qilishda mahallalarning o'rnini yuksaltirish, mahallalarni mahalliy davlat hokimiyati organlaridan to'la mustaqil bo'lishini ta'minlaydigan huquqiy mexanizmlar yaratish, fuqarolarni mahallalar vositasida qonunlar ishlab chiqish va qabul qilish jarayonlaridagi umumxalq muhokamalarida faol ishtirok etishlarini ta'minlash yaqin istiqboldagi islohotlarning asosiy vazifasidir.

Takrorlash uchun savollar:

1. O'zini o'zi boshqarish deganda nimani tushunasiz? Mahalla fuqarolar yig'ini nima?
2. O'zini o'zi boshqarishning qanday demokratik tamoyillari mavjud?
3. Nima uchun o'zini o'zi boshqarish organlari fuqarolik jamiyati instituti deyiladi?
4. Mustaqillik davrida o'zini o'zi boshqarishga doir qonunchilik asoslari qanday rivojlandi?
5. O'zini o'zi boshqarish tizimida saylovlarning o'rni qanday?

15-mavzu: O‘ZBEKISTONDA KO‘PPARTIYAVIYLIK TIZIMINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

1. Siyosiy partiya tushunchasi va uning asosiy funksiyalari.
2. O‘zbekistonda siyosiy partiyalarga doir huquqiy asoslarning rivojlanishi.
3. O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviy tizimning shakllanishi va rivojlanishi.

1. Siyosiy partiya tushunchasi va uning asosiy funksiyalari

Siyosiy partiyalar fuqarolik jamiyatining eng muhim institutlaridan biridir. Siyosiy partiyalar fuqarolik jamiyatining siyosiy tizim bilan o‘zaro aloqalarining domiyligini ta’minlaydi. Davlat hokimiyatining jamiyatga bog‘liqligi va uning jamiyat tomonidan nazorat qilinishi ko‘p hollarda siyosiy partiyalar vositasida amalga oshiriladi.

Hozirgi davrdagi siyosiy partiyalarning ilk o‘tmishdoshlari yangi davrga kelib shakllandi. XIX asrga kelib G‘arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlaridagi siyosiy partiyalar siyosiy vakillik instituti xarakterini kasb eta boshladilar. Partiyalar paydo bo‘lishining muhim sabablaridan biri — davlat hokimiyatini shakllantirishda adolat tamoyillariga amal qilish, shuningdek jamiyatni demokratlashtirish zaruriyatlariga bo‘lgan talabning oshib borganligidir.

Yangi davrdan boshlab siyosiy partiyalar turli ijtimoiy guruhlar va tabaqalarning siyosiy manfaatlarini ifodalab, asta-sekin fuqarolik jamiyati manfaatlarini ifodalovchi mustaqil institutlarga aylanib bordi. Ayniqsa, saylov institutlarining siyosiy hokimiyat mas’ulligini shakllantirish mexanizmi sifatidagi o‘rnining oshib borishi bilan siyosiy partiyalar ham takomillashib bordilar.

XIX asr oxiri — XX asr birinchi yarmidagi davlat arboblari va taniqli mashhur olimlar siyosiy partiyalarni jamiyat hamda davlat boshqaruvi uchun muhim bo‘lgan demokratik institut sifatida talqin eta boshladilar. Jamiyat va davlat hokimiyatining turli jabhalari va darajalarida demokratik qadriyatlarning qaror topib borishi bilan siyosiy partiyalarga bo‘lgan zaruriyat ham kuchayib bordi.

G'arb siyosatshunos olimlarining talqinicha, «partiyalar (lot., «pars» («partire») — «qism» yoki «guruh»)[230], bu — rasmiy institutlashgan va davlat hokimiyati organlari va boshqaruvi ustidan nazorat qilish uchun funksional jihatlardan ixtisoslashgan tashkilotdir. Siyosiy partiyalarni tadqiq etgan mashhur siyosatshunos olim J. Sartori partiyalarga doir quyidagi aniqlikni kiritgan edi: «Saylovlarda ishtirok etuvchi va uning natijasida o'z nomzodlarini davlat korxonalariga o'tkaza olishga qodir bo'lgan har qanday siyosiy guruh partiyadir»[231].

XX asrning so'nggi davriga kelib AQSh olimlari — J.Lapalambara va J. Anderson «Boshqaruv va siyosat ensiklopediyasi» nomli asarida siyosiy partiyaga quyidagi ta'rifni berganlar: «Partiya rasmiy maqom kasb etish va rasmiy tashkilot bo'lish bilan bog'liq, markazni periferiya bilan bog'lovchi va davlat organlariga o'z nomzodlarini (erkin yoki noerkin) saylovlar vositasida o'tkazishga qobil bo'lgan har qanday guruhdir»[232].

G'arb siyosatshunos olimlari siyosiy partiyalarning quyidagi belgi va funksional jihatlari asosidagi siyosiy maqomini quyidagicha ta'riflaydilar: «Siyosiy partiya — (1) rasmiy va tashkiliy tuzilmaga ega, (2) hokimiyat ustidan rasmiy nazoratni amalga oshirish uchun kurashning maxsus funksiyasini amalga oshiruvchi, (3) mafkuraviy doktrina belgisi asosida birlashgan, umummilliy manfaatlarni ifodalashga da'vogarlik qiluvchi, (4) huquqiy maqomga ega bo'lgan va (5) saylov jarayonlariga jalb etilgan nodavlat institut turi va guruhiy birlashmadir»[233].

O'zbekiston qonunchiligida siyosiy partiyalar — turli tabaqa va guruhlarning siyosiy irodasini ifodalaydilar va o'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar, deb ta'riflanadi.

Agar siyosiy partiyalarning jamiyatdagi funksiyalariga e'tibor bersak, partiya to'g'risidagi tasavvurimiz yanada kengayadi. XX asrning 50—70-yillariga kelib siyosatshunos olimlar demokratik prinsiplar asosida faoliyat yuritadigan siyosiy partiyalarning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat ekanligini aniqladilar:

- alohida olingan fuqarolar, ijtimoiy tabaqalar va guruhlar manfaatlarini birlashtirib, ularni siyosiy manfaatlar majmuasi darajasiga ko'tarish, shuningdek, bu uyg'unlashgan manfaatlarni ularning hammasi uchun bir xilda ahamiyat kasb etishini ta'minlashdir. Partiyalarning yana bir eng muhim maqsadi, bu

— o'zi tayanuvchi ijtimoiy tabaqalar manfaatlarini siyosiy tizimda ifoda etishdir;

- har bir fuqaro o'zining ustidan kim boshqarishi yoki idora etishiga befarq emas. Shuning uchun ham demokratiyaning muhim mezonlaridan biri fuqarolarga o'zlari ustidan kim boshqarishini tanlay olish imkoniyatini berishdir. Bu kabi tanlash siyosiy partiya vositasida amalga oshiriladi;

– davlatni boshqarishga doir siyosiy qarorlarning xalqchil va demokratik qadriyatlar asosida qabul qilinishi mamlakatdagi fuqarolik jamiyatining nechog'lik rivojlanganlik darajasining o'ziga xos mezonidir. Siyosiy qarorlarni qabul qilishgacha bo'lgan davrda ularning loyihalarini partiyalarning quyi organlari tomonidan fuqarolar irodalari va istaklarini inobatga olgan holda, shuningdek, oddiy fuqarolarning manfaatlari va ehtiyojlari asosida shakllantirish imkoniyatlari mavjuddir. Shuning uchun ham partiyalar bajarilishi shart bo'lgan siyosiy qarorlarning demokratik legitimlashtirish, jamiyat tomonidan tan olinishini ta'minlash vositasidir;

- partiyalar turli darajadagi saylovlar vositasida hokimiyatni shakllantirish, boshqaruv kadrlar tizimini legitimlashtirish, shuningdek, uning fuqarolar tomonidan e'tirof etilishini ta'minlash omilidir;

- partiyalar o'zlarining quyi tashkilotlaridagi ko'p qirrali faoliyatlarida o'z partiya dasturlarini targ'ib etish, mahalliy boshqaruv organlari faoliyatini baholashlari, partiyaviy yig'inlari xulosalari, ommaviy axborot vositalaridagi faol ishtiroklari asosida jamoatchilik fikrini shakllantirish qobiliyatiga ega bo'lgan demokratik institutdir;

- partiyalar jamiyatning siyosiy kengliklarida fuqarolar siyosiy ongining shakllanishi va siyosiy madaniyatining yuksalishi uchun ijtimoiy, siyosiy, ruhiy muhit, fuqarolar siyosiy ishtiroki uchun siyosiy kengliklar tashkil qiluvchi tashkilotdir;

- partiyalar fuqarolarning siyosiy manfaatlarini ilg'ab, ularning o'zaro o'xshash manfaatlarini birlashtirib, ularning har bir oila va mahalla hududida «sochilib» yotgan tabiiy siyosiy intilishlarini partiyaviy dasturlarga jamlab, o'z a'zolari va xayrixohlarini siyosiy jarayonlarga safarbar etuvchi, shuningdek, fuqarolarni bu jarayonda faol ishtirok etishga yanada kengroq undash uchun ularni rag'batlantirish, ular intilishlarining doimiyligini ta'minlash vositasidir;

- partiya demokratik saylovlarda saylangan o'z vakillari, turli mansablarni egallagan partiyadoshlari, shuningdek partiyaviy fraksiyalari va guruhlari vositasida o'z muqobil dasturlarini amalga oshirish, xalq ommasini e'tirofiga erishish maqsadlarida parlament va hukumatga ta'sir ko'rsata olish qobiliyatiga ega institutdir;

- partiya o'z siyosiy maqsadlarini «davlat irodasi» bilan uyg'unlashtira oluvchi siyosiy kuchdir;

- partiya fuqarolar bilan davlat organlari o'rtasidagi aloqalar va munosabatlarning muvofiqlashtirishni doimiy ravishda ta'minlab turuvchi bo'g'indir.

Siyosiy partiyalar ijtimoiy qatlamlarning u yoki bu siyosiy manfaatlarini ifoda etibgina qolmasdan, balki, bu manfaatlarni shakllantirishda ham bevosita faol ishtirok etadi. Chunki, partiya o'zining ijtimoiy bazasi bo'lgan tabaqaning siyosiy qarashlarini shakllantirishga doir ma'rifiy tadbirlar o'tkazish bilan shug'ullanmasa, u holda fuqarolardagi siyosiy qarashlari va siyosiy manfaatlari o'z xolicha barq urmaydi, juda bo'lmaganda, bu manfaatlar guruhiy manfaatlar darajasiga ko'tarila olmaydi.

2. O'zbekistonda siyosiy partiyalarga doir huquqiy asoslarning rivojlanishi

O'zbekistonda siyosiy partiyalarning fuqarolik jamiyati instituti sifatidagi faoliyatini erkinlashtirish, ko'p partiyaviylik tizimini takomillashtirish islohotlarini chuqurlashtirishga doir muammolarni bartaraf etishda Prezident I.A.Karimov tomonidan ilgari surilgan kuchli fuqarolik jamiyati qurish g'oyasi muhim ahamiyat kasb etdi. Unda e'tirof etilishicha, jamiyatda «...islohotlar jarayonida respublikada yangi demokratik siyosiy tuzumning asoslari yaratildi, deb xulosa chiqarish mumkin. Bu tuzum siyosiy tashkilotlarning, mafkura va fikrlarning turli-tumanligi asosiga qurilgan bo'lib, davlat va jamiyatni boshqarishda fuqarolarning keng ishtirokini ta'minlaydi»[234].

Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, O'zbekistonda ham siyosiy partiyalarning jamiyat instituti sifatidagi huquqiy maqomi shakllandi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 60-moddasida siyosiy partiyalarning huquqiy maqomi quyidagicha belgilangan: «Siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarning siyosiy irodasini ifodalaydilar va o'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok

etadilar. Siyosiy partiyalar o'z faoliyatlarini moliyaviy ta'minlanish manbalari haqida Oliy Majlisga yoki u vakil qilgan organga belgilangan tartibda oshkora hisobotlar berib turadilar»[235].

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 56-moddasiga binoan siyosiy partiyalar «jamoat birlashmalari» sifatida e'tirof etiladi[236]. Mazkur Konstitutsiyaning 58-moddasida esa «davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamoat birlashmalari faoliyatiga aralashishiga, shuningdek jamoat birlashmalarining davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatiga aralashishiga yo'l qo'yilmaydi»[237], deyiladi. Bu bilan, birinchidan, siyosiy partiyalar jamoat birlashmalari kabi jamiyatning instituti ekanligi e'tirof etiladi; ikkinchidan, siyosiy partiyalarning davlat hokimiyati organlari faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmasligi konstitutsiyaviy me'yorlar bilan taqiqlanib, unihg davlat hokimiyatiga daxldor emasligi ta'kidlanadi.

Mazkur huquqiy asoslardan shunday xulosa chiqadiki, siyosiy partiyalarning «siyosiyligi» ularning saylovlardagi ishtiroki va davlat hokimiyatiga nomzodlar ko'rsatishi bilan cheklanadi. Siyosiy partiyalar davlat hokimiyati boshqaruvida to'g'ridan to'g'ri ishtirok etmaydilar. Saylovlarda g'alaba qozongan partiyalarning vakillari esa davlat hokimiyati organlaridagi boshqaruvda ishtirok etadilar. Lekin, bu kabi boshqaruvdagi ishtirok siyosiy partiya a'zosi sifatida emas, balki, biron-bir mansabni egallagan shaxs sifatida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 34-moddasida jamiyatdagi muxolifiy huquqni himoya qilish maqsadlarida quyidagi qoida mustahkamlangan: «Siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek hokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emas»[238].

Mamlakatda 1991-yilning noyabridayoq «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi Qonunda saylovning ko'p partiyaviylik asosida o'tkazilishi huquqiy jihatlardan e'tirof etildi. Mazkur Qonunda siyosiy partiyalar mamlakat Prezidentligiga nomzodlar ko'rsatish huquqiga ega ekanligi aniq va ravshan ifodalandi.

1991-yil 14-fevralda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida»gi Qonun mamlakatda ko'ppartiyaviylik tizimi shakllanishining huquqiy jihatlarini

ta'minlab berishi natijasida mamlakatda yangi siyosiy partiyalarning shakllanish jarayonlari boshlandi. Milliy mustaqillik davrida tashkil topgan siyosiy partiyalardan biri, bu — O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidir. Partiyaga 1991-yilning 1-noyabrida bo'lib o'tgan ta'sis qurultoyida asos solindi.

Mamlakatda mustaqillik yillarida siyosiy partiyalarning davlat hokimiyati organlaridan mustaqil ravishda rivojlanishi va keng faoliyat ko'rsatishi uchun ijtimoiy-siyosiy kengliklar yaratildi. Shu bilan birga, Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi «hududiy, bir mandatli saylov okruglari bo'yicha ko'p partiyaviylik asosida besh yil muddatga saylanadigan bir yuz ellik deputatdan iborat»[239] bo'lishi bu qoidaning O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi Qonunda mustahkamlab qo'yilishi siyosiy partiyalarning mamlakat qonun chiqaruvchi hokimiyatini shakllantirishdagi rolini oshirdi.

O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimini qaror topishida 1996-yil 25-dekabrida Oliy Majlis qabul qilgan «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi Qonun muhim o'rin tutdi. Qonun 17 ta moddadan iborat bo'lib, unda siyosiy partiyalarning demokratik qoidalar asosida faoliyat yuritishlari uchun rivojlangan mamlakatlar mezonlari talablariga xos bo'lgan huquqiy asoslar yaratildi. Qonunning 5-moddasiga binoan, «davlat siyosiy partiyalar huquqlari va qonuniy manfaatlari muhofaza etilishini kafolatlaydi, nizomda belgilangan o'z maqsadlari va vazifalarini bajarishlari uchun ularga teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi»[240]. Shuningdek, siyosiy hayotda birinchi marta qonunning 12-moddasida siyosiy partiyalarning huquqlari aniq va ravshan ko'rsatib berildi: «Siyosiy partiyalar quyidagi huquqlarga ega:

- o'z faoliyati to'g'risidagi axborotni erkin tarqatish, o'z g'oyalari, maqsadlari va qarorlarini targ'ib qilish;
- saylab qo'yiladigan davlat organlaridagi o'z vakillari orqali tegishli qarorlarni tayyorlashda ishtirok etish;
- qonunda belgilab qo'yilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, davlat hokimiyati organlari saylovlarida ishtirok etish;
- partiya faoliyati bilan bog'liq yig'ilishlar, konferensiyalar va boshqa tadbirlarni o'tkazish;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ommaviy axborot vositalari ta'sis etish va boshqa ommaviy axborot vositalaridan foydalanish;

- O'zbekiston Respublikasining siyosiy partiyalari bilan ittifoq (blok) tuzish, ular bilan va boshqa jamoat birlashmalari bilan shartnoma munosabatlari o'rnatish»[241].

Fuqarolik jamiyatining muhim belgilaridan biri, bu — siyosiy institutlarda va siyosiy jarayonlarda turli xil fikrlarning erkin ifoda qilinishiga huquqiy asoslar yaratib berish, shuningdek, huquqiy davlat fuqarolari — pluralistik fikrlashga qodir bo'lgan shaxslarni shakllantirishdir. Shu maqsadlarda qonunning 13-moddasida Oliy Majlisdagi partiya fraksiyalarining erkin faoliyat yuritishlari, ularning hozirgi davr ilg'or mamlakatlaridagi me'yorlar talablariga muvofiq jamiyatning siyosiy rivojlanishiga hissa qo'sha olish darajasiga ko'tarilishlarining huquqiy jihatlardan ta'minlashga asos solindi: «Siyosiy partiyalarning O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisidagi fraksiyalari siyosiy partiyalar tomonidan ko'rsatilgan deputatlarning ta'sis yig'ilishlarida o'z partiyalarining siyosatini uyushqoqlik bilan o'tkazish uchun tuziladi».

Mazkur qonunga binoan siyosiy partiyalar fuqarolarning demokratik irodalari shakllanishini ta'minlashda erkin faoliyat yuritish huquqiga ega bo'ldilar, partiyalarning o'zaro huquqiy tengligi, shuningdek, ularning jamiyat oldidagi vazifalari va mas'uliyati qonunlashtirildi.

Siyosiy partiyalar faoliyatining faqat huquqiy jihatlardangina kafolatlashning o'zi ularning keng qirrali faoliyatlari yo'nalishlarini amalga oshirish uchun yetarli emas ekanligini hayotning o'zi ko'rsatdi. Siyosiy partiyalarning jamiyatdagi va siyosiy munosabatlardagi funksiyalarini to'la bajara olish qobiliyatini shakllantirish uchun ularning faoliyatlarini moliyaviy jihatlardan ham kafolatlash tajribasi O'zbekistonga ham kirib keldi. 2004-yil 30-aprelda ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning XIV sessiyasi «Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida»gi Qonunni qabul qildi. Xususan, siyosiy partiyalarga moliyaviy yordam berish partiyalarning siyosiy raqobatdagi imkoniyatlar notengligini kamaytiradi, ularning alohida jismoniy yoki huquqiy shaxslar guruhlariga nisbatan qaramligini yo'qotadi. Natijada siyosiy partiyalar korrupsiyaga qarshi kurashning ta'sirchan vositasiga aylanadi.

O'zbekiston Respublikasining «Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida»gi Qonuni mamlakatdagi partiyalarni demokratik qadriyatlar talablari darajasida rivojlanishi uchun keng

imkoniyatlar yaratib berishga katta hissa qo'shdi. Qonunning 7-moddasiga muvofiq, «Siyosiy partiya, agar u O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylov yakunlari bo'yicha «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy qonuniga muvofiq Qonunchilik palatasida siyosiy partiya fraksiyasini tuzish uchun zarur miqdorda deputatlik o'rinlarini olgan bo'lsa, o'zining nizomida nazarda tutilgan faoliyatini moliyalashtirish uchun davlat mablag'larini olish huquqiga ega bo'ladi». Shuningdek, qonunda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi davlat mablag'larini «olish huquqiga ega bo'lgan siyosiy partiyalar o'rtasida ularning Qonunchilik palatasida olgan deputatlik o'rinlari miqdoriga mutanosib ravishda taqsimlaydi»[242].

Shu bilan birga, mazkur qonunga binoan siyosiy partiyalarning *Qonunchilik palatasi va davlat hokimiyatining* boshqa vakillik organlariga saylovda ishtirok etishi, shuningdek, Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiya fraksiyalarining faoliyati ham davlat tomonidan moliyalashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov 2006-yil 9-noyabrda qonunchilik tashabbusi bilan parlamentga kiritilgan «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy Qonunning qabul qilinishi mamlakatda fuqarolik jamiyati institutlarini yanada rivojlantirish uchun huquqiy asoslarni mustahkamlab, siyosiy partiyalar demokratik tamoyillar asosida faoliyat yuritishlari uchun keng imkoniyatlar yaratdi.

Mazkur Konstitutsiyaviy Qonunning 4-moddasida O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyalarining har biri va saylovchilar tashabbuskor guruhlaridan saylangan deputatlar bilan maslahatlashuvlar o'tkazilgandan so'ng Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senati tasdiqlashi uchun kiritilishi qoidasining o'rnatilishi, shuningdek, mazkur Qonunning 6-moddasiga binoan viloyat va Toshkent shahar hokimi nomzodlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlaridagi partiya guruhlarining har biri bilan maslahatlashuvlar o'tkazilgandan so'ng tegishli xalq deputatlari Kengashlariga tasdiqlash uchun taqdim

etilishi qoidasining qabul qilinishi, siyosiy partiyalarga mahalliy hokimiyat organlari faoliyati ustidan nazorat etishni huquqiy jihatlardan mustahkamlab qo'yilishi[243] kabi yangi o'zgarishlar siyosiy partiyalarning davlat hokimiyatini shakllantirish va davlat ahamiyatiga ega bo'lgan siyosiy qarorlarni qabul qilishdagi ishtiroklari uchun keng shart-sharoitlar yaratdi. Albatta, mazkur Qonunning eng asosiy maqsadi – xalq irodasini davlat hokimiyatini shakllantirishda ifodalanishiga erishishdan, davlat boshqaruvini xalq nazorati ostida amalga oshirishni yo'lga qo'yishdan iborat bo'ldi.

«Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy Qonun hayotga tatbiq etilishi natijasida mamlakatda siyosiy partiyalarning hukumat va mahalliy davlat hokimiyati organlarini shakllantirishdagi roli oshdi, davlat hokimiyati organlari xalq irodasi asosida shakllana boshladi, mamlakatdagi saylovchilarning siyosiy irodasi hokimiyat taqdirini hal etishi asosiy qaror darajasiga ko'tarildi. Umuman, siyosiy partiyalar fuqarolik jamiyatining instituti sifatidagi huquqiy maqomni egallashga erishdi.

Prezident I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»dagi g'oyalarni amalga oshirish mamlakatda fuqarolik jamiyati qurishning yangi bosqichi boshlanganligini anglatadi. Konsepsiyada siyosiy partiyalar rolini oshirishga doir qonunchilik asoslarini demokratlashtirish va takomillashtirish vazifalarini bajarish natijasida davlat boshqaruvini xalq irodasi asosida amalga oshirishga imkoniyatlar yaratiladi.

Konsepsiyada siyosiy partiyalarga hukumatni shakllantirish sohasida muhim davlat ahamiyatiga ega bo'lgan qaror qabul qilish vakolati berish taklifi ilgari surildi: «O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylovlarda eng ko'p deputatlik o'rnini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi deputatlik o'rinlarini qo'lga kiritgan bir necha siyosiy partiyalar tomonidan taklif etiladi»[244].

Ko'rinib turibdiki, siyosiy partiyalar saylovchilar (xalq) irodasini ifodachisi sifatida namoyon bo'lib, hukumatni

shakllantirishda eng asosiy siyosiy institut sifatidagi maqomga ega bo'ldi. Albatta, bu holat fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatning muhim belgilaridan biri bo'lib, partiyalar vositasida shakllangan hukumat xalq irodasi asosida shakllangani uchun ham u xalqchil siyosat olib borishga intiladi.

Konsepsiyada davlat hokimiyatini shakllantirishda siyosiy partiyalarning rolini keskin oshirishga asosiy urg'u berilishi mamlakatda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishning yangi bosqichi boshlanganligini anglatadi. Konsepsiya g'oyalarini amalga oshirish hozirgi davrdagi islohotlarni yanada chuqurlashtirishning «Kuchli davlatdan — kuchli fuqarolik jamiyati sari» tamoyili asosida siyosiy partiyalarni jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlar va qatlamlar manfaatlari ifodachisi va himoyachisi sifatida faoliyat yuritishi uchun shart-sharoitlar yaratadi. Islohotlar jarayoni va siyosiy qarorlar qabul qilishda xalq ishtirok etishining oshib borishi pirovard natijada xalq suverenitetini siyosiy iroda sifatida shakllanishini ta'minlaydi, natijada huquqiy davlat qurish uchun keng imkoniyatlar yaratiladi.

3. O'zbekistonda ko'ppartiyaviy tizimning shakllanishi va rivojlanishi

O'zbekistonda Milliy mustaqillik e'lon qilingach, mustaqil davlat tizilmalarining shakllanishi, sobiq sho'ro mafkurasiga xizmat qiluvchi yakkahokim kommunistik partiya tashkilotlarini butunlay tugatilishi natijasida fuqarolik jamiyatining institutlarini shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. Mamlakatda xalq manfaatlari va siyosiy irodalarini erkin bildirish va ularni erkin ifoda etish uchun huquqiy asoslar va erkin siyosiy muhit yaratilishiga hamohang tarzda siyosiy partiyalar ham tuzila boshlandi.

Prezident I.A.Karimovning mustaqillik yillarida jamiyatda siyosiy partiyalarning rolini oshirishga qaratilgan tashabbuslari natijasi o'laroq mamlakatda demokratik tamoyillar talablariga javob bera oladigan partiyaviy tizim shakllandi. Uning siyosiy partiyalar tizimini yanada mustahkamlashga qaratilgan quyidagi fikrlari istiqbolda bu tizimni fuqarolik jamiyatiga xos jihatlarini shakllantirishga qaratildi: «Ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy taraqqiyotning aniq ustuvor yo'nalishlarini belgilab olishda siyosiy

partiyalarning rolini keskin kuchaytirish, mamlakatimizni isloh etish va modernizatsiya qilish bo'yicha strategik vazifalarni hal etishda ularning ishtirokini kengaytirish demokratik islohotlarni izchil amalga oshirishning eng muhim omiliga aylanmog'i zarur. Boshqacha qilib aytganda, ko'ppartiyali tizimni mustahkamlash va partiyalararo raqobatni kuchaytirish — biz ko'zlagan demokratik davlat barpo etishning eng muhim shartlaridan biriga aylanishi darkor.

Biz bu o'rinda o'z nizomiga va jamiyat oldida turgan muammolarni hal qilish borasida o'z nuqtayi nazari aniq ifoda etilgan harakat dasturiga ega bo'lgan siyosiy partiyalarni ko'zda tutamiz. So'z, avvalo, o'z elektoratiga ega bo'lgan, davlat va jamiyat qurilishining asosiy masalalari, mamlakatda yuritilayotgan ichki va tashqi siyosat bo'yicha aniq-ravshan pozitsiyasi bilan, saylovda mazkur partiya uchun ovoz beradigan odamlar manfaatlarini qat'iy himoya qilishga qodirligi bilan saylovchilar o'rtasida obro' qozongan partiya haqida bormoqda»[245].

Hozirgi davrda jahondagi demokratiyaning asosiy mezonlaridan biri — saylovlarning ko'ppartiyaviylik asosida o'tkazilishidir. 1991-yilning noyabridayoq «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi Qonunda saylovning ko'p partiyaviylik asosida o'tkazilishi huquqiy jihatlardan e'tirof etildi. Mazkur Qonunda siyosiy partiyalar mamlakat Prezidentligiga nomzodlar ko'rsatish huquqiga ega ekanligi aniq va ravshan ifodalandi. 1991-yil 14-fevralda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida»gi Qonun ko'ppartiyaviylik tizimi shakllanishining huquqiy jihatlarini ta'minlab berishi natijasida mamlakatda yangi siyosiy partiyalarning shakllanish jarayonlari boshlandi. Milliy mustaqillik davrida tashkil topgan siyosiy partiyalardan biri, bu — O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidir. Partiyaga 1991-yilning 1-noyabrida bo'lib o'tgan ta'sis qurultoyida asos solindi.

O'zbekiston XDP o'zini asosan ijtimoiy adolat va ijtimoiy himoyaga muhtoj kishilar manfaatlarini himoya qilishi, mamlakat siyosiy kuchlarining so'l qanoti sifatida faoliyat yuritishini e'lon qildi.

Partiya O'zbekistonning mustaqilligini asrash va mustahkamlash, Vatanimizning gullab-yashnashini ta'minlash, mamlakatda fuqarolik va millatlararo totuvlik, ijtimoiy barqarorlik, har bir oila va butun

xalq farovonligiga erishish kabi umummilliy manfaatlarni o'z mafkurasi va siyosiy faoliyatining poydevori, deb biladi. Partiya Dasturida ta'kidlanishicha, xalqimizning mustaqillik va ozodlik, tenglik va adolat, tinchlik va totuvlikka azaliy intilishlari partiya mafkurasining tabiiy sarchashmalaridir. U xalqimizga hamisha xos bo'lgan va bugun ham uning mentalitetini belgilaydigan hamjihatlik, jamoaviylik prinsiplariga tayanadi, zero ular davlat hamda jamiyat rivojlanishining hozirgi o'tish davridagi qiyinchiliklarni yengishda matonat va mardlik manbayidirlar.

Shuningdek, partiya butun jahon demokratik harakati so'l qanotida qabul qilingan TENGLIK, OZODLIK, ADOLAT, BIRDAMLIK, DEMOKRATIYA VA INSON HUQUQLARI, TINCHLIK prinsiplari hamda xalqimizga xos bo'lgan milliy va umuminsoniy gumanistik hamda demokratik qadriyatlarga amal qilishini asosiy maqsadlardan biri sifatida qabul qilgan. Partiyaning ijtimoiy ideali – O'zbekistonda sotsial demokratik davlatni bunyod etishdir. «XXI asrda kuchli O'zbekiston!» g'oyasi partiyaning bu maqsadga erishishdagi asosiy g'oyasi hisoblanadi.

Partiyaning har bir tuman, shahar, viloyat va Qoraqalpog'iston Respublikasida mahalliy tashkilotlari (kengashlari) bo'lib, ular 10150 boshlang'ich tashkilotini o'zlarida birlashtiradi. 2013-yil 1-yanvardagi holatga binoan partiyaning 378 227 a'zolari mavjud[246].

O'zbekiston XDP O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy adolat hamda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va yordamga muhtoj fuqarolari, ya'ni:

- o'z oilasini boqish uchun doimiy ish va barqaror daromadlar manbayiga ega bo'lmagan mehnatga qobiliyatli aholi;

- ishga joylashishda qiyinchiliklarga uchrayotgan va tegishli ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga muhtoj yoshlar;

- olinayotgan pensiya va ijtimoiy nafaqalar darajasi turmush kechirishi uchun yetarli bo'lmagan pensionerlar, nogironlar, ko'p bolali oilalardagi ayollar va aholining boshqa zaif qatlamlari;

- asosiy daromadni mehnatdan oladigan, ishda va mehnatga haq to'lashda talablari ish beruvchilar oldida ishonchli himoya qilinishiga muhtoj odamlar manfaatlarini ifoda etadi va himoya qiladi.

O'zbekiston XDP ularni o'z elektorati, deb hisoblaydi va ularning manfaatlarini ko'zlab davlat tomonidan ijtimoiy yo'naltirilgan siyosatning izchil yuritilishiga erishish uchun harakat

qiladi, saylov kampaniyalari davrida ishsizlik, ijtimoiy adolatsizlik va qashshoqlik bilan hech ham kelisholmaydigan barcha ezgu niyatli kishilar uni qo'llab-quvvatlashlariga umid bog'laydi[247].

O'zbekiston XDPning «O'zbekiston ovozi», «Golos Uzbekistana» gazetalari va «Muloqot» jurnali qisqa davr ichida mamlakatdagi ommaviy axborot vositalari o'rtasida katta ta'sir va mavqega ega bo'lgan markaziy matbuot nashri sifatida faoliyat ko'rsata boshladilar.

O'zbekiston «Vatan taraqqiyoti» partiyasi (VTP) 1992-yilning 24-mayida tashkil topdi. VTPning dasturida belgilanganidek, partiya jamiyatning siyosiy tizimidagi faoliyatini parlament partiyasi sifatida tashkil etadi. Partiya o'z siyosatini davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga saylangan vakillari orqali o'tkazadi. Buning uchun barcha darajadagi vakolatli hokimiyat organlari sayloviga o'z nomzodlarini tavsiya etadi va ularni saylovchilar tomonidan qo'llab-quvvatlanishi uchun kurashadi.

VTP tarkibida 2000-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar, 12 viloyat, 220 dan ziyod shahar va tuman kengashlari faoliyat ko'rsatdilar. Partiya a'zolarining soni qariyb 35 mingga yetdi. Partiyaning markaziy matbuot nashri — «Vatan» ijtimoiy-siyosiy haftalik gazetasi 2000-yil aprelga qadar faoliyat ko'rsatdi.

Mamlakatda O'zbekiston Xalq demokratik va «Vatan taraqqiyoti» partiyalarining tashkil topishi bilan bir partiyaviylik tizimiga butunlay barham berildi. Shuningdek, jamiyatdagi ijtimoiy qatlamlarning qonun chiqaruvchi hokimiyatdagi manfaatlarini ifoda etadigan siyosiy oqimlar va tashkilotlar shakllandi. O'zbekiston Konstitutsiyasidagi demokratik tamoyillar, shuningdek amalga oshirilgan huquqiy va siyosiy islohotlar mamlakatda yangi partiyalarning tuzilishiga keng imkoniyatlar yaratib berdi. 2000-yilning aprel oyida «Vatan taraqqiyoti» partiyasi «Fidokorlar» Milliy Demokratik partiyasi bilan birlashdi.

O'zbekiston «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi (ASDP) 1995-yil 18-fevralda tashkil topdi. Partiya milliy xususiyatlarni inobatga olgan holda xalqaro sotsial-demokratik harakatining asosiy negizi bo'lgan «Adolat», «Erkinlik», «Birdamlik» shiorlarini qo'llab-quvvatlashini va o'z faoliyatini o'zini o'zi boshqarish, oshkoralik va shaffoflik, qonuniylik, ko'ngillilik, partiya hayotida faol qatnashish, partiya saflariga kirish va undan chiqish erkinligi,

partiya a'zolarining teng huquqliligi asosida olib borishini e'lon qildi.

Partiya o'zining siyosiy maqsad va vazifalari sifatida quyidagilarni e'lon qildi:

Partiyaning asosiy maqsadi — demokratik, huquqiy davlatni, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan kuchli adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etishda hamda O'zbekiston hududida yashayotgan barcha millat va elatlarning umumiy manfaatlariga mos keladigan, fuqarolarning qonun oldida tengligi, konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari ta'minlangan ma'naviy jipslashgan jamiyatni shakllantirishda faol ishtirok etishdir.

Partiyaning vazifalari:

- O'zbekistonda demokratik, huquqiy davlatni va adolatli fuqarolik jamiyatini yaratish borasida demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish;

- O'zbekiston fuqarolariga o'z qonuniy huquqlari, erk va burchlarini anglashga ko'maklashish, ularning siyosiy ongi va madaniyatini oshirishda yordam ko'rsatish;

- millatlararo munosabatlarni takomillashtirish, do'stlik va hamjihatlikni rivojlantirish, har qanday millatchilik, diniy ekstremizm, terrorizm illatlariga qarshi kurash olib borish, dinlararo bag'rikenglikni, tinchlik va barqarorlikni, millatlararo totuvlikni targ'ib qilish;

- kuchli ijtimoiy siyosat olib borishga, aholining boylar va kambag'allarga keskin bo'linib ketishiga yo'l qo'ymaslikka, aholi turmush sifati ko'rsatkichlarini yaxshilashga ko'maklashish;

- iqtisodiy o'sish natijalarini aholining turli guruh va qatlamlari turmush sifati va darajasini oshirishga adolatli yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining ijtimoiy yo'nalishini chuqurlashtirishga qaratilgan faoliyatni amalga oshirish. Bu iqtisodiyot fan va texnikaning eng zamonaviy yutuqlariga, iqtisodiy jarayonlarning samarali boshqaruviga, ilg'or innovatsion tafakkurni tarbiyalovchi ta'lim tizimiga tayangan innovatsion turdagi iqtisodiyot bo'lishini ta'minlash;

- innovatsion texnologiyalar negizida sarflanayotgan energiya hajmini kamaytirish, qat'iy tejash tartibini joriy etish, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirish, qayta tiklanadigan noan'anaviy energiya manbalaridan foydalanishning asosli mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish;

- qonun ustuvorligini ta'minlash, mamlakatda sud-huquq sohasidagi keng ko'lamli islohotlarni izchil davom ettirishga, sud hokimiyati mustaqilligini yanada mustahkamlashning amaliy shakl va uslublarini ishlab chiqishga, fuqarolar huquq va erkinliklarini sudda himoya qilish samaradorligini oshirishga faol ko'maklashish;

- jamiyatda xotin-qizlarning roli va mavqeyini oshirish, ularning qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy himoyasini kuchaytirish borasida faoliyat yuritish;

- yoshlar orasida olib borilayotgan ishlar samaradorligini oshirish, ularni bu ijtimoiy qatlam bo'yicha ishlab chiqilgan davlat va partiya siyosatini amalga oshirish jarayoniga jalb etish, partiya mafkurasini qabul qilgan siyosiy yetuk yosh o'rinbosarlar avlodining shakllanishiga ko'maklashish;

- har bir fuqaroning manfaatlaridan kelib chiqqan holda davlat va jamiyat manfaatlari muvozanatini ta'minlash uchun ijtimoiy sherikchilik tizimini shakllantirishga va rivojlantirishga harakat qilish;

-davlatning milliy manfaatlariga asoslangan, mamlakatning izchil rivojlanishiga, tinchlik, barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan tashqi siyosatini qo'llab-quvvatlash;

- ilg'or ezgu niyatli va adolatlilik g'oyalariga asoslangan sotsial-demokratik partiyalar va xalqaro sotsial-demokratik harakati bilan aloqalarni faollashtirish[248].

O'zbekiston «Adolat» SDPning Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar, viloyatlarda, shuningdek, barcha tuman va shaharlarda mahalliy kengashlari faoliyat olib bormoqda. Partiya o'z saflariga 93586 (2013-y. 1-yanvar holati) a'zolarni birlashtirgan. Partiyaning markaziy matbuot nashri — «Adolat» ijtimoiy-siyosiy gazetasidir[249].

O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi (MTDP) 1995-yil 3-iyunda tashkil topdi. Partiya Dasturida uning maqsad va vazifalari quyidagilarda o'z ifodasini topgan:

- odamlarning siyosiy madaniyati, demokratik ongi va tafakkurini sifat jihatdan o'stirishning zaruriy shartlari sifatida demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va ma'naviy sohani boyitishda;

- barcha darajadagi hokimiyat va boshqaruv organlariga yuqori axloqiy, kasbiy xususiyatlarga hamda mamlakat va xalq taqdiri

uchun mas'uliyatga, yuksak vatanparvarlik tafakkuriga ega bo'lgan insonlar kelishi uchun shart-sharoitlarni ta'minlashda;

- jamoatchilikning e'tiborini mazkur muammolarga qaratish, jamoat nazoratini kuchaytirish, siyosiy partiyalar va ularning parlamentdagi fraksiyalari, shuningdek davlat hokimiyatining mahalliy vakillik organlaridagi deputatlik guruhlari vakolatlaridan keng va samarali foydalanish orqali davlat boshqaruvi organlarining faoliyatidagi ta'magirlik, korrupsiya, mahalliychilik va qarindosh-urug'chilikka, qog'ozbozlik, fuqarolarning ehtiyojlariga nisbatan loqaydlik va boshqa salbiy holatlarga barham berishda;

- fuqarolik jamiyati institutlarini yanada rivojlantirish, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning amaliy vositalari sifatida so'z erkinligini ta'minlash;

- O'zbekiston uchun an'anaviy bo'lgan axloqiy, ma'naviy va diniy qadriyatlarni qo'llab-quvvatlash va himoya qilishda;

- mahalla instituti va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishning boshqa shakllarini yanada rivojlantirishda;

- etnik va diniy mansubligidan qat'iy nazar O'zbekisonning barcha fuqarolarini yagona umummilliy maqsad, davlatchilik va umummilliy g'urur ramzlar atrofida yanada jipslashtirishda;

- jamiyat va xalq farovonligini oshirish, uning manfaatlarini turli tahdid va tajovuzlardan himoya qilishning asosi sifatida aholining barcha ijtimoiy guruhlari va qatlamlarini uzluksiz ma'naviy yuksalishi vazifalarini hal etish uchun birlashtirishda.

Shuningdek, partiya amal qiladigan asosiy siyosiy prinsiplar sifatida quyidagilar e'lon qilindi: MA'NAVIYAT, VATANPARVARLIK, UMUMMILLIY BIRDAMLIK, XALQ HOKIMIYATI, ADOLATLILIK va BAG'RIKENGLIK[250].

Partiya tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat, shahar va tuman kengashlari 176676 partiya a'zolarini (2014-y. 1-yanvar holati) birlashtirib turadi. Partiyaning matbuot nashri — «Milliy tiklanish» gazetasi hisoblanadi.

«Fidokorlar» Milliy Demokratik partiyasi (FMDP) 1998-yil 28-dekabrdagi ta'sis qurultoyida tashkil topib, 1999-yilning 3-yanvarida Adliya vazirligi ro'yxatidan o'tdi.

Partiyaning asosiy maqsadi sifatida quyidagilar e'lon qilindi: bozor iqtisodiyotiga asoslangan, mulkchilikning turli shakllari amal qiladigan jamiyatga o'tish; Partiyaning ijtimoiy ideali — bu

insonning o'z-o'zini kamol toptirish, shaxs manfaatlari uning huquq va erkinliklarini to'la darajada ro'yobga chiqarish uchun siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy shart-sharoitlarni kafolatlovchi fuqarolik jamiyatini barpo etishdir[251].

Partiyaning vujudga kelishi va faoliyat ko'rsatishidan maqsad mamlakatda yangi shakllanayotgan kichik va o'rta mulkdorlar ijtimoiy tabaqasining siyosiy manfaatlarini ifoda etishdir. Shuningdek, partiya o'z faoliyatida ko'proq yoshlarga tayanib ish olib borishi ta'kidlandi.

Partiyaning Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri, barcha viloyatlar, shaharlar va tumanlarda mahalliy organlari tuzildi. Partiya a'zolarining soni 60 mingga yetdi. Partiyaning markaziy organi sifatida «Fidokor» gazetasi ta'sis etildi[252].

2008-yil iyun oyida «Fidokorlar» Milliy Demokratik partiyasi bilan O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasining bir partiyaga birlashishiga doir tayyorgarlik ishlari amalga oshirildi. Mazkur ikki partiyaning qurultoylari o'zlarining saylovlar davrida va parlament faoliyatida o'z ta'sirlarini oshirish, elektoratning ko'proq qismini jalb etish maqsadlarida yagona partiyaga birlashdi. Tuzilgan yangi partiyaning nomi O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi deb atashga qaror qilindi. Partiyaning markaziy, mintaqaviy va boshlang'ich tashkilotlari har ikki partiya vakillaridan iborat holda qaytadan tashkil etildi. Partiya dasturi endi jamiyatdagi ko'proq ijtimoiy qatlamlar va guruhlar manfaatlarini ifoda eta boshladi.

O'zbekistonda qisqa davr ichida siyosiy partiyalarning siyosiy tizim subyektlari sifatida faoliyat ko'rsatishlari, ularning siyosiy tizimga ta'sir eta olish qobiliyatlarining shakllanishi natijasida demokratik tamoyillardagi ko'ppartiyaviylik tizimi shakllandi. Siyosiy partiyalar jamiyatning instituti sifatida har bir partiya o'zi tayangan ijtimoiy qatlamlar va guruhlar manfaatlarini birlashtirish va ifodalash, shuningdek fuqarolar siyosiy madaniyatini oshirish, ularning ijtimoiy-siyosiy faolliklarini yuksaltirish sohasida katta ishlarni amalga oshira boshladilar.

Mamlakatda parlament islohotlarining boshlanishi, ikki palatali parlamentni shakllantirish uchun huquqiy asoslarning ishlab chiqilishi munosabati bilan siyosiy partiyalarning jamiyatdagi va davlat qurilishidagi o'rni yanada yuksaldi. 2004-yil dekabrdagi parlament va mahalliy vakillik organlariga bo'lgan saylovlarda

parlamentning quyi palatasi — Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlar ko'rsatish huquqining siyosiy partiyalarga berilishi, mahalliy vakillik organlaridan parlament deputatligiga nomzod ko'rsatish huquqining bekor qilinishi munosabati bilan partiyalarning qonun chiqaruvchi hokimiyatni shakllantirish sohasidagi yangi davri boshlandi.

2003-yil 15-noyabrda O'zbekiston siyosiy tizimida yana bir siyosiy partiya — Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi tashkil topdi. Partiyani tuzish tashabbuskorlari asosan mamlakatdagi o'rta qatlam — tadbirkorlar va ishbilarmonlarning ilg'or vakillari bo'lib, partiya o'rta ijtimoiy qatlam siyosiy manfaatlari va irodalarini ifoda etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston liberal-demokratik partiyasining (O'zLiDeP) tashkil etish mamlakatda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish islohotlarining chuqurlashib borish jarayonlari tarixiy zaruriyat sifatida kun tartibiga qo'yildi.

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston liberal-demokratik partiyasining asosiy maqsadlari sifatida quyidagilar e'lon qilindi:

- siyosiy kuch sifatida birlashgan holda tadbirkor va ishbilarmonlarning yanada kengroq faoliyat yuritishlari uchun yangi imkoniyatlar ochish, ularning istiqbolini ham nazariy, ham amaliy jihatdan asoslab berish, jamiyatning ushbu tabaqasi manfaatlarini himoyalash hamda uning ertangi kunini ta'minlash;

- partiyaning kuch va imkoniyatlarini boshqa siyosiy partiya va harakatlar bilan hamkorlikda mamlakat milliy manfaatlari va taraqqiyotining strategik istiqbollariga javob beradigan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik, huquqiy davlat qurish, fuqarolik institutlarining rivojiga keng yo'l ochib berish va demokratik qadriyatlarni xalqimiz, avvalo, yoshlar ongi va hayotiga singdirishga qaratilgan harakat dasturini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish;

- partiyaning davlat boshqaruvi, jamiyatda shakllanayotgan qarashlarga ta'sir o'tkazish, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishdagi ishtirokini ta'minlash. Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyoti bilan bog'liq muammolarni hal qilish, O'zbekistonning xalqaro obro'yini oshirish, yurtimizda tinchlik

va osoyishtalikni saqlash, millatlararo va fuqarolararo ahillik va totuvlikni mustahkamlash ishida faol qatnashish. Yoshlarimizni Vatanga muhabbat va sadoqat, o'z elim, o'z yurtim, jon O'zbekistonim, deya g'ururlanib yashash ruhida tarbiyalashga munosib hissa qo'shish, har qanday sharoitda mustaqillik yo'limiz, qadriyatlarimiz, milliy va diniy an'analarimiz, urf-odatlarimizni qadrlash, shu bilan birga, barcha millat va elatlar qadriyatlarini kamsitishga yo'l qo'ymaslik, bunday xurujlarga qarshi izchil kurash olib borish;

- o'zi uchun siyosiy platforma deb tanlab olgan liberal-demokratik g'oyalar va maqsadlarni o'z faoliyati bilan keng omma ongiga singdirish, bu borada saflarini kengaytirishga yo'naltirilgan har tomonlama chuqur o'ylangan partiya siyosatini targ'ib qilish ishlarini amalga oshirish. Shu g'oyalarni hayotga tatbiq etishda fidoyilik ko'rsatgan faollarni deputatlikka nomzod sifatida tavsiya qilish va saylovchilar ishonchini qozongan deputatlar zimmasiga qonunchilik va ijro hokimiyatida vakillik vazifasini yuklash hamda ularning faoliyatini boshqarish.

O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasini tashkil etishdan asosiy maqsad mamlakatdagi mulkdorlar ijtimoiy qatlamini siyosiy kuch sifatida integratsiya qilish, ularning har birida sochilib yotgan siyosiy manfaatlarini partiya timsolida bir joyga to'plash, ana shu paydo bo'lgan katta siyosiy kuch yordamida mulkdorlarning muammolarini bartaraf etishga har tomonlama ko'maklashishga qaratildi.

Partiyaning Qoraqalpog'iston Respublikasi, barcha viloyat, shahar va tumanlarda partiya kengashlari, 7737 boshlang'ich tashkilotlari faoliyat yuritmoqda. Partiya a'zolarining soni (2013-y. 1-yanvar holatiga) 175951 taga yetdi. Ularning ichida tadbirkorlar va ishbilarmonlar tobora ko'payib bormoqda. Partiyaning bosh nashri — «XXI asr» gazetasi 2003-yil 15-noyabrdan boshlab chiqmoqda.

Shu tariqa, mamlakatda mustaqillik yillarida siyosiy partiyalarning davlat hokimiyati organlaridan mustaqil ravishda rivojlanishi va keng faoliyat ko'rsatishi uchun ijtimoiy-siyosiy kengliklar yaratildi. Shu bilan birga, Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi «qonunga muvofiq saylanadigan bir yuz ellik deputatdan iborat»[253] bo'lishi va bu qoidani O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiasida mustahkamlab qo'yilishi siyosiy partiyalarning

mamlakat qonun chiqaruvchi hokimiyatini shakllantirishdagi rolini yanada oshirdi.

Mamlakatda milliy mustaqillikning ilk davrida davlat tomonidan amalga oshirilgan islohotlar natijasi o'laroq, fuqarolik jamiyatining muhim instituti bo'lgan siyosiy partiyalarning demokratik qadriyatlar asosida faoliyat yuritishlari uchun huquqiy asoslar yaratildi. Qisqa davr ichida mamlakatda to'rtta siyosiy partiya tashkil etilib, ko'ppartiyaviylik tizimi siyosiy hayotga kirib keldi. Parlament, Prezidentlik saylovlari va mahalliy vakillik organlariga saylovlar asosan ko'ppartiyaviylik asosida o'tkazilishi an'anaga aylandi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Siyosiy partiya deganda nimani tushunasiz?
2. Siyosiy partiyalarning funksiyalari nimalardan iborat?
3. O'zbekistonda siyosiy partiyalarga doir qanday qonunlar qabul qilingan?
4. O'zbekistonda qanday siyosiy partiyalar faoliyat olib boradi?
5. O'zbekistonda siyosiy partiyalarning jamiyat va davlat boshqaruvidagi rolini oshirishga doir qanday islohotlar amalga oshirildi?

16-mavzu. AXBOROT SOHASINI ISLOH QILISH, AXBOROT VA SO'Z ERKINLIGINI TA'MINLASH

1. Axborot va kommunikatsiya vositalariga doir asosiy tushunchalar.
2. Axborot sohasini rivojlantirishda tashkiliy-huquqiy asoslarning yaratilishi.
3. Axborot sohasini isloh qilish jarayoni.

1. Axborot va kommunikatsiya vositalariga doir asosiy tushunchalar

Mamlakatda fuqarolik jamiyati qurishning eng qizg'in pallasida axborot vositalarining o'rni har qachongidan ham yuksak darajaga ko'tarildi. Ommaviy axborot va kommunikatsiya vositalari bosqichma-bosqich ravishda amalga oshirilgan islohotlar natijasida o'zida fuqarolik jamiyati institutlariga xos bo'lgan xususiyatlarni shakllantirib bormoqda. Axborotning jamiyatdagi va fuqarolar huquqlarini himoyalashdagi yuksak o'rnini Prezident I.A.Karimov quyidagicha ifodalab bergan edi: «...fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklarini ta'minlash masalasi insonning axborot olish, axborotni va o'z shaxsiy fikrini tarqatish huquqi va erkinligini o'zida mujassam etgan bo'lib, bu O'zbekistonda demokratik jamiyat asoslarini barpo etishning muhim sharti, ta'bir joiz bo'lsa, tamal toshi hisoblanadi»[254].

Umuman, axborot va kommunikatsiya vositalari to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lish uchun ularga doir tushunchalarni anglashga zarurat tug'iladi. «Axborot» tushunchasi xabar, ma'lumot ma'nolarini beradi. Xalqaro munosabatlarda keng qo'llaniladigan «informatsiya» so'zi xabardor qilish, tushuntirish, bayon qilish ma'nolarini beradi. Lekin, axborot — bu ma'lumotlar «hajmi»ning (shaklga ega bo'lgan) tuzilmalashtirilgan qismi degan tushuncha ham uchraydi.

XX asrning 50-yillariga qadar «kommunikatsiya» tushunchasi asosan ko'priklar, telefonlar, temiryo'llar, pochta xizmatiga nisbatan qo'llanilar edi. Ular har bir mamlakatni yagona bir butunlikka birlashtirar edi. Lekin, keyingi davrda OAVni, ayniqsa radio, televideniya va internetni tezlik bilan rivojlanishi natijasida — hozirgi davr jamiyatlari yanada ko'proq o'zaro munosabatlar va

muloqotlar kengligiga aylandi. Bu o'zgarishlar kishilarni bir butunlik sari yanada jipslashtira boshladi. Bu jarayonlar jamiyatni rivojlanishi va bir butunligini ta'minlaydi, bu holat ommaviy kommunikatsiya jarayoniga aylandi. «Kommunikatsiya» tushunchasi ingliz tilidan kelib chiqqan bo'lib, u «aloqa», «muomala» va «munosabat» ma'nolarini anglatadi. Siyosiy tizimda kommunikatsiya siyosiy xarakter kasb etadi, ya'ni u ommaviy siyosiy kommunikatsiya deyiladi.

Siyosiy yoki ijtimoiy kommunikatsiyaning tuzilishi – bu axborot manbasi atrofida shakllanadigan aloqalar va munosabatlardir. Shuningdek, ommaviy axborot vositalarining (OAV) rasmiy va norasmiy manbalari bir-birlaridan farqlanadilar. Axborotning rasmiy manbalari: davlat institutlari (korxona va muassasalari) – rahbariyat, turli vazirliklar, tashkilotlar rahbar vakillari yoki ular rahbarligidagi matbuot xizmatlari, jamoatchilik bilan aloqalar axborot bo'limlari.

Davlat milliy OAV: radio; matbuot; televideniya; nashriyotlar; kino.

Mustaqil va muxolifiy partiyalar va jamoatchilik harakatlari OAV: mustaqil nodavlat OAV; nodavlat radio.

Korporativ tuzilmalar: jamoatchilik guruhlari; korporativ tuzilmalar; turli harakatlar; reklama va kasbiy agentliklar;

Xorijiy OAV: misol uchun — BBS, «Amerika ovozi» radiolari; ITAR-TASS; Belta.

Norasmiy axborot manbalari: siyosiy masalalar bo'yicha harakat qilayotgan shaxslararo yoki rasmiy aloqalar, uchrashuvlar[255].

OAVning o'ziga xos belgilari:

- oshkoralik, ya'ni iste'molchilarning kimligidan qat'iy nazar va hech qanday cheklanmagan doirasi uchun tegishli bo'lgan;
- axborotlar uzatish uchun maxsus texnikaviy asbob-anjomlar va uskunalarning mavjudligi;
- kommunikatsiyaviy sheriklarning ma'lum makonda va zamonda to'g'ridan to'g'ri bo'lmagan va bo'lingan holdagi o'zaro xatti-harakatlari;
- o'zaro xatti-harakatlarning kommunikatordan retsipient sari bir tomonga yo'nalganligi, ularning rollarini o'zgartirish mumkin emasligi;
- u yoki bu maqola yoki eshittirish yoki ko'rsatuvga nisbatan paydo bo'lgan diqqat-e'tibor natijasida goh-gohida to'planib turadigan auditoriyaning o'zgaruvchanligi va yoyiluvchanligi[256].

Hozirgi davrga kelib OAV jamiyatga va insonlar ijtimoiy ongiga kuchli ta'sir etib, saylov kampaniyalarining asosiy vositasiga aylandi. OAV fuqaroviy va siyosiy arboblar o'rtasida telemuloqotlar va hokimiyatni shakllantirishning yangidan yangi usullarini yaratmoqda. OAV hattoki jamoatchi yetakchilar va siyosiy institutlar rahbarlarini sudga tortish imkoniyatlariga ham ega bo'ldilar. Lekin, bu kabi holatlar OAVni hokimiyat organlaridan haqiqatda ham mustaqil bo'lgan holda ro'y berishi mumkin. OAVning bu kabi imkoniyatlari demokratik davlatlardagina mavjud bo'ladi. Totalitar rejimlarda esa OAV fuqarolardan ajratib qo'yiladi. Bu holatni muxolifat ham o'zgartira olmaydi.

OAVning eng ommaviy turi — gazetalar eng ko'p ommaviy xarakterga ega bo'lib, ular nisbatan ko'proq ijtimoiy va siyosiy bilimlar beradi, ijtimoiy-siyosiy baholashlar va kayfiyatlarni tashiydi. O'quvchi ulardagi axborotlardan xohlaganini o'qiydi, bir axborotni qayta-qayta o'qishi mumkin, ularni har qanday joyda o'qishi mumkin. Bosma nashrdan chiqqan axborot vositalarining kamchiliklari: hodisalar va voqeliklarga nisbatan tezkorlik bilan munosabatga kirisha olmaydi va ularga tezlik bilan javob bera olmaydi, shaxslararo munosabatlarga unchalik yaqin emas, ularni ayrim shaxslar o'qiydi[257].

Elektron OAV: radio; televideniya. Ularni jamoaviy tarzda, xo'jalik ishlari bilan shug'ullangan holda ham eshitish va ko'rish, muhokama qilish mumkin. Ularning kamchiliklari: ularning har biri ba'zi axborotlarni o'ylab chiqarishi yoki to'qishi mumkin, ko'pincha obrazlar haqiqiy holatga to'g'ri kelmaydi. Televideniya esa ko'rish manzaralarini beradi. Lekin, u axborotlarni tushunib yetishga oz erkinlik beradi, axborot to'g'risida faqat xotiralar qoladi, ba'zan axborotni aniq mazmunini xotirada saqlab bo'lmaydi[258].

Xulosa qilib aytganda, siyosiy kommunikatsiya barcha turdagi siyosiy jarayonlarning muhim tasniflaridan biri hisoblanadi. Siyosiy-kommunikativ jarayonlarning yo'nalishi va ularning asosiy mo'ljallari muloqotlarga va bir-birini o'zaro tushunishga, ustunlik qiluvchi qadriyatlarga qaratilgan bo'lib, berilayotgan axborot oqimlari siyosiy tizimning barqarorlik va samaradorlik darajalarini belgilab beradi.

2. Axborot sohasini rivojlantirishda tashkiliy-huquqiy asoslarning yaratilishi

Mustaqillikning dastlabki davridan boshlab, birinchi navbatda axborot-kommunikatsiya vositalarining huquqiy asoslarini yaratishga muhim e'tibor qaratildi va bu sohadagi rivojlangan davlatlar tajribalari sinchiklab o'rganildi. Ommaviy axborot vositalarining xalqaro huquqiy asoslari — bu Inson huquqlari xalqaro umumjahon deklaratsiyasi, Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, O'zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotlar va boshqa davlatlar bilan axborot siyosatiga doir tuzgan bitim va shartnomalari hisoblanadi. Mazkur huquqiy hujjatlar axborotni izlash, olish, tarqatish jarayonlari va ommaviy axborot vositalari faoliyatini bevosita yoki bilvosita tartibga soluvchi asosiy normalardir.

1991-yilning 14-iyunida «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. Shuningdek, 1991-yilning 31-avgustida O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining e'lon qilinishi va 1992-yilning 8-dekabrida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilinishi ommaviy axborot vositalari faoliyatidagi muhim voqea bo'ldi. Konstitutsiyaning maxsus XV bobi «Ommaviy axborot vositalari» deb nomlanishining o'zi ommaviy axborot vositalari demokratik tuzumning eng muhim konstitutsiyaviy instituti ekanligining e'tirof etilishi edi. Shuningdek, OAVga katta huquqiy maqom berilishi natijasida mamlakatdagi barcha turdagi OAV demokratik qadriyatlar asosida faoliyat yuritish uchun keng imkoniyatlarga ega bo'ldilar. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 67-moddasida OAVga doir quyidagi qoida mustahkamlandi: «Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Senzuraga yo'l qo'yilmaydi»[259].

Konstitutsiyaning 29-moddasidagi quyidagi qoida O'zbekistonda OAVning demokratik qadriyatlar asosida faoliyat yuritishlarining asosiy mazmun va mohiyatini tashkil etdi: «Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega...»[260]. Shuningdek, Konstitutsiyada mustahkamlab qo'yilgan vijdon erkinligi, fuqarolarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari kafolatlari ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkin va mustaqil kechishi uchun huquqiy kengliklar yaratdi.

XX asrning 90-yillari o'rtasiga kelib mustaqil demokratik ommaviy axborot vositalarining huquqiy asoslarini shakllantirishning yangi bosqichi boshlandi. Bu davrda Oliy Majlis tomonidan ommaviy axborot vositalarining huquqiy asoslarini shakllantirish, ularning demokratik prinsiplar asosida faoliyat yuritishlarini ta'minlash bilan bog'liq qator qonunlar qabul qildi. Xususan, «Noshirlik faoliyati to'g'risida» (1996-y. 30-avgust), «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida» (1996-y. 30-avgust), «Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida» (1997-y. 24-aprel), «Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida» (1997-y. 24-aprel), «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida» (1997-y. 26-dekabr) kabi qonunlar qabul qilindi. Mazkur qonunlar mamlakatda OAVning fuqarolik jamiyati talablariga mos faoliyatlarini yo'lga qo'yish, matbuotni zamonaviylashtirish uchun huquqiy asos vazifasini bajardi.

Lekin, shu bilan birga, mazkur qonunlar ommaviy axborot vositalari faoliyatiga keng imkoniyatlar ochish bilan bir qatorda ular zimmasiga katta mas'uliyat yukladi. OAV davlatning mafkuraviy quroli sifatidagi o'ziga xos bo'lmagan vazifalardan xalos bo'lishi va jamiyatning demokratik instituti sifatida «to'rtinchi hokimiyat» funksiyalarini o'z zimmasiga olishi uchun keng shart-sharoitlar yaratildi.

Shuningdek, OAVni iqtisodiy qiyinchiliklardan va ijtimoiy himoya qilish maqsadlarida 1996-yilning noyabrida «O'zbekiston ommaviy axborot vositalarini demokratlashtirish va qo'llab-quvvatlash ijtimoiy-siyosiy jamg'armasi» ta'sis etildi. Shuningdek, OAVni jamiyatdagi o'rnini oshirish, «to'rtinchi hokimiyat»ni mamlakatdagi islohotlarga nisbatan ta'sirini kuchaytirish maqsadlarida Milliy matbuot markazi tashkil etildi. Jurnalistika sohasida kadrlar tayyorlash ishlariga ham muhim ahamiyat berildi. Bu sohaga doir O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining (1999-y. fevral) maxsus qarori qabul qilindi. Mazkur qaror asosida O'zbekiston Milliy universitetining jurnalistika va O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti xalqaro jurnalistika fakultetlari butunlay qayta tashkil etildi va ularning ta'lim bazasi mustahkamlandi. Yangi ruhdagi darsliklar, yangicha o'qitish uslublarini yaratish jarayonlari boshlandi.

XXI asr boshlaridan jamiyat siyosiy sohasini erkinlashtirish islohotlarining boshlanishi bilan bog'liq holda OAV faoliyatini demokratlashtirishga yanada muhim e'tibor berila boshlandi.

Prezident I.A.Karimov tashabbusi va maxsus Farmoni bilan 2002-yil may oyiga kelib OAV ustidan har qanday senzurani amalga oshirishi mumkin bo'lgan boshqaruv organlarining butunlay tugatilishi natijasida matbuotni erkinlashtirish sohasida yangi bir davr boshlandi. Shuningdek, ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning IX sessiyasida fuqarolik jamiyati asoslarining barpo etishda ommaviy axborot vositalarining o'rni benihoya katta ekanligi e'tirof etildi, ularga katta mas'uliyat yuklandi.

2002-yilning 3-iyulida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ommaviy axborot vositalarini boshqaruvini takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoni e'lon qilindi. Mazkur Farmonga binoan O'zbekiston Davlat Matbuot qo'mitasi O'zbekiston Matbuot va axborot agentligiga aylantirildi. Prezidentning mazkur Farmoni mohiyati ommaviy axborot vositalarini erkinlashtirish, ularning faoliyatiga davlatning aralashuvini cheklash maqsadlarini ko'zda tutgan edi. Shu davrgacha o'zining katta vakolatlaridan foydalanib norasmiy senzurani amalga oshirib kelgan O'zbekiston Davlat Matbuot qo'mitasining Matbuotda davlat sirlarini saqlash boshqarmasi faoliyati butunlay tugatildi. Davlat tomonidan OAVning erkin faoliyat yuritishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi[261].

Mamlakatda 2005-yilning boshidan OAVni rivojlantirishning yangi bosqichi boshlandi. Prezident I.A.Karimov 2005-yilning 28-yanvarida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasida OAVni mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning uzviy qismi sifatida rivojlantirish borasidagi quyidagi vazifalarni qo'ydi: «O'zbekistonda demokratik yangilanishlar jarayonini chuqurlashtirish va fuqarolarning erkinliklarini ta'minlashning g'oyat muhim sharti — bu ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish uchun demokratik andozalarni joriy etish bo'yicha aniq va izchil choralarni amalga oshirishdir»[262].

Jumladan, Prezident I.A.Karimov tomonidan OAVning iqtisodiy erkinligini ta'minlash, ularning mustaqil faoliyat yuritishi va rivojlanishi maqsadida OAVni qo'llab-quvvatlash jamoatchilik jamg'armasi tuzish, davlat televideniyasi negizida jamoatchilik televideniyasini shakllantirish, teleradio industriya bozorini rivojlantirish, tijorat va hududiy nodavlat teleradiostudiyalarning faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, zamonaviy raqamli axborot texnologiyalarini joriy etish kabi vazifalar qo'yildi[263].

Mustaqillik davrida mamlakatda OAV va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish, internet tarmog'idan samarali foydalanishga alohida e'tibor qaratildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 30-maydagi «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida»gi Farmoni, 2005-yil 16-noyabrdagi «Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi, 2005-yil 28-sentabrdagi «O'zbekiston Respublikasining jamoat axborot tarmog'ini tashkil etish to'g'risida»gi qarorlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi «Ma'lumotlar uzatish milliy tarmog'ini tashkil etish va jahon axborot tarmoqlaridan foydalanishni tartibga solish to'g'risida»gi, 1999-yil 26-martdagi «O'zbekiston Respublikasi axborot resurslarini tayyorlash va ularni ma'lumotlarni uzatish tarmoqlarida, shu jumladan, internetda tarqatish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida»gi, 2002-yil 23-sentabrdagi «Aloqa va axborotlashtirish sohasida boshqaruvni tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida»gi, 2005-yil 22-noyabrdagi «Axborotlashtirish sohasida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish to'g'risida»gi, 2005-yil 28-dekabrdagi «Ziyonet» axborot tarmog'ini yanada rivojlantirish to'g'risida»gi, 2006-yil 22-sentabrdagi «Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining jamoatchilik bilan aloqalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2007-yil 15-yanvarda «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi (yangi tahriri) qonun, 2007-yil 23-avgustdagi «Davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yuridik va jismoniy shaxslar bilan o'zaro hamkorligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2007-yil 17-dekabrdagi «Internet tarmog'ida O'zbekiston Respublikasining Hukumat portalini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari kabi me'yoriy hujjatlar amalda ochiq jamiyat qurishning huquqiy asoslari vazifasini bajardi.

Shuningdek, 2005—2006-yillar davomida O'zbekiston Respublikasining «Ommaviy axborot vositalarida davlat hokimiyati organlarining faoliyatini yoritish», «Teleradio ko'rsatuvlar va eshittiruvlar to'g'risida», «Jamoatchilik televideniyasi to'g'risida»,

«Kabel ko'rsatuvlari to'g'risida», «Ommaviy kommunikatsiyalar sohasidagi iqtisodiy asoslar to'g'risida»gi qonunlar qabul qilindi.

Shuningdek, mamlakatda axborot muhofazasini ta'minlash vazifasi me'yoriy-huquqiy hujjatlar, texnik vositalar va kriptografik algoritmlar hamda protokollar negizida yaratilgan dasturiy, apparat-dasturiy va apparat-texnik vositalarni birgalikda qo'llash bilan samarali ravishda amalga oshiriladi. Shuninig uchun ham bugungi kunda jamiyatimizning barcha sohalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini kirib borishi va rivojlanishi ta'minlash uchun qonunchilik bazasi ishlab chiqildi. «Axborotlashtirish to'g'risida» (2003-yil), «Elektron raqamli imzo to'g'risida» (2003-yil), «Elektron hujjat aylanishi to'g'risida» (2004-yil), «Elektron tijorat to'g'risida» (2004-yil), «Elektron to'lovlar to'g'risida» (2004-yil)gi qonunlar shular jumlasidandir.

Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini oshirish, davlat va jamiyat qurilishi sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanishni ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 21-martda qabul qilingan «Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada keng joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini oshirish, davlat va jamiyat qurilishi sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanishni ta'minlashda muhim rol o'ynadi.

Shuningdek, mazkur qarorga asosan 2012—2014-yillarda O'zbekiston Respublikasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada keng joriy etish va rivojlantirish dasturi qabul qilindi[264].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 27-iyundagi «O'zbekiston Respublikasining Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori mamlakatda axborot sohasini zamonaviy talablar asosda rivojlantirishga qaratildi. Mazkur Qarorga binoan, 2013—2020-yillarda respublikada telekommunikatsiya texnologiyalari, tarmoqlari va aloqa infratuzilmasini rivojlantirish dasturi tasdiqlandi. Mazkur Qaror ijrosini ta'minlash doirasida O'zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasi huzurida yangi tuzilmalar — «Elektron hukumat» tizimini rivojlantirish markazi va Axborot xavfsizligini ta'minlash markazi tashkil etildi. Ushbu markazlar

oldiga mamlakatimiz axborot resurslari, tizim va tarmoqlarini jadal rivojlantirishdek muhim maqsad va vazifalar qo'yildi.

«Elektron hukumat» tizimini rivojlantirish markazi faoliyati mamlakatimizda davlatning aholi va tadbirkorlik subyektlari bilan elektron hamkorlik tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini ishlab chiqishga qaratildi. Davlat organlarida foydalaniladigan ma'lumotlar bazasi va axborot resurslarini loyihalashtirish, ishlab chiqish va birlashtirish mexanizmini nazarda tutadigan ushbu tizimni shakllantirishga yagona texnologik yondashuvni ta'minlaydigan mazkur markaz bu boradagi jahon hamda xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganadi va ularni amaliyotga qo'llaydi.

Prezident I.A.Karimov «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»da ommaviy axborot vositalarini jamiyatdagi o'rnini quyidagicha baholadi: «Bugun biz demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish, aholining siyosiy faolligini oshirish, fuqarolarning mamlakatimiz siyosiy va ijtimoiy hayotidagi amaliy ishtiroki haqida so'z yuritar ekanmiz, albatta, axborot erkinligini ta'minlamasdan, ommaviy axborot vositalarini odamlar o'z fikr va g'oyalarini, sodir bo'layotgan voqealarga o'z munosabati va pozitsiyasini erkin ifoda etadigan minbarga aylantirmasdan turib, bu maqsadlarga erishib bo'lmasligini o'zimizga yaxshi tasavvur etamiz»[265].

Ko'rinib turibdiki, axborot-kommunikatsiya vositalari hokimiyat organlari va fuqarolar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni bog'lab turuvchi vosita vazifasini bajarishdan tashqari fuqarolarning turli manfaatlarini tashuvchi va ifoda etuvchi institut sifatida namoyon bo'ladi. Bu holat o'z-o'zidan fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faollashishiga ta'sir ko'rsatadi. Albatta, bu jarayonda fuqarolarning ijtimoiylashuvining asosiy komponentlaridan biri — fuqarolarning ijtimoiy va siyosiy ongi ham oshib boradi.

Konsepsiyada «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida»gi, «Teleradioeshittirishlar to'g'risida», «Ommaviy axborot vositalari faoliyatining iqtisodiy asoslari to'g'risida», «Ommaviy axborot vositalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash kafolatlari to'g'risida»gi qonunlarni qabul qilish taklif etildi. Mazkur «qonunlar axborot bozori ishtirokchilari faoliyati samaradorligini kuchaytirish va ularning

iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish, qo'shimcha iqtisodiy preferensiyalar yaratish va milliy axborot makonini izchil rivojlantirishni ta'minlashga qaratilgan boshqa tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni amalga oshirish» uchun keng imkoniyatlar yaratishiga muhim ahamiyat berildi[266].

Shu bilan birga, Konsepsiyada OAVning davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyati ustidan jamoatchilik va parlament nazoratini ta'minlash, hokimiyat va jamoatchilik o'rtasida mustahkam aloqa o'rnatish borasidagi rolini kuchaytirishga qaratilgan samarali huquqiy mexanizmlarni yaratish maqsadida «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida», «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida»gi va boshqa bir qator qonun hujjatlariga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritish taklif etildi. Ularda davlat va jamoat birlashmalari axborot xizmatlari, media-tuzilmalar ishini faollashtirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar ko'zda tutildi. Shuningdek, Konsepsiyada OAVning axborot olish yuzasidan murojaatlarini ko'rib chiqish muddatlarini qisqartirish, axborot olish sohasidagi qonunchilik talablarini buzganlik uchun yuridik va mansabdor shaxslarning ma'muriy javobgarligini kuchaytirish va boshqa chora-tadbirlarni ta'minlashga qaratilgan huquqiy mexanizmlarni yaratish vazifasi ham qo'yildi. Konsepsiyada, davlat boshqaruv tizimida, shu bilan birga, siyosiy modernizatsiya jarayonlarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashga imkon beradigan huquqiy asoslarni ham takomillashtirishga muhim e'tibor qaratildi.

Konsepsiyada «Telekommunikatsiyalar to'g'risida»gi Qonun normalarini yanada takomillashtirish, raqamli teleradioeshittirish tizimiga o'tish bo'yicha tadbirlar davlat dasturining ishlab chiqilish vazifalari ham belgilanib, unga muvofiq ravishda dastur raqamli teleradioeshittirishlar infratuzilmasini shakllantirish, bu boradagi faoliyatni huquqiy jihatdan tartibga soladigan samarali tizimni yaratish vazifasi ham qo'yildi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda demokratik ommaviy axborot vositalarining huquqiy asoslari yaratilishi bilan jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida ma'lum o'zgarishlar ro'y bermoqda. Matbuot sohasida jiddiy o'zgarishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar shakllandi. Davlat va jamoat tashkilotlari ommaviy axborot vositalari bilan bir qatorda xususiy matbuot tizimi yaratildi. Erkin matbuot bozori shakllandi, bozor iqtisodiyoti talablariga javob bera oladigan mustaqil nashrlar soni

kengaydi va dastlabki raqobat muhiti kurtaklari paydo bo'ldi. Matbuotning iqtisodiy asoslarini yaratish, ularning huquqiy kafolatlarini ta'minlash va mustaqil nashrlar faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratish hali milliy matbuot oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Rivojlangan demokratik davlatlar tajribasini o'rganish, muassis va tahririyat o'zaro munosabatlarini yangi bosqichga ko'tarish masalalari ham o'z yechimini kutmoqda. Muhimi, mustaqillik yillarida erkin ommaviy axborot vositalari faoliyati uchun zarur bo'lgan huquqiy, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy shart-sharoitlar shakllandi. OAVning fuqarolik jamiyati instituti sifatida rivojlanish islohotlari davom etmoqda. Hozirgi davrga xos jihatlardan biri — mamlakatda erkin matbuotni rivojlantirmay turib, fuqarolik jamiyati qurish va inson erkinligi, huquqlarini ta'minlash mumkin emasligini jamoatchilik anglay boshladi.

3. Axborot sohasini isloh qilish jarayoni

Mamlakatda bosma ommaviy axborot vositalarini har tomonlama rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ularning moddiy negizini mustahkamlash va jurnalistlarning kasbiy malakasini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlatning axborot sohasidagi siyosati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida e'lon qilingan fuqarolarning so'z erkinligi va axborot olish huquqini izchil va to'liq amalga oshirishni ta'minlashga qaratilgan.

Mamlakatda axborot sohasida davlat tashkilotlaridan tashqari jamoat, nodavlat institutlari va tuzilmalarini tuzish va rivojlantirish uchun zarur tashkiliy-huquqiy, texnik shart-sharoitlari ham yaratib berilgan. Jumladan, bu sohada O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Elektron ommaviy axborot vositalari milliy uyushmasi va boshqa qator jamoat birlashmalari o'z faoliyatini amalga oshirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondini tashkil etish to'g'risida"gi 2005-yil 16-noyabrdagi Farmoni OAVni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash borasidagi muhim qadam bo'ldi.

Fond faoliyatining asosiy maqsadi — mamlakatda mustaqil, o'zini o'zi ta'minlovchi, zamonaviy demokratik talab va

standartlarga javob beradigan bosma OAVni shakllantirish, ularning moddiy-texnika bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlash jarayonini qo'llab-quvvatlashdan iboratdir.

Shu bilan birga, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) davlat boshqaruviga joriy etish va keng qo'llash ishlari jadallashib borayotganligini hisobga olib, hukumat tomonidan 2003—2010-yillarda davlat boshqaruvida elektron texnologiyalarni joriy etish dasturi ishlab chiqildi. Mazkur dastur davlat boshqaruvida elektron hujjatlar aylanishini keng targ'ib qilish, fuqarolarga ko'rsatilayotgan xizmatlar darajasini yaxshilash va hukumat tomonidan qabul qilinayotgan qaror va qonunlarni oshkoraligini ta'minlashga qaratildi. Bu dastur mamlakatda «Elektron hukumat»ni shakllantirish yo'lidagi jiddiy islohotlarni boshlab berdi.

Dasturni amalga oshirishning birinchi bosqichida davlat boshqaruv organlarida davlat xizmatlari haqidagi ma'lumotlar (jumladan mansabdor shaxslarning qabul vaqti, xizmat telefonlari) joylashtirilgan veb sahifalari ochildi.

Ikkinchi bosqichda ma'lumotlarni to'liq jamlagan davlat organlarini saytlarda qidirish imkoniyatini beradigan ma'lumotlar bazasi tuzilib, turli murojaatlarga elektron pochta orqali javob berilishi ta'minlandi. Ular fuqarolarga davlat portaliga kirib, bir qator «interaktiv xizmatlar» orqali turli shakllarni to'ldirish imkonini berdi.

Uchinchi bosqichda moliyaviy va huquqiy xizmatlar ko'rsatish, fuqarolar va xususiy korxonalar litsenziya hamda ruxsatnoma olishi, soliq deklaratsiyasini taqdim etishi, jarima to'lashi va ijtimoiy imtiyozlar so'rab murojaat qilishlari uchun imkoniyatlar yaratildi.

Soddalashtirilgan shaklda har qanday mamlakatning ijtimoiy hayotini uch muhim subyektning (davlat, mamlakat fuqarolari, biznes subyektlari) munosabatlarini o'zaro tengligini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish, fuqarolik jamiyatiga xos munosabatlarni shakllantirish zamonaviy axborot tizimining asosiy vazifasidir. Bu munosabatlarda davlat integratsiyalovchi omil hisoblanadi.

Bunda davlatning integratsiyalovchi roli uchta tizimosti munosabatlarda namoyon bo'ladi:

- hukumat muassasalarining o'zaro va mahalliy davlat boshqaruv organlari bilan o'zaro hamkorlik qilish uchun aloqalarni tashkil etish (G2G);

- hukumat muassasalari bilan mamlakat fuqarolari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni amalga oshirish (G2C);

- hukumat muassasalari bilan biznes subyektlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni yo'lga qo'yish (G2B).

AKTni joriy etish jarayonida Davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish vazifasi quyidagi muammolarni hal etishga yo'naltiradi:

- umumiy vazifalarni hal etish maqsadida har xil hukumat tuzilmalarining samaraliroq o'zaro hamkorligini qay tarzda tashkil etish mumkin (G2G);

- fuqarolarning manfaatlarini qanday qilib eng ko'p darajada hisobga olish va tegishli Davlat muassasalarida ularga xizmat ko'rsatish sifatini qanday qilib oshirish mumkin (G2C);

Davlatning biznes subyektlari bilan o'zaro foydali munosabatlarini qanday qilib tashkil etish mumkin (G2B).

Davlat boshqaruvida AKT — bu davlat boshqaruv organlarida jami ichki va tashqi aloqalarni tegishli axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan qo'llab-quvvatlash va ta'minlash tizimidir. Bu tizimda quyidagi jarayonlar amalga oshadi:

- *kommunikatsiya tarmoqlari orqali axborotni qayta ishlash,* uzatish va tarqatishning elektron vositalari (shu jumladan Internet) asosida davlat boshqaruvini axborot kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta'minlash;

- davlat hokimiyati barcha tarmoqlari organlarining barcha toifadagi fuqarolarga elektron vositalar orqali xizmat ko'rsatishi;

- davlat organlarining ishi to'g'risida fuqarolarga elektron vositalar orqali xabar berish.

Hozirgi davrga kelib O'zbekistonda «elektron hukumat»ning samarali unsurlarini tashkil etishga doir 20 dan ortiq loyihalar amalga oshirildi. Ularning ichida eng asosiylari quyidagilardan iboratdir:

- O'zbekiston Respublikasining hukumat portali — gov.uz *jismoniy va yuridik shaxslar, turli davlat* organlari, tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari o'zaro elektron-axborot infratuzilmasi tizimini tashkil etuvchi unsurlari sifatida keng rivojlandi. Mamlakatda har qanday fuqaro yoki tashkilot vakillari o'zlari istagan vaqtda davlat hokimiyati faoliyatiga doir to'liq axborotlarni olishi yoki portal orqali har qanday darajadagi hokimiyat organiga elektron so'rovnoma bilan murojaat qila olish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Shuningdek, mazkur hukumat portalida mamlakatda Interfaol davlat xizmatining (IDX) ochilishi (reestr.uz) davlat boshqaruvida axborot texnologiyalarini qo'llash sohasidagi katta qadam bo'ldi. IDX fuqarolar, tashkilotlar, korxonalar, nodavlat notijorat tashkilotlar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, o'zini o'zi boshqarish organlari — deyarli barcha jismoniy va yuridik shaxslarga telekommunikatsiya tarmoqlari orqali axborot tizimi vositasida xizmat ko'rsata boshladi. Hukumat qarorlari asosida bu xizmatning 100 dan ortiq tayanch davlat xizmatlari tasdiqlandi. Davlat organlarida axborot texnologiyalaridan hamkorlikda foydalanish asosan ichki boshqaruv yoki ishlab chiqarish samarasini oshirishga qaratildi. Bu xizmatning uchta asosiy yo'nalishi — tadbirkorlar va investorlar (G2B), davlat organlari (G2G) hamda fuqarolar va xorijliklar (G2S) yo'nalishlari alohida va maxsus dasturlar bilan ta'minlandi. Shuningdek, xizmat ko'rsatishning quyidagi turlaridan foydalanish tajribasi o'rnatildi:

- hammabop axborotlarni e'lon qilish (tarqatish) — tegishli axborot tizimlari, jumladan, Internet orqali davlat axborot resurslari xizmatidan foydalanish:

- bir tomonlama xatti-harakat — elektron shakldagi turli hujjatlarni tarmoqqa kiritish imkoniyatini berish;

- ikki tomonlama axborot almashish — qabul qilish, tahlil (ko'rib chiqish) va so'rov bo'yicha javob berish (buyurtmalar berish, murojaatlar qilish yoki ularni ishlab chiqish natijalarini taqdim etish) kabi muassasa xizmatlari;

- elektron shakldagi to'laqonli ma'lumotlarni amalga oshirish, jumladan, ularni taqdim etish va xizmat haqini to'lash.

Bu jarayonning samarasini oshirish, jamiyatdagi voqeliklar va hodisalarni e'tiborga olish maqsadida, shuningdek o'zaro xatti-harakatlar imkoniyatlari sifatida «rasmiy veb-saytlardan foydalanuvchilar fikrlarini birlashgan forum maydoni va forumda o'rganishni ta'minlash, forumdagi muhokamalarga axborot xizmatlari vakillarini jalb etish» yo'lga qo'yildi.

Hukumat portalining (GOV.UZning) 3500 dan ortiq ishtirokchilaridan 20 dan ortig'i ommabop resurs ekanligi bilan ajralib turadi. Unda 100 dan ortiq mavzuga doir bo'limlari, 10 dan ortiq yangi servis va xizmatlar doimiy ravishda ishlab turadi. Keyingi o'n yillikda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, Vazirlar Kengashi, Toshkent shahar va viloyatlar hokimliklarining barchasi Internet tarmog'iga ulanib, ular uchun

maxsus veb-saytlar ochildi. Fuqarolarning bu saytlarga kirishlari uchun zarur bo'lgan imkoniyatlar yaratildi. Ayniqsa, hukumat portalining (GOV.UZ) o'rnatilishi fuqarolarning markaziy davlat hokimiyati organlariga murojaat qilishlari, muloqotga kirishlari uchun shart-sharoitlar yaratdi.

«E-Kommunal.uz» portali — uy-joy kommunal xo'jaligi (UKX) sohasida umumiy axborot infratuzilmasi sifatida kommunal xizmat, uy-joy egalari shirkati, nazorat organlari va aholining o'zaro axborot almashishini ta'minlab, bu sohadagi boshqaruv faoliyatini rivojlantirish omili sifatida namoyon bo'lmoqda.

Bu portalda qulay tarzda O'zbekiston uy-joy va kommunal xizmati, shuningdek, barcha kommunal xizmatlarning interfaol kalkulyatorlari va tariflariga doir axborotlar joylashtirilgan bo'lib, ular muttasil ravishda yangilanib turadi. Har bir fuqaro portalga o'zining rasmi, o'zi to'g'risidagi ma'lumotlarni, kommunal xo'jaligi sohasidagi muammolarni joylashtirishi mumkin. Bu axborotlar tegishli organlar tomonidan ko'rib chiqilib, muammolarni o'rganib, ularning yechimini topish bilan shug'ullanishlari uchun qulay sharoitlar yaratilgan.

Tadbirkorlik subyektlaridan elektron shaklda moliyaviy va boshqa hisobotlarni olish, ularga doir statistik ma'lumotlarni qayta ishlab chiqish tizimini avtomatlashtirish (stat.uz, soliq.uz) ham yildan yilga rivojlanib bormoqda. Unda Davlat soliq qo'mitasining sayti joylashgan bo'lib, har qanday fuqaro maslahatlar olishi mumkin, soliq hisobotlari, deklaratsiyalar va boshqa soliq tizimiga tegishli hujjatlarni elektron shaklda yuborishi, ularning javoblarini olishi mumkin.

Shuningdek, elektr energiyasi iste'molchilari uchun uzbekenergo.uz, xorijiy fuqarolarning viza olishlari uchun mfa.uz, litsenziyalar uchun yagona portal license.uz kabilarning ochilishi, unda faoliyat ko'rsatish, ruxsat olishga doir axborotlarning joylashtirilganligi davlat va boshqa darajadagi boshqaruv tizimlarida byurokratiyani kamaytirishga, aholi uchun dolzarb bo'lgan muammolarni tezlik bilan aniqlab, ularga nisbatan tegishli choralar ko'rishga shart-sharoitlar yaratadi[267].

O'zbekistonda Internetga ulanish va uning xizmatlaridan foydalanish keng ko'lamda asosan 1997-yildan boshlandi. Dastlab Naytov (http: www.naytov.com), O'znet (http: www.uz.net yoki http: www.eastlink.uz) kabi provayd-kompaniyalari faoliyat ko'rsata boshladi. XXI asr boshlaridan O'zbekistonda kompyuterlashtirish

(ayniqsa, davlat muassasalari, ta'lim tizimi, tijorat tashkilotlarida), shaxsiy kompyuterlar va zamonaviy elektron aloqaning turlari (peydjer, uyali aloqa) va optik tolali liniyalar tezlik bilan rivojlana boshladi.

Xalqaro Internet tizimida O'zbekiston to'g'risida, mamlakatdagi turli idoralar va muassasalar, kompaniya va firmalar, ta'lim tizimi (universitetlar, ilmiy-tadqiqot institutlari va boshq.), tijorat tashkilotlari, bank, moliya, sug'urta tuzilmalari va boshqalar to'g'risida ma'lumotlar mavjuddir. Maxsus rasmiy varaqchalarda O'zbekiston hukumati, O'zbekistondagi elchixonalar (AQSh, Buyuk Britaniya, Turkiya, Rossiya va boshq.) va boshqa ko'plab mamlakatlar to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Ayni vaqtda, O'zbekistonga tegishli shaxsiy varaqchalar ham mavjud: «Umid» varaqchasi, «O'zbek estradasi», O'zbekiston televideniyasining «Axborot» dasturi (2000-yildan boshlab) kabilar rivojlanib va takomillashib bormoqda.

O'zbekistondagi yirik kutubxonalar – Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, O'zbekiston FAning Fundamental kutubxonasi, Tibbiyot kutubxonasi, Respublika ilmiy-texnika kutubxonasi kabilarning barchasi Internet tizimiga ulangan bo'lib, ular aholini axborotlar resurslari bilan ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda.

O'zbekistonning barcha mintaqalarida (viloyat va tumanlarida) xalqaro Internet tarmog'iga ulanish «O'zPAK» Davlat kompaniyasining xalqaro kanallari orqali amalga oshirilmoqda. Mamlakatda Internet tizimidan foydalanuvchilar safi jadal sur'atlar bilan kengayib bormoqda. 2002-yilda bor-yo'g'i 300 mingdan ortiq Internet tizimidan foydalanuvchilar bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda ularning soni 6 milliondan ortib ketdi.

Xususan, nodavlat ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash, ularning moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlash maqsadida bir qancha jamoat tashkilotlari tashkil qilindi. O'z tarkibida 100 dan ortiq elektron ommaviy axborot vositalarini birlashtirgan Nodavlat elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi, shuningdek, O'zbekiston mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi shular jumlasidandir[268].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 16-apreldagi «O'zbekiston Respublikasida «Elektron ta'lim» milliy tizimini yaratish» investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari

to‘g‘risida»gi PQ-1740-sonli qarorini amalga oshirishni ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 25-iyulda «O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzurida ta’lim muassasalarida elektron ta’limni joriy etish markazini tashkil etish to‘g‘risida»gi 228-sonli qarori qabul qilindi.

Bu qaror o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini ta’minlash, shuningdek, oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida yuqori texnologik darajada o‘quv jarayonini tashkil etish uchun elektron o‘quv-metodik va axborot-kutubxona resurslari, axborot tizimlari shakllantirilishini ta’minlovchi yagona organni tashkil qilishga qaratildi. Mazkur qarorga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda O‘zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligining O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzurida Ta’lim muassasalarida elektron ta’limni joriy etish markazini tashkil etish to‘g‘risidagi taklifi qabul qilindi.

Prezident I.A. Karimov tashabbusi bilan axborot sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini hayotga keng joriy etish va yanada rivojlantirish imkonini bera boshladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 27-iyunda qabul qilgan «O‘zbekiston Respublikasining Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori bilan tasdiqlangan 2013–2020-yillarda O‘zbekiston Respublikasi telekommunikatsiya texnologiyalari, tarmoqlari va aloqa infratuzilmasini rivojlantirish dasturining qabul qilinishi mamlakatimizda axborot resurslari, tizimlari va tarmoqlarini yanada jadal rivojlantirishga shart-sharoitlar yaratdi.

Hozirgi umumjahon axborot globallashuvi jarayonlari axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini nafaqat davlat boshqaruvi va iqtisodiyoti, balki axborot tizimlari xavfsizligini ta’minlashda ham keng qo‘llashni taqozo etmoqda. O‘zbekiston axborot va kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi xalqaro xavfsizlik tizimiga Markaziy Osiyoda birinchilardan bo‘lib qo‘shildi. Mamlakat Prezidentining 2005-yil 5-sentabrda qabul qilingan «Milliy axborot-kommunikatsiya tizimlarining kompyuter xavfsizligini ta’minlash borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qaroriga binoan «Uzinfocom» kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish hamda joriy etish markazi huzurida

«UZ-CERT» kompyuter hodisalariga chora ko'rish xizmati tashkil qilindi. Bu xizmat asosida Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasi huzurida Axborot xavfsizligini ta'minlash markazi tuzildi.

Bu markazning asosiy maqsadi «Elektron hukumat» tizimi ma'lumotlar bazasi, resurslari va axborot tizimlari kompleksining axborot xavfsizligini ta'minlash, davlat organlarining tegishli resurs va tizimlarining axborot xavfsizligi siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishga ko'maklashishdan iboratdir.

Markaz axborot xavfsizligining zamonaviy tahdidlari haqida ma'lumotlar to'plash va tahlil qilish, «Elektron hukumat» tizimi ma'lumotlar bazasi, resurslari va axborot tizimlari kompleksiga noqonuniy kirishga oid harakatlarning oldini olishga qaratilgan tashkiliy va dasturiy-texnik qarorlar qabul qilish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish faoliyati bilan shug'ullanadi. «Elektron hukumat» tizimining axborot xavfsizligini ta'minlash sohasidagi me'yoriy-huquqiy bazani, shuningdek, milliy internet segmentini takomillashtirish borasida takliflar ishlab chiqish ham markaz faoliyati yo'nalishlaridan biridir[269].

Mamlakatda «Elektron hukumat» tizimini rivojlantirish markazi va Axborot xavfsizligini ta'minlash markazining tashkil etilishi hamda ularning o'zaro hamkorligi O'zbekistonda milliy axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirishning muhim bosqichi bo'ldi.

2014-yilga kelib esa mamlakatda 1400 ta ommaviy axborot vositasi faoliyat ko'rsata boshladi. Ularning 62 foizi nodavlat ommaviy axborot vositalaridir. Hozirgi davrga kelib mamlakat ommaviy axborot vositalari mamlakatimiz hamda dunyoda ro'y berayotgan voqea-hodisalarni keng yorita boshladi, aholi tafakkurini shakllantirish, huquqiy ongi va madaniyat darajasini yuksaltirishda bevosita ishtirok etmoqda. Shuningdek, ular fikrlar xilma-xilligini ta'minlashga ko'maklashmoqda. Bu esa mamlakatimizni demokratlashtirish va jahon axborot makoniga integratsiyalashtirish sharoitida nihoyatda muhimdir.

Shuningdek, O'zbekiston mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo'llab quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi tashkil etilganidan buyon o'tgan vaqt davomida mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari faoliyatini rag'batlantirish bo'yicha yuzlab loyiha ishlab chiqilib, amalga

oshirildi. Bu borada 900 dan ziyod bosma va veb-nashrlar tahririyatlari hamda 4 ta axborot agentligi bilan faol hamkorlik yo'lga qo'yildi. Ommaviy axborot vositalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, mamlakatimizni demokratlashtirish va modernizatsiya qilish jarayonlarini yoritishda ular ishtirokini faollashtirish uchun fond tomonidan yuzdan ortiq bosma va internet-nashrlarga grantlar ajratildi.

O'zbekistonda internet jurnalistikasining jadal rivojlanayotgani zamon talabi bo'lib, bu yurtimizda global tarmoq ham shiddat bilan taraqqiy etib borayotganidan dalolatdir. Agar 2010-yilda milliy domenda 10 ming veb-sayt ro'yxatga olingan bo'lsa, 2014-yilda ularning soni ikki barobar ko'paydi[270]. Provayderlarni texnik jihozlashni bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish, internet trafikni kuchaytirish va hajmini oshirish inobatga olingan holda, aholining global tarmoqdan foydalanish sharoitlari tobora takomillashib bormoqda.

Mustaqillik davrida axborot sohasini isloh qilishga doir amalga oshirilgan tub o'zgarishlar ommaviy axborot vositalarini fuqarolik jamiyati tizimidagi o'rnini mustahkamlashga, fuqarolarning so'z erkinligini ta'minlashga qaratilgan konstitutsiyaviy huquqlarini ro'yobga chiqarishdan tashqari aholini jamiyat va davlat boshqaruvida, siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida faol ishtirok etishlarini va jamiyatda o'z erkinliklarini amalga oshirishlarini ta'minlashlariga ko'maklashadi.

Takrorlash uchun savollar:

1. «Axborot» deganda nimani tushunasiz?
2. Kommunikatsiya nima?
3. O'zbekistonda axborot sohasini rivojlantirishga doir qanday qonunlar qabul qilingan?
4. O'zbekistonda mustaqillik davrida axborot sohasini rivojlanishi qanday kechdi?
5. Mamlakatda «Elektron hukumat» tizimini barpo etishga doir qanday islohiy chora-tadbirlar amalga oshirildi?

17-mavzu: O'ZBEKISTONNING JAHON HAMJAMIYATI BILAN HAMKORLIGIDA DEMOKRATIK TAMOYILLARGA ASOSLANISHI

1. O'zbekiston tashqi siyosatining demokratik tamoyillari.
2. O'zbekiston — BMT o'zaro munosabatlarini rivojlanishi.
3. O'zbekistonning Amerika mamlakatlari bilan hamkorligi.
4. O'zbekiston — Yevropa Ittifoqi mamlakatlari hamkorligi.
5. O'zbekiston va Mustaqil davlatlar hamdo'stligi.

1. O'zbekiston tashqi siyosatining demokratik tamoyillari

O'zbekiston mustaqillik davriga kelib mustaqil ravishda tashqi siyosat yuritish huquqiga ega bo'ldi. Sobiq sho'rolar davrida O'zbekistondagi tashqi ishlar vazirligi faqat nomigagina tuzilgan bo'lib, u hech qanday tashqi siyosat va faoliyat olib borish huquqiga ega emas edi. Bu haqda Prezident I.A.Karimov quyidagi fikrlarni bildirgan edi: «O'zbekiston Respublikasi uchun mustaqil tashqi siyosat yuritish — davlat faoliyatining yangi va amalda qo'llanilmagan yo'nalishlaridan biridir. Yakkahokimlik tizimi sharoitida O'zbekiston xalqaro maydonga to'g'ridan to'g'ri va ochiq chiqish imkoniyatidan mahrum etilgan bo'lib, o'zining tashqi siyosiy davlat idoralariga, yetarlicha diplomatlariga va tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi mutaxassislariga ega emas edi»[271].

O'zbekiston Respublikasining mustaqil tashqi siyosiy faoliyatining huquqiy asoslari, prinsiplari, mazmuni, maqsad va vazifalari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining IV bobidagi 17-moddada o'z ifodasini topdi. Bu moddaga muvofiq, «O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi. Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzish, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin»[272]. Shuningdek, Konstitutsiyaning 93-moddasida mamlakat Prezidentining tashqi siyosat sohasidagi vakolatlari belgilab qo'yilgan[273].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov o'zining «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» va boshqa asarlarida mustaqil tashqi siyosat yuritish prinsiplarini nazariy va amaliy jihatlardan asoslab berdi. Istiqlolning ilk yillaridan boshlab tashqi aloqalar muassasalari tomonidan xorijiy davlatlar bilan xalqaro aloqalarning umum e'tirof etilgan qoida va normalari asosida respublikaning diplomatik faoliyati turli yo'nalishlarda olib borildi. Bu birinchidan, siyosiy munosabat va iqtisodiy aloqalar; ikkinchidan, ilmiy-texnikaviy aloqalar; uchinchidan, madaniy aloqalar, turizm, sport va boshqa sohalardagi xalqaro aloqalardir. Respublika tashqi siyosatiga tinchlik, barqarorlik, hamkorlik yo'li asos qilib olindi.

O'zbekiston Respublikasi hukumatining o'z milliy tashqi siyosatining tamoyillari asosida amalga oshirgan faoliyati natijasida qisqa davr ichida deyarli barcha davlatlar O'zbekistonni mustaqil mamlakat sifatida tan oldi, ularning ko'pchiligi bilan rasmiy diplomatik munosabatlar o'rnatildi.

Prezident I.A.Karimov tomonidan mustaqillikning dastlabki davridayoq — 1992-yilda O'zbekiston tashqi siyosatining quyidagi asosiy prinsiplari ishlab chiqildi:

Birinchisi. O'zining milliy-davlat manfaatlari ustun bo'lgani holda o'zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olish. Bizning mustaqil davlatimiz biron-bir buyuk davlatning ta'sir doirasiga tushib qolish niyatida emas. O'zbekiston yana kimgadir bo'ysunish uchun mustaqil bo'lgani yo'q.

Ikkinchisi. Respublika odamlar va davlatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda umumbashariy qadriyatlarni ustun qo'yib, xalqaro maydonda tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash uchun, mojarolarni tinch yo'l bilan hal etish uchun kurashadi. O'zbekiston yadrosiz mintaqa bo'lib qoladi, tajovuzkor harbiy bloklar va uyushmalarga kirish niyati yo'q. Inson huquqlari to'g'risidagi, hujum qilmaslik haqidagi, nizoli masalalarni hal etishda kuch ishlatishdan va kuch ishlatish bilan tahdid qilishdan voz kechish to'g'risidagi Xalqaro hujjatlarni tan oladi va ularga og'ishmay rioya qiladi.

Uchinchisi. Respublikaning tashqi siyosati teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalari asosida quriladi. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligida, butun tashqi siyosatda ham bizning shiorimiz —

tenglar orasida teng bo'lish, «katta og'a»ning qosh-qovog'iga qarab ish tutishdan uzil-kesil va abadul-abad xalos bo'lishdir.

To'rtinchisi. Mafkuraviy qarashlardan qat'iy nazar tashqi siyosatda ochiq-oydinlik prinsipini ro'yobga chiqarishga va barcha tinchliksevar davlatlar bilan keng tashqi aloqalarni o'rnatishga intiladi.

Beshinchisi. O'zining milliy-huquqiy tizimini vujudga keltirayotgan yosh mustaqil O'zbekiston ichki milliy qonunlaridan xalqaro huquq normalarining ustuvorligini tan oladi. Bizning mustaqil davlatimiz o'z qiyofasini yo'qotmay, jahon hamjamiyatiga kirar ekan, xalqaro talablarga rioya qilishga tayyordir.

Oltinchisi. O'zbekiston to'la ishonch prinsiplari asosida ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama tashqi aloqalarni o'rnatish va rivojlantirish uchun, xalqaro tashkilotlar doirasida hamkorlikni chuqurlashtirish uchun harakat qiladi.

O'zbekiston o'zining tashqi siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda yuqorida aytib o'tilgan prinsiplarga qat'iy rioya qiladi, ularni boyitib va kengaytirib borib, tashqi siyosiy hamda tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy yo'nalishlarini qat'iyat va izchillik bilan turmushga tatbiq etadi[274].

Mustaqillikning ikkinchi o'n yilligiga kelib jahondagi globallashuv jarayonlari, jahon moliyaviy va iqtisodiy inqirozi, turli mintaqalarda ro'y berayotgan urushlar va tang holatlarni bartaraf qilishga doir og'ir va mashaqqatli davrda ham O'zbekiston o'zining tinchliksevar tashqi siyosatini demokratik qadriyatlar asosida rivojlantirib bordi. Bu davrda davlat O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy strategik maqsadlari va vazifalari Prezident I.A.Karimovning turli nazariy qarashlari va ma'ruzalarida yanada rivojlantirildi.

Mamlakat tashqi siyosatining asosiy maqsadi davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, milliy manfaatlarni himoya qilish, mintaqada xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash, O'zbekistonning barqaror rivojlanishi uchun qulay tashqi iqtisodiy va siyosiy shart-sharoitlarni yaratish, mamlakatning xalqaro maydondagi obro'sini oshirishga qaratildi.

Prezident I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010-yil 27-yanvardagi qo'shma majlisida so'zlagan nutqida tashqi siyosatning asosiy vazifalarini quyidagicha ifodalab berdi: «Mintaqamizda va butun

dunyoda yuzaga kelayotgan murakkab geosiyosiy sharoitda bizning zimmamizda mamlakatimizning xavfsizligi va barqarorligini ta'minlash, shu muqaddas zaminimizda hukm surayotgan tinch-osoyishta hayotni saqlash kabi bir-biridan mas'uliyatli va keng ko'lamli bir qator vazifalar borki, yurtimizning, jondan aziz farzandlarimizning bugungi va ertangi kuni ana shu masalalarni qanchalik muvaffaqiyat bilan hal etishimizga bog'liqdir».

Umuman, bu davrga kelib, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishning «O'zbek modeli» asosidagi islohotlarni chuqurlashtirish jarayonida davlatimiz tashqi siyosatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat holda belgilandi:

- birinchidan, yaqin va uzoq davlatlar bilan o'zaro manfaatli va teng huquqli hamkorlik munosabatlarini har tomonlama rivojlantirish va mustahkamlash. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga asta-sekin va har tomonlama integratsiyalashishida, siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy, ilmiy-texnikaviy va boshqa sohalarda ochiq va konstruktiv xalqaro hamkorlikni amalga oshirishda ikki tomonlama va ko'p tomonlama diplomatiya mexanizmlaridan samarali foydalanish;

- ikkinchidan, O'zbekiston rahbariyatining mintaqaviy va xalqaro siyosatning dolzarb yo'nalishlari xususidagi, jumladan, «Afg'onistondagi vaziyatni tinch yo'l bilan hal etish bo'yicha «6+3» muloqot guruhini tuzish, «Markaziy Osiyo — Fors qo'ltig'i» transport-tranzit yo'lini tuzish, mintaqadagi transchegaraviy daryolarning suv resurslaridan oqilona foydalanish va boshqa xalqaro tashabbuslarini ilgari surish;

- uchinchidan, Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlash, mintaqani barqaror xavfsizlik hududiga aylantirish bilan bog'liq siyosiy-diplomatik va xalqaro-huquqiy masalalarni hal etish. Uzoq va yaqin davlatlar bilan munosabatlarda siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, millatlararo va boshqa muammoli ziddiyatlarni o'z vaqtida oldini olish, mojaroli vaziyatlar va boshqa salbiy holatlarning avj olishiga yo'l qo'ymaslik uchun diplomatik choralar ko'rish;

- to'rtinchidan, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan chuqur demokratik islohotlarni, jamiyatni va iqtisodiyotni modernizatsiyalashning dinamik jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun qulay tashqi siyosiy sharoitlarni yaratish. Jahondagi mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarni muntazam

rivojlantirish, milliy iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlariga to'g'ridan to'g'ri chet el sarmoyalarini va ilg'or texnologiyalarni jalb qilish bilan bog'liq siyosiy-diplomatik va xalqaro-huquqiy masalalarni amalga oshirish;

- beshinchidan, jahon hamjamiyatida O'zbekiston tashqi va ichki siyosatining asosiy jihatlarini aks ettiradigan, uning xalqaro tashabbuslarining mazmun va mohiyatini ifodalovchi obyektiv va ishonchli ma'lumotlarni tarqalishiga erishish.

Prezident I.A.Karimovning tashabbusi bilan 2012-yil sentabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi»da O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy prinsiplari sifatida quyidagilar belgilandi:

- dunyoda tinchlik va xavfsizlikni saqlashga hamda umume'tirof etilgan xalqaro norma va prinsiplarga rioya etishga sodiqlik;

- mafkuraviy qarashlardan qat'iy nazar hamkorlik uchun ochiqlik;

- teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, davlatlarning suvereniteti, hududiy yaxlitligi, chegaralar daxlsizligi, ichki ishlarga aralashmaslik, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid solmaslik.

O'zbekiston pragmatik, oqilona va maqsadga muvofiq siyosat yuritish tarafdori bo'lib, tashqi siyosat maqsad va vazifalari davlatning uzoq muddatli manfaatlariga, uning resurslari va salohiyatiga mos kelishi prinsiplariga sodiq qoladi.

O'zbekistonning jahon xalqlari tinchligi va xavfsizligiga mos bo'lib tushgan tinchliksevar tashqi siyosati, uni jahonda mustaqil davlat sifatida tezda tan olinishini ta'minladi. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini 165 ta davlat tan oldi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi jahonning 142 davlati bilan diplomatik aloqalarni o'rnatdi. Toshkentda 43 ta mamlakatning elchixonalari, 3 ta savdo vakolatxonasi (Vengriya, Belgiya, AQSh savdo palatasi), 10 ta xalqaro tashkilotning vakolatxonasi[275] ishlab turibdi. Mamlakatimizda 7 ta faxriy konsullar ishlab kelmoqda. O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi elchixonalarining soni esa 30 tani tashkil etadi. Shuningdek, 11 ta bosh konsulxonasi mavjud. Respublikada 88 ta xorijiy mamlakat vakolatxonalari akkreditatsiya qilingan. O'zbekiston 41 ta nufuzli xalqaro iqtisodiy va moliya tashkilotlarining teng huquqli a'zosi. Hozirda ulardan beshtasining vakolatxonasi respublikada faoliyat ko'rsatmoqda.

2. O'zbekiston — BMT o'zaro munosabatlarini rivojlanishi

O'zbekiston Respublikaning mustaqil davlat sifatida xalqaro hamjamiyati doirasida munosib o'rin olishida xalqaro nufuzli tashkilotlarga a'zo bo'lishi va ular bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yishi muhim ahamiyat kasb etadi. 1992-yil 29-yanvarda BMTning Xavfsizlik Kengashi o'zining 737-sonli Qarorida O'zbekiston Respublikasini Bosh Assambleyaga BMTga qabul qilishni ko'rib chiqishni tavsiya etdi. 1992-yil 2-martda BMT Bosh Assambleyasining 46-sessiyasida O'zbekiston Respublikasi yakdillik bilan ma'qullash asosida BMTga qabul qilindi[276]. Shu kuni BMT Bosh Assambleyasi binosi oldida O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i ko'tarildi. 1993-yil 24-avgustda BMTning Toshkentdagi vakolatxonasi ochildi. BMTda O'zbekiston Respublikasi vakolatxonasi ish boshladi[277].

O'zbekiston BMTning to'laqonli a'zosi sifatida bu tashkilotning turli anjumanlari va yig'ilishlarida faol ishtirok eta boshladi. Bu jarayonda O'zbekiston o'zining tinchliksevar siyosati bilan tanildi. O'zbekiston rahbariyatining dunyodagi global muammolarni hal etishga jahondagi barcha davlatlar rahbarlari e'tiborini jalb etishi mamlakat tashqi siyosatining tinchliksevar xarakterini yanada kengroq namoyish etdi. Chunonchi, 1993-yil 28-sentabrda Prezident I.A.Karimov BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida bu yuksak tashkilot minbaridan turib so'zlagan nutqida bir qator konstruktiv takliflarni ilgari surdi:

- Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik masalalari bo'yicha BMTning doimiy ishlovchi seminarini chaqirilishini;
- BMT Xavfsizlik Kengashi huzurida yuzaga kelayotgan mojarolarni tahlil qilish va istiqbolini belgilash bo'yicha maxsus guruh tuzish;
- Markaziy Osiyoni yadrosiz zona deb e'lon qilish;
- Markaziy Osiyo mintaqasida kimyoviy hamda bakteriologik qurolni ta'qiqlash bo'yicha xalqaro nazorat o'rnatish;
- Yadroviy qurolni tarqatmaslik;
- Markaziy Osiyoda narkobiznesga qarshi hamkorlikda kurashish uchun BMTning mintaqaviy komissiyasini tuzish;
- Orol muammosi bo'yicha BMTning maxsus komissiyasini tuzish;

- Xavfsizlik Kengashi hozirgi dunyoning ijtimoiy-iqtisodiy, etnik-madaniy, diniy, ma'naviy jihatdan g'oyat xilma-xilligini bab-baravar tarzda aks ettirsin[278].

Albatta, bu ilgari surilgan tashabbuslarning aksariyati jahon hamjamiyati tomonidan qabul qilinib, ularni amalga oshirish jarayonlari davom etdi. O'zbekiston davlati rahbarining takliflari va tavsiyalari BMTning ko'plab qarorlarida o'z aksini topdi.

1995-yilning 24-oktabrida Nyu-Yorkda BMT ning 50 yillik yubileyi munosabati bilan bo'lib o'tgan Bosh Assambleyaning maxsus tantanali yig'ilishida Prezident I.A. Karimov nutq so'zladi. U o'z nutqida Afg'onistonda uzoq davom etgan birodarkush urush afg'on xalqi boshiga misIsiz kulfatlar solganligiga anjuman ahli e'tiboriga havola etish asnosida urushni to'xtatishga doir qator konstruktiv takliflarni ilgari surdi:

- Afg'onistondagi keskinlikni hal etish uchun avvalo tashqi kuchlarning aralashuvini bartaraf etish;

- BMT xavfsizlik Kengashi Afg'onistonga qurol olib kirishni kimligidan qat'iy nazar ta'qiqlab qo'yish;

- Afg'oniston urushlarning emas, balki tinchlik va barqarorlik obyekti bo'lishi lozim[279].

Shu bilan birga, mazkur yig'ilishda xalqaro maydondagi ixtiloflarni kuchayishi, urushlarni oldini olishni samarali tarzda hal etish, BMTning xalqaro maydondagi ta'sirini kuchaytirish maqsadlarida Prezident I.A.Karimov BMT tuzilmalarini isloh qilish, uning faoliyati samaradorligini oshirishga doir quyidagi takliflarni ilgari surdi:

- birinchidan, BMT Xavfsizlik Kengashi safini kengaytirish, unga misol uchun bugungi kunda jahon siyosatida muhim o'rin egallagan Germaniya va Yaponiya singari davlatlarni doimiy a'zo sifatida kiritish lozim;

- ikkinchidan, BMT qabul qilgan qarorlarni tezkorlik bilan amalga oshirish uchun BMT Bosh Kotibi vakolatlarini kuchaytirish lozim;

- uchinchidan, ziddiyatli vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish manfaatlarini ko'zlab, BMTning xalqaro mintaqaviy tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlarini kuchaytirish zarurligi, bu tashkilotning o'ziga qarashli mintaqaviy tuzilmalarini yanada rivojlantirish zarurligi[280].

Yangi asr boshlariga kelib O'zbekistonning xalqaro maydondagi faolligi yanada kuchaydi. Turli mintaqaviy va lokal

ziddiyatlar va urushlarga barham berishda O'zbekiston davlatining nuqtayi nazari e'tiborga olina boshlandi. 2000-yil 8-sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 55-sessiyasi bo'lib o'tdi. Mazkur «Mingyillik sammiti» muhim global da'vatlarga e'tiborni qaratish uchun 189 ta mamlakat rahbarlari ishtirokida o'z ishini boshladi. Ana shu yuksak sammit minbarida Prezident I.A.Karimov nutq so'zlab, unda ekologik xavfsizlik sohasidagi xalqaro hamkorlikka ko'mak berish, xalqaro tuzilmalar va donor davlatlarning moliyaviy mablag'larini jalb etish maqsadida BMTning atrof-muhit bo'yicha dasturi huzurida Orol va Orolbo'yi muammolari kengashini tuzishni taklif qildi.

2000-yil 8-sentabrda BMT tomonidan «Mingyillik Deklaratsiyasi» qabul qilindi. Deklaratsiya XXI asrga mo'ljallangan Global kun tartibini belgilab berdi hamda Mingyillik rivojlanish maqsadlari (MRM) sifatida sakkizta aniq maqsad va ularga erishishga doir vazifalarni ilgari surdi. «Mingyillik Deklaratsiyasi» jahondagi yetakchilarini kelajakka intilishga doir qarorlarini aks ettirib, u 2015-yilgacha bo'lgan davr uchun rivojlanishning yo'l xaritasini ilgari surdi.

O'zbekiston Respublikasi mamlakatdagi ijtimoiy holatni, aholi turmush tarzini va rivojlanish darajasining yuqoriligini hisobga olgan holda Mingyillik maqsadlarini quyidagicha shakllantirdi:

1-maqsad. Kam ta'minlanganlikni va qoniqarsiz oziqlanishni qisqartirish.

2-maqsad. Boshlang'ich va o'rta maktablarda ta'lim sifatini oshirish.

3-maqsad. Ayollar va erkaklar tengligini rag'batlantirish hamda ayollarning huquq va erkinliklarini kengaytirish.

4-maqsad. Bolalar o'limini qisqartirish.

5-maqsad. Onalar salomatligini yaxshilash.

6-maqsad. OIV/OITSga, sil kasalligiga va bezgakka qarshi kurash.

7-maqsad. Ekologik barqarorlikni ta'minlash.

8-maqsad. Rivojlanish maqsadida global hamkorlikka ko'proq urg'u qaratish[281].

O'zbekiston hukumati Mingyillik rivojlanish maqsadlarining muhimligini e'tirof etgan holda Mingyillik rivojlanish maqsadlarini «Aholi farovonligini oshirish strategiyasi bo'yicha oraliq hujjat»ga moslashtirgan tarzda amalga oshirmoqda.

Mingyillik deklaratsiyasida qo'yilgan maqsad va vazifalarni bajarilishi, bu jarayondagi muammolar va ularni hal etish masalalari 2010-yil 20-sentabrda bo'lib o'tgan BMT Bosh Assambleyasining 65-sessiyasida muhokama qilindi. Sessiya mingyillik rivojlanish maqsadlariga erishishga doir qator qarorlar qabul qildi. BMT Bosh Assambleyasi sessiyasida Prezident I.A.Karimov nutq so'zladi. U o'zining nutqida quyidagi global muammolarga barham berishga doir masalalarni ko'tardi:

- 30 yildan buyon harbiy harakatlar davom etayotgan jafokash Afg'oniston muammosi va bu muammoni hal etishni harbiy yo'l bilan emas, balki uning boshqa muqobil yo'llarini topish;

- 2010-yilning iyunida Qirg'izistonda ro'y bergan fojiali voqealar Markaziy Osiyo mintaqasidagi vaziyatni izdan chiqarishga jiddiy xavf solmoqda. Buni oldini olish uchun o'z vaqtida xolis va mustaqil xalqaro tekshiruvlarni o'tkazish, xalqaro hamjamiyatning bu boradagi qat'iy prinsipial pozitsiyasi Qirg'iziston janubida qirg'iz va kamsonli o'zbeklarning murosaga kelishi va totuvligini ta'minlash uchun yo'l ochib berishi mumkinligi;

- Markaziy Osiyoda ekologik muvozanatni buzilishiga olib kelayotgan Orol muammosi. Orol bo'yi hududi ikkita asosiy manba — Amudaryo va Sirdaryo hisobidan suv bilan ta'minlanadi. Bu daryolar oqimining kamayishi mazkur keng mintaqaning shundoq ham zaif ekologik muvozanatini butunlay o'zgartirib yuborishi mumkin. «Qurib borayotgan Orol muammosi — ushbu mintaqada yashayotgan BMT dek nufuzli tashkilotlarga umid bilan yordam so'rab murojaat qilayotgan millionlab odamlarning muammosidir»;

- O'zbekistonda Mingyillik rivojlanish maqsadlarini amalga oshirilishining tahlili.

Prezident I.A.Karimovning BMT Bosh Assambleyasining 65-sessiyasida so'zlagan nutqi jahon hamjamiyatining e'tiborini yana bir bor Markaziy Osiyodagi murakkab muammolarni hal etishga qaratdi. Shuningdek, O'zbekiston rahbari jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida mamlakatda Mingyillik rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish natijalariga doir muvafaqqiyatli ko'rsatkichlarni e'lon qildi.

Umuman, mustaqillik davrida O'zbekiston bilan BMT o'rtasidagi hamkorlik aloqalari yaxshi yo'lga qo'yildi. O'zbekiston rahbariyati va BMT rahbarlarining sa'y-harakatlari natijasida O'zbekiston BMTning Xalqaro telekommunikatsiya uyushmasi,

Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi, Qochoqlar ishi bo'yicha oliy qo'mitasi, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti, Xalqaro atom energiyasi agentligi, Aholi joylashish jamg'armasi, Narkotik moddalarni nazorat qilish dasturi, Sanoat taraqqiyoti tashkiloti, Oziq-ovqat qishloq xo'jaligi tashkiloti singari ixtisoslashgan tashkilot va muassasalarga a'zo bo'ldi[282].

Hozirgi vaqtda BMT bilan dunyodagi barcha mamlakatlarni Taraqqiyot Dasturi, Bolalar jamg'armasi, Aholi bo'yicha jamg'arma, Ilm-fan, ta'lim va madaniyat masalalari bo'yicha BMT tashkiloti, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarma va Jahon banki singari tashkilotlar bog'lab turadi. O'zbekiston davlati ham bu tashkilotlar bilan hamkorlik faoliyatini olib bormoqda[283]. Bu tashkilotlarning har biri vakolatlari va vazifalaridan kelib chiqqan holda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayoniga ko'maklashib kelmoqda. Mazkur tashkilotlarning faoliyati BMTning taraqqiyotga ko'maklashish dasturiari yo'nalishlari bilan uyg'un holda amalga oshiriladi. Chunonchi, 2005—2009-yillarda to'rt strategik yo'nalishda faoliyat olib borish belgilab qo'yilgan[284].

O'zbekiston mazkur tashkilot doirasida xalqaro terrorizmga qarshi kurash bo'yicha ham faol hamkorlik olib bormoqda. Zero, xalqaro terrorizmga qarshi kurash milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda ustuvor hisoblanadi. O'zbekiston BMTning terrorizmga qarshi kurash bo'yicha 13 ta konvensiyasining ishtirokchisi hisoblanadi.

O'zbekiston bilan BMT o'rtasida ekologik muhitni yaxshilash, Orol halokatini yumshatish, Orol bo'yi va uni atrofidagi ekologik vaziyatni yaxshilashga doir hamkorliklar doimiy ravishda mustahkamlanib bormoqda. O'zbekiston hukumati tashabbusi bilan Orol halokatini o'ta jiddiyligini e'tiborga olib, 2008-yil 12-martda Toshkent shahrida «Orol muammolari, uning aholi genofondi, o'simlik va hayvonot dunyosiga ta'siri va ularning oqibatlarini yumshatish bo'yicha xalqaro hamkorlik choralari»ga bag'ishlangan xalqaro konferensiyasi o'tkazildi. Unda BMT vakillari faol ishtirok etdi.

2010-yilning aprelida BMT Bosh kotibi Pan Gi Mun shaxsan Orol bo'yi hududlariga tashrif buyurdi. U Orol muammosini hal qilishga ko'mak berishga tayyor ekanligini bildirib, ekologik halokat oqibatlarini tugatishga yordamlashish maqsadida ekspertlar

salohiyati, moliyaviy va boshqa resurslari jo'natishga qaror qildi. Shundan kelib chiqib, BMT Bosh assambleyasi 63-sessiyasi muhim hujjatlaridan biri — bu «Orolni qutqarish xalqaro fondiga Bosh assambleyadagi kuzatuvchi maqomini berish» rezolutsiyasi bo'ldi. Bu rezolutsiyaning hammuallifi O'zbekiston davlati edi.

Umuman, O'zbekiston bilan BMT o'rtasidagi hamkorlik aloqalari yildan yilga mustahkamlanib bormoqda. Mustaqillik davrida O'zbekiston davlati BMT bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'ya oldi, balki BMT faoliyati va obro'sini yanada o'sishiga o'zining katta hissasini qo'shdi, dunyo hamjamiyatidan o'ziga munosib o'rin egalladi.

3. O'zbekistonning Amerika mamlakatlari bilan hamkorligi

O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosatida Amerika Qo'shma Shtatlari bilan o'zaro manfaatli aloqalarni yo'lga qo'yish va tobora chuqurlashtirish alohida o'rin tutadi. O'zbekiston bilan Amerika Qo'shma Shtatlari o'rtasida davlatlararo aloqalar mustaqillikning dastlabki yillaridayoq yo'lga qo'yildi. 1992-yil 15—16-fevralda AQSh davlat kotibining O'zbekistonga rasmiy tashrif buyurishi asnosida ikki davlat o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatildi. 1992-yil 16-mart kuni Toshkentda birinchi bo'lib AQShning elchixonasi ochildi.

O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning 1996-yil 23—28-iyunda AQShga tashrifi, uning AQSh Prezidenti Bill Klinton bilan uchrashuvi ikki mamlakat o'rtasidagi o'zaro munosabatlariga zamin hozirladi. 1996-yil 25-iyunda O'zbekistonning AQShdagi elchixonasi ochildi[285].

2002-yil 11—14-martda O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov boshliq davlat delegatsiyasining AQShga tashrifi yakunlari o'laroq «O'zbekiston bilan AQSh o'rtasida o'zaro strategik sheriklik va hamkorlik asoslari to'g'risida deklaratsiya», ilmiy-texnikaviy tadqiqotlar, yadroviy materiallar va texnologiyalar tarqalishining oldini olishda hamkorlik, moliya, qishloq xo'jaligiga oid qator hujjatlar imzolandi.

Mamlakat tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlardan biri AQSh bilan hamkorlik hisoblanadi. Har ikki tomon ko'plab xalqaro va mintaqaviy muammolar bo'yicha mushtarak manfaat va qiziqishlarga egadir. Jumladan, siyosiy, iqtisodiy, gumanitar

hamda global xavfsizlik tahdidlari — ya'ni, giyohvand moddalarning noqonuniy aylanishi, ommaviy qirg'in qurollarining tarqalishiga qarshi kurash, shuningdek, Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash sohalarida o'zaro faol hamkorlik ikki davlat munosabatlarida alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston va AQSh o'rtasidagi parlamentlararo aloqalar ham faollik bilan ajralib turadi. Parlamentlar delegatsiyalarining so'nggi yillar davomidagi o'zaro tashriflari bu yo'nalishda hamkorlikning mustahkam asosi bo'lib xizmat qilmoqda.

Madaniy-gumanitar sohadagi munosabatlar muntazam rivojlanmoqda. 2010-yil dekabrda AQSh Davlat kotibi X.Klintonning respublikaga tashrifi chog'ida imzolangan O'zbekiston Respublikasi Hukumati hamda Amerika Qo'shma Shtatlari o'rtasidagi fan va texnologiya sohasida hamkorlik shartnomasi ilmiy-texnikaviy yo'nalishdagi aloqalarni yanada yuqori bosqichga chiqqanligining belgisidir. 2014-yilning may oyida ilmiy-texnikaviy hamkorlik bo'yicha o'zaro komissiyaning birinchi yig'ilishi Toshkent shahrida o'tkazildi. Mazkur tadbirda 33 ta amerikalik ekspert ishtirok etdi. Yig'ilish davomida ishchi guruhlar tomonidan o'zaro ilmiy-texnikaviy hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha takliflar kiritildi, rejadagi loyihalarning hayotga jalb etilishi muhokama etildi. Berilgan takliflar bu sohadagi «Ishchi dastur» tuzilishiga asos bo'lib xizmat qildi.

Shu bilan bir qatorda, tomonlar doimiy ravishda turli madaniy va ma'rifiy tadbirlar o'tkazib turishi an'anaga aylandi. Xususan, 2014-yil davomida madaniy-gumanitar yo'nalish bo'yicha quyidagi yirik tadbirlar bo'lib o'tdi: O'zbekiston Davlat Konservatoriyasida AQShning «Lora Cortes and Dance Cards» kollektivi konserti uyushtirildi, ushbu guruh tomonidan Toshkent shahrining musiqa maktablari o'quvchilari uchun master-klasslar tashkil etildi. 2014-yilning iyun-iyul oylarida «Le Chat Lunatique» jaz truppasining O'zbekistonga tashrifi uyushtirildi.

Akademik va ta'lim sohasidagi hamkorlik O'zbekistonning AQSh bilan ikki tomonlama hamkorligining muhim qismi hisoblanadi. Tomonlar bir qator ta'lim yo'nalishlari, xususan «Fulbrayt» almashinuv dasturi, ingliz tilini o'qitish, Oliy o'quv yurtlari o'rtasidagi hamkorlik va boshqa yo'nalishlarda aloqalar olib borishadi. Ikki tomonlama savdo-iqtisodiy va investitsion sohalardagi hamkorlik ham rivojlanib bormoqda.

Amerika biznes doiralari bilan hamkorlikning yorqin misoli sifatida Asaka shahridagi avtomobilsozlik zavodining 25 foiz qimmatli qog'ozlariga egalik qilayotgan «General Motors» korporatsiyasini misol tariqasida keltirish mumkin. Mazkur korxonada bugungi kunda 8 xil avtomobil ishlab chiqarish jarayoni yo'lga qo'yilgan. Bundan tashqari, avtomobillarga ehtiyot qismlar ishlab chiqarishni keng yo'lga qo'yish ustida ishlar olib borilmoqda. Mazkur yo'nalishda erishilgan asosiy yutuqlardan biri sifatida yengil avtomobillarning dvigatellarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan «GM Powertrain — Uzbekistan" korxonasining ishga tushirilishini ta'kidlash zarur.

«Boing» kompaniyasi «O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviakompaniyasini zamonaviy avialaynerlar bilan ta'minlovchi asosiy va doimiy hamkor sanaladi. «Honeywell» kompaniyasi kimyo sanoati, neft va gaz qazib chiqarish, shuningdek ijtimoiy sohada bir qator loyihalarda ishtirok etmoqda. Shuningdek, «General Electric», «Anadarko Petroleum Corp.», «Case New Holland» va boshqa AQSh kompaniyalari bilan bir qator loyihalarni yo'lga qo'yish rejalashtirilmoqda.

Hozirgi davrga kelib O'zbekiston va Kanada o'rtasida hamkorlik rivojlanib bormoqda. Davlatlar o'rtasida diplomatik aloqalar 1992-yil 7-aprelda o'rnatildi. Hozirgi davrda ikki tomonlama aloqalar O'zbekiston Respublikasining qarorgohi Vashington shahrida bo'lgan Kanadadagi elchixonasi, hamda Kanadaning qarorgohi Moskva shahrida bo'lgan O'zbekistondagi elchixonasi darajalarida olib borilmoqda. Bundan tashqari Toshkentda Kanadaning Faxriy Konsulligi faoliyat yuritmoqda. Tomonlar o'zaro keng qamrovli aloqalarni yanada rivojlantirishga intilmoqdalar. 2013—2014-yillarda 10 ga yaqin o'zaro delegatsiyalar almashinuvi amalga oshirildi. O'zbekiston — Kanada hamkorligining mustahkamlanishida parlamentlararo aloqalarning rivoji muhim o'rin egallaydi. Shuningdek, ikki tomonlama siyosiy maslahatlashuvlar davom etmoqda.

Shuningdek, hozirgi davrga kelib O'zbekistonning Amerika qit'asidagi mamlakatlar bilan o'zaro aloqalari ham tezlik bilan rivojlanib bormoqda. Bu aloqalar o'zining ijobiy istiqbollariga egaligi bilan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

4. O'zbekiston – Yevropa Ittifoqi mamlakatlari hamkorligi

O'zbekistonning Yevropa mintaqasi bilan o'zaro rasmiy aloqalari 1992-yil 30-yanvarda Pragada Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YeXHT) qo'mitasining majlisida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) tarkibiga kiruvchi davlatlarni, jumladan O'zbekistonni YeXHT ning teng huquqli a'zolari qilib qabul qilishi bilan boshlandi.

O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvida Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan o'zaro manfaatli aloqalarni yo'lga qo'yish va tobora chuqurlashtirish alohida o'rin tutadi. 1996-yil 21-iyunda Florensiya shahrida imzolangan O'zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi «Sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitim», uning 1999-yil 1-iyulda kuchga kirishi mamlakatimizning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan o'zaro munosabatlarining huquqiy negiziga aylandi. O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnik va madaniy-gumanitar aloqalari yildan yilga rivojlanib, chuqurlashib bormoqda.

O'zbekistonning Yevropa Ittifoqining a'zosi, ulkan iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy salohiyatga ega bo'lgan Germaniya bilan o'zaro manfaatli aloqalari kengayib bormoqda. O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning Germaniyaga 1993-yil 28-aprelda boshlangan va besh kun davom etgan rasmiy tashrifi O'zbekiston bilan Germaniya o'rtasida munosabatlarni yo'lga qo'yishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Prezident I.A.Karimov GFR Federal Prezidenti Rixard fon Vayzenker va Federal kansler Gelmut Kol bilan samimiy, o'zaro tenglik asosidagi suhbatlari va muzokaralari natijasida ikki davlat o'rtasida madaniy hamkorlik to'g'risida, sarmoyalar qo'yishni amalga oshirish va o'zaro himoya qilishga ko'maklashish to'g'risida, ilmiy tadqiqotlar va mutaxassislar fondini tashkil etish to'g'risida O'zbekistonning Yevropa mamlakatlari bilan hamkorligiga doir bitimlar imzolandi[286].

Germaniyaning «Geydelber» firmasi O'zbekistonda nashriyot-matbaa sohasida hamkorlik qilayotgan yirik kompaniyadir. «Geydelber» firmasi asbob-uskunalari bilan Yangiyo'l kitob fabrikasi, Toshkent va Nukus poligrafiya kombinatlari, Samarqanddagi «Tong» nashriyoti qayta jihozlandi. O'zbekistondagi «Rastr» va «Groteks» nashriyotlari «Geydelber» firmasi texnologiyasi asosida ishlamoqda. Natijada maktablar uchun darslik, o'quv

qo'llanmalari va boshqa turdagi nashriyot mahsulotlari ishlab chiqarish ancha yaxshilandi. 2001-yilda O'zbekiston — Germaniya — Rossiya hamkorligidagi «Namangan qog'oz» qo'shma korxonasi qurilib ishga tushirildi.

Prezident I.A. Karimovning 2001-yil 2—5-aprelda GFRga, GFR Federal kansleri Gerxard Shrederning 2002-yil 9—10-mayda O'zbekistonga tashriflari O'zbekiston — Germaniya o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikni yangi bosqichga ko'tardi.

O'zbekiston bilan Fransiya o'rtasida munosabatlarni o'rnatish va rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. 1993-yil 28—30-oktabrda O'zbekiston delegatsiyasining Fransiyaga rasmiy tashrifi ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikka asos soldi. Prezident I.A.Karimov Fransiya Prezidenti Fransua Mitteran, Fransiyaning boshqa rahbarlari hamda jamoatchilik vakillari bilan do'stona suhbat va samarali muzokaralar bo'lib o'tdi[287]. 1994-yil 25—27-aprelda Fransiya Prezidenti Fransua Mitteranning O'zbekistonga rasmiy tashrifi amalga oshirildi. O'zbekiston va Fransiya tashqi ishlar vazirliklari o'rtasidagi hamkorlik to'g'risida, ikki mamlakat o'rtasida fuqarolarning erkin harakati haqidagi bitimlar va havo transporti sohasida hamkorlikka doir deklaratsiyalar imzolandi. O'zbekiston bilan Fransiya o'rtasida iqtisodiy, ilmiy, madaniy aloqalar kengayib bormoqda. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash, oziq-ovqat, neft va gaz sanoati, qurilish va boshqa sohalarda hamkorlik qilinmoqda. O'zbekiston xalqaro ishlarda katta tajriba va nufuzga ega bo'lgan Buyuk Britaniya bilan ham hamkorlik qilmoqda.

1993-yil 22—25-noyabrda O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov boshliq respublikamiz delegatsiyasining rasmiy amaliy tashrif bilan Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya birlashgan qirolligida bo'lishi ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlik tarixida buyuk voqea bo'ldi. Mamlakatimiz rahbarining qirolicha Yelizaveta II, Bosh vazir J. Meyjor bilan samimiy, ochiq o'zaro manfaatli suhbatlari, muzokaralari bo'lib o'tdi. O'zbekiston Respublikasi bilan Buyuk Britaniya qirolligi o'rtasida o'zaro iqtisodiy aloqalar to'g'risida shartnoma, sarmoyadorni o'zaro rag'batlantirish va himoyalash to'g'risida bitim, havo yo'llarini ochish to'g'risida bitim, ikki mamlakat hududida fuqarolarning erkin yurishi haqida memorandum imzolandi. «Toshkent—London» havo yo'lida samolyot qatnovining yo'lga qo'yilishi aloqalarni yaxshilashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. 1996-yilning boshlarida O'zbekistonda «Britaniya Kengashi» vakolatxonasining ish

boshlashi hamkorlikni mustahkamlash va kengaytirish yo'lidagi yangi qadam bo'ldi.

O'zbekistonning Finlyandiya, Avstriya, Belgiya, Shveytsariya, Italiya, Ispaniya, Gretsiya, Polsha, Vengriya, Chexiya, Slovakiya, Xorvatiya, Bolgariya kabi Yevropa mamlakatlari bilan siyosiy, diplomatik, iqtisodiy va madaniy aloqalari o'rnatildi va kengayib bormoqda. Shveytsariyaning Altendorf shahrida O'zbekiston Savdo uyining ochilishi muhim voqea bo'ldi. Bu maskan bugungi kunda savdo uyigina bo'lib qolmay, O'zbekistonning Yevropa va jahonda biznes va savdo markazi hisoblanadigan mamlakat — Shveytsariyadagi vakolatxonasiga ham aylandi. O'zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o'rtasida aloqalarning yo'lga qo'yilishi mamlakatimizning Yevropa mamlakatlari bilan hamkorligini yangi bosqichga ko'tardi. 1996-yilda Yevropa Ittifoqi Kengashi bilan O'zbekiston o'rtasida sheriklik va hamkorlik bitimi imzolandi. Bitim tufayli O'zbekiston Yevropa Ittifoqi va unga a'zo bo'lgan 27 davlatlar bilan siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, investitsiya, moliya, bojxona, ilm-fan, madaniyat, tibbiyot, telekommunikatsiya, transport va boshqa sohalarda sheriklik va hamkorlik munosabatlarini o'rnatdi.

Yevropa Ittifoqining O'zbekistondagi vakolatxonasi 2012-yildan boshlab o'z faoliyatini boshladi. Yevropa Ittifoqi 2007—2013-yillarda O'zbekistonda rivojlanish jarayonini qo'llab-quvvatlash uchun 72 mln. yevro ajratdi. Shuningdek, Yevropa Ittifoqi 2014—2020-yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan loyihalarni qo'llab-quvvatlash va moliyalashtirish uchun 168 million yevro ajratishini e'lon qildi. Sa'y-harakatlar va mablag'larning aksariyat qismi irrigatsiya infratuzilmasini yaxshilash, bu sohaga suvni tejash texnologiyalarini joriy qilish, mamlakatda suv taqsimotining yangi shakllarini yaratishga qaratiladi. Shu bilan birga, agro oziq-ovqat biznesi, oziq-ovqat sohasidagi korxonalarni rivojlantirish, yangi quvvatlarni ishga tushirishga ham loyihalar yo'naltiriladi[288].

5. O'zbekiston va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) 1991-yil 8-dekabrdagi MDH tuzish to'g'risida bitim va 1991-yil 21-dekabrdagi mazkur Bitimga Protokol asosida tashkil qilingan. Ozarbayjon Respublikasi, Armaniston Respublikasi, Belarus Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi, Qirg'iz Respublikasi, Moldova Respublikasi, Rossiya

Federatsiyasi, Tojikiston Respublikasi, Turkmaniston, O'zbekiston Respublikasi va Ukraina MDH ishtirokchi davlatlari hisoblanadi.

MDH Ijroiya Qo'mitasi Hamdo'stlikning ijro etuvchi, ma'muriy va muvofiqlashtiruvchi idorasidir. Uning shtab-kvartirasi Minskda va bo'linmasi Moskvada joylashgan. O'tgan davr mobaynida MDH doirasida ishtirokchi davlatlar uchun savdo-iqtisodiy munosabatlar, kommunikatsiya va transport tarmoqlarini yanada rivojlantirish, hamda xavfsizlikni ta'minlash va gumanitar aloqalarni mustahkamlashni ta'minlaydigan keng ko'lamli huquqiy asos va zaruriy mexanizmlar yaratildi.

Hamdo'stlik ishtirokchi davlatlarning barqaror rivojlanishi va xavfsizligiga to'sqinlik qiluvchi har qanday tahdid va xavf-xatarlarga o'z vaqtida munosib javob qaytarish borasida o'zaro maqbul yondashuvlar va kelishilgan amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish, muammo va kelishmovchiliklarni hal qilish, MDH hududidagi fuqarolarning o'zaro muloqot yuritishlari uchun keng imkoniyat yaratdi.

O'zbekiston MDHni ko'p rejali munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi mexanizm va bevosita muloqotlar olib borish, davlatlararo muzokaralar tashkil qilish, jumladan MDH formatida davlat rahbarlari va tegishli idoralar boshliqlari darajasida ikki tomonlama uchrashuvlar o'tkazish maydoni hamda ko'p tomonlama hamkorlik shart-sharoitlarini yaratishda manfaatdor bo'lgan suveren davlatlarning birlashmasi sifatida baholaydi.

O'zbekiston Respublikasi MDHning asosiy nizomiy va tarmoq organlari faoliyatida ishtirok etadi. O'zbekiston Hamdo'stlik tashkil etilgandan boshlab uning doirasida iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish va yangicha asosda xo'jalik aloqalarini ushbu jarayonlarga siyosiy tus bermagan holda amalga oshirish tarafdori bo'lgan davlatlar qatoriga kirgan[289].

O'zbekistonning MDH davlatlari doirasida olib borayotgan o'zaro diplomatik munosabatlarida Markaziy Osiyo mintaqasi muhim o'rin tutadi. Chunki, bu mintaqadagi davlatlar O'zbekistonning bevosita qo'shnilari sanaladi. Mustaqillikning dastlabki davrlaridanoq mustaqil O'zbekiston rahbariyati qo'shni O'rta Osiyo mamlakatlari bilan davlatlararo aloqalarni o'rnatishga kirishdi. Negaki, bular yaqin qo'shni mamlakatlar bo'lib, O'zbekistonning ruhi, tili, dini, urf-odatlari va an'analari ularga yaqindir. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «Mustaqil O'rta Osiyo respublikalari bilan do'stona, qardoshlik muno-

sabatlarini chuqurlashtirish va yanada rivojlantirish, ilmiy va madaniy hamkorlikni kengaytirish O'zbekiston tashqi siyosatining g'oyat muhim ustuvor yo'nalishi hisoblanadi»[290].

O'zbekiston davlati Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlikni saqlash, barqarorlikka erishish va yadro qurolidan xoli bo'lishiga qaratilgan tashqi siyosat olib bormoqda. Ayniqsa, O'zbekiston bilan Qozog'iston o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni rivojlantirish nafaqat o'zaro hamkorlikning uzoq muddatli istiqbollari, ayni vaqtda butun Markaziy Osiyo mintaqasi barqarorligi va ravnaqini ta'minlash nuqtayi nazaridan ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik davrida O'zbekiston — Qozog'iston o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni izchil rivojlantirish mintaqada barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda, shuningdek xalqaro darajada taraqqiyotning yangi yo'nalishlari uchun zamin yaratmoqda. O'zbekiston va Qozog'iston BMT, MDH, ShHT kabi ko'p tomonlama tuzilmalar doirasida bir-birini o'zaro qo'llab-quvvatlab va hamkorlik qilib kelmoqda. Ayniqsa, ikki mamlakatning terrorizm, narkotrafik, diniy ekstremizm, separatizm, transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashishda o'zaro hamkorlikni chuqurlashtirish natijalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Har ikki tomon O'rta Osiyoda suvdan adolatli foydalanish tizimi masalalarida yagona pozitsiyada bo'lib, mintaqadagi barcha suv-energetika muammolarini faqat xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalari va mintaqadagi barcha mamlakatlarning manfaatlarini albatta hisobga olgan holda hal qilish zarurligiga asoslanadi[291].

O'zbekiston va Turkmaniston azaldan tarixiy va ma'naviy ildizlarining umumiyligi, madaniyati, an'analari, urf-odatlari, qardoshlik rishtalari, tili va mentalitetining yaqinligi o'zaro bog'lab turuvchi yaqin qo'shni bo'lib, bugungi kunda ikki tomonlama munosabatlarini ko'p asrlik do'stlik, o'zaro hurmat va ishonch, ikki qardosh xalqlar tomonidan shakllantirilgan umumiy manfaatlar va erishilgan yutuqlar asosida amalga oshirib kelmoqda.Har ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlar rivojining yuqori sur'atlariga misol tariqasida hamkorlikning turli darajalarida siyosiy muloqotlar olib borilishi, tomonlarning savdo-iqtisodiy yo'nalishdagi sheriklikni rivojlantirishga intilishlari hamda madaniy-gumanitar sohadagi mustahkam aloqalarni keltirib o'tish mumkin.

1991—2010-yillarda har ikki davlat o'rtasida 10 ta oliy darajadagi tashrif amalga oshirildi — 6 marta Turkmaniston

Prezidenti O'zbekistonga keldi, 4 marta O'zbekiston Prezidenti Turkmanistonga tashrif buyurdi. Ushbu tashriflar chog'ida qator sohalarda ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirishning asosi bo'lgan shartnoma va huquqiy baza yaratildi.Turli sohalar bo'yicha hamkorlikni faollashtirishga xizmat qiluvchi qator hujjatlarning imzolanishiga erishilgan. 2009-yil fevral oyidagi Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhammedovning Toshkentga, o'sha yilning dekabr oyida esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Ashxobodga amalga oshirgan rasmiy tashriflari ikki tomonlama munosabatlarning rivojlanishiga alohida turtki berdi.

Mamlakatlar o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilganidan so'ng do'stona va samarali hamkorlikning ulkan tajribasiga erishildiki, buning asosi keng ko'lamli hamkorlikning faol yo'nalishlariga mo'ljallangan davlatlararo, hukumatlararo va idoralararo darajadagi 150 dan ortiq xalqaro shartnomalardan iborat salmoqli huquqiy-shartnomaviy hujjatlarda o'z aksini topdi. Ikki tomonlama savdo-iqtisodiy munosabatlar borasida so'z ketganda, ularning jadal sur'atlarda rivojlanayotganini qayd etish lozim. Xususan, O'zbekiston Turkmanistonga kimyo sanoati mahsulotlari, qurilish mollari, qishloq xo'jaligi texnikasi, metalldan tayyorlangan ashyolar, ma'danli o'g'itlar, asbob-uskuna va transport vositalarini eksport qiladi. O'z navbatida Turkmanistondan bizga neft mahsulotlari, plastmassa va undan tayyorlangan mahsulotlar, xizmat ko'rsatish, noorganik kimyoviy vositalar keltiriladi.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov 2009-yilning dekabr oyida Turkmanistonga tashrifi chog'ida mintaqada eng yirik loyihalardan biriga aylangan, muhim strategik xomashyoning eksport qilinishini diversifikatsiyalashga imkoniyat yaratgan «Turkmaniston — Xitoy» transmilliy gaz quvurining ishga tushirilishi marosimida qatnashdi[292].

2012-yilning 1–2-oktabrida Turkmaniston Prezidenti G.Berdimuhamedovning taklifi bilan Prezident I.A.Karimov Ashxobodga tashrif buyurdi. O'zaro muzokaralar natijasida Prezidentlarning Qo'shma Bayonoti qabul qilindi, shuningdek, 2013—2017-yillarga mo'ljallangan iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi Shartnoma, 2013—2014-yillarga mo'ljallangan tashqi siyosat muassasalarining o'zaro hamkorlik dasturi kabi hujjatlar imzolandi.

O'zbekiston Turkmanistonga mineral o'g'itlar, qurilish materiallari, meva-sabzavot mahsulotlari, elektr va mexanik

uskunalari, transport vositalari, qora va rangli metall buyumlari eksport qiladi. Turkmaniston esa bizning mamlakatga neft mahsulotlari, propilen polimerlari, oltingugurt kislotasi kabi mahsulotlarni eksport qiladi. So'nggi besh yil ichida o'zaro tovar aylanmasi uch martaga o'sdi[293]. Ikki mamlakat o'rtasida iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va do'stlik aloqalari rivojlanib bormoqda.

O'zbekiston — Qirg'iziston o'zaro diplomatik aloqalari 1993-yil 16-fevralda o'rnatilgan. Har ikki mamlakat xalqaro terrorizm, fundamentalizm, separatizm, narkotrafikka qarshi kurashda yaqindan hamkorlik qilib kelmoqda. Hozirgi davrda har ikki mamlakat o'rtasida o'zaro hamkorlikka doir 137 ta hujjat imzolandi[294].

Hozirgi davrga kelib O'zbekiston — Qirg'iziston o'zaro diplomatik munosabatlarini yaxshilanishida 2014-yil aprelda o'tkazilgan O'zbekiston — Qirg'iziston «Sharq — Antiterror — 2014» qo'shma antiterror qo'mondonlik-shtab harbiy mashqlari muhim ahamiyat kasb etdi. Harbiy mashqlar Shanxay hamkorlik tashkilotining 2014-yil 20-martda tasdiqlagan dasturi asosida o'tkazildi. Unda ikki davlatning mudofaa, ichki ishlar, favqulodda vaziyatlar vazirliklari va fuqarolik mudofaasi tashkilotlari vakillari ishtirok etdi. Qozog'iston, Xitoy, Rossiya, Tojikiston va ShHT vakillari kuzatuvchi sifatida qatnashdi[295].

Umuman, O'zbekiston — Qirg'iziston o'zaro munosabatlar ikki tomonlama va xalqaro tashkilotlardagi hamkorlik asosida rivojlanib bormoqda.

Mustaqillik davrida O'zbekiston — Tojikiston diplomatik aloqalari rivojlanib kelmoqda. O'zbekistonning Tojikiston davlatiga nisbatan ekologik masalalar — Tojik alumin zavodini atrof-muhit ekologiyasini halokatga olib kelganligi, Tojikistondagi Rog'un GESning loyihasi qirq yil ilgari eskirgan loyiha, konstruktorlik va texnologik xulosalari asosida qurilayotganligi, uni qurilishi Orol halokati tufayli ekologik muvozanatni izdan chiqish yoqasida turgan mintaqaga katta ofat yetkazishi mumkinligiga doir e'tirozlariga ijobiy aks-sado berilmayotgan o'zaro diplomatik munosabatlarda o'z izini qoldirmoqda.

Lekin, shunga qaramay, har ikki tomonning o'zaro aloqalari ikki tomonlama va xalqaro tashkilotlar faoliyatida namoyon bo'lmoqda. Jumladan, 2011—2013-yillarda har ikki tomon ichki ishlar vazirlarining xalqaro tashkilotlar anjumanlaridagi uchrashuvlari kuzatilmoqda. 2014-yil iyulda har ikki davlat tashqi

ishlar vazirlari Dushanbeda ShHT a'zo-davlatlari tashqi ishlar vazirlari yig'ilishi munosabati bilan uchrashdi. Unda transport, energetika, madaniyat, chegara hududlaridagi hamkorlik sohalarida siyosiy muzokalarni faollashtirishga kelishildi[296]. Shuningdek, har ikki tomon tashqi ishlar vazirlari ShHTni rivojlantirish, ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan g'alabaning 70 yilligini nishonlashga doir qo'shma qarorlar qabul qilish, mintaqaviy va xalqaro muammolarga doir o'zaro fikrlar almashdi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda tarixiy jihatdan qisqa bir davrda xalqaro munosabatlarni yo'lga qo'yish va rivojlantirish bobida asrlarga arziydigan ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston o'zining tinchliksevar, yaxshi qo'shnichilik, o'zaro foydali hamkorlikka qaratilgan siyosati va faoliyati bilan butun dunyoga tanildi, jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rnini egalladi, uning mavqeyi yildan yilga mustahkamlanib bormoqda.

Takrorlash uchun savollar:

1. O'zbekiston tashqi siyosatining demokratik tamoyillari nimalardan iborat?
2. O'zbekiston — BMT o'zaro munosabatlari qanday rivojlanmoqda?
3. O'zbekiston — Amerika mamlakatlari hamkorligi to'g'risida nima deya olasiz?
4. O'zbekiston — Yevropa Ittifoqi mamlakatlari hamkorligi nimalarda ifodalanadi?
5. O'zbekiston — MDH o'zaro munosabatlari to'g'risida nima deya olasiz?

18-mavzu: O'ZBEKISTONNING JAHON IQTISODIYOTI INTEGRATSIYASIGA KIRISH JARAYONI

1. O'zbekistonda tashqi iqtisodiy aloqalarga oid demokratik prinsiplarning shakllanishi.
2. Tashqi iqtisodiy aloqalarning tashkiliy va huquqiy asoslarini yaratilishi.
3. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarining rivojlanishi.
4. Xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi.

1. O'zbekistonda tashqi iqtisodiy aloqalarga oid demokratik prinsiplarning shakllanishi

Sobiq sho'rolar davrida jahondagi mamlakatlar bilan nafaqat tashqi siyosat olib borishga, balki iqtisodiy aloqalar o'rnatish huquqiga ega bo'lmagan O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritganidan keyin xalqaro munosabatlarning subyekti sifatida tashqi dunyo bilan o'zining iqtisodiy aloqalarini o'rnatishga kirishdi. Ayniqsa, so'nggi o'n yillikda jahon mamlakatlari o'rtasida iqtisodiy integratsiyaga intilishlar o'sayotgan bir davrda O'zbekiston davlatining bu sohadagi faoliyati kuchaydi. Chunki, mamlakat bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish davrini boshlagan, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish asosiy strategik pirovard maqsad sifatida e'lon qilingan O'zbekiston davlatini xalqaro hamjamiyat ham e'tirof eta boshlagan edi. Mamlakatda bozor iqtisodiyotiga o'tish, jamiyatni demokratlashtirish jarayonini boshlanishi o'z tabiatiga ko'ra ham jahon iqtisodiy integratsiyasiga birlashuvni taqozo etayotgan edi. Bu integratsiyaga birlashuv sharti sifatida Prezident I.A.Karimov quyidagi fikrni bildirgan edi: «Jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv iqtisodiy jihatdan rivojlangan bozor tizimiga ega bo'lgan demokratik davlatlar tushunchasiga muvofiq kelgandagina mumkin bo'ladi. Ayni paytda mamlakatni zamonaviylashtirish uning, shubhasiz, jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, ya'ni xalqaro mehnat taqsimotida o'zining munosib o'rnini topishi, mintaqaviy va global xavfsizlik tizimini yaratish shartlari mavjud bo'lgandagina mumkin bo'ladi»[297].

Mustaqillikning ilk davridan boshlab xalqaro iqtisodiy

tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish bir tomondan, milliy iqtisodiyot uchun, ikkinchi tomondan esa jahon iqtisodiyoti uchun ham muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Ayniqsa, BMT, YeTTB, YeI, NATO, Jahon banki, XVF, EKO kabi yirik va nufuzli tashkilotlar faoliyatida faol ishtirok etish mamlakatda vujudga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish, «O'zbek modeli» asosida rivojlanish uchun ham zarur edi. Chunki, bu modelning asosiy yo'nalishlaridan biri — bu tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish va mustahkamlash, respublikaning jahon xo'jalik aloqalariga integratsiyalashuvidan iborat edi. Qolaversa, bu jarayon pirovard natijada jahon xo'jalik aloqalarida, xalqaro mehnat taqsimotida keng ko'lamda ishtirok etish ochiq turdagi iqtisodiyotni shakllantirishga olib kelishi shubhasiz bir hol edi.

O'zbekistonning tashqi iqtisodiy siyosati tashqi aloqalarda ochiqlik, teng huquqli va o'zaro manfaatli hamkorlik, o'z milliy-davlat manfaatlari ustunligini saqlash, o'zaro manfaatlarni hisobga olish, e'tirof etilgan xalqaro huquq me'yorlariga rioya qilish va xalqaro standartlarga bosqichma-bosqich o'tish tamoyillariga asoslanib qonunlashtirilgan edi.

Mustaqillikning dastlabki davridayoq Prezident I.A.Karimov tomonidan tashqi iqtisodiy siyosatning quyidagi prinsiplari ishlab chiqildi:

- mafkuraviy qarashlardan qat'iy nazar tashqi munosabatlarda oshkoralik;

- teng huquqli va o'zaro manfaatli hamkorlik, boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;

- o'zining milliy-davlat manfaatlari ustuvorligida o'zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olish; respublika biron-bir buyuk davlatning ta'sir doirasiga kirmasligi darkor;

- to'la ishonch, xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar doirasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish asosida ikki tomonlama, shuningdek, ko'p tomonlama tashqi aloqalar o'rnatish va ularni rivojlantirish;

- umum e'tirof etilgan xalqaro huquq normalariga rioya qilish va xalqaro tartiblarga izchillik bilan o'tish[298].

Ko'rinib turibdiki, bu prinsiplar o'zida demokratik huquqiy davlat, bozor iqtisodiyoti shart-sharoitlariga xos bo'lgan xususiyatlarni aks ettirish, shu bilan birga, jahon iqtisodiy munosabatlarida milliy manfaatlarni ifodalash asosiga qurilgan edi. Shuning uchun

ham mustaqillikning ilk davridan boshlab aksariyat xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bu prinsiplarni e'tirof etgan edi.

Shu bilan birga, bu davrda Prezident I.A.Karimov tomonidan davlat tashqi savdo, iqtisodiy, ilmiy va madaniy aloqalarning quyidagi yo'nalishlarining ustuvorligi ilgari surildi:

Birinchidan, respublikaning eksport qudratini rivojlantirish va yanada mustahkamlash, eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotni shakllantirish.

Ikkinchidan, eksport imkoniyatini kengaytirish, jahon bozorlariga kirib borish uchun, avvalo, qimmatbaho xomashyoni qayta ishlash negizida tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi qo'shma korxonalarni rivojlantirish.

Uchinchidan, eksportni kengaytirishga qaratilgan strategiyani faol qo'llash bilan bir qatorda importning salmog'ini qisqartirishga qaratilgan siyosatni izchillik bilan o'tkazish.

To'rtinchidan, tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish, xo'jalik ishlarini yurituvchi subyektlarga xorijiy sheriklar bilan bevosita aloqalar o'rnatishda, o'z mahsulotini chet ellarda sotishda ko'proq erkinlik berish, tovarlarni eksport va import qilishda birmuncha imtiyozli tartibni joriy qilish borasida aniq maqsadni ko'zlab siyosat o'tkazish.

Beshinchidan, xorijiy sarmoyalarni, asosan bevosita kapital mablag'lar tarzidagi sarmoyalarni respublika iqtisodiyotiga keng ko'lamda jalb etish uchun zarur huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda boshqa shart-sharoitlarni vujudga keltirish, qo'shma korxonalar tashkil qilishda ko'maklashish, shuningdek sarmoyadorlarning manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash.

Oltinchidan, tashqi iqtisodiy faoliyat tarkibiy qismlari majmuyini — ixtisoslashtirilgan tashqi savdo, lizing, konsalting va sug'urta firmalarini, tashqi aloqalarni rivojlantirish manfaatlari va shartlariga mos keladigan transport, aloqa va kommunikatsiyalar tizimlarini vujudga keltirish.

Yettinchidan, xalqaro huquq va tashqi iqtisodiy faoliyat, bank tizimi, hisob-kitob va statistik hisobot sohasida malakali kadrlar tayyorlash[299].

O'zbekiston davlati xalqaro hamjamiyatning teng huquqli a'zosi maqomiga erishish uchun dastlab tashqi siyosiy va iqtisodiy faoliyat sohalarining huquqiy asoslarini rivojlantirishga muhim ahamiyat berdi. XX asrning 90-yillari boshiga kelib mamlakatimiz xalqaro siyosiy va iqtisodiy munosabatlar subyekti

maqomini qo'lga kiritishi natijasida huquqiy davlatga xos bo'lgan tashqi siyosat qonunchiligini yaratishga zaruriyat tug'ildi. Shu bilan birga, mustaqillik arafasida va uning dastlabki yillarida moliya, pul, kredit operatsiyalari bo'yicha markazga bog'liqlik, tashqi savdoni qo'llab-quvvatlab turuvchi infratuzilmaning deyarli mavjud emasligi (bojxona, sug'urta, transport, ekspeditorlik, sertifikatsiya xizmatlari va boshqalar), tashqi siyosat sohasida hali malakali mutaxassislar va amaliy tajribalarning shakllanmaganligi natijasida mustaqil davlatning zudlik bilan o'zining mustaqil tashqi siyosiy va iqtisodiy aloqalarini shakllantirish va rivojlantirish vazifasi kun tartibiga qo'yilgan edi.

2. Tashqi iqtisodiy aloqalarning tashkiliy va huquqiy asoslarini yaratilishi

Mustaqillikning dastlabki davridan boshlab tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etish shakllari, uslublari xorijiy tajribalar, milliy an'analar va demokratik qadriyatlar asosida takomillashib bordi. O'zbekiston Respublikasining «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi (yangi tahrirdagi, 2000-yil 26-may) Qonuni bu sohadagi faoliyatni quyidagicha ta'riflaydi: «Tashqi iqtisodiy faoliyat deganda, O'zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro foydali iqtisodiy aloqalarni o'rnatish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyati tushuniladi». Shuningdek, qonunning 4-moddasida tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy prinsiplari quyidagicha ifodalandi:

- tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining erkinligi va iqtisodiy mustaqilligi;
- tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining tengligi;
- savdo-iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishda kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishdan o'zaro manfaatdorlik;
- tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari davlat tomonidan himoya qilinishi[300].

Istiqlol yillarida tashqi savdo va iqtisodiy aloqalarni milliy manfaatlar asosida va keng ko'lamda rivojlanishiga muhim e'tibor qaratib kelindi. Bu sohada mustaqil davlat tuzilmalarini shakllantirish maqsadida 1991-yilda «O'zintorg» davlat tashqi savdo kompaniyasi, 1992-yilda Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi va

uning tarkibida faoliyat yuritadigan tashqi savdo kompaniyalari tashkil etildi. Milliy bojxona organlari va xizmati shakllantirildi. Iste'mol bozoridagi taqchillikka barham berish, iqtisodiy inqirozning oldini olish, shuningdek, bozor iqtisodi munosabatlariga asoslangan milliy iqtisodiyotni shakllantirishga yo'naltirilgan yangi eksport va import siyosatini vujudga keltirish asosiy vazifa etib belgilandi. Dastavval xalq uchun o'ta muhim, lekin taqchil bo'lgan kundalik iste'mol mollari — un, shakar, o'simlik yog'i, kir yuvish vositalari, yoqilg'i materiallariga bo'lgan ehtiyojni qondirish chora-tadbirlari ko'rila boshlandi. Albatta, muammolarni tashqi aloqalarni yo'lga qo'ymay turib hal etib bo'lmasdi. Qolaversa, respublika hali o'z milliy valutasini muomalaga kiritmaganligi uchun (1994-yil 1-iyuliga qadar) ham xorijiy mamlakatlar bilan oldi-sotdi va tovar ayirboshlash uchun imkoniyatlar yaratilmagan edi.

Mustaqillikning dastlabki besh yili mobaynida hukumatning tashqi iqtisodiy siyosatni amalga oshirishi natijasida aholi uchun zarur bo'lgan kundalik iste'mol mollari xarid etish va sanoat tarmoqlarini yoqilg'i, xomashyo, butlovchi qismlar bilan uzluksiz ta'minlashga erishildi. XX asrning 90-yillari o'rtalariga kelib Prezident, Oliy Majlis va hukumat tomonidan mamlakatda eksport va import operatsiyalarini keng ko'lamda amalga oshirish, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Shu bilan birga, barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarni tashqi savdo faoliyatda ishtirok etishini ta'minlashga doir chora-tadbirlar ko'rildi. 1995—1996-yillarda joriy oldi-sotdi va tovar almashuvlar bo'yicha valuta almashtirish va o'zaro to'lovlardagi cheklovlar bekor qilindi, yangi veksel tizimi joriy etildi. 1995-yil 2-aprelda Prezidentimizning «Eksport-import operatsiyalarini tartibga solishdagi qo'shimcha chora-tadbirlar» va 1995-yil 19-iyulda «O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada erkinlashtirish to'g'risida»gi Farmonlari qabul qilindi.

Mazkur hujjatlar asosida yaratilgan imtiyozlar va qulayliklar tezda o'z samarasini berdi. 1996-yilda mamlakat tashqi savdo aylanmasini keskin rivojlantirishga erishildi. Lekin, bu davrda xususiy tadbirkorlik doirasidagi tashqi savdo operatsiyalarini vujudga keltirishda jiddiy kamchiliklar ham paydo bo'la boshladi. Sanoat va agrar sohalarda iqtisodiy o'sish sur'atlarining yuqori darajaga ko'tarilishi munosabati bilan ularning eksport salohiyatini yuksaltirish va uni diversifikatsiyalash, tashqi qarzdorlikning

oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash zarurati paydo bo'ldi. Tashqi iqtisodiy aloqalardagi import operatsiyalarini tartibga solishni takomillashtirishning huquqiy asoslari yaratildi. Shuningdek, import bojxona tizimining barqaror faoliyat ko'rsatishi, iqtisodiy o'sish jarayonlarida iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar rivojlanishining o'zaro mutanosibligini ta'minlashga doir qator tashkiliy hamda iqtisodiy tadbirlar majmuasi amalga oshirildi.

Mamlakat tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish va takomillashtirish jarayonlari davlatning bosh islohotchiligi hamda bosqichma-bosqich rivojlanish tamoyili asosida amalga oshirildi. Jumladan, 1994-yilning 1-martidan boshlab yurtimizda eksport litsenziyasi olinishi lozim bo'lgan tovarlar nomenklaturasi miqdori 74 tadan 26 taga tushirildi. Undan keyingi ikki yil ichida litsenziya talab etiladigan tovarlar nomenklaturasi soni 26 tadan 11 taga, keyinroq — 1997-yilda esa bor-yo'g'i 4 taga tushirildi.

Hukumat tomonidan mamlakatdagi ishlab chiqarish korxonalarining eksport qobiliyatini oshirishga ko'mak berish maqsadida ham qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 21-aprelda qabul qilgan «Milliy eksport qiluvchilarni sug'urtalashni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori asosida eksport yuklarni tashishda va sug'urtalashda xalqaro huquqiy me'yorlar talablariga javob bera oladigan «Inkoterms-2000» qoidalariga amal qilish belgilandi. Shu bilan birga, korxonalarning eksport faoliyatiga ko'mak beruvchi infratuzilmalarning shakllanishi va rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratishga muhim ahamiyat berildi.

Oliy Majlis tomonidan 2000-yilning may oyida O'zbekiston Respublikasining «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi Qonuni yangi tahrirda qabul qilindi. Qonunda mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyatining konseptual yo'nalishlari asoslari aniq belgilab berildi. Shuningdek, qonunning yangi tahririda tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan boshqarishning ma'muriy usullaridan voz kechish, boshqarishning iqtisodiy usullari ustuvorligiga asoslanishga doir nomarkazlashtirish tamoyiliga amal qilish belgilandi, davlat organlarining tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari ishiga aralashuvi cheklandi. Qonunning yangi tahririga iqtisodiy aloqalarni erkinlashtirishga imkon beruvchi yangi qoidalar kiritildi. Jumladan, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilariga o'z huquq va manfaatlariga doir axborotlarni olish huquqi, xorijiy jismoniy shaxslarga

O‘zbekiston hududida korxonalar ochish huquqi berildi. Shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligida ro‘yxatga olish talabi chiqarib tashlandi. Bundan tashqari, Qonunda tashqi iqtisodiy aloqalarga doir Vazirlar Mahkamasi va Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligining asosiy vakolatlari aniq belgilab qo‘yildi[301].

Prezident I.A.Karimovning tashqi iqtisodiy faoliyatni rag‘batlantirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, tadbirkorlikni rivojlantirish va mustahkamlashga qaratilgan bir qator farmonlari qabul qilindi. Yangi tahrirdagi Qonun va Prezident Farmonlarini tashqi iqtisodiy faoliyatga qo‘llash natijasida xorijiy investitsiyalarning ortib borishi va tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirishga erishildi, mamlakat tashqi savdo aylanmasida ijobiy o‘zgarishlar yuz bera boshladi. Bu o‘zgarishlar, albatta, davlat va hukumat tomonidan ko‘rilgan chora-tadbirlar va yangi qabul qilingan huquqiy asoslarning ijobiy natijalari edi. Muhimi, mamlakat ochiq va erkin iqtisodiyot sari og‘ishmay intilayotganidan dalolat beradi. Parlament tomonidan qabul qilingan «Tashqi iqtisodiy faoliyat», «Chet el investitsiyalari to‘g‘risida»gi, «Chet el investorlari huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, «Investitsiya faoliyati to‘g‘risida»gi Qonunlar bevosita qulay va ixtiyoriy investitsion muhitni shakllantirish, milliy korxonalar eksport salohiyatini yuksaltirishga yo‘naltirilganligi uchun ham tashqi iqtisodiy aloqalar o‘sib bordi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish va bu sohadagi islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida eksportga yo‘naltirilgan bozor infratuzilmalarini rivojlantirish, jahon tovar va xizmatlar bozori talablariga tez moslasha oladigan epchil va tez moslashuvchan korxonalarni vujudga keltirish, ularning institutsional o‘zgarishlarini amalga oshirishga muhim ahamiyat berildi.

Shu bilan birga, 1995—2006-yillar mobaynida import operatsiyalarini tartibga solish, tegishli tashkiliy, iqtisodiy xarakterga ega bo‘lgan o‘zgarishlarni kiritishga oid 50 dan ortiq Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Davlat bojxona qo‘mitasi, Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi, Markaziy bank nizomlari va me’yoriy qoidalari qabul qilindi. Yildan yilga tashqi iqtisodiy aloqalar uchun qulay va erkin faoliyat kengayib bormoqda. Ayniqsa, tashqi savdo operatsiyalari, xususan import operatsiyalarini erkinlashtirish bilan bog‘liq qator chora-tadbirlar ko‘rildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 26-sentabrda e'lon qilingan «O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo faoliyatini yanada erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoniga asosan Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligida (hozirda Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligida) import operatsiyalarini ro'yxatga olish bekor qilindi. Faqat davlat budjeti, hukumat kafolati berilgan kreditlar hamda xo'jalik yurituvchi subyektlarning davlat tomonidan qo'shilgan ulushi 50 foizdan ortiq bo'lgan yoki o'z valuta resurslari yetmagan tashkilotlarning import kontraktlarini ro'yxatdan o'tkazish qoidasi saqlanib qoldi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar uchun huquqiy asoslarning bozor iqtisodi munosabatlari va xalqaro me'yorlar talablari asosida takomillashtirilishi natijasida import operatsiyalarini amalga oshirishda nafaqat xaridor va sotuvchi tashkilotlar, balki ularga xizmat ko'rsatayotgan barcha bank muassasalari, transport tashkilotlari, bojxona organlarining manfaatlari ham inobatga olinib, bu jarayonda ortiqcha rasmiyatchilik va ma'muriyatchilikka barham berildi.

Prezident I.A.Karimov tomonidan ilgari surilgan «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»da tashqi iqtisodiy aloqalarni erkinlashtirish bilan bilvosita va bevosita bog'liq bo'lgan Fuqarolik, Yer, Soliq va Bojxona kodekslari, «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida», «Banklar va bank faoliyati to'g'risida», «Chet el investitsiyalari to'g'risida», «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida»gi qonunlarni, islohotlarning keyingi bosqichida «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida», «Xususiy korxona to'g'risida», «Valutani tartibga solish to'g'risida», «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida», «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi qonunlar, yangi tahrirdagi Soliq kodeksi va iqtisodiyotni isloh qilish bo'yicha qator qonun hujjatlari qabul qilinganligi iqtisodiyotimizni yanada liberallashtirish va modernizatsiya qilishda nafaqat mustahkam huquqiy asos, balki amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining ortga qaytmasligining kafolati bo'lib xizmat qilayotganligini alohida ta'kidlab o'tildi[302].

Shuningdek, Konsepsiyada O'zbekistonda amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining sur'ati va mantiqiy talablaridan kelib chiqqan holda, erkin bozor iqtisodiyoti munosabatlarini

yanada rivojlantirishga xizmat qiladigan bir qator qonunlar qabul qilishni hayotning o'zi taqozo etayotganligi ta'kidlanib, yaqin istiqbolda «Kredit byurolari faoliyati va kredit axboroti almashuvi to'g'risida», «Garov reestri to'g'risida», «Rieltorlik faoliyati to'g'risida», «Investitsiya va pay fondlari to'g'risida», «Innovatsiyalar va iqtisodiyotni modernizatsiya qilish to'g'risida»gi qonunlarni qabul qilishni dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilab berdi. Albatta, mazkur qonunlarni qabul qilinishi nafaqat mamlakatda iqtisodiyotni liberallashtirishga, balki tashqi iqtisodiy aloqalarni demokratik prinsiplar asosida rivojlantirishga keng imkoniyatlar va shart-sharoitlar yaratadi.

3. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini rivojlanishi

Mustaqillik davrida davlatning tashqi iqtisodiy siyosati mamlakatning jahon bozoridagi mavqeyini mustahkamlashga va qulay investitsiyaviy muhitni yaratishga qaratildi. Qisqa davr ichida mamlakat qator nufuzli xalqaro iqtisodiy hamkorlik tashkilotlar safiga qo'shildi. Jumladan, davlatimiz Xalqaro valuta fondi (XVF), Jahon banklar guruhi, Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT), Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro elektr aloqalari ittifoqi, Osiyo–Tinch okeani mintaqasining iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YeTTB), Hududiy iqtisodiy hamdo'stlik tashkiloti, Bojxona hamdo'stligi kengashi kabi xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar a'zoligiga qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi jahonning ko'zga ko'ringan yirik va obro'li xalqaro tashkilotlari, dunyoning o'nlab davlatlari bilan aloqalarni o'rnatgan bo'lib, ularning yirik bank va moliyaviy tashkilotlari bilan, davlat va nodavlat tashkilotlari bilan o'zaro iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirib kelmoqda. O'zbekistonda xorijiy mamlakatlarning 43 ta elchixonasi, 49 ta nodavlat va shuningdek 15 ta davlatlararo tashkilotlari akkreditatsiya qilingan. Bu davrda davlatimiz muhim xalqaro konvensiyalar ishtirokchisiga aylandi.

O'zbekiston 1992-yilda Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti (IHT) a'zoligiga qabul qilindi. IHT o'z safida Afg'oniston Islom Davlati, Ozarbayjon Respublikasi, Eron Islom Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi, Pokiston Respublikasi, Tojikiston Respublikasi,

Turkiya Respublikasi, Turkmaniston Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi kabi davlatlarni birlashtiradi.

Mamlakatning Iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga integratsiyalashuvi transport, aloqa, savdo, investitsiya va energetika singari ustuvor sohalarni rivojlatirish uchun imkoniyatlar yaratdi, shuningdek bu sohalardagi hamkorlik jarayonlarini jadallashtirish imkonini berdi. 2010-yilga kelib O'zbekiston 30 ta nufuzli xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlarning to'laqonli a'zosiga aylandi. Ular jumlasiga Jahon Banki guruhiga kiruvchi tashkilotlar, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Xalqaro Valuta fondi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot Banki, Islom taraqqiyot banki, Butunjahon bojxona tashkiloti, Butunjahon sayohat tashkiloti, Paxta bo'yicha xalqaro konsultativ qo'mitasi kabilar kiradi.

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishida O'zbekstonning 1992-yilda Jahon bankiga a'zo bo'lishi muhim ahamiyat kasb eta boshladi. 1992-yilning sentabr oyida Toshkent shahrida Jahon bankining vakolatxonasi ochildi. Bank strategiyasi sifatida mamlakatni bosqichma-bosqich rivojlanish jarayonida hukumat amalga oshirayotgan islohotlarini qo'llab-quvvatlash, bu jarayonni amalga oshirishda maslahatlar berish, shuningdek texnikaviy-moliyaviy yordam ko'rsatish ekanligi e'lon qilindi. Jahon Banki asosan o'z kreditlarini qishloq xo'jaligini rivojlantirish, suv ta'minoti, sanitariya irrigatsiya tizimi va drenajlashni qo'llab-quvvatlashga qaratildi. Jahon bankining mamlakatga berayotgan yordamining asosiy maqsadi quyidagilarga qaratildi:

- valuta va savdo munosabatlari tartibini liberallashtirish shart-sharoitlarini takomillashtirish va bu sohada davlat boshqaruvi samarasini oshirish;
- xususiy sektor va to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish;
- ijtimoiy infratuzilmalar yaratish, davlatning resurslarni qo'llash va taqsimlashdagi samaradorligini oshirish;
- texnikaviy xizmat ko'rsatish va mamlakat infratuzilmasida irrigatsiya-melioratsiya holatini yaxshilashni qo'llab-quvvatlash.

O'zbekiston 1992-yil 19-aprelda Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankiga (YeTTB) a'zo bo'lib kirdi. YeTTB quyidagi o'z strategiyasini e'lon qildi: istiqbolda O'zbekiston xususiy sektorini rivojlantirish va kengaytirish; tabiiy resurslarni o'zlashtirish; energetika sektori, kichik va o'rta korxonalarni, paxtani qayta ishlash va boshqa yengil sanoat turlarini, turizm infratuzilmasini

rivojlantirish. O'tgan davr ichida O'zbekiston davlati bilan YeTTB o'rtasida hamkorlik munosabatlari rivojlanib kelmoqda.

O'zbekiston 1992-yil sentabr oyida Xalqaro valuta fondiga a'zo bo'lib kirdi. Shuningdek, davlatimiz 1995-yil 30-avgustdan boshlab Osiyo Taraqqiyot Bankining a'zosi sifatida bu nufuzli tashkilot bilan hamkorlik qilib kelmoqda. Mazkur bank quyidagi iqtisodiyot sektorlarini takomillashtirishda ishtirok etishini e'lon qildi: qishloq xo'jaligi, transport va kommunikatsiya, ijtimoiy infratuzilmalar yaratish. 2003-yil 11–12-oktabrda Toshkentda Osiyo Taraqqiyot Bankining O'rta Osiyoda mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik bo'yicha xalqaro konferensiyasi bo'lib o'tdi. Konferensiyada aholining ijtimoiy ahvolini yaxshilash, transport, savdo va energetika sohasida paydo bo'ladigan sun'iy to'siqlarni yo'qotish, energetika resurslaridan samarali foydalanish, atrof-muhit himoyasini kuchaytirishda xususiy sektorni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, iqtisodiy infratuzilmani takomillashtirish masalalarini hal etishga doir qator hujjatlar qabul qilindi.

Shuningdek, O'zbekiston 1992-yildan buyon Islom taraqqiyot banki bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ydi, 2001-yil noyabr oyidan boshlab BMTning Qishloq xo'jaligi savdosi tashkiloti (FAO) a'zosi sifatida mazkur tashkilot bilan hamkorlik aloqalarirni rivojlantirib kelmoqda.

2001-yilda O'zbekiston Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo bo'ldi. Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasidagi iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlik ko'lami qanchalik darajada ekanligini tasavvur etish uchun quyidagi ma'lumotlarni keltiramiz: O'zbekiston bilan ShHTga a'zo boshqa davlatlar o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi ko'rsatkichi 2001-yilda 1 mlrd. 781,3 mln. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, oradan besh yil o'tganidan keyin — 2006-yilda 4 mlrd. 541,8 mln. AQSh dollarga yetdi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT) a'zolari bo'lgan mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy-savdo aloqalarini rivojlantirib bormoqda. Hozirgi davrda O'zbekiston tovar aylanmasining 38,3 foizi ShHT a'zolari bo'lgan davlatlari hissasiga to'g'ri keladi. 2005-yildan buyon bu guruhdagi mamlakatlar bilan tovar aylanmasi darajasi deyarli 3 marta ko'payib, 2010-yil yakunlari bo'yicha 10,5 mlrd. dollarni tashkil etdi.

4. Xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi

Mustaqillikning dastlabki davridan boshlab O'zbekiston bilan AQSh o'rtasida iqtisodiy aloqalar rivojlanib kelmoqda. 1993-yildan buyon Amerika — O'zbekiston savdo palatasi o'zaro hamkorlik qilmoqda. Hozirgi paytda O'zbekistonda 193 ta AQSh kompaniyalari ishtirokidagi korxonalar (undan 52 tasi 100 foiz AQSh kapitali asosida) faoliyat yuritmoqda. O'zbekistonda 39 ta AQSh kompaniyalari vakolatxonalari faoliyat yuritmoqda. Bu korxonalar avtomobilsozlik, gaz, neftkimyosi, to'qimachilik, oziq-ovqat, mashinasozlik, qurilish materiallari ishlab chiqarish sohalarida faoliyat yuritmoqda. 2012-yilga kelib esa AQSh — O'zbekiston o'zaro tovar aylanmasi 449,2 mln. dollarga yetdi (eksport — 49,8 mln. dollar, import — 399,4 mln.dollar)[303].

O'zbekiston davlati 1996-yilda Yevropa Ittifoqi bilan keng miqyosdagi hamkorlikni ko'zda tutuvchi Sheriklik va hamkorlik bitimini tuzdi. Bundan tashqari Yevropa Ittifoqi va mamlakatimiz o'rtasida 20 ga yaqin boshqa turdagi shartnomalar mavjud bo'lib, o'zaro ikki tomonlama munosabatlar ham iqtisodiy, ham siyosiy, ham madaniy sohalarda rivojlanib bormoqda. Shu bilan birga, Yevropa Ittifoqi bilan uzoq muddatli, barqaror va xalqaro tamoyillar asosiga qurilgan. 2001-yilga kelib, Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston o'rtasidagi savdo aylanmasi 1 mlrd. 57 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

2006-yilga kelib O'zbekistonda Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga tegishli 500 kompaniya va firmalari faoliyat ko'rsata boshladi. Shulardan 114 tasi yuz foiz Yevropa kapitali asosiga qurilgan. O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi bilan hamkorligini muhim yo'nalishlaridan biri bu TASIS dasturi asosida amalga oshirilayotgan loyihalardir. 1991-yilda, ya'ni sobiq ittifoq tarqalib, ittifoqdosh davlatlar o'z mustaqilligiga ega bo'lganlaridan so'ng Yevropa Ittifoqi komissiyasi TASIS dasturining 29 loyihasini amalga oshirish uchun 50 mln. AQSh dollari, shu bilan birga, xalqaro loyihalarni amalga oshirish uchun 150 mln. AQSh dollari miqdorida mablag'lar ajratdi. TASIS dasturida tovar-ayri-boshlashning o'sishi, transport tarmoqlarini kengaytirish, yangi investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlari, yanada yaqinroq hamkorlikka zarurat oshayotgan atrof-muhitni muhofaza qilish, chegara hududlari hamkorligi va yurisprudensiya doirasidagi o'zaro

munosabatlar va ichki qonun chiqarish kabilarga muhim e'tibor qaratildi. Bundan tashqari, Yevropa Ittifoqi O'rta Osiyo hududidagi hamkorlikni rivojlantirish masalalariga qaratilgan yangi loyihalar doirasida 2002—2006-yillar davomida O'rta Osiyo davlatlari uchun 50 mln. yevro ajratdi.

Xususan, 1992-yildan boshlab, ya'ni Yevropa Ittifoqi bilan O'zbekiston Respublikasi o'rtasida memorandum qabul qilingan davrdan boshlab O'zbekistonga Yevropa Ittifoqining TASIS dasturi bo'yicha grantlar kirib kela boshladi. 1992-yildan 2000-yilgacha bo'lgan davrda texnik yordam ko'rsatish maqsadlarida 111 mln. yevro mablag' ajratildi. TASIS dasturi asosida 2000—2003-yillarda O'zbekistonga 25 mln. yevro mablag' ajratildi.

Yevropa Ittifoqi tomonidan ajratilgan moliyaviy ko'mak iqtisodiy sohalarda islohotlarni tez va samarali rivojlantirishga mo'ljallandi. Yevropa eksporti mahsulotlarining asosiy qismini elektr jihozlari va mashinalar (32%), qishloq xo'jaligi va plastik materiallar (22%) tashkil etdi. O'zbekiston eksportining katta ulushini to'qimachilik mahsulotlari(66%) va qimmatbaho metallar (28%) tashkil etdi.

2012-yilda Toshkentda Yevropa Ittifoqi vakolatxonasi ochildi. Yevropa Ittifoqi 2007-yildan 2013-yilgacha O'zbekiston taraqqiyotini qo'llab-quvvatlash maqsadida 72 mln. yevro miqdorida mablag' ajratdi. Shuningdek, 2014—2020-yillar uchun yana 68 mln. yevro ajratish mo'ljallandi. 2013-yilning o'zida Yevropa Ittifoqi bilan O'zbekiston o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar hajmi 1,65 mlrd. yevroni tashkil etdi[304].

Hozirgi davrga kelib Yevropa Ittifoqi (YeI) bilan savdo-iqtisodiy aloqalar yanada kengayib bormoqda. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan korxonalar soni 841 taga yetib, ulardan 623 tasi qo'shma korxonalar, 218 tasi 100 foiz Yevropa kapitali bilan ishlayotgan turli korxona va firmalardir. O'zbekistonda YeI mamlakatlaridan 266 ta kompaniyaning vakolatxonalari faoliyat yuritmoqda.

Jumladan, Germaniya Federativ Respublikasi bilan ikki tomonlama tovar aylanmasi 2010-yilda 2,5 % o'sib, umumiy hajmi 483 mln. AQSh dollarini (eksport 50,2 mln. dollarni, import esa 432,8 mln. dollar) tashkil etdi. O'zbekistonda Germaniya investorlari ishtirokida tuzilgan 114 ta korxonalar faoliyat yuritib, ulardan 24 tasi 100 foiz nemis kapitali asosida ishlamoqda. O'zbekistonda GFRning 47 ta kompaniya va firmalari vakolatxonalari ish yurit-

moqda. Shuningdek, O'zbekistonda Buyuk Britaniya investorlari ishtirokidagi 396 ta korxona (undan 95 tasi 100 foiz Buyuk Britaniya kapitali asosida) faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, 15 ta Fransiya investorlari ishtirokidagi korxonalar (undan 2 tasi 100 foiz Fransiya kapitali asosida) ishlamoqda[305]. Shuningdek, iqtisodiy sohadagi munosabatlar Italiya, Ispaniya, Turkiya kabi yirik davlatlar bilan iqtisodiy hamkorlik aloqalari rivojlanib bormoqda.

2005-yilning oxiriga kelib mamlakatimizning Yevroosiyo hamjamiyati doirasidagi tashqi iqtisodiy faoliyatni tubdan isloh etish, yaqin qo'shni davlatlar bilan erkin savdo va bojxona hududini shakllantirish, integratsion jarayonlarni yanada chuqurlashtirishga qaratilgan ko'plab huquqiy hujjatlarni qabul qilish, hamjamiyatga a'zo mamlakatlar bilan amalga oshiriladigan tashqi iqtisodiy aloqalarni muvofiqlashtirishni takomillashtirish zarurati paydo bo'ldi.

MDH doirasida Rossiya Federatsiyasi bilan o'zaro iqtisodiy aloqalar rivojlanib bormoqda. Faqat 2006—2007-yillarda ikki davlat boshliqlari 11 marta uchrashib, o'zaro manfaatli kelishuvlarga erishdi. O'tgan uch yil ichida mamlakatlar o'rtasidagi tovar aylanmasi uch marta ko'paydi. 2007-yil natijalariga ko'ra uning hajmi deyarli 4,5 mlrd. AQSh dollariga yetib, bu sohadagi o'sish yiliga 30—35 foizga teng bo'ldi.

Rossiya Federatsiyasi bilan 2011-yil 18-noyabrda Erkin savdo hududida bitimlarni qo'llash protokoli imzolandi. 2012-yilga kelib Rossiya bilan O'zbekiston o'rtasidagi tovar aylanmasi 7914,4 mln. dollarga yetdi. Hozirgi davrga kelib O'zbekistonda 915 ta Rossiya kapitali ishtirokidagi korxonalar faoliyat yuritib, ulardan 761 tasi qo'shma, 154 tasi yuz foiz Rossiya kapitalidan iborat xorijiy korxonalar hisoblanadi. Rossiya Federatsiyasi hududida esa 501 ta O'zbekiston kapitali ishtirokidagi korxonalar faoliyat yuritmoqda. O'zbekistonda Rossiya Federatsiyasining 89 firma va kompaniyalarining vakolatxonasi mavjuddir[306].

Shuningdek, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston kabi MDH a'zolari mamlakatlari bilan ham tashqi iqtisodiy-savdo aloqalari rivojlanib bormoqda. O'zbekiston bilan Qozog'iston o'rtasida faqat 2007-yilning birinchi yarmida 583,4 mln. AQSh dollariga teng tovar aylanmasi amalga oshirildi. O'tgan ikki yil ichida O'zbekistonning Turkmaniston bilan tovar aylanmasi yiliga 25—30 % miqdorida o'sdi. O'zbekiston bilan Ukraina, Qirg'iziston va Belorus davlatlari bilan ham iqtisodiy aloqalar rivojlanib bormoqda.

Xitoy bilan savdo aloqalarida 1992-yildan buyon eng yuqori qulaylik muhitiga asoslangan o'zaro munosabatlarga amal qilib kelinmoqda. 2012-yilga kelib Xitoy — O'zbekiston o'zaro tovar aylanmasi 3230,4 mln. AQSh dollariga teng hajmda amalga oshirildi. Hozirgi davrda O'zbekistonda 411 ta Xitoy investitsiyalari ishtirokida korxonalar faoliyat yuritmoqda (ulardan 63 tasi yuz foiz Xitoy investitsiyasi asosida ishlaydi). O'zbekistonda 66 ta Xitoy kompaniyalari vakolatxonalari faoliyat yuritadi.

So'nggi o'n yillikda O'zbekiston bilan Janubiy Koreya o'rtasidagi 1994-yilda boshlangan o'zaro iqtisodiy aloqalar juda ham jadallik bilan o'sib bormoqda. Janubiy Koreya 2009-yilga qadar O'zbekiston iqtisodiyotiga 2 mlrd. AQSh dollaridan ziyod sarmoya kiritdi. O'zbekistonda koreyalik sarmoyadorlar ishtirokida tuzilgan 351 qo'shma korxona, Janubiy Koreyaning 93 firma va kompaniyasining vakolatxonasi faoliyat ko'rsatmoqda. Ikki mamlakat tashqi iqtisodiy aloqalar — savdo, sarmoya, yoqilg'i-energetika, bank-moliya, qurilish, mashinasozlik, aviatashuv, qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat, kimyo, yengil sanoat, to'qimachilik, sog'liqni saqlash, farmatsevtika, geologiya va mineral resurslar, transport va transport kommunikatsiyalari, axborot texnologiyalari, elektrotexnika, logistika, sayyohlik, mebelsozlik, ko'nchilik va matbaachilik sohalarida hamkorlik qilmoqda[307].

O'zbekiston — Janubiy Koreya eng yirik o'zaro investitsiyaviy hamkor davlatlar hisoblanadi. Ikki tomonlama hamkorlikni muvofiqlashtiruvchi me'yoriy-huquqiy asoslarga doir 200 ta hujjat qabul qilingan. 2012-yilda iqtisodiyotning turli sohalarida istiqbolda amalga oshiriladigan 5 mlrd. dollar hajmga ega loyihalarga doir ikki tomonlama bitim imzolandi. 2013-yilda 2,12 mlrd. dollar hajmda o'zaro savdo amalga oshirildi. Hozirgi davrda O'zbekistonda 420 ta Janubiy Koreya investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar faoliyat yuritib, ulardan 80 tasi 100 foiz Janubiy Koreya kapitali ishtirokida ishlaydi[308]. O'zbekiston va Janubiy Koreya neft kimyosi sohasida dunyoda eng yirik loyihalardan biri — Ustyurt gaz kimyosi majmuasi loyihasini amalga oshirmoqda.

O'zbekiston bilan Yaponiya o'rtasida o'zaro iqtisodiy aloqalar 2002-yilda ikki mamlakat o'zaro imzolagan Do'stlik, strategik sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi qo'shma bayonot asosida rivojlanib kelmoqda. 2013-yilga kelib o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 215 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Yaponiya tomonidan O'zbekistonga kiritilgan moliyaviy-texnik vositalarining umumiy hajmi 2 mlrd. dollardan oshdi.

O'zbekiston—Yaponiya iqtisodiy munosabatlari savdo-iqtisodiy hamkorlik, sarmoyalarni o'zaro himoyalash va rag'batlantirishga oid bitimlar kabi hujjatlarga asoslanib rivojlanmoqda. O'zbekistonda Yaponiya sarmoyasi ishtirokida tuzilgan 10 ta qo'shma korxona, Yaponiyaning 11 kompaniyasi vakolatxonasi faoliyat ko'rsatmoqda. Ular transport, xizmat ko'rsatish, sayyohlik, sog'liqni saqlash, mashinasozlik, metallni qayta ishlash, yengil sanoat, eksport-import operatsiyalarini o'tkazish, sarmoyaviy loyihalar doirasida asbob-uskunalar yetkazib berish kabi yo'nalishlarda faoliyat olib boradi. Yaponiyalik hamkorlar «Ko'kdumaloq» konida kompressor stansiyasini va Buxoro neftni qayta ishlash zavodini qurish, Farg'ona neftni qayta ishlash zavodini rekonstruksiya qilish, Samarqand, Buxoro va Urganch aeroportlarini modernizatsiyalash kabi yirik loyihalarni amalga oshirishda faol ishtirok etdi.

Hozirgi davrda Yaponiya bilan hamkorlikda Qarshi—Termiz temiryo'l tarmog'ini elektrlashtirish, Navoiydagi issiqlik elektr stansiyasini kengaytirish va Tollimarjon issiqlik elektr stansiyasini modernizatsiya qilish bo'yicha loyihalar amalga oshirilmoqda[309].

2012-yilga kelib O'zbekiston hududida ShHT mamlakatlari investorlari ishtirokida 1601 ta korxona (shundan 270 tasi 100 foiz xorijiy kapital asosida) faoliyat yuritmoqda. Hozirgi davrga kelib O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi huzurida ShHT a'zosi bo'lgan davlatlar kompaniyalari va firmalarining akkreditatsiya qilingan 178 ta vakolatxonalari faoliyat yuritmoqda[310].

Mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalari 2006-yil boshiga kelib dunyoning 40 davlati bilan savdo-iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi o'zaro kelishuvlarda ifodalandi. Shuningdek, 35 davlat bilan sarmoya kiritishni rag'batlantirish va himoyalash to'g'risidagi kelishuvlarga erishildi.

1990-yilda O'zbekiston davlatining tashqi savdo aylanmasi 805,6 mln. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2012-yilga kelib tashqi savdodagi ijobiy saldo 1 mlrd.120 mln. AQSh dollaridan oshib ketdi. Eksport hajmi 11,6 foizga oshdi, eksport qilinadigan mahsulotlarning sifati ortdi. 2012-yil yakunlari bo'yicha tashqi bozorga 1930 turdagi tovarlar yetkazib berildi. Bozorlarda tovarlarni sotilishi jarayonini diversifikatsiyalash evaziga ularni eksport qilish geografiyasi doirasi 179 ta davlatni o'z ichiga oldi[311].

2013-yilda mamlakatning tashqi savdo aylanmasi 9,4 foiz, jumladan, eksport hajmi 10,9 foiz, import hajmi 7,7 foiz, shunga

tegishli ravishda tashqi savdoning ijobiy saldosi 1,3 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi. Tashqi savdo aylanmasi 2014-yilning birinchi yarmida 14 mlrd. AQSh dollarini tashkil etib, 2013-yilning shu davridan 6,3 foizga o'sdi. Jumladan, eksport hajmi 8 foizga, import esa 4,6 foizga o'sdi. Shunga muvofiq ravishda tashqi savdo saldosi 482,1 mln. AQSh dollarini tashkil etdi[312].

O'zbekistonning tashqi iqtisodiy siyosatining strategiyasi Prezident I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan quyidagi prinsiplarga asoslanib amalga oshirila boshlandi: mafkuraga bog'liq bo'lmagan holda savdo-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish, teng huquq va o'zaro manfaatlarga asoslangan hamkorlik, xalqaro huquq me'yorlarining ustuvorligi, raqobat bilan hamkorlikning oqilona muvozanati, xorijiy mamlakatlar hamda investorlar uchun eng zamonaviy texnologiyalarni jalb etishni ta'minlaydigan qulay shart-sharoitlar yaratish. Ana shu prinsiplar mamlakatni xalqaro integratsiyaga kirishini ta'minlab berdi.

Qisqa davr ichida O'zbekiston jahon iqtisodiy integratsiyasi hamjamiyatidan o'ziga munosib o'rin egallay oldi. Buning zamirida Yurtboshimiz va davlatimiz tomonidan mamlakatimizning asosiy strategik pirovard maqsadini bozor iqtisodiyoti munosabatlariga asoslangan fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish deb e'lon qilinishi, bu ulug'vor maqsadni amalga oshirishga doir islohotlarni «Kuchli davlatdan — kuchli fuqarolik jamiyati sari» tamoyili asosida yanada chuqurlashib borayotganligi yotadi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Prezident I.A.Karimov tomonidan davlat tashqi iqtisodiy siyosatiga doir qanday demokratik prinsiplar ilgari surildi?
2. Tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish uchun qanday tashkiliy chora-tadbirlar amalga oshirildi?
3. Tashqi iqtisodiy aloqalarga doir qanday qonunlar qabul qilindi? Ularning mazmun-mohiyati nimalardan iborat?
4. O'zbekiston davlati qanday xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ydi?
5. O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalari qanday rivojlanmoqda?

XULOSA

Mustaqil O'zbekiston davlatining jahon xaritasida paydo bo'lganiga endi 23 yil bo'ldi. Agar mamlakatimizning qadimgi davrdan boshlab hozirgacha bo'lgan uch ming yildan ortiqroq tarixiga razm solsak, hech qachon yurtimizda o'zining siyosiy ahamiyati, salmog'i, o'zgarishlarga boyligi, ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini rivojlanishi, taraqqiyot odimlari, fuqarolarining erkin-eminligi, xalq dunyoqarashining yangilanishi, milliy-ma'naviy yuksalishi, voqeliklarga boyligi, sanoatining o'sishi, jahonga tanilishi, obodonchiligining mahobati, tinchligi va farovonligi kabi jihatlardan yurtimizda mustaqillik davridagi kabi tarixiy ravnaqqa erishilmagan. O'zbekiston qisqa 23 yil ichida asrlarga teng bo'lgan davrni bosib o'tdi. Tarix mezonlari nuqtayi nazaridan — bu juda ham qisqa davr.

Deyarli yarim ming yildan buyon feodal tarqoqlik, o'zaro urushlar, chorizm mustamlakachilik zulmi, sho'rolar istibdodi ostida o'z milliy ma'naviyati va madaniyatini unutayozgan xalqimiz mustaqillik davriga kelib uyg'ondi, o'zini o'zi anglay boshladi, o'zidagi yaratuvchilik salohiyatini namoyon qila boshladi. Albatta, mustaqillik davridagi o'zgarishlar va barcha yutuqlar Prezident I.A.Karimov boshchiligida davlatimizning sa'y-harakatlari, xalqimizning g'ayrat-shijoati natijasida qo'lga kiritildi.

Mustaqillik davridagi tub o'zgarishlar, mamlakatimiz erishgan ulkan yutuqlarni Prezident I.A.Karimov shunday talqin etadi: «Bugungi kunda Konstitutsiyamiz muhrlab qo'ygan tamoyillarni amalga oshirish yo'lidan dadil qadamlar qo'yib borayotganimiz, davlat qurilishi, ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy va gumanitar sohalarda biz amalga oshirayotgan keng ko'lamli islohotlar va demokratik yangilanishlar, aholi turmush darajasi va sifatining jadal o'sib, yurtimiz qiyofasi, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi o'rni butunlay o'zgarib borayotgani barchamizga katta g'urur va iftixor bag'ishlaydi. Eng muhimi, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligi va ta'sirchanligi

O‘zbekistonning dunyodagi rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirishi uchun bugungi kunda barcha imkoniyatlar yaratildi, deb aytishga to‘la asos beradi»[313].

Ochiq-oydin ko‘rinib turibdiki, mamlakatimiz hozirgi davrda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatni qurishning eng mas’uliyatli pallasida turibdi. Mamlakatda fuqarolik jamiyatiga xos bo‘lgan qonunchilik asoslari shakllantirildi, jamiyatning yangi tuzilmalari — institutlari rivojlanib bormoqda. Fuqarolik jamiyatining iqtisodiy tayanchi bo‘lgan mulkdoriar sinfi shakllandi. Mamlakatda davlat hokimiyati organlarini ko‘ppartiyaviylik asosida shakllantirish an’anaga aylandi. Yangi jamiyat qurish islohotlari insonlarda bir necha asrlab yashirinib yotgan — shaxsiy tashabbus ko‘rsatish, xususiy mulkchilikka intilish, davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirok etish, shaxsiy manfaatlarni Vatan manfaatlari bilan mushtarak holda his etish, kelajakka — erkin va farovon hayot, ozod va obod Vatan barpo etishga intilish kabi yaratuvchilik fazilatlari shakllandi.

Shunday mas’uliyatli bir davrda yoshlar dunyoqarashini mamlakatda amalga oshirilgan va ro‘y berayotgan demokratik jamiyat qurish islohotlari va unga doir nazariyalar bilan boyitish hozirgi davrning eng dolzarb vazifalaridan biridir. O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanini yoshlar ongiga singdirish ana shu dolzarb vazifani bajarish yo‘lidagi sa’y-haraktlardan biridir. Zero, yangi jamiyatni barpo etishga erishish nazariya bilan amaliyot uyg‘unligi asosidagi faol samarali mehnat va yaratuvchilik natijasiga mutanosibdir.

Ma’lumki, bakalavr yo‘nalishi 4-bosqichida talabalar O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanini o‘rganishni o‘z nihoyasiga yetkazadi. Bitiruvchi kurs talabasi bu fandan olgan bilimlari va o‘zlashtirgan nazariy qarashlarni o‘zining mutaxassisligi bilan uyg‘un tarzda hayotda qo‘llay olishi natijasida uning oldida yangi imkoniyatlar paydo bo‘lishi kutiladi. Chunki, o‘z shaxsiy va ijtimoiy hayotini endigina boshlagan yosh mutaxassis ish faoliyati jarayonida turli muammolar va qiyinchiliklarga duch kelishi tabiiy bir holdir. Ana shunday lahzalarda jamiyat qurishga doir nazariy ishlanmalar yosh mutaxassisga qo‘ldosh bo‘lishiga umid qilamiz.

Lekin, O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanining o‘ziga xos jihatlaridan biri shuki, u hech

qachon bir joyda qotib turmaydi. Nafaqat mamlakatimzdagi demokratik jamiyat qurishga doir islohotlar shiddat bilan tobora chuqurlashib va takomillashib bormoqda, balki jahondagi demokratik tamoyillar va qadriyatlar ham yildan yilga boyib va yangidan yangi jihatlarga ega bo'lib bormoqda. Shuning uchun ham bu fanni egallash yosh mutaxassisning mehnat faoliyatida ham davom etadi. Chunki, mutaxassisning istiqboli, jamiyat va davlat hayotidagi ishtirokining ko'lami, boshqaruvga doir malakasini oshib borishi ko'p jihatlardan uning muttasil ravishda ijtimoiy-siyosiy bilimlarni o'zlashtirib borishiga ham uzviy bog'liqdir.

Xullas, hozirgi fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga doir islohotlar davri uchun eng zarur bo'lgan, Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan barkamol avlodga mansub bo'lish demak — demokratik jamiyat qurishga doir nazariy bilimlarni puxta egallash, o'z kasbiy madaniyatini doimiy ravishda rivojlantirib borishga moyil bo'lish, amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmuni va maqsadlarini anglash demakdir. Shuning uchun ham davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishi yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

GLOSSARIY

Avtonomiya — yunon. autos+nomos — o'zi+qonun: 1. Yagona davlat miqyosida hududiy-milliy tuzilmalarga (viloyat, o'lka) o'zini o'zi boshqarish vakolatlarini berish; 2.Ma'muriy-hududiy birlik; 3.Qandaydir organlar (xo'jalik, davlat, partiya va boshqalar) faoliyatlaridagi o'zini o'zi boshqarish huquqi.

Avtoritar — lot. aucoritas — hokimiyat, ta'sir hokimiyatning bir kishi yoki bir hokimiyat organi qo'lida to'planishi, diktatorlik uslublari bilan idora etishga asoslangan siyosiy rejim.

Agregatsiya — lot. qo'shish, birlashtirish — manfaatlar guruhlari tomonidan ko'plab ayrim manfaatlarni munozaralar va muhokamalar yordamida uyg'unlashtirish jarayoni.

Aksiologiya — yunon. axia — qadriyat, logos — so'z, ta'limot; qadriyatlar nazariyasi.

Akt — actum — hujjat, davlat va jamiyat ahamiyatiga ega bo'lgan rasmiy hujjat (qonun, farmon, qaror).

Aktor — lot. aktor — «aktyor» so'zidan olingan jamiyat subyekti.

Aksiya — lot. actio — harakat; qandaydir maqsadga erishish uchun harakat qilish.

Alternativ — lot. alter — boshqa, almashinuv, o'zga; muqobil; boshqadan yaxshiroq; ikki yoki bir necha imkoniyatlarning biridan foydalanish, tanlash.

Alyans — fran. alliance — ittifoq; davlatlararo ittifoq; umuman ittifoq, birlashma.

Anarxizm — yunon. anarchia — boshliqsizlik, hokimiyatsizlik; jamiyatni davlatsiz qurish, har qanday institutlashgan hokimiyat shaklini fuqarolarning erkin va ixtiyoriy uyushmalariga almashtirish tarafdori bo'lgan siyosiy oqim.

Antisistema — yunon. anti — qarama-qarshi; muholifatdagi partiyaga nisbatan ishlatiladigan atama.

Apparat — lot. apparats — *muassasa; ijroiya tizilmalari, jamiyat* institutlari va barcha darajadagi boshqaruv kadrlaridan iborat bo'lgan hokimiyat instituti.

Aristokratiya — yunon. aristokiratia; zodagonlar hukmronligi; biron-bir ijtimoiy qatlam yoki guruhning imtiyozli qismi.

Artikulatsiya — lot. articulatio — aslzoda; birikma, ulama bo'g'in; manfaatlar guruhlari tomonidan individlardagi turli tarqoq qarashlar va fikrlarni bir tizimga keltirish, biron-bir tashkilotning bir qolipga solingan manfaatlar tizimi.

Arxaik — yunon. archaios — qadimiy.

Assotsiatsiya — lot. association — qo'shilma; qo'shilish, aralashish; shaxslar birlashmasi yoki faoliyat turi bo'yicha tuzilgan muassasa.

Atomlashgan — yunon. atomos — bo'linmas; materiya abadiy o'zgarmas va bo'linmas harakat qiluvchi mayda bo'laklardan — atomlardan iborat; siyosatda mafkuraviy mohiyatiga ko'ra o'ta qutblashish ma'nosini beradi.

Axborot — (informatsiya) lot. informare — tasvirlamoq, nimadir haqida tushuncha tuzish; kimnidir faoliyati, nimadir faoliyati yoki ishning ahvoli haqida xabar, xabardorlik.

Bipartizm — lot. bi+partis — ikkita partiya; ikki partiyaviylik.

Blok — ingl. bloc — bitim; davlatlar, siyosiy partiyalar yoki boshqa tashkilotlarning umumiy maqsadlarga erishish uchun hamkorlikda harakat qilish bitimi.

Byurokratiya — fr. bureau — byuro+yunon. kratos — hokimiyat, kuch-qudrat; davlat boshqaruvi oliy mansabli ma'muriyati.

Voluntarizm — lot. voluntas — iroda; bu tushuncha subyekt irodasi asosida siyosat yuritayotgan shaxs yoki shaxslarga nisbatan ishlatiladi.

Gegemon — yunon. hegemon — dohiy; bir davlat, yoki ijtimoiy qatlam, yoki partiya tomonidan boshqa davlat, ijtimoiy qatlam va partiyaga o'z qarashlarini, siyosiy yo'lini zo'rlab va majburan o'tkazish.

Genezis — yunon. genesis — kelib chiqish; paydo bo'lish, tashkil topish jarayoni.

Geterogen partiya — yunon. heteros+genos — boshqa+kelib chiqish; turli qismlardan tarkib topgan jins, hodisa; turli xil saylovchilardan ovoz olishga intilayotgan partiya.

Gibrid partiyalar — yunon. hybridos — qonlar aralashishi; u yoki bu turdagi partiyalar xususiyatlarini o'zida ifodalaydigan partiyalar (saylovlardagi faoliyat usullari).

Gipoteza — yunon. hypothesis — taxmin; faraz.

Gipotetik — yunon. hypothetikos — gipoteza; gipotezaga asoslangan, taxminiy, faraziy.

Global — fran. global — umumiy; umuman olganda, butun yer yuzi bo'ylab.

Gradualizm — lot. gradatio — asta-sekinlik bilan o'zgarish; bir iqtisodiy tizimdan ikkinchisiga asta-sekin va ohista tarzda, keskinliksiz va «shok terapiya»si usulisiz o'tish.

Guruh — manfaatlar, qarashlar, kasbiy, faoliyat tarzi bo'yicha birlik va umumiylik kasb etgan shaxslar yig'indisi, birlashmasi.

Demokratiya — yunon. demos+ kratos — xalq+hokimiyat; xalq hokimiyati (hokimiyatning vakillik organlarini tuzish), siyosiy pluralizm va ko'p partiyaviylik, hammaning qonun oldida tengligi, fuqarolarnig konstitutsion huquq va erkinliklarini saqlash prinsiplariga asoslangan jamiyatni siyosiy tashkil etish shakli.

Determinant — lot. determinas — *aniqlovchi; belgilovchi*, ta'riflovchi.

Deklaratsiya — lot. declaraiio — dalillash; o'z harakatini oqlash uchun dalil va asos ko'rsatish.

Desentralizatsiya — nomarkazlashtirish; markaziy hokimiyat organlari vakolatlarining bir qismini mahalliy hokimiyat organlari, o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat tashkilotlarga berish; markazlashuvni bo'shashtirish yoki bekor qilish, tugatish.

De-fakto — lot. de facto; aslida, haqiqatan.

De-yure — lot. de jure; yuridik, huquq bo'yicha, rasman.

Diversifikatsiya — lot. diversification — o'zgarish, turli-tumanlik, faoliyatni har tomonlama va turli-tuman yo'nalishlarda rivojlantirishga strategik mo'ljal olish. Masalan, kapitalni diversifikatsiyalash — iqtisodiy tavakkalchilikning xavfli oqibatini kamaytirish maqsadida kapital mablag'larni turli obyektlar o'rtasida bo'lib-bo'lib joylashtirish.

Differensiatsiya — fran. differentiation; lot. differentia; *farqlanish. Nimanidir turli qismlarga, shakllarga, darajalarga* bo'linishi, qatlamlashishi, bo'linishi, unsurlarni tashkil etishi.

Doktrina — lot. doctrina — ta'limot; ilmiy yoki falsafiy nazariya; amal qilayotgan nazariy yoki siyosiy tamoyil.

Dominant — lot. dominans — hukmronlik qiluvchi; parlamentda mutlaq ko'p o'rin egallagan ustunlik qiluvchi partiyalarga nisbatan ham qo'llaniladi.

Dualizm — lot. dualis — ikki taraflamalik; ikkita mustaqil asosga ega bo'lish ma'nosida ishlatiladi.

Individ — lot. individuum — bo'linmas, alohida; inson zotining alohida olingan namunasi, uning vakillaridan biri; har biri alohida, mustaqil mavjud bo'lgan tirik organizm; shaxs esa u yoki bu inson sifatida namoyon bo'lib, u ma'lum va betakror individuallikka ega bo'ladi.

Inson huquqlari — unga tor ma'noda faqat davlat himoya qiladigan va kafolat beradigan huquqlar kirib, bu huquqlarga barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, yashash va jismoniy daxlsizlik huquqi, inson qadr-qimmatini hurmat qilish, noqonuniy ushlash yoki qamashga yo'l qo'ymaslik, vijdon va din erkinligi, ota-onalarning o'z bolalarini tarbiya qilish huquqlari kiradi. Keng ma'nodagi inson huquqlari esa o'zida shaxs erkinligi va huquqlarining keng majmuasi va turlarini ifodalaydi.

Instansiya — lot. instantia — bevosita, to'g'ridan to'g'ri yaqinlik; bir-biriga bo'ysunadigan organlar tizimidagi izchillikning alohida-alohida pog'onalari.

Institut — lot. institutum — mahkama, idora, muassasa; tizimlashtirilgan, hammaga tanilgan, amalda qo'llanilayotgan va e'tirof etilgan (har qachon ham o'z rasmiy tasdig'ini topavermaydigan), u yoki bu tarzda mustahkamlangan qoidalar va me'yorlarga muvofiq o'zaro xatti-harakat qilish uchun qo'llab-quvvatlanayotgan ko'rsatmalarga ega bo'lgan ijtimoiy agentlarning o'zaro xatti-harakatlari shakllari kiradi.

Integratsiya — lot. integratio — tiklanish, bajarish; integer — bir butun; qandaydir qismlarning bir butunlikka birlashishi.

Informatsiya — lot. informatio — xabardor qilish, tushuntirish, bayon qilish ma'nolarini beradi. Shuningdek, lot. informare — shakl berish qabilida ham ishlatiladi.

Isteblishment — ingl. establishment — o'rnatish, asos, muassasa; jamiyatga ta'sir etish hokimiyatiga ega bo'lgan davlatga

qarashli, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy institutlar va tashkilotlar; mazkur institut va tashkilotlarda asosiy hal qiluvchi o'rinlarni egallagan guruhlar va shaxslar.

«Ittixodi taraqqiy» — jadidlarning «Taraqqiyparvarlar uyushmasi» partiyasi.

Jamoa — lot. collectivus — umumlashma, umumlashgan; umumiy faoliyat, umumiy maqsad va manfaatlar asosida birlashgan shaxslar guruhi.

Jentlmen — ingl. gentleman — xush muomalali odam; axloq prinsiplariga amal qiluvchi odam.

Kampaniya — fran. campagne — yurish, campagna — dala, jang dalasi; qandaydir ijtimoiy-siyosiy vazifani amalga oshirishga doir ish, faoliyat; rejada belgilangan muddatlarda amalga oshiriladigan ish.

Kasaba uyushmalari — korxona, muassasa, o'quv yurti va boshqa mehnat jamoalarida ishlayotgan ishchi va xodimlarni ijtimoy manfaatlarini himoya qilish, ish beruvchilar bilan ishlovchilarning ijtimoiy sherikchiligini tashkil etish maqsadida faoliyat yuritadigan nodavlat notijorat tashkiloti.

Kvazidemokratizm — lot. quasi+demokratia — go'yoki huddi + demokratizm; soxta, tag-tugi yo'q, xayoliy demokratizm.

Klassik — lot. classicus — birinchi sinfli; umum e'tirof etilgan yozuvchi, shoir, fan yoki san'at arbobi, shu sohalarda namuna bo'lgan arboblar; qadimgi yunon yoki Rim davriga mansublik, antik davrga mansublik; ba'zan majoziy ma'noda har tomonlama tugal siyosiy partiyalarga nisbatan ham qo'llaniladi.

Klub — ingl. club; ma'lum doiradagi yoki kasb-hunarga mansub bo'lgan kishilarning o'z faoliyatlari yoki siyosiy maqsadlarini amalga oshirish, birgalikda ko'ngil ochish niyatida birlashgan jamoat tashkiloti; madaniy-ma'rifiy muassasa.

Koalitsion — lot. coalitus — birlashgan; umumiy maqsadlarga erishish niyatlarida ixtiyoriy ravishda tashkil topgan ittifoq yoki birlashma; siyosiy partiyalarning birgalikda hukumatni shakllantirish maqsadlarida yoki hukumat tarkibida ishtirok etish uchun o'zaro kelishuvi, ittifoqi.

Konvent — lot. conventus — majlis, yig'in; ba'zi mamlakatlarning qonun chiqaruvchi organi.

Kongress — lot. songressus — uchrashuv, majlis; xalqaro

qurultoy; AQSh va ko'pchilik Lotin Amerikasi mamlakatlari parlamenti.

Konservatizm — lot. conservativus — qo'riqlanuvchi; eski tuzum, eski tartiblarga berilish; ularni tiklash uchun intilish; siyosat, fan, adabiyot kabilardagi yangilik va ilg'or g'oyalarga qarshi dushmanlik kayfiyati.

Konsepsiya — lot. conceptio — idrok qilish, idrok, o'zlashtirish; u yoki bu hodisalarga nisbatan qarashlar tizimi; qandaydir hodisalarni ko'rib chiqish, nimanidir anglash usuli.

Konyunktura — lot. conjunctura — bog'lash, qo'shish. Bozor konyunkturasi — talab va taklif, baholar darajalari, mollar zaxiralari, shuningdek, iqtisodiy o'zgarishlar davri — ko'tarilish yoki tanazzul kabilar o'zaro tegishli nisbati natijasida erkin bozorda yuzaga kelgan iqtisodiy vaziyatlar. Konyunkturaning birinchi belgisi uning tez o'zgaruvchanligi, doimiy emasligi va aksariyat hollarda tebranib turishi hisoblanadi.

Kooperatsiya — lot. cooperatio — hamkorlik; ko'pchilik kishilarning birgalikda bitta yoki o'zaro bir-birlariga bog'liq bo'lgan bir necha faoliyatlardagi ishtiroki, mehnatni tashkil etish shakllaridan biri; ishlab chiqarish va mahsulot ayirboshlash sohasidagi jamoaviy birlashma.

Korrupsiya — lot. corruption — aynish, buzilish, sotib olish; mansabdor shaxslar va siyosiy arboblarni xiyonati va sotqinligini ifodalaydigan tushuncha.

Leviafan — Bibliyadagi ulkan yovuz, bahaybat dengiz mahluqi obrazi.

Liberalizm — lot. liberalis — erkinlikka taalluqli; o'rta mulkdorlar ijtimoiy qatlamining ishbilarmonlik erkinligi, parlamentarizm, demokratiya tarafdori bo'lgan oqimi, siyosiy mafkura, siyosiy qarash.

Legitimlash — lot. legitimus — qonuniy, qonunlashgan; qandaydir huquq yoki vakolatlarni qonuniy ekanligini tan olish yoki e'tirof etish.

Leyboristik partiya — ingl. labour — mehnat; Angliyada 1906-yilda tuzilgan o'ng sotsialistik partiya.

Liga — lot. ligare — bog'lamoq; ijtimoiy-siyosiy birlashma; davlatlar, tashkilotlar, alohida shaxslar ittifoqi.

Lobbi — lot. lobyy-kuluar; jamiyatdagi ma'lum bir siyosiy doiralar, kuchli iqtisodiy tizilmalar manfaatlarini ifodalovchi, ana

shu manfaatlarni amalga oshirish uchun parlament va mansabdor shaxslarga bosim o'tkazishga intilayotgan guruhlar.

Lokal — lot. localis — mahalliy; ma'lum joy yoki hududga xos, mansub, tegishli.

Majoritar — fran. majoritaire — ko'pchilik; lot. major — katta, ko'p so'zidan olingan; ko'pchilikka taalluqli, tegishli; ko'pchilikka asoslangan. Ba'zan «ko'tarinki», «quvnoq kayfiyat» ma'nolarini ham beradi.

Manifestatsiya — lot. manifestatio — yo'qolgan narsani topish, faollikni namoyon bo'lishi; hamdardlik, hamkorlik yoki qarshilikni bildirish maqsadida o'tkaziladigan ochiq ommaviy chiqishlar.

Manfaatlar — (interes) — lot. interest — ahamiyat kasb etish, muhim; obyektiv ravishda ahamiyat kasb etgan, inson, jamoa, millat, *jamiyat kabilar uchun zarur bo'lgan zaruriy ehtiyojlar; kimgadir* farovonlik bag'ishlaydigan, kimgadir foyda keltiradigan narsalar.

Manfaatlar guruhlari — unga a'zo bo'lgan kishilarning manfaatlarini boshqa guruhlar va siyosiy institutlarning o'zaro munosabatlarida, shuningdek, o'z guruhi ichida ifoda qilish uchun tuzilgan ixtiyoriy tashkilotlar.

Mentalitet — fran.mentalite; lot. mentalis — aqliy, ruhiy, ma'naviy, aql yo'nalishi, aql bichimi, aqliy yetuklik, zakovat; *ma'lum shaxs, ijtimoiy guruh (kichik, katta, milliy) uchun* xarakterli bo'lgan dunyoqarash, dunyoni anglash, atrof voqelikni qabul qilish usuli; fikrlash tarzi.

Mexanizm — yunon. mechane — qurol, inshoot; harakat va tezlikni amalga oshirish yoki uzatish qurilmasi. Siyosatda majoziy ma'noda biron-bir reja, dastur, maqsadni amalga oshirish yo'l-yo'riqlari va vositalariga nisbatan qo'llaniladi.

Minoritar — fran. mineur — kichik; mag'lubiyatga uchragan yoki parlamentdan kam deputatlik o'rinlari olgan partiyaga nisbatan qo'llaniladi; «minor» so'zi «xafa», «g'amgin», «qayg'uli kayfiyat» kabi ma'nolarni ham beradi.

Model — fran. modele — namuna, tarx, nimanidir tasviri yoki tavsifi.

Modernizatsiyalash — fran. modernizer — zamonaviy; zamonaviylashtirish, hozirgi davr talablari, tarzi va didiga mutanosib ravishdagi o'zgarishlarni amalga oshirish.

Monarxiya — yunon. monarchia — yakka hokimiyat; feodal davlatlar boshlig'iga ishlatilgan. Hozirgi davrda esa ba'zi mamlakatlarda timsoliy xarakterdagi parlament monarxiyasiga nisbatan majoziy ma'noda ham qo'llaniladi.

Munitsipal boshqaruv — ingl. municipal — o'zini o'zi boshqarish; bu boshqaruvning nisbatan nomarkazlashgan shaklidir. Shu bilan bir vaqtning o'zida u fuqarolik jamiyatining instituti hisoblanadi. Bunday boshqaruv organlarining asosiy belgilari, — ularning saylanishligi va o'z hududidagi aholi manfaatlari asosida mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan ishlarga rahbarlik qilishdagi nisbatan mustaqillik.

Munitsipalitet — fran.municipalite — shahar o'zini o'zi boshqarish organi; ko'pchilik mamlakatlardagi o'zini o'zi boshqarish organlari.

Muxtoriyat — arab. o'ziga o'zi mustaqil; avtonomiya.

Neoliberal — lot. liberalis — erkin; neoliberalizm, klassik liberalizmdan farq qilib, iqtisodiyotni davlat tomonidan nazorat qilishni inkor etmaydi, lekin uni funksiyasini faqat raqobat prinsiplari va erkin bozor qonunlarini o'rnatishda, deb qaraydi. Erkin bozor va cheklanmagan raqobatni iqtisodiy o'sish yaratgan imkoniyatlar asosida taraqqiyotni ta'minlash va ijtimoiy adolatga erishish, deb biladi. Iqtisodiy o'sishni YaIM bilan o'lchaydi. Bu oqim sotsial-liberalizmga nisbatan muholifat sifatida shakllandi.

Nodavlat notijorat tashkiloti — jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan o'zini o'zi boshqarish tashkilotidir.

Oligarxiya — yunon. oligos — ozchilik, kichik, katta bo'lmagan + arche — hokimiyat, hukmronlik; siyosiy hukmronlik, ta'sirli shaxslarning tor doirasiga tegishli bo'lgan hokimiyatni idora etish shakli.

Ommaviy axborot vositalari — bu — maxsus texnika vositalari yordamida axborotlarni oshkora va ochiq tarzda uzatish maqsadlarida jamiyatda tashkil etilgan muassasalar tizimidir. OAV televideniya, radio, matbuot, kino, ovoz yozish, tasvirga olish, ommaviy ma'lumotnomalar kabilardan iboratdir.

Oxlokratiya — yunon. ochlos — olomon+kratos — hokimiyat; olomon hukmronligi; populistik shiorlar bilan jamiyatdagi

qashshoq qatlamlarga suyanib faoliyat yuritadigan ijtimoiy-siyosiy guruhlar hokimiyati.

Palata — lot. palatium — saroy; parlamentning tarkibiy qismi.

Papa — lot. papa — ota; Rim katolik cherkovi boshlig'i.

Parlament — ingl. parlament, frans. parler — gapirmoq va so'zlamoq; parlament — oliy qonun chiqaruvchi vakillik organi hisoblanadi.

Partiya — lot. pars (partis) — qism, guruh; qandaydir ijtimoiy qatlam yoki guruh manfaatlarini ifodalovchi, qandaydir siyosiy maqsadlarni ko'zlovchi tashkilot.

Passiv saylov huquqi — fuqarolarning saylanadigan davlat organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlariga saylanish huquqi.

Paternalizm — lot. paternus — otalarcha; jamiyatdagi davlatning o'rnini kuchaytirish, davlatni fuqarolarga homiylik qilishini amalga oshirishga doir hokimiyat institutlarini tuzishga moyil davlat doktrinasi.

Piar — ingl. PR — public relations — jamoatchilik bilan aloqalar; siyosiy va ijtimoiy munosabatlar subyektlari o'rtasida o'zaro aloqalarni o'rnatish maqsadlarida zamonaviy kommunikativ texnologiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan axborot-tahlil, targ'ibot-tashviqot (reklama) xarakteridagi maxsus faoliyat bilan shug'ullanish faoliyati.

Pluralizm — lot. pluralis — turlicha, turli-tuman; turli ijtimoiy qatlamlar manfaatlarini ifodalovchi turli-tuman ijtimoiy-siyosiy kuchlar mavjud bo'lgan siyosiy tizim.

Populizm — lot. populus — xalq; xalq ehtiroslari va ehtiyojlari foydalanib, ularni aldash, yolg'on va'dalar bilan o'z siyosiy maqsadlariga erishish, obro'ga erishish o'yinlari.

Prezident — lot. praesidens (praesidentis) — oldinda o'tiruvchi, raislik qiluvchi, boshda turuvchi so'zlaridan olingan bo'lib, ko'pchilik boshqaruvning respublika shakllaridagi mamlakatlarda ma'lum bir muddatga saylangan davlat boshlig'i.

Pressa — fran. presse — ommaviy axborot vositalari; ommaviy joriy matbuot.

Prinsip — lot. principium — asos, dastlabki, boshlang'ich; asos bo'ladigan poydevor g'oyalar; xulq, faoliyat va xatti-harakatning asosiy qoidasi.

Proporsional — lot. proportionalis — mutanosib; saylovlarda nomzodlar uchun beriladigan ovozlar ro'yxatlar bo'yicha beriladigan, har bir ro'yxat uchun berilgan ovozlarga mutanosib ravishda joy egallanadigan saylov huquqi tizimi.

Protopariyalar — yunon. protos — dastlabki+partis — partiya; dastlabki partiyaga o'xshash tashkilotlar.

Profitsit — budjetga nisbatan qo'llanilganida budjetning daromad qismini uning xarajat qismiga nisbatan ortiq bo'lganligini ifodalaydi.

Per — lot. par — teng; o'rta asrlardagi oliy aristokratiya vakillari unvoni; keyinchalik parlamentning perlardan iborat yuqori palatasi shakllandi, per unvoni keyingi avlodga meros bo'lib o'tadigan bo'lib qoldi.

Radikalizm — lot. radicalis — tub; 19 asrda tub (radikal) islohotlar va o'zgarishlarni talab qilib chiqqan siyosiy oqim.

Rejim — fran. rejime; davlat tuzumi, idora etish obrazi.

Sarbadorlar — sar — bosh, dor, «boshni dorga tikkanlar»; 15 asrda Movarounnahrda tenglikka asoslangan davlat va jamiyat qurish uchun harakat qilgan siyosiy oqim.

Senat — lot. senatus — eski, qariya; ko'pchilik mamlakatlar parlamentining yuqori palatasi.

Siyosiy madaniyat — insonning siyosiy hodisalarga doir qadriyatlarga oid tasavvurlari va uning amaliyotda namoyon bo'ladigan xulqi kodeksi yoki uning siyosiy hokimiyat subyekti sifatidagi faoliyat uslubi. Shu ma'noda, siyosiy madaniyat fuqaroning umuminsoniy ahamiyatga molik bo'lgan siyosiy faoliyat namunalarini qay darajada egallaganligini namoyish qiladi.

Sikl — yunon. kyklos — g'ildirak, doira, aylanma; qandaydir vaqt oralig'ida o'z rivojlanish doirasini tugatayotgan qandaydir hodisa, ish, jarayonlar yig'indisi.

Sotsial — lot. socialis — ijtimoiy, jamoatchilik; jamiyat va ijtimoiy munosabatlar bilan bog'langan.

Sotsium — lot. socium — umumiy, birgalikdagi; insonlar hayot faoliyati shart-sharoitlarini birligini xarakterlovchi ijtimoiy umumiylik, birlik.

Sosietal — ingliz. societal; jamiyatga taalluqli, uni bir butunligini ifodalovchi tushuncha; madaniyat, sivilizatsiya, davr, umuman jamiyatni ifodalaydigan ijtimoiy hodisalar va moddiy obyektlar yig'indisi.

Suveren — fran. souveraim — oliy so'zidan olingan bo'lib, oliy, suverenitetga ega bo'lish, mustaqil, qaram bo'lmagan ma'nolarini beradi.

So'l — siyosiy kuchlar joylanishida jamiyat ijtimoiy-siyosiy tuzilishida inqilobiy o'zgarishlarni mo'ljal qilib olgan radikal oqim.

Tabaqa (qatlam) — o'xshash kasb-hunar, mashg'ulot, holati va ahvoli bilan manfaatlar umumiyligi asosida birlashgan shaxslarning yirik guruhi.

«Tarbiyai atfol» — XX asr boshlarida Buxoroda yoshlarni ta'lim olishlarini qo'llab-quvvatlagan «Bolalar tarbiyasi» jamiyati.

Tashabbus — lot. initsiativa, initiative — tashabbus; qandaydir ishni boshlashga undash, ishbilarmonlik; muhokama qilish uchun takliflar berish.

Texnotronika — ingl. technetronic; Elektronikadan foydalanib jamiyatga ta'sir etuvchi texnika vositalari.

Tolerantlik — lot. chidamlilik; boshqacha fikrlashga yo'l qo'yishga imkon beruvchi alohida holat; chidamlilik.

Torilar — ingl. tory; Angliyada 17—19-asrlarda yirik yer egalari manfaatlarini ifodalagan partiya (hozirgi konservatorlar partiyasini o'tmishdoshi).

Totalitar — (lot. totalis — butun, to'la, bir butun); davlat hokimiyati organlari tomonidan jamiyat hayotining hamma sohalarini nazorat qiladigan davlat shakli, amalda konstitutsion huquq va erkinliklarni tugatilishi; bu rejimda davlat hokimiyati biron-bir guruh (siyosiy partiya) qo'lida to'planib, mamlakatda demokratik erkinliklar va siyosiy muholifatni amal qilishi uchun imkoniyatlar bo'lmaydi.

Tranzaksiya — ingl.bank transaction, yoki lot.transactio — kelishuv, shartnoma; tranzaksiya — bu sotib olishga doir shartnomani tuzish/moliyaviy vositalarni sotishga doir shartnoma. Bank tranzaksiyasi, deganda bir bank hisob raqamidan ikkinchisiga yoki bank ichidagi bir hisob raqamidan ikkinchisiga pul mablag'larini o'tkazish tushuniladi.

Transformatsiya — lot. transformatio — o'zgarish; tuzilmalarni, shakllarni va usullarni o'zgartirish, faoliyatning maqsadli yo'nalishini o'zgartirish.

Transsendent — lot. transcendens — chegaradan chiqib ketgan; tajribalar chegarasidan narida turgan, tajribalardan tashqarida bo'lgan, anglash mumkin bo'lmagan narigi olam.

Uklad — tartib, tarz; ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy tuzumning asosiy xo'jalik shakli.

Universal — lot. universalis — umumiy; keng qamrovli, hamma joyda, har tomonlama; hamma narsa uchun yaraydi.

Uchinchi sektor — dunyodagi barcha mamlakatlarda notijorat va xayriya maqsadlarida tashabbus ko'rsatayotgan va keng faoliyat yuritayotgan nodavlat notijorat tashkilotlarga (NNT) nisbatan qo'llaniladi (birinchi sektor — davlat, ikkinchi sektor — tijorat sektori yoki shaxsiy sektor deyiladi).

Utilitarizm — lot. utilitas — utila — foyda; foyda yoki naf ko'rish axloq asosi g'oyasini ilgari surgan etikadagi yo'nalishlardan biri.

Fanatizm — lot. fanaticus — jazavasi tutgan, o'z e'tiqodiga kuchli berilgan, boshqacha qarashlarga toqatsizlik bilan munosabatda bo'ladigan dunyoqarash.

Faol (aktiv) saylov huquqi — fuqaroning saylanadigan davlat organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlariga saylash huquqi.

Fashizm — lot. fascis — novdalar bog'lami, dasta; jamiyatni (millatni) kuch ishlatish, majburlash asosida birlashtirishga moyil bo'lgan oqim.

Federalizm — fran. federalism — ittifoq; federativ asoslardagi davlat tuzumi prinsipi.

Federatsiya — fran. federation — ittifoq, birlashma; qator mustaqil ma'muriy-hududiy birliklar (respublikalar, shtatlar va hokazo), yagona bir butun mamlakat va umumiy jamoaviy boshqaruv organlarini tashkil etadigan davlat tuzumi shakli.

Feminizm — lot. femina — ayol; erkaklar bilan ayollar huquqlarini tenglashtirish uchun faoliyat yuritadigan ayollar harakati.

Fiskal — ingl.fiscal policy; lot.fiscus — savat; kassa, g'azna, moliya, soliq-budjet siyosati, hukumat siyosati, yaqin istiqbolda barqaror iqtisodiy tizimni ta'minlash va biznes-sikllarni tebranishini kamaytirish maqsadida davlatning iqtisodiyotga aralashuv usullaridan biri; fiskal siyosatining asosiy quroli davlat budjetining daromadlari va xarajatlari, ya'ni: soliqlar, transfertlar va davlat sotib olgan tovarlar va xizmatlar.

Forum — lot. forum; vakillar majlisi, qurultoyi, kongressi; qadimgi Rimda xalq majlisi o'tkazilgan maydon.

Fragment — lot. fragmentum — parcha, qisqacha.

Fraksiya — lot. fractio — buzish, sinish, darz ketish; parlament a'zoligiga yoki boshqa vakillik organlariga saylangan deputatlar birlashmasi.

Funksiya — lot. functio — faoliyat, o'tash, bajarish; faoliyat, majburiyat, ish, tayinlash, burch, vazifa, topshiriq.

Fuqarolik jamiyati — u huquqiy davlatning ikkinchi tomoni bo'lib, ular bir-birlarisiz yashay olmaydi. Fuqarolik jamiyati bozor iqtisodiyoti va demokratik huquqiy davlat sharoitida davlat tasarrufida bo'lmagan erkin va teng huquqli individlar, ularning nodavlat tashkilotlari o'zaro munosabatlari hamda pluralizmidan tashkil topadi.

Xabeas korpus — lot. habeas corpus — hibsga olingan kishining sudga qamoqqa olinganligini qonuniyligini ko'rib chiqish uchun yozma ko'rsatma taqdim etish. Habeas Corpus Akt — 1679-yildagi shaxsning daxlsizligi to'g'risidagi ingliz qonuni.

Egalitarizm — fran. egalite — tenglik; umumiy tenglashtirishni jamiyatni tashkil etishning prinsipi g'oyasiga asoslangan ijtimoiy-siyosiy fikr yo'nalishlaridan biri.

Ekumenizm — lot. oecumenicus — jahon, yer yuzi; diniy konfessiyalarni birlashtirish harakati.

Elita — fran. elite — sara; yaxshi, saralangan, tanlangan.

Elektoral — lot. elector — saylovchi; saylanadigan, tanlanadigan.

Elektorat — lot. elector — saylovchi; saylovchilar.

Emissiya — fr.emission — chiqarish; pul emissiyasi — muomalaga yangi pullarni chiqarish, muomaladagi pul hajmini ko'paytirish. Emissiya naqd yoki naqd pulsiz bo'lishi mumkin.

Empirizm — yunon. emperia — tajriba; tajribani bilishning birdan bir vositasi, deb tan oluvchi ta'limot.

Empirik — empirizm tarafdori.

Yakobinchilar — fransuz inqilobi davridagi inqilobchi-demokratlar, Parij siyosiy klubi a'zolari, inqilobiy kayfiyatdagi partiya.

Yashillar — ekologik siyosatni amalga oshirish tarafdori bo'lgan, tabiiy muhitni sog'lomlashtirish va himoyalashni asosiy maqsad qilib olgan jamoatchilik harakati yoki siyosiy partiya.

O'zini o'zi boshqarish — (ingl. municipal — o'zini o'zi boshqarish); u yoki bu ma'muriy-hududiy birliklardagi aholining vakolatlarini ifodalovchi saylangan organlar va ularning ma'muriy apparati tomonidan amalga oshiriladigan mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan ishlarni boshqarishga aytiladi. O'zbekistonda o'zini o'zi boshqarish organlari tarkibiga mahalla, qishloq, ovul va shaharcha fuqarolar yig'inlari kiradi.

O'ng — siyosiy kuchlar joylashuvida jamiyatning ijtimoiy-siyosiy tuzilishini saqlanishini maqsad qilib olgan konservativ siyosiy oqim.

Harakat — ma'lum maqsadlarga erishishga yo'nalgan ijtimoy-siyosiy faoliyat; birlashma, tashkilot.

Huquq — davlat qonunlari bilan beriladigan erkinlik, harakat qilish imkoniyati, nimanidir amalga oshirish yoki nimadandir foydalanish, nimagadir egalik qilish; jamiyatdagi munosabatlarni, kishilar va ularning harakati va xulqini muvofiqlashtirish, davlat va jamiyat organlarini yashashini ta'minlashga imkoniyat berish maqsadlarida davlat tomonidan o'rnatilgan va himoya qilinadigan umum majburiy ijtimoiy me'yorlar va qoidalar.

ADABIYOTLAR

1. Qonunlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2012.

2. O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida»gi Qonuni. 1991-yil 15-fevral.// O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1991, №4, 76-modda; 2004, № 1–2,18-modda, № 5, 90-modda, 2005, №1, 18-modda.

3. O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonuni. 1993-yil 2-sentabr. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007-yil, №9, 420-modda.

4. O'zbekiston Respublikasining «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to'g'risida»gi Qonuni. 1994-yil 5-may.// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2005-yil, № 1, 18-modda.

5. «O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida»gi Qonuni. 1995-yil 22-dekabr.// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi, 2003. 5-son, 67-modda, 2004. 1-2-son, 18-modda.

6. O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi Qonuni. 1995-yil 30-avgust. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995, № 9, 178-modda; 2003-yil, № 1, 8-modda, № 9–10, 149-modda.

7. O'zbekiston Respublikasining «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi Qonuni. 1996-yil 26-dekabr. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996, № 2 (1250).

8. O'zbekiston Respublikasining «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi (yangi tahriri) Qonuni. 1998-yil 1-may. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2006, № 6, 260-modda.

9. O'zbekiston Respublikasining «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi Qonuni.1999-yil 14-aprel.// O'zbekiston

Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999, №5,115-modda, 2004, №5, 90-modda; 2007. 28.12. № O'RQ–138.

10. O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi (yangi tahriri) Qonuni.2000-yil 14-dekabr.//O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001, № 1-2, 10-modda.

11. O'zbekiston Respublikasining «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi (yangi tahriri) Qonuni. 2000-yil 26-may.// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2005, № 12, 410-modda.

12. O'zbekiston Respublikasining «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni. 2002-yil 12-dekabr.// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi, 2003, № 1, 2-modda.

13. O'zbekiston Respublikasining «Axborotlashtirish to'g'risida»gi Qonuni. 2003-yil 11-dekabr.//O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2004, № 1–2, 10-modda.

14. O'zbekiston Respublikasining «Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida»gi Qonuni. 2004-yil 30-aprel.// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, № 5 (1337), 2004.

15. O'zbekiston Respublikasining «Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) to'g'risida»gi (yangi tahriri) Qonuni. 2004-yil 27-avgust.//O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997, № 4-5, 102-modda.

16. O'zbekiston Respublikasining «Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni. 2007-yil 3-yanvar // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007, № 1, 2-modda.

17. O'zbekiston Respublikasining «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahriri). 2007-yil 15-yanvar.//O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007, № 1, 4-modda.

18. O'zbekiston Respublikasining «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy Qonuni. 2007-yil 11-aprel. // O'zbekistonda siyosiy partiyalar. — T.: Mintaqaviy siyosat jamg'armasi, 2007.

19. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2010, 51-son, 483-modda.

20.«O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi. 2012-yil 14-sentabr// http://www.senat.uz/uz/laws/urq_14.09.2012.html.

21. O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi (yangi tahriri) Qonuni// http://www.senat.uz/uz/laws/urq_22.04.2013.html.

22. O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida»gi (yangi tahriri) Qonuni. 2013-yil 22-aprel.//http://senat gov.uz/uz /laws/urq_22.04.2013-1.html.

2. Prezident asarlari

23. Karimov I.A. Asarlar to'plami. 1—21-jildlar. — T.: O'zbekiston, 1996—2013.

24. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. T. 1. — T.: O'zbekiston, 1996.

25. Karimov I.A. O'zbekiston — bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. T. 1. — T.: O'zbekiston, 1996.

26. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. — T.: O'zbekiston, 1995.

27. Karimov I.A.Istiqlol yo'li: muammolar va rejalar// O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. — T.: O'zbekiston, 1996.

28. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. — T.: O'zbekiston, 1997.

29. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. — T.: O'zbekiston, 1998.

30. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.T.7. — T.: O'zbekiston, 1998.

31. Karimov I.A. Jamiyat mafkurasi xalqni — xalq, millatni — millat qilishga xizmat etsin. T. 7. — T.: O'zbekiston, 1999.

32. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi — xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T. 8. — T.: O'zbekiston, 2000.

33. Karimov I.A. «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasiga so'z boshi. // Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. T. 9. — T.: O'zbekiston, 2001.

34. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz — jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. — T.: O'zbekiston, 2005.

35. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T. 13. — T.: O'zbekiston, 2005.

36. Karimov I.A. O'zbekiston demokratik taraqqiyotning yangi bosqichida. — T.: O'zbekiston, 2005.

37. Karimov I.A. Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar deb hisoblashar edi. — T.: O'zbekiston,2005.

38. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari — oliy qadriyat. T. 14. — T.: O'zbekiston, 2006.

39. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident Devonining O'zbekiston mustaqilligining 16 yilligiga bag'ishlangan qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. — T.: O'zbekiston, 2007.

40. Karimov I.A. Demokratik huquqiy davlat, erkin iqtisodiyot talablarini to'liq joriy etish, fuqarolik jamiyati asoslarini qurish — farovon hayot garovidir. — T.: O'zbekiston, 2007.

41. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish — barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. T. 15. — T.: O'zbekiston, 2007.

42. Karimov I.A. Vatanimiz va xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilish — oliy saodatdir. Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston liberal-demokratik partiyasining qurultoyidagi ma'ruza. — T.: O'zbekiston, 2007.

43. Karimov I.A. Asosiy maqsadimiz — yurtimizda erkin va obod, farovon hayot barpo etish yo'lini qat'iyat bilan davom ettirishdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 15 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2007-yil 8-dekabr. — T.: O'zbekiston, 2007.

44. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. — T.: Ma'naviyat, 2008.

45. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik

palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. 12-noyabr 2010-y. — T.: O'zbekiston, 2010.

46. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. — T.: O'zbekiston, 2011.

47. Karimov I.A. Amalga oshirilayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish — yorug' kelajagimizning asosiy omilidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2013-y. 7-dekabr. — T.: O'zbekiston, 2013.

48. Karimov I.A. 2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. Mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza. 2014-y. 17-yanvar. — T.: O'zbekiston, 2014.

1-mavzu bo'yicha qo'shimcha adabiyotlar:

1. Aliyev B., Hoshimov T. va boshqalar. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. Darslik. — T.: TDIU, 2007.

2. Даль Р. О демократии. Пер. с англ. — Москва: АСПЕКТ ПРЕСС, 2000.

3. Do'stjonov T., Hasanov S. O'zbekiston demokratik taraqqiyot yo'lida. — T.: Toshkent Moliya instituti, 2004.

4. Jumaev R.Z. Davlat va jamiyat: demokratlashtirish yo'lida. — T.: Sharq, 1998.

5. Коэн Л.Ж.,Арато Э. Гражданское общество и политическая теория. — Москва: Весь Мир, 2003.

6. Otamuratov S. Milliy rivojlanish falsafasi. — T.: Akademiya, 2005.

7. Шмиттер Ф. Размышления о гражданском обществе и консолидация демократии / Политические исследования, 1996, № 5.

8. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. / Mualliflar: I.Ergashev va boshq. — T.: «Navro'z nashriyoti», 2005.

9. O'zbekiston fuqarolik jamiyati sari. — T.: Sharq, 2003.

10. Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: nazariya va xorijiy tajriba. – T.: Yangi asr avlodi, 2006.
11. Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: genezisi, shakllanishi va rivojlanishi. – T.: O'zbekiston, 2010.

2-mavzu bo'yicha qo'shimcha adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Hayratul-abror. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989.
2. Beruniy A. R. Hindiston.//Asarlar. T.II. — T.: Fan. 1965; Минералогия: собрание сведения для познания драгоценностей. — Москва, 1963.
3. Bobur M.. Boburnoma. — T., 1989.
4. Komil inson haqida to'rt risola. Fors-tojik tilidan N.Komilov. tarjimasi. — T, Ma'naviyat, 1997.
5. Koshifiy Husayn Voiz. Futuvvatnomai sultoniy; Ahloqiy muhsiniy. — T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti, 2011.
6. Nizomulmulk. Siyosatnoma yoki Siyar ul-muluk. — T.: Adolat, 1997.
7. Otamuratov S. Milliy rivojlanish falsafasi. - T.: Akademiya, 2005.
8. Temur tuzuklari / Forschadan A.Sog'uniy va H.Karomatov tarj.; B.Ahmedov tahriri ostida. — T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashr., 1996.
9. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. — T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
10. O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan lavhalar. M. Xayrullayev tahriri ostida. — T.: O'zbekiston, 1995.
11. Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: nazariya va xorijiy tajriba. – T.: Yangi asr avlodi, 2006.

3-mavzu bo'yicha qo'shimcha adabiyotlar:

1. Asosiy omillar. — T.: BMTning O'zbekistondagi vakolatxonasi, 2001.
2. Вебер М. Политические работы (1895—1919). Пер. с нем. Б.М.Скуратова. — М.: Праксис, 2003.
3. Гоббс Т. Левиафан, или материя, форма и власть государства церковного и гражданского. //Соч. В 2 т.Т.2./ Пер. с лат. и англ. — М., 1991.

4. Гегель Г.В.Ф. Философия права. — М.: Мысль, 1990.
5. Даль Р. О демократии./Пер.с англ. О.А.Алякринского. — М.: АСПЕКТ ПРЕСС, 2000.
6. Islomov Z.M. Fuqarolik jamiyati: kecha, bugun, ertaga. — T.: TDYuI, 2002.
7. Коэн Д. Л., Арато Э. Гражданское общество и политическая теория. Пер. с анг.— М.:Изд-во «Весь мир», 2003.
8. Локк Дж. Сочинения: В 3 т. Т.3.-М.:Мысль 1988.
9. Монтескье Ш.Л. Персидские письма. Размышления о причинах величия и падения римлян./Пер.с фр. — М.: «КАНОН-пресс-Ц», «Кучково поле», 2002.
10. Qirg'izboev M.Fuqarolik jamiyati institutlari. O'quv qo'llanma. — T.: Akademiya, 2006.
11. Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: nazariya va xorijiy tajriba. — T.: Yangi asr avlodi, 2006.
12. Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: genezisi, shakllanishi va rivojlanishi. — T.: O'zbekiston; 2010.

4-mavzu bo'yicha qo'shimcha adabiyotlar:

1. Abulqosimov H.P., Vahobov A.V., Rahimova D.N., Norboyev V.I. O'zbekistonda iqisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish yo'llari. — T.: TDTU, 2001.
2. Otamuratov S. Milliy rivojlanish falsafasi. — T.: Akademiya, 2005.
3. Попов В. Узбекистан: экономическое чудо переходного периода// http://ecpol.ru/macroeconomics/2012-04-05-13-39-10/937-uzbekistan-ekonomicheskoe-chudo-perekhodnogo-perioda.html; Узбекистан: уроки политики диверсификации экономики//http:// ecpol.ru/ macroeconomics/2012-04-05-13-39-10/938-uzbekistan-uroki-politiki-diversifikatsii-ekonomiki.html.
4. «Узбекская модель» находит все большее признание в мире // Правда Востока, 2014, 31 января.
5. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti./ Mualliflar: I.Ergashev va boshq. — T.: «Navro'z nashriyoti», 2005.
6. O'zbekiston fuqarolik jamiyati sari. — T.: Sharq, 2003.
7. Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: nazariya va xorijiy tajriba. — T.: Yangi asr avlodi, 2006.

8. Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: genezisi, shakllanishi va rivojlanishi. — T.: O'zbekiston, 2010.

5-mavzu bo'yicha qo'shimcha adabiyotlar:

1. Булатов А.С. Экономика//http://www.be5.biz/ekonomika/e010/index.htm.

2. Модели рыночной экономики и их характеристики// http://vsempomogu.ru/ economika/econom/158-2.html.

3. Социально-экономическое развитие постсоветских стран: итоги двадцатилетия. Научное издание. — М.: ИЭ РАН, 2012.

4. Теория переходной экономики и трансформации социально-экономических систем.//http://hlp4asp. wordpress. com /2013/10/04/.

5. To'xliev N. va boshqalar. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. — T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.

6. Узбекистан: результаты социально-экономического прогресса в контексте человеческого развития// https:// www. google.com/search?q=%D.

7. «Узбекская модель» находит все большее признание в мире // Правда Востока, 2014, 31 января.

8. O'zbekiston fuqarolik jamiyati sari. — T.: Sharq, 2003.

9. Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: genezisi, shakllanishi va rivojlanishi. — T.: O'zbekiston, 2010.

6-mavzu bo'yicha qo'shimcha adabiyotlar:

1. Bo'riyeva M. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. O'quv qo'llanma. — T.: TDYuI, 2006.

2. Gafarli M.S., Kasayev A.Ch. Rivojlanishning O'zbek modeli: tinchlik va barqarorlik — taraqqiyot asosi. — T.: O'zbekiston, 2000.

3. Даль Р. О демократии. Пер. с англ. — Москва: АСПЕКТ ПРЕСС, 2000.

4. Jumaev R.Z. Davlat va jamiyat: demokratlashtirish yo'lida. — T.: Sharq, 1998.

5. Levitin L., Karlayl S. Islom Karimov — yangi O'zbekiston Prezidenti. — T.: O'zbekiston, 1996.

6. Otamuratov S. Milliy rivojlanish falsafasi. — T.: Akademiya, 2005.

7. Rahimov I., Zohidov A., Azizov Sh., Ayupov A. va boshq. Mustaqillik mafkurasi va O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy negizlari. — T.: Universitet, 2001.

8. Umarov B. G'arb ijtimoiy tafakkurida erkinlik g'oyasi takomili. — T.: Akademiya, 2010.

7-mavzu bo'yicha qo'shimcha adabiyotlar:

1. Дымченко В.И. О соотношении законности и правового государства. — СПб., 1993.

2. Inson huquqlari monitoringi. — T.: Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman), 2004.

3. Yo'ldoshev N. Jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlashning asosiy mezoni. 22.11.2013//http://navoiy.adliya.uz/navoi/uz/publikatsii/detail. php? ID=5651.

4. Mirboboyev B. O'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati tizimining rivojlantirilishi //http:// nannouz.ru/index. php? newsid = 3787.

5. Saidov A.Inson huquq va erkinliklarining muhim kafolati // Xalq so'zi, 2012, 15-noyabr.

6. Саидов А.Х. и др. Права человека. (учебник-хрестоматия). — Т.: УМЭД,2001.

7. Теоретические проблемы формирования и функционирования гражданского общества и правового государства / Под. ред. Абрамовича А.М. — Минск, 1995.

8. O'zbekiston. Inson taraqqiyoti to'g'risida ma'ruza. — T.: UNDP, 1999.

9. Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: nazariya va xorijiy tajriba. — T.: Yangi asr avlodi, 2006.

10. Huquqiy yetuklik – barkamolikka eltadi. — T.: Adolat, 2011.

8-mavzu bo'yicha qo'shimcha adabiyotlar:

1. Даль Р. О демократии. Пер. с англ.-Москва: АСПЕКТ ПРЕСС, 2000.

2. Дымченко В.И. О соотношении законности и правового государства. - СПб., 1993.

3. Inson huquqlari monitoringi. -T.: Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman), 2004.

4. Jumaev R.Z. Davlat va jamiyat: demokratlashtirish yo'lida. — T.: Sharq, 1998.

5. Levitin L., Karlayl S. Islom Karimov — yangi O'zbekiston Prezidenti. — T.: O'zbekiston, 1996.

6. Mirboboyev B. O'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati tizimining rivojlantirilishi//http:// nannouz.ru/index. php? newsid =3787.

7. Саидов А.Сравнительное правоведение: Учебное пособие / Отв. ред. В.А.Туманов. — Т.: Адолат, 1999.

8. Социально-экономическое развитие постсоветских стран: итоги двадцатилетия. Научное издание. — М.: ИЭ РАН, 2012.

9. Теоретические проблемы формирования и функционирования гражданского общества и правового государства / Под. ред. Абрамовича А.М. — Минск, 1995.

10. Франчук В.И. Социальное управление: самоуправление, менеджмент, политическое руководство. — М.: Компания Спутник, 2007.

11. Qirg'izboev M.Siyosatshunoslik. O'quv qo'llanma. — T.: Yangi asr avlodi, 2013.

12. Qoriyeva M. Mustaqillik — erkin va farovon hayot. — T.: Yangi asr avlodi, 2013.

9-mavzu bo'yicha qo'shimcha adabiyotlar:

1. Gafarli M., Kasayev A. Rivojlanishning o'zbek modeli: tinchlik va barqarorlik taraqqiyot asosi. — T.: O'zbekiston, 2001.

2. Модернизация местных администраций: сборник научных трудов. — Саратов: Поволжская академия государственной службы им. П.А.Столыпина, 2005.

3. Саидова Г. и др. Децентрализация и возможности развития человеческого потенциала // Экономическое обозрение, 2005, №1.

4. Jo'rabekova H. Nomarkazlashtirish: xorijiy tajriba va milliy jihatlari. — T.: Yangi asr avlodi, 2013.

5. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. / Mualliflar: I.Ergashev va boshq. — T.: «Navro'z nashriyoti», 2005.

6. Qirg'izboev M. Siyosatshunoslik. O'quv qo'llanma. — T.: Yangi asr avlodi, 2013.

7. Qoriyeva M. Mustaqillik – erkin va farovon hayot. — T.: Yangi asr avlodi, 2013.
8. Husanov O. Mustaqillik va mahalliy hokimiyat. — T.: Sharq, 1996.

10-mavzu bo'yicha qo'shimcha adabiyotlar:

1. Даль Р. О демократии. Пер. с англ.-Москва: АСПЕКТ ПРЕСС, 2000.
2. Inson huquqlari monitoringi. — T.: Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman), 2004.
3. Yo'ldoshev N. Jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlashning asosiy mezoni. 22.11.2013//http://navoiy. adliya. uz/navoi/uz/publikatsii/detail. php? ID=5651.
4. Levitin L., Karlayl S. Islom Karimov — yangi O'zbekiston Prezidenti. — T.: O'zbekiston, 1996.
5. Odilqoriyev X.T., G'oyibnazarov Sh.F. Siyosiy madaniyat. — T.: O'zRIIV Akademiyasi, 2004.
6. Права человека. (учебник) / Под редакцией Е.А.Лукашевой. — М. Норма-ИНФРА М, 2000.
7. Saidov A.X., Sultonov S. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va inson huquqlari. — T.: Adolat, 1998.
8. Саидов А.Х. и др. Права человека. (учебник-хрестоматия). — Т.: УМЭД, 2001.
9. Saidov A.X. Xalqaro huquq/Darslik. — T.: Adolat, 2001.
10. Саидов А.Х.Международное право прав человека. — М.: ИГП РАН, 2002.
11. Саидов А.Х. Общепризнанные права человека. — М.: МЗ ПРЕСС, 2002.
12. Huquqiy yetuklik – barkamolikka eltadi. — T.: Adolat, 2011.

11-mavzu bo'yicha qo'shimcha adabiyotlar:

1. Abulqosimov H.P. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar. — T.: Akademiya, 2008.
2. Bo'riyeva M. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. O'quv qo'llanma. - T.: TDYuI, 2006.

3. Gafarli M., Kasayev A. Rivojlanishning o'zbek modeli: tinchlik va barqarorlik taraqqiyot asosi. — T.: O'zbekiston, 2001.

4. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarish. — T.: G'afur G'ulom nomli nashriyot, 2007.

5. Levitin L., Karlayl D.S. Islom Karimov — yangi O'zbekiston Prezidenti. — T.: O'zbekiston, 1996.

6. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. / Mualliflar: I.Ergashev va boshq. — T.: «Navro'z» nashriyoti, 2005.

7. O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. — T.: Sharq, 2006.

8. Qoriyeva M. Mustaqillik — erkin va farovon hayot. — T.: Yangi asr avlodi, 2013.

12-mavzu bo'yicha qo'shimcha adabiyotlar:

1. Abulqosimov H.P. O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar. — T.: Akademiya, 2010.

2. Аристотель. Большая этика // сочинения: В 4-х т. Т.4. — Москва: Мысль, 1984.

3. Аристотель. Политика // сочинения: В 4-х т. Т.4. — Москва: Мысль, 1984.

4. Ibn Arabshoh. Temur tarixida taqdir ajoyibotlari. K.2. — T.: Mehnat, 1992.

5. Koshifiy Husayn Voiz. Futuvvatnomai sultoniy; Ahloqi muhsiniy. — T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2011.

6. Navoiy Alisher. Saddi Iskandariy: (Nasriy bayoni bilan) / Mas.muharrir Q.Tohirov. — T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birl., 1991.

7. Платон. Диалоги. — Москва: Мысль, 1986.

8. Социальная политика: Учебник. Изд. 2-е, перераб. и доп. / Под общ. ред. Н.А.Волгина. - Москва: Изд-во РАГС, 2008.

9. Temur tuzuklari /Forschadan A.Sog'uniy va H.Karomatov tarj.; B.Ahmedov tahriri ostida. — T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashr., 1996.

10. Фараби. Социально-этические трактаты. — Алма-ата: Наука, 1975.

13-mavzu bo'yicha qo'shimcha adabiyotlar:

1. Даль Р. О демократии. Пер. с англ. — Москва: АСПЕКТ ПРЕСС, 2000.

2. Zokirov S. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati sari: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari asosida. — T.: Mehnat,1999.

3. Levitin L., Karlayl S. Islom Karimov — yangi O'zbekiston Prezidenti. -T.: O'zbekiston, 1996.

4. Yunusov K.A. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo etishda nodavlat va jamoat birlashmalarining roli. (Ham-mualliflikda). Andijon. ADU. 2009.

5. Yunusov K.A. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institut-larining shakllanish va rivojlanish istiqbollari. — T.: SHARQ, 2011.

6. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti./ Mualliflar: I.Ergashev va boshq. — T.: «Navro'z nashriyoti», 2005.

7. O'zbekiston fuqarolik jamiyati sari. — T.: Sharq, 2003.

8. Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: nazariya va xorijiy tajriba. — T.: Yangi asr avlodi, 2006.

9. Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: genezisi, shakllanishi va rivojlanishi. — T.: O'zbekiston, 2010.

10. Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati institutlari. O'quv qo'llanma. — Toshkent: Akademiya, 2006.

14-mavzu bo'yicha qo'shimcha adabiyotlar:

1. Даль Р. О демократии. Пер. с англ. — Москва: АСПЕКТ ПРЕСС, 2000.

2. Jo'rayev N. Agar ogoh sen...: Siyosiy esse. — T.: Sharq, 1998.

3. Islomov Z.M. Fuqarolik jamiyati: kecha, bugun, ertaga.- T.: TDYuI, 2002.

4. Levitin L., Karlayl D.S. Islom Karimov — yangi O'zbekiston Prezidenti. — T.: O'zbekiston, 1996.

5. Местное самоуправление: теория и практика. Под общ.ред. Г.Люхтерхандт. — М.: Фонд Ф.Науманна, 1996.

6. Odilqoriyev X. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. — T.: Sharq, 2002.

7. Узбекистан на пути к гражданскому обществу - O'zbekiston: fuqarolik jamiyati sari: (Сборник статей). — T.: Shark, 2003.

8. Saidov A.H. Mahalla va o'zini o'zi boshqarish organlari: erkinlashtirish va zamonaviylashtirish // Demokratlashtirish va inson huquqlari, № 1, 2001.

9. Янг Р. Усиление роли махалли — проблемные вопросы //Демократизация и права человека, № 1, 2003.

10. Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: nazariya va xorijiy tajriba. — T.: Yangi asr avlodi, 2006.

11. Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: genezisi, shakllanishi va rivojlanishi. — T.: O'zbekiston, 2010.

15-mavzu bo'yicha qo'shimcha adabiyotlar:

1. Даль Р. О демократии. Пер. с англ. — Москва: АСПЕКТ ПРЕСС, 2000.

2. Гекерторн Ч.У. Тайные общества всех веков и всех стран. — T.: Шарк, 1994.

3. Михельс Р.. Политические партии. - Диалог, 1990, № 3, 5, 7, 9, 11, 13, 15, 17.

4. Саидов А.Х. Избирательное право в Республике Узбекистан. — T.: Узбекистан, 1993.

5. To'g'on Ahmad Zaki Validiy. Bo'linganni bo'ri yer. — T.: Adolat, 1997.

6. Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: siyosiy partiyalar, siyosiy mafkuralar, siyosiy madaniyatlar. — T.: Sharq, 1998.

7. Qirg'izboev M. Partologiya. O'quv qo'llanma — T.: Akademiya, 2007.

8. Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: genezisi, shakllanishi va rivojlanishi. — T.: O'zbekiston, 2010.

9. Qosimov B. Ismoilbek Gaspirali. — T.: 1992.

10. Qosimov B. Milliy uyg'onish. — T.: Ma'naviyat, 2002.

11. O'zbekiston: fuqarolik jamiyati sari. — T.: Sharq. 2003.

16-mavzu bo'yicha qo'shimcha adabiyotlar:

1. Альберт Фред С., Шрам Уилберг, Петерсон Теодор. Четыре теории прессы. — М.,1998.

2. Aripov A.N., Iminov T.K. O'zbekiston axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi menejmenti masalalari. — T.: Fan va texnologiya, 2005.

3.Aripov A.N.va boshq. Davlat boshqaruvida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. Umumiy tushunchalar. Jahon tajribasi. O'zbekistonda joriy etish istiqbollari. — T., 2005.

4. Гринберг А.С., Король И.А. Информационный менеджмент. —М.: Юнити-Дана, 2003.

5. Комаровский В. С. Государственная Служба и СМИ. — Воронеж. Издательство ВГУ, 2003.

6. Михайлов С.А. Современная зарубежная журналистика: правила и парадоксы. - СПб., 2002.

7. Reportyorlik faoliyatining nazariyasi va amaliyoti. /Q.T.Ernazarov va boshq.hammuallifligida. — T.: O'zMU, 2002.

8. Тоффлер Э. Третья волна // М., АСТ, 1999.

9. Черкасов Ю.М. и др. Информационные технологии управления. — М., 2001.

17-mavzu bo'yicha qo'shimcha adabiyotlar:

1. Abdurazzaqova M.A. XX asr ikkinchi yarmi jahon tarixi.- T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2000.

2. Bobobekov H va boshq. O'zbekiston tarixi. — T.: Fan, 2007.

3. Jo'rayev N., Fayzullayev T. O'zbekiston tarixi. — T.: Sharq, 2001.

4. Levitin L., Karlayl D.S. Islom Karimov — yangi O'zbekiston Prezidenti. — T.: O'zbekiston, 1996.

5. Социально-экономическое развитие постсоветских стран: итоги двадцатилетия. — М.: ИЭ РАН, 2012.

6. O'zbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob. Mustaqil O'zbekiston tarixi. — T.: Sharq, 2000.

7. O'zbekiston tarixi / R. Murtazayeva umumiy tahriri ostida. — T.: Yangi asr avlodi, 2003.

8. O'zbekiston tarixining muhim sanalari (eng qadimgi davrlardan bugungi kungacha) / Q. Rajabov va boshq.; mas'ul muharrir: I. Saidov. 3-to'ldirilgan va tuzatilgan nashri. — T.: O'zbekiston, 2010.

9. Hakimov R. O'zbekiston va Birlashgan Millatlar Tashkiloti. — T.: G'afur G'ulom, 2001.

18-mavzu bo'yicha qo'shimcha adabiyotlar:

1. Abulqosimov H.P. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar. - T.: Akademiya, 2008.

2. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarish. — T.: G'afur G'ulom nomli nashriyot, 2007.

3. Информация о торгово-экономическом сотрудничестве между Республикой Узбекистан и США // http: // www.mfer.uz/ru/international-cooperation/world-ap/us/.

4. Информация о торгово-экономических отношениях Республики Узбекистан в рамках ШОС//http://www.mfer.uz/rus/ mejdunarodnoe _sotrudnichestvo/ sotrudnichestvo_ s _reg _i_ mejd_organizaiyami/informaiya_o_torgovo_ekonomicheski_ otnosheniyax.

5. Levitin L., Karlayl D.S. Islom Karimov — yangi O'zbekiston Prezidenti. — T.: O'zbekiston, 1996.

6. Ленчук Е.Б., Власкин Г.А. Международная кооперация и инновации в странах СНГ. СПб., 2011.

7. Nazarova G.G'., Axmedov I.A., Xamidov O.B., Iminov Z.M. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar. — T.: TDIU, 2011.

8. Социально-экономическое развитие постсоветских стран: итоги двадцатилетия. – М.: ИЭ РАН, 2012.

9. O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. — T.: Sharq, 2006.

10. Qoriyeva M. Mustaqillik – erkin va farovon hayot. — T.: Yangi asr avlodi, 2013.

FOYDALANILGAN MANBALARGA OID IZOHLAR KO'RSATKICHI

[1] Karimov I.A. Amalga oshirilayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug' kelajagimizning asosiy omilidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2013-yil 7-dekabr. — T.: O'zbekiston, 2013. - B.12.

[2] Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. — T: O'zbekiston, 1997. - B.159—160.

[3] Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. 8-jild,. — T.: O'zbekiston, 2000. - B.332—334.

[4] Karimov I.A. Amalga oshirilayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug' kelajagimizning asosiy omilidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2013-yil 7-dekabr. — T.: O'zbekiston, 2013. -B.5.

[5] Karimov I.A. O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati. Xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutq. 2014-yil, 16-may.// http://www. gov.uz /uz/press/politics/ 24569.

[6] Karimov I.A.O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. // Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T. 3. — T.: O'zbekiston, 1996. - B.7.

[7] Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. — T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr., 1993. - B.189.

[8] Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. — T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr., 1993. - B.186.

[9] Qarang: O'sha joyda. - B.186.

[10] Qarang: O'sha joyda. - B.186.

[11] O'sha joyda. - B.190.

[12] O'sha joyda. - B.190.

[13] Беруни А. Р. Минералогия: собрание сведений для познания драгоценностей. — М., 1963. -С.14.

[14] Qarang: Beruniy A. R. Hindiston.//Asarlar. T.II. — T.: Fan. 1965. -B.70, 125, 161.; Минералогия: собрание сведений для познания драгоценностей. — М., 1963. -B.104.

[15] Qarang: Jakbarov M. Komil inson g'oyasi: tarixiy-falsafiy tahlil. — T.: Abu Ali ibn Sino nashr., 2000. -B.106—108.

[16] Nizomulmulk. Siyosatnoma yoki Siyar ul-muluk. — T.: Adolat, 1997. -B.17—18.

[17] O'sha joyda. -B.98.

[18] Temur tuzuklari / Forschadan A.Sog'uniy va H.Karomatov tarj.; B.Ahmedov tahriri ostida. — G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashr., 1996. -B.69.

[19] O'sha joyda. -B.70—71.

[20] O'sha joyda. -B.72.

[21] Qarang: Navoiy Alisher. Hayratul-abror. (Yaxshilar hayrati). — T.: Adabiyot va san'at nashr., 1974. -B.35—38.

[22] Qarang: Haqqulov I. «Kamol et kasbkim...». — T.: Cho'lpon, 1990. -B.80—81.

[23] Qarang: Mahmudov R. Degonimni ulusqa marg'ub et... — T.: O'zbekiston, 1992. -B.18—20.

[24] Qudratullayev H. Boburning davlatchilik siyosati va diplomatiyasi. — T.: Sharq, 2011. -B.137.

[25] O'sha joyda. -B.426—427.

[26] Qarang: Munavvar qori. Xotiralarim. — Turon tarixi. — T.: Meros, 1992. -B.17—19.

[27] Qarang: A'zamxo'jaev S. Turkiston birligi uchun. — T.: Fan, 1995 -B.4—7.

[28] Qarang: Sharipov R. Turkiston sahifasi. Jadidlar. Muxtoriyatlar. Qo'rboshilar. Uchinchi maqola. -Milliy tiklanish, 1997, 3-iyun.

[29] Qarang: O'sha joyda.

[30] Sharq mutafakkirlarining fuqarolik jamiyatining unsurlariga doir qarashlari 2-mavzuda berilgan.

[31] Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot — pirovard maqsadimiz.// Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot — pirovard maqsadimiz. T. 8. — T.: O'zbekiston, 2000. -B.331.

[32] Qarang: Аристотель. Политика. Соч. в 4-х томах. Т.4. — М.: Мысль, 1984. -С.496.

[33] Qarang: Коэн Л.Ж., Арато Э. Гражданское общество и политическая теория. — М.: Весь Мир, 2003. -С.134.

[34] Qarang: История политических и правовых учений XVII-XVIII вв. — М.: Наука, 1989. -С.60—61.

[35] Qarang: Кравченко И.И. Концепция гражданского общества в философском развитии. - Политические исследования, 1991. -С.128—130.

[36] Руссо Ж.-Ж. Об общественном договоре. Трактаты. — М.: «КАНОН-пресс», «Кучково поле», 1998. -С.139.

[37] Qarang: O'sha joyda. - С.160-162, 171,193.

[38] Кант И. Идея все общей истории во всемирно-гражданском плане. Соч. в 6-и т. Т.6. — М., 1966. -С.13-14.

[39] Гегель Г.В.Ф. Философия права. — М.: Мысль, 1990. -С.418.

[40] O'sha joyda. - B. 279 va 286.

[41] Qarang: Антология мировой политической мысли. В 5 т. Т. I. — М.: Мысль, 1997. -С.558-559.

[42] Qarang: История политических и правовых учений. — М.: ИНФРА-М, 1996. -С.470-471.

[43] O'sha joyda. -В.738, 742-743.

[44] Qarang: История политических и правовых учений. — М.: НОРМА, 2003. -С.254-256.

[45] Токвиль А. Старый порядок и революция. — М., 1991. -С.26-28.

[46] Qarang: История политических и правовых учений. — М.: ИНФРА-М, 1996. -С.483-484.

[47] Гумбольдт В. Опыт установления пределов государственной деятельности.//Антология мировой политической мысли. В 5 т.Т.I. — М.: Мысль 1997. -С.631-632.

[48] Qarang: Dettling W. The "Burgergesellshaft": Scope for Reforming the Welfare State? // Civic Engagement in the Atlantic Community. Bertelsmann Foundation Publishes Gutersloh, 1999. -R.3-5.

[49] Коэн Дж. Л., Арато Э. Гражданское общество и политическая теория. Пер. с англ. — М.: Весь Мир, 2003. -С.457-458.

[50] Мирский Н. Демократическая политика и культура демократии. // Демократия 1990-х. — Вена: Информ. агентства США, 1993. -С.8-10.

[51] Даль Р. О демократии. Пер.с анг. — М.:АСПЕКТ ПРЕСС, 2000. -С.116.

[52] O'sha joyda. -B.116-117.

[53] Qarang: Кондороши Ф. Гражданское общество на защите прав человека. // Гражданское общество и право. — М., Бюллетень №1(47) 2003. -С.17.

[54] Гол К. Гражданское общество — политическая перспектива. // Гражданское общество и право. — М., Рефератив. бюлл. № 1 (47) 2003. -С.39-49.

[55] Эдварс М., Гавента Дж. Глобальная гражданская инициатива. // Гражданское общество и право. -М., Рефератив. бюлл., № 1(47), 2003. — М.: РАГС, 2003. -С.50-53.

[56] Якоб Г. Добровольный труд в гражданском обществе. //http://zluka.isr.Lviv.ua /Files/SCI_ 66/HTM. -С.38-39.

[57] Коэн Дж. Л., Арато Э. Гражданское общество и политическая теория. Пер. с англ. — М.: Весь Мир, 2003. -С.458.

[58] Шмиттер Ф. Размышления о гражданском обществе и консолидации демократии. — Политические исследования, 1996, № 5. -С.16.

[59] Schmitter Ph. C.. «Society», in National Research Council, The Transition to Democracy: Proceedings of a Workshop (Washington, D.C.: National Academz Press, 1991). -R.16-25.

[60] Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. 2010-y. 12-noyabr. — T.: O'zbekiston, 2010. -B.41-42.

[61] Qarang: Узбекский модель// http://library.tuit.uz/skanir_knigi/book/nemu/nacional_econ_1.htm.

[62] Диденко Н.И. Экономика развития. Учебное пособие для магистров экономики. –Санкт-Петербург, 2007. -С 32.

[63] Qarang: O'sha joyda. -B.32-33.

[64] Qarang: Модели экономического развития// http://www.grandars.ru/student/mirovaya-ekonomika/modeli-ekonomiches- kogo- razvitiya.html.//http://www.nuru.ru/ek/general/002_1.htm.

[65] Арендт Х.Вирус тоталитаризма.// Изучая прошлое во имя будущего (круглый стол). — Политические исследования, № 6, 1991. -Б.165-166.

[66] Кара-Мурза А.А.Тоталитаризм — феномен XX в.? // Тоталитаризм как исторический феномен. — М., 1989.-Б.23.

[67] Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: siyosiy partiyalar, mafkuralar, madaniyatlar. — T.: Sharq, 1998. -B.110—111.

[68] Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. // Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. — T.: O'zbekiston, 1996. -B.8.

[69] Karimov I.A. O'sha joyda. -B.9.

[70] Karimov I.A.. O'sha joyda. -B.12.

[71] Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.//Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6. — T.: O'zbekiston, 1998. -B.151.

[72] Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. // Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6. — T.: O'zbekiston, 1998. -B.156—157.

[73] Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari.//Biz tanlagan yo'l — demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T. 11. — T.: O'zbekiston, 2003. -B.27—29.

[74] Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot — pirovard maqsadimiz.// Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot — pirovard maqsadimiz.T.8. — T.: O'zbekiston, 2000. -B.331.

[75] Попов В. Узбекистан: экономическое чудо переходного периода// http://ecpol.ru/macroeconomics/2012-04-05-13-39-10/937-uzbekistan-ekonomicheskoe-chudo-perekhodnogo-perioda.html.

[76] Qarang: Karimov I.A. 2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi: Mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisoiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza. — T.: O'zbekiston, 2014. -B.5.

[77] Qarang: O'sha joyda. -B.6—8.

[78] Qarang: Попов В. Узбекистан: уроки политики диверсификации экономики. 9 август 2013//http://ecpol.ru /

macroeconomics/2012-04-05-13-39-10/938-uzbekistan-uroki-politiki-diversifikatsii-ekonomiki.html.

[79] Qarang: Теория переходной экономики и трансформации социально-экономических систем.//http://hlp4asp.wordpress.com/2013/10/04/.

[80] Qarang: Булатов А.С. Экономика//http://www.be5.biz/ekonomika/e010/index.htm.

[81] Karimov I.A. Istiqlol yo'li: muammolar va rejalar// O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. — T.: O'zbekiston, 1996. -B.11.

[82] Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. // O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. — T.: O'zbekiston, 1996. -B.46-47.

[83] Karimov I.A. O'zbekiston — bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li.//O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. — T.: O'zbekiston, 1996. -B.300—301.

[84] Qarang: Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida//Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. — T.: O'zbekiston, 1996. -B.183—184.

[85] Batafsilroq qarang: Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida // Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. — T.: O'zbekiston, 1996. -B.184—189.

[86] Karimov I.A. «O'zbekiston respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990—2010-yillar) asosiy tendensiya va ko'rsatkichlari hamda 2011—2015-yillarga mo'ljallangan prognozlari» statistik to'plamiga yozilgan so'zboshi// Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish — mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir/ I.A. Karimov. — T.: O'zbekiston, 2011. T. 19. -B.324—325.

[87] Узбекистан: результаты социально-экономического прогресса в контексте человеческого развития// https:// www.google.com/search?q=%D...-C.5.

[88] Qarang: Karimov I.A.O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident Devonining O'zbekiston mustaqilligining 16 yilligiga bag'ishlangan qo'shma majlisidagi ma'ruza, 2007-yil 30-avgust // Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. T. 16. — T.: O'zbekiston, 2008. -B.5.

[89] Qarang: O'sha joyda. -B.35—36.

[90] Qarang: O'sha joyda. -B.36.

[91] Узбекистан: результаты социально-экономического прогресса в контексте человеческого развития// https:// www. google.com/search?q=%D...-C.6-7.

[92] Особенности демократии//http://iipdigital.usembassy gov/st/russian/publication/2008/11/20081114171743eaifas 0.1475794.html#axzz34IO476zj.

[93] Qarang: Философская энциклопедия, — M., 1970, T.5. -C.462.

[94] Qarang: Bo'riyeva M. O'zbekistonda demokratik jamiyat *qurish nazariyasi va amaliyoti*. O'quv qo'llanma (I qism). — T.: Toshkent yuridik instituti, 2006. -B.106.

[95] Karimov I.A. Hushyorlikka da'vat. — T.: O'zbekiston, 1999. -B.30—31.

[96] Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. — T.: O'zbekiston, 1996. -B.76.

[97] Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka *tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari*//Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida.T.6, — T.: O'zbekiston, 1998. -B. 132—133.

[98] O'sha joyda. -B.133.

[99] O'sha joyda. -B.135.

[100] O'sha joyda. -B.8.

[101] O'sha joyda. -B.8—9.

[102] O'sha joyda. -B.10.

[103] Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari//Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T. 3. — T.: O'zbekiston, 1996. -B.10—11.

[104] Karimov I.A.O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka *tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot* kafolatlari. — T.: O'zbekiston, 1997. -B.141.

[105] O'sha joyda. -B.137.

[106] Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T. 6. — T.: O'zbekiston, 1998. -B.126.

[107] Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug'ati (A.Jalolov va Q.Xonazarov umumiy tahririda). — T.: Sharq, 1998. -B.141.

[108] Karimov I.A. *O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat*, mafkura. 1-jild. — T.: O'zbekiston, 1996. -B.321.

[109] Qarang: Теоретические проблемы формирования и

функционирования гражданского общества и правового государства / Под. ред. Абрамовича А.М. — Минск, 1995.-С.120.

[110] Ромашов Р.А. Теория государства и права. Краткий курс. — М., 2007. -С.110.

[111] O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. — T.: O'zbekiston, 2012. -B.5.

[112] O'sha joyda. -B.6.

[113] O'sha joyda. -B.5.

[114] Mirboboyev B. O'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati tizimining rivojlantirilishi//http:// nannouz.ru/index. php?newsid=3787.

[115] Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz — jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir.// O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. 13-jild. — T.: O'zbekiston, 2005. -B.179.

[116] Qarang: Nabiyev I. Konstitutsiya va O'zbekiston Respublikasining sud hokimiyati.//http://www.adolatnashr.uz/index. Php/news/sections/huquq/15963.

[117] Karimov I A. O'zbekistonning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma'ruza. 1995-yil 23-fevral.// Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild. — T.: O'zbekiston, 1996. -B.10.

[118] Karimov I.A. Adolat qonun ustuvorligida. Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining oltinchi sessiyasidagi ma'ruza. 2001-yil 29-avgust.//Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. 10-jild. — T: O'zbekiston, 2002. -B.28.

[119] Karimov I.A.Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. 2010-yil 12-noyabr. — T.: O'zbekiston, 2010. -B.18—20.

[120] O'sha joyda. -B.22—23.

[121] O'sha joyda. -B.24—27.

[122] Qarang: O'zbekiston huquq-tartibot va xavfsizlikni ta'minlash sohasida AQSh va Rossiyadan o'zib ketdi// http:// kun.uz/2014/04/24/justice-2/.

[123] Karimov I.A. Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish — yorug' kelajagimizning asosiy omilidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitut-

siyasining 21 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2013-yil 7-dekabr. — T.: O'zbekiston, 2013. -B.4.

[124] O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. — T.: O'zbekiston, 2012. -B.22.

[125] O'sha joyda. -B.23-26.

[126] Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot — pirovard maqsadimiz. 8-jild. - T.: O'zbekiston, 2000. -B.483.

[127] O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. — T.: O'zbekiston, 2012. -B.16-17.

[128] O'sha joyda. -B.26-28.

[129] Qarang: Xalq so'zi, 2010, 13-mart.

[130] Qarang: Франчук В.И. Социальное управление: самоуправление, менеджмент, политическое руководство. — М.: Компания Спутник, 2007. -С.93.

[131] Лапыгин Ю.Н. Основы стратегического управления/ 2-е изд., перераб. и доп. — М.: КноРус, 2004. -С.243.

[132] Qarang: Tursunov A., Rahmonov A. Davlat hokimiyati organlarining o'zaro hamkorligi//http:/ milliy tiklanish.uz/ konsepsiya/197-2011-09-05-21-23-15.html.

[133] Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. 12-noyabr 2010-y. —T.: O'zbekiston, 2010. -B.8—10.

[134] O'sha joyda. -B.10-11.

[135] O'sha joyda. -B.12-13.

[136] O'sha joyda. -B.13—15.

[137] Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li // O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. — T.: O'zbekiston, 1996. -B.39.

[138] Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari //Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T. 6. — T.: O'zbekiston, 1998. -B.238—139.

[139] Qorieva M. Mustaqillik — erkin va farovon hayot. — T.: Yangi asr avlodi, 2013. -B.130—134.

[140] O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. — T.: O'zbekiston, 2012. -B.28.

[141] O'sha joyda. -B.28.

[142] O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to'g'risida»gi qonuni//O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992-yil, № 3, 146-modda.

[143] O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi qonuni//O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007-yil, №9, 420-modda.

[144] O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. — T.: O'zbekiston, 2012. -B.28.

[145] O'zbekiston Respublikasining «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida»gi Qonuni// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2005-yil, № 1,18-modda.

[146] O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi qonuni//O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007-yil, № 9, 420-modda.

[147] O'sha joyda.

[148] Karimov I.A.Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish — yorug' kelajagimizning asosiy omilidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 21 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2013-y. 7-dekabr. — T.: O'zbekiston, 2013. -B.22—23.

[149] Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz — jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. — T.: O'zbekiston, 2005. -B.39.

[150] Karimov I.A.Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish — ustuvor maqsadimizdir. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. 2010-yil 27-yanvar // Asosiy vazifamiz — Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. — T.: O'zbekiston, 2010. -B.25.

[151] Jo'rabekova H. Nomarkazlashtirish: xorijiy tajriba va milliy jihatlari. — T.:Yangi asr avlodi, 2013. -B.49—50.

[152] Karimov I.A.Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati.// Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. — T.: O'zbekiston, 1994. -B.187.

[153] Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug'at. — T.: Sharq, 1998. — B.225.

[154] Qarang: Бакеркина В.В. Краткий словарь политического языка. — Москва: ООО «Издательство АСТ», 2002. -С.68.

[155] Qarang: Qirg'izboev M. Fuqaro erkinligi va faolligini ta'minlash – demokratik jamiyat qurish omili // O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. Darslik. — Toshkent: Navro'z, 2005. -B.201.

[156] Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. — T.: A.Qodiriy nomidagi «Meros» nashriyoti, 1993. -B.186.

[157] Qirg'izboev M. Fuqaro erkinligi va faolligini ta'minlash – demokratik jamiyat qurish omili// O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. Darslik. — Toshkent: Navro'z, 2005. -B.201—203.

[158] O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. — T.: O'zbekiston, 2000. -B.10.

[159] O'sha joyda. -B.10—14.

[160] O'sha joyda. -B.10.

[161] Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. — T.: O'zbekiston, 1997. -B.173—174.

[162] Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. — T.: O'zbekiston, 1997. -B.181—182.

[163] Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: genezisi, shakllanishi va rivojlanishi. — T.: O'zbekiston, 2010. -B.99—100.

[164] Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: siyosiy partiyalar, siyosiy mafkuralar, siyosiy madaniyatlar. — T.: Sharq, 1998. -B.85—86.

[165] O'sha joyda. -B.85—86.

[166] O'zbekiston Respublikasining «Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) to'g'risida»gi qonuni// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-y., № 4—5, 102-modda.

[167] O'sha joyda.

[168] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2011-yil 4-maydagi Farmoni.// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2011, 19-son, 188-modda, 25-son, 254-modda, 255-modda.

[169] Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. 2010-yil 12-noyabr. — T.: O'zbekiston, 2010. -B.46.

[170] Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. — T.: O'zbekiston, 2011. -B.165.

[171] O'sha joyda. -B.384.

[172] Qarang: Karimov I.A. 2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. Mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. — T.: O'zbekiston, 2014.

[173] «O'zbekneftegaz» milliy xolding kompaniyasining joriy arxivi. «O'zbekneftegaz» milliy xolding kompaniyasining 1998—2005-yillardagi iqtisodiy ko'rsatkichlariga doir ma'lumotnoma. -B.2—3.

[174] Жалилов Т. Нефтегазовая вертикаль: взгляд из Ташкента. // Зеркало XXI, 25 мая 2011 г., или: //http: //www. zerkalo21.uz/ekonomika/.

[175] O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. — T.: O'zbekiston, 2012. -B.11.

[176] O'zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2006 yil, № 10, 536-modda.

[177] Qarang: Karimov I.A. 2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. Mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. — T.: O'zbekiston, 2014. -B.7.

[178] Karimov I.A.Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. 2010-yil 12-noyabr. — T.: O'zbekiston, 2010. B.6—7.

[179] Qarang:Karimov I.A. 2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. Mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. — T.: O'zbekiston, 2014. -B.7.

[180] O'sha joyda.

[181] Платон. Диалоги. — Москва: Мысль, 1986. -С.392-393.

[182] O'sha joyda. -B.428.

[183] Аристотель. Большая этика//сочинения: В 4-х т. Т.4. — Москва: Мысль, 1984. -С.324; Политика//сочинения: В 4-х т. Т.4. — Москва: Мысль, 1984. -С.380.

[184] Фараби. Социально-этические трактаты. — Алма-ата: Наука, 1975. -С.224,226,227 и 35.

[185] Temur tuzuklari / Forschadan A.Sog'uniy va H.Karomatov tarj.; B.Ahmedov tahriri ostida. -G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashr., 1996. -B.72.

[186] Karimov I.A. O'zbekistoning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li//O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T 1. — T.: O'zbekiston,1996.-B.47—49.

[187] Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlari//Bizdan ozod va Vatan qolsin. T.2. — T.: O'zbekiston, 1994. -B.14.

[188] Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. — T.: O'zbekiston,2009. -B.3—7.

[189] I.A.Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. — T.: Iqtisodiyot, 2009. -B.27.

[190] Qosimova G. Budjet-soliq siyosati yaxlitligi. — T.: IQTISOD-MOLIYA. 2005. -B.210.

[191] Karimov I.A. Asosiy maqsadimiz — yurtimizda erkin va obod, farovon hayot barpo etish yo'lini qat'iyat bilan davom ettirishdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 15 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2007-yil 7-dekabr.//Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. T.16. — T.: O'zbekiston,2008.-B.150.

[192] *Социальная политика*: Учебник. Изд. 2-е, перераб. и доп./Под общ. ред. Н.А.Волгина.-Москва: Изд-во РАГС, 2008. -С.13-14.

[193] O'sha joyda. -B.15.

[194] Qarang: H.P.Abulqosimov. O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar. — T.: Akademiya, 2010. -B.91—92.

[195] O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. — T.: O'zbekiston,2012.-B.9.

[196] O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi 2010, 51-son, 483-modda// http://profzdrav.uz/uz/ oficial?start=5.

[197] O'zbekiston Respublikasining «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi (yangi tahriri) qonuni// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2006, № 6, 260-modda.

[198] Qarang: Aholi farovonligini yanada yaxshilash asosiy vazifamizdir// http://minjust.uz/uz/publications/newspaper /36/ 2400/.

[199] Qarang: Karimov I.A. Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug' kelajagimizning asosiy omilidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 21 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2013-yil 7-dekabr. — T.: O'zbekiston, 2013. -B.8, 27—29, 34, 39.

[200] Qirg'izboev M: Fuqarolik jamiyati institutlari. O'quv qo'llanma. — T.: Akademiya, 2006. -B.69—70.

[201] O'zbekiston Respublikasining «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi Qonuni. — T.: Adolat, 1999. -B.11.

[202] O'sha joyda. -B.11.

[203] Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident Devonining O'zbekiston mustaqilligining 16 yilligiga bag'ishlangan qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. — T.: O'zbekiston, 2007. -B.36.

[204] Qarang: «Milliy tiklanish» gazetasi, 2011-yil 17-avgust.

[205] Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: nazariya va xorijiy tajriba. — T.: Yangi asr avlodi, 2006. -B.138—139.

[206] O'zbekiston Respublikasining «Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatlarining kafolatlari to'grisida»gi Qonuni. — T.: 2008, 10-modda. -B.8.

[207] Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda//Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. VII jild. — T.: O'zbekiston, 1999. -B.386.

[208] Qarang: «Nuroniy» jamg'armasi sayti//http://nuroniy.gov.uz.

[209] Qarang: O'zbekiston «Kamolot» YoIH joriy arxivi. Dasturiy maqsadlar amalda. -B.3—4.

[210] Qarang: O'zbekiston ekologik harakati dasturi. — T.: Chinor ENK, 2009. -B.3—4.

[211] Karimov I.A. Respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilganining 15 yilligiga bag'ishlangan tantanali yig'ilish qatnashchilariga // Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish — barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. 15-jild. — T.: O'zbekiston, 2007. -B.126.

[212] Karimov I.A. Amalga oshirilayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish — yorug' kelajagimizning asosiy omilidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2013-yil 7-dekabr. — T.: O'zbekiston, 2013. -B.21.

[213] Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. 2010-y. 12-noyabr. — T.: O'zbekiston, 2010. -B.46—47.

[214] O'sha joyda. -B.43.

[215] O'sha joyda. -B.42.

[216] Qirg'izboev M. Demokratik jamiyat shakllanishida mahalla va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari//O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. — T.: Navro'z nashriyoti, 2005. -B.259—260.

[217] Levitin L., Karlayl D. Islom Karimov — yangi O'zbekiston Prezidenti. — T.: O'zbekiston, 1996. -B.42—43.

[218] Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. — T.: O'zbekiston, 1997. -B.156.

[219] Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T.11. — T.: O'zbekiston, 2003. -B.29.

[220] Karimov I.A. Biz o'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T. 7. — T.: O'zbekiston, -1999. -B.305—306.

[221] O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. — T.: O'zbekiston, 2012. -B.29.

[222] Mahalla — o'zini o'zi boshqarish organi. — T.: Fan, 1994. -B.5.

[223] O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi (yangi tahriri) qonuni// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-yil № 5, 110-modda; 2005-yil, №1, 18-modda; 2007-yil, №9, 420-modda.

[224] Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. 2010-y. 12-noyabr. — T.: O'zbekiston, 2010. -B.45.

[225] Qarang: O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi (yangi tahriri) qonuni// http://www.senat.uz/uz/laws/urq_22.04.2013.html.

[226] O'sha joyda.

[227] O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining joriy arxivi. Senatning 2006-y. 10-avgustdagi «Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) va ularning maslahatchilari saylovining yakunlari haqida»gi qarori. -B.1.

[228] O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining joriy arxivi. Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) va ularning maslahatchilari saylovi yakunlari to'g'risida axborot. - B.3—4.

[229] Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2014-yil 15-yanvardagi № QQ-110-II qaroridan olindi//http://saylov.senat.uz/uz/archives/277.

[230] Qarang: Недель-Червинская М.А., Червинский П.П. Большой толковый словарь иностранных слов в трех томах. Т.2. — Ростов-на-Дону: Феникс, 1995. -С.413.

[231] Sartori G.Parties and Party Systems: A Framework for Analysis. Vol. 1. New York, 1976. -R. 64.

[232] Lapalambara J., Anderson J. Political Parties // Encyclopedia of Government and Politics.Vol.1.,New York,1981. -R.394.

[233] Qarang: Дегтярев А.А. Основы политической теории. — М.: Высш. шк., 1998. -С.42.

[234] Karimov I.A. Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari//Yangicha fikrlash va ishlash — davr talabi. T.5. — T.: O'zbekiston, 1997. -B.109—110.

[235] O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. — T.: O‘zbekiston, 2012. -B.12.

[236] O‘sha joyda. -B.11.

[237] O‘sha joyda. -B.12.

[238] O‘sha joyda. -B.9.

[239] Qarang: O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida»gi Qonuni (yangi tahriri). // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, № 9-10 (1329-1330), 2003. -B.9.

[240] O‘zbekiston Respublikasining «Siyosiy partiyalar to‘g‘risida»gi Qonuni. // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, № 2 (1250), 1997. -B.12.

[241] O‘sha joyda. -B.15.

[242] O‘zbekiston Respublikasining «Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to‘g‘risida»gi Qonuni.//O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, № 5 (1337), 2004. -B.32—33.

[243] O‘zbekiston Respublikasining «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida»gi Konstitutsiyaviy Qonuni //O‘zbekistonda siyosiy partiyalar. — Toshkent: Mintaqaviy siyosat jamg‘armasi, 2007. -B.243—247.

[244] Karimov I.A.Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma’ruza. 2010-yil 12-noyabr. — T.: O‘zbekiston, 2010. -B.12.

[245] Karimov I.A. Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish — yorug‘ kelajagimizning asosiy omilidir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. 2013-yil 7-dekabr. — T.: O‘zbekiston, 2013. -B.24.

[246] Народно-демократическая партия Узбекистана//http://www.12news.uz/news/2013/12/14/%d0%ba%...

[247] O‘zbekiston XDP Dasturi. — T., 2012. -B.2—5.

[248] O‘zbekiston «Adolat» sotsial-demokratik partiyasining ustavi. — T., 2011. -B.3—4.

[249] Социал-демократическая партия Узбекистана «Адолат» //http://www.12news.uz/news/2013/12/14/ %d 0%ba%...

[250] O‘zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasining nizomi va dasturi. — T.: 2012. -B.2.

[251] O'zbekiston «Fidokorlar» milliy demokratik partiyasi dasturi. - Fidokor, 1999, 11-fev.

[252] Qarang: O'zbekiston «Fidokorlar» milliy demokratik partiyasining saylovoldi harakat dasturi. — T.: G'.G'ulom nomli nashr., 2004. -B.19—20.

[253] O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. — T.: O'zbekiston,2012.-B.14.

[254] Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. 2010-y.12-noyabr. — T.: O'zbekiston, 2010. -B.28.

[255] Qarang: Политические коммуникации. Учеб. пособие. — М.: Аспект Пресс, 2004. -Б.29.

[256] Qarang: Дедов А. Политические технологии в средствах массовой информации//http://al-dedov.narod.ru/politica.htm#_Тема.-С.2.

[257] Qarang: Швидунова А. СМИ как субъект политического процесса и инструмент политических технологий. http://society.polbu.ru/shvidunova_smi/ch02_i.html.

[258] СМИ и коммуникации // http://rusweb.narod.ru/library/politolog/index.htvl. -С.3-4.

[259] O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. — T.: O'zbekiston., 2012. -B.13.

[260] O'sha joyda. -B.8.

[261] Qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot xizmati joriy arxivi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-y. 3-iyuldagi «Ommaviy axborot vositalarini boshqaruvini takomillashtirish» to'g'risidagi Farmoni. -B.1—2.

[262] Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz — jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. // O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T.13. — T.: O'zbekiston, 2005. -B.190.

[263] Qarang: O'sha joyda. -B.190—194.

[264] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori. 2012-yil 21-mart. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012-y., 13-son, 139-modda.

[265] Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. 2010-yil 12-noyabr. — Toshkent: O'zbekiston, 2010. -B.28.

[266] Qarang: O'sha joyda. -B.33.

[267] Qirg'izboev M. Siyosatshunoslik. O'quv qo'llanma. — T.: Yangi asr avlodi, 2013. -B.440—443.

[268] O'sha joyda. -B.444—448.

[269] Obidov B. Axborot xavfsizligini ta'minlash – taraqqiyotning muhim omili. 17.04.2014.// http://uza. uz/ oz/tech / elektront-ukumat-ulai-va-khavfsiz-17.04.2014-31853.

[270] Zamonaviy OAV va internet: yangi media imkoniyatlar. 08.07.2014.//http://gov.uz/uz/press/society/25477.

[271] Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. — T.: O'zbekiston, 1992. -B.24.

[272] O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. — T.: O'zbekiston, 2012. -B.6.

[273] Qarang: O'sha joyda. -B.23.

[274] Karimov I.A.O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li // O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. — T.: O'zbekiston, 1996. -B.51—52.

[275] Qirg'izboev M. Siyosatshunoslik:oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. — T.: Yangi asr avlodi, 2013. -B.508.

[276] Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. — T.: O'zbekiston, 1998. -B.8.

[277] O'zbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob. Mustaqil O'zbekiston tarixi // Tuzuvchilar: N.Jo'rayev, T.Fayzullayev. — T.: Sharq, 2000. -B.501.

[278] Hakimov R. O'zbekiston va Birlashgan Millatlar Tashkiloti. — T.: G'afur G'ulom, 2001. -B.16.

[279] Bobobekov H va boshq. O'zbekiston tarixi (qisqacha ma'lumotnoma). — T.: Fan, 2007. -B.432.

[280] Hakimov R. O'zbekiston va Birlashgan Millatlar Tashkiloti. — T.: G'afur G'ulom, 2001. -B.17.

[281] O'sha joyda. -B.6.

[282] O'zbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob. Mustaqil O'zbekiston tarixi // Tuzuvchilar: N.Jo'rayev, T.Fayzullayev. — T.: Sharq, 2000. -B.502.

[283] BMTni bilasizmi? — T.: BMTning O'zbekistondagi vakolatxonasi, 2000. -B.3—4.

[284] BMTning taraqqiyotga ko'maklashish dasturlari//United Nations Development Strategy. Publications// www.un.org/organisations/compositions.

[285] Jo'rayev N., Fayzullayev T. O'zbekiston tarixi. — T.: Sharq, 2001. -B.314.

[286] O'sha joyda. -B.319.

[287] O'sha joyda. -B.320.

[288] Qarang: Yevropa Ittifoqi O'zbekistonni qo'llab-quvvatlaydi/ /http://vatandosh.uz/2014/05/20/ europeunion/.

[289] O'zbekistonning MDH faoliyatidagi ishtiroki// http://www.mfa.uz/uz/cooperation/international/204/.

[290] Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. — T.: O'zbekiston,1998. -B.29.

[291] To'laganov Sh. O'zbekiston — Qozog'iston: jug'rofiy qo'shni, tarixan qon-qardosh, ittifoqdosh, hamkor.// http://sharh.uz/ munosabat/item/509-kazakstan-astana-hamkor.

[292] O'zbekiston — Turkmaniston: do'stlik va ahil qo'shnichilik rishtalari mustahkamlanmoqda.19.10.2010//http://www. api. uz/ news/info/country/792/.

[293] Узбекистан — Туркменистан: По пути дальнейшего укрепления дружбы и сотрудничества //http://cemc.uz/ article/ 2012/.

[294] Узбекско — Кыргызские отношения//http://uzbekistan.kg/uzkyr.php.

[295] Узбекистан и Кыргызстан провели совместные антитеррористические учения//http://www.trend.az/regions/ casia/ uzbekistan/2258835.html.

[296] Узбекистан и Таджикистан обсудили перспективы развития двусторонних отношений//http:// www. trend. az/ regions/ casia/uzbekistan/2298565.html.

[297] Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari//Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6. — T.: O'zbekiston, 1997. -B.241—242.

[298] Karimov I.A. O'zbekiston — bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li// O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. — T.: O'zbekiston, 1996. -B.333—334.

[299] O'sha joyda. -B.336—339.

[300] Qarang: O'zbekiston Respublikasining «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi (yangi tahriri) Qonuni//O'zbekiston

Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2005-yil, № 12, 410-modda.

[301] Qarang: O'zbekiston Respublikasining «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi (yangi tahriri) Qonuni//O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2005-yil, № 12, 410-modda.

[302] Qarang: Karimov I.A.Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. 2010-yil 12-noyabr — T.: O'zbekiston, 2010. -B. 47—48,53.

[303] Информация о торгово-экономическом сотрудничестве между Республикой Узбекистан и США//http: //www.mfer.uz/ru/international-cooperation/world-map/us/.

[304] Qarang: Республика Узбекистан — исследовательский проект журнала "Политическое образование"//http:// lawinrussia ru/node/298417.

[305] Qarang: Информация о торгово-экономическом сотрудничестве между Республикой Узбекистан и Францией// http://www.mfer.uz/rus/mejdunarodnoe_sotrudnichestvo/sotrudnichestva_ s_zarubejnimi_stranami/evropa_i amerika /franciya/

[306] Информация о торгово-экономическом сотрудничестве между Республикой Узбекистан и Российской Федерацией/ /http://www.mfer.uz/ru/international-cooperation/world-map/ru.

[307] O'zbekiston — Janubiy Koreya biznes-forumi.17.07.2009./ /http://www.anons.uz/uz/index.php?article=314&cat = economics &mod=article.

[308] Узбекистан — Южная Корея: новый этап сотрудничества//Экономика, 2014, 1 мая.

[309] Manzurova N. O'zbekiston va Yaponiya ishbilarmonlari uchrashuvi// http://www.uza.uz/oz/business/zbekiston-va-yaponiya-ishbilarmonlari-uchrashuvi.

[310] Информация о торгово-экономических отношениях Республики Узбекистан в рамках Шанхайской организации сотрудничества//http://www.mfer.uz/rus/mejdunarodnoe_sotrudnichestvo/sotrudnichestvo s_reg i_mejd organizaiyami informaiya_o torgovo ekonomicheskix _otnosheniyax.

[311] Qarang: Укрепляя внешнеэкономические связи//Правда Востока, 2013, 21 февраля.

[312] Итоги первого полугодия 2014 года в цифрах//http:/ /stat.uz/press/1/8609/.

[313] Karimov I.A. Amalga oshirilayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug' kelajagimizning asosiy omilidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza.2013-yil 7-dekabr. —T.:O'zbekiston,2013.-B.7 va 13.

O'quv adabiyoti

Siyosiy fanlar doktori, professor
M.Qirg'izboevning umumiy tahriri ostida

O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH NAZARIYASI VA AMALIYOTI

Muharrir	**Sh. Bo'tayev**
Musahhih	**B. Tuyoqov**
Rassom	**Sh. Xo'jayev**
Kompyuterda sahifalovchi	**M. Zoyitova**

Nashriyot litsenziyasi AI № 170. 23.12.2009.
Bosishga ruxsat etildi 01. 10. 2014. Bichimi 60x84$^{1}/_{16}$.
Ofset qog'ozi. Times Uz harfida terildi. 24,4 nashr t.
25,5 shartli b.t. Adadi 2000 nusxa.
Buyurtma № 177.

«Navro'z», nashriyoti, Toshkent sh. A.Temur ko'chasi, 19-uy.

«SAYDANA-PRINT» MChJ bosmaxonasida bosildi.
Toshkent sh. Qamarniso k., 3-uy. Tel.: +99891 162-08-43.

ISBN 978-9943-381-55-1